

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARHOD MATMURODOV

MA'MURIY MENEJMENT

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etgan

Matmurodov F.M. Ma'muriy menejment. O'quv qo'llanma. TAQI, 2007 y. 201 bet.

Qo'llanmada makroma'muriy tizim menejmenti va nodavlat tuzilmalar tahlil etilgan. Davlat hokimiyati, davlat boshqaruv va xo'jalik boshqaruv organlarining tizimining nazariy, amaliy va huquqiy jihatlari keng bayon etilgan. Ma'muriy personal sonini miqdoriy asosi keltirilgan va ularga sarflanadigan harajatlarni maqbullashtirish shartlari mavjud. Qonunchilik hokimiyati faoliyatini amaliy-huquqiy asoslari tavsiflangan.

В пособии сделан анализ менеджмента макроадминистративной системы и негосударственных структур. Широко объяснены теории, практических и правовых сторон системы органов государственной и хозяйственной власти. Приведены количественные основы единицы административных персоналов и для них существует обязательная оптимизация расходуемых затрат. Представлены практические и правовые основы деятельности законодательной власти.

There the management of system and not state structures is analyzed in the manual. The theories, practical and legal parties of system of bodies' state and facility bodies of authority are widely explained. The quantitative bases of unit of the administrative personals are given and them exists of obligatory optimization of spent expenses. The practical and legal bases of activity of legislative authority are submitted.

Ushbu o'quv qo'llanmadan iqtisodchi talabalar va menejment fani o'qituvchilari hamda turli boshqaruv tuzilmalari menejerlari va iqtisodiyot amaliyoti mutaxassislari foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

- 1.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d. Zaynutdinov SH.N.
- 2.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, i.f.n. Qosimova D.S.

Ushbu o'quv qo'llanmani Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5.340.200 – Menejment (tarmoq bo'yicha, 3.06.06 o'quv kursi) ta'lim yo'nalishi bakalavrlariga o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan.

Mundarija

Kirish	bet 5
1 bob. Makroma'muriy tizim menejmenti va nodavlat tuzilmalar	
1.1.Makroiqtisodiy tartibga solish tizimida byudjetlararo o'zaro munosabatlarni roli	8
1.2.Ma'muriy islohotning maqsadi – inson taraqqiyoti	8
1.3.Davlat hokimiyati markaziy organlarining vazifalarini o'zgartirish va qisqartirish – gorizontal markazsizlashtirish hamda davlat vazifalarini va ijroiya hokimiyati tarkibini optimallashtirish	10
1.4.Elektron hukumatni joriy qilish – davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vositasi sifatida	
1.4.1.Elektron hukumat-davlat boshqaruvini isloh qilishni tezlashtirish, oydinligini ta'minlash va markazsizlashtirish vositasi sifatida	12
1.4.2.O'zbekistonda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni davlat boshqaruv tizimiga joriy etish	14
1.5.Davlat va iqtisodiyot sohalarida ma'muriy menejment apparatini optimallashtirish	17
1.6.Ma'muriy boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari	18
1.7.Xorijda ma'muriy menejment tajribasi	20
1.8.Nodavlat tuzilmalar	
1.8.1.Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini o'tkazish jarayoni	21
1.8.2.Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlarini rivojlantirish	25
1.8.3.Nodavlat, notijorat tashkilotlari (NNT)ni ma'muriy boshqaruv va jamiyat taraqqiyotidagi uchun roli	27
2 bob. Davlat hokimiyati, davlat boshqaruv va xo'jalik boshqaruv organlarining tizimi faoliyati	
2.1.Vertikal markazsizlashtirish va davlat hokimiyatining mahalliy organlari salohiyatini mustahkamlash	29
2.2.Joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini tahlili	30
2.3.Vertikal ma'muriy tuzilmalar va uni gorizontal tarmog'ini mustaqil tuzilmalarni shartnomaviy boshqaruviga yoki tartibga solishiga almashtirish jarayoni	34
2.4.Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining tuzilmalarga birlashtirilishi va qisqartirilishi	35
2.5.Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarish	36
2.6.Ma'muriy hududlarni iqtisodiy imkoniyatlarini baholashning bozor tomoyillari statistikasida aks ettirish	37
2.7.Toshkent shahar va tuman hokimliklari, bosh boshqarma, boshqarma, korxona va tashkilotlarda O'zR Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat va shahar hokimi qarorlarining bajarilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi	
2.7.1.O'zR Prezidentining farmonlari, qarorlari, Hukumat va Toshkent shahar hokimining qarorlari bajarilishini tashkil qilish tartibi	38
2.7.2.O'zR Prezidentining farmonlari, hukumat va Toshkent shahar hokimi qarorlari bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi	40
2.8.Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish, ularni tayyorlash, hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi	41
2.9.Aktsiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aktsiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi	45
2.10.Davlat hokimiyati hududiy organlari boshqaruvi tashkiliy tuzilmasi	47
2.11.O'zR qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati	53
2.12.Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar	

faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi	64
2.13.AQSH kompaniyalarining savdo sirlari – axborotlarini maxfiyligini himoyalash amaliyoti	67
3 bob. Ma'muriy personal menejmenti	
3.1.Zamonaviy mutaxassisning professional ahamiyatli belgisi sifatida boshqarishga qobiliyati va qabul qilinadigan qarorlarning jinsga, yoshga va ma'lumotga ta'siri	74
3.2.Yuqori turuvchi rahbar mas'ulligi, xodimlarni boshqarishda o'z-o'zini baholash va muzokaralar samarasini oshirishning ushlari	82
3.3.Boshqaruv xodimlari sonini tartibga solish va ularga sarflanadigan harajatlarni maqbullashtirish chora-tadbirlari	90
3.4.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining lavozimlari ro'yxati va ushbu xodimlar soni nisbatining me'yorlarini belgilash qo'llanmasi	
3.4.1.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining lavozimlari	91
3.4.2.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatining me'yorlarini belgilash qo'llanmasi	94
3.4.3.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar sonining nisbati hisoblangan me'yorlari	101
3.5.Davlat xizmatiga personal tanlovi va boshqarish uslubi	102
3.6.Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda attestatsiyaning ahamiyati va turlari	104
3.7.Davlat organlarining yoki ushbu organlarning mansabdor shaxslarini noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirish tartibi	106
4 bob. Qonunchilik hokimiyati faoliyati	
4.1.Oliy majlisni yuqori palatasi: Senatning faoliyati	110
4.2.Oliy majlisni quyi palatasi: Qonunchilik palatasini faoliyati	113
4.3.Prokuratura organlari faoliyati	117
4.4.Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyati	118
4.5.Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi, uning shakllantirish manbalari va boshqaruvi	124
Adabiyotlar	127
Glossariy	129
Ilovalar	131
Davlat hokimiyati organlarini tashkiliy tuzilmalari	
O'zbek davlatchiligining 2700 yillik tarixida faoliyat ko'rsatgan rasmiy sulolalar ro'yxati	
O'zbek davlatchiligining tarixi: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fan, diplomatik munosabatlar va ma'muriy boshqaruv:	
Ilk davlatchilikning asos topishi va o'zbek davlatchiligining miloddan avvalgi tarixi	
O'zbek davlatchiligi milod boshidan islomgacha bo'lgan davrda	
O'zbek davlatchiligi X-XIII asrlarda	
O'zbek davlatchiligi Amir Temur va temuriylar davrida	
O'zbek davlatchiligi XVI-XIX asrlarda	
Rasmiy ish yuritish hujjatlari: ma'lumot-axborot va xizmat yozishmalari	

Kirish

Inson taraqqiyotini ta'minlash qiyin muammo ekanligi bois, bu jarayonga funktsional aloqador barcha tuzilmalarning keng aralashishi va sherik-hamkor bo'lishi talab qilinadi. Bunday yondoshuvning asosiy maqsadi butun mamlakat, mintqa va hududlar aholisi, oilalar hamda har bir fuqaro turmush farovonligini yaxshilash uchun sharoit va imkoniyat yaratishdir.

O'zbekistonda yuzaga kelgan amaliyotga ko'ra, bizda «yuqoridan - pastga» harakat shakli ko'p tarqalgan. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi va dasturiy choralari respublika miqyosidagi organlar tomonidan belgilanadi va hududiy bo'g'inlarga uzatiladi. Bu yerda ular mahalliy o'ziga xosliklardan kelib chiqqan holda konkretlashtiriladi, to'ldiriladi va bajarish uchun quyi hududiy ijro organlariga tushiriladi. Ya'ni bunda hukumat – vazirlik-idora, viloyat hokimliklari - shahar, tuman hokimliklari - mahallalar - fuqarolar tarzida ish ko'riladi.

Shunday qilib, o'zaro aloqa jarayonining uch miqyosini ajratib ko'rsatish mumkin:

-respublika miqyosi, bunda davlat hokimiyati va oliy bosqichdagi boshqaruv organlari, vazirlik va muassasalar, nodavlat va jamoat tuzilmalarining birgalikdagi harakatlari asosida inson taraqqiyoti bo'yicha umumdavlat choralarini amalga oshirish siyosati, strategiyasi, ustivor jihatlari va mexanizmlari (ijtimoiy normativlar, kafolatlar va boshq.) ishlab chiqiladi. Ularning bajarilishi mamlakat hududidagi barcha tuzilmalar uchun majburiy.

-mintqaviy miqyos, bunda viloyat hokimligi va boshqaruv organlari tuman (shahar) organlari (hokimliklar) hamda boshqa tuzilmalarni jalb etgan holda: a) birinchi miqyosda tayyorlanayotgan qaror loyihalari bo'yicha taklif kiritadilar; b) ular qabul qilingandan keyin takliflarni konkretlashtiradilar, mahalliy o'ziga xoslik va imkoniyatlardan kelib chiqib to'ldiradilar, qarorlarda o'rtaga qo'yilgan maqsadga yetish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadilar va qabul qiladilar.

-mahalliy miqyos, bunda tegishli hududda aholi turmushini ta'minlash, farovonlikni yaxshilashga erishish choralari amalga oshiriladi.

Mavjud amaliyotni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu masalalarda birinchi miqyosdagi tuzilmalarning o'zaro aloqasi yaxshi yo'lga qo'yilgan va ikkinchi miqyosdagi aloqalar ham qoniqarli tashkil etilgan. Bunda hamkorlik aloqalari, odatda, mahalliy miqyosdagi yuqori shahobcha – tuman-shahar hokimliklari va ularning funktsional bo'linmalarini qamrab olish bilan cheklanadi. Bu jarayonlarga birlamchi bo'g'inning ko'p sonli tuzilmalari, nodavlat tashkilotlari va oilalar salohiyati jalb etilmay qolyapti.

O'zR Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi hamda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» gi farmonlari O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Sohibqiron Amir Temurning "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi bo'lgan, azmi qat'iy, tadbirkor na xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir", -degan hikmatining bugun ham nihoyatda dolzarb ekanini barchamiz anglab turibmiz.

Hayotiy tajriba va kundalik turmushimizdan olingan achchiq saboqlar asosida aytishimiz mumkin: har qanday rahbarlik mansabiga ko'tarilgan odamni sinaydigan og'ir imtihonlardan biri - uni o'rab oladigan xushomadgo'y, laganbardorlarning soxta maqtovidan odamiylik, insoniy qiyofasini yo'qotmasdan chiqishidir.

Xalqimiz odamni sinamoqchi bo'lsang, unga amal berib ko'r, deb bejiz aytmagan. Rahbarning kundalik ishini tashkil etish quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1.Ertalab: matbuotni va keltirilgan xat-xabarlarni qarab chiqish, tashqi va ichki hisobotlarni ko'zdan kechirish, mas'ul xodimlar bilan birgalikda muhim va dolzarb masalalarni muhokama qilish, ayni vaqtda, barcha muhim qarorlarqi qabul qilish va ularni bajarish muddatlarini belgilash (ular yozma ravishda, juda qisqa tarzda qayd etilishi kerak).

2.Kunduz kuni: tashqi olam bilan muomalada bo'lishi, kengash, majlis, konferentsiya va seminarlarda qatnashish, mehnat jamoalariga, ko'rgazmalarga tashrif buyurish;

3.Joriy ish vaqtida:

a)o'z xodimlari bilan aloqada bo'lishi;

b)taqdimot, spektakl prem'eralari na kinofilmlarni borib ko'rish taklifi tushadigan bo'lsa, apparat yoki ma'muriyat rahbari bunga, albatta, quloq solishi yoki asosli ravishda yozma shaklda e'tiroz bildirishi kerak. Aks holda, yuqori rahbar tomonidan tegishli jazo choralari qo'llanishi

mumkin. Bunday rahbarlik tizimi tasodifiy bo'lmagan qo'yilgan vazifalarga g'oyatda mos kelishi, tashqi muhit bilan samarali o'zaro ta'sirga kirishib, xodimlarning kuch g'ayratini samarali va maqsadga muvofiq taqsimlash, qo'yilgan maqsadlarga oqilona yo'l bilan erishish imkonini berishi lozim.

Apparat ishini, mehnatini ilmiy asosda tashkil etish zarur. Bu har bir xodimning o'z vazifalarini to'liq va samarali bajarishini ta'minlasin. Bu jihatdan boshqaruvning tashkiliy tizimlari bo'lgan analogiyalarni, ekspert tahlilini, maqsadlarni tartibga solishni, tashkiliy andozalashtirish, idoraviy va ijtimoiy nazoratni loyihalashtirishning samarali usullaridan mohirona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda qadriyatlar, taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari tubdan o'zgarganligi, inson omilining ahamiyati beqiyos darajada ortib ketganligini hisobga olgan holda apparat ichidagi munosabatlar qanchalik samimiy va sog'lom bo'lsa, davlat xizmatining obro'si va mavqesi shunchalik tez o'tishini ko'rsatish mumkin. Demak, har bir rahbar eng maqbul demokratik uslubni egallashi kerak. Bu usul hozirgi zamon davlat xizmatining yetakchi yo'nalishlaridan biri ekanligini aniq bilib olishi, faqat shu asosdagina qabul qilinadigan qarorlarning yuqori samara berishiga erishish mumkinligini tushunib yetishi lozim.

Ma'muriy menejment korxonaning istiqbol maqsadi va imkoniyatini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usulidir. Boshqacha qilib aytganda, *ma'muriy menejment strategik maqsadni* amalga oshirishga yonaltirilgan boshqaruv faoliyatidir. Ma'muriy boshqaruv usulining paydo bo'lishi va amaliyotga qo'llanilish zaruriyati ob'ektiv sabablar bilan bog'liq bo'lib, bunda eng avvalo, korxonaga ta'sir qiluvchi tashqi muhitning o'zgaruvchanligi muhim o'rin tutadi. *Bu usulning rivojlanishi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.*

Ijroni nazorat qilish asosida boshqarish usuli. Bu bosqichda korxonada o'zgarishlarga nisbatan aks ta'sir voqea sodir bo'lgandan so'ng yuzaga keladi. Bu reaktiv moslashuv bo'lib, zamon bilan birga qadam tashlamaydigan rahbarlarga xos. Ammo tez sur'at bilan sodir bo'ladigan o'zgarishlar sharoitida bunday usul hech ham qo'l kelmaydi.

Ekstropolyatsiya asosida boshqarish usuli. Bunda o'zgarish sur'ati tezlashadi. Ammo istiqbolni faqat o'tgan davr o'zgarishlari tendentsiyasiga asoslanib ekstropolyatsiya qilish yo'li bilan belgilash mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida bu usul ham unchalik qo'l kelmaydi. Chunki bozor iqtisodiyoti kelajakni o'rganishni, oldindan bozorni o'rganib, keyin mahsulot ishlab chiqarishni talab etadi.

O'zgarishlarni oldindan bashorat qilish asosida boshqarish usuli. Bu usul o'zgarishlar sur'ati tezlashib, kutilmagan hodisa sodir bo'lishini nazarda tutib ishlab chiqilgan strategiyani belgilash yordamida amalga oshiriladi. Bu bozor iqtisodiyotiga mos boshqarish usuli bo'lib, ishlab chiqarishni marketing asosida tashkil etishni talab etadi.

Shoshilinch ixcham qarorlarni qabul qilish asosida boshqarish usuli. Bunday usul bozor talablariga javoban korxona faoliyatini tezkorlik bilan o'zlashtirish lozim bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bugun bozor munosabatlari barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelayapti. Bunday sharoitda turli-tuman vazifalar favqulotda paydo bo'lishi tabiiy. Ular faqat uzoqni ko'zlamagan holda rejalashtiriladi va boshqarish amalga oshiriladi. Bu usul, ayniqsa korxona muayyan inqirozga uchraganda ayrim muammolarga duch kelganda qo'l keladi.

Ma'muriy menejmentda asosan istiqbol rejasiga ahamiyat berish kerak. Uning juda muhim va zarurligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- korxonaning aniq maqsadini belgilashga va shakllantirishga imkon beradi;
- korxonaning tashqi muhitiga moslashishga yordam beradi;
- samarali boshqarish tarkibi va tizimini yaratishga imkon yaratadi;
- korxona tarkibidagi barcha bo'g'inlar faoliyatini muvofiqlashtirishga sharoit tug'diradi;
- korxonaning barcha resurslarini, ya'ni ishchi kuchi, aylanma mablag' va asosiy fondlarning samarali taqsimotini ta'minlaydi va hokazo. Korxona maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yuzasidan batafsil, har tomonlama puxta ishlab chiqargan strategik reja.

Ma'muriy menejment kursining predmeti ma'muriy islohotlar, boshqaruv amaliyoti va nazariyasi, turli hokimiyat organlarining faoliyatini tahlil qilishdir. Ushbu kurs ma'lumotlar tahlili, grafik va nazariy-amaliy usulardan foydalanib shakllangan. O'quv kursini jamiyat, davlat va xo'jalik organlari faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan ma'lumotlarni o'rganish vazifalari hisoblanadi.

A.T.To'xtaboev muallifligida tayyorlangan «Ma'muriy menejment» o'quv qo'llanmasida ma'muriy menejmentning o'ziga xos xususiyatlari, burch va vazifalari uning texnologiyasi va

funktsiyalari, rahbarlik uslublari va madaniyati, ma'muriy-tashkiliy loyihalarni rejalashtirish, xodimlar va rahbarlar faoliyatini tashkil etish masalalari yoritilgan.

Abdurahmonov Q.A. va boshqalar tomonidan tayyorlagan «Davlat xizmati personalini boshqarish» nomli o'quv qo'llanmasida davlat xizmatining nazariy muammolari, muayyan nazariy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlarda kadrlar menejmentining o'ziga xos ko'nikmalarini hosil qilish, bu borada o'z mahoratini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga doir nazariy-amaliy masalalar o'z echimini topgan.

Ushbu qo'llanmada quyidagi savollar yoritilgan:

- makro ma'muriy tizim menejmenti va nodavlat tuzilmalar;
- davlat hokimiyati, davlat boshqaruv va xo'jalik boshqaruv organlarining tizimi faoliyati;
- ma'muriy personal menejmenti;
- qonunchilik hokimiyati tizimining asoslari.

1 bob. Makroma'muriy tizim menejmenti va nodavlat tuzilmalar

Tayanch iboralar: ma'muriy islohot,elektron hukumat, nodavlat tuzilmalar, rasmiy hujjatlar.

1.1.Makroiqtisodiy tartibga solish tizimida byudjetlararo o'zaro munosabatlarni roli

Jahon xo'jaligining taraqqiyoti yo'nalishidagi xalqaro moliyaviy integratsiya natijasida mamlakatlarning mustaqil pul kredit siyosatini amalga oshirish uchun imkoniyatlar cheklanishiga olib kelayotgan bir sharoitda soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy boshqarishning asosiy instrumentiga aylanmoqda.

Byudjet munosabatlarini barqarorlashtirishda vakolat va majburiyatlarni markazlashtirish g'oyasi tarafdorlari yana shuni ta'kidlaydilar, mahalliy hududlar iqtisodiyotidagi mustahkam integratsiya (savdo munosabatlariga va ishlab chiqarish omillarining harakatlanuvchanligiga nisbatan) ularning daromad va harajatlarning o'zgarishi yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi, byudjet munosabatlari barqarorlashtirishining bosh instrumenti multiplikatsiya samarasi pasayishiga olib keladi, deb ta'kidlaydilar.

Mazkur yondashuv davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning nomonetar instrumentlari mavjud bo'lmagan holda defitsit bilan pul massasining o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik hisobiga muvofiqlashtiriladigan kapitallar bozori zaif rivojlangan mamlakatlarda o'zini oqlaydi.

Taniqli iqtisodchi E.Gramlikomning fikricha, byudjet-soliq siyosatiga hududiy tabaqalashtirilgan tadbirlarga ehtiyoj sezuvchi sezilarli hududiy farqlarga ega bo'lgan yirik mamlakatlarda makroiqtisodiy tub o'zgarishlar turli hududlarda har xil oqibatlariga olib kelishi mumkin. Uning fikri asosida makroiqtisodiy tartibga solishda byudjetning muhim roliga tayangan holda markaziy hukumatga byudjet munosabatlarini tartibga solishdagi bosh vakolatning berilishi o'zining to'laqonli samarasiga ega bo'lishi mumkin. Faqatgina, turli hududlar uchun byudjet resurslarini taqsimlashda qator ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarga qattiq rioya qilish lozimligi e'tirof etiladi. Bu mexanizm o'tish davrida kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli yuqori bo'lgan davrda o'zini oqlashi mumkin.

Davlat byudjeti harajatlarning sezilarli qismini mahalliy byudjetlarga berilishi makroiqtisodiy boshqaruv uchun markaziy hukumat tomonidan sezilarli harajatlarni amalga oshirishni ham vujudga keltiradi. Hatto, agar mahalliy boshqarish idoralarining soliq undirish va kredit olish bo'yicha vakolatlari cheklangan holatda ham, harajatlarni o'sishi samarali ta'minlangan sharoitda ham, harajatlarning strukturasi o'zgarishi yalpi talabga ta'sir qiladi va markaziy hukumat tomonidan o'rnatilgan barqarorlashtirish maqsadlari uchun ziddiyatli bo'lishi mumkin. Masalan, harajatlarning import ulushi yuksak bo'lgan moddalar foydasiga o'zgarsa shunday ta'sir o'z o'rniga ega bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning balanslashtirilgan o'sishi harajatlarning o'rtacha multiplikatori daromadlarning o'rtacha multiplikatoridan oshib ketish holatida yalpi talab darajasini o'sishiga va to'lov balansi yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Harajatlarning taqsimlanishidan farqli ravishda soliqqa tortish bo'yicha vakolatlar davlat boshqaruvining turli darajalarida taqsimlanishi mezonlari aniqlanishida makroiqtisodiy boshqarish va daromadlar taqsimlanishida aniq ziddiyatlar vujudga kelmaydi. Ammo ularning faoliyat samarasi, boshqaruvchilik qudrati ko'p jihatdan ular ixtiyoridagi moliyaviy mablag'larga bog'liqdir.

Shunga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, markaziy hukumat byudjetiga quyidagi sifat belgilariga ega bo'lgan soliqlar kelib tushishi lozim:

- tez harakatlanadigan soliqqa tortish bazasidan undiriladigan soliqlar. Bunday soliqlar ta'sirida resurslar taqsimlanishining samaradorligi pasayishiga olib keluvchi ishlab chiqarish omillari hududiy joylashuvining oldi olinadi;

- daromadning o'zgarishiga nisbatan yuqori darajadagi elastik bo'lgan soliqlar;

- hududlar bo'yicha yyetarli darajada teng taqsimlanmagan soliqqa tortish bazasidan undiriladigan soliqlar markaziy hukumat byudjetining daromad manbai bo'lishi lozim.

1.2.Ma'muriy islohotning maqsadi – inson taraqqiyoti

Iqtisodiy o'tish davrini boshidan kechirayotgan aksar davlatlarda sifatli davlat boshqaruvi (korruptsiyaga qarshi kurashish, qabul qilinayotgan qarorlarning shaffofligini oshirish, davlat va xizmat vazifalari sifatini yuksaltirish) jamiyatning barcha a'zolari orasida adolatli taqsimlanayotgan

iqtisodiy o'sish, shuningdek, qashshoqlikni kamaytirish va inson salohiyati rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga erishishning zarur vositasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda 2004 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'muriy islohot ham shu maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, markazsizlashtirish uning bir yo'nalishidir. Bu bosqichdagi davlat boshqaruvini markazsizlashtirishdan maqsad - davlat xizmatining qonuniy-me'yoriy bazasini modernizatsiya qilish, unda zamonaviy tartibotlarni joriy etib inson resurslarini rivojlantirish, davlat organlarining o'zaro va fuqarolik jamiyati institutlari - fuqarolar, biznes, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan munosabatlarining butun tizimini takomillashtirishdan iborat.

Buning natijasi o'laroq, qabul qilinayotgan qarorlar hamda o'tkazilayotgan siyosatning oydin va maqbulligini ta'minlovchi samarali hamda boshqariluvchan davlat ma'muriyati yaratilishi kerak. Bu esa, o'z navbatida daromad barqarorligini ta'minlashi va inson salohiyatini kengaytirishi lozim.

Galdagi tahlil, ishning bir qismida markazsizlashtirish hamda uning inson taraqqiyotiga ta'siri iqtisodiy yo'nalishda, ya'ni bozor munosabatlarini rivojlantirish, xususiylashtirishni jadallashtirish va xususiylashtirishning turli shakllarini kengaytirish jihatidan ko'rib chiqilgan bo'lsa, navbatdagi qismida markazsizlashtirish klassik, ya'ni davlat-huquqiy ma'nosida - vazifa, huquq, vakolatlar va majburiyatlarni davlat hokimiyati markaziy organlaridan («Markaz»dan) davlat boshqaruvining mahalliy organlariga, davlat boshqaruvining tarmoq organlariga, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga topshirish nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

O'zbekistondagi ma'muriy islohotlarning asosiy yo'nalishlari: «Boshqaruv tizimini isloh qilish, bizning nazarimizda, shunday yo'nalishda amalga oshirilmog'i kerak? Va biz bu islohotlardan qanday amaliy natijalarni kutayapmiz?

Birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini keskin cheklash, davlatning boshqaruv tuzilmalari va ularning vazifalarini qisqartirish, davlat boshqaruv organlarini saqlab turishga sarflanayotgan harajatlarni kamaytirish. Davlat vazifalari va vakolatlari tobora ko'proq jamoat, nodavlat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga o'tishi kerak. Lekin bu vazifalar shunchaki nomiga, xo'jako'rsinga bo'lmay, ularni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmlari yaratilmog'i hamda aniq manbalari belgilab qo'yilmog'i darkor.

Ijroiya hokimiyatining davlat organlari tasarrufida saqlab qolinadigan vazifalaridan kelib chiqqan holda, ularni bajarishning aniq tartib-qoidalarini ishlab chiqish zarur. Bu tartib-qoidalar davlat organlari hamda davlat xizmatchilarining majburiyatlarini qat'iy belgilab berishi, ularning faoliyatini amaliy baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratishi lozim.

Ikkinchidan, boshqaruvni markazsizlashtirish, ayrim vazifalarni esa hududiy boshqaruv bo'g'inlariga keng ko'lamda topshirish, ortiqcha ma'muriy vertikal tuzilmalarni tugatish zarur. Barcha darajadagi hokimliklarning islohotlarni amalga oshirish, joylardagi ishlarning ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, bandlik muammolarini yechish hamda aholi turmushini farovonlashtirish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish lozim.

Tabiyki, bunda bozor iqtisodiyoti tamoyillariga so'zsiz rioya etilishi va ularning bajarilishini ta'minlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Aks holda, ma'muriylashtirishdan voz kechish o'rniga, uni shunchaki boshqaruv tizimining quyi bo'g'inlariga o'tkazib qo'yishdek nomaqbul holat yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ayrim tarmoq va hududiy boshqaruv tuzilmalarini qayta tuzish, birlashtirish, qisqartirish va tugatish asosida iqtisodiyotni boshqarish tuzilmalarining samaradorligini ta'minlash. Bugungi kunda nafaqat ayrim bo'g'inlarni, balki qilinayotgan sarf-harajatlarni deyarli oqlamayotgan ayrim idoralarni ham saqlab qolish qay darajada maqsadga muvofiq, degan masalani qayta ko'rib chiqish payti keldi. Chunki ularga qilinayotgan sarf-harajatlarni amalda o'zini oqlamayapti.

To'rtinchidan, boshqaruv tizimining samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish. Qarorlarni tayyorlash va qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmini joriy etish.

Vazirlik va xo'jalik birlashmalarining mavjud boshqaruv shakli, usul va metodlarini ma'muriy buyruqbozlikdan xalos qilish, ularning korxonalar xo'jalik faoliyatiga aralashib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy mustaqilligini cheklashiga yo'l qo'ymaslik uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Beshinchidan, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, keraksiz hisobotlarni va qog'ozbozlikni qisqartirish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish hisobidan uning samaradorligini oshirish.

Ma'muriy islohotlarni amalga oshirishda biz oldimizga qo'yayotgan eng asosiy vazifa bu: birinchidan, davlat, jamoat va xo'jalik sub'ektlarini boshqarishning butun tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirishni ta'minlash, ikkinchidan esa, ularni mamlakatni isloh va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichi talablariga mos holatga keltirishdan iborat».

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vazifalari davlat funktsiyalarini tartibga solishni talab qiladi.

1.3.Davlat hokimiyati markaziy organlarining vazifalarini o'zgartirish va qisqartirish – gorizontol markazsizlashtirish hamda davlat vazifalarini va ijroiya hokimiyati tarkibini optimallashtirish

Ma'muriy islohot asnosida o'tkazilgan tadbirlar doirasida hukumat komissiyasi davlat boshqaruvi organlari funktsiyalarini qayta belgilab chiqdi. Bu bir xil vazifalarni bajarayotgan organlarni aniqlash va bu holatni bartaraf etish, boshqaruv organlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvni cheklash va davlat hokimiyati organlari diqqatini ularning o'z chegaralangan vazifalarini yanada sifatliroq bajarishga qaratish maqsadida amalga oshirildi.

Natijada, 2004 yildan boshlab:

- ilgari davlat boshqaruvining turli funktsiyalarini bajargan 27 davlat boshqaruv organi va xo'jalik birlashmalari qisqartirildi;
- boshqa xo'jalik birlashmalari davlat boshqaruvi vakolatlaridan mahrum qilindi;
- boshqaruv apparatining oliy bo'g'ini sezilarli darajada qisqartirildi (vazir maqomiga ega 20 lavozim va vazir o'rinbosari maqomidagi 80 lavozim);
- ma'muriy-boshqaruv funktsiyalarini bajargan 40 ming nafarga yaqin davlat xizmatchisi shtati qisqartirildi.

O'ta haridorgir tovarlarning ba'zi turlarini markazlashgan holda taqsimlash tizimini bartaraf qilish maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqib tasdiqlanadigan balanslar soni ikki baravar qisqartirildi, bu esa resurslarning cheklangan holda taqsimlanishini bartaraf etadi, ularni realizatsiya qilish har qanday markazlashgan taqsimlashlarsiz tobora kengroq miqyosda birja va auktsionlar orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladi, demakdir.

Ayni paytda qo'yilgan qadamlar hali ma'muriy islohotning boshi. Iqtisodni tartibga solishning yanada samaraliroq davlat tizimini yaratish, davlat hokimiyatining ijroiya organlari va bozor institutlari faoliyati sohalarining yanada aniq bo'linishi, ijroiya hokimiyati funktsiyalari va tarkibini chuqur tahlil qilish uchun uni bundan keyin yanada takomillashtirishning kontseptual asosini ishlab chiqish zarur.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vazifalari davlat funktsiyalarini tartibga solish yuzasidan quyidagi muhim qadamlarni qo'yish orqali yuzaga chiqadi:

- mutlaqo davlatga tegishli funktsiyalarni aniqlash;
- ortiqcha funktsiyalardan voz kechish;
- bu funktsiyalarni bajarish uchun optimal ijroiya hokimiyati tarkibini aniqlash;
- davlat organlari faoliyatining jamiyat uchun samarali mexanizmlarini joriy qilish.

Yangilangan davlat organlari faoliyati asoslari - ularning vakolati, javobgarligining tartib va chegaralari kabilar qonunan belgilanishi buning asosiy shartlaridan biridir.

Mutlaqo davlatga taalluqli funktsiyalar qatoriga umummilliy manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan va ta'minlash harajatlari bu funktsiyalarni bajarmaganlikdan kelib chiqadigan ijtimoiy talofatlardan kam bo'lgan funktsiyalar kiradi. Shu talabga javob bermaydigan funktsiyalar keraksiz sanalib, hisobdan chiqarilishi kerak.

1.1-jadval

Mamlakatlarning markazsizlashtirilishi aholi turmush darajasiga ta'siri			
Ijobiy	Qisman ijobiy	Qisman salbiy	Salbiy
Boliviya	Xitoy	Paragvay	Gvineya
Filippin	Janubiy Afrika	Braziliya	Mozambik
Hindiston (Garbiy Bengaliya)	Meksika	Nepal	Malavi
	Gana	V'etnam	Andxra-Pradesh (Hindiston shtati)
		Misir	Madxiya-Pradesh (Hindiston shtati)
		Shri Lanka	
		Efiopiya	

		Burkina Faso	
		Uganda	

Har bir konkret funktsiya uchun konkret muassasa yoki uning bo'linmasi, konkret masalani hal qilish uchun esa alohida davlat xizmatchisi javob berishi kerak. Davlat organlari funktsiyalarini konkretlashtirish ularni bajarishning sifat yoki miqdor indikatorlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu faoliyatni nazorat qilishga, rag'batlantirishning ishlaydigan mexanizmini yaratish maqsadida qilindi. Shu bilan bog'liq ravishda, islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri - funktsional boshqaruvga o'tish jarayonini faollashtirish hamda davlat boshqaruvi tizimining tarmoq tuzilishidan voz kechishdir. Amaliyotning ko'rsatishicha, ko'plab tarmoq boshqaruv organlarining mavjudligi byudjet mablag'ining «talab ketilishi»ga, korruptsiyaning ildiz otishiga olib keladi, boshqarma va ma'murlarni foydali natija keltirmaydigan sohta vakolatlar yaratishga rag'batlantiradi. Davlat organlari ob'ektlarni emas, balki jarayonlarni boshqarishlari lozim. Shu munosabat bilan ko'pchilik tarmoq vazirliklarini va organlarini asta-sekin va bosqichma-bosqich funktsional mahkamaga aylantirish ko'zda tutiladi, bu esa davlat boshqaruvi sifatini yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Respublikadagi 53 komissiya ishi ham jiddiy takomillashtirishga muhtoj. Ularning aksar a'zolari bu komissiyalarga jamoatchilik asosida qo'shilgan yuqori lavozimli shaxslardir. Komissiyalarning faoliyati vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki boshqarmalari yoxud Vazirlar Kengashi funktsiyalari bilan kelishadi. Ko'plab komissiyalar o'z qarorlari (bayonnomalari) orqali davlat boshqaruv organlari funktsiyalarini bajaryaptilar, holbuki institutsional jihatdan bu ko'zda tutilmagan. Shu bilan birga, komissiyalar ishining mazmuni va texnika ta'minoti bilan ko'pincha vazirlik va boshqarmalar yoki Vazirlar Mahkamasi apparati shug'ullanadi. Bu komissiyalarning ko'pchiligi muqobil hududiy komissiyalarga ham ega, ularning faoliyati ham xuddi respublika komissiyalari kabi shunday mushkulliklarga ega.

Qayta aniqlangan funktsiyalarga ko'ra vakolat berilgan ijroiya hokimiyatining isloh qilingan organlari faqat ular faoliyatining o'zaro aloqa va koordinatsiya tizimi yangilangan hamda davlat organlari va ularning xodimlari faoliyat yuritishi reglamentatsiya qilingan hamda joriy etilgan sharoitdagina samarali faoliyat yuritishi mumkin.

Bunda hukumatning eng muhim qarorlari hujjati loyihalarini yanada chuqurroq ishlab chiqish mexanizmini joriy etish katta o'rin egallaydi. Mexanizm hujjatning ko'p variantli kontseptsiyasini ishlab chiqish, uning ekspertlar, shu jumladan, mustaqil ekspertlar orasida muhokama qilinishini o'z ichiga olishi kerak. Hujjat loyihasini sifatli iqtisodiy va yuridik ishlab chiqishni, hukumat qarorlarining bajarilishi va nazorat qilinishi mexanizmini ta'minlash zarur. Shuningdek, real moliyalashtirish manbalari bo'lmagan hukumat qarorlarini qabul qilish amaliyotidan ham voz kechish kerak.

Ma'muriy va xizmat reglamentlari davlat boshqaruv organlari va ular xodimlarining tartibi va mumkin bo'lgan harakat variantlarini aniq belgilab beradi va bu bilan o'zboshimcha qaror chiqarish imkonini cheklab, hokimiyat organlari faoliyatini nazorat qilish uchun asos yaratadi. Ularni joriy qilish mahkamalarning o'zaro aloqa jarayonini optimallashtiradi va ular faoliyatini jamiyat uchun oydinlashtiradi. Elektron shaklda bajarilgan reglamentlar amalda kundalik hayotda foydasiz bo'lgan zamonaviy xizmat instruktsiyalari va boshqarmalar haqida qoidalardan farqli ravishda amaliy foyda keltirishi mumkin bo'lgan boshqaruv instrumentlarga aylanishi mumkin. Ularning ishlab chiqilishi alohida boshqaruv jarayonlarini unifikatsiyalash va standartlashtirish imkonini beradi hamda davlat organlarini funktsional va operatsion printsipga ko'ra qurish uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, davlat o'z boshqaruv organlari orqali xolis hakam pozitsiyasini egallashi, tadbirkorlik faoliyatining mustaqil rivojlanishi uchun sharoit yaratishi va aksincha, iqtisodiy maydonda faol o'yinchi roldan voz kechishi hamda fuqarolar, xo'jalik sub'ektlari va jamiyatning homiysiga aylanib qolmasligi kerak.

Davlat o'z boshqaruv organlari orqali xolis hakam pozitsiyasini egallashi, tadbirkorlik faoliyatining mustaqil rivojlanishi uchun sharoit yaratishi va aksincha, itisodiy maydonda faol o'yinchi roldan voz kechishi hamda fuqarolar, xo'jalik sub'ektlari va jamiyatning homiysiga aylanib qolmasligi kerak.

1.4. Elektron hukumatni joriy qilish – davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vositasi sifatida

1.4.1. Elektron hukumat-davlat boshqaruvini isloh qilishni tezlashtirish, oydinligini ta'minlash va markazsizlashtirish vositasi sifatida

Sodda qilib aytganda, «elektron hukumat» - davlat boshqaruvida hukumat ishining samaradorligi va hisobotlilikini oshirish, uning fuqarolar uchun qo'li yetarliligini ta'minlash maqsadida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishdir. Elektron hukumatning yaratilishi:

-Hukumatning qaror qabul qilishda ochiq-oydinligi va hisobotlilikini hamda shu orqali korruptsiya xavfini pasaytirishni;

•Axborot olish erkinligini oshirishni (qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik va boshqa axborotlar);

•Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hayotida keng qatnashuvini;

•Kichik va o'rta biznes chiqimlarini kamaytirishni ta'minlaydi.

Ammo axborot texnologiyalarini joriy qilishning o'zi hali davlat boshqaruvi samaradorligi oshganligini anglatmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash hatto davlat boshqaruv organlari faoliyatining yaxshilanishiga xizmat qilmasligi ham mumkin. Ko'pincha, yangi kompyuterlar sotib olib, lokal hisoblash tarmoqlari o'rnatib va kompyuterlarni internetga ulab bo'lib, davlat muassasalari rahbarlari bu vositalarning qanday qilib xodimlar va butun tashkilot ishining samaradorligini oshirishi mumkinligini yaxshi tasavvur qila olishmaydi.

AKTni joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish jarayoniga xizmat qilishi uchun u davlat boshqaruvini isloh etishga qaratilgan yanada kengroq o'zgarishlarning bir qismi bo'lishi zarur. Bu o'zgarishlar davlat organlari faoliyatining ochiq-oydinligini oshirish, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarligini kuchaytirish, fuqarolarni qaror qabul qilish jarayoniga kengroq jalb qilish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Bularsiz, kompyuter va boshqa texnika vositalarini sotib olish hamda ishchilarni ulardan foydalanishga o'rgatish sarf-harajatlari ular ishida hech qanday sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi.

Markazsizlashtirish va elektron hukumat. Davlat boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonlariga va o'z navbatida jamiyatga ko'rsatilayotgan davlat xizmati sifatini oshirishga xalaqit berayotgan omillar orasidan AKTni joriy etish orqali ularning salbiy ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf qilish mumkin bo'lganlarini ajratish qiyin emas. Ular davlat boshqaruvi mintaqaviy va mahalliy organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati haqida axborot tanqisligi;

- davlat boshqaruvi tizimining markaziy, viloyat, tuman, shahar organlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va aks axborot va boshqaruv aloqalarining tezligi pastligi;

- boshqaruv organlari va fuqarolar o'rtasida axborot taqdim qilish tizimi va axborot kanallarining yo'qligi;

- biznes va fuqarolarga davlat xizmatini «kontaktsiz asosda» taqdim etish imkoniyatining yo'qligi (elektron aloqa kanallari orqali).

AKTni davlat boshqaruvi tizimiga joriy qilish zarurligi bugun hech kimda shubha tug'dirmaydi. AKTni davlat boshqaruvi sohalariga joriy qilishning samaradorligi va foydasini quyidagi jihatlarida ko'rib chiqish mumkin:

-davlat xizmatchilari faoliyatining texnik darajasi bo'yicha. Bu mehnat unumdorligining oshishi va ish jarayoni chizimlarining pasayishiga, shuningdek, ular faoliyatining tashkiliy madaniyatning yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

AKTni joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish jarayoniga xizmat qilishi uchun u davlat boshqaruvini isloh etishga qaratilgan yanada kengroq o'zgarishlarining bir qismi bo'lishi zarur.

-tashkiliy ishlar texnologiyalarini, demak, boshqaruv qarorlarini tayyorlash, qabul qilishni tubdan takomillashtirish bo'yicha. Gap ish jarayoni sifatini boshqarish: ish jarayonida rejalashtirish, monitoring va resurslar (ishchi kuchi, moliya va boshqalar) sifatini nazorat qilish kabilar haqida ketyapti.

-o'zaro axborot almashish asnosida qiyin kompleksli muammolar yuzasidan tez va sifatli qaror qabul qilish imkonini beruvchi muassasalararo aloqa darajasini oshiruvchi mexanizm sifatida. Bu hukumatda strategik aloqalar yaratish imkonini beradi: turli hokimlik darajalari, vazirlik, muassasalar va hukumat axborot bazalari bog'lanadi. Bu esa uning ishini yonaltiruvchi strategiya va siyosatni amalga oshirishda hukumatning tadqiqot, rivojlanish salohiyatini kuchaytiradi.

-vakolatlar va resurslarni taqsimlovchilardan joylarda bevosita faoliyat yuritayotgan ijrochilarga berish vositasi sifatida, ya'ni boshqaruvni markazsizlashtirish shakli;

-davlat boshqaruvi organlari tomonidan biznes va fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmati sifatini oshirish vositasi sifatida. Elektron kanallar orqali biznes-muhit va fuqarolar bilan aloqa qilayotgan davlat organlari nafaqat xizmat ko'rsatish operativligini oshirishlari, balki korrupsiyani ancha qisqartirishlari mumkin.

Mazkur afzalliklar rivojlangan davlatlarni AKT davlat boshqaruvi organlari faoliyatining barcha sohalariga yoyish bo'yicha keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirishga, ya'ni elektron hukumatni yaratishga undadi.

Elektron hukumat yaratishda eng ilgarilab ketgan davlat bu AQSH va Buyuk Britaniyadir, iqtisodi o'tish pallasida turgan davlatlar orasida esa eng yaxshi natijaga Estoniyada erishilgan. Bu davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, elektron hukumatni joriy qilish - davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ular faoliyati ochiq-oydinligini ta'minlash, fuqarolar uchun qo'l yetarlilikka erishish, shuningdek, markazsizlashtirish va davlat hokimiyati organlari faoliyati monitoringini amalga oshirish yo'llaridan biridir.

Elektron hukumatni joriy etishning to'g'ridan-to'g'ri samarasi hukumat ishining yanada unumdorligiga erishish, davlat haridlari, soliqlar va boj to'lovlarini yig'ish kabi sohalarida fuqarolar, ayniqsa, olis qishloq yerlarda yashayotganlar bilan ochiq-oydin va davomli aloqada bo'lish asosida bu sohalarida harajatni sezilarli darajada kamaytirish kabilarni ichiga oladi

Elektron hukumat barpo etishning ijtimoiy qaltis jihatlari

Davlat boshqaruvi tizimi uchun

1.Axborot tarmoqlari ortishi maxfiy ma'lumotlarning chetga chiqib ketishi;
2.Davlat organlari axborot tizimlari faoliyati barqarorligini buzuvchi viruslar tomonidan shikastlanish

3.Qimmatbaho texnika va texnologiyalardan unumsiz foydalanish

4.Davlat boshqaruvi turli darajalari texnik va texnologik jixozlanish darajasidagi uzilish sababli vertikal bo'yicha (markaz-mintaqa) qabul qilinayotgan qarorlar darajasi va sifatining pasayishi

Davlat xizmatchilari uchun qaltisliklar

1.Foydalanilayotgan tashkiliy texnikaning davlat xizmatchilari sog'lig'iga salbiy ta'siri

2.Hamkasblar va aholi bilan shaxsiy muloqot malakasining boy berilishi.

Jamiyat uchun qaltisliklar

1.Biznes faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish imkoniyatlarining kengayishi (ko'p qator davlat organlarining korxonalar faoliyatiga faol aralashuvida hosil bo'ladi);

2.Fuqarolarning hayotini axborot jihatidan nazorat qilish imkoniyatlarining kengayishi, fuqarolar va umuman jamiyat hayotiga aralashuv;

3.Axborot tarmoklariga ijtimoiy manfaatlarga katta zarar etkizishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarni kiritish (jamiyat uchun og'ir oqibatlariga olib keluvchi yolg'on ma'lumotlarni tarqatish);

4.Jamiyatning elektr va kommunikatsiya tarmoqlari barqaror ishlashiga bog'liq bo'lib qolishi (ularning ommaviy ishdan chiqishi jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy hayoti tuxtashiga olib kelishi mumkin).

Elektron hukumat barpo etishning ijtimoiy ijobiy jihatlari

1.Xavfsizlik tizimlari yaratish (qushimcha qaltislik- moliyaviy harajatlarning ortishi);

2.Davlat boshqaruvi funktsiyalari oldindan (elektron hukumat joriy qilingunga qadar) optimallashtirish mumkin.

3.Davlat xizmatchilari malakasini oshirish;

4.Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlar yaratish;

5.Turli boshqaruv darajalari texnik jixozlanishini sinxronlashtirish (qo'shimcha qaltislik-bir vaqtdagi yuqori harajatlar);

6.Ishchilar mehnatini qo'riqlash va soglig'ini muhofaza qilish bo'yicha ko'shimcha choralar;

7.Axborot texnologiyalaridan fuqarolarning xususiy hayotiga aralashishda foydalanishni qonun tomonidan jinoiy javobgarlikka tortishgacha ta'qiqlash;

8.Vaqt va moddiy resurslar kam foydalanishi hisobiga harajatlarning qisman kamayishi;

9.Jamiyatga katta zarar etkizishi mumkin bo'lgan yolg'on ma'lumotlarga qarshi tez javob berish tizimlarini yaratish;

10.Rezerv tarmoqdar, quvvatlar, xavfsizlik tizimlari yaratish.

Elektron hukumatning bilvosita samarasi esa qarorlar qabul qilishda shaffoflik va hisobotlilik, korruptsiyaga qarshi kurashda samarali yo'llar topilishi, mahalliy elektron madaniyatning paydo bo'lishi va demokratiyaning kuchayishida aks etadi.

Elektron hukumat metodlarini to'g'ri joriy qilish orqali davlat boshqaruv strukturasida bo'sh bo'g'inlarni aniqlash, ortiqcha funktsiya va tuzilmalarni «qidirib topish» hamda bartaraf etish mumkin bo'ladi. Obrazli qilib aytganda, elektron hukumat davlat boshqaruvida kechayotgan barcha ichki jarayonlarni aks ettiruvchi ko'zgudir.

AKTdan davlat boshqaruvida foydalanish printsiplari. Tajribaning ko'rsatishicha, AKTni joriy etish bilan birga kechadigan ma'muriy islohotning asosiy printsiplari quyidagilar bo'lishi kerak:

- hukumatning AKTdan davlat va jamiyat aloqalari tizimini nazorat qilish uchun emas, balki vaqtida va maqbul tarzda tartibga solishda foydalanishi: Chunki nazorat qilgandan ko'ra, jarayonning oldini olgan ma'qul;

- fuqarolar va jamiyatning xususiy hayotiga aralashmaslik. AKTning joriy etilishi xususiy mulkning saqlanishi va xavfsizligini ta'minlashi kerak;

- boshqaruv tizimi va funktsiyalarini oldindan isloh qilish, bunda AKT davlat boshqaruvi tizimining bir qismi bo'lib, uning samarali va optimal faoliyat yuritishi uchun xizmat qiladi;

- davlat boshqaruvi tizimini markazsizlashtirish, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali markazsizlashtirishga bo'lgan kuchli siyosiy iroda.

Elektron hukumat metodlarini to'g'ri joriy qilish orqali davlat boshqaruv strukturasida bo'sh bo'g'inlarni aniqlash, ortiqcha funktsiya va tuzilmalarni qidirib topish hamda bartaraf etish mumkin.

1.4.2.O'zbekistonda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni davlat boshqaruv tizimiga joriy etish

Mavjud vaziyat va asosiy muammolar. Elektron hukumatning tarkibiy qismi bo'lgan AKTning joriy etilishi ham hukumat, ham jamiyat tomonidan ma'lum darajada tayyorgarlikni talab qiladi. Hukumat va jamiyatning «elektron hukumat» joriy qilishni boshlashga tayyorlik darajasini bilish uchun quyidagi oddiy savollarga javob berish kerak:

- jamiyat axboriy jamiyat qurish uchun AKTni joriy etish zarurligini tushunib yetganmi? U o'zgarishlarga tayyormi?

- hukumat «elektron hukumat»ga aylanishi uchun yetarli siyosiy irodaga egami?

- elektron hukumat tizimidan foydalanishdagi qaltisliklarni bartaraf etish uchun xavfsizlik tizimlari yaratilganmi?

- axboriy jamiyatning barpo etilishi mintaqaviy, submintaqaviy va xalqaro hamkorlikka qay tarzda ko'maklashadi, markazsizlashish jarayonlarini tezlashtiradimi?

- hukumat muassasalarining fuqarolar bilan qaysi munosabatlarini elektron tijorat faoliyati shakllariga aylantirishi mumkin? Bu oydin bo'lmagan davlat buyurtmalari berish tartibini shaffof davlat elektron buyurtmalari tartibiga almashtirishni ham ko'zda tutadi;

- jamiyatda elektron texnikadan foydalanish ehtiyoji qanchalik, bu ehtiyoj jamiyat ko'pchilik a'zolarining kompyuter savodxonligiga erishishi uchun yetarli rag'bat uyg'otadimi?

- kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari raqobatli bozorini yaratish uchun yetarli shart-sharoit bormi? Jamiyatning texnik jixozlanishi yetarli darajadami?

2001 yilda ilk marotaba O'zbekistonning AKTni keng joriy etishga tayyorgarligini baholash amalga oshirilgan edi va u mazkur muammoni yanada chuqurroq tahlil etish uchun asos bo'ldi. Bu tadqiqotlar mamlakatda AKT rivojlantirish davlat dasturi, AKT rivoji bilan bog'liq bo'lgan bir qancha yangi qarorlarni o'zida jamlagan qonunlar chiqarish yo'lida o'ziga xos debocha bo'lib xizmat qildi.

Ularning asosiylari quyidagilar:

- 2006 yilning 1 yanvariga qadar barcha bojxona to'lovlaridan to'liq ozod qilish orqali kompyuter texnikasi va uning tuzuvchi qismlarini olib kelish uchun qulay bojxona rejimini yaratish;

- barcha turdagi o'quv muassasalari - maktab, kollej, litseylar va OO'YUni kompyuter texnikasi bilan bosqichma-bosqich jixozlash uchun byudjet mablag'i ajratish;

- mahalliy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar uchun qulay soliq va bojxona rejimlarini yaratish, ularni vazirlik va muassasalar uchun lokal elektron tarmoqlar, veb saytlar hamda boshqa dasturlar yaratish bo'yicha buyurtmalar berish orqali qo'llab-quvvatlash, shuningdek, dastur mahsulotlarini eksport qilishga ko'maklashish;

- davlat elektron ma'lumot resurslari va axborotlar bazalarini yaratish;

- elektron hujjat almashuv, elektron tijorat, elektron imzo kabilar uchun qonuniy bazalar yaratish.

Davlat boshqaruv organlarining kompyuter texnikasi bilan ta'minlanganlik darajasi 65 % ni tashkil etadi, davlat boshqaruvi xodimlarining 85 % i kompyuter texnikasidan foydalanish malakasiga ega. Davlat boshqaruv organlari markaziy apparatining 83 % i lokal hisoblash markazlariga ega.

Elektron hukumatning tarkibiy qismi bo'lgan AKT joriy etilishi ham hukumat, ham jamiyat tomonidan ma'lum darajada tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bilan birga qog'ozsiz (elektron) hujjat almashish ulushi hozircha muassasalar ichida 25 % dan oshmaydi, muassasalar orasida esa 7 % ni tashkil qiladi.

Bank, shuningdek soliq va bojxona tizimining elektron tarmoqlarini elektron tizimlar orqali davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshiruvchi organlar orasida O'zbekistondagi eng yaxshi misollar sifatida keltirish mumkin.

Bugungi kunda AKTni davlat boshqaruvida joriy etish yo'lidagi asosiy muammo, bu jarayonni amalga oshirish bo'yicha yagona muvofiqlashtirilgan iqtisodiy, texnik va texnologik strategiyaning mavjud emasligidir.

Va eng asosiysi, davlat xizmatining keng doirasi, shu jumladan, bu siyosatni bevosita belgilovchilar orasida elektron hukumat nima uchun kerakligining umumiy mafkurasi ishlab chiqilmagan va u nimalar berishini tushunish etishmaydi.

Natijada, davlat boshqaruvi organlarining kompyuter texnikasi (ma'nan tez eskiruvchi) bilan to'liq jixozlanishining o'zi boshqaruv tizimida chuqur sifat o'zgarishiga olib kelmayapti.

Elektron hukumatni joriy qilish strategiyasi quyidagilarni ko'zda tutuvchi bir-biri bilan o'zaro bog'liq chora-tadbirlardan iborat bo'lishi kerak:

1.Elektron ma'muriyat va muvofiqlashtirilgan o'zaro bog'liq axborot ma'lumot bazalari («G to O»)ni joriy qilish orqali davlat boshqaruvi (muassasalar ichida va muassasalararo) jarayonlarini yaxshilash;

2.Elektron boshqaruv va elektron xizmat imkoniyatlari («G to S» va «G to V»)ni taqdim etish orqali fuqarolar bilan o'zaro aloqani yaxshilash.

Mazkur vazifalarni hal etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va AKT texnologiyalarini joriy qilish to'grisida»gi Farmonidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda 2010 yilgacha bo'lgan davrda kompyuterlashtirish va AKT rivojlantirish Dasturi ishlab chiqildi. Unda quyidagi talablar qo'yilgan:

1.O'zR Konstitutsiyasida kafolatlangan huquq va erkinliklarni amalga oshirish bo'yicha axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi AKT sohasi ma'muriy-huquqiy bazasini shakllantirish.

Islohot AKT tarmoqlari faoliyatini samarali tartibga solib, axborot, elektron tijorat, axborot xavfsizligi va shaxsning elektron identifikatsiyasidan ochiq foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi huquqiy va me'yoriy aktlarga asoslangan bo'lishi kerak. Huquqiy va me'yoriy aktlar sub'ektlarining «markaz-mintaqalar», «markaz-tarmoqlar» kesimidagi o'zaro munosabatlarini samarali tartibga solishi kerak. Shu munosabat bilan bir qancha yangi qonun majmualari, shu jumladan, «Kompyuter jinoyatlari haqida», «Elektron to'lovlar haqida», «Davlat elektron xizmati haqida» kabi qonunlar ishlab chiqilishi lozim.

2.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolarga umumfoydalanishdagi davlat axborot resurslaridan foydalanish imkonini berish.

Buni amalga oshirish uchun birinchi navbatda, organ va muassasalarning funktsional faoliyatlarini tahlil qilib chiqish, elektron hujjat almashinuvining muassasalar ichida va muassasalararo axborot tuzilmalarini shakllantirish zarur. Ushbu vazifalarni amalga oshirishdagi eng qiyin jihat - muassasalarning hukumat hujjatlari va muassasalararo axborot almashinuv protokollarining tarkibiy standartlarini ishlab chiqish, yagona, integrallashgan axborot almashinuvi tarmoqlarini yaratishdan iborat. Fuqarolar bilan bevosita aloqaga kirishishni talab qiladigan aksar hukumat xizmati turlarini elektron vositalar yordamida xizmat ko'rsatishga o'tkazish imkoniyatini oxirigacha ishlab chiqish lozim (kommunal xizmat uchun yig'im, soliq deklaratsiyalarini topshirish, pensiya to'lovlari va h.k.).

3.Aholining keng qatlamlari, shuningdek, davlat xizmatchilarini AKT vositalari bilan ishlashga puxta tayyorlash uchun sharoit yaratish;

Bu vazifalarni hal qilishda axborot olish va tarqatish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini bilish darajasini oshirish, davlat axborotini olish imkoniyatini ko'paytirish va hukumat faoliyatining ijtimoiy nazoratini keng yo'lga qo'yish bo'yicha tadbirlar o'tkazish zarur.

4.Ham muassasalar ichida, ham muassasalararo zamonaviy AKTdan foydalanish asosida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining o'zaro aloqasi samaradorligini oshirish.

Elektron hukumat vositalarini joriy etish jarayonida zarur AKT qimmatbaholigini hisobga olib, ularni qaysi tarmoqqa tegishliligiga qarab emas, balki funktsional, ya'ni zarurligiga qarab joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda, birinchi navbatda, AKT vositalari va elektron hukumat metodlarini qo'llash bilan murojaatlar sonini kamaytirish imkonini beruvchi vazifa yoki xizmatlarni tanlash lozim bo'ladi. Bunga misol sifatida:

- internet va elektron pochta orqali tender axborotlarini tarqatish va olish;
- olis tumanlarning jamoat joylarida hukumat axborotlarini erkin olish punktlarini o'rnatish. Bu yerda parlament qonunlari, hukumat qarorlari va farmoyishlari, vazirlik muassasalarining qarorlari hamda instruktsiyalari bo'lishi lozim. Bu xizmat katta shaharlar va yaqin tumanlarda xususiy tarmoq tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lsada, ular uchun barcha joylarda punktlar ochish o'zini oqlamasligini hisobga olsak, bunga erishish qiyin. Ushbu xizmatni ko'rsatish harajatlarni kamaytirish uchun mavjud infratuzilmani (banklar, pochta bo'limlari) ishlatish va foydalanuvchidan minimal darajada haq olish maqsadga muvofiq.

- Qonun loyihalari va hukumatning muhim qarorlarini ochiq muhokama qilish. Bunda manfaatdor vazirlik va organlarning javoblari va tavsiyalarini umumjamoat e'tiboriga havola etish to'g'ri bo'ladi.

- Internet orqali turli litsenziya va sertifikatlar berish. Bu istalgan vaqtda so'rov qaysi darajada va kimning qo'lidaligini kuzatish imkoniyatini beradi.

5.AKT vositalarini keng qo'llashga asoslangan ta'lim sohasini takomillashtirish hisobiga kadrlar tayyorlash darajasini oshirish.

AKT sohasidagi ta'lim rivojlanishi muammolarining kompleks hal etilishi kadrlar tarkibini yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish, xodimlarning kasb darajasini oshirishni ta'minlaydi.

6. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ishini yanada takomillashtirish uchun yagona axborot va telekommunikatsiya tizimini shakllantirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish dasturiga muvofiq, 2010 yilga kelib davlat boshqaruvi va hokimligi organlarining kompyuter texnikasi bilan jixozlanganlik darajasi 100 %, muassasalar ichida qog'ozsiz hujjat almashish ulushi 70 % ga, muassasalararo almashish esa 40 % ga yetishi kerak.

Texnik jihatdan, elektron hukumatni rivojlantirish uchun qoniqarli narx va yaxshi xizmat ko'rsatish darajasida faoliyat yurituvchi telematik platforma va yetarli malakaga ega xodimlar zarur. Bunday sharoitda O'zbekistonda elektron hukumatni keng joriy etish yo'lidagi asosiy to'siq - jamoat boshqaruvida kerakli o'quvlarning yo'qligi va infratuzilmadagi cheklanganlik bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda butun mamlakatni qamrab olgan tarmoqlar yo'q emas, ammo ular bir-biri bilan bog'lanmagan va o'z-o'zicha faoliyat yuritadi. Qolaversa, bu ishga jalb etilgan agentliklarning kamtargina byudjetlari aloqa va zamonaviy texnologiyalar dasturlarini joriy qilish bo'yicha harajatlarni to'lashga imkon bermaydi. Shu sababli odatda AKTni joriy qilish tarqoq harakterda bo'lib, elektron hukumat barpo etishni ta'minlamaydi.

Bundan tashqari, Internetning tarqalganligi va jamoatchilikning Internet punktlaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi masalasi ham bor. Fuqarolar, guruhlar va kompaniyalar turli davlat agentliklari bilan keng aloqaga kirishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu jihatdan yaxshi ko'rsatkichlarga ega emasligimiz, mamlakatda elektron hukumatni barpo etish harakatlari shiddatini pasaytiraypti.

Yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish elektron hukumatni barpo etish strategiyasini amalga oshirishda o'tkazilayotgan islohotning ustivor yo'nalishlardan biri bo'lmog'i zarur. Qarorlarni mahalliy darajada qabul qilish samaraliroq bo'lsada, zarur salohiyatning yo'qligi, faoliyatni kuzatib borish qiyinligi aksar masalalarda markazlashgan boshqaruv metodlarining ko'p tarqalishiga sabab bo'layapti. Shu bilan birga, boshqaruvning barcha darajalarida faoliyat ochiq-oydinligini ta'minlovchi elektron hukumat metodlaridan foydalanish markazsizlashtirish jarayonini yanada real va amalga oshirsa bo'ladigan voqelikka aylantiradi va shu orqali jamiyat boshqaruv tarkibining samaradorligini oshira borib, barqaror inson taraqqiyotini ta'minlaydi.

Boshqaruvning barcha darajalarida faoliyat ochiq-oydinligini ta'minlovchi elektron hukumat metodlaridan foydalanish markazsizlashtirish jarayonini yanada real va amalga oshirsa bo'ladigan voqelikka aylantiradi va shu orqali jamiyat boshqaruv tarkibining samaradorligini oshira borib, barqaror inson taraqqiyotini ta'minlaydi.

1.5.Davlat va iqtisodiyot sohalarida ma'muriy menejment apparatini optimallashtirish

Boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish bo'yicha maqsadli faoliyat qabul qilinayotgan qarorlar sifatini yaxshilash va davlat apparatini ta'minlash uchun sarflanadigan o'zini oqlamagan harajatlarni kamaytirish o'tkazilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda 1991-2003 yillarda amalga oshirilgan ma'muriy boshqaruv apparatini (MBA) optimallashtirish mamlakat bo'yicha davlat boshqaruv organlarida band bo'lganlar sonini 2,4 baravar yoki 16,4 ming kishiga qisqartirish imkonini berdi. Hozirgi ma'muriy islohotlar esa 2004 yilning o'zidayoq 40 ming boshqaruvchini yoki barcha o'tgan yillardagiga nisbatan 2,5 baravar ko'p o'rinni qisqartirish imkoniyatini berdi. Natijada, davlat boshqaruv organlari xodimlari umumiy sonida ma'muriy boshqaruv xodimlari ulushi kamaydi. Shunday qilib, 1991 yilda davlat boshqaruv organlarida MBA ulushi 77,7 % tashkil qilgan bo'lsa 2004 yilga kelib u 32,4 % ni tashkil etdi yoki deyarli 2,4 baravar qisqardi.

2004 yil 1 yanvarga kelib O'zbekistonda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridagi boshqaruv personal soni har ming aholiga 6,1 kishini yoki band aholi umumiy sonining 1,6 % tashkil etdi. Bu bizda MDH mamlakatlaridagiga qaraganda ancha kamdir (1.2-jadval). Misol uchun: bu ko'rsatkichlar Qozog'istonda 19,2 kishi (3,4 %) ni, Ukrainada 20 kishi (4,5 %) ni, Rossiyada 22,1 kishi (3,9 %) ni tashkil qiladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida ma'muriy-boshqaruv xodimlarini qisqartirish iqtisodda band bo'lganlar umumiy sonida ma'muriy boshqaruv personal umumiy salmog'ining kamayishida ham aks etadi. Shunday qilib, 1991 yilda MBA ulushi iqtisodda band bo'lganlar umumiy sonining 1,2 % ini tashkil etgan bo'lsa, 2003 yilga kelib bu ko'rsatkich 2 % ga teng bo'ldi.

Ammo shuni ham yodda tutish kerakki, davlat boshqaruvi vazifalarni muqobil qayta taqsimlamasdan turib, davlat apparatini keng ko'lamda qisqartirish kuchsizlangan ma'muriyat o'z vazifalarini bajara olmaslik xavfini tug'diradi.

Davlat boshqaruv organlari boshqaruv apparatini qisqartirish asosan boshqaruv tizimlarini optimallashtirish, bir xil yoki keraksiz funktsiyalarini bajarayotgan qismlarni bartaraf qilish, «qo'shimcha ravishda» nazorat qiluvchi organlar, resurslarni taqsimlovchilarni bartaraf qilish hisobiga korxonalar faoliyatiga erkinlik berish tarzida amalga oshirilishi kerak.

Rivojlangan davlatlar uchun boshqaruv apparatini qisqartirish zarurmi? Soni haddan tashqari ko'payib ketgan byurokratik apparatni qisqartirishga ajratilgan ma'muriy islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar uchun ham zarurdir. Evropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikaning ba'zi davlatlarida boshqaruv personalining band aholi umumiy sonidagi salmog'i 2 % dan 20 % gachani tashkil qiladi va AKSHda 15 %, Shvetsiyada 18 %, Buyuk Britaniyada 14 %, Germaniyada 6,7 %, Polshada 5,8 %, Turkiyada 6,3 %, Yaponiyada 2,3 %, Janubiy Koreyada 2,3 % ga teng.

Janubiy Koreyada 1993 yil boshlangan va «inqilobiy» deb nomlangan ma'muriy islohot 10 ming xizmatchini boshqa agentliklarga o'tkazish bilan yakunlandi.

1.2-jadval

Mamlakatlar	<i>Mamlakatlar bo'yicha davlat boshqaruv organlari personal soni</i>		
	Har 1000 kishiga	Mehnatga loyqatli	Ishga band
	to'g'ri keladigan boshqaruv xodimi soni	yoshdagi aholiga nisbatan boshqaruvchilar, %	aholiga nisbat boshqaruvchilar,%
Ozarbayjon	32,3	6,0	7,1
Armaniston	8,1	1,2	2,3
Belorussiya	14,9	2,7	3,4
Gruziya	16,3	2,3	4,2
Qozog'iston	19,2	3,4	4,0
Qirg'iziston	13,3	2,6	3,6
Moldova	15,3	3,4	4,4
Rossiya	22,1	3,9	4,9
Ukraina	20,0	3,5	4,5
O'zbekiston	6,1	1,3	1,6

Manba: Ma'muriy islohotlar - iqtisodiy islohotlarning katalizatori, Xalq so'zi, 2004 i., 11 mart.

Markaziy va Sharqiy Evropa (MSHE) hamda MDH davlatlarida keng ko'lamda shtat qisqartirishning oqibati. 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab bir qator MSHE va MDH davlatlarida islohotlar qonunlar orqali (ushbu qonun loyihalari asosan turli «g'arbcha» modellarga tayanib yaratilgan) amalga oshirildi va u keng miqyosdagi qisqartirishlar bilan kechdi. Vengriya, Bolgariya,

Slovakiya, Qozog'iston va Qirg'izistonda 1995 yildan boshlab muayyan tashkilotlarda qanday natija berishi inobatga olinmasdan katta ko'lamdagi shtatlar mexanik ravishda qisqartirildi.

Mexanik qisqartishlar amaldagi ma'muriy tizim disbalansini «muzlatishga» olib keladi. Bu ayniqsa, sobiq sho'ro hududida joylashgan davlatlar uchun o'ta zararlidir. Davlatning rivojlanmayotgan markaziy boshqaruv apparati «muzlagan» holatida ortiqcha tobe tashkilotlar saqlanadi. Kuchsizlangan markaziy ma'muriyat bu sharoitda quyi tashkilotlarni nafaqat boshqarishga, balki ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga ham ojiz bo'lib qoladi. Bu esa quyi tashkilotlarning yuqoriga hisobot berishi kamayishiga, davlat ma'muriyati ustidan demokratik nazoratning yo'qqa chiqishiga olib keladi. Ushbu yo'l bilan boshqarishni markazdan soqit qilishga moyillik oqibatida paydo bo'lgan islohot absurd holatlarni yuzaga keltiradi. Bunga Latviya kabi davlatlarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. U erda o'ta muhim mahkamalar davlat boshqaruv tizimidan «yo'qotilishi» oqibatida ishonchsiz kayfiyatdagi fuqarolarda ularni mas'uliyatsiz va o'z shaxsiy manfaatini ko'zlaydigan ma'muriyat boshqarmoqda degan taassurot paydo bo'lishiga olib keldi.

O'zbekistonda vazirlik va idoralarni qayta tashkil etish misollari. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining qayta tuzilishi. 2003 yil Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qayta tashkil etildi, tarmoqni xo'jalik boshqaruvi bilan bog'liq vazifalar mahalliy hokimiyat organlari va xususiy sektor ixtiyoriga berildi. Buning natijasida, vazirlikdagi 31 boshqarmaning 15 tasi hamda markaziy ma'muriy boshqaruv xodimlaridan 31 foizi qisqartirildi. Shu bilan birgalikda, vazirlik qaramog'idagi xo'jalik boshqaruvinı amalga oshiruvchi 28 tobe tashkilot ham tugatildi.

Qisqartishlar va xizmat vazifalarining markazsizlashtirish, ma'muriy boshqaruv xodimlari sonining kamaytirilishi 3,4 mlrd. so'm byudjet mablag'ining tejalishiga va uni xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish va ish sharoitini yaxshilashga yo'naltirish imkonini berdi.

Qayta tashkil etish natijasida:

- ma'lum turdagi moddiy va xom-ashyo resurslari taqsimotiga oid vazifalar, fermer hamda boshqa Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar faoliyati ustidan nazorat bartaraf etildi, bu esa xo'jalik sub'ektlariga mustaqillik berib, ularning tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkonini oshirdi;

- qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari tomonidan vazirlik va uning qaramog'idagi bo'linmalarga hisobot (41 turda) berish 2 barobar qisqardi, bu esa o'z navbatida xo'jaliklarning ma'lum miqdordagi mablag'ini tejadi, ortiqcha harajat va tashvishdan qutqardi.

Suv xo'jaligini boshqaruv tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Suv resurslarini hududiy jihatdan boshqaruvdan voz kechilib, bevosita havzalar bo'yicha boshqaruv tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa boshqarishdagi bo'g'inlar sonini 5 dan 3 gacha qisqartirishga olib keldi. Bir qism vazifalar fermerlar tomonidan tuzilgan suvdan foydalanuvchilar assotsiatsiyalari ixtivriga berildi. Joylarda 252 shunday assotsiatsiya tuzilib, ular 30 mingdan ortiq suvdan foydalanuvchiga, jumladan 21,2 ming fermer xo'jaligiga xizmat ko'rsatdi.

Suvdan foydalanuvchilar assotsiatsiyasining asosiy afzalligi quyidagilarda ko'rinadi:

- fermer xo'jaliklariga suvdan foydalanish huquqini sotish;
- suvdan foydalanuvchilarning suv resurslarini bopshirishda ishtirok etishida;
- sug'oriladigan yerlarda suv resursidan samarali foydalanish uchun harakat va mablag'larni birlashtirishda;
- suvdan foydalanuvchilarning suv olgani uchun to'lanadigan haqni belgilashda ishtirok etishida.

Davlat tarmog'i ishiga ma'muriy menejmentning zamonaviy metodlari, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish joriy etilishi kerak.

Markaziy rejalashtirishdan voz kechish davlat qarorlarining sezilarli darajada markazsizlashtirishga olib keladi. Ammo ularning qaysilari joylar hokimiyatida, qaysilari markaziy hokimiyat tasarrufida qoldirilishi kerak?

1.6.Ma'muriy boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni baholash usullari

Ma'muriy boshqaruv samaradorligi uning faoliyat natijaviyligi orqali namoyon bo'ladi.

Tashkilot faoliyati natijaviyligining asosiy mezonlari quyidagilardan iborat:

- 1.Ta'sirchanlik — tashkilot maqsadlariga erishish darajasi;
- 2.Tejamlilik — zaruriy va sarflanayotgan resurslar (harajatlar) ning nisbati;
- 3.Foydalilik — jami harajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbat;
- 4.Mehnat faoliyati sifati — xodimlarning mehnat sharoitlari.

5. Innovatsion faolligi — tashkilot faoliyatining turli sohalariga yangiliklarni joriy qilish va boshqalar.

Ma'muriy boshqaruvning asosiy resurslari quyidagilardan iborat: insoniy; moddiy; moliyaviy; ekologik; axborot-texnologik; makon va zamon; tashqi aloqalar va kommunikatsiyalar; ichki muhit va kommunikatsiyalar.

Ma'muriy menejment samaradorligi quyidagi yo'nalishlarda baholanadi:

- baholash maqsadini aniqlash va asoslash;
- baholash ko'rsatkichlari mezonlarini tanlab olish;
- oxirgi natija va maqsadni hisoblash;
- ma'muriy boshqaruv natijaviyligini aniqlash;
- maqsadlarni resurslar bilan ta'minlanganligini aniqlash;
- oxirgi natijaning resurslarga nisbati (resurslar tejamliligi);
- iqtisodiy samara miqdorini aniqlash;
- iqtisodiy samaraning har bir resurs (harajat) miqdoriga nisbati;
- iqtisodiy samarani boshqarish harajatlariga nisbati;
- har bir foydalanilgan resurslar (harajatlar) turi miqdorini tegishli resurslar salohiyatiga nisbati;

- ta'sir etish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha boshqarish jarayonlari samaradorligini aniqlash: strategiya, mehnat motivatsiyasi, boshqarishni tashkil etish shakllari;

- salohiyatning har bir turi bo'yicha miqdorini aniqlash: resursli, tashkiliy, axborot, ilmiy-texnikaviy, ekologik, kadrlar bo'yicha;

- samaralarni aniqlash: iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, tashkiliy, ilmiy-innovatsion;

- ijtimoiy-iqtisodiy tizim salohiyatining har bir turidan foydalanish samaradorligini aniqlash.

Ma'muriy boshqaruv samaradorligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

I. Mikroiqtisodiy darajada:

1. $S_b = F \cdot X_b$; bunda S_b - samaradorlik ko'rsatkichi; F — tashkilot foydasi (daromadi); X_b — boshqarish xarajatlari.

2. $K_x = I_s^b \cdot I_s$; bu erda K_x — boshqaruv xodimlari koeffitsienti; I_s^b — boshqaruv xodimlari soni; I_s — tashkilot xodimlarining umumiy soni.

3. $K_x = X_b \cdot X$; K_x — boshqarish harajatlari koeffitsienti; X_b — boshqaruv harajatlari; X — tashkilotning umumiy harajatlari.

II. Makroiqtisodiy darajada:

1. $S_b^m = \Delta Y_{AIM} \cdot X_b^m$; $S_b^m = \Delta Y_{AMM} \cdot X_b^m$; $S_b^m = \Delta MD \cdot X_b^m$;

bunda S_b^m — makrodarajada boshqaruv samaradorligi; ΔY_{AIM} — yalpi ichki mahsulotning o'sishi; ΔY_{AMM} — yalpi milliy mahsulotning o'sishi; ΔMD — millim daromadning o'sishi; X_b^m — makrodarajadagi boshqarish harajatlari.

2. $K_s^m = I_s^b \cdot I_s^m$;

bu erda K_s^m — makrodarajadagi boshqaruv xodimlari soni bo'yicha samaradorlik koeffitsienti; I_s^b — makrodarajadagi boshqaruv xodimlari soni; I_s^m — makrodarajadagi ishlovchilarning umumiy soni.

Makroiqtisodiy darajadagi aniqlangan boshqarishning samaradorlik ko'rsatkichlari miqdorining ijobiy yoki salbiyligi avvalgi yillardagi ko'rsatkichlar bilan yoki boshqa mamlakatlardagi shunga o'xshash ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Har qanday darajadagi tashkilotning muvaffaqiyatlari yoki inqirozi boshqarish jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligiga, unda ishlovchi rahbarlar, xodimlar va mutaxassislarning faoliyatiga bevosita bog'liq ekanligi "Menejment" fanidan ma'lum. Tashkilotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligi esa ma'muriy boshqaruvning samaradorligiga ishlovchi rahbar kadrlarning oqilona faoliyat ko'rsatishiga bog'liq. Shuning uchun ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari tizimli yondashishni talab etadi.

Ma'muriy faoliyat natijalarini tahlil etish va uning boshqarish tizimini o'rganish asosida ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *Boshqarish tizimini takomillashtirish*, uni maksimal darajada soddalashtirish, undagi ko'p faoliyatlarni markazdan joylarga berish, malaka va shaxsiy sifatlarini inobatga olib rahbarlar vakolatlarini aniq belgilash va boshqalar.

2. *Tashkilotning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.* Ushbu tadbir kuchli va bo'sh tomonlarni tahlil etish asosida hamda uning barcha funktsional sohalarning o'z ichiga oluvchi siyosati va falsafasini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

3. *Bo'g'inlar, bo'limlar va xodimlar o'rtasidagi samarali kommunikatsiya aloqalarini ta'minlovchi axborot tizimini ishlab chiqish.* Rag'batlantirish mexanizmi, boshqarish tartib-qoidolari va qaror qabul qilish tizimlarini shakllantirish.

4. *Rahbar va xodimlarni muntazam o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash* orqali ularni malakasini oshirib borish, ularda ishga ijodiy yondashish, yangilikka intilish, izlanish, tashabbuskorlik, omilkorlik va uddaburonlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

5. *Rahbar kadrlarni to'g'ri tanlash, o'qitish, baholash va ularni lavozim bo'yicha o'tkazish (ko'tarish) tizimini ishlab chiqish, rahbarlar lavozim (mansab) larini rejalashtirish.* Tashkilotga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga mos bo'lgan rahbarlik uslublarini (avtokratik, demokratik va liberal) qo'llash.

6. *Xodimlar tarkibini ishchanlik qobiliyatlari va moslashuvchanlik xususiyatlari bo'yicha shakllantirish,* ularni baholash va tanlashning eng samarali usullarini qo'llash asosida tashkilotda qulay ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish.

7. *Barcha rahbarlar va xodimlar tomonidan tan olinuvchi va qo'llab-quvvatlanuvchi birgalikdagi qadr-qimmatlarni ishlab chiqish tashkilot madaniyatini sabot bilan shakllantirish.*

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ma'muriy boshqaruv tizimi tejamlilikga erishish hamda uning samaradorligini oshirish, tashkilot iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim belgilaridan hisoblanadi.

1.7.Xorijda ma'muriy menejment tajribasi

Hozirgi vaqtda Yaponiyada analitik-novatorlik uslubi ko'proq qadrlanadi. Bu uslub oqilona qarorlar qabul qilish, harakatlarni muvofiqlashtirish, izlanish, nostandart g'oyalarga asoslangan fikr-mulohazalarni hisobga olish, mag'lubiyatga sabr-toqat bilan qarashga o'rgatadi. Bu, aslida, personalni boshqarishning partipativ uslubi hisoblanadi. Uni demokratik yoki diktatorlik uslubiga oshkoralik va xabardorlik, rahbarning xodimlar bilan muntazam ravishda kengash va maslahatlar o'tkazib turish; shaxslararo munosabatlarning sofliigi va ishonuvchanlik; xodimlarni analitik materiallarni, tashkiliy-farmoyish beruvchi hujjatlar va qaror loyihalarini ishlab chiqishga jalb etish; vakolatlar doirasida qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan alohida tarkibiy bo'linmalar tashkil etish xosdir.

Kollegial va ijodiy yangilanish uslubi, kuzatishlarga ko'ra, Germaniya davlat hokimiyati organlarida ancha mustahkam singib qolgan. Masalan, Germaniya Ichki ishlar vazirligi kadrlar potentsialining hamkorligi va undan foydalanish to'g'risidagi Nizomda kadrlar potentsialini boshqarish uslubiga doir ayrim qoidalarni kelgiramiz:

1. Vazirlikning barcha xodimlari qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida o'z vazifalarini yaqin hamkorlik asosida bajarishlari lozim. Rahbarlar ijrochi xodimlarini yaxshi natijalarga erishishga, o'z zimmasiga mas'uliyat olib tashabbuskorlik ko'rsatishga undashi darkor.

2. Rahbarlar konkret vazifa yuqoridan berilmagan bo'lsa ishning maqsadi va ko'lamini belgilashi kerak. Maqsad xodimlarga aniq bo'lishi uchun ularga tushuntirib berilishi lozim, toki u hamma uchun umumiy bo'lgan vazifa sifatida idrok etilsin.

3. Rahbarlar bilan xodimlar o'z faoliyatiga taalluqli bo'lgan jami axborotni o'zaro ayirboshlashi shart. Bu-topshirilgan vazifalarni malakali bajarish na takroriylikka yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

4. Rahbarlar qarorlar tayyorlash va ularni qabul qilish jarayoniga o'z xodimlarini iloji boricha kengroq jalb qilishi, xodimlarning vazifalariga taalluqli qarorlar qabul qilishidan oldin ularning fikr-mulohazalarini eshitishi darkor. Xodimlarga nima sababdan aynan shu qarorlar qabul qilinganligi tushuntirib beriladi.

5. Rahbarlar o'z xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, boshqa tanlov usullari bilan xizmat sohasida yuqori lavozimlarga ko'tarilishiga yordam berishi lozim. Bu tadbir personal bilan muntazam ravishda suhbatlar o'tkazib turish vositasida amalga oshiriladi, suhbatlar jarayonida xodimlarning erishgan muvaffaqiyatlari, xizmatchilik xulq-atvori muhokama qilinishi mumkin.

6. Xodimlar o'z zimmalariga yuklatilgan vazifa uchun shaxsiy javobgarlikni olgan holda mustaqil harakat qiladi. Rahbarlar ularning faoliyatini maslahat berib, qulay ish sharoitini yaratib quvvatlab turadi. Ular o'zlarining ko'rsatmalar berish va qarorlar qabul qilish sohasidagi huquqlaridan foydalanish chog'ida mustaqil faoliyat sifatida cheklanishi lozimligini hisobga oladilar.

Amerikalik olim A.Maslouning xodim ehtiyojlarini boshqarish nazariyasiga asoslanib ish tutish muhim natijalar berishi mumkin. Bu nazariyaga ko'ra, rahbar odamlar bilan muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularning ehtiyojlarini nazardan qochirmagani ma'qul. Maslou hayotiy ehtiyojlarni quyidagicha tasniflagan;

- fiziologik ehtiyojlar – oziq-ovqat, sup, kiyim-kechak na shu kabilarga bo'lgan ehtiyojlar bo'lib, ular inson va uning oilasining kun kechirishini ta'minlaydi;

- xavfsizlik va barqaror turmush tarziga bo'lgan ehtiyojlar, ular shaxsning o'z fiziologik ehtiyojlarini doimo qondirilishini, muayyan turmush tarzini ta'minlashga intilishini aks ettiradi;

- muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini his etish ehtiyoji, u insonning ijtimoiy mavjudot sifatida o'zligini ifodalashga intilishini aks ettiradi;

- muayyan ijtimoiy maqomga ega bo'lish ehtiyoji - u insonning jamiyat tomonidan o'z shaxsiga ijobiy baho berilishiga, muayyan ijtimoiy mavqega ega bo'lishga intilishini aks ettiradi.

Ko'rsatib o'tilgan ehtiyojlar muayyan izchillikda ro'yobga chiqadi. Agar odam o'zining asosiy ehtiyojlarini, ya'ni fiziologik, xavfsizlik va barqaror turmush tarziga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmas ekan, uning unumdor ishlashga rag'bat ham bo'lmaydi. Rahbar buni hisobga olib, ularni qondirishga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, davlat apparatida ish haqini oshirishi, muayyan imtiyoz va kafolatlar belgilash, mansab sohasida o'sish va o'z-o'zini namoyon qilish uchun ko'proq imkon yaratib berish yo'li bilan vaziyatga ta'sir o'tkazadi.

Mehnat jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish rahbarning xodimga nisbatan to'g'ri baho berishiga imkoniyat yaratadi. Joriy etish apparatining zamonaviy kompyuterlar va tashkiliy texnika bilan ta'min etilganligi, xizmatchilarning uzluksiz ta'lim olishini joriy qilish kabi tadbirlar xizmatchilarning ishini ancha qulaylashtirishi bilan birga mehnatni tashkil etish na boshqaruv uslubini takomillashtirish imkonini beradi. Kimki axborot bankiga ega bo'lsa, u hokimiyatga ega bo'lali.

Agar rahbar kadrlar xizmati potentsialini mustahkamlash to'g'risida g'amxo'rlik qilsa, faqat huquqshunos va iqtisodchi mutaxassislarni emas, balki menejer, kadrshunos, ijtimoiy psixolog, sotsiolog, dizaynerlarni ham jalb etmog'i darkor. Masalan, AQSH boshqaruv apparatida 100 kishi band bo'lsa, shtat jadvalida, albatta, tashkilotchilik va boshqaruv sohasidagi mutaxassis mavjud bo'ladi. Bunday holatlarda kadrlarning o'n foizi fan doktori, 25 % i magistr, 25 % i universitet ma'lumotiga, 40 % i bakalavr darajasiga ega bo'ladi. Bunday mutaxassislarning ish haqi tashkilotdagi yuqori boshqaruv personalining ish haqiga tenglashtiriladi.

1.8.Nodavlat tuzilmalar

1.8.1.Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini o'tkazish jarayoni

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovining asosiy printsiplari. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylashda tegishli hududda doimiy yashovchi O'zR fuqarolari, jinsi, irqiy hamda milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy hamda ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadirlar.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylashda fuqarolar yig'inining har bir ishtirokchisi bir ovozga ega.

Fuqarolarning fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida ishtirok etish huquqi. *Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida* fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriy hamda erkindir. Fuqarolarga ularni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida, shuningdek ularning o'z hohish-irodasini erkin bildirishiga ta'sir ko'rsatishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash huquqiga saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolar egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida ishtirok etishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida fuqarolarning ishtirok etish huquqlarini biron bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda oshkoralik. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish ochiq va oshkora amalga oshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi tashkil etilayotganda hamda o'tkazilayotganda fuqarolar yig'ini o'tkaziladigan kun, vaqt va joy to'g'risida fuqarolar xabardor etiladi, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlardan, ovoz berish yakunlaridan voqif qilinadi.

O'zR ommaviy axborot vositalari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari sayloviga tayyorgarlik jarayonini hamda saylov qanday o'tayotganligini yoritib boradi.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) va uning maslahatchilarini saylash. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari fuqarolar yig'ini tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa fuqarolar vakillari yig'ilishi tomonidan ikki yarim yil muddatga saylanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga ko'maklashishlari, zarur hollarda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlashlari shart.

Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarni tuzish. Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar hamda shaharlar hududida tegishli fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari tuziladi.

Komissiyalar tegishli davlat hokimiyati vakillik organining qarori bilan fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish davri uchun tuziladi.

Komissiyalar tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inlarining, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari kiritiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlar komissiyaga a'zo shaxslar orasidan ko'rsatilgan bo'lsa, ular komissiya tarkibidan chiqariladi.

Komissiyalarning vakolatlari. Komissiyalar: ushbu qonun ijro etilishini ta'minlaydi hamda fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha tegishli ishchi guruhlarining faoliyatini yonaltirib boradi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini o'tkazish masalalari bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil qiladi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlaridan keyinchalik tegishli tumanlar, shaharlar hokimlari bilan kelishish uchun raislar (oqsoqollar) vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilib oladi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari sayloviga doir hujjatlarning namunalarini tasdiqlaydi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarining fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari sayloviga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish bilan bog'liq masalalarga doir axborotlarini tinglaydi;

tegishli hududda fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi yakunlarini chiqaradi;

fuqarolarning fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi;

fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarning arxivga topshirilishini ta'minlaydi.

Komissiyalar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhini tuzish. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish uchun fuqarolar yig'ini yoki uning kengashi

qarori bilan saylov davri uchun fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ishchi guruhi tuziladi.

Ishchi guruhi tarkibiga, qoida tariqasida, fuqarolar yig'inining, tegishli hududda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari kiritiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari ishchi guruhi tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlar ishchi guruhiga a'zo shaxslar orasidan ko'rsatilgan bo'lsa, ular ishchi guruhi tarkibidan chiqariladi.

Ishchi guruhining vakolatlari. Ishchi guruhi: fuqarolar yig'ini o'tkaziladigan kun, vaqt va joyini belgilaydi hamda yig'in o'tkazilishidan kamida besh kun oldin bu haqda tegishli hududda yashovchi fuqarolarni xabardor qiladi;

fuqarolar yig'ini ishtirokchilarini ro'yxatga oladi;

tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga nomzodlar bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi;

fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarining takroriy saylovi o'tkazilishini tashkil etadi;

fuqarolarning fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o'tkazish masalalariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi.

Ishchi guruhi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chaqiriladi va o'tkaziladi. Fuqarolar vakillarining yig'ilishiga hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan ularda yashovchilarning umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanadigan namoyandalar vakil qilinadilar. Vakillik normasini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha tegishli tuman yoki shahar muvofiqlashtirish kengashi belgilaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda yashovchi aholining fikrini hisobga olgan holda ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga ko'rsatilgan nomzodlarga doir hujjatlar tuman yoki shahar hokimi bilan kelishish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga saylovdan kamida o'n kun oldin topshiriladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga nomzodlar, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi va saylov kuni tegishli hududda doimiy yashab turgan bo'lishi, shuningdek tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga va aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lishi kerak.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) vazifasiga saylanish uchun nomzod etib ko'rsatilishi mumkin emas.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilarining miqdoriy tarkibi hovlilar, uylar, ko'chalar, mahallalar, mavzelar va dahalardan vakillikni hisobga olgan holda fuqarolar yig'ini tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) maslahatchilari vazifasiga nomzodlar fuqarolar yig'ini ko'rib chiqishi uchun fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan taqdim etiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilarini saylash ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish shakli to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini tomonidan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi bo'yicha ovoz berish natijalarini aniqlash uchun fuqarolar yig'ini tomonidan kamida uch kishidan iborat tarkibda sanoq komissiyasi saylanadi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi ochiq ovoz berish orqali o'tkazilayotganida ovoz berish har bir nomzod bo'yicha takliflarning kelib tushish tartibiga qarab qo'l ko'tarish yo'li bilan o'tkaziladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi yashirin ovoz berish orqali o'tkazilayotganida fuqarolar yig'ini ishtirokchilariga sanoq komissiyasi tomonidan ovoz berish byulletenlari beriladi.

Yashirin ovoz berish byulleteniga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga nomzodlarning familiyasi, ismi, otasining ismi alifbo tartibida kiritiladi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilarini saylashda yashirin ovoz berish byulletenlarini berish bevosita ovoz berishdan oldin boshlanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilarini saylash byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasi yoxud xonasida to'ldiriladi. Ovoz beruvchi o'zi qarshi ovoz berayotgan nomzodlarning byulletendagi familiyasini o'chiradi.

Ovoz beruvchi to'ldirilgan ovoz berish byulletenini saylov qutisiga tashlaydi. Saylov qutilari ovoz berish tugaganidan keyin sanoq komissiyasi tomonidan ochiladi. Ovozlar sanoq komissiyasi tomonidan, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga har bir nomzod bo'yicha sanab chiqiladi. Ovozlarini sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan bayonnoma tuziladi. Sanoq komissiyasining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

fuqarolar yig'ini ishtirokchilarining umumiy soni;
ovoz berishda qatnashgan fuqarolar yig'ini ishtirokchilarining soni;
yashirin ovoz berish o'tkazilganida byulleten olgan fuqarolar yig'ini ishtirokchilarining soni;
fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari vazifasiga har bir nomzodni yoqlab va unga qarshi berilgan ovozlar soni;

yashirin ovoz berish o'tkazilganida haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar soni.

Bayonnoma sanoq komissiyasining raisi va a'zolari tomonidan imzolaniadi.

Bayonnoma sanoq komissiyasining raisi tomonidan o'qib eshittiriladi va fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolar yig'inida hozir bo'lgan fuqarolarning yarmidan ko'pining ovozini olgan nomzod fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi yakunlari bo'yicha fuqarolar yig'ini qaror qabul qiladi hamda mazkur qaror fuqarolar yig'inida raislik qiluvchi tomonidan o'qib eshittiriladi.

Fuqarolar yig'ini bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, bitta nusxasi saylov yakunlarini umumlashtirish uchun tegishli tuman yoki shahar komissiyasiga taqdim etiladi.

Tuman va shahar komissiyalari fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilari saylovi yakunlariga doir umumlashtirilgan ma'lumotlarni tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat yoki Toshkent shahar komissiyasiga topshiradi.

Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovida fuqarolar yig'inida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kam ishtirok etgan bo'lsa, *saylov o'tmagan deb topiladi*. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi fuqarolar vakillarining yig'ilishlarida o'tkazilgan taqdirda, agar yig'ilishda fuqarolar vakillarining uchdan ikki qismidan kam ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb topiladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchilari saylovi chog'ida yo'l qo'yilib, oqibat natijada ovoz berish yakunlariga ta'sir qilgan qoidabuzarlik tufayli saylov sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi saylovida takroriy ovoz berish. Agar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga ikki nafardan ortiq nomzod ko'rsatilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa, fuqarolar yig'ini eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod bo'yicha takroriy ovoz berishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Takroriy ovoz berish ushbu qonunning talablariga rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko'proq olgan nomzod, bosharti uni yoqlab berilgan ovozlar soni unga qarshi berilgan ovozlar sonidan ko'p bo'lsa, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga saylangan hisoblanadi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi takroriy saylovi quyidagi hollarda o'tkaziladi:

avvalgi saylov o'tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa;

takroriy ovoz berish fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi saylanganligini aniqlash imkonini bermasa;

fuqarolar yig'inida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vazifasiga ko'pi bilan ikki nafar nomzod ko'rsatilgan hamda ulardan birontasi ham saylanmagan bo'lsa.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi takroriy saylovi ushbu qonunning talablariga rioya etilgan holda ko'pi bilan bir oylik muddat ichida o'tkaziladi.

Bo'shab qolgan o'rinlarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchisi saylovi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) yoki uning maslahatchisi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan bo'lsa, tegishli fuqarolar yig'inlarida ushbu qonunning talablariga rioya etilgan holda yangi saylov o'tkaziladi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi natijalari asosida fuqarolar yig'ini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolar yig'ini kengashini shakllantiradi, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va fuqarolar yig'ini taftish komissiyasini, shuningdek ma'muriy komissiyani saylaydi.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi natijalari yuzasidan fuqarolar yig'ini qabul qilgan qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

1.8.2. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlarini rivojlantirish

Hokimiyatni bosqichma-bosqich markazsizlashtirish va davlat boshqaruv tizimini isloh qilish strategiyasining yo'nalishlaridan biri fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv tizimini rivojlantirishdir. O'zbekistonda fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv butun mamlakat hududida amalga oshirilib, mahalliy miqyosdagi masalalarni o'z manfaatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlarini hisobga olgan holda mustaqil etadigan faoliyatdan iborat.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv tizimining muhim o'ziga xos jihati o'zaro ishonch va jamoa tuyg'usiga asoslangan asl xalqona an'analarning qayta tiklanishidir.

Fuqarolar o'z-o'zini boshqarishga bo'lgan huquqlarini shaharcha, qishloq ovul va mahallalarda O'zbekiston bo'yicha soni 10 mingdan oshadigan fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ini) orqali amalga oshiradi.

Qayd etish kerakki, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va ular nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Ular yuridik shaxs huquqiga ega bo'lib, belgilangan shakldagi muhrga ega va joylardagi tegishli davlat hokimiyati organlarida ro'yxatdan o'tadilar.

Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari salohiyati va ularning ijtimoiy rivojlanishdagi roli kengayishini haqli ravishda ularga kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy yordam tarqatish, bolalar uchun beriladigan yordam pulini to'lash, ikki yoshgacha bolalarga qaragani uchun ishlamayotgan onalarga yordam puli tayinlash va to'lash vakolatlarining berilishi bilan bog'lashadi.

Bu tizimning afzalliklaridan biri mahallalarning o'z hududlaridagi aholining turmush darajasi, ehtiyojlarini hammadan yaxshi bilishlaridir.

Ular iqtisodiy sohada ham ko'pincha tashabbus va ishbilarmonlik ko'rsatyaptilar. Ular o'z hududlarida kichik, xususiy va qo'shma korxonalar, tijorat do'konlari, kooperativlar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha firmalar ochyaptilar. Davlat «korxona-mahalla» shaklidagi mahalliy hokimlik, tadbirkorlar bilan aholi orasida muhim ro'l o'ynovchi bunday hamkorlikni faol rag'batlantiryapti.

O'zbekistonda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga quyidagilar kiradi:

- shaharcha, qishloq va ovul fuqarolari yig'inlari; shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovul mahalla fuqarolari yig'inlari;
- fuqarolar yig'inlari kengashi;
- fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiya;
- fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi;
- qonunda ko'zda tutilgan hollarda tuman markazidan borish qiyin va olis bo'lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda tuziladigan ma'muriy komissiya.

Mahalla. Mahalla ma'lum bir joyda tig'iz yashayotgan kishilar jamoasidan iborat. «Mahalla» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, «mahalliy hamjamiyat», «jamoat» degan ma'nolarni anglatadi. Mahallalar turli kattalikda, 150 dan 1500 oilaga qadar jamoadan iborat bo'lishi mumkin.

Tarixiy va zamonaviy ma'noda mahalla - aniq ifodalangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'rifiy va hududiy-ma'muriy birlashma bo'lib, bunda kishilar an'ana va urf-odatlar, insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlarning birligi bilan bog'langan. Bunday hududiy birlashmalarda azaldan insoniy munosabatlar tasdiqlangan va tartibga solingan, jamoat fikri shakllangan, mavkuraviy hamda dunyoqarashga taalluqli tizim yaratilgan.

Mustaqillik sharoitida o'z-o'zini boshqarish tizimini isloh qilish modeli asosiga aholi an'analari qo'yildi. Chunki ularda Sharq jamiyatlari uchun azaldan xos bo'lgan bir qator o'zgarmas xususiyatlar mujassam. Bular paternalizm (hokimlikka hurmat, hukumat boshlig'ining xalqqa nisbatan otalik munosabati), vorisiylik, ma'naviy ideallarga ehtirom, kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlarga

sodiqlik va h.k. Bu printsiplar aholi ongida ham individual, ham ommaviy darajada qat'iy o'rnatilgan. Ularning mustahkamligi va yangi ijtimoiy-iqtisodiy realliklarga moslashuvchanligi ongida jamoat psixologiyasi ustivor bo'lgan xalqning o'ziga xos mentaliteti bilan belgilanadi.

«Mahalla yili» dasturini amalga oshirish. «Mahalla yili» dasturini amalga oshirish jarayonida keksa kishilarga e'tibor qaratish, ularni beminnat oziq-ovqat, dori-darmonlar bilan ta'minlash, bepul davolash uchun sezilarli darajada moddiy yordam berildi. Mahallalarda bolalar sportini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilyapti. Mamlakat bo'ylab mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirgan holda «Futbolimiz kelajagi», «Mahallamiz polvonlari», «Belbog'li kurash» tadbirlari o'tkazilgan.

Kam ta'minlangan va yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishning kuchayishi «Mahalla yili» dasturining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Ayollar mahalliy hokimiyat organlari faoliyatiga tobora ko'proq jalb qilinyapti. 2004 yilda fuqarolar yig'inlari kengashlari mahkamasida ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha byudjetdan doimiy oylik oluvchi maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ma'naviy ma'rifiy sohada ish tajribasiga ega 7505 obro'li va faol ayol shu lavozimga tayinlandi.

Xalqaro tashkilotlar va ularning dasturlari kichik grantlar berish va treninglar o'tkazish orqali fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini faollashtirish va ularning davlat boshqaruvi organlari, aholining o'zi va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan dialogni kuchaytirish ishiga hissa qo'shyaptilar. 1999-2003 yillarda Kounter-part-O'zbekiston tomonidan USAID ko'magida amalga oshirilgan «Mahallalardagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash» (Mahalla Initiative Program - MIP) dasturi ham shunga qaratilgan edi.

Bu dasturga ko'ra, NNT, mahalla qo'mitalari va aholi birgalikda biron umumiy muammoni aniqlab, uni xal qilishga harakat qilish ko'zda tutilgan edi. Dastur tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar ijtimoiy xizmat (16), sog'liqni saqlash (15), bolalar yoshlar (13), ekologiya (11), ayollar (9), keksalar-pensionerlar (5), ta'lim (4), huquq (3), qishloq xo'jalik-fermerlik (2), biznesni rivojlantirish (2), demokratiya-inson huquqlari (1), san'at-hunarmandlik (1) yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirildi.

Dastur amalga oshirilishini baholash shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik loyihalarni amalga oshirish jarayonida NNT, mahalla qo'mitalari va aholi o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Dastur doirasida mahallada yashovchilarning o'zlari muammolarni aniqlash va xal qilishda faol qatnashdilar. Shuningdek, muloqotga loyihalarga ko'mak beruvchi hokimiyat va boshqa davlat tuzilmalari jalb etildilar.

Ammo mahalla qo'mitalari bilan ishlash asosan komissiyalar bilan emas, mahalla raislari bilan o'zaro munosabatga asoslanishi ham kuzatildi. Bu mahalla qo'mitalari komissiyalarining yanada faolroq ishlashdan manfaatdor emasligidan kelib chiqadi. Ko'p hollarda mahalla qo'mitalari raislarining o'ta bandligi, ba'zan esa ularning o'quvsizligi ishni to'xtatib turdi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlarning ko'pligi mahalliy hamjamiyatlarning inson salohiyatini rivojlantirishdagi rolining e'tirof etilganidan dalolat beradi. Hozirgi paytda O'zbekistonda USAID yordamida Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida «Hamjamiyatlar faoliyatini investitsiyalash dasturi» (Community Action Investment Program), Counterpart Consortium xalqaro nodavlat tashkilotlarining ko'plab dasturlari, shuningdek, Jahon banki, BMTTD, OTB kabi xalqaro donorlar ko'magidagi dasturlar amalga oshirilyapti. Bu tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan treninglar hamjamiyatlar tashabbuskorligini yanada oshirish, mavjud mahalliy va xalqaro resurslarni jalb qilish uchun zarur malaka va bilimga ega bo'lishga ko'maklashyapti.

Shu bilan birga, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari salohiyatidan to'liq foydalanilayotgani yo'q. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy, moliyaviy, kadr va boshqa asoslarini mustahkamlash harakatlarini davom ettirish lozim. Jamoat o'z-o'zini boshqaruvi muammolarini hal qilishda mahallaning roli quyidagilarga bog'liq:

- fuqarolarning kuchli o'z-o'zini boshqarish organlarini shakllantirish;
- jamoat manfaatlariga bevosita ta'sir qiladigan boshqaruv kuchiga molik qarorlarini qabul qilish imkoniyatini kengaytirish;
- mahalliy jamoalarning ham mahalliy, ham markaziy darajada iqtisodiy, qonuniy va boshqa tashabbuslar bilan chiqish tajribasini oshirish;
- fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari salohiyatini kengaytirish me'yoriy-huquqiy, moliyaviy va boshqa.

«Mahalladagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash» dasturining maqsadlari. Jamoatchilik fikrining e'tirof etilgan vakillari va mahalliy hamjamiyatlarning o'zlari tomonidan aniqlangan muammolarni xal qilish yo'llarini izlash bo'yicha hamkorlari bo'lgan NNT mijozlari sonini oshirish;

-mahalla qo'mitalari va boshqa mahalliy ma'muriy tuzilmalarni fuqarolar va hukumat orasidagi ikki tomonlama dialog kanaliga aylantirishga ko'maklashish;

-ijtimoiy hamkorlik doirasida NNT va mahalla qo'mitalari orasida barqaror aloqa o'rnatish.

Mahalliy ma'muriyat tadbirlari natijasida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- mahallaga to'laonli yuridik shaxs tayyor bo'lgan jamoatchilik funksiyalari-huquqining berilishi va xususiy yoki yetarli moliyaviy resurs-ommaviy huquqiy sub'ekt bo'lishi;

- mahalla kengashining uni saylagan Fuqarolar yig'inining fuqarolar oldida hisobot berishini ta'minlanishi yaxshilash;

- yuksak malakali kadrlar bilan ta'minlangan, mahalla kengashiga hisobot xodimlarining malakasini oshirish zarur.

1.8.3.Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ni ma'muriy boshqaruv va jamiyat taraqqiyotidagi roli

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda 5 mingdan ortiq nodavlat tashkilotlari tuzilgan, shu jumladan, 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar, turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan 70 dan oshiq jamg'armalar ishlab turibdi.

Aksar nodavlat tashkilotlarining ishi inson taraqqiyotining soglig'ni saqlash, ta'lim, jismoniy va ma'naviy tarbiya, inson huquqlarini muhofaza qilish, aholining ijtimoiy yordamga muxtoj savollari bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» qonuniga binoan NNT quyidagi shakllarda: jamoat birlashmasi, jamoat jamgarmasi, xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti, shuningdek, qonunchilik aktlarida ko'zda tutilgan boshqa shakllarda tashkil etilishi mumkin. O'zR «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida» qonunida keyingi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, jamoat birlashmasi tushunchasi yanada kengroq ma'noga ega. Qonunga ko'ra ularga kasbiy uyushmalar, siyosiy partiyalar, ilmiy jamiyatlar, ayollar tashkilotlari, veteranlar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» qonuniga ko'ra esa jamoat birlashmalari ma'nosida NNT tashkiliy-huquqiy shakllaridan faqat bittasi tushuniladi.

NNT tashkilotlari nafaqat alohida sohalarda faoliyat yuritmoqda, balki konkret mintaqalarda keng ko'lamlı vazifalarni xal qilishga butun jamoatchilikni jalb etyaptilar ham. Masalan, Xorazmda tashkil qilingan «Al Xorazmiy Vamperi» xalqaro hayriya jamgarmasi viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ko'maklashish va mintaqa ekologik muammolarini xal etish maqsadida mutaxassislar, ilmiy xodimlar va boshqa ijodiy intellegentsiya vakillarini birlashtirdi. Bu tashkilot mintaqadagi ijtimoiy masalalarni xal qilish, NNT va tashabbus guruhlarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlash, boshqa NNT, davlat va biznes tizimlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va mintaqa iqtisodiga resurslarni jalb etish bilan shug'ullanadi. Bu faoliyat natijasida 2001-2003 yillarda viloyatda NNT soni 27 tadan yuztaga ko'paydi, treninglar tashkil qilindi, mahallalarda hamjamiyatlar ehtiyojlarini birgalikda baholash uchun tadqiqotlar o'tkazildi. Eng muhimi, ushbu NNT faoliyati va xizmatining mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tan olinganidir. Mahalliy hokimiyat organlari vakillari qatnashgan treninglar va o'tkazilayotgan boshqa tadbirlar, ishlar natijasida viloyat va tuman hokimligining NNTga munosabati asta-syokin o'zgaryapti.

Uy-joy mulkdorlari shirkati. Haqiqiy markazsizlashtirish va funksiyalarni mahalliy hokimiyat organlaridan NNTga uzatishga yaqdol misol qilib Sharqiy va Markaziy Evropaning ba'zi mamlakatlarida foydalaniladigan - ko'p xonadonli uy-joylar umumiy mulkini boshqarish tizimini keltirish mumkin.

O'zbekistonda ko'p qavatli uylarning kvartiraları o'tgan asrning 90 yillari boshida xususiylashtirilgan edi. Ammo umumiy mulkni boshqarishning yangi, bozor tizimini joriy etish qiyinchilik bilan kechyapti. Bir qancha Sharqiy Evropa davlatlari tajribasiga tahlil qilib, 2000-2004 yillarda mamlakatning birqancha shaharlarida 1466 uy-joy mulkdorlari shirkati (UMSH) tuzilgan edi. Ular NNT maqomiga ega bo'lib, demokratik asosda uylar atrofidagi hududni obodonlashtirish va tozalash, kvartiralarni kapital ta'mirlash, uylar ichidagi qurilmalarni joriy ta'mirdan chiqarish kabi yumushlarni boshqarishlari kerak edi. O'z navbatida, ilgari uy-joylarni ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullangan uy-joy mulkdorlari shirkatlari javobgarligini oshirish uning a'zolariga shirkatga kirish

va chiqish masalalarini umumiy mulk mavjudligidan kelib chiqib, mustaqil xalq etish imkoniyatini berish bilan bog'liq. Umumiy mulkni boshqaruvni professional asosda amalga oshiruvchi professional boshqaruvchi kompaniyalari tashkil etish va faoliyat yuritishining qonuniy asoslarini yaratish juda muhim. Bu umum mulkini professional asosda boshqarish imkonini beradi.

Shunday qilib, turli sohalarda ishlab turib, NNT yangi ish joylarini yaratish, aholining qarorlarni muhokama etish va qabul qilishda qatnashishini kengaytirish, inson huquqdarini himoya qilish hamda turli ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun moliyaviy, texnikaviy, axborot va boshqa resurslarni jalb qilish orqali inson taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Ammo, bugungi kunda NNT salohiyatidan to'liqligicha foydalanilayotgani yo'q. Bunga ushbu tashkilotlar ichidagi kelishmovchiliklar va tashqaridan ularning rolini tushunmaslik, ularga ishonchsizlik bilan qarash ham xalaqit beryapti.

Markazsizlashtirishning maqsadi-boshqaruvning quyi darajasida tashabbusni rivojlantirish va inson taraqqiyoti parametrlarini yaxshilashda umumdavlat choralariga qo'shimcha ravishda mahalliy imkoniyatlardan foydalanishdan iborat. Bunda asosiy vazifa mahalliy tuzilmalarning ehtiyoji ko'lamini aniqlash va o'zaro aloqa sharoitlarini belgilash, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda aholiga turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashishdan iborat.

NNT hokimiyatlar bilan o'zaro munosabat tajribasi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra hokimiyat xodimlari NNT integratsiyalashgan va integratsiyalashmagan deb ikki guruhga ajratishadi. hokimiyat bilan yaqindan hamkorlik qiluvchi NNT integratsiyalashganlar guruhiga qo'shishadi. Bu guruhning asosini davlat madadida tuzilgan tashkilotlar (dehqonlar uyushmasi va fermerlar xo'jaliklari, tadbirkorlar palatasi va shu kabilar) tashkil etadi.

Ayni paytda integratsiyalashgan NNT qonun yaratish jarayonida o'z takliflari bilan faol qatnashishlari kuzatilmaydi. NNT biror bir hududiy reja yoki dasturni tayyorlash yoki amalga oshirishga tashabbuskor bo'lib chiqqanligi qayd etilmagan. Savol-javob o'tkazilgan NNT birortasi ish faoliyatida qonun ishlab chiqish jarayoniga taklif kiritmagan.

Integratsiyalashgan NNT asosan davlatning turli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini tayyorash va amalga oshirish bosqichlarida jalb etiladi. Ushbu tadbirlar odatda tashkilotlarning turli tadbirlarni uyushtirishlariga, jamoatchilik bilan ishlashlariga yordam tarzida kechadi. Konsalting xizmati, axborotlarni to'plash, tahlil qilish kabilar yo'lga qo'yilmagan.

Integratsiyalashmagan NNT bilan hokimiyatlar hamkorlik qilishni istashmaydi. Hokimiyat xodimlarini NNT ishlarining natijalari qiziqitirmaydi. Ular NNT moddiy va ma'muriy yordamga muxtojlar deb bilishadi. NNT maqsadi, o'rni, xizmati ular uchun unchalik oydin emas.

Hokimiyat xodimlarining fikriga ko'ra, NNT bilan yaqindan hamkorlik qilish hokimiyatning aholiga ko'rsatayotgan yordamini, ya'ni NNT imkoniyatlarini ishga solib bu yordamlar monitoringini o'tkazishni yanada yaxshilash mumkin.

Bu yo'nalishda, avvalo, fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari (mahalla qo'mitalari) faoliyat ko'lamini kengaytirish, nodavlat tashkilotlari va boshqa jamoat tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari bilan aloqasini kuchaytirish, har bir oila va uning har bir mehnatga layoqatli a'zosining o'z farovonligini oshirishga qatnashishini faollashtirish muhim.

NNT va quyi darajadagi ko'p sonli tuzilmalarning inson taraqqiyotini yaxshilash jarayonlariga jalb etilishi ishtirok hajmidagi hozirgi nomutanosibliklarni bartaraf qilish va jarayon qatnashchilarining optimal o'zaro aloqa sxemasini shakllantirish imkonini beradi. Bu yangi shakl tepadan-pastga va pastdan tepaga aloqa tarixini o'zida jamlab, shu bilan inson taraqqiyotining yanada yaxshiroq rivojlanishiga ko'maklashadi.

Nazorat savollari:

- 1.Ma'muriy islohotning maqsadi nimalardan iborat?
- 2.Makroiqtisodiy tartibga solishni sanab chiqing?
- 3.Gorizontaal markazsizlashtirishni tushintirib bering?
- 4.Elektron hukumatni joriy qilish zaruriyati va muammolari qanday?
- 5.Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni davlat boshqaruv tizimiga tadbir qanday samaralarga erishiladi?
- 6.Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi qay tarzda o'tkaziladi?
- 7.Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruvchi organlari tuzilmalarini sanang?
- 8.Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)ni ma'muriy boshqaruv va jamiyat taraqqiyotidagi rolini hikoya qilong?

2 bob. Davlat hokimiyati, davlat boshqaruv va xo'jalik boshqaruv organlarining tizimi faoliyati

Tayanch iboralar: davlat hokimiyati, davlat boshqaruv, vertikal ma'muriy, qarorlar.

2.1. Vertikal markazsizlashtirish va davlat hokimiyatining mahalliy organlari salohiyatini mustahkamlash

Markazlashgan rejali iqtisodiyot amalda bo'lgan va bozor iqtisodiga o'tishga kirishilgan dastlabki yillarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga doir davlat qarorlari o'ta markazlashgan holda qabul qilinardi. Mahalliy hokimlikning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkaza olish imkoniyati cheklangan bo'lib, buning natijasida ular markaz qarorlarining passiv ijrochisiga aylanib qolgan edi. Markaziy rejalashtirishdan voz kechish davlat qarorlarning sezilarli darajada markazsizlashuviga olib keladi. Ammo ularning qaysilari markazsizlashtirilib, qaysilari markaziy hokimiyat qo'lida qoldirilishi kerak?

«Ijtimoiy ne'matlar» haqidagi nazariya bulardan birini tanlashga yordam beradi. Mahalliy ahamiyatga molik ijtimoiy ne'matlar faqat ushbu hududdagi (viloyat, tuman) aholiga asqotadi. Bu holda mahalliy hamjamiyatlar o'zlari uchun zarurroq bo'lgan tovar va xizmatlarning xususiyati haqida va qanday qilib uni yaxshiroq ishlab chiqarish yoki taqdim etishni yaxshiroq biladi. Bunday afzallik ayniqsa jamoat harakteridagi xizmatlarni ishlab chiqishda ularning mahalliy ehtiyojlarga mos kelishi jihatidan qimmatli.

Biroq katta hududlarga yoki butun mamlakatga ta'sir etadigan loyihalarda mahalliy miqyosda qabul qilingan qarorlar yetarlicha muvofiqlashmaganligi tufayli samarasiz bo'lib chiqishi muammosi bor. Binobarin, bunday qarorlar markazlashgan tarzda qabul qilinishi kerak. Masalan, mamlakatning turli hududlarini bog'lovchi avtoyo'l qurilishini («davlat miqyosidagi ijtimoiy ne'matlar»ning oddiy misoli) markaziy hukumat idoralariga ishonib topshirishi ma'qul. Aniqroq qilib aytusak, bunday jamoat tadbiri uchun «optimal ishlab chiqarish ko'lamini» aniqlab olish zarur. Uning ba'zi bosqichlarini tuman darajasida, boshqalarini tumanlararo darajada (ijtimoiy va boshqa sohalar bilan bog'liq) bajargani ma'qul, qolgan bosqichlar viloyat yoki bir necha viloyatlar o'rtasida, pirovardida esa davlat miqyosida bajariladi.

Umuman bunday yondashuvda «davlat miqyosidagi ijtimoiy ne'matlar»ni emas, «mahalliy miqyosdagi ijtimoiy ne'matlar» (sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, yo'lovchi tashish transporti va boshqa sohalar)ni markazsizlashtirgan ma'qul. Boshqacha qilib aytganda, «xo'jalik muammolari avvalo mahalliy darajada xal qilinishi lozim» degan printsipga suyanish kerak, ya'ni yuqori darajadagi institutlar quyi darajadagi institutlar bajara olmaydigan yoki samarasiz bajaradigan xizmatni ko'rsatishi lozim.

Har bir mamlakat o'z tarixi, xalqining mentalitetidan kelib chiqadigan o'z markazsizlashtirish tajribasiga ega. Ba'zi Evropa davlatlari, masalan Shveytsariyada markazlashgan davlat kichik mustaqil davlatlar (kantonlar) birlashishi asosida yuzaga kelgan va shu sabab markazsizlashtirish u erda «pastdan-yuqoriga» shaklida kechdi. Boshqa davlatlar, masalan, Frantsiyada davlat hamisha yuqori markazlashganligiga ko'ra ajralib turgan va markazsizlashtirish «yuqoridan-pastga», ya'ni vakolatlarning bir qismini markaziy organlardan hududiy bo'linmalarga (dekonsentratsiya) yoki mahalliy o'z-o'zini boshqaruv organlariga berish orqali amalga oshirilgan.

Hozirgi O'zbekistonda ikki asosiy mahalliy boshqaruv shakli borki, ko'pincha, asossiz ravishda ular bir tushuncha, deb qaraladi.

Birinchidan, joylardagi davlat hokimiyati organlari - viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, shahar va tumanlardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlari. Bu organlar joylarda davlat hokimiyatini namoyon qiladi va o'zidan yuqori darajadagi davlat boshqaruvi organlari hamda ushbu hududda istiq'omat q'iluvchi aholi oldida javobgar hisoblanadi.

Ikkinchidan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari - davlat hokimlik tizimiga kirmasdan, fuqarolarning haqiqiy o'z-o'zini boshqaruv organlari hisoblangan shaharcha fuqarolar yig'ini, qishloq, ovul va mahalla yig'ini kengashidir. Bu o'z-o'zini boshqaruv organlarining boshqaruvchilari tegishli hududda istiqomat qiladigan aholi tomonidan saylanadi va bevosita unga hisob beradi.

Ushbu shakllarga muvofiq, markazsizlashtirishni ikki yoq'lama jarayon deyish mumkin: bir tomondan, davlat boshqaruvi markaziy organlarining mumkin bo'lgan funksiyalari joylardagi davlat hokimiyati organlariga berilsa, ikkinchi tomondan, mahalliy masalalarni hal q'ilish fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga topshiriladi. Bu esa shaharcha, qishloq, ovul va mahallalarda istiqomat

qiluvchilarning kundalik tashvish va ehtiyojlari hamda hududning tarixiy o'ziga xosliklari, milliy va ma'naviy qadriyatlarini yanada to'laroq hisobga olish imkonini beradi.

2.2.Joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarining tahlili

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, markaziy va mahalliy hokimlik o'rtasidagi hayotiy zarur munosabatlarni tartibga solib, markaz va hududlar manfaatlarining optimal muvozanatini ta'minlovchi mexanizmning bo'lishi har qanday davlatga juda zarur. Markaziy va mahalliy ahamimiyat o'rtasidagi funktsiyalarni optimal taqsimlash, shuningdek, turli darajalar o'rtasida mablag' va xizmatlarning erkin almashinuvini ta'minlash zarur bo'ladi. Keyingi yillarda bu jarayonlar markazsizlashtirish bilan ko'proq bog'lanyapti.

Jahon amaliyotida ma'lum mamlakatdagi markazlashtirish darajasini ko'rsatib beruvchi ba'zi umumiy ko'rsatkichlar (indikatorlar) mavjud. Markazsizlashtirilgan boshqaruvning asosiy ko'rsatkichlari bu mahalliy hokimiyat organlarning siyosiy, ma'muriy va moliyaviy muxtoriyatidir.

Davlat hokimiyatining mahalliy organlari jamiyat hayot faoliyatining uyg'un va samarali kechishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Buning sabablari quyidagicha:

birinchidan, ular hukumat tomonidan ishlab chiqilayotgan davlat iqtisodiy siyosatining hududlardagi etakchisidir. Mahalliy hokimiyat organlari institutlari markaz tomonidan taqdim etilgan g'oyalar, kontseptsiyalar va dasturlarni amalga tadbqiq qiladilar;

ikkinchidan, ular aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish, hududning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik sohalarida barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan hududiy siyosatni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi institutlardir;

uchinchidan, ular davlat, tadbirkorlik va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida vositachi vazifasini o'taydi. Aynan ular «davlat-biznes-fuqarolik jamiyati» ijtimoiy hamkorligida muvofiqlashtiruvchilik rolini o'ynashi kerak.

O'zbekistonda davlat boshqaruv organlari tizimini isloh qilish jarayoni joylarda yangi boshqaruv tizimi yaratilishiga olib keldi. Uning asosini o'zida ham ijroiya, ham vakillik hokimiyati rahbarligini jamlagan hokimlik institutlari tashkil etadi.

Davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatining demokratiya, ijtimoiy adolat, qonuniylik, oshkoralik, inson huquqlarini ta'minlash, davlat va mahalliy manfaatlarni hisobga olish kabi asosiy printsiplari Konstitutsiyada belgilab berilgan.

Davlat va xo'jalik markaziy boshqaruv organlarini qayta tashkil etish asnosida ularning ko'plab funktsiyalari

Markazsizlashtirilgan boshqaruvning asosiy shartlari

Siyosiy kafolat - hokimiyat taqsimoti printsiPGA qat'iy rioya qilish, jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini chuqurlashtirish, o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish, davlat hokimiyati mahalliy organlari vakolatini kengaytirish.

Iqtisodiy kafolat - mulkchilikning turli shakllari: xususiy, kooperativ, munitsipial mulklarni qonuniy belgilashdan iborat. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlari va ular faoyaiyatini himoya qiluvchi guruhlarining huquqiy himoyasi bo'lishi kerak. Mahalliy darajada bozor mexanizmlarini faol joriy etishni ta'minlab, tadbirkorlarni ro'yxatga olish tartibini engillashtirish va ularning huquqini himoya qilish hisobiga ularning mushkulini engillashtiradigan iqtisodiy kafolatlar yaratilishi kerak. Bu markaziy organlarning quyi bo'g'inlar kundalik faoliyatiga aralashish imkoniyatini ancha chegaralaydi, ularni ma'muriy emas, balki iqtisodiy ta'sir metodlarini qo'llashga majbur etiladi. Ommaviy axborot vositalari orqali aralash iqtisod nima degani, kishilar ehtiyojini yaxshi qondirayotgan firmalarni raqobat qanday rag'batlantirib, bunga e'tibor qilmagan firmalarni qanday jazolashini ko'pchilikka tushintirib beruvchi ta'limiy kompaniya o'tkazish ham jami natijalar bergan bo'lardi.

Huquqiy kafolat - qonun ustivorligi printsiPGA rioya qilishni ta'minlash, amaldagi qonunlarni yangilash va unda davlat hokimiyati markaziy organlarining jamiyat hayotining barcha jabxalarida kerakli yagona umumdavlat siyosatini o'tkazish uchun zarur bo'lgan vakolatlarinigina qoldirish.

Davlat hokimiyatining mahalliy organlari jamiyat hayot faoliyatining uyg'un va samarali kechishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi

Bular asosan nazorat va tekshiruv, litsenziya berish, standartlarni belgilash, resurslarni joylashtirish, davlat xizmati ko'rsatish, xizmat sifatini monitoring qilish kabi vazifalardir. O'z navbatida, hokimlikning viloyat va tuman darajalari orasidagi vazifalar yanada aniqroq, taqsimlana boshlandi. Misol uchun, oliy va o'rta kasb-hunar ta'limi sohasida ham markazga (vazirlik), hamda viloyatga (viloyat darajasidagi vazifalar-moliya, mehnat resurslarini joylashtirish va h.k.) bo'ysinadi.

O'rta umumiy ta'limni boshqarish bilan yuqorida turuvchi bo'g'inlardan tashqari, boshqaruvning tuman darajasi (joriy boshqaruv, jarayonni muvofiqlashtirish, resurslarni joylashtirish, monitoring) ham shug'ullanadi. Shuningdek, davlatning atrof-muhitni himoya qilish, madaniy merosni asrash, avtomobil va yo'lovchi tashish transportini tartibga solish, shahar qurilishi, aholiga kommunal va boshqa maxsus xizmat ko'rsatish (masalan ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni, nogironlarni qo'llab-quvvatlash) kabi funktsiyalari mahalliy hokimiyat organlariga berilgan. Bularning hammasi mahalliy o'ziga xosliklarni yanada kengroq hisobga olish, bajarish operativligini oshirish imkonini beradi (2.1-chizma).

O'z navbatida, mahalliy davlat hokimiyati organlari jamoat xizmati sifatini oshirish maqsadida o'z funktsiyalarining bir qismini xususiy tarmoqqa beradi, o'z-o'zini boshqaruv organlari, nodavlat tashkilotlarini jalb etadi. Masalan, hokimliklar xususiy firmalarga tender bo'yicha yo'lovchi tashish bo'yicha shahar marshrutlarini sotadi. Natijada, yo'lovchilarning kattagina qismiga xususiy transport xizmat ko'rsatadi. Uy-joy kommunal xo'jaliklari o'rniga uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil qilindi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining munitsipal mulkka kirmaydigan korxonalar bilan munosabatlari shartnoma asosida ko'riladi. Katta shaharlarda mahalliy davlat hokimiyati organlari assotsiatsiyalar barpo qiladilar, xususiy korxonalar bilan ijtimoiy hamkorlik asosida aloqaga kirishadilar.


Ma'muriy islohotning maqsad va vazifalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish choralari ko'rilyapti. Davlat boshqaruvi hududiy organlari tarkibi takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat boshqaruvi hududiy organlari tarkibini mukammallashtirish haqida»gi qaroriga muvofiq, 2004 yilning birinchi yarmida barcha hokimliklar yangi boshqaruv tarkibiga o'tdilar, viloyat, shahar va tuman hokimlari o'rinbosarlari soni qisqartirildi, hokimlar mahkamasi xodimlari soni ham kamaytirildi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan viloyat hokimi urinbosari lavozimi joriy qilindi. Ularning asosiy vazifasi mahalliy byudjetning bajarilishini ta'minlash, ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, aholining ish bilan bandligini ta'minlash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Shu bilan birga, joylardagi davlat hokimiyati organlari faoliyatida ularning samarali ishlashiga xalaqit berayotgan bir qancha muammolar mavjud. Joylardagi mavjud davlat hokimiyati organlari ikki tomonlama - ham viloyat, ham tuman boshqarmalari: hokimlik va tegishli vazirlikka bo'ysinadi. Iqtisodiy islohotning ilk davrida ikki tomonlama buyinish butun davlat hokimiyatining muhim qismi hisoblanadi, Chunki markaziy organlarga nazorat, mahalliy hokimlikka esa rejalashtirish, moliyalashtirish, xizmat ko'rsatish va ularni nazorat qilish imkoniyatini beradi. Ammo jamiyat hayotining barcha sohalari erkinlasha borgani sayin, vazirliklarning Hududiy bo'linmalari (muassasalar) bilan Hokimliklar o'rtasida boshqaruv funktsiyalarining aniq taqsimoti yo'qligi davlat Hokimiyati mahalliy organlari ishida noaniqlik va bir ishni ikki organ bajarishi kabi hollarga olib keldi.

Ikki tomonlama bo'ysinish tizimi ko'p hollarda hududiy organlar xodimlariga «yuqori»ning ijozatisiz qaror qabul qilish imkonini bermaydi. Bu qaror qabul qilish vaqtining cho'zilishi, ko'pincha noto'g'ri yoki bevaqt qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi. O'z-o'zidan ravshanki, buning uchun hech kim javob bermaydi.

Mahalliy darajada vakolatlarni taqsimlash jihatidan hozirda birxillashtirilayotgan viloyat va tuman Hokimliklarining tashkiliy tarkibini noratsional deb hisoblash mumkin. «Joylardagi davlat hokimiyati organlari to'g'risida»gi qonunda turli darajadagi hokimliklar o'rtasidagi mas'uliyat doirasi aks etmagan. Bu ijroiya hokimiyatining turli darajalari o'rtasida «kim qanday ish uchun javobgar»ligi borasida noaniqlik tug'diradi.

Barcha darajadagi ijroiya hokimiyati organlari tomonidan davlat qarorlarini ko'rib chiqish va qabul qilish tartibotiga oid ochiq-oydin normativ andozalar (hujjatlar) yo'q. Bu qaror qabul qilish jarayonining byurokratlashishi uchun katta imkoniyat demak. Natijada, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida boshqaruv funktsiyalarining (o'z tabiatiga ko'ra, bitta boshqaruvni talab qiluvchi) noaniqligi va turli bo'linmalar orasida «sochilib» ketishi, rahbarning boshqaruv vazifalari haddan tashqari ko'pligi yoki yetarlicha emasligi, hokimlik personalining ularga taalluqli bo'lmagan vazifalar bilan band bo'lishi (oqibatda ular o'z vazifalarini bajara olmaydilar) kabi holatlar mavjud.



2.1-chizma. O'zbekiston Respublikasi hokimiyatining taqsimoti

Hozirgi paytda hokimlik vakillik organlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga oid masalalarni hal etishdagi roli ko'zga ko'rinarsizligicha qolyapti.

Funksional tahlil bo'yicha ilk loyiha natijalari. Tuman hokimlari ijroiya va vakillik organlarini boshqarib, xo'jalik sub'ektlariga samarali ta'sir etish vositalariga ega. Kengash va deputatlar esa amalda ijroiya organlarining ijrochilari sifatida namoyon bo'lishadi.

Xalq deputatlari kengashi tomonidan hokimlik faoliyatini nazorat qilish amalda deyarli mavjud emas. Deputatlar bu holatni kengashda doimiy ravishda ishlamasliklari, moddiy va siyosiy omillarning etishmasligi bilan izohlashadi. Hokimlik xodimlari esa o'z o'rnida bu fakti deputatlarning malakasi etishmasligi va tashabbuskor emasliklari bilan bog'lashadi. Ular fikricha deputatlarning «tashabbusizligi» uchun imkon bergan darajada hokimiyatdan foydalana olmayotganliklari va ish rejimining muntazam emasligidadir. Deputatlar asosan o'zlari doimiy ishlaydigan joydagi vazifalarini bajarish bilan band bo'lishadi. Deputatlik majburiyatlari ikkinchi darajali vazifa sanaladi.

Ishlarning ikkinchi jihati barcha darajadagi Xalq deputatlari kengashlari o'z ishini tashkil qilishda hokimlikka bog'liqligidir. Hokimlikning tashkiliy-nazorat bo'limlari Kengash sessiyalarini, saylovchilar bilan o'tadigan uchrashuvlarni uyushtirishadi. Kengashning tashkiliy-texnik faoliyatini ta'minlash ham hokimlik bo'limlariga yuklatilgan.

Kengash o'z faoliyatining tashkiliy va moddiy-texnik masalalarini hal etuvchi doimiy Kotibiyatga ega emas.

«Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida»gi qonun ularning konkret vakolatlarini ochib bermaydi, ular faoliyatining tashkiliy va mablag' ta'minotini aniqlamaydi hamda formal jihatdan ularni hokimlik institutiga bog'liq qilib qo'yadi. Amalda faqat hokimlar real siyosiy, qoida chiqarish, tashkiliy, moddiy va moliyaviy resurslarga ega. Viloyat, shahar, tuman hokimlari vakillik organlari va o'z aholisi oldida deyarli hisobot bermaydilar. Bu ko'pincha hokimlar va ularga bo'ysingan mahkama aholining ehtiyojlarini inkor qilishiga, ularga tegishli bo'lmagan funktsiyalar, shu jumladan korxonalarining xo'jalik faoliyatiga aralashish bilan shug'ullanishiga olib keladi. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining aholi tomonidan nazorat qilinishining sustligi ular aholiga ko'rsatayotgan xizmat sifatining pastligiga sabab bo'lyapti. Mahalliy hokimliklar moliyaviy, moddiy-texnikaviy va kadrlar tomonidan cheklanganligi tufayli ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga real ta'sir o'tkaza olmayapti.

Kadrlar siyosati davlat xizmatchilari to'g'risidagi qonunlar bilan mustahkamlanmagan. Mahalliy hokimiyat organlari va tegishli ma'murlarning kundalik masalalarni yechishdagi uquvsizligi ham muammolar keltirib chiqaryapti.

Korrupsiyaga qarshi amaliy mexanizmga ega bo'lgan samarali davlat xizmatini yaratish yanada dolzarb bo'lib qoldi. Jumladan, davlat xizmati yangi kadrlarning kelishi uchun ochiq bo'lishi kerak. Davlat xizmatiga kadrlarni tanlov asosida olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

Vazirliklarning hududiy bo'linmalari (muassasalar) bilan hokimliklar o'rtasida boshqaruv funktsiyalarining aniq taqsimoti yo'qligi davlat hokimiyati mahalliy organlari ishida noaniqlik va bir ishni ikki organ bajarishi kabi hollarga olib keldi

4. Davlat hokimiyati mahalliy organlari va mahalliy tadbirkorlikning munosabatlarida eski ma'muriy tizim qoldiqlarining o'zi seziladi. Hokimlikning kichik biznes faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashishi hali ham ko'p uchraydi. Shu sababli, mahalliy hokimlik va biznes orasidagi muammolarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishlar va tekshirishga vakolatli organlar sonini kamaytirish; mahalliy hokimlikka xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'ini majburan olib qo'yishni ta'qiqlab qo'yish (shu jumladan, «ko'ngilli ravishda» pul o'tkazish), davlat organlari nodavlat korxonalarining xo'jalik faoliyatiga, kadrlar siyosatiga aralashuvini (mas. korxona yoki firma rahbarini tayinlash) ta'qiqlash orqali hal qilish muammosi ham turibdi. Tadbirkorlar mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan erkin muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bu ularga o'z muammolarini ochiq aytish va muhokama qilish imkonini bergan bo'lardi.

5. Fuqarolik jamiyati institutlari hudud ijtimoiy rivojlanishiga oid masalalarini xal etishga sust jalb qilingan. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali muloqoti yo'lga qo'yilishi birdaniga ikki vazifani xal etish imkonini beradi: mahalliy hokimiyat organlari mahalliy jamoat institutlarining oyoqda turishiga ko'maklashsa, fuqarolik jamiyati institutlari esa hudud fuqarolik qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ishtirok etadilar.

6. Davlat hokimiyati mahalliy organlarining vazifalari va funktsiyalarini belgilovchi mukammal me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi ham keskin muammolardan biri bo'lib turibdi. Huquqiy bo'shlik amalda vazifalarning takrorlanishi, ularni boshqaruvning yuqori organlariga bog'liq holda xal qilish, moliyaviy, kadr, moddiy-texnikaviy resurslarning yo'qligi tufayli umuman bajarilmasligiday salbiy holatlarga olib kelyapti.

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining bilvosita funktsiyalariga qisman bog'lanuvchi yakuniy hujjatlar ham yo'q (mas., hududiy siyosat bo'yicha qonuniy hujjatlari portfeli mavjud emas, mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi indikativ rejalari ishlab chiqish metodlari yo'q).

Hokimiyatga yuklatilgan funktsiyalarning qonuniy ta'minotini oshirish bo'yicha qonuniy-me'yoriy hujjatlarda quyidagi choralar mustahkamlanishi zarur:

- hududlar rivoji dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda mustaqillikni oshirish;
- kadrlar siyosatining samaradorligini oshirish;
- hokimliklarning tashkiliy nazorat faoliyatini takomillashtirish;
- mintaqada ko'rsatilayotgan jamoat xizmati samaradorligi va sifatini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Hokimiyatlarni professional kadrlar bilan ta'minlash muammolari. Hokimliklarni kadrlar bilan ta'minlashda asosiy muammo quyidagilardan iborat:

- kadrlarni tanlash tizimi, ularni xizmatda ushlab turish, attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirishni birgalikda olib borish bo'yicha hokimliklarda yagona kadrlar siyosatining yo'qligi;
- kadrlar tanlashning norasmiy tizimlari ishlab turganligi;
- hokimlik xodimlarining ko'p vaqti vazirliklarga hisobot va so'rovlarga javob tayyorlashga sarf bo'lishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining kamligi yoki undan samarasiz foydalanish;
- ish xaqining kamligi.

Hududlardagi bu sohadagi yana bir muammo eng malakali kadrlarning yaxshi maosh to'lanadigan xususiy tarmoqqa o'tib ketayotganligidir.

Davlat xizmatiga kadrlar tanlab olish tizimi. O'zbekistonda davlat faoliyat turini tanlash erkinligi, ishga qabul qilishda nohaq rad javobi berish va mehnat shartnomasini nohaq to'xtatishdan himoya, kasb egallash va ishga kirishda, ish sharoitlari hamda mehnatga haq to'lash va xizmat pog'onasidan ko'tarilishda teng imkoniyatlarni kafolatlaydi.

Ammo davlat xizmatiga xodimlar tanlash jarayoni yetarli darajada ochiq-oydin emas.

Bo'sh vakant o'rinlarning borligi, hujjat taqdim qilish muddatlari, tanlov o'tkazish joyi haqidagi ma'lumotlar deyarli e'lon qilinmaydi. Mahalliy darajadagi hokimlik apparatida bo'sh o'rinlarga konkurslar asosan yopiq tarzda o'tkaziladi.

Markazsizlashtirish va ekspert nuqtai nafari. Sho'ro yoki kommunistik mafkura davlat individum emas, butun jamoatchilikning vakilidir, degan aqidadan kelib chiqib, har bir kishi butun jamiyatga xizmat qilishi lozim deb hisoblar edi. Subsidiya tafakkur tarzi esa aksincha asosiy urg'uni individumga berib, unda bosh mohiyatni ko'radi va davlat individumga xizmat qilish uchun tuziladi deydi.

Oddiy insonni ko'pincha milliy siyosatda birgina narsa, ya'ni milliy davlat uning uchun dolzarb bo'lgan muammolarni hal qilishga joylarga qanchalik yordam bera olishi qiziqtiradi.

Davlatning markazlashmagan tizimga o'tishi uning kuchsizlanishi emas, balki aksincha kuchayishiga xizmat qilishini barcha aniq tushunishi kerak. Davlat kundalik vazifalarni quyi bo'g'inga qanchalik ko'proq ishonib topshirsa, u shunchalik kuchli bo'lishini tajribalar aniq ko'rsatyapti. Chunki, joylardagi ijrochilar xalq ommasiga yanada yaqin turishadi.

2.3. Vertikal ma'muriy tuzilmalar va uni gorizontal tarmog'ini mustaqil tuzilmalarni shartnomaviy boshqaruviga yoki tartibga solishiga almashtirish jarayoni

O'zbekistonda so'ngi yillar davomida yuz bergan keng ko'lamli o'zgarishlar iqtisodiy munosabatlarga mos yangi davlat boshqaruvi tizimini yaratishni taqazo etdi. Ko'pgina sohalar bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Masalan, keng ko'lamli xususiylashtirish davlat mulkining salmoqli qismini xususiy sektorga ushbu mulkni boshqarish yoki unga egalik qilish uchun berish imkonini yaratdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ma'muriy apparat ishining nechog'li samaradorligiga bog'liq. Ulkan byurokratiya apparat rivojlanishiga to'sqinlik qiladi hamda davlatning bozor islohotlari, ijtimoiy vazifalarni bajarishga doir sa'yi-harakatlariga xalaqit beradi. Bunday holat ro'y bermasligi uchun davlat ma'muriy tizimini isloh qilishga hamda uni zamonaviy talablariga moslashtirishga majbur.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining qisqarishi.

Bo'lajak tub o'zgarishlarning mohiyati nimada? Birinchidan, bu — iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining keskin qisqarishi, davlat tuzilmalarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga asossiz aralashuviga barham berishdir. Davlat zimmasida davlatning faol ishtirokisiz amalga oshmaydigan vazifalargina qoladi. Bular, eng avvalo, umumdavlat miqyosidagi strategik masalalar, xususan, makroiqtisodiy barqarorlik, islohotlar dasturlarini hamda iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishini. Ijtimoiy sohada, kommunikatsiyalar tizimida ustuvor dasturlarni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xokazo.

Ikkinchidan, bu—respublika darajasidagi vakolatlarining bir qismini mahalliy boshqaruv organlariga o'tkazilishi demakdir. Vazifalarning bu tarzda takomillanishi, bir tomondan, mahalliy organlarning belgilangan vazifalarni bajarishda mas'uliyatini oshiradi (avvalo, bandlik, ijtimoiy

rivojlanish va faxrli turmush farovonligini yuksaltirishga taalluqlidir), ikkinchi tomondan, ularning samaradorligini kuchaytiradi, zero hududlarning o'ziga xos jihatlari e'tiborga oladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda davlat vazifalarini qisqartirish, tadbirkorlikka keng yo'l ochish hamda iqtisodiy munosabatlarini erkinlashtirish. O'tkazilayotgan islohotlar doirasida bugungi kunda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari vazifalari va tarkibini qayta ko'rib chiqish ishlari jadal olib borilmoqda. Bunda boshqaruv tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qabul qilinayotgan qarorlar sifatini yaxshilash hamda boshqaruv apparatiga sarflanayotgan asossiz harajatlarni qisqartirishga qaratilgan qat'iy faoliyatga alohida ahamiyat berilmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, markazda tashkil etilgan har qanday boshqaruv organi odatda viloyatlar va tumanlarda o'zining hisob beruvchi bo'linmasiga ega bo'ladi, bu esa, boshqaruv apparatining va texnik xodimlarning ko'payib ketishiga olib keladi. Oqibatda, qo'shimcha nazorat organlari paydo bo'lishiga, harajatlar ko'lamini ortishiga, turli xil kelishuvlar va kerakli-keraksiz hujjatbozliklarga olib keladi. Bular davlat boshqaruvining ayrim organlari faoliyatining samaradorligi keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

Islohotlarning asosini tashkil etuvchi iqtisodiyotni boshqaruvning yangi kontsepsiyasi vertikal ma'muriy tuzilmalarni aniq vazifalarni bajaruvchi mustaqil tashkilotlarning gorizontali tarmog'i bilan muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. Bunda shartnoma asosida boshqarish, ichki va tashqi audit kabi mexanizmlar yaratiladi. Davlat siyosatini shakllantirish masalalari vazirliklar va davlat qo'mitalarida jamlanadi, ularning ijrosini ta'minlash va nazorat qilish agentlik, qo'mita, inspeksiya kabi davlat boshqaruv organlari zimmasiga yuklanadi.

Davlat sektori faoliyatiga xorij tajribasidan o'tkazilgan, xususiy kompaniyalarda qo'llaniladigan davlat menejment usullari tobora kengroq joriy etilmoqda. Bunda asosiy e'tibor davlat tuzilmalarining tahliliy, taxminiy va baholash vazifalarini rivojlantirishga, eng muhimi — qarorlar qabul qilish, avvalo, markaziy boshqaruv organlarida qabul qilinayotgan qarorlarning sifati va ularning tayyorlanishini yaxshilashga qaratiladi.

Boshqaruv tarkibini takomillashtirishga nisbatan bunday yondashuvga misol tariqasida Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ikkita mustaqil davlat boshqaruv organiga — Iqtisodiyot vazirligi va Statistika davlat qo'mitasiga aylantirilganini, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "Uzbekneftgaz" xolding kompaniyasidagi va boshqa davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlaridagi tashkiliy o'zgarishlarni keltirish mumkin.

Shuningdek, tumanlar boshqaruvi tarkibini optimallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy Majlis va respublika xukumati qarorlariga ko'ra 2003-2004 yillarning o'zida 8 ta ma'muriy tuman hokimligi va ularning quyi tashkilotlari tugatildi. Ushbu ma'muriy tumanlarning birlashtirilishi, ortiqcha hududiy boshqaruv tizimlari va ularning quyi tashkilotlarining tugatilishi yarim milliard so'mni tejash, bu mablag'ni mazkur tumanlarning ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga sarflash imkonini berdi.

Bu yil ilgari davlat tomonidan fond sifatida ajratilgan paxta tolasi, yo'qligi va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, rangli va qora metallar, o'simlik yog'i, g'alla, un, shakar kabi xomashyo va moddiy resurslarni limit tariqasida taqsimlash tizimiga butunlay barham berish yakunlanadi. Endi tadbirkorlar bu resurslarni birja va yarmarka savdosi orqali harid qiladi, bu esa, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarni tang sharoitda ishlashi uchun imkon yaratadi.

2.4.Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining tuzilmalarga birlashtirilishi va qisqartirilishi

Boshqaruv apparati soni va uning ta'minoti harajatlarining qisqarishi ma'muriy islohotning amaliy natijasi bo'ldi. Bu ma'muriy islohotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu harajatlarni takomillashtirish va qisqartirishda o'z navbatida korxonalar va aholining soliq yukini kamaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Hukumat tomonidan boshqaruv apparati sonini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar 2004 yilda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida ularning sonini 40 ming kishiga yoki 22 foizga qisqartirish va har yili 40,5 milliard so'm mablag'ni tejash imkonini beradi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari boshqaruv xodimlarining qisqartirilishi natijasida ularning soni har ming kishiga 6,1 kishini tashkil etadi yoki aholi mehnat bilan band qismining 1,6 foizidan oshmaydi. Bu MDHning boshqa mamlakatlaridagidan ancha kam. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarni keltirish mumkin: Qozog'istonda - 19,2 va 3,4, Ukrainada - 20 va 4,5, Rossiyada - 22,1 va 3,9

Masalan, Rossiyada davlat apparatining o'rtacha vazifalarini qisqartirish bo'yicha sa'y-harakatlarga qaramay, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari xodimlari soni

so'nggi uch yilda 1141 mingdan 1259 mingga kengaydi. Ayni paytda, mustaqil axborot manbalarining xabar berishicha, 20 foizga yaqin amaldorlar zarur kasbiy ma'lumotga ega emas.

Ta'kidlash joizki, birinchi navbatda, sun'iy ravishda kengayib ketgan byurokratik apparatni qisqartirishga qaratilgan ma'muriy islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Evropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Shimoliy Amerikaning ba'zi mamlakatlarida ish bilan band aholiing umumiy sonida boshqaruv xodimlari solishtirma salmog'i 2 foizdan 15 foizgacha yetadi; AQSHda - 5 foiz, Shvetsiyada - 18 foiz, Buyuk Britaniyada - 1 foiz, Germaniyada - 6,7 foiz, Polshada - 5,8 foiz, Turkiyada - 6,3 foiz, Yaponiyada - 3,2 foiz, Janubiy Koreyada - 2,3 foiz.

Ma'muriy islohotni chuqurlashtirish statistik hisobotni yig'ish vazifalari va davlat boshqarmalarining tegishli apparati sonini qisqartirish hamda statistik hisobotning muayyan turlari bo'yicha davriyligini qisqartirish, ayni paytda saqlab kelinayotgan hisobotni soddalashtirish va bixillashtirishni ko'zda tutadi. 2003 yilda O'zbekistonda idoraviy statistik hisobot ro'yhati va mazmuni qishloq xo'jalik shirkatlari uchun 60 foizdan ortiq, sanoatda uchdan biriga, kichik va xususiy tadbirkorlikda 35 foizdan ko'proq qisqardi.

Ortiqcha byurokratik boshqaruv xodimlarini qisqartirish va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish jarayoni lavozimida qolgan xodimlar zimmasiga qarorlarni tayyorlash va qabul qilishda hamda ularning ijrosi ustidan amaliy nazoratni ta'minlashda yuqori malaka bilan ishlash talabini qo'yadi.

Eng yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish ma'lumotlar almashish va qaror qabul qilishni tezlashtirish imkonini beradi, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik sub'ektlari va aholi o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilaydi.

Ma'muriy islohot respublika aholisi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, u avvalo iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish uchun sharoit yaratishga, oqibatda aholining turmush darajasi va sifatini yuksaltirishga yonaltirilgan. Davlat o'z xo'jalik boshqaruvi tizimi ishini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning sifati va izchilligi ko'p jihatdan butun boshqaruv tizimining samaradorlik darajasiga, uni jamiyatni isloh qilishning bugungi talablarga moslashtirishga bog'liq.

2.5. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarish.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ijobiy rivojlanishi uni bevosita davlat va mintaqa boshqaruvi darajasida tartibga solish bilan uzviy bog'liq. Uni tartibga solish bo'yicha samarali mexanizmning amal qilishi, mazkur yo'nalishda ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy bazaning bus-butunligi, to'la-to'kisligi bilan belgilanadi.

Mustaqillikdan so'ng, demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy davlatni shakllantirish yo'nalishida xalqaro me'yorlarga to'g'ri keladigan O'zbekiston Respublikasining qonun va kodekslari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilindi. «Joylardagi mahalliy davlat hokimiyatlari to'g'risida», «Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida», «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunlar, «Soliq», «Er» va «Fuqarolik» kodekslari va boshqa me'yoriy hujjatlar mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bilan bog'liq qonun hujjatlaridir.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishini tartibga solish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- mamlakatning barcha mintaqalarini barqaror rivojlantirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish;
- mintaqalardagi inson omili va tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish;
- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda mavjud bo'lgan jug'rofik nomutanosibliklarga barham berish;
- mintaqalarning ixtisoslashuvi va tumanlararo iqtisodiy aloqalar tizimini optimallashtirish (maqbullashtirish);
- mintaqalarni o'zaro iqtisodiy integratsiyalashtirish hamda yagona iqtisodiy kompleksni shakllantirish va hakoza.

Bugungi kunga kelib respublika iqtisodiyotining alohida sektorlarini (soha va tarmoqlari) rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish amaliyoti shakllangan bo'lib, unda mazkur tarmoq va sohalarni hududiy jihatdan taraqqiy ettirish, korxonalarni joylashtirish, uning iqtisodiy-ijtimoiy natijalari monitoringini olib borish kabi masalalar ham qamrab olinadi.

Shu bilan birga, respublikada muayyan hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llanmoqda.

Hududlar hokimiyati darajasida, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning quyidagi:

- ekologik jihatlarni hisobga olgan holda, hududiy (shahar va qishloq o'rtasida) rivojlanishda muvozanatni ta'min etish;
- mintaqa xo'jaligini oqilona tashkil etish, mahalliy sanoatni taraqqiy ettirish hamda xususiy biznes rivojlanishiga ustuvorlik berish;
- ijtimoiy sohani rivojlantirish va individual (adresli) ijtimoiy himoyani ta'minlash;
- yangi ishchi o'rinlari yaratish va bandlikning oqilona tarkibini shakllantirish kabi vazifalarni bajarish talab etiladi.

Xulosa qilib, aytganda, hududlar xos xususiyatlarni hisobga olgan holda mintaqa miqiyosida boshqaruv tarkibini takomillashtirishni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, respublika miqiyosidagi boshqaruvga taalluqli bo'lmagan, mustaqil bozor infratuzilmasi (bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi mintaqaviy sanoat-moliyalashtirish guruhi va xolding kompaniyalari, hududiy birlashma va ittifoqlar, sug'urta, lizing, auditorlik va boshqa kompaniyalar) ob'ektlarini shakllantirish ham birlamchi vazifalar qatoriga kiritilishi lozim.

Yana shuni ta'kidlash zarurki, mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarida belgilab berilganligi sababli, viloyat va uning tarkibidagi mahalliy boshqaruv tizimidagi qarorlar yuqoridagi me'yoriy hujjatlar negizida qabul qilinishi kerak.

2.6.Ma'muriy hududlarni iqtisodiy imkoniyatlarini baholashning bozor tomoyillari statistikasida aks ettirish

Iqtisodiy imkoniyatlar yig'ma axborot ko'rsatkichlar bo'lib, uning asosida ijtimoiy xo'jalik, uning diversifikatsiyasining tarmoq tuzilishini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilinadi. Uning hajmini to'g'ri aniqlash qabul qilinadigan qarorlarning samaradorligiga, ularni amalga oshirishning tezligiga, aholining yashash darajasi va farovonligiga ta'sir ko'rsatadi. U esa, o'z navbatida, iqtisodiy imkoniyatlarni hisoblash uchun foydalaniladigan statistik axborotning to'g'riligi va to'liqligiga bog'liqdir. Statistika O'zbekiston zamonaviy iqtisodiyotining bozor xususiyatlarini qay darajada aks ettirishini va imkoniyatlari hisoblab chiqilgan hajmini, uning asl mohiyatiga muvofiqligini ta'minlash uchun, ularni yana nima bilan to'ldirish zarurligi masalasini ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotimizni islox qilish yo'lida amal qilinishi zarur bo'lgan muhim masalalarga alohida ahamiyat beraylik.

2.2-jadval Mahalliy hokimlik organlarini moliyalashtirish tamoyillari o'zgarishi.

Eski tamoyillar	Yangi tamoyillar
Muzokaralar natijasi bo'yicha hukumatlararo transfertlar	Mahalliy hokimlik organlarining moliyaviy barqarorligi va istiqbolini ta'minlovchi hukumatlararo transfertlarni asoslovchi me'yor va formulalar
Mahalliy (munitsipal) infratuzilma uchun subsidiya shaklida moliyalashtirish	Mahalliy (munitsipal) infratuzilma kredit moliyalashtirish
Tashqi ko'rsatgichlarga ko'ra belgilangan asosiy xizmat va munitsipal infratuzilmaga subsidiya tarzida beriladigan narxlar	Munitsipal infratuzilma va xizmatlarni baholashda o'zini oqlash tamoyilini qo'llash
Yerga asosiy kapital sifatida munosabatda bo'lish	Naqd resurslarni ko'paytirish uchun yerdan foydalanish huquqini tanlash
Boshqa munitsipal mulkni hisobga olish	Resurslarni safarbar qilish uchun mulkni garovga qo'yib kredit olish
Xizmatlarning munitsipal taqdim etilishi	Munitsipal xizmat ko'rsatish va infratuzilma bilan ta'minlashda davlat bilan xususiy tarmoq hamkorligi
Ko'chmas mulkdan olinadigan daromad soliqa tortiladigan yillik daromad miqdorini aniqlash va mulkni soliqa tortish uchun printsiptial asos	Yer maydoni xususiyatlari va kapitalni baholash asosida mulkni soliqa tortish bazasini shakllantirish

sifatida	
Munitsipalitetning yuqori hukumat organlari ko'rsatmalari asosida moliyalashtirilishi va faoliyat yuritishi	Moliya tizimi va munitsipalitetlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida munitsipal hokimlik organlari uchun rag'batlantiruvchi jamg'armalar

O'zbekiston davlatini mahalliy xom-ashyoni qayta ishlashni yanada ko'paytirish bo'yicha izchil siyosatini amalga oshirish tufayli, YAIM hajmida sezilarli darajada o'zgarishlar qilinishiga erishildi. Ya'ni, xom-ashyo sarfini o'zgartirmagan holda, tayyorlangan mahsulotlarning assortimentini bir necha marta oshirishga, qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishchi o'rinlarining ko'payishiga, asosiy fondlardan tushadigan foydaning oshishiga erishildi. Ammo, ushbu ko'rsatkichlar statistika tizimida qayd etilmaydi, shuning uchun ham, hududning iqtisodiy imkoniyati oshishiga nisbatan bo'lgan uning ta'sirini hisobga olish bo'yicha ishonchli axborot ta'minoti mavjud emas.

Bozor omillarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari, *ishlab* chiqarishning yetarlicha ta'siri o'z aksini topmadi, u ham bo'lsa, eksportni oshirish va moddiy ishlab chiqarish sohasida importdan olib kelinadigan mahsulotlar *o'rnini* qoplashdir. Hozirda ushbu siyosatni amalga oshirgan korxonalar ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish maqsadida chet el uskuna va texnologiyalarini sotib olish uchun o'z valyuta mablag'larini yig'adi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotining assortimentini kengaytiradi va o'z tovarlarining raqobatga bardoshligini ta'minlaydi.

O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi yo'lini tanlab, bunda respublikaning ijtimoiy sohasi aholining ko'p qismi (ta'lim, tibbiyot, fan, madaniyat, sport) byudjetdan moliyalashtiriladigan bepul xizmatlarning keng majmuini taqdim etadi. Biroq, haligacha ularning yalpi mahsulotdagi qiymati o'zining yetarlicha aksini topmagan. Hududlarning uy-joy, kommunal xo'jaligi ma'lum miqdorda hali ham, mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiriladi, ushbu berilayotgan yordamning miqdori ham, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini yetarli darajada baholashda aks ettirilmagan.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 3,7 milliondan ortiq dehqon xo'jaliklarining aksariyat qismi shaxsiy iste'moli uchun mo'ljallangan tovar hisoblanmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaradi. Dehqon xo'jaliklarining umumiy mahsuloti ko'p hajmni tashkil qilgani bilan, ammo hududlar jami mahsulotlarini shakllantirishda ularning ulushi ishonchli me'yoriy va ma'lumot-axborot bazasi bilan ta'minlanmagan.

Mahsulot ishlab chiqarishda hududiy korxonalarning texnik va texnologik ta'minoti darajasiga ham alohida e'tibor qaratish taqozo etiladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ayrim turlari nafaqat jahon bozorida, balki ichki bozorda ham raqobatga bardoshligi bir xil emas. Shundan ma'lumki, korxona mahsulotining raqobatga bardoshlik darajasi hududning iqtisodiy imkoniyatini aniqlab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Qayd etib o'tilgan tahlillardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Hududning iqtisodiy imkoniyatlari rivojlanish darajasini baholash uslubini amaliyotda keng qo'llashning bozor tamoyillari hisobga olinishi, ularni takomillashtirishning va amaliyotda qo'llashning nazariy va uslubiy bazasi rivojlantirilishi zarur.

2. Hududning iqtisodiy imkoniyatlarini baholash uslubini yanada takomillashtirish, bozor xususiyati ko'rsatkichlari keng yoritilishi, statistik hisob tizimini rivojlantirish talab etiladi. Ushbu ko'rsatkichlarga korxonalarning nizom fondidagi chet el investorlarining umumiy ulushini, korxonalarni resurslar bilan ta'minlashda mahalliy xom-ashyoning ulushi, ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibidagi so'nggi iste'mol mahsulotining ulushi va boshqalarni kiritish mumkin.

2.7. Toshkent shahar va tuman hokimliklari, bosh boshqarma, boshqarma, korxona va tashkilotlarda O'zR Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat va shahar hokimi qarorlarining bajarilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi

2.7.1. O'zR Prezidentining farmonlari, qarorlari, Hukumat va Toshkent shahar hokimining qarorlari bajarilishini tashkil qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Prezident respublika hududida majburiy kuchga ega bo'lgan Farmonlar va qarorlarni chiqaradi, qonunlarni imzolaydi. Konstitutsiyaning tegishli moddalariga asosan hokimlar o'z vakolatlarini yakkaboshchilik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, davlat hokimiyati, yuqori organlarining qarorlari asosida amalga oshiradilar, o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar

tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladilar. Ushbu qarorlarning joylardagi ijrosi uchun birinchi rahbarlar shaxsan javobgardirlar.

Shahar, tuman hokimiyatlari, boshqarmalar, tegishli tarkibiy bo'limlar, korxona, tashkilot va muassasalarda Farmon va qarorlar ijrosining ta'minlanishi shart.

Ya'ni: - shahar hokimi o'rinbosarlari Farmon va qarorlar kelib tushishi bilan 3 kun muddatda ularda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlovchi zarur takliflar, aniq chora - tadbirlar rejasi, farmoyish yoki qaror loyihasini puxta tayyorlanishini ta'minlashlari (agar Farmon va qarorlarda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa), qabul qilingan hujjatlar tuman hokimliklari, hokimiyat tuzilmasidagi boshqarma, bo'lim, korxona va tashkilotlarga bir kecha - kunduzda yuborilishi;

- tuman hokimlari, boshqarma va bo'limlar Toshkent shahar hokimi qarori, farmoyishi kelib tushishi bilan 2 kun muddatda ularga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlovchi aniq chora-tadbirlar rejasi, farmoyish, qaror yoki buyruq qabul qilishlari (agar shahar hokimi hujjatlarida boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa), qabul qilingan hujjatlar shu kuni tegishli hokim o'rinbosarlari, hokimiyat va o'zlarining tuzilmalaridagi bo'lim, korxona va tashkilotlarga yuborilishi;

- bo'lim, korxona, tashkilot va muassasalar tuman hokimi qarori, farmoyishi yoki boshqa yuqori organ buyrug'i kelib tushishi bilan 2 kun muddatda ularda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlovchi aniq chora-tadbirlar rejasi, buyruqlar qabul qilishlari (agar yuqori tashkilot hujjatlarida boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa), qabul qilingan hujjatlar shu kuni o'zlariga bo'ysinuvchi bo'linmalar, sexlar, xizmatlarga, mehnat jamoalariga etkazilishi, bajarilgan ishlar to'g'risida tegishli yuqori boshqarma, korxona va tashkilotlarga ma'lumot yuborilishi talab etiladi.

Boshqarmalar o'zlariga bevosita tegishli Farmon va qarorlarning matnlarini o'z quyi tashkilotlarida to'liq bo'lishini ta'minlaydilar (bunda obuna nashrlaridan, jumladan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari rasmiy davriy nashri - "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami" nashridan foydalanilishi maqsadga muvofiqdir).

Shuningdek, boshqarma va bo'limlar, korxona, tashkilot va muassasalarda Farmon va qarorlar bajarilishini ta'minlash maqsadida "Farmon va qarorlar bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha ishchi guruhi" tashkil etiladi. Ishchi guruhga bevosita tashkilotning birinchi rahbari boshchilik qiladi va uning mas'ul kotibi, rahbar muovnlari, tegishli mutaxassislardan iborat tarkibi bo'lishi ko'zda tutiladi, uning yig'ilishlari chorak davomida kamida bir marta o'tkazilishi belgilanadi.

Ishchi guruhning asosiy maqsadi Farmon va qarorlar talablarining to'la-to'kis bajarilishiga qaratilgan bo'lib, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilanadi:

Farmon va qarorlar bajarilishini nazorat qilish yuzasidan hujjatlar to'plami - yig'ma jildlar yuritish:

- Farmon va qarorlarning bajarilishini nazorat qilish yuzasidan ish rejasi ishlab chiqish;
- barcha tegishli Farmon va qarorlar ro'yxatini yuritish, yangilash, matnlarini to'ldirib borish;
- buyruq, chora-tadbirlar dasturlarining o'z vaqtida va to'liq chiqarilishini va bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- tashkilotga bevosita tegishli farmon va qarorlar bajarilishi monitoringini olib borish;
- farmon va qarorlarning bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimiga asosan quyi tashkilotlarda farmon va qarorlarning bajarilishi yuzasidan axborotlarni olib, tahlil qilib borish va o'z navbatida yuqori tashkilotga belgilangan ko'rinishlarda tahliliy axborotlarni berib borish;

- farmon va qarorlarning bajarilishining borishini, quyi tashkilotlardan berib borilayotgan axborotlar haqqoniyligini, joylardagi ishchi guruhlar faoliyatini yarim yilda kamida bir marta o'z tasarrufidagi quyi tashkilotlarga chiqib o'rganish va natijalarini muhokama qilish, tegishli choralar ko'rish;

- qabul qilingan yangi farmon va qarorlar bilan mehnat jamoalarini tanishtirish, ularning mohiyatini tushuntirish va keng targ'ib qilish;

- Mehnat jamoalari bilan tashviqot ishlarini samarali olib borish maqsadida korxona binosining jamoa uchun qulay joyida "Farmonlarni o'rganish burchagi"ni tashkil etish.

"Farmonlarni o'rganish burchagi" korxona binosining mehnat jamoasi uchun qulay va yaxshi ko'rimga ega joyda bo'lishi tavsiya etiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ishchi guruh to'g'risida qisqacha ma'lumot (maqsadi, tarkibi, ish rejasi, faoliyati);

- Prezident Farmonlari matnlari (keng ommani tanishtirish, ular orasida Prezident Farmonlari mohiyatini targ'ib qilishga yonaltirilgan, bugungi kunda hayotimizda o'tkazilayotgan islohotlar to'g'risidagi, tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga uni qo'llab quvvatlashga qaratilgan, ma'naviy - ma'rifiy, aholining ijtimoiy muhofazasiga doir kabi Prezident Farmonlarining yoritilishi).

Nazoratdagi farmon va qarorlarni bajarilishi yuzasidan hujjatlar yuritilishi. Ishchi guruhi mas'ul kotibi farmon va qarorlarni har biriga alohida yig'ma jild yuritilishini va unda ro'yxat bo'yicha quyidagi hujjatlar jamlanishini ta'minlaydi:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va farmoyishining matni va ularning bajarilishini nazorat qilish bo'yicha ish rejasi.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqoridagilarni ijrosi yuzasidan qabul qilingan qarorining matni;

3.Toshkent shahar va tuman hokimlarining yuqoridagi farmon va qarorning ijrosini va bajarilishining nazoratini ta'minlash masalalari yuzasidan qarorlari;

4.Yuridik shaxs bo'ysinuvchi yuqori tashkilotlardan kelgan buyruq, qaror, farmoyish va tadbir - rejalarning matni;

5.Farmon va qarorlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan yuridik shaxsning buyrug'i va tadbirlari;

6.Farmon va qarorlarning, belgilangan tadbirlarning bajarilishini borishi to'g'risida ma'lumotlar, quyi tashkilotlaridan olingan tahliliy axborotlar, ularni muhokamasi to'g'risidagi bayonnomalar;

7. Farmon va qarorlarning bekor qilinishi to'g'risidagi hujjatlar.

Farmon va qarorlarni bajarilishi yuzasidan javobgarlik. O'zR Prezidentining farmonlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi va Toshkent shahar hokimining qarorlarida qo'yilgan vazifalar o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlamagan rahbarlar, mansabdor shaxslar va xodimlarga nisbatan quyidagicha javobgarlik choralari ko'riladi:

- "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, respublika hukumati qarorlari va topshiriqlarini bajarishga rasmiyatchilik bilan yondashishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan qattiq shaxsiy javobgarlikka tortilishi;

- O'zR Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan «Idoraviy mansubligi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'iy nazar korxona, muassasa, tashkilot ichki mehnat tartibining namunaviy qoidalariga» asosan "Ijro intizomi"ni buzish qo'pol buzilishlarga kiritiladi va uni bir marta buzganlik uchun ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkinligi belgilab berilgan.


2.7.2.O'zR Prezidentining farmonlari, hukumat va Toshkent shahar hokimi qarorlari bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, Toshkent shahar hokimi qarorlari bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi yuzasidan Toshkent shahar hokimi mahkamasi Nazorat bo'limi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan o'rganish natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda ularning ijrosi yuzasidan hukumat va shahar hokimi qarorlari bajarilishini nazorat qilishni tashkil etilishi va amalga oshirilishida tuman hokimiyati majmualari, boshqarmalar, bo'limlar, quyi tashkilotlarda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani ma'lum bo'lib, joylarda yuqoridan kelgan qarorlar ijrosi yuzasidan o'z qaror - buyruqlarining chiqarilmasligi, aniq chora tadbirlar belgilamaslik kabi hollariga ham yo'l qo'yilmoqda.


Yo'l qo'yilayotgan bu kabi kamchiliklar - yuqoridan belgilab berilgan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilmasligiga olib kelib, amalga oshirilgan ishlarning muntazam tahlil qilib borilmasligi - erishilgan yutuq va mavjud kamchilik - muammolarning to'liq o'rganilmay qolishiga sabab bo'lmoqda, ular yuzasidan takliflar kiritilishiga esa joylarda yetarli e'tibor berilmay qolmoqda.

Ushbu tizimning maqsadi Prezident farmonlari, hukumat va Toshkent shahar hokimi qarorlari ijrosini tashkil etish va amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirishdan iborat bo'lib, belgilangan vazifalarning bajarilishidagi kamchilik va muammolarni o'zlarining fikr-takliflarini kiritgan holda quyidan yuqori pog'onalariga tizim asosida muntazam etkazib borish, bu bilan esa yuqori tashkilotlarda tahlil ishlarini olib borishga, kamchilik-muammolar ustidan ishlashga qulay sharoit yaratishdir.Ushbu tizimda korxona - tashkilotga bevosita tegishli har bir Prezident farmoni, bajarilishida kamchilik - muammolar mavjud har bir Vazirlar Mahkamasi, Toshkent

shahar hokimi qarorlari, shuningdek nazoratdagi farmon va qarorlarning soni yuzasidan yig'ma ma'lumotlar berib borilishi ko'zda tutilgan.



2.2.1-chizma. Farmon va qarorlar bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi



2.2.2-chizma. Ushbu bosqichda quyi tashkilotlarda bo'lim tomonidan, bo'limlarda esa boshqarma tomonidan farmon va qarorlar bajarilishi muvofiqlashtirilib hamda nazorat qilib boriladi.

2.2-chizma

Tizimda ko'zda tutilgan farmon va qarorlarning bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarning berib borilishi quyi tashkilot rahbariga yuqori tashkilotlar bilan muloqot qilish uchun sharoit yaratib, o'z muammo va takliflarini kiritishiga qo'shimcha imkoniyat beradi.

O'z navbatida muntazam ravishda ma'lumotlarning olib borilishi yuqori tashkilotlarning o'z tizimlarida farmon va qarorlarning bajarilishini muvofiqlashtirib borish, tahlillar o'tkazish va uning natijalari asosida erishilgan yutuq va ilg'or tajribalarni keng qo'llash imkonini beradi.

Yig'ma ma'lumotlarning berib borilishi esa farmon va qarorlarning aniq ro'yxatini, ular ijrosi yuzasidan qabul qilingan qaror - buyruqlarining to'liq va o'z vaqtida chiqarilishini muntazam ravishda yuqori tashkilotlar tomonidan nazorat qilib borilishini ta'minlaydi.

2.8. Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish, ularni tayyorlash, hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi

Rasmiy hujjatlar blankalari, shu jumladan bunga Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan matbaa korxonalari tomonidan "Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqarilgan, qalbakilashtirishdan himoya qiluvchi elementlari bo'lgan maxsus qog'ozda tayyorlanadi.

Rasmiy davlat hujjatlari: I. Davlat gerbli guvohnomalari:

1. Tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma
2. Nikohdan o'tganlik to'g'risida guvohnoma
3. Nikoh bekor qilinganligi to'g'risida guvohnoma
4. Vafot etganlik to'g'risida guvohnoma

II. Shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti

2. Chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun

O'z Rda yashashga ruxsatnoma.

III. Harbiy hisobga olish hujjatlari:

1. Chaqiriluvchining qayd etilganligi to'g'risidagi guvohnomasi:

2. Harbiy bilet

3. Ofitserning shaxsiy guvohnomasi

4. Zahiradagi ofitserning shaxsiy guvohnomasi

IV. Ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar:

1. To'liqsiz o'rta ma'lumot to'g'risida shahodatnoma

2. O'rta ma'lumot to'g'risida attestat

3. O'rta maxsus va kasb-hunar ma'lumoti to'g'risida diplom

4. Oliy ma'lumot to'g'risida diplom

5. Fan nomzodi yoki doktori diplomi

V. Huquq beruvchi yoki majburiyatlardan ozod qiluvchi hujjatlar:

1. Mehnat daftarchasi

2. Haydovchilik guvohnomasi

3. Nogironlik guvohnomasi

4. Urush qatnashchisi guvohnomasi

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarning tan olinganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar shakli Davlat test markazi tomonidan ishlab chiqiladi va uning buyurtmasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi "Davlat belgisi" ishlab chiqarish birlashmasida muhofazalangan qog'ozlarda tayyorlanadi.

Rasmiy hujjatlar muayyan seriyaga va tartib raqamiga ega bo'lgan qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlar blankalarini tayyorlashga mo'ljallangan qog'oz, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor bosma va quyma ashelar qat'iy hisobda turadigan ashelar jumlasiga kiradi.

Rasmiy hujjatlar tayyorlashga buyurtmalarni rasmiylashtirish. Rasmiy hujjatlar blankalarini tayyorlash vakolatli vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning yozma buyurtmanomalari asosida matbaa korxonalaridan tomonidan amalga oshiriladi.

Matbaa korxonalaridan tomonidan rasmiy hujjatlar blankalarini tayyorlashga buyurtmalarni rasmiylashtirish buyurtmachida seriyalari va tartib raqamlari majburiy ravishda ko'rsatilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalar mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Rasmiy hujjatlarni tayyorlashga barcha buyurtmalar tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan, muhr bilan tasdiqlangan, matbaa korxonasi va O'zbekiston matbuot va axborot agentligi rahbarlari tomonidan imzolangan alohida "Buyurtmalar daftari"da ro'yxatdan o'tkaziladi.

Matbaa korxonalarida rasmiy hujjatlarni tayyorlash, saqlash, hisobga olish va topshirish tartibiga qo'yiladigan talablar. *Matbaa korxonalarida qat'iy hisobda turadigan buyumlarning saqlanishi va tezkor hisobga olinishini ta'minlaydigan qat'iy tartib o'rnatiladi. Tartib talablariga rioya etish matbaa korxonasi barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.*

Matbaa korxonasida tartibning tashkil etilishi va holati uchun rahbar va tartib bo'yicha mas'ul shaxs javob beradi. Matbaa korxonasida tartibning holati uchun mas'ul shaxs bevosita korxona rahbariga bo'ysunadi.

Ishlab chiqarish va omborxona binolarida tartibga rioya qilish uchun tegishli bo'linmalarning rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, ustalar, katta omborchilar va omborchilar javob beradilar.

Maxsus qog'oz, yarim tayyor mahsulotlar, rasmiy hujjatlar blankalarining tayyor bosma va quyma mahsulotlari qoldiqlarining buxgalteriya hisobi tashkil etilishi uchun matbaa korxonasining bosh (katta) buxgalteri javob beradi.

Ko'rsatib o'tilgan mahsulotlarning tezkor hisobi o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi uchun tsexlar (uchastkalar) boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, ustalar, omborchilar hamda qat'iy hisobda turadigan maxsus qog'oz, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor bosma va quyma mahsulotlarga ishlov berish, ularni saqlash va hisobga olish bilan bog'liq boshqa shaxslar javob beradilar.

Qat'iy hisobda turadigan yarim tayyor mahsulotlar, tayyor bosma va quyma mahsulotlarga ishlov berish, ularni saqlash bilan bog'liq shaxslar tartib buzilishining barcha hollari to'g'risida matbaa korxonasi rahbariyatiga yoki tartibning holati uchun mas'ul shaxs, buxgalteriya hisobi

buzilishi to'g'risida esa, shuningdek bosh (katta) buxgalterga yozma shaklda axborot berishlari kerak.

Daftarlardagi va boshqa hisobga olish hujjatlaridagi yozuvlar operatsiyalar sodir etilgan paytda yuritiladi. Aniqlangan xato bitta chiziq bilan o'chiriladi va uning tepasiga to'g'ri yozuv yozib qo'yiladi. O'chirib yozish va tuzatishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Matbaa korxonasi rahbari, shuningdek tartibning holati uchun mas'ul shaxs qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarga ishlov berish va ularni saqlash bilan bog'liq barcha xodimlar bilan belgilangan tartibni o'rganishni tashkil etadilar hamda bir yilda kamida bir marta jurnalga tegishli shaklda belgi qo'ygan holda ushbu tartib bo'yicha bilimlarni tekshiradilar. Qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarga ishlov berishga yangi xodim qo'yilishi oldidan uning tartib bo'yicha bilimlari jurnalga belgi qo'yilgan holda albatta tekshiriladi.

Omborxona uchun javob beruvchi moddiy javobgar shaxs almashtirilgan taqdirda uning zimmasida bo'lgan qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarni berish matbaa korxonasi rahbari tomonidan tayinlanadigan va tasdiqlanadigan komissiya ishtirokida dalolatnoma bo'yicha amalga oshiriladi. Dalolatnoma korxona bosh buxgalteriga beriladi.

Omborxona ichidagi uchastka uchun javob beruvchi moddiy javobgar shaxs almashgan taqdirda uning zimmasida bo'lgan qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarni topshirish tsex boshlig'ining farmoyishi bo'yicha amalga oshiriladi hamda katta usta va usta ishtirokida dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarga ishlov berish va ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan tsexlar binolarini, ustaxonalar, bo'limlar, yuk saqlanadigan joylar va omborxonalarni ochish tegishli bo'linmalarining boshliqlari, o'rinbosarlari yoki katta smena ustalari, qo'riqlash vakili hamda moddiy javobgar shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi. Eshiklar ochilishidan oldin muhrlarning butunligi puxta ko'zdan kechiriladi, qulflarning sozligi tekshiriladi.

Ikkita moddiy javobgar shaxs birgalikda ishlashi nazarda tutilgan qat'iy hisobda turadigan yukxonada saqlanadigan mahsulotlarni ochish va yopish ular hozir bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Moddiy javobgar shaxslardan biri hozir bo'lmagan taqdirda yukxonalarni ochish va yopish korxonadagi tartib uchun javob beruvchi shaxs ishtirokida bajariladi.

Ish tamom bo'lgandan keyin tsex binolari, ustaxonalar, bo'limlar, yukxonalar va qat'iy hisobda turadigan mahsulotlarga ishlov berish va ularni saqlash bilan bog'liq omborxonalar yong'indan saqlash nuqtai nazaridan tekshiriladi, qulflanadi hamda qo'riqlash vakili hozirligida tegishli boshliqlar, o'rinbosarlar, katta smena masterlari tomonidan muhrlanadi.

Yopilgan va muhrlangan binoning kalitlari maxsus shaklda qo'riqlash ob'ektini qabul qilib olish daftariidagi dastxat bilan mas'ul shaxsga saqlash uchun topshiriladi.

Tsexlar, ustaxonalar, bo'limlar, yukxonalar va omborxonalarni avariylar paytida tsex boshliqlari va moddiy javobgar shaxslar hozir bo'lmaganda ochish faqat matbaa korxonasi rahbari, uning o'rinbosari yoki korxona bo'yicha mas'ul navbatchining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarish binolari va yukxonalarni ochishning bunday har bir holati dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda keyingi kuni komissiya ishtirokida qat'iy hisobda turadigan mahsulotlar mavjudligi tekshiriladi.

Qat'iy hisobda turadigan mahsulotlar kamomadi aniqlangan taqdirda tegishli shakldagi dalolatnoma tuziladi, u tegishli chora-tadbirlar ko'rish uchun tuzilgan zahoti matbaa korxonasi rahbariga yoki tartibning holati uchun mas'ul shaxsga beriladi.

Qat'iy hisobda turadigan buyumlarni matbaa korxonasi hududidan olib chiqib ketish ishonchnoma asosida berilgan, matbaa korxonasi rahbari va bosh buxgalteri yoki ularning o'rinbosarlari tomonidan imzolangan ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Qat'iy hisobda turadigan mahsulot ishlab chiqaradigan ixtisoslashtirilgan bosmaxonalar yoki maxsus uchastkalar tegishli alohida qo'riqchi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Qat'iy hisobda turadigan mahsulot tayyorlovchi maxsus uchastkalarda yoki ixtisoslashtirilgan bosmaxonalarda ishlaydigan shaxslarni kiritish maxsus doimiy ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi (ruxsatnomaning old tomonida rekvizitlar: xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi, ruxsatnomaning tartib raqami, 3x4 sm o'lchamdagi surat, guvohnomaning amal qilish muddati, rahbarning imzosi va korxona muhri bo'ladi).

Ruxsatnomalar nazorat - o'tkazish punkti kartotekasida saqlanadi. Xodim ishga kelganda o'zining tartib raqamini aytadi, qo'riqchi kartotekadan ushbu tartib raqamli ruxsatnomani oladi, shaxsni surati bilan solishtiradi va shundan keyingina uni maxsus uchastka hududiga kiritadi (ruxsatnoma ish smenasi tugaguncha xodimda bo'ladi).

Ish tugagach nazorat - o'tkazish punktidan o'tayotganda xodim ruxsatnomani qo'riqchiga ko'rsatadi, qo'riqchi uni kartotekaga biriktirib qo'yadi.

Maxsus uchastkaga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (chilangarlar, elektrchilar, santexniklar) korxonaga ularda ruxsatnomalar byurosi tomonidan katta usta (usta)ning oldindan berilgan, matbaa korxonasi rahbari yoki korxonadagi tartib uchun mas'ul shaxs imzolagan yozma buyurtmanomasi asosida beriladigan maxsus shakldagi vaqtinchalik ruxsatnoma mavjud bo'lgan taqdirda kiritiladi.

Korxonaga keluvchilar (buyurtmachilar, etkazib beruvchilar, loyihalash va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, energiya, bug' qozonxonalari nazorati vakillari va shu kabilar) maxsus uchastka yoki maxsus bosmaxona hududiga ma'muriyat ruxsati bilan ruxsatnomalar byurosi tomonidan beriladigan bir martalik ruxsatnomalar bo'yicha, shaxsini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgan taqdirda kiritiladilar. Ruxsatnomalar byurosi bo'lmaganda, ruxsatnomalar matbaa korxonasi rahbari tomonidan maxsus tayinlanadigan shaxs tomonidan beriladi. Ruxsatnomada uning amal qilish muddati, keluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning borayotgan joyi, ruxsatnoma berishga asos bo'lgan hujjatning nomi va tartib raqami, matbaa korxonasining muhri bo'ladi. Ruxsatnomada nazorat koreshogi bo'ladi. Unda ham yuqoridagi rekvizitlar ko'rsatiladi.

Koreshokli bir martalik ruxsatnoma keluvchiga beriladi, uni berishga buyurtmanoma koreshoklar daftarining ruxsatnoma "yirtib olingan" joyiga yopishtirib qo'yiladi.

Korxonaga kirayotganda keluvchi bir martalik ruxsatnomani pasporti (shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma) bilan birga qo'riqchiga ko'rsatadi, qo'riqchi bir martalik ruxsatnoma koreshogini yirtib oladi va alohida kartochkada saqlaydi. Chiqib ketish chog'ida usta keluvchining ruxsatnomasiga chiqib ketayotgani to'g'risida (vaqtini ko'rsatgan holda) belgi qo'yadi. Qo'riqchiga belgi qo'yilgan ruxsatnoma va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatilgan taqdirda keluvchi korxonadan chiqariladi, ruxsatnoma esa qo'riqchidagi alohida kartochkada qoladi.

Keluvchining uncha katta bo'lmagan bosmaxonaning maxsus uchastkasi hududida bo'lishiga uning ma'muriyati vakili ishtirokida yo'l qo'yilishi mumkin. Tsexlarda ishlamaydigan va ularga xizmat ko'rsatmaydigan, shuningdek ustki kiyim-boshdagi va xo'jalik sumkalari bo'lgan xodimlarning ushbu tsexlarga, ustaxonalarga, omborxonalarga kirishi qat'iy qat'iyan taqiqlanadi.

Qat'iy hisobda turadigan mahsulotlar tayyorlanadigan va saqlanadigan ixtisoslashtirilgan bosmaxona binosi yoki maxsus uchastka derazalari maxsus to'siqlar va qoidaga ko'ra, avtomatik signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Tartib-qoida talablariga rioya etilmagan holda qat'iy hisobda turadigan qog'ozlar, chala tayyor mahsulotlar, tayyor matbaa va shaklli buyumlarning yo'qolishiga hamda o'g'irlanishiga olib kelgan aybdor shaxslar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarda rasmiy hujjatlarni saqlash, hisobga olish, topshirish va hisobdan chiqarish tartibi. Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarda rasmiy hujjatlar blankalarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va topshirish (jo'natish) bo'yicha moddiy javobgar shaxslar tayinlanadi. Bundan tashqari, ushbu hujjatlarni matbaa korxonasidan tashib ketish uchun avtotransport vositasi biriktirib qo'yiladi.

Agar rasmiy hujjatlar blankalarini qabul qilish, hisobga olish va topshirish (jo'natish) uchun mas'ul shaxslar vaqtinchalik bo'lmagan yoki boshqa ishga o'tgan taqdirda guvohnomalar blankalari aynan shu maqsadda tuzilgan komissiya a'zolari tomonidan imzolangan dalolatnoma bo'yicha ushbu vazifalarni vaqtinchalik bajarayotgan shaxslarga berilishi kerak.

Matbaa korxonasidan rasmiy hujjatlar blankalarini qabul qilib olish buning uchun maxsus vakil qilingan mas'ul shaxs tomonidan amalga oshiriladi va, qoidaga ko'ra, tegishli vazirlik, idora, korxona va tashkilotga qarashli avtotransportda tashib ketiladi.

Rasmiy hujjatlar blankalarini olish chog'ida blankalar paketlari, to'g'ri joylanganligini aniqlash maqsadida, mas'ul shaxs tomonidan majburiy tartibda ko'zdan kechiriladi, olingan o'ramlar sonining ularning ilova qilinayotgan hujjatlarda ko'rsatilgan soniga muvofiqligi tekshirib ko'riladi va bu haqda dalolatnoma tuziladi.

Matbaa korxonasidan olingan rasmiy hujjatlar blankalari belgilangan joyga etkazib kelingan kuniyoq ularni hisobga olish va saqlash uchun mas'ul shaxslar tomonidan rasmiy hujjatlar blankalarini hisobga olish daftarida darhol kirim qilinadi.

Rasmiy hujjatlar blankalarini hisobga olish daftarlari aniq, tushunarli holda va qisqartirishlarsiz to'ldiriladi. Daftarlarda o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi. Yo'l qo'yilgan xatolar tegishli izohlar bilan tuzatiladi.

Rasmiy hujjatlar daftarlari ip o'tkazib bog'langan, ularning varaqlariga tartib raqamlari qo'yilgan bo'lishi kerak. Daftardagi jami varaqlar soni daftarlarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadigan rasmiy hujjatlar blankalari po'lat sandiqlarda yoxud yonmaydigan shkaflarda va maxsus jihozlangan xonalarda saqlanishi kerak.

Ishdan tashqari vaqtda rasmiy hujjatlar joylangan po'lat sandiqlar, yonmaydigan shkaflar, shuningdek, blankalarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar muhrlangan yoki so'rg'uchlangan bo'lishi kerak. Muhr yoki so'rg'uch rasmiy hujjatlar blankalarini hisobga olish va saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxsda saqlanadi.

Rasmiy hujjatlar blankalari saqlanayotgan xonaga kirishga ularni hisobga olish va saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar haqlidirlar. Rasmiy hujjatlar blankalari saqlanayotgan xonaga ulardan tashqari, biroq ularning ishtirokida, ko'rsatib o'tilgan shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri va yuqori turuvchi boshliqlari kiritilishi mumkin.

Blankalarning yetishmasligi yoki nuqsoni borlari (himoya kataklarining, bosma matnning yo'qligi yoki buzilganligi, tartib raqamlarining takroriyliigi yoxud boshqa seriyalar yoki tartib raqamlari bo'lgan, qiyshaygan shriftli, noto'g'ri kesilgan va noto'g'ri shaklli, seriya va tartib raqamlari yo'q bo'lgan yoki paketlardagi matbaa korxonasining yopishtirilgan varaqchalariga boshqacha tarzda nomuvofiq bo'lgan blankalar) aniqlangan taqdirda maxsus komissiya tomonidan zarur nusxada dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaning birinchi va ikkinchi nusxalari matbaa korxonasining yopishtirilgan varaqchalari va nuqsoni bor blankalar hamda ilova xat bilan yuqori turuvchi tashkilotga (u mavjud bo'lsa) jo'natiladi. Bu holda dalolatnomaning birinchi nusxasi matbaa korxonasining yopishtirilgan varaqchasi va nuqsoni bor blankalar bilan yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tegishli xat bilan matbaa korxonasiga jo'natiladi, ikkinchi nusxasi esa yuqori turuvchi tashkilotda qoladi. Dalolatnomaning uchinchi nusxasi yopishtirilgan varaqcha kseronusxasi bilan bevosita vazirlikda (idora, korxona, tashkilotda) qoldiriladi.

To'ldirish chog'ida buzilgan blankalar, eskirgan, topib olingan yoki yozuvlariga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan almashtirish uchun topshirilgan bekor qilingan rasmiy hujjatlar, blankalarni qabul qilib olish uchun tuzilgan komissiya tomonidan, ikki nusxada tuzilgan dalolatnoma bo'yicha, har yili bir marta yo'q qilinadi, ulardan bir nusxasi albatta yuqori turuvchi tashkilotga jo'natiladi. Yo'q qilish yondirib yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarda rasmiy hujjatlarni saqlash, hisobga olish, topshirish va hisobdan chiqarish tartibi xususiyatlari vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan hamda rasmiy hujjatlarni saqlash, hisobga olish, topshirish va hisobdan chiqarish belgilangan talablardan iborat bo'lgan maxsus me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Rasmiy hujjatlar yo'qolishi yoki o'g'irlanishining har bir holati bo'yicha yuqori turuvchi tashkilot tomonidan, blankalarning yo'qolishida aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash maqsadida, darhol xizmat tekshiruvi o'tkaziladi, zudlik bilan taftish qilinadi va mavjud blankalar qoldiqlari olib tashlanadi, shuningdek, ularning saqlanishini ta'minlash bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar ko'riladi. Zarur hollarda, blankalarning yo'qolishida aybdor bo'lgan shaxslar bo'yicha hujjatlar tergov organlariga topshiriladi.

2.9.Aktsiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aktsiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi

Komissiyaning o'z vakolati doirasida davlatning ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarni tayinlash, ozod etish va ularning faoliyatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Komissiya talablari tijorat banklar ustav fondidagi aktsiyalarning davlat ulushini boshqarishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Quyidagilar Komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

xo'jalik jamiyatlari ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish samaradorligini oshirishga yonaltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

davlat ulushi professional boshqaruvchi kompaniyalarga boshqaruvga berilgungacha bo'lgan muddatga respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakilini tayinlash, shuningdek ularni yuklangan vazifalardan ozod qilish;

respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushlarini ishonchli boshqarish huquqi uchun o'tkazilgan tanlovlar natijalarini tasdiqlash;

xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushi bo'yicha dividendlar davlat byudjetiga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash ishlarini tashkil etish;

xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, davlat ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarning davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha faoliyatlarining natijalari to'g'risidagi axborotlarini muntazam ravishda eshitib borish.

Quyidagilar Komissiyaning funktsiyalari hisoblanadi:

respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish uchun tanlov g'oliblari - davlatning ishonchli vakillarini tayinlash va boshqaruvchi kompaniyalarni tasdiqlash;

respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushlarini ishonchli boshqarish huquqiga tanlovlar natijalarini tasdiqlash;

xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha faoliyatida davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalarning asosiy maqsad va vazifalarini belgilash;

xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillarini ularga yuklangan majburiyatlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ozod etish;

davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni boshqaruvchi kompaniyalar bilan davom ettirish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;

davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalarning hisobot shakllarini tasdiqlash;

xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi davlat ulushlarini boshqarish samaradorligi yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish va tahlil qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar va mexanizmlarni ishlab chiqish.

Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

o'z ish tartibini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash, respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ro'yxatini belgilash;

davlatning ishonchli vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni tanlash talablarini va shartlarini belgilash;

o'z vakolatlari doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga topshiriqlar berish.

Komissiya quyidagilarga majbur:

xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarni tayinlashni tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlarini bajarish;

Komissiya majlislarida qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan nazorat va monitoringni amalga oshirish.

Komissiya ishini Rais tashkil qiladi, u Komissiya ish tartibini tasdiqlaydi, majlis o'tkaziladigan sanani va kun tartibini belgilaydi, o'zi o'rnida bo'lmagan hollarda komissiya a'zolaridan birini o'rinbosar etib tayinlaydi.

Komissiyaning majlislari zaruriyatga qarab davriy, ammo chorakda kamida bir marta uning a'zolarining uchdan ikki qismidan kam bo'lmagan a'zolari ishtirokida o'tkaziladi.

Komissiya qarori Komissiya a'zolari majlisida ishtirok etuvchilarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Komissiya raisining ovozi xal qiluvchi hisoblanadi.

Komissiya qarori majlisda ishtirok etuvchi Komissiya a'zolari imzolaydigan va Komissiya raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan protokol bilan rasmiylashtiriladi. Protokolni imzolash vaqtida Komissiya a'zolari o'zlarining alohida muloxazalarini bildirish huquqiga ega.

Komissiya majlisini tayyorlash va o'tkazishni tashkil etishni amalga oshiruvchi Komissiyaning ishchi organi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi hisoblanadi.

Ishchi organ: xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillarini tayinlash va boshqaruvchi kompaniyalarni tasdiqlash bo'yicha;

xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi davlat ulushlarini boshqarish majburiyatlaridan davlatning ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarni ozod etish bo'yicha;

davlat ulushlarini ishonchli boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarning faoliyatini tartibga soladigan normativ hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha;

davlat ulushlarini ishonchli boshqarish bo'yicha faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan takliflarni Komissiyaga ko'rib chiqish uchun kiritish huquqiga ega.

Komissiyaning ishchi organi quyidagilarga majbur:

Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarni o'z vaqtida va zarur darajada bajarish;

Komissiyaning davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalarni tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda yangi tayinlangan davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalar bilan ishonchli boshqaruvga shartnomalar tuzish;

davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni yig'ish, tartibga keltirish va ishlash;

O'zbekiston Respublikasi hududida va chet ellarda egalik huquqi davlatga tegishli bo'lgan mulkni saqlash va samarali boshqarish yuzasidan boshqaruvchi kompaniyalar va davlatning ishonchli vakillarining faoliyati natijadorligi bo'yicha monitoring o'tkazish;

ustav fondida davlat ulushi bo'lgan davlat unitar korxonalari, xo'jalik jamiyatlari, ularning xo'jalik faoliyatining asosiy natijalari to'g'risida ma'lumotlar bazasini yuritish;

xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillari, boshqaruvchi kompaniyalar faoliyati to'g'risidagi axborotni Komissiyaga har chorakda taqdim etish;

xo'jalik boshqaruv organlari rahbarlari, davlatning ishonchli vakillari va boshqaruvchi kompaniyalarning ishlari samaradorligi monitoringi va ular ishining samaradorligi tahlili asosida davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ularning faoliyati to'g'risidagi hisobotlari Komissiya tomonidan eshitishtirishni tashkil etish;

Komissiya majlisini chaqirish bilan bog'liq tashkiliy masalalarini hal qilish;


Komissiyaning ish yuritishini aniq va to'liq olib borish, Komissiya yozishmalarini hisobga olish va tasniflash, Komissiyaning barcha majlislari protokollarini o'z vaqtida va to'liq rasmiylashtirish.

Komissiyani qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

2.10.Davlat hokimiyati hududiy organlari boshqaruvi tashkiliy tuzilmasi


Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari faoliyati samaradorligini oshirish hamda tuzilmasini takomillashtirish, ularga yuklangan funktsiyalarning bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, hududiy boshqaruv organlarining boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish hamma vaqt ma'muriy menejmentning asosiy maqsadi va dolzarb vazifasidir.

Boshqaruv tizimida ortiqcha boshqaruv bo'g'inlarini qisqartirish va ma'muriyatchilik funktsiyalarini cheklash ma'muriy islohotlarni amalga oshirish va hududiy boshqaruv organlari boshqaruv xodimlarini takomillashtirish va maqbullashtirish doimiy vazifasi hisoblanadi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi 2.3 va 2.4-chizmalarda keltirilgan. Shaharlar va tumanlar hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi 2.5, 2.6, 2.7 va 2.8-chizmalarda keltirilgan.




Ilova: Aniq vaziyatga (holatga) qarab hokimning birinchi o'rinbosari lavozimiga qishloq va suv xo'jaligi masalalariga mutasaddilik qiluvchi o'rinbosari tasdiqlanishi mumkin.


2.3-chizma. Viloyatlar hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi.




2.4-chizma. Toshkent shahar hokimligi boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi.




2.5-chizma. Viloyat markazlari bo'lgan shaharlar hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi.





Izoh: *Qishloq va suv xo'jaligi masalalariga mutasaddilik qiladi.


2.7-chizma. Qishloq tumanlari hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi.




2.8-chizma. Shahar tumanlari hokimliklari boshqaruvi namunaviy tashkiliy tuzilmasi.

2.11.O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati

Vazirlik o'z faoliyatida O'zR Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bevosita, shuningdek o'z tasarrufidagi respublika organlari va hududiy organlar orqali xalq etadi (2.9-chizma).





2.9-chizma.O'zR qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tashkiliy tuzilmasi.

Quyidagilar Vazirlikning *vazifalari* hisoblanadi:

qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan yagona agrotexnika siyosatini amalga oshirish;

zamonaviy agrotexnologiyalarni takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlariga joriy etish;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor printsiplari va mexanizmlari asosida xizmat ko'rsatayotgan tarmoqlar, bo'g'inlar va tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

agrar sektorda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijara munosabatlarini, oila pudratini, fermer xo'jaliklarini keng rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish;

qishloq xo'jaligini yuritishni va qishloq xo'jaligi ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

selektsiya, urug'chilik, naslchilik ishlari, veterinariya, o'simliklar karantini sohasida davlat siyosatini olib borish hamda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash;

irrigatsiya tizimlarini havzalar bo'yicha boshqarish printsiplari asosida er usti suv resurslarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va barcha darajalarda suvdan foydalanishning bozor printsiplarini joriy etish;

davlat suv xo'jaligi tizimidan foydalanilishini va uning zamonaviylashtirilishini ta'minlash; ilgari sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi erlarni o'zlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida investitsiya siyosatini ishlab chiqishda qatnashish;

er va suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

o'rmon xo'jaligidan foydalanish, uni qo'riqlash, himoya qilish va rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

o'ziga qarashli tashkilotlar va korxonalarni ilmiy-texnik va axborot bilan ta'minlash;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

qishloq xo'jaligida o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish, o'simliklar kasalliklarining oldini olish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga, begona o'tlarga va chigirtkaga qarshi kurashish bo'yicha yagona texnika va texnologiya siyosatini o'tkazish.

Yuklangan vazifalarga muvofiq vazirlik quyidagi *funktsiyalarni* amalga oshiradi:

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ularni ro'yobga chiqarish strategiyasi va mexanizmlari bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligini rivojlantirishning tarmoq va mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori kon'yunkturasi marketing tadqiqotlarini amalga oshiradi, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarini zarur axborot bilan ta'minlaydi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligiga tashqi va ichki investitsiyalarni jalb etishda ishtirok etadi, byudjet mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqadi;

navlarni sinash, qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi istiqbolli navlarini yaratish va ko'paytirishga ixtisoslashtirilgan o'ziga qarashli elita va urug'chilik xo'jaliklari ishini muvofiqlashtiradi;

tarmoqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va mehnatni tashkil etish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

davlat karantin qoidalarini bajarilishini, epidemiologiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishi va chorva mollari, parrandalar va baliqlarni kasalliklardan himoya qilish qoidalariga rioya qilinishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

selektsiya-naslchilik ishlarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

suv resurslari balansini ishlab chiqadi, suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilaydi;

suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi amalga oshirilishini ta'minlaydi;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

havza printsiplari asosida er usti suv resurslari boshqarilishini amalga oshiradi;

suv resurslaridan foydalanishda o'zaro munosabatlarning bozor printsiplarini va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

erlarning meliorativ holatini yaxshilash va erlarni o'zlashtirish dasturlarini ishlab chiqadi;

magistral, xo'jaliklararo kanallar va kollektorlar, suv omborlari, nasos stantsiyalari, gidrotexnika inshootlari va boshqa suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanilishini tashkil etadi;

gidromelioratsiya tizimlaridan texnik foydalanish, ularni rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtiradi;

suv resurslari hisobini olib boradi va ulardan foydalanilishini nazorat qiladi, "Suvdan foydalanish" bo'limi bo'yicha davlat suv kadastrini yuritishda qatnashadi;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holati, sug'orish va kollektor-drenaj suvlari sifati ustidan monitoringni amalga oshiradi;

suv resurslaridan kompleks foydalanishning istiqbolli sxemalarini ishlab chiqadi;

transchegara suv resurslari va ob'ektlarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

qishloqning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadi;

o'rmonlarni boshqarish, ulardan foydalanish, ularni qayta tiklash, muhofaza qilish va qo'riqlashni, davlat o'rmon kadastrini yuritishni amalga oshiradi hamda qo'riqxona ishlarini tashkil etishda qatnashadi;

o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, o'rmon va ovchilik xo'jaligini yuritishga doir normativ-texnik hujjatlar bajarilishi ustidan idoraviy nazoratni amalga oshiradi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot, loyihalash-qidiruv va konstruktorlik ishlarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, ularni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi, ularning natijalari amaliyotga joriy etilishiga ko'maklashadi;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida xalqaro hamkorlik qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

respublika o'quv yurtlarida va ilmiy muassasalarida, shuningdek xorijda shirkat va fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislari malakasi oshirilishini va tajriba almashuvini tashkil etadi;

kompleks tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi, zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlar tarqalishi imkoniyatlarini o'rganadi va prognozlashtiradi, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini kimyoviy va biologik himoya vositalari, stimulyatorlar bilan ta'minlaydi;

o'simliklarni himoya qilish sohasida qishloq xo'jaligi korxonalari va aholini metodik ta'minlashni, shartnoma asosida qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmatlari ko'rsatish ishlari bajarilishini tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi ekinlarining o'ta xavfli zararkunandalarini qirib tashlashning ilmiy asoslangan tadbirlari o'tkazilishini tashkil etadi;

o'simliklarni himoya qilish sohasida rahbardar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi.

Vazirlik: paxtachilikni rivojlantirish; g'allachilikni rivojlantirish;

sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish hamda ularni kompleks qayta ishlash; chorvachilikni rivojlantirish;

er-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va erlar unumdorligini oshirish;

qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish muammolari bo'yicha Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Vazirlik quyidagi *huquqlarga* ega: o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

kelishish uchun o'ziga taqdim etiladigan er, suv va o'rmon resurslaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar loyihalari va takliflar yuzasidan xulosalar berish;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan respublika hududiga jahonning epizootik jihatdan nosog'lom mintaqalaridan chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, shuningdek dehqonchilik mahsulotlari va urug'lik keltirilishini taqiqlash;

suv manbalariga suv kelishi o'zgargan taqdirda suv olish limitlariga o'zgartirishlar kiritish; limitdan ortiq suv olingan, suv resurslaridan xo'jasizlarcha, nooqilona foydalanilgan taqdirda suv berishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish;

suv to'g'risidagi qonun hujjatlari, suvdan foydalanish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari qo'llash;

suv resurslarini samarali boshqarganlik va ulardan tejamli foydalanganlik uchun suvdan foydalanuvchilarni va suv xo'jaligi tashkilotlarini iqtisodiy rag'batlantirishni tashkil etish;

Vazirlik boshqaruvi sohasidagi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat tuzilmasi bilan kelishgan holda tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish;

o'ziga qarashli byudjet korxonalari va tashkilotlarida davlat mulkini belgilangan tartibda boshqarish;

ommaviy axborot vositalari ta'sis etish.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari va normativ-huquqiy hujjatlarining vazirliklar, idoralar, muassasalar, joylardagi davlat hokimiyati organlari hamda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolarini hal etish bo'yicha Kengashlar. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi boshqaruvi *markaziy apparati* tuzilmasida: paxtachilikni rivojlantirish; g'allachilikni rivojlantirish;

sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumchilikni rivojlantirish hamda ularni kompleks qayta ishlash;

chorvachilikni rivojlantirish;

er-suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiyani rivojlantirish va erlar unumdorligini oshirish;

qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish muammolarini hal etish bo'yicha Kengashlar tuziladi.

Kengashlar to'g'risidagi nizomlar qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagilar Kengashlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tegishli tarmoqlarni isloh qilish va rivojlantirish, qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini, ular samaradorligini oshirish yo'nalishlari va yo'llarini belgilash;

har bir mintaqaning iqlim, ob-havo sharoitlarini va xususiyatlarini hisobga olgan holda ekinlarni kelgusida va har bir qishloq xo'jaligi yilida oqilona joylashtirish bo'yicha aniq agrotexnologiya tavsiyalarini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ekinlari selektsiyasi va urug'chiligida, shuningdek naslchilik ishlarida ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

zamonaviy, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sug'oriladigan erlarning unumdorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Kengashlarning tarkibiga, egallab turgan lavozimlari va ilmiy unvonlaridan qat'i nazar, fan va amaliyotning tegishli sohalarida obro'si e'tirof etilgan etakchi mutaxassislar va olimlar jamoatchilik asosida kiradilar. Kengashlar a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Vazirlik hay'ati tomonidan tasdiqlanadi.

Kengashlarning raislari O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi xay'ati a'zolari hisoblanadi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Kengashlarning barcha tavsiyalari qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'ati majlislarida muhokama qilinadi, uning qarorlarining bajarilishi majburiydir.

Kengashlarning ishchi organlari funktsiyalari O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tegishli boshqarmalari va bo'limlariga yuklanadi.

Vazirlik faoliyatini tashkil etish. Vazirlikka belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan Vazir boshchilik qiladi. Vazirning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o'rinbosari, shu jumladan ikki nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

Vazirning suv xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi birinchi o'rinbosari ayni vaqtda Suv xo'jaligi bosh boshqarmasining boshlig'i hisoblanadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining bosh direktori lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosari hisoblanadi.

O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosari hisoblanadi.

Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosarlari ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Vazir: Vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Vazirlikka yuklangan vazifalar va majburiyatlar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

vazir o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini belgilangan tartibda tasdiqlaydi va zarurat bo'lganda xodimlarning shtatda belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Vazirlik markaziy apparatining va o'ziga qarashli byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;

Vazirlik markaziy apparati xodimlarini, uning hududiy organlari rahbarlarini, shuningdek tasarrufidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolari bo'yicha Kengashlar to'g'risidagi nizomlarni, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar) va irrigatsiya tizimlari boshqarmalari to'g'risidagi nizomlarni, shuningdek tasarrufidagi byudjet tashkilotlari to'g'risidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlaydi;

Vazirlikning, uning hududiy organlarining, tasarrufidagi tashkilotlarning xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar va yo'riqnomalar chiqaradi, ularning ijrosi ustidan nazoratni tashkil qiladi;

hududiy organlar va tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari buzilgan holda qabul qilingan qarorlarni (ko'rsatmalarni) bekor qiladi;

qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Vazirlikda 15 kishidan iborat tarkibda xay'at tuziladi. Uning tarkibiga Vazir (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish muammolarini xal etish bo'yicha Kengashlar raislari, ayrim bo'linmalar, agrosanoat kompleksi tizimi vazirliklari va idoralari rahbarlari, shuningdek Vazirlik markaziy apparatining boshqa rahbar xodimlari kiradi. Hay'atning shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan hayotga joriy etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari Vazirlikning hududiy organlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari tegishli ravishda qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va tumanlar hokimliklariga hamda Vazirlikka bo'ysunadilar va hisob beradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari rahbarlari viloyatlar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari tuman hokimlari taqdimnomasiga ko'ra qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri hamda viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, Magistral kanallar (tizimlar), irrigatsiya tizimlari boshqarmalari boshliqlari lavozimga Vazir tomonidan tanlov asosida tayinlanadi.

Tanlovni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlik va uning hududiy organlari ekspert va maslahat organlari tashkil etishga haqlidir, ular to'g'risidagi nizomlar tegishli ravishda Vazir yoki hududiy organ rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va korxonalarining xo'jalik hisobidagi faoliyatidan olinadigan daromadlar qishloq va suv xo'jaligi vazirligini va uning bo'linmalarini mablag' bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligida belgilangan tartibda Ijtimoiy rivojlantirish va rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etiladi, Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga 2-ilovada ko'rsatilgan, Vazirlik tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning, shu jumladan tuzilgan shartnomalar asosida shirkat xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi kooperativlari)ning xo'jalik faoliyatidan (ixtiyoriy tartibda) ajratiladigan mablag'lar Jamg'armaning manbalari hisoblanadi.

Jamg'arma mablag'lari ilmiy-qidiruv, ma'rifiy, bosmaxona va noshirlik ishlariga yonaltiriladi. Vazirlikning markaziy apparati va hududiy bo'linmalari ta'minotini moliyalashtirish ham Jamg'arma hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy rivojlantirish va ragbatlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom Vazir tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlik faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatiladi.

Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi faoliyati

Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining hududiy organi hisoblanadi hamda o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni tegishli viloyat hududida amalga oshiradi.

Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarni bevosita, shuningdek tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari hamda o'ziga qarashli tashkilotlar va korxonalar orqali hal etadi.

Boshqarma viloyatda agrar siyosat o'tkazilishi uchun mas'ul hisoblanadi. quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

mintaqada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muhim turlarini barqaror etishtirishni ta'minlovchi dehqonchilik, agrotexnologiyalar va suvdan foydalanishning ilg'or tizimlarini joriy etishga qaratilgan agrar siyosatni amalga oshirish;

g'o'za va don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirish yuzasidan tavsiyalarga xo'jaliklar tomonidan rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ularning ro'yobga chiqarilishi va hududda mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari rivojlantirilishi monitoringini olib borish;

er resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini, tuproq unumdorligini oshirishni ta'minlash;

kontraktatsiya shartnomalari tuzilishi va bajarilishi monitoringini olib borish, tuzilgan shartnomalarni umumlashtirish asosida paxta xom ashyosi va boshqali ekinlar doni haridi hajmlari to'g'risida takliflar ishlab chiqish;

chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishlarini, veterinariya va servis xizmatlarini rivojlantirish ishlarini tashkil etish;

qishloq xo'jaligi ekinlari o'stirishning yangi ilg'or agrotexnologiyalari joriy etilishini tashkil etish;

seleksiya, urug'chilik, naslchilik ishlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar yutuqlarini, resurslarni va suvni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga ko'maklashish;

investitsiyalarni jalb etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi monitoringida qatnashish;

qishloqda ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish ishlarini tashkil etish;

qishloq xo'jaligi suvdan foydalanuvchilariga ma'muriy tumanlar bo'yicha suv berish limitlarini belgilash yuzasidan takliflar tayyorlash va ularga rioya etilishini nazorat qilishda qatnashish;

suv resurslaridan oqilona foydalanilishiga, ularning samaradorligini oshirishga, suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etishga, suvdan foydalanuvchilar tomonidan suvning hisobga olinishini tashkil etishga ko'maklashish;

limitlangan suvdan tejab foydalanish uchun viloyat suvdan foydalanuvchilari rag'batlantirilishini tashkil etish;

xo'jaliklar ichidagi gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish ishlarini va sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek suvdan foydalanishni hisobga olishni tashkil etish va uni rivojlantirish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;

viloyatda suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tashkil etilishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishida ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibiga kiruvchi, zimmasiga nazorat funktsiyalari yuklangan viloyat inspeksiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish, ularning malakasini oshirishni tashkil etish. Yuklangan vazifalarga muvofiq Boshqarma quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

qishloq va suv xo'jaligi korxonalariga ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda metodik yordam beradi;

fermerlikni rivojlantirishga ko'maklashadi, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ni fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini bozor kon'yunkturasi to'g'risidagi axborot hamda ilg'or texnologiyalar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash tajribasi haqidagi boshqa ilmiy-texnika va axborot materiallari bilan ta'minlaydi;

kontraktatsiya shartnomalari tuzilishi va bajarilishi monitoringini yuritadi, tuzilgan shartnomalar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarini etishtirish hajmlari to'g'risida takliflar ishlab chiqadi;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarning bajarilishini nazorat qiladi;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va er-suv resurslaridan foydalanyshdagi ilg'or texnologiyalar va tajribalarni joriy etish bo'yicha seminarlar tashkil etadi;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun infratuzilmani tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashadi;

mehnatni tashkil etish va ichki xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshiradi;

almashlab ekishni joriy etishni tashkil qilish, ekin maydonlari tarkibini, navlarni almashtirishni va qishloq xo'jaligi ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishni takomillashtirish, tuproqni himoya qiluvchi va suvni tejovchi samarali texnologiyalarni o'zlashtirish ishlarini amalga oshiradi;

chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishlarini, veterinariya va servis xizmatlarini rivojlantirish ishlarini tashkil etadi;

seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, sun'iy qochirish tadbirlarini amalga oshiradi, ularning monitoringini olib boradi;

Havza irrigatsiya tizimlarining suv xo'jaligi kengashlari ishida qatnashadi;

qishloq xo'jaligi suvdan foydalanuvchilariga ma'muriy tumanlar bo'yicha suv berish limitlarini belgilash yuzasidan Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga takliflar kiritadi;

umuman viloyat bo'yicha suvdan foydalanish uchun shartnomalar tuzish bo'yicha ishlarga ko'maklashadi va ularni muvofiqlashtiradi;

takliflarni ishlab chiqishda hamda suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etishni tashkil etishda qatnashadi;

suv resurslaridan foydalanishni tahlil qiladi va Suv xo'jaligi bosh boshqarmasiga limitlangan suvdan tejab foydalanganlik uchun suvdan foydalanuvchilarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritadi;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritadi va ularni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ta'minlanishida ko'maklashadi, ularni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi bo'yicha metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyati, ichki xo'jalik gidromeltsoratsiya ishlari o'tkazilishi va suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilishi monitoringini yuritadi;

xo'jalik ichki gidromelioratsiya tizimlarini suv o'lchash qurilmalari bilan jihozlash ishlariga ko'maklashadi va ularni muvofiqlashtiradi;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va ularni rekonstruktsiya qilish hamda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

korxonalarning qishloq va suv xo'jaligi kadrlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganadi, qishloq yoshlarini o'qishga yuborish Chun tanlashda, shuningdek ularni ishga joylashtirishda yordam ko'rsatadi;

O'ZR qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hay'atining Kengashlar tavsiyalari asosida qabul qilingan qishloq xo'jaligi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha qarorlarini amalga oshirish ishlarini tashkil etadi;

qishloq va suv xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari rahbar xodimlari va mutaxassislarining, shuningdek fermer xo'jaliklari rahbarlarining malakasini oshirishni tashkil etadi;

tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlariga kadrlar bilan ishlashni takomillashtirishda va ularning malakasini oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Boshqarmaning huquqlari. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega: o'z vakolatlariga kiradigan masalalarni xal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

er va suv resurslaridan foydalanish to'g'risida kelishish uchun unga taqdim etiladigan qarorlar loyihalari yuzasidan xulosalar berish;

er to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish to'g'risida iltimosnomalar kiritish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega. Boshqarmaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari boshqarmaning tegishli hududiy organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Boshqarma faoliyatini tashkil etish. Boshqarmaga viloyat hokimining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi.

Boshqarma boshlig'ining o'rinbosarlari viloyat hokimining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Boshqarma boshlig'i: boshqarma faoliyatiga yakka boshchilik asosida rahbarlik qiladi va Boshqarmaga yuklangan vazifalar va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

viloyat boshqarmasi apparati shtat jadvalini belgilangan tartibda tasdiqlaydi va zarurat bo'lganda tasdiqlangan tuzilmaga shtatdagi xodimlarning belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;

viloyat boshqarmasi apparati xodimlarini, o'ziga qarashli tashkilotlar va muassasalar rahbarlarini, shuningdek tumanlar hokimlarining taqdimnomasiga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan kelishgan holda tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshliqlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

viloyat boshqarmasi apparatining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni, o'ziga qarashli davlat korxonalari va tashkilotlari to'g'risidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlaydi;

o'z vakolatlari doirasida boshqarmaning tegishli hududiy organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga qishloq xo'jaligi sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarini to'xtatish va ularning oqibatlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, o'ziga qarashli tashkilotlar xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, ko'rsatmalar beradi, ularning bajarilishini nazorat qiladi;

tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari hamda o'ziga qarashli tashkilotlarning ular tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini buzgan holda qabul qilingan qarorlarini (yozma ko'rsatmalarini) bekor qiladi.

Boshqarma huzurida tarkibiga boshqarma boshlig'i (Kengash raisi), lavozimiga ko'ra Kengash tarkibiga kiruvchi boshliq o'rinbosarlari, shuningdek boshqa yuqori malakali xodimlar kiradigan Kengash tashkil etiladi. Kengash 9 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Kengashning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlanadi, Kengash qarorlari Boshqarma boshlig'ining buyruqlari bilan hayotga tatbiq etiladi.

Boshqarma boshqa ekspert yoki maslahat organlarini ham tashkil etishi mumkin, ular to'g'risidagi nizomlar viloyat boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ijtimoiy rivojlantirish va ragbatlantirish jamg'armasi mablag'lari, suv resurslarini boshqarish bo'yicha esa - byudjet mablag'lari Boshqarmalarni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi faoliyati

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining hududiy organi hisoblanadi hamda o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni tegishli tuman hududida amalga oshiradi. Bo'lim yuridik shaxs hisoblanadi.

Bo'lim tumanda agrar siyosat o'tkazilishi uchun mas'ul hisoblanadi. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

seleksiya, urug'chilik va agrotexnologiyalarni yaxshilash ishlarini tashkil etish; qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirishning yangi agrotexnologiyalarini joriy etish;

qishloqda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligida ijara va pudrat munosabatlari rivojlantirilishi ishlarini tashkil etish va monitoringini yuritish;

fermer xo'jaliklarining keng rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bozor inftratuzilmasi rivojlantirilishini tashkil etish;

er va suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

tuman qishloq xo'jaligi suvdan foydalanuvchilari bo'yicha suvdan foydalanish limitlarini belgilashga doir takliflar tayyorlash, bozor printsiplari va mexanizmlari amalga oshirilishiga, shuningdek suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibiga rioya qilinishiga ko'maklashish;

limitlangan suvdan tejab foydalanilganligi uchun tuman suvdan foydalanuvchilari rag'batlantirilishini tashkil etish;

suvdan foydalanuvchilarning suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanishini nazorat qilishda qatnashish;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni ta'minlash, ularning tashkil etilishiga va samarali faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashish;

xo'jalik ichki gidromelioratsiya tizimlarini, suvni hisobga olish tizimlarini ta'mirlash va rivojlantirish hamda sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish;

ilg'or tajribani, ilmiy tadqiqotlar yutuqlarini ishlab chiqarishgajoriy etish ishlarini tashkil etish;

davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari haridi bo'yicha kontraktatsiya shartnomalari bajarilishi monitoringini tashkil etish;

naslchilik ishlarini, veterinariya va servis xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustaxkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibiga kiruvchi, zimmasiga nazorat funktsiyalari yuklangan tuman inspeksiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

mutaxassislar malakasini oshirishni tashkil etish.

Bo'lim quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil etishda ko'maklashadi;

tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarini umumlashtirish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini etishtirish hajmlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi;

kontraktatsiya shartnomalari bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi shirkatlari boshqaruvi, oilaviy pudratchilar va ijarachilar o'rtasida tuzilgan xo'jalik ichki shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi va ularning bajarilishi monitoringini amalga oshiradi;

fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga ko'maklashadi;

tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, ekologiya jihatidan xavfsiz texnologiyalarni joriy etish tadbirlarini tashkil qiladi;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga mineral va organik o'g'itlardan samarali foydalanishda yordam ko'rsatadi;

qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish bo'yicha himoya va oldini olish kompleks tadbirlarini o'tkazishda ko'maklashadi;

chorvachilikda selektsiya-naslchilik ishlari amalga oshirilishini tashkil etadi;

chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustahkamlash, veterinariya va servis xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

chorva mollari yuqumli kasalliklariga yo'l qo'ymaslik va karantin tadbirlariga moya qilishning profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

sug'orishning ilmiy asoslangan rejimlari, suvni tejovchi tadbirlar va texnologiyalar joriy etilishini tashkil etadi;

magistral kanallar (tizimlar) va irrigatsiya tizimlari boshqarmalarining Suv xo'jaligi kengashlari ishida qatnashadi;

irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga tuman qishloq xo'jaligi suvdan foydalanuvchilari bo'yicha suvdan foydalanish limitlarini belgilash yuzasidan takliflar kiritadi;

tumanda suvdan foydalanish yuzasidan shartnomalar tuzish ishlariga ko'maklashadi va ularni muvofiqlashtiradi;

takliflar ishlab chiqishda hamda suvdan foydalanishning bozor printsiplari va mexanizmlarini joriy etishni tashkil etishda qatnashadi;

sug'orish suvidan foydalanilishini tahlil qiladi hamda suvdan foydalanuvchilarni limitlangan suvdan tejab foydalanilganligi uchun rag'batlantirish bo'yicha viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga takliflar kiritadi;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ta'minlanishiga ko'maklashadi, ular bajarilishining monitoringini olib boradi, ularni tashkil etishda va ularning faoliyat ko'rsatishida metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

xo'jalik ichki gidromelioratsiya tizimlarini suvni o'lchash qurilmalari bilan jixozlash ishlariga ko'maklashadi va ularni muvofiqlashtiradi;

sug'organ erlarning meliorativ holatini yaxshilash va rekonstruktsiya qilish hamda tuproq unumdorligini oshirish ishlarini tashkil etadi;

xo'jalik ichki gidromelioratsiya tizimlarini ta'mirlash va ularni rivojlantirish, shuningdek suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish ishlarini umumiy muvofiqlashtirishni olib boradi;

"O'zsuvnazorat" inspeksiyasi bilan birgalikda, shuningdek irrigatsiya tizimlari boshqarmasi bilan o'zaro hamkorlikda suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibiga rioya etilishini nazorat qilishda qatnashadi;

viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritadi;

axborot ta'minotini amalga oshiradi hamda fan yutuqlari, agrotexnika, resurslarni va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etishda ko'maklashadi;

muqobil mashina-traktor parklari faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi va ularning monitoringini olib boradi;

qishloq va suv xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislari malakasini oshirishni tashkil etadi.

Bo'limning huquqlari. *Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:*

o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallarni korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

er va suv resurslaridan foydalanishga doir qarorlar loyihalari yuzasidan xulosalar berish;

er to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida iltimosnomalar kiritish;

qishloq xo'jaligi sohasidagi qonunlar buzilishini to'xtatish va ularning oqibatlarini tugatish to'g'risida o'z vakolatlari doirasida yuridik va jismoniy shaxslarga bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish;

qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini ko'zlab xo'jalik sudlariga da'vo arizalari berish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

Bo'limning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Bo'lim faoliyatini tashkil etish. Bo'limga tuman hokimining taqdimnomasiga ko'ra viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi.

Bo'lim boshligi: bo'lim faoliyatiga yakka boshchilik asosida rahbarlik qiladi va bo'limga yuklangan vazifalar va majburiyatlarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

boshliq o'rinbosarlari lavozimiga tayinlash uchun nomzodlarni viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga taqdim etadi;

Bo'lim apparati xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

Bo'lim xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi, ko'rsatamalar beradi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ijtimoiy rivojlantirish va ragbatlantirish jamg'armasi mablag'lari Bo'limni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bo'lim faoliyati qonun hujjatlarida belgalangan tartibda to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan faoliyati muvofiqlashtiriladigan tashkilotlar va korxonalar ro'yxati:

1. O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi
2. O'z urug'chiligi respublika markazi
3. "O'zzoovetta'minotxizmat" respublika birlashmasi
4. "O'zbek qorako'li" kompaniyasi
5. "Suvmaxsusta'mirqurilish" uyushmasi
6. "O'zsuvxorijiyqurilish" respublika tashqi iqtisodiy korxonasi
7. "O'zmaxsussuvdrenaj" uyushmasi
8. "O'zsuvloyiha" uyushmasi

9. "O'zirta'mirqurilish" uyushmasi
10. "O'zqishloqloyiha" aksiyadorlik jamiyati
11. Suv xo'jaligi sanoat korxonalari uyushmasi
12. SANIIRI ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi
13. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi
14. Veterinariya bosh davlat boshqarmasi va uning bo'linmalari
15. "O'zsuvta'mirfoydalanish" respublika birlashmasi
16. O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi va uning bo'linmalari
17. Chorvachilikda naslchilik ishlari bosh davlat inspeksiyasi
18. "O'zdavtexnazorat" mashina va asbob-uskunalarining texnik holatini nazorat qilish bosh davlat inspeksiyasi
19. "O'zsuvnazorat" respublika suv inspeksiyasi
20. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash davlat komissiyasi
21. Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'ini sertifikatsiyalash va sifatini nazorat qilish davlat markazi ("O'zdavurug'nazoratmarkaz")
22. Davlatlararo muvofiqlashtirish suv xo'jaligi komissiyasining ilmiy-axborot markazi
23. Irrigatsiya va drenaj bo'yicha respublika qo'mitasi
24. Markaziy texnologiya va dispetcherlik xizmati
25. Toshkent davlat agrar universiteti
26. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
27. Samarqand qishloq xo'jaligi instituti
28. Andijon qishloq xo'jaligi instituti
29. Suv xo'jaligining foydalanish va boshqa tashkilotlari.
30. Respublika o'simliklarni himoya qilish va agrokimyo markazi

2.12. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish muddati 30 taqvimiy kundan oshmasligi kerak. Istisno hollarda, Kengash qarori bilan bu muddat uzaytirilishi mumkin.

Rahbarlar, tekshirishlarni muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi mas'ul xodimlar tayyorlanayotgan tekshirishlarning reja-grafiklaridagi axborotning maxfiy saqlanishi va ishlab chiqilayotgan axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi uchun shaxsan javob beradilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ular faoliyatini tekshiruvdan o'tkazilishi to'g'risida tegishli axborotga ega bo'lishga haqlidirlar. Mazkur huquq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ana shunday axborotni Kengashning ishchi organlari yoki uning hududiy komissiyalaridan olishi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tyekshirish chog'ida nazorat qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri - huquqbuzarlik sodir etilganligi yoki ilgari aniqlangan huquqbuzarlik bartaraf etilmaganligidan guvohlik beruvchi dalillarni yig'ishdir. Agar korxona o'z faoliyatini amalga oshirayotganda xatolarga yo'l qo'ysa va ishonchsiz sub'ektlar ro'yxatiga tushsa, bu hol uni tyekshirishlarning yillik raja-jadavliga kiritish myezonlaridan biri hisoblanadi.

Nazorat qiluvchi organlar ro'yhati

Kod	Nazorat qiluvchi organ nomi	Kod	Nazorat qiluvchi organ nomi
1	O'zR Davlat soliq qo'mitasi	26	O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasi
2	O'zR Moliya vazirligi	27	O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Bosh davlat veterinariya inspeksiyasi
6*	O'zR Ichki ishlar vazirligining Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi		
9	O'zR Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi	29	O'zR Yer ryesurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi
11	O'zR Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi	30	O'zR aloqa va axborotlashtirish agentligining Davlat aloqa inspeksiyasi
12	O'zR Davlat bojxona qo'mitasi	31	O'zR Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzuridagi Badiiy ekspertzita boshqarmasi
13	O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Chorvachilikda naslchilik ishlari buyicha bosh davlat inspeksiyasi	33	O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi
14	O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Mashina va uskunalarining texnik holatini nazorat qilish bo'yicha bosh davlat inspeksiyasi	34	O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi
15	O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi	35	O'zR siniga Temir yo'lida tashihlar xavfsizligini nazorat qilish

16	O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va syertifikatlashtirish agyentligi		davlat inspeksiya
17	O'zR Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	36	Respublika Temir yo'lda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi
18	O'zR Arxitektura va qurilish davlat qo'mitasining Davlat arxitektura-qurilish nazorati bosh boshqarmasi	37	IIB huzuridagi transportda yong'indan saqlash bo'limi
19	O'zR Davlat statistika qo'mitasi	38	Sanoat, kon ishi va kommunal-maishiy sektorda ishlarni xavfsiz olib borishni nazorat qilish davlat inspeksiya "Sanoat kontyexnazorat"
20	O'zR Ichki ishlar vazirligining Yongindan.saklash bosh boshqarmasi	39	O'zR Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va kadastr davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat geodeziya nazorati inspeksiya
21	O'zR Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	40	"O'zbekturizm" milliy kompaniya
22	O'zRsining Elektr enyergiyetikasi nazorat qilish davlat inspeksiya	41	Markaziy bank huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligining Davlat namunalar olish palatasi
25*	O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi	43	O'zbekiston matbuot va axborot agentligi
		44	O'zR Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat geologiya nazorati boshqarasi

*3-5 va 23-24 -organlar manbada keltirilmagan.

Rejadagi tekshirishlar. Nazorat qiluvchi organlar o'zlari ishlab chiqqan mezonlar va ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari hisobga olingan tekshirishlar reja-grafigi bo'yicha takliflarga kiritish uchun ob'ektlarni sinchiklab tanlab oladilar.

Takliflar asosida Kengash tomonidan tekshirishlarning yillik (choraklik) reja-grafiklari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, ularda kompleks tekshirishlar ajratiladi.

Bunda quyidagi hollarda tekshirishlarning reja-grafiklariga nazorat qiluvchi organning takliflari kiritilmaydi:

agar so'ralayotgan tekshirishlar tegishli nazorat qiluvchi organning vakolat doirasiga kirmasa;

agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining avvalgi tekshiruvini mazkur nazorat qiluvchi organ so'nggi 12 oy ichida amalga oshirgan bo'lsa (moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishlar va kompleks tekshirishlarni o'tkazish takliflaridan tashqari);

Yillik (choraklik) reja-grafiklarni ishlab chiqish paytida Kengash va tegishli darajalardagi hududiy komissiyalarning ishchi organlari reja-grafik loyihasiga faqat aynan shunday darajadagi nazorat qiluvchi organlar va ularning tarkibiy bo'linmalari o'tkazadgan tekshirishlarni kiritadilar. Bunda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tegishli takliflar quyidagicha taqdim etiladi:

Kengash ishchi organiga - nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari tomonidan tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha;

viloyat komissiyalarining ishchi organlariga - nazorat qiluvchi organlarning viloyat bo'linmalari tomonidan tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha;

tuman komissiyalarining ishchi organlariga - nazorat qiluvchi organlarning tuman bo'linmalari tomonidan tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha.

Reja ishlanmasining barcha darajalarida tekshirishlarni o'tkazish bo'yicha takliflarni muvofiqlashtirish Kengash va tegishli hududiy komissiyalarning ishchi organlari tomonidan, zaruriyat bo'lganda nazorat qiluvchi organlar va ular bo'linmalari vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

Har chorakda, nazorat qiluvchi organlarning takliflarini hisobga olib, tekshirishlarning reja-grafigiga ob'ektiv asoslar bo'lgan taqdirda o'zgartishlar kiritilishi mumkin. Navbatdagi chorakka tekshirishlarning reja-grafigiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida asosli takliflar Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Reja-grafiklar yoki tekshirishlarning reja-grafiklariga qo'shimchalar o'z ichiga birgina xo'jalik yurituvchi sub'ektni bir yil davomida bittadan ortiq tekshirishni olishi mumkin emas.

Rejadan tashqari tekshirishlarni o'tkazish uchun asos bo'ladigan holatlar yuzaga kelishi munosabati bilan rejadagi tekshirishlarni o'tkazish muddatlarini keyinga surish Kengash raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan hal etilishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlari va bosh buxgalterlari yo'qligi munosabati bilan belgilangan muddatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rejali tekshirishni amalga oshirib bo'lmasa, Kengash va uning viloyat komissiyalarining raislari yoki ularning o'rinbosarlari tegishli nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari va ularning hududiy bo'linmalari taqdim etgan asoslanmalarga binoan istisno hollarda bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni boshqa muddatga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin.

Rejadan tashqari tekshirishlarni (shu jumladan qisqa muddatli tekshirishlarni) nazorat qiluvchi organlar "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining davlat nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining tegishli moddasiga binoan quyidagi hollarda amalga oshirishlari mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiqadigan tekshirishlarni o'tkazish zarur bo'lganda. Bunda, agar Hukumat qarorida tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt nomi aniq belgilangan bo'lsa, Kengash yoki uning viloyat komissiyasidan rozilik olish talab qilinmaydi;

nazorat qiluvchi organga xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan qonunlar yoki qonun hujjatlarining buzilishi faktlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushsa.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolardan kelib tushgan, aniq dalillangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan huquq buzilishi faktlari ko'rsatilgan axborot qo'shimcha ma'lumot hisoblanishi mumkin:

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida;

sanitariya-epidemiologik vaziyat murakkablashgandan, shuningdek qo'shni mamalakatlardan yuqumli kasalliklar keltirilishi va tarqalishi ehtimoli paydo bo'lganda.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish o'tkazish zaruriyati tug'ilgan hollarda agar ular tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektning nomi aniq belgilangan bo'lsa, Hukumat qarorlariga binoan tekshirish o'tkazish hollaridn tashqari), nazorat qiluvchi organning markaziy apparati Kengashga, nazorat qiluvchi organlarning hududiy bo'linmalari esa viloyat komissiyalariga uni o'tkazishning zarurligini asoslagan holda rejadan tashqari tekshiruv o'tkazish uchun buyurtmanoma yuboradi.

Nazorat qiluvchi organ hududiy bo'linmasining xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyatini rejadan tashqari tekshirish o'tkazishga buyurtmanomasini viloyat komissiyasi mazkur tekshirishni o'tkazishga ruxsat berish yoki uni rad etish masalasini hal etish uchun Kengashga yuboradi.

Ko'rsatilgan sabablar bo'yicha, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'lanmagan rejadan tashqari qisqa muddatli tekshirishni o'tkazish zaruriyati tug'ilgan hollarda nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari Kengashga, nazorat qiluvchi organlarning hududiy bo'linmalari esa viloyat komissiyalariga bunday tekshirishni o'tkazishga doir tegishli asoslar bilan birga takliflarni taqdim etadilar.

Kengash va uning viloyat komissiyasining ishchi organlari taqdim etilgan buyurtmanomalar bo'yicha tegishli nazorat qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ularning asosligini o'rganadilar, tegishli Kengash va uning viloyat komissiyalariga tegishli takliflarni kiritadilar, ular rejadan tashqari tekshirish o'tkazish yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladilar.

Rejadan tashqari tekshirish o'tkazish yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror buyurtmanoma kelib tushgan kundan boshlab ikki haftalik muddatdan kechiktirmay qabul qilinadi va qaror yoki xat ko'rinishida rasmiylashtiriladi, unga tegishli Kengash raisi (yoki uning topshirig'iga ko'ra o'rinbosari) yoxud viloyat komissiyasining raisi imzo chekadi hamda nazorat qiluvchi organga yuboriladi.

Sanitariya-epidemiologik vaziyatning murakkablashishi, shuningdek, qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklarning kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli bilan bog'liq rejadan tashqari tekshirishlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror, sanitariya va ekologik nazorat organlari murojaati asosli bo'lgan taqdirda, tezlik bilan tekshirish o'tkazish uchun buyurtmanoma kelib tushgan kunda qabul qilinadi.

Yuqori turuvchi nazorat organlari, ularni o'tkazish to'g'risida Kengash uning viloyat komissiyasining qarori bo'lgan taqdirdagina, o'z hududiy bo'linmalariga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish to'g'risida topshiriqnomaga yuboradilar.

Muqobil tekshirishlar va nazorat tartibdagi tekshirishlar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda muqobil tekshirishlarni nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari va ularning hududiy bo'linmalari tegishli Kengash va uning viloyat komissiyasining qarori bo'yicha, qo'zg'atilgan jinoiy ishlar bo'yicha esa tekshirishni tayinlash to'g'risidagi qarorga asosan, faqat ularning tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt bilan o'zaro munosabatlari bobda o'tkazadilar. Bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektning tekshirilish ob'ekti bilan o'zaro munosabati deganda shaxslarning hujjat bilan tasdiqlangan aniq aloqasini tushinish kerak.

Muqobil tekshirishlarni o'tkazish uchun nazorat qiluvchi organlarning markaziy apparatlari va ularning bo'linmalari Kengashga yoki uning viloyat komissiyalariga buyurtmanoma yuboradilar.

Buyurtmanomaga tekshirish o'tkazishning zarurligini asoslaydigan hujjatlar ilova qilinadi.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida nazorat qiluvchi organ buyurtmanomasi kelib tushgan kundan boshlab bir haftadan kechiktirmay, nazorat qiluvchi organlar markaziy apparatlarining buyurtmanomalari bo'yicha Kengash raisi tomonidan (yoki Kengash raisining topshirig'iga ko'ra-uning o'rinbosari tomonidan), nazorat qiluvchi organlar hududiy bo'linmalarining buyurtmanomalari bo'yicha esa - viloyat komissiyasining raisi tomonidan muqobil tekshirishni o'tkazish yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Nazorat tartibida tekshirishlarni nazorat qiluvchi organlar faqat ular tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma (ma'lumotnoma)da belgilangan faktlar bo'yicha va muddatlarda, Kengash yoki uning viloyat komissiyasining qo'shimcha qarorisiz amalga oshiradilar.

Nazorat qiluvchi organlarning Kengash (hududiy komissiyalar) bilan qo'shimcha kelishuvsiz amalga oshiriladigan nazorat funksiyalari.

Nazorat qiluvchi organlarning Kengash (hududiy komissiyalar) bilan qo'shimcha kelishuvsiz nazorat funksiyalari quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

ko'rsatilgan kreditlarni bergan Markaziy va tijorat banklari kreditlaridan maqsadli foydalanish va ularning qaytarilishini nazorat qilish;

Kengash bilan kelishilgan ob'ektlarda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya xizmati va ularning hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan tuproq oqava va er ustidagi suvlarni ifloslantirish manbalari monitoringi

(sanoat korxonalarining ifloslantirish manbalaridan atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlangan va oqizilgan ifloslantiruvchi moddalardan namunalarni asboblari vositasida tanlab olish);

Davrixitektqurilishnazorat organlari bilan qurilish buyurtmachilari o'rtasida, shuningdek buyurtmachilar bilan pudrat qurilish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladigan qurilish ishlari sifatining qurilish me'yorlari va qoidalariga, respublika standartlariga, davlat standartlari va texnik

shartlarga muvofiqligini nazorat qilish;

don qabul qilish korxonalarini omborlari, tegirmonlar va elevatorlarda bo'lgan donning namligi va ifloslanganligini Kengash bilan kelishilgan ro'yxatlar bo'yicha O'zdavdonnazorat bo'linmalari o'tkazadigan namunalarni tanlash yo'li bilan tadqiq qilish;

tegishli ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning qabul qilingan qarorlari asosida korxonalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatish;

sud ijrochilari tomonidan sud qarorlarining o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish bo'yicha adliya organlari ko'rsatadigan huquqiy yordam, shuningdek tadbirkorlik huquqlarini himoya qilinishini ta'minlash;

zarurat tug'ilganda (sinovlar, sertifikatlashlar sifatli o'tkazilgani, nosoz uskunlardan, malakasiz mutaxassislardan foydalanilgan va hokazolar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda) O'zdavstandart yoki uning topshirig'iga ko'ra maxsus vakolatli shaxs (ekspert-auditor) amalga oshiradigan, O'zdavstandartda akkreditatsiyalangan va litsenziya olgan sinov laboratoriyalari (markazlari) litsenziya kelishuvlarining shartlariga rioya qilinishi ustidan nazorat;

Kengash bilan kelishilgan ob'ektlarda doimiy ravishda mustahkamlangan va joylashgan, Sanoatda ishlarni xavfsiz yuritishni nazorat qilish va konlar nazorati agentligining inspektorlari amalga oshiradigan, ob'ektlarda ishlarni yuritish va yuk tashish xavfsizligi holatini nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan tijorat banklari muassasalarida, qishloq xo'jalik korxonalarini va boshqa korxonalarda Moliya vazirligi huzurida barpo etilgan davlat fondlari mablag'laridan maqsadli foydalanish bilan bog'liq masalalar bo'yicha nazoratning amalga oshirilishi, bunda mazkur tekshirishlar O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tasdiqlagan rejalar va uning buyruqlariga binoan amalga oshiriladi;

Kengash tomonidan mazkur masala bo'yicha maxsus qaror qibul qilinganda.

Nazorat qiluvchi organlar mazkur Nizomning tegishli bandiga muvofiq o'tkazilgan nazorat tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'tkazilgan tekshirishlar to'g'risidagi choraklik ma'lumotlar kiritilmaydilar, balki yil yakunlari bo'yicha kengashga ushbu nazorat funktsiyalarining amalga oshirilgani to'g'risida umumlashgan axborot taqdim etadilar.

Nazorat qiluvchi organlar *xususiy tadbirkorlarning* faoliyatini o'z vakolatlari doirasida va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshiradilar.

Tekshirishlarning reja-grafiklariga rioya etilishi monitoringini Kengash va uning hududiy komissiyalarining ishchi organlari amalga oshiradilar.

Nazorat qiluvchi organlar:

har chorakda tegishli shakl va muddatlarda o'tkazilgan tekshirishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli hududiy komissiyalarga va nazorat qiluvchi organlarning yuqori tashkilotlariga taqdim etadilar, ular bu ma'lumotlarni umumlashtiradilar va hisobot davri yakunlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlar Kengashining ishchi organiga taqdim etiladi;

muntazam ravishda yoki har chorakda kamida bir marta, tegishli viloyat va tuman komissiyalari ishchi organlarining ma'lumotlar kompyuter bankiga kiritish uchun ular hisobot davrida o'tkazgan tekshirishlarning boshlanishi va yakunlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar.

Kengash va uning hududiy komissiyalarining ishchi organlari nazorat qiluvchi organlardan aytilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda taqdim etilishini talab qilish huquqiga egadirlar.

2.13.AQSH kompaniyalarining savdo sirlari – axborotlarini maxfiyligini himoyalash amaliyoti

AQSH qonun chiqaruvchi hukumatida maxfiy normativ akt mavjud ya'ni savdo – sotiq maxfiyligiga bag'ishlangan, ya'ni xalqaro tajribada qoidadan ko'ra istisno hisoblanadi. Savdo – sotiq maxfiyligi ("trade secret" – "savdo siri" atamasidan foydalaniladi) haqidagi normativ materialning asosiy massasi alohida shtatlar darajasiga o'tadi. 1979 – yilda (the Uniform Trade Secrets Act) savdo – sotiq sirlari haqidagi federal qonun barcha shtatlar tomonidan ma'qullandi, biroq, shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari federal qonun ta'siri ostida qolyapti va bu butunligicha unga mos keladi. Bu qonundan tashqari, savdo sirlari yana butun bir normativ aktlar qatorini qamrab oladi.

Qonun aniq savdo sirlariga quyidagilarni beradi: "Savdo siri shunaqa ma'lumotlar anglatadi, ya'ni o'z ishiga oluvchi formula, namuna, to'plam, dastur, asbob, uslub, texnika, yoki jarayon ya'ni iqtisodiy qiymatdan mustaqil ega bo'lgan, haqiqiy yoki potensial, boshqa shaxslar mustaqilligi

kuchida, ya'ni kim uning topilishi va foydalanishida foydani qo'lga kirituvchi, (sirlar) maxfiyligini saqlash uchun choralar qabul qiluvchi munosabat tushuniladi.

Shuning uchun savdo maxfiyligi ostida shunaqangi axborotlar tushuniladiki, ya'ni ma'lumotlar to'plami ob'ektiv shakllar, namunalar, tashuvchi qog'ozdagi hujjat, elektron hujjat va boshqacha ifodalangan ya'ni ikki tomonlama zaruriy belgilar – haqiqiylik va potensial qiymat hisoblanadi. Savdo siridagi sub'ektlar huquqlari jismoniy shaxs, yuridik shaxslarga, sherikchilik, qo'shma-korxona, hukumat va hukumat bo'limi yoki agentligi, shuningdek har qanday boshqa yuridik yoki savdo-sotiq o'quvi birlashganligi bilan mos keluvchi qonunda hisoblanadi. Qonun shaxsning huquqini savdo maxfiyligida sud shakllari himoyasida ko'zda tutadi.

“Noqonuniy o'zlashtirish quyidagicha tushuniladi: “bilgan yoki bilish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxsdan savdo siriga ega bo'lish, ya'ni savdo siri noqonuniy metodlar qabul qilgan, mahsus yoki hozirda tutilgan ruxsatnomaga ega bo'lmagan shaxsdan olingan savdo ishlatilishi, xato yoki tasodifiy hol bo'yicha savdo sirini tashkil qiluvchi axborotlarga egaligi tushuniladi.

“Noqonuniy metodlar”ga shu qonunga mos holda quyidagilar taalluqli: o'g'irlik, adashtirishga olib kelish, pora berish, buzish yoki maxfiylikni saqlash majburiyatini buzishga fitna qo'zg'atish, elektron yoki shunga o'xshash usullar yordamida josuslik qilish.

Axborotlar to'plami noqonuniy metodlar hisoblanmaydi va ular: orqaga qaytish, kelishuv va shartnoma asosida axborot ma'lumotlar almashish va mustaril yangilik olish - qonun doirasida o'zining uslublari bo'yicha ma'lumot olish. Qonun shaxs huquqlarini himoyasi usuli sifatida quyidagi ataladigan zararlarni qoplaydi: “zararlar noqonuniy o'zlashtirish”dan haqiqiy zararni yana (noqonuniy) berilgan harakatdan noqonuniy boyitishni ham o'z ichiga oladi. Butunligicha qaraganda AQSH savdo sirlari 1979 yildagi qonunning asosiy mohiyati shunday.

AQSH da axborot hususiy ob'ekt va ish kapitali hisoblanadi va tashkilotlarda uning maxfiyligi yani sir tutilishi himoya va muhofazaga muhtojdir. AQSH hususiy kompaniyalari savdo sirlariga o'ziga taalluqli axborotlari bilan munosabatda bo'ladi va o'zlarining iqtisodiy savdo manfaatlari – tovarlar, hizmatlar bozorida va insofsiz raqobatdan ogohlantirish o'zlarining savdo-sotiq manfaatlarini ta'minlash maqsadlarida uning maxfiyligini yani sir tutilishini muhofaza qiladi.

AQSH kompaniyalarida iqtisodiy –savdo maxfiyligi, iqtisodiy –savdo sirlari va ma'lumotlarni maxfiyligi sir tutilishini rejalashtirish birinchi qatorda maxfiy ma'lumotlar tarqalishini oldini olish. Ma'lumotlar tarqalishini potentsial havf-hatari kompaniya hodimi, shuningdek iqtisodiy kompaniyaning qandaydir bir faoliyat ko'rinishi b'yicha kompaniya bilan shartnomalar yoki kelishuvlar tuzgan kontragentlar bo'lishi mumkin. Bunaqa harakat qilishga uringan (suistemol qilgan) shaxsni ushlashda kompaniya personalini rasmiylashtirish majburiyatlari va kompaniya ish manfaatlarini himoya qilishda yozma dalil sifatida sudda foydalanish maqsadida ma'lumotni maxfiyligi sharoitlarida kontragentlar ko'zda tutiladi. AQSH da sud tekshiruvida va boshqa mamlakatlarda, odatda yozma dalillar boshqacha aytisak ma'lumotarni hujjatlanishi belgilanadi. Bu hujjatlar quyidagi majburiyatlar va kelishuvlarni o'z ichiga oladi: hususiy savdo sirlarini e'lon qilmaslik haqida savdo axborot nomalari; raqobatlashuvchi faoliyat chegarasi haqida; ma'lumotlar sirlari haqida, uni almashinishi va ko'rsatilishi va boshqalar. Shuning uchun kompaniya savdo sirlarini himoya va muhofaza qilish tizimi rejalashtirish bo'yicha asosiy masalalar ma'lumotlar indenfikatsiya ayni kompaniyada sirkulyatsiya qiladi va ma'lumot maxfiyligi darajasini aniqlash uchun maxfiy ma'lumotning klassifikatsiya tizimlarini tuzish hisoblanadi.

Iqtisodiy savdo maxfiyligini himoyasi va muhofaza tizimini rejalashtirishni o'tkazish uchun faqat kompaniyaning avtomatlashgan kompyuter tizimlari emas, balki an'anaviy xizmat qog'ozlar ishlab chiqaruvchi texnologiyalarni sirkulyatsiya qiluvchi barcha ma'lumotlarning audit tajribasi ishlatiladi.

Auditni o'tkazishda quyidagi tajribasi mavjud.

- Kompyuterning (texnologik, ishbilarmon, xizmat va boshqa ma'lumotlar) maxfiy ma'lumotlari aniqlanadi.
- Ma'lumot tarqalishining potentsial kanallari aniqlanadi.
- Mutaxassislar bilan muhofaza bo'yicha faqat ma'lumotlar himoyasi rejimi savollari bo'yicha emas, balki kompaniya binosi va joyining muhofazasi rejimi, shuningdek kompaniya xodimini ham.
- Kompaniyaning ma'lumot maxfiyligi himoyasini ta'minlash bo'yicha turli xil texnologiyalarning harajatlar va daromadlar o'zaro munosabatini tahlil qilinadi.
- Ma'lumot himoyasi va muhofazasini ta'minlash tizimi har uchastka bo'yicha javobgarlik mustahkamlanadi.

Audit natijasida kompaniya boshqaruvi harakati sohalarini rejalashtirish va mos kelgan xizmatlar va o'zaro ta'sirni ko'rib chiqiladi. Xizmatning aniq nomlanishi savdo iqtisodiy sirlarini muhofazasi va himoyasi sohasida kompaniyaning bo'linmalari strukturasining funksiyasiga, shuningdek boshqaruv qaroriga yoki uning strukturasida kompaniya egasining qaroriga bog'liqdir. AQSHning turli xil savdo iqtisodiy kompaniyalari xizmatlari nomlanishi har-xildir.

Ma'lumot himoyasida markaziy, kalit xizmat kompaniya hodimi va xavfsizlik xizmati chiqadi, Chunki ko'pchilik kompaniyalarda asosiy potensial ma'lumot tarqalishi xavf-hatari kompaniya xodimi, shuningdek shu kompaniya bilan shartnomalar va kelishuvlar tuzgan xususiy ko'pchilik shaxslar va boshqa firmalar hisoblanadi.

Maxfiy ma'lumot himoyasi va muhofazasi rejimini ta'minlash uchun personal va xavfsizlik xizmatlarining asosiy funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- Ishga qabul qilish va uni rasmiylashtirishda suhbat o'tkazish;
- Personal bilan ish, maxfiy qadrlar, ishlab chiqarish va boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar va kelishuvlarni tuzish bo'yicha;
- Ishdan xaydashda, kontraktlarni va shartnomalar bekor qilinishi va uni hujjatlash bo'yicha suhbat o'tkazish.

Kontraktlar va shartnomalar quyidagicha tuziladi:

- 1 Kompaniya personal bilan;
- 2 Konsultantlar va mustaqil kontragentlar (kompaniya mahsulotlarini sotuvchilar; mijozlar va savdo-sotiq agentlari; mahsulot sertifikatlash xizmatlari va boshqalar);
- 3 Kompaniya (ishlab chiqarish, savdo markazi, bank, kazino, ilmiy markaz va boshqalar) faoliyat ko'rinishi yo'nalishiga bog'liq ishbilarmon sheriklar va sotuvchilar bilan.

Xavfsizlik va personal xizmatlar majburiyatiga odatda quyidagilar kiradi:

- Inshoot, bino, joy, asbob-uskuna va ex-kompaniyaning texnik yoritilganligini muhofazasi va xavfsizligi.
- Kompaniya personal muhofazasi va xavfsizligi.
- Elektron pochta va internet parollar sistemasi, serverlarning ma'lumot xavfsizligi va boshqalarni o'z ichiga oluvchi kompyuter tizimi va lokal tarmoqlarni batafsil hisobini va muntazam tekshiruvini olib borish;
- Kompaniya joyi uchun ruxsat beruvchi tizimlar va nazoratlarni ta'minlash;

Havfsizlik va personal xizmati ishga qabul qilishga asosiy e'tibor qaratadi.

Ishga qabul qilishda yoki kompaniyada ma'lumot maxfiyligi rejimini ta'minlash uchun kontragentlar bilan shartnomalar va kelishuvlar tuzishda albatta suhbat o'tkaziladi, yani shu vaqtda:

1. Maxfiy ma'lumot munosabatida o'zi bilan kompaniya va boshqa kompaniyalar tashkilotlar va ayrim shahslar (ishga tushuvchini arizasini to'ldiradi va unga koimpaniya ishchilari yoriqnomasi beriladi);
2. Kompaniyaning maxfiy ma'lumot e'lon qilnmasligi yani tashqariga chiqmasligi haqida kelishiv ko'rsatiladi va muhokama qilinadi .
3. Bu kelishuv jiddiy ko'rsatiladi (ayrim ma'lumot va ixtirolar tashqariga chiqmasligi haqidagi majburiyat shakli, maxfiy ma'lumot tashqariga chiqmasligi haqidagi kelishuv yozma to'ldiriladi);
4. Oldingi ishdan xaydalish sababi va holati aniqlanadi;
5. Oldingi ish joydan xaydalish haqidagi guvohlik nusxasi qabul qilinadi;
6. Oldingi ish joyi bilan boshqa kompaniya ma'lumotarini tashqariga chiqarmaslik haqidagi ogohlantiruvchi xatni nusxasi olinadi;
7. Kelajakda ishchilar tomonidan ma'lumot tashqariga chiqarishda sud tekshiruvi ehtimoli muhokama qilinadi.
8. Kompaniya xususiy ma'lumot munosabatida ishchi va hizmatchining yoriqnomasi yangi ish joyida huquqlarda mumkin bo'lgan chegaralanishni muhokama qilinadi.

Suhbatlanish bosqichida xizmatchi tomonidan mos keluvchi hujjatlar imzolandi.

Tashkilotlarda ishga tushgan shahslar maxfiy ma'lumotni saqlashga bergan arizasidan na'muna.

"SYKIN & SIAN" kompaniyasiga ishga meni qabul qilishi haqidagi arazamda quyidagilarni keltiraman. Men quyidagilarni ko'rsataman va kafolat beraman:

1. Men boshqa shahs yoki kompaniya oldida o'z majburiyatlarimni buzmasdan, siz neni qanaqa lavozimga qo'yishingizdan qa'tiy nazar majburiyatni bajara olaman.
2. Men oldingi tuzgan savdo sirlari saqlash haqida oxirgi ____ yillar ichidagi boshqa majburiyatlarning barchasiga o'zimning ro'ziligim nisholarini sizga berdim.

3. Men sizning ishingiz bilan bog'liq bo'lmagan, manbalardan olingan qandaydir yoki ayrim ma'lumotni o'zimni ishimni ko'zlab foydalanmayman. Men boshqa shaxs yoki kompaniyaga tegishli materallarni va hujjatlarni qandaydir usul bilan foydalanishda yoki sizning korxonangizga olib kelmayman.

Sana: _____ Ishga kiruvchi _____

Ayrim texnik va ish ma'lumoti. Bu nima degani?

Kompaniya o'zining ishida foydalanadigan ma'lumotni ishlab chiqadi. Bu ma'lumot ishlab chiqargan yangi mahsulot yoki xizmatlari sifatidagi texnik savollarga yoki notexnik savollarga masalan, marketing yoki moliyaviy ma'lumotga tegishli bo'lishi mumkin. Buning hammasi kompaniyaga tegishli va birgalikda juda qimmat va muhim kapitalni tashkil qiladi va ko'pchiligini xuddi bizning ko'chmas mulk va moddiy ishlab chiqarish zaxiralari bo'lishi mumkin. Ayrim ma'lumot (shuningdek "savdo siri" deb nomlanuvchi) o'z ichiga quyidagi misollarni o'z ichiga oladi: ixtirolar, formulalar, texnologiyalar, yangi ish g'oyalari, mijoz haqidagi ma'lumot, marketingli rejalar va savdo prognozlar. Siz yana biznesingizga aloqador ixtisoslashgan kategoriya qo'shishingiz mumkin. Bu, albatta, hamma misollar emas va kompaniyaning ayrim ma'lumotlari bu yerda sanalgan (hisoblangan) dan ko'ra ko'pchilik boshqa ixtisoslashgan kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Ayrim ma'lumot ko'pincha yozma ko'rinishda rasmiylashtiriladi. Ammo hatto agar bunday bo'lmasa ham u baribir kompaniyaning muhim mulki hisoblanadi. Qandaydir shaxsning kallasidagi mavjud ma'lumot ham shuningdek noqonuniy foydalanishdan yoki ochishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Agar sizda ayrim ma'lumot sifatida ixtisoslashtirishga yoki qandaydir hujjat kompaniya mulki hisoblanishiga aloqador ya'ni tegishli bo'lgan savollar paydo bo'lsa, _____ ga uchrashing.

Bu nega muhim?

Bu sohada bizning biznes yagona emas. Biz tavarlarimiz va xizmatlarimizni sotishda raqobatchilar bilan to'qnashamiz. Buning uchun yashab qolish uchun, biz barcha kapitalimizni ko'proq samarali ishlatishimiz va aqlli himoya qilishimiz kerak. Chunki bizning raqobatchilar xuddi shunday yo'l tutishadi. Ayrim ma'lumotning har qanday ko'rinishi raqobatli kurashimizda afzallik beradi.

AQSH ayrim kompaniyasining xavsizlik va personal xizmati personal bilan, shuningdek, kontragentlar bilan shartnoma tuzishda ayrim maxfiy ma'lumotni tashqariga chiqarmaslik haqida majburiyat qo'yildi. Shuni ko'rsatish kerakki AQSHning turli shtatlarida ayrim maxfiy ma'lumotlar haqida qonun chiqaruvchi organlari farq qiladi. Tegishli moddalariga qo'yilgan tekst Kaliforniya shtatining Fuqarolik kodeksi asosida tuzilgan.

Xususiy ma'lumotni aniqlash. Bu yerda ishlatilayotgan "xususiy ma'lumot" atamasi kompaniyaning har qanday mijozi bilan hozirgi yoki kelgusi boshqacha biznes bilan bog'langan yoki almashtirilgan yoki almashtirish mumkin bo'lgan har qanday maxfiy, xususiy yoki sirli harakterdagi ma'lumotga taalluqli. Xususiy ma'lumot barcha chegaralanishsiz masalan, ish sirlari (Kaliforniya, 3426 Fuqarolik kodeksi bilan aniqlangan), texnologik jarayonlar, formulalar, ixtirolar haqidagi ma'lumotlar, texnik va moliyaviy nou-xau, yuksalishlar, asbob-uskunalar na'munalari, marketing rejalar va mijozlarga yoki savdogarlarga tegishli ma'lumotlar.

Maxfiy harakterdagi hususiy ma'lumotni xizmatchi tasdiqlaydi, ya'ni hususiy ma'lumot o'zi bilan kompaniyaning asosiy qimmatbaho va yuksak kapitalini ko'rsatadi va xizmatchi kompaniyada o'zining ish jarayoni ichidagi hamma vaqt va keyin barcha hususiy ma'lumotni sir saqlashga rozi bo'ladi. Xizmatchini bu davr ichida va keyin u bevosita va bilvosia kompaniya hususiy ma'lumotini xizmatchi sifatida o'zining majburiyatlarini bajarish manfaatlarida boshqacha qilib namoyon qilmaslikka majbur qilinadi. Xizmatchi va'da beradi, ya'ni u bevosita, bilvosita kompaniyaning hususiy ma'lumotini qandaydir shaxsga, tashkilotga, kompaniyaning buyrug'i bilan xizmatchi sifatida o'zining majburiyatlarini bajarish holatlaridan tashqari fosh qilmaydi, ya'ni sirini oshkor qilmaydi. Xizmatchi hususiy ma'lumotlarini himoya qilish kompaniya qoidalariga va ko'nikmalariga bo'ysinadi.

Boshqa ishlarini bajarishi. Xizmatchi kompaniyada o'zining ish davrida kompaniya ish olib borayotgan biznes sohasiga tegishli bo'lgan kimningdir manfaatlarida qandaydir faoliyatda qatnashmaslik va konsultatsiyalar bermaslik, qandaydir ishda bevosita yoki bilvosita kompaniyaning qo'shimcha yozma rozilgisiz qatnashmaslikka majbur qilinadi. Bo'lmasa bu kompaniya bilan munosabatda xizmatchi majburiyatlari bilan qarama-qarshilik kelib chiqadi. Bu kelishuvda xizmatchini kompaniyada ishining uzaytirilishi haqida qandaydir huquqlarini ta'minlaydi yoki xizmatchini haydash bo'yicha kompaniyaning huquqi chegaralanmaydi.

Ishdan bo'shashda, ya'ni ketishda hamma materiallarni qaytarish haqidagi majburiyat kompaniyada ish tugashi holatida yoki bu qadamga qanaqa sabab bo'lishidan qat'iy nazar, xizmatchi

darhol kompaniyaga o'zining ishiga taalluqli hamma hujjatlarni, ma'lumotlarni, yozmalarni yoki boshqa materiallarni qaytarishi kerak. Xizmatchini kompaniyaning hususiy ma'lumotlarini saqlovchi hech qanday hujjatlarni yoki ma'lumotlarni o'zi bilan olmasligiga majbur qilinadi. Kompaniya ma'lumotini topshirish xizmatchini hamma ixtirolar, kashfiyotlar, yuksalishlar, ish sirlari, formulalari va tehnologiyalar va kompaniya hususiy ma'lumoti yoki asbob – uskunasiidan foydalanishda qo'lga kiritilgan yoki kompaniya manfaatlarida haqiqiy yoki kutilayotgan natijalarga taalluqli bo'lgan jamoada yoki bir o'zi bo'lib qo'lga kiritgan ishlab chiqqan nau-hauni topshirishi yuklanadi.

Ixtiro kompaniyaning alohida mulki hisoblanadi. Xizmatchi tasdiqlaydi yoki unga yuklanadi, ya'ni hamma mualliflik ishlari yoki ixtirosi uni vakolatini belgilaydigan boshqa sub'yekt yoki kompaniyaning alohida mulki hisoblanadi. Haqiqiy xizmatchi kompaniyaning o'zining hamma mualliflik ishlari va ixtirolariga bo'lgan butun to'liq huquqini topshiriladi.

Kompaniya yoki unga vakolati bo'lgan boshqa har qanday sub'yekt bu ixtirolar bo'yicha barcha ichki va tashqi huquqlar egasi bo'ladi. Agar biror bir ixtiro kompaniyada ish tugashidan keyin 1 yil ichida xizmatchining 3 - tomonidan oshkor qilingani yoki patent talab qilishi holatida, ya'ni ixtiro kompaniyada o'zini ish vaqtida qilingan bo'lsa, bu ixtiro unga tegishli bo'ladi, agar bu ixtiro kompaniyadan bo'shashdan keyin qilinganligi isbotlanmasa.

Ixtironi himoya qilish uchun zarur bo'lgan yordam. Xizmatchiga o'zining mualliflik ishlari va ixtirolari potentga ariza yoki mualliflik huquqlarini o'z ichiga olib qonuniy himoyani ta'minlash uchun kompaniyaga har qanday yo'l bilan yordam ko'rsatish yuklanadi. Bu aloqalarda xizmatchiga ularni amalga oshirishda bu ixtirolarni yoki mualliflik ishlarini himoyasini ta'minlashda foydalanish uchun kompaniya muhim va foydali hisoblaydigan hamma hujjatlarni ijro etish har qanday ixtirolar yoki mualliflik ishlariga tegishli harqanday sudda yoki boshqa tekshiruvlarda ko'rsatma berish yuklanadi. Xizmatchini kompaniya yoki uni tayinlagan shaxs manfaatlarida hamma zaruriy ishni, buyruqni ijro etish yuklanadi. Kompaniyani yordam ko'rsatishida xizmatchini majburiyatlari o'zini kuchini saqlaydi va keyin uni ish tugashida ham, ammo kompaniya iltimosiga ko'ra yordam ko'rsatish uchun xizmatchiga bu haqiqiy sarflash vaqtiga bundan keyin o'rtacha kompensatsiya to'lash majburiyatini o'ziga oladi. Agar kompaniya har qanaqa potent yoki mualliflik huquqiga talabnomalar yoki topshiriqlar uchun zarur bo'lganlarni o'z ichiga olgan qonuniy va zarur hujjatlar uchun xizmatchidan qandaydir sababga ko'ra imzo olish holatida bo'lmagan vaziyatda va shuningdek topshirish va potent nashrini yoki mualliflik huquqi uzaytirish davom etishi uchun barcha qolgan ruxsat berilgan qonuniy aktlar bajarilishi har qanday shunaqa talablar bajarilishi uchun uni nomidan va xizmatchini o'rniga ishonchli vakil yoki o'rnini bosuvchi vakil sifatida agentlar va vakolatini belgilagan mansabdor shaxs va kompaniya tomonidan xizmatchi tomonidan haqiqiy qaytarilmaydigan qidiruv talablarini ishdan bo'shishi uchun tayinlanadi. Bu harakat o'sha qonuniy kuchga ega ya'ni agar xizmatchi o'zi ularni amalga oshirgan bo'lsa xizmatchi hozir yoki kegin bu harakatlar natijasida paydo bo'lgan mualliflik huquqi yoki potentni buzish bilan munosabatda ega bo'lishi mumkin bo'lgan kompaniyaning qandaydir etirozdan o'zi rad qiladi.

Oldingi ixtirolar ro'yhati. Kompaniyada ishga kirishgacha xizmatchi o'zi qilgan barcha ixtirolar agar ular bo'lsa haqiqiy kelishuv harakati sferasidan istisno qilinadi. Hisob maqsadlarida xizmatchi bu hujjatga ilova qiladi, kompaniyada ishga kirishgach xizmatchi o'zi qilgan kompaniya faoliyati sohasiga taalluqli bo'lgan ixtirolar, kashfiyotlar yoki yuksalishlarni hisoblaydi. Xizmatchi bu ro'yxat to'la deb ishontiradi.

Ish munosabati. Xizmatchi takidlaydiki ya'ni kompaniya bilan uning xodimlari (mijozlar va haridorlar agentlari va vakillarini o'ziga oluvchi qimmatbaho ish kapitali hisoblanadi. Xizmatchi ishontiradiki, ya'ni kompaniyada o'z ish vaqtida ham va undan keyin ham bu munosabat yo'llarida yoki boshqa yo'llarda u buzilmaydi, zarar yetkazmaydi, suslashtirmaydi va qo'shilmaydi. Bu shart xizmatchini u yerdan bo'shashidan keyin kompaniya bilan raqobatlashishga huquq bermaydi.

Umumiy ahvol. Shunday qilib har qanday bu yerda gaplashilgan kelishuvlardan yoki har qanday so'z, ibora, taklifnoma qandaydir sababga ko'ra noqonuniy yoki yo'qotilgan bo'ladi, bu kelishuv, so'z, ibora, taklifnoma yuksaltirilgan bo'ladi yoki chiqarib tashlangan bo'ladi. Shunday qilib kelishuvni yuksaltirilgan, qonuniy yoki qonunlar bilan ishlatiladigan mos holda kuchga ega bo'lishi kerak, bir-biridan kelishuv yoki qismlardan mustaqil balans esa bu bilan buzilgan bo'lmasdi.

Bu kelishuv xizmatchining majburiyatini va uning merosxo'rlari, merosini ijro etuvchilar qabul qilishga huquqi borlarni yoki homiylarni bog'laydi va kompaniya foydasiga, uning qatnashuvlari, bo'limlari va qabul qiluvchilarga xizmat qiladi.

Bu kelishuv har biri asl nusxa sifatida ko'rib chiqiladigan ikkita nusxada tuzilishi mumkin, birgalikda esa ular bitta hujjatni tashkil qiladi.

Bu kelishivda erkak turi shakllarini ishlatilishi ayol turi nazarda tutiladi, birlikdagi sanoat shakllarini ishlatish esa mos holda va ko'plik sanog'i nazarda tutiladi. Bu kelishuv o'zi bilan barcha oldingi og'zaki va yozma kelishuvlar va roziliklarni o'rnini bosadigan bu yerdagi hamma ilova qilingan munosabatida xizmatchi va Kompaniya orasida to'liq rozilikni ifodalaydi. Bu kelishuv faqat mansab orqali rasmiylashtirilgan va qonunlashtirilgan kelishuvlar orqali yuksaltirilishi mumkin.

Xizmatchi: _____ (imzo)

Sana: _____ (imzo)

Titul: _____ (bosilgan familiya)

Xizmatchiga ogohlantirish: Bu kelishuv muhim huquqqa ega boladi. Hozircha uni diqqat bilan o'qib chiqmaganingizcha va uning tolaligicha tushinishga ishonch hosil qilmaganingizcha imzo qo'ymang. Ba'zi kompaniyalarda hafsizlik va personal xizmatlar maxfiy ma'lumot tashqariga chiqmasligi haqidagi qisqa shakl qo'llaniladi. Qisqa shakl ishga qabul qilish haqida alohida kontrakt punkti sifatida qo'llanilishi mumkin.

Maxfiy ma'lumotni tashqariga chiqarmaslik haqida qisqa kelishuv fo'rmasi "SYKIN & SIAN" kompaniyasini xizmatchisi sifatida men ongli ravishda tushinamanki, uning biznesiga aloqador kompaniya ma'lumotiga va asbob-uskunasiga ruxsat olaman. Men shuningdek tushinamanki, mening ish vaqtim payitida men analizni amalga oshiraman, sxemalar, jadvallar, chizmalar, maruzalar va kompaniya ishlariga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlarni tuzaman.

Men shu majburiyatni olamanki ya'ni kompaniyada ishim vaqtida ham va ishdan bo'shashdan keyin ham kompaniya xizmatchisi sifatida men qo'lga kiritgan yoki ishlab chiqqan kompaniya boshqa mulk yoki qandaydir boshqa ma'lumotni doimo sir saqlayman.

Men shuningdek roziman, ya'ni hamma analizlar, g'oyalar, sxemalar, chizmalar, ma'ruzalar va o'zim tomonidan yoki boshqalar bilan hamkorlikda tayyorlangan boshqa hujjatlar mening ish vaqtimda kompaniyaning mulki hisoblanadi va men o'zim ham va hech kimga ham yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda annotatsiya yoki nusxalar, ko'chirmalar qilishga yo'l qo'ymayman. Men tasdiqlaymanki, ya'ni kompaniya ta'minotida mening faoliyatimni chegaralaydigan yoki haqiqiy kelishuvlar bilan qarama-qarshilikda bo'lgan har qanday shaxs yoki firma oldida hech qanday majburiyatlarga ega emasman.

Xizmatchi _____ Sana _____ .

Kontragentlar bilan kontrakt buzilishi yoki ishchining bo'shashida xavfsizlik xizmati va personal xizmati hujjatlari va ta'siri ma'lumot maxfiyligini rejimini ta'minalsh uchun muhim ahamiyatga ega.

Ishchining ishdan ketishi yoki kontrakt buzilishi oldida quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

1. Ketish sabablari muhokama qilinadi. Norozilik belgilari aniqlanadi. Bundan boshqa ishchilar ketishga mumkin bo'lgan tayyorgarlik belgilariga e'tibor qaratiladi. Haydalishga tayyorlanayotgan ishchilar kompaniya hujjatlari formalari bilan tanishadilar (bolinmalar haqidagi to'la kelishuv fo'rmasi; haydalish haqidagi ariza-qisqa formasi; raqobatlashadigan faoliyatni chegaralovchi kelishuv).
Kompaniya ishchisiga yangi ishni topish mumkinligi tekshiriladi va muhokama qilinadi, bunda:
 - yangi yollovchi va uning adresi aniqlanadi;
 - hozirgi paytda ishlayotgan hodimning kompaniya sirlarini oshkor qilish riski qandayligi muhokama qilinadi, taklif qilingan tashkilotga uning yangi majburiyatlari ko'rsatiladi.Ishchiga ishlagan kompaniyasini maxfiy ma'lumotni noqonuniy oshkor qilish yoki foydalanishdan qanday yo'l bilan qochish mumkinligini tushuntiriladi. Boshqa ishchilarni ketishga layoqatini taqiqlash savoli muhokama qilinadi.
2. Ko'chish davrida: -tugatilmagan loyihalar va ishchining ular bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlari muhokama qilinadi,
 - mahsus tadbir o'tkaziladi, ishchining uni faoliyati tog'risidagi maruza tinglanadi materiallar shu bilan birga hujjatli, asbob uskuna, joy topshirilishi nazorat qilinadi.
 - ishchini davomli majburiyatlari muhokama qilinadi, u bilan birgalikda yana bir marta ishchi bilan kompaniya kelishuvi va shartnomasi o'rganiladi va ularni ishlatish zaruriyatida kompaniya maqsadlari haqida habar beriladi.
3. Kompaniya (ma'lumotlar) materiallarini qaytarilishi.
 - ruxsatnoma (guvohnoma, nishon, electron parol va boshqalar) qaytarilishi muhokama qilinadi.
 - kabinetni yig'ishtirish diqqat bilan kuzatib turiladi, "shaxsiy buyumlar" o'rganiladi, inventarizatsiya (idoraning mol-mulk ro'yxatini qilish) o'tkaziladi, agar bu zaruriyatga ko'ra bo'lsa kabinet tamg'alanadi.

- uyda mavjud bo'lgan materiallar muhokama qilinadi: ularni identifikatsiyasi (aniqlanadi) o'tkaziladi; ularni qaytarilishi uchun maxsus tadbir o'tkaziladi.

O'tkazilgan tadbir natijasida ishchining ishdan boshida ish tugashi (bo'linmalar to'g'risidagi to'liq forma, qisqa fo'rma-bo'shash to'g'risida ariza) haqidagi kelishuvda uni imzosini oladilar yoki imzo qo'yishdan bosh tortishni fiksiratsiya qilinadi. Maxfiy ma'lumotni tashqariga chiqarmaslik haqida qisqacha forma:

“Men (ism, familiya), _____, quyidagilarni tasdiqlayman.

1. Men o'zimning farmoyishim va nazoratim ostida qandaydir hujjatlar yoki Kompaniya sirli ma'lumotini saqllovchi yoki foydalanuvchi boshqa buyumlarga ega emasman.
2. Men Kompaniya sirli ma'lumotini saqllovchi hech qanday hujjatlarni ushlab turmayman va o'zim bilan olmayman.
3. Men Kompaniya sirli ma'lumotini kimgadir oshkor qilmayman va qandaydir shaklda foydalanmayman.
4. Men o'zim _____ tomonidan bajarilgan xizmat ixtirosi va xususiy ma'lumot haqida kelishuvga mos holdagi majburiyatlar va mening vazifalarim bo'lganligini tasdiqlayman.
5. Men Kompaniya bergan hamma identifikatsiya qiluvchi nishonlarni, kalitlarni, va boshqa aksessuarlarni rahbarlika qaytardim.

Ishchining imzosi : _____

Ishchi guvohining imzosi: _____

Ishdan bo'shaydigan ishchiga kompaniya ma'lumotini tashqariga chiqarmaslik haqida eslatma va savdo sirlarini himoyalash rejimini ta'minlash maqsadlarida xavfsizlik va personal xizmati tomonidan qo'llanilayotgan xat taqdim etiladi.

“Hurmatli sobiq xizmatchi _____!

Modomiki siz bizda yaqinda ishingizni tugatadigan ekansiz biz sizga bo'shashdan keyin ham davom etadigan Kompaniya oldidagi majburiyatlaringizni eslatib qo'yishni xohlardik. Siz bilishingizcha, Kompaniya katta hajmdagi maxfiy ish ma'lumoti va hususiy texnologiyalarga, shu bilan birga mijozlar ro'yxati, marketing rejalari, injener ma'lumotlari, va boshqalarga ega. Ishlayotgan vaqtingizda siz bunday ma'lumotga ega edingiz.

Qonun sifatida siz imzolagan kontrakt bunday ma'lumotni bo'shaganingizdan keyin foydalanishingizni yoki oshkor qilishingizni taqiqlaydi. Sizga qulay bo'lishi uchun biz siz imzolagan kelishuvingizni nusxasini taklif qilamiz. Raqobatchimizda ishga joylashgan ekansiz, shunisi asosan muhimki, bu ma'lumotni maxfiylikda saqlash bo'yicha o'zingizni majburiyatlaringizni buzmaslik haqida qayg'uring. Kompaniya uni juda muhim mulk deb hisoblaydi va hech ikkilanishsiz uni sudda himoya qilishga tayyor. Biz umid qilamizki, bu sizning holatingizda bungacha yetib bormaydi va siz bunda ishlagan vaqtda biz ko'rsatgan ishonchni hurmat qilasiz deb o'ylaymiz agar sizda bizning oldimizdagi majburiyatlaringiz hususiyatlari haqida qandaydir shubha yoki savollar bo'lsa, unda iltimos, ikkilanmasdan biz bilan bog'laning.

Chin dildan sizning, _____.

Bundan tashqari bo'shagan ishchiga yangi yollovchi uchun xat beriladi bu unga shaxsan taqdim etilishi mumkin yoki kompaniya ma'lumotini tashqariga chiqarmaslik haqidagi eslatma va savdo-iqtisodiy va bank sirlarini himoyasi rejimini ta'minlash maqsadlarida yangi yollovchi yani ishga oluvchining adresiga jo'natiladi. Yangi ishga oluvchining adresi ishchini ishdan bo'shatishdagi suhbat vaqtida aniqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Vertikal markazsizlashtirish qanday amalga oshirish mumkin?
2. Joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini sanang?
3. Shartnomaviy boshqaruv yoki tartibga solishiga almashtirish jarayoni degandi nimani tushunasiz?
4. O'zR Prezidentining farmonlari, qarorlari, Hukumat va Toshkent shahar hokimining qarorlari bajartirish tartibini bayon qiling?
5. Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga qay tariqa buyurtma beriladi?
6. Aktsiyadorlik birlashmalari aktsiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi faoliyatini bayon eting?
7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibini hikoya eting?
8. AQSH kompaniyalarining savdo sirlari – axborotlarini maxfiyligi qanday himoyalanaadi?

3 bob. Ma'muriy personal menejmenti

Tayanch iboralar: personal, davlat va xo'jalik boshqaruvi, sonining nisbati, attestatsiya

3.1.Zamonaviy mutaxassisning professional ahamiyatli belgisi sifatida boshqarishga qobiliyati va qabul qilinadigan qarorlarning jinsga, yoshga va ma'lumotga ta'siri

Zamonaviy kompaniyalar katta o'zgarishlarga sabr qilishmoqda, shuning uchun an'anaviy tashkilotlarning ishga xodimlarni qabullari yangi siljishlarga o'rin bo'shatadi va hatto yangi tizimli fikrlashadi. Tashkiliy rivojlanish dasturlari har doim ham tashkiliy samara beradigan natijalarga olib kelmaydi va ularni qo'llashda omadsiz urinishlar firmaning raqobatbardoshligini pasaytiradi, ishchilarning ishtiyoqini tushiradi, moliyaviy, moddiy va boshqa rusurlarning yo'qotilishiga olib keladi.

Bu sharoitlarda tashkilotning samarali ishlari uchun juda ham muhimligini quyidagi faktorlar o'z ichiga oladi:

- Xodimlarning o'zaro ta'sirini ratsional shakllarda tanlash;
- Unumli ichki tashkiliy hamkorlik va sherikchilik;
- Yagni informatsion, boshqariluvchan tashkiliy innovatsiyalar va texnologiyalar joriy qilish.

Tashkilotlarning qattiq raqobatli kurashda o'zini saqlab qolishga intilishi o'sayotganligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash menejmentni zamonaviy vositalarining innovatsion protsesslarni joriy qilishga majbur qiladi, yangi korporativlarni va xulosalarni tuzishga intilish, ya'ni doimiy qidirish zaruriyatini yaratadi va ilg'or personal texnologiyalarni joriy qilishdir.

Yetakchi kompaniyalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, ya'ni ularda kalit rolini alohida shaxsiylik yoki guruh shaxslar o'ynamaydi, balki jipslashgan yuqori professional tarkibiy tuzilma – jamoalardir. Jamoalar ayniqsa tashkilotning samarali shakli hisoblanadigan "XXI asrda tashkilotlarning yagona ma'nodagi raqobati afzalliklari" sifatida baholaydigan insonlar resurslari hisoblanadi.

Jamoali qurilish ishchi-xodimlarning kuchlar, birlashishi hisobiga etadigan natija, shuningdek, biznes-atrof (savdo massali oziq-ovqat, maishiy va xizmat, turizm, mehmonxona va restoran xo'jaligi va boshqalar)dagi barcha soha faoliyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Asosan jamoa ma'lumoti qabullari alohida tarmoqlar (masalan, savdoda va xizmatlar sohasida) ulushi taxminan 90 % ni tashkil qilgan kichik korxonalar uchun muhim hisoblanadi. Ular uchun xuddi guruh shakli tashkilot ishiga mijozlarga sifatli xizmatni ta'minlash, noto'g'ri ish bilan band kanallar xizmatini bekor qilish va o'chirish imkonini beridi.

Katta va o'rta korxonalarning oliy va o'rta darajadagi 273 rahbarlarning so'rovi ko'rsatmalariga ko'ra, menejerlari professionalligi reyting qatnashchilari, rahbarlarning eng muhim sifati jamoa boshqaruvini tuzishni bilish hisoblanadi. O'xshash natijalarni chet el izlanishlari beradi. AQSHning 150 ta katta kompaniyalarning top-menejerlari so'rovi ta'kidlashicha oliy rahbarlikni bilish masalasi orasida birinchi o'rinni shuningdek, jamoalarning qurish 47%ni egallaydi.

Iqtisodiyotning globalizatsiyalashuvi sharoitlarida jamoa ma'lumoti ahamiyati kuchayyapti va ishchi kuchlarning yuqori migratsiyasi, faqat haqiqatan emas, ammo va virtual jamoalarni tuzish va vazifalash shubhasiz zaruriyatga aylanyapti.

Jamoalar o'zaro ta'siri ularda elektron vositalar aloqalari asosida ta'minlanadi: internet va konferents aloqa, elektron pochta va boshqalar. Shunday qilib, jamoa ma'lumotiga qobiliyatli zamonaviy tashkilot xodimining asosiy professional ahamiyatli belgilardan deb hisoblashga to'g'ri keladi.

Bizlar tomonidan kelajak mutaxassisliklarning jamoa ta'limotiga qobiliyati izlanishini Rossiya davlat savdo-iqtisodiyot universitetining Krasnodarskiy filiali studentlari ustida o'tkazildi. Izlanish 2004 yilning noyabr-dekabr oylarida o'tkazildi. Izlanish maqsadi – jamoa ta'limiga qobiliyati diagnostikasi va boshqaruv sohasida mutaxassislarga buyruqli o'zaro ta'sir yangiliklarni rivojlantirish va yuksaltirish borasida tavsiyanomalarni ishlab chiqish.

Ba'zali izlanishda 7 gruppalar 3-5 kurslarning talabalari "Iqtisodiyot va korxonalarda boshqarish (savdo-sotiq) o'quv mutaxassisligi bo'yicha va "Tashkilotlarda menejment bo'yicha umumiy 99 kishi ishtirok etdi.

Izlanish uslubi quyidagi ketma-ketlikdagi tizimda biz tomondan jamlangan jahon amaliyoti qabullarida 5 ta umumqabul qilinganlarni o'z ichiga olgan.

1. “Siz jamoali o’yinchi deb hisoblanasizmi?” degan jamoali ishga individual qobiliyatni aniqlash uchun V.V.Veytom tomonidan taklif qilingan test o’tkazildi. Shunisi ma’lum bo’ldiki, ya’ni hamma talabgorlar u yoki bu holda jamoada ishlashga intilishadi, ya’ni ijobiy baholashni nazarda tutadi. Biroq alohida shaxslar autsayderlar hisobiga guruhlar (4I, 4M) ichida katta tarqoq farqlar (50 dan 100 gacha ballar) ga ega.

2. “Matritsalik afzallik” sotsiometrik qabul ishlatilgan va umumiy ko’ngil bog’langanliklar, qarashlar, qadriyatlar asosida guruhlarining vakillarini bir-biriga o’ziga tortishish darajasini harakterlaydigan guruhlar jipslanganligi o’rganildi. Guruhning jipslashganlik sathi uning faoliyati samarasiga to’g’ridan to’g’ri bog’liq.

Biz quyidagi ko’rsatkichlarni hisobga oldik:

Individual jipslashganlik C_i – shaxsning ish guruhiga qo’shilish darajasini ifodalaydi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$C_i = D_m / D_u$$

bu erda D_m – guruh tarkibida do’stlar miqdori, kishi; D_u – do’stlarning umumiy miqdori, kishi.

Ishchi guruhda $C_i > 0,45$ shartini bajarishda integrirrovka deb hisoblanadi. qarama-qarshi holda biz marjinal shaxslar bilan ish ko’rishga to’g’ri kelaymiz, ya’ni ba’zi normalar asosida boshqarish samarasiz hisoblanadi

Integral jipslashganlik C_u – butunligicha guruh birdamligi darajasini aks ettiradi. quyidagi formulada hisoblanadi:

$$C_u = \frac{\sum_{i=1}^N C_i}{N}$$

bu erda N – guruh vakillari soni, $C_u < 0,5$ bo’lganda kollektiv aralashma guruhga ko’chishga moyillikka ega. Butunligicha ishchi guruh birdamlik darajasini quyidagi formula bo’yicha hisoblanadigan J.Moreno Igr indeksi ifodalaydi

$$Igr = \frac{P - A}{S(S - 1)}$$

bu erda, R – qo’shma faoliyatni amalga oshirish uchun o’zaro ijobiy tanlovlar soni, A – qo’shma faoliyatni amalga oshirish uchun o’zaro salbiy tanlovlar soni, S – ishchi guruh a’zolari soni. Respondentlar boshqa guruh a’zolari bilan jalb qiladigan harakterdagi qandaydir qo’shma harakatni bajarishga roziligini ko’rsatadi, matritsali afzal ko’rish asosida dastlabki farq aniqlanadi.

3.1-jadvalda matritsali afzal ko’rishga shartli misol ko’rsatilgan.

3.1-jadval Matritsali afzal ko’rish.

F.I.SH.	Andreev	Volkov	Ivanov	Petrov	Sidirov	...
Andreev	*	+	-	-	-	
Volkov	+	*	-	-	-	
Ivanov	-	-	*	+	+	
Petrov	-	-	+	*	+	
Sidirov	-	-	+	+	*	
...						
Jami: +8	1	1	2	2	2	
Jami: -12	3	3	2	2	2	

Olingan natijalarni baholash uchun quyidagi Moreno indeksining tanqidiy mohiyati ishlatiladi. $Igr \leq 0$ – yagona ishchi guruh yo’q, izlanish qilinayotgan ta’lim barqaror emas va pasayishga harakat qiladi.

$0 < Igr \leq 0,25$ – guruh assosatsiya hisoblanadi.

$0,25 < Igr \leq 0,7$ – aralashma guruh

$0,7 < Igr \leq 0,9$ – guruh jipslashgan kollektiv hisoblanadi.

$0,9 < Igr$ – guruh korporatsiya hisoblanadi.

Natijalar shuni ko’rsatadiki 7 dan 4 ta izlanish qilinayotgan guruhlar (57 % - 4M, 5E va boshqalar) diffuzli (pasayishga layoqatli), 3(43% - 3E, 4E) assosatsiyalar (shartli jipslashgan), ammo variantlardan bittasi ham muvaffaqiyatli professional faoliyat uchun afzal deb hisoblanilmaydi.

Binobarin, guruhlarda jamoachilik yo'q, qo'shma faoliyat esa ishonchli asoslarga ega emas. Guruh normalar asosida boshqarish samarasiz hisoblanadigan marjinal shaxslarning usullari yuqoridir.

3. "Kollektiv anatomiyasi" ("Guruh rollari" testi). Kembridj universitetining o'qitish muammolari izlanishlari laboratoriyasida M.Belbin tomonidan ishlab chiqilgan uslubga almashtirildi, shunga muvofiq, jamoa a'zolarining har bir xulqi ya'ni o'zini tutish rollardan bittasiga to'g'ri kelishi kerak. Ya'ni uning balansi jamoa ishining samaralilik darajasiga ko'pgina ta'sir qiladi. Boshqariladigan jamoa samarali bo'lishi uchun, hamma rollar guruh vakillari tomonidan bajarilishi va bir-birini o'zaro to'ldirishi kerak (rahbar, g'oyalar generatori, tanqidchi, xulosachi, tamom qiluvchi va boshqalar).

Ma'lum bo'ldiki, 2 mutaxassislik bo'yicha faqat 4-kurs talabalari guruh jamoalari potentsiali hisoblanishadi, 3 va 5 – guruhlar esa balanslanmagan rollarda bo'lingan, oqibatda, ulardan ba'zilarida kelishmovchiliklar kelib chiqyapti. Xususan, 32% respondentlar raislik rolini bajarishga mo'ljallanishgan, 26% - administratorlik, hammasi bo'lib 3% tanqidchilik va 2% - resurslarda izlanish olib boruvchi. Jamoa ishida shunaqa muhim rollar uchun, guruh tashkilotchisi sifatida va 8 va 6 % tekshirilgan tegishli layoqatli samarali ish uchun guruhlar a'zolarining o'rnatilishini tuzatish va birdamlik darajasini oshirish uchun marosim tashkil qilish zarur. Ishlarni taqsimlash va boshqaruv funktsiyasini olib berishga qobiliyatni paydo qilish uchun. "Vakil qilib yuborish vakolati" testi o'tkazildi. Natijada shu ma'lum bo'ldiki, 56 dan 80% gacha respondentlar guruhlarda guruhli ish shakllarini ratsional tashkil qilish va majburiyatlarni taqsimlashni bilmaslik bilan bog'liq cheklolarga ega.

5. "Nizoda o'zini tutish" testi o'tkazildi. Chunki guruhning nizo darajasida bevosita bog'liqlikda bo'lgan jamoa ta'limi tuzish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Test asosida insonning hayotiy mo'ljali aniqlanadi, ya'ni shaxsiy maqsadlar yutuqlari (juda muhim yoki uncha muhim bo'lmagan sifatida sub'ektiv xavotirlanish mumkin) va boshqa odamlar bilan o'zaro yaxshi munosabatni saqlash. Bu 2 faktorlarni birgalikdagi munosabati va nizo holatlarida o'zini tutish strategiyasi tipologiya asosida tashkil qilinadi. Strategiya ko'rinishlari ko'pincha mundariyasi: "toshbaqa", "akula", "ayiqcha", "tulki", "boyog'li" bo'lgan aniq uzatadigan obrazli nomlarga ega.

Ma'lumki, 60% respondentlar "ukki" strategiyasini ushlab turishibdi, 29% "tulki", faqat 1% "akula" strategiyasiga ishtiyoqini ko'rsatadi va hech kim o'zini "toshbaqa" deb ko'rsatmadi. "Ukki" turi ko'pincha nizoda afzal ko'rinadi. Bu strategiya atrofida bilan konstruktiv o'zaro munosabat va shaxsiy maqsadlar yutuqlarini qadrlaydigan ochiq va haqiqiy konfrontatsiyadir. "Ukki" nizo qatnashchilarini qoniqtiradigan qarorni izlashga intiladi. Maqsadlarga etishish borasida qo'shma ishni chiqarish yo'lini topadi va vaziyatni ochiq aniqlaydi. Shunisi ma'lumki, katta ulushni tashkil qiladigan "tulki" turi – biror narsa uchun o'zining bir necha o'rinlardan kechishga tayyor turadigan tulki, jamoali o'zaro munosabatni saqlash uchun maqsadlarga yetishish uchun yo'naltirilgan aqliy kompromis strategiyasidir.

SHu narsa o'rnatildiki, deyarli hamma guruhlarda teng munosabatlar mavjud, befoyda munosabatlar kelib chiqmaydi, nizoda o'zini tutish strategiyasi optimaldir. Butunligicha bu jamoaviy aloqalarni qurish uchun ma'qul asosni hosil qiladi. O'tkazilgan izlanish natijalari ranjirovka ko'rinishda 3.2-jadvalda ko'rsatilgan.

3.2-jadval. Izlanish natijalari to'plami

Testlar Guruhlar	Siz jamoali o'yinchi hisoblanasizma?	Afzal ko'rish matritsalar	Guruh rollari	Vakil qilish vakolati	Nizoda gi xulq	Yig'indi
3M	5	2	6	4	1	3.6
3E1	4	5	4	2	7	4.4
3E2	2	4	5	5	5	4.2
4M	6	1	1	4	3	3
4E	7	4	2	3	4	4
5M	1	3	3	6	2	3
5E	3	1	7	1	6	3.6

Ko'rinib turibdiki, jamoa etuklik darajasi bo'yicha 1-o'rinni 4M va 5M guruhlar o'zlari orasida bo'lib olishgan, 2-o'rinni 3M, 5M. 3-o'rinni 4E. 4-va 5-o'rinni mos ravishda 3E2 va 3E1 egallashgan.

Olingan natijalarga asosanib qanday umumiy xulosa chiqarish mumkin?

Butunicha guruhlardagi jamoa ta'limi darajasi past, ehtimol, hatto ularni liderlik qobiliyati mavjuddir. Xali o'qitish davom etganda, keyinroq esa ulardan xotiralar ham qolmaydi.

Taxmin qilish mumkinki, qo'pgina talabalarining kelajakdagi kasblarni tanlashda asoslanmagan tarzda amalga oshiriladi, bunda, individual-shaxsiy sifatlar bilan aloqadan tashqari professional xulq-atvori yangiliklari kuchsiz rivojlangan. Shu bilan birga guruhlarning "voyaga etish" borasidagi jamoali etuklik darajasini ko'tarishga bo'lgan pozitiv moyilligini kuzatib turiladi.

Shu asnoda, jamoada o'zaro ta'sir qobiliyatini zamonaviy mutaxassislar professional ahamiyatli belgilari deb hisoblashga to'g'ri keladi. Boshqaruv faoliyatida professional to'g'ri kelish bahosini jamoa ta'limiga tanqidiy qobiliyat hisobi bilan amalga oshirishga to'g'ri keladi.

O'tkazilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, individual-shaxsiy, psixo-fiziologik ko'rsatkichlar bo'yicha prof-yaroqlilik diagnostikasini barcha oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan professional orientatsiya: professional old-bilim berish ya'ni maorif bo'yicha, tarbiya, o'z-o'zini anglash, konsultatsiyalar va boshqalarda o'tkazishga to'g'ri keladi.

Keyinroq boshqaruv sohasida mutaxassislar oliy o'quv yurti bosqichida tayyorlashda minimum 3 ta daraja masalani hal qilish va qo'yishga to'g'ri keladi:

- Professional rejada ahamiyatli cheklovlar va rivojlanmagan imkoniyatlarni aniqlash;
- Jamoada samarali ishga jamoali, o'zaro ta'sir yangiliklarini o'qitish;
- Mustaqil jamoali loyihalash va qurish texnologiyalarga ega bo'lish.

Agar bazali darajada kelajak mutaxassislarni jamoa a'zolar rollarida chiqishini taxmin qilsa, xulosa qiluvchi ularni jamoa liderlarida tubdan o'zgartirishga mo'ljallantiradi.

Qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun fakultativ darslar, darslar mustaqil o'quv va ilmiy student ishini jamoa ta'limi ko'nikmalarini qayta ishlash va qabullarni o'rganish tanlovi bo'yicha nizomlarni maqsadga muvofiq tarzda tutadi. Mos keluvchi treninglar, mashqlar, zamonaviy uslubiy jamoa qurilishi qo'llanishini o'tkazish zarur.

Nazariy va amaliy darslarni o'tkazishda jamoa o'zaro ta'sir malakalarini shakllanishiga ko'maklashuvchi, talabalarining tashkilot, guruh ish shakllaridan maqsadga muvofiq foydalanish kerak. Buning uchun individual qatorga guruh qatorlarni o'rganish masalan: guruh oldiga qo'yilgan aniq vazifalar, guruh hisoboti va nazoratini o'rnatish, guruh shakllarini kengaytirish va jazolash taklif qilinadi.

Auditoriya va noauditoriya ish shakllari bo'yicha kelajak mutaxassislarning professional tashkil qilgan jamoa tuzish maqsadlarida jamoa birdamligini rivojini va jamoalararo munosabatni mukammallashtirishni kengaytirishga, rahbarlik kurashida sog'lom ruxni ishlatib turish kerak. Alohida holda, jamoa ishini raqobatlashtirish uchun talabalar bilim-saviyasi baholarining guruh shaklini foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Butunlikda "guruh samaralari" shunday qadam aniqlangan, boshqa afzalliklardan tashqari bilim saviyasi sifatini ko'tarishga yordam beradi va harakatchanroq hisoblanadi.

O'ylashimizcha, zamonaviy mutaxassising professional ahamiyati belgilari sifatida jamoa tashkil qilishga qobiliyatini ko'rib chiqish, qator masalalarni hal qilishga ko'maklashadi: -jamoalar tuzish afzalliklari va o'qitish jarayonni amalga oshirishga imkon beradi:

- tashkil qilingan tayyorgarliklar sohasini kengaytirishga ta'minlaydi;
- yosh mutaxassislarning kelajak professional faoliyati darajasi va sifatiga yordam beradi.

Ayollar ustunligida xodimlarni boshqarish asoslar.

Oxirgi paytlarda (siyosatda, iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda) ular qabul qiladigan qarorlar soni o'sayapti va boshqarish strukturasining har xil darajalarida ayollar soni ko'paydi. Ta'kidlash kerakki, chet el menejment nazariyasida ayol yoki erkak boshqaruvchilar bo'lgandagi turli xil qarashlar mavjud. Bu tajribani hududga olib kelishning imkoniyati yo'q. Bu milliy mentalitet bilan bog'liqdir. Bizning boshqaruvchilar administrativ jamoa tizimi davrida qoida bo'yicha rivojlangan.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy, etnik, milliy xususiyatlar va an'analar hisobiga olish zarur.

Shuning ta'kidlash kerakki, zamonaviy menejmentda bir jinsli (ayol yoki erkak) ustun kelgan xodimlarni boshqarish yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgi paytda bu muammoni menejmentga qaraganda ruxshunoslarni katta darajada qiziqtiradi.

Shu bilan birga muammo biznes konsultantlar uchun ham aniq qiziqish ko'rsatishi kerak.

Kompromis. Turli sohaga oid: ayol va erkaklardan sotsiologik so'rov o'tkazilgan. Qator foku-guruhlar o'tkazilgan. Ayol rahbarlar qo'l ostidagilarni jazolash talab qiladigan tez-qaytarilib turadigan vaziyatlarda ko'proq axloqiy va ruhiy choralarga o'tishadi. Erkak rahbarlar esa administrativ choralarga o'tishadi. Ayollar qoidaga binoan, qo'l ostidagi xodimlarini, shu bilan birga jamoasini ham oqlaydi. Ular ta'sir ko'rsatishning ko'p variantlarini oladi. Ayol rahbarlarning javoblari ko'pincha o'zining qo'l ostidagilarga ziyarakroq, e'tiborliroq, ongiga ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi munosabatda

bo'lishi bilan harakterlanadi. Erkak rahbarlar javoblari umumiy farazdagi, ular qo'l ostidagilarga moddiy ta'sir ko'rsatishni afzal ko'radi. O'zining qarorlarida ayollar kelib chiqardigan nizolarni deyarli har doim tinch yo'l bilan tugashga imkon beradi. Erkak rahbarlardan farqli ravishda ayol rahbarlar ko'pincha kompromissga borishadi, qo'l ostidagilarni jazolashdan oldin qaror qabul qilishda uzoq o'ylov va ikkilanishlarga layoqatli bo'lishadi.

Tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilishga jinsning ta'siri. Dastlab ta'kidlash kerakki, tajribaliroq boshqaruvchilar hox ayol, hox erkak bo'lsin (boshqarish lavozimida 10 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar) kam stajli boshqaruvchilarga qaraganda tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilishga tayyorgarligi past bo'ladi. Bunda ayol boshqaruvchilar extiyotkor strategiyani tanlaydi. Erkak boshqaruvchilar esa qaror qabul qilishda yuqori darajadagi tavakkalchilikka layoqatli, ya'ni ularni yuqori agressivlik, mustaqil harakatlarida ustun tutish va o'ziga qat'iy ehtiyojini ifodalaydiganligi bilan namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki yoshi o'tib borishi bilan erkaklarda risk sharoitida qaror qabul qilishda tayyorgarligi pasayadi. Ayollarda esa bunday moyillik kuzatilmagan, to'g'risini aytganda ularda qaror qabul qilishda tavakkalchilikka tayyorgarlik erkaklarga qaraganada aniq sharoitlarda amalga oshadi. Ko'pincha, asabiy kuchlanish oshishi bilan, stres sharoitlarda ko'ngil qolish xislarini o'ylab boshidan kechirishda. Umuman rahbarlik qiluvchilar tavakkalchilikka tayyorgarlik guruh sharoitlarda kuchliroq namoyon bo'ladi, ammo ayol boshqaruvchilarda nisbatan bu katta darajadadir.

Qaror qabul qilish jarayonida bir shaxsga xos xususiyatlar ta'siri. Erkak boshqaruvchilarda mustaqillik katta extiyotkorlik bilan bog'langan. Butunligicha xulq impulsiligi holatlar yoki hayajonlar ta'sirida qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi, erkaklarda ham, ayollarda ham aktivlik yoki maqsadga intilish yoki sabablar ahamiyatida bog'langan.

Qabul qilinadigan qarorlarning jinsga, yoshga va ma'lumotga ta'siri.

Boshqaruvchilarni qaror qabul qilish jarayoni aniq darajada jinsga bog'langan. Shuni nazarda tutish kerakki, zamonaviy boshqaruvchilar turli variantli qarorlarni, ichki chalkashliklar, farazlar va gepotezalar tuzilishida dastlabki o'ylashlar o'ynash zaruriyati bilan to'qnashadilar. Shundan keyingina oxirgi qarorni qabul qaladi. Fokus-guruhlar asosida shu narsa o'rnatildiki, ayol boshqaruvchilar taqqoslashadi, shuningdek, "extiyotkor" qarorlar erkaklarda esa ko'proq taqqoslama qarorlar va tavakkalchilik bilan qarorlar uchraydi. Shunday qilib, shuni xulosa qilishimiz mukinki, har xil turdagi qarorlar turli jinsga turli ta'sir ko'rsatadi. Izlanishlar shuni aniqladiki, erkak boshqaruvchi va ayol boshqaruvchilar o'ylashdagi qidirish harakterda yoshga ta'siri bor. Turli yoshdagi davrlardagi qarorlar turi taqsimlanishi jadvalda ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ayol boshqaruvchilarda hamma yoshdagi diapazonda aniq yoshdan qat'iy nazar tenglashish va extiyotkor qaror qabul qilish va boshqalar ustub bo'ladi, yoshning ko'tarilishida tenglashtirilgan qarorlarning o'sishiga aloqador va chekka impulsiv va sustlashgan qarorlarni qisqartirishga Amerakalik olim U. Nayserani fikriga ko'ra, ta'lim, bilim odamga harakat qilishni ko'p alternativ imkoniyatlarini ko'rsatadi. U shuni ko'rsatib o'tadiki, yuqori, oliy ma'lumotli boshqaruvchilar ko'proq yaxshiroq original va mustaqil qarorlarni qabul qiladilar.

Qabul qilinadigan qarorlarni harakterida yoshga ta'siri

Yoshi	qaror turi									
	B>K		V>K*		A=K		A<K*		A<K	
	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A
21>25	1	1	2	1	1	2	1	2	1	1
26>30	2	1	4	2	3	3	1	3	1	2
31>35	3	1	6	2	3	5	2	5	2	1
36>40	4	2	6	2	5	10	5	9	2	1
41>45	1	2	2	1	1	2	1	2	1	1
46>50	-	1	2	1	2	2	1	2	1	-
O'rtacha	16.4	8.8	32.8	13.2	22.4	35.3	16.4	33.8	11.9	8.8

Izoh: V – antitsipatsiya u yoki bu formada odamning qobiliyati harakat natijasi imkoniyat darajasida uning amalga oshirishgacha o'ziga faraz qilishi; K – qaror va nazorat gipotezasi harakatlanish tezligi; B>K* - ko'p yoki teng; B<K* - kam yoki teng.

Bizning qarorlarimiz ko'rsatdiki, boshqaruvchida aql-saviya o'sishi bilan tashkilot ichida kelishmovchilik pasayadi. Bu faktorni hisobga olib, ayol va erkak boshqaruvchilar qaror turlarini

taqsimlashda turli xil ma'lumot darajasida quyidagi tarzda ko'rinadi. Jadval ma'lumoti shuni ko'rsatadiki, ayol va erkaklar qaruvchilarda qanchalik ta'lim darajasi yuqori bo'lsa, ularning baholari tanqidiy va qaror gipotezasi harakati jarayoni o'zaro munosabat shuncha tenglashuvchi bo'ladi. Erkaklar va ayollarga bu berilgan savolga ochiq farqlar aniqlanmadi. Shu bilan birga erkaklar va ayol boshqaruvchilar uchun yuqori darajadagi ta'lim bilan tenglashtirilgan emas, balki extiyotkorlik bilan shuningdek, xatarli qarorlar ham harakterlidir. Chekka qarorlar ahamiyatsiz usulga ega.

Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ta'lim darajasiga ta'sir, shuningdek, boshqaruvchilar yoshi shkalaning "chekklaridan markaziga" yonaltirilgan qarorlar echimini topadi. Albatta, buni absolyut fikr sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Boshqaruvchilar qanday darajadagi ma'lumotga ega bo'lmasinlar, bir qator o'ziga xos bo'lgan fikrlash o'yloviga, individual o'ylashi va individual stil va fikrlash o'ylovi turi joyiga egadir.

Qaror qabul qilish harakterida ta'limning ta'siri

Boshqaruvchilar ta'lim darajasi	qaror turi									
	B>K		V>K*		A=K		A<K*		A<K	
O'rtacha	-	-	1	1	2	2	1	1	-	-
Tugallanmagan oliy	1	-	3	2	3	4	3	4	1	1
Oliy	1	1	3	4	33	39	5	8	1	1

Izoh: B>K* - katta yoki teng

B<K* - kichik yoki teng

Jamoa tuzilishi. Jamoani tuzish boshqaruvchining muhim elementi hisoblanadi, ya'ni barcha tashkilot yoki bo'linmalarining keyingi kelajakdagi samarasi shunga ya'ni jamoa tuzilishiga bog'liq. Bu bosqichda bosh rolni barcha darajadagi boshqaruvchilar va ularning qo'l ostidagilarning o'zaro baholashi o'ynaydi, bu tuzilishda erkak va ayol psixologiyasida farqlar namoyon bo'ladi.

Ayol va erkaklarni qo'yilish baholari quyidagilarni ko'rsatadi: Sifatlar ro'yxati zamonaviy boshqaruvning hukm chiqarishi, ayollar fikri bo'yicha ko'pgina aspektni qamrab oladi.

Ayollar erkaklarga qaraganda qo'l ostidagi xodimlariga ko'proq qattiqqo'l hisoblanadi.

Ayollar odamlar bilan muomila qilishni bilish va do'stona va jipslashgan jamoa tuzilishni bilish sifatlariga ega bo'lgan zamonaviy boshqaruvchini juda yuqori baholashadi.

Ayol boshqaruvchilar xodimlarga e'tiborli munosabatda bo'lishga, ularni eshitishga va tinglashga qobiliyatli.

Ayol boshqaruvchilar xodimning tashabbuskorlik, g'ayratlilik, epcillik, uyushqoqlik xislatlarini rag'batlantiradi va olqishlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, erkak boshqaruvchilarga nisbatan ayol boshqaruvchilar uyushqoqlikni boshqacha tushunishadi. Ayol tomondan uyushqoqlik ruhiylik, jamoatchilik bilan amalga oshirishadi. Birinchi navbatda uyushqoqlikni bilish odamlarning birdamligi tushuniladi ya'ni qandaydir vazifani bajarishga jamoaning sayi-harakatlarini ko'paytirish va bir-birini tushuna bilish kiradi.

Boshqarcha aytganda ayollar o'rinda berilgan sifat hammadan oldin ijtimoiy-ruhiy qadriyatlar turadi, keyin esa erkaklar tomonidan qabul qilingan tashkilotlar haqidagi tushunchalar bilan ustma-ust tushadi. Ayol xodimlar tomonidan so'rovlar shuni ko'rsatdiki ayol boshqaruvchilardan erkak qo'poligi, shubhalanishligi ko'rinishlarini yoqtirmaslik ekan. Shu o'rinda boshqaruvchi ayol xodimlar ikkilanishlari, nozikligini ko'rinishini olqishlamaydilar.

Ayol boshqaruvchilarning eng past bahodagi sifatleri uning uslubi va metodlarini qo'l ostidagi xodimlar tomonidan "erkakni afzal ko'rishni" degan ma'noda frazaning namoyon bo'lishi.

Sotsiologik so'rovlar natijasida qo'l ostidagilar tomonidan qabul qilidanigan sifatlar aniqlandi. Men o'zim tomondan bu fazilatlariga mos kelishi guruhlar o'tkazildi.

O'zining qo'l ostidagilar tomonidan qabul qilinmagan ayol boshqaruvchilar fazilatlarini guruhlanishi

Yuqori darajadagi qabul qilinmaganlik	O'rtacha darajadagi qabul qilinmaganlik	Past darajadagi qabul qilinmaganlik
So'zining ustidan chiqmaslik	Baqiroqlik	Mayda chuydalilik arzi
Asabiylik	Nervoznost	Xasadgo'ylik
Taktsiz	Jizzakilik	Ko'p gaplilik
Qo'pol	Ko'p ko'ngilsizlikni o'zgarishi	Chaqimchi

Quyidagi guruhlash, albatta, umumiy hisoblanmaydi, chunki har bir odamni o'zining shaxsiy qabul qilinmaganliklari bor. Ammo barcha katta miqdordagi odamlarning fikrlari ko'rinishi hammadan oldin boshqaruvchilarga xulosalar chiqarish uchun imkon beradigan umumiy xulosa chiqarish fazilatlar sur'atini hosil qiladi.

Boshqaruvning yuqori turuvchi va past turuvchi o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmi hisoblanadi. Qo'shma uslublarni o'rganish bo'yicha boshqaruvchining yuqori va past turuvchi munosabatga qiziqish namoyon bo'ladi.

Jinsni hisobga olganda va quyidagi xilma-xil ko'rinishlarga ega: erkak va ayol; ayol va erkak; erkak va erkak; ayol va ayol. Hayotiy amaliyotda ular orasida erkak boshqaruvchi ham, ayol boshqaruvchi ham o'zining maxoratini ko'rsatadigan har xil vaziyatlar hosil qiladi. Bu vaziyatlar rang-barangligi nixoyat ko'psonlidir. Ikkala jinsdagi boshqaruvchilar o'ziga xos bo'lgan bir-necha fokus guruhlarini o'tkazildi.

Ularni bir-biri haqidagi fikri haqida shunday belgilar liderlik, fikrlar bosimi, qarama-qarshiliklar, xulqi, tirishqoqlik, samaralilik kabi belgilar bo'yicha fragment keltiramiz.

E harfi bo'yicha ayollarning erkaklar haqidagi fikrlar boradi, A harfi bo'yicha erkaklarning ayollar haqidagi fikrlari boradi.

Liderlik. E – Erkak liderlikka harakat qiladi va chin dildan sevuvchi hozirgi paytdagi hollarni hisobga olmaydi, demak, u bilan xizmat munosabatlarida ezilgan bo'lish extimolini ko'paytiradi.

A – Ayol unchalik chin dildan sevuvchi emas, erkakka nisbatan va erkakka ayol beradigan “boshqaruvchi harakatsiz” ishtiroki bilan osonroq itoat qiladi, ammo safdoshlar orasida u vaziyat, tashqi ko'rinish va o'ziga e'tibor bo'yicha lider bo'lishni ho'llaydi.

Fikrlar bosimi. E – har doim ko'rinishlar bilan to'qnishishga to'g'ri keladi, ya'ni ayol odamlar boshqaruvi uchun yaratilmagan, uy xo'jaligi boshqaruvchi uchun yaratilgan.

A – fikrlarni ruhiy bosadigan, ya'ni ayol boshqaruvchi boshlanishida erkaklarni qadr-qimmatini elanuvchi biror narsa borday.

Qarama qarshilik. E – agar erkak kishi ayol kishiga boshqaruvchi sifatida yaxshi munosabatda bo'lsa, xuddi mana shunday ayol ba'zan qandaydir yaxshimaslikni ko'zlaydi.

A – ayol kishi, unda yaxshi boshqaruvchini ko'rishni ho'llaydi, ammo kelajakda odamlar boshida, u vaqti-vaqti bilan afsuslanadi, ya'ni unda boshqaruvchidek muomila qiladi.

Kompromislar. E – erkaklar ko'pincha ishda printsipiallik, gurur va qadr-qimmat kabi tushunchalari beradigan kompromislarga boradi.

Ishonchli ma'lumot olish vositasi sifatida xo'jalik tashkilotda hujjat aylanmasi. Boshida ko'rib chiqiladigan savolni dastlabki shart-sharoitni shakllantiramiz.

1. Har qanday xo'jalik va tashkilotlar barcha qonuniy operatsiyalarni hujjat bo'yicha rasmiylashtiradi va boshqaruv hujjatlarini tuzish yo'li bilan. Chunonchi, hujjatlar bajarilgan harakatlar haqida asosiy ma'lumot tashuvchi hisoblanadi. Hujjat aylanishi o'zi bilan hujjatlarni harakatini tuzishdan arxivda topshirishgacha bo'lgan jarayonlarni ko'rsatadi.


2. Yuqori organ sifatida, qoidaga binoan, muassasa yoki xususiy mulk egasi, organi ijro etuvchi esa boshqaruvchi hisoblanadi. Tashkilotning mansabdor shaxsi rahbarning nomidan va buyrug'i bo'yicha ish ko'radi, oxirgi chora bo'yicha shunday bo'lishi kerak.

3. Hamma aytilganlar shuni ko'zda tutadiki, tashkilotning hujjat aylanishi rahbarning vazifasi yoki boshqa bir mansabdor shaxsning rahbar sanktsiyasi bilan hisoblanadi. Tegishli, rahbardan hujjatning tuzilish tartibini aniqlash harakat sxemasini saqlash yoki yo'q qilish tartibini talab qiladi.

4. Endi muammolarni mohiyati. Hujjat aylanishi o'zga maqsad emas. Bu aniqrog'i xo'jalik faoliyati haqidagi to'la va ishonchli fikrsiz vositasi hisoblanadi. Shuning uchun tashkilotning hujjat aylanishi hujjatlarning hammasini o'z ichiga olib, qamrab olishi kerak. Nima uchun bu muhim? Chunki, hujjatlanmagan ma'lumot – chaqimchilikdan boshqa narsa emas. Shunga o'xshash ma'lumotlarni kelish fakti va natijasi bo'yicha boshqaruvchi qarorlar mos keluvchidir. Yana hayron qolamiz? Qancha yaxshi bo'lishni ho'llasak har doimgidek bo'lib chiqadi. Hujjatlar bilan ishlash qo'yilishi qanday bo'lmasin, ular deyarli xal qilib bo'lmaydigan muammolarga o'xshab tuyuladi. Mansabdor shaxslardan hech qaysi biri tashkilotdagi ish tartibi haqida to'la ma'lumotga ega emas. Tushinishga, xal qilishga urinib ko'ramiz, nega bunday sodir bo'ldi.

5. Xo'jalik tashkilotlarining boshqarish strukturasi ko'pincha chiziqlidir. Boshida bevosita bo'ysunuvchi muovunlarga ega bo'lgan rahbar turadi. Muovinlarning har biri tashkilotning

faoliyatining sferasini nazorat qiladi va tegishli berilgan sohada mashg'ulotlar tarkibiy bo'limlardagi bo'ysunuvchi boshqaruvchilarga ega. Bu boshqaruvchilar bo'limlar qo'l ostidagilarini boshqaradi. Bundan tashqari, boshqarishning hamma darajadagi tizimlarida majburiyatlar harakteri bo'yicha va javobgarlik darajasi bo'yicha funktsiyalarga deyarli ega bo'lgan, ammo qo'l ostidagilarga ega bo'lmagan alohida mutaxassislariga bo'linishi mumkin.



3.1-chizma.

100 kishi ishchilar soniga ega bo'lgan ulgurji bazalar misolida boshqarish strukturasi faraz qilamiz. Bu boshqarish strukturasi quyidagilar kiradi: savdo, texnologiya, iqtisodiy, buxgalteriya, yuridik, kadrlar va konselyariya xizmati.

3.1-chizmaga qaraymiz. Piramida hokimiyati quyidagicha: direktor, o'rinbosarlari: iqtisodiy savollar bo'yicha rejalashtirish, narxni belgilash bo'yicha, savdo savollari bo'yicha, sotish, transport, ichki xo'jalik savollari.

Bosh muxandis – energiya mexanik, remont va texnologik, ekspluatatsiya uchastkalari bilan shug'ullanadi.

Buxgalterlar (bosh buxgalterlar haqida keyinga qoldirib bo'lmaydigan vaziyatlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari hisoblanadigan) tegishli buxgalteriyani boshqaradi.

Bo'limlar raislari direktorga to'g'ritan-to'g'ri bo'ysunuvchi, konselyariya miqdoridir. Bundan tashqari, quyidagi alohida mutaxassisliklarga ega: yurist konsultant, kadrlar bo'yicha inspektor.

Bir nechta izohlar: amerika tabellarida direktor o'rinbosarlari qatori direktor deb nomlanadi, tarkibiy bo'limlar boshqaruvchilari va alohida mutaxassisliklar – tegishli katta injenerlar va menejerlar.

O'tkazilgan struktura eng yaxshi bo'lmasa ham, yetarlicha keng qo'llaniladi. Sxemadan keng ko'rinishicha direktordan tashqari, hujjatlar 7 ta tarkibdan o'tishi mumkin. Bu berilgan holatga yomon variantlarni olmaymiz, qachonki hujjatlarni ko'pchilik mansabdor shaxslar tomonidan hosil qilishga yoki qabul qilishida. Birinchilikda kelayotgan va chiqayotgan hujjatlarga ishlov berish ko'pincha konselyariyada o'tkalidadi.

3.2.Yuqori turuvchi rahbar mas'ulligi, xodimlarni boshqarishda o'z-o'zini baholash va muzoqaralar samarasini oshirishning uslublari

1.Bizga ma'lumki tashkilot (hox u davlat yoki tijorat bo'lsin)ning barcha masalalarini echishda yuqori turuvchi rahbar mas'ulligi. Rahbar faoliyatning asosiy mazmuni boshqaruvning har bir funksiyasini (rujulashtirish, tashkil etish, asoslash va nazorat) bajarishdir. Tashkilot ichki boshqaruvining barcha pog'onalari 3 ga bo'linadi:

1. Boshqaruvning institutsional daraja
2. Boshqaruvchi daraja
3. Texnikaviy daraja

Tashkilot boshqaruvining institutsional darajasi boshqalardan farqli o'laroq kam uchraydi. Eng ko'p tarqalganlariga misol qilib, boshqaruvning eng yuqori bo'g'iniga prezident, vitsa-prezident, kompaniya ta'sisshilar kengashining raisi hisoblanadi. Davlat doirasida – vazir, armiyada esa general va xokazo.

O'rta bo'g'in asosan yonaltirish va xodimlar ishini nazorat qilishda ishtirok etib, yuqori turuvchi bo'g'inga hisobot beradi.

Quyi turuvchi boqaruvda ishlab chiqarish masalalari ustidan nazorat qilinadi. Bu bo'g'in asosan bevosita ishcha va malakasiz ishchi kuchi vakillarini boshqaradi.

Psixologiyada “masalani hal qilish” 3 xil bo'ladi

1. masalani avvalo rejasi
2. masalani ijro etish jarayoni
3. natija

Boshqaruv masalalari o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- tuzilishi va mazmuniga qarab, adabiyotlarda keltirilgan masalalardan farq qiladi
- ba'zan noaniq ba'zan mutlaqo qarama-qarshi sharoitlarga ega
- aniq algoritmik echimga ega emas, faqat tajriba intuitsiya va evristika bilan hal qilinadi.
- vaqt tig'iz paytida hal qilinadi
- asosan inson omiliga bog'liq

Boshqaruv nazariyasi boshqaruv masalalarini 3 asosiy turi mavjud:

- 1.Kontseptual, ya'ni uzoq istiqbolli rejalashtirish, oldindan prognoz qilish.
- 2.Texnika-toxnologiya bilan bog'liq, masalan, yangi texnikani yaratish va ishga tushirish.
- 3.Inson omili bilan bog'liq masalalar, kadrlarni qayta tadbqiq etish, tashilotda normal

psixologik muhit yaratish tarbiyaviy masalalar

Boshqaruv masalalarini ko'rib chiqishda ularni tasniflab, quyidagicha kriteriyalarga ajratish mumkin:

- 1) Asosiy kriteriya – bunga ko'ra tashkilotchi xal qilishi lozim bo'lgan masalalar:
 - a) juda muhim
 - b)kam ahamiyatli masalalarga bo'linadi.

Bunda vaqt o'tishi bilan juda muhim masalalar, kam kam ahamiyatliga aylanib qolishi mumkin yoki aksincha.

2)Vaqtning kriteriyasi – bunga ko'ra boshqaruv masalalari kelajak va hozirgi, mavjud masalalarga bo'linadi va juda muhim omil hisoblanadi, barcha rahbarlar jiddiy qaramoqlari lozim, Chunki bunda tashkilot asosiy funktsiyalarini amalga oshirish maqsadi o'rnatiladi.

3) Masalarning ijro etish – bunga ko'ra barcha masalalar xal qilinsa bo'ladigan va hal qilinmaydigan masalalarga bo'linadi.

4) Rahbarlarning masalani to'g'ri bilishi – bunga ko'ra boshqaruv masalalari 2ga:

- a) rahbar vakolatiga kiruvchi
- b) vakolati bo'lmagan masalalar

5) Masalani hal qilish darajasi – bunga ko'ra barcha boshqaruv masalalari oson va murakkab bo'ladi. Murakkab masalalarga strategik rejalashtiri, tashkil etish, prognozlash kiradi. Osonlariga texnika masalalarni, texnika xavfsizligini, mavjud ishlab chiqarish masalalari.

Rahbar masalalari haqida o'ylarini yig'ib: a) qaysi biri tezda va albatta hal qilnishi; b) istisno holatlarda hal qilinmasa ham bo'ladigan; v) e'tibor bermasa ham bo'ladigan. Bu narsa asosan o'sha damda rahbar ixtiyoridagi masalalar hajmi va ko'lami, darajasiga qarab xal qilinadi.

Rahbarlar uchun masalalar muhimligi darajasi aniq bo'lishi kerak, shunda maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, rahbarlar faoliyatida 2 qarama-qarshi tendentsiya (ammo amaliyotda bir birini to'ldiradigan) vujudga keladi:

-Ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq barcha masalalarni muhim deb olish

-Barcha mavjud masalalardan eng muhimlarini tanlash. Bunda har bir bo'g'in uchun har xil masalalar aktual yoki aktual bo'lmasligi mumkin.

Murakkab boshqaruv masalalarini ko'pincha birdan hal qilishga to'g'ri keladi, masalan, huquqiy kadrlarga oid. Bunda rahbar qiyinchiliklariga duch kelib xato qilishi mumkin. Masalani hal qilishda noto'g'ri strategiyani tanlash ko'pincha masalaga yetarlicha baho berolmaslik yoki aksincha ortiqcha ahamiyat berish sabab bo'ladi. qiyinchilik va muammolarni bila turib ham ko'pincha rahbar ularni hal qilish uchun ko'p vaqt ketkazishi mumkin. qiyinchiliklarni hal qilishda muhim bir psixologik xususiyatni ko'rsatishi lozim, ya'ni rahbar o'zi ish davomida hal qilishi mumkin bo'lgan muammolarni aktual deb hisoblamaydi va bu muammo emas uning uchun. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda masalani hal qilishda qiyinchilikni bartaraf qilish uchun bunga sharoit yaratish kerak.

Bartaraf etilishiga ko'ra 2 xil qiyinchilikni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) rahbar vakolatiga kirmaydigan masalalar

b) tashkilot faoliyatining ob'ektiv sabablariga bog'liq qiyinchiliklar.

Yuqorida ko'rsatilganidek, har bir bo'g'inda boshqaruv masalalari har xil bo'ladi. Ammo ulardan bittasi barcha boshqaruv bo'g'inlariga aktual bo'lgan tomonini aniqlash kerak.

Bu narsa-tashkilot faoliyatining samarali bo'lishidir.

Bu borada o'zimizning va xorij olimlarining fikrlari bir hil, ya'ni boshqaruv tizimining samarali bo'lishi tashkilot faoliyatini boshqarishda yagona universal jihat hisoblanadi.

Tashkilot normal faoliyat yuritishi uchun faqat samarali qarorlarni qabul etish talab etiladi, lyokin afsuski amaliyotda bu narsaga doim ham erishib bo'lmaydi.

Bundan tashqari boshqaruv masalalarini hal qilishda to'g'ri maqsad va taktikani tanlash muhimdir. Buning uchun rahbar nafaqat boshqaruv holatini yaxshi baholashi, balki masalalarni kelajak va hozirgi masalalarga to'g'ri ajrata olishi kerak.

Buning uchun rahbar quyidagi avollarga javob berishi kerak:

1)Mavjud boshqaruv holatida aniq masalani qo'yilgan maqsadga muvofiqmi va uni hozir hal qilishi shartmi?

2)Qo'yilgan masalaga echim topish uchun yetarli sharoit mavjudmi?

3)Ushbu boshqaruv masalasini hal qilish majburiymi?

Umuman, agar masalaga baho berishda ob'ektiv va sub'ektiv baho berilsa masalani samarali hal qilish mumkin!

Mavjud masalalarni hal qilishda har bir rahbar taktika tanladi, bunda u quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

1)masala muhimligini darajasini to'g'ri baholash;

2)ma'lum vaqtda masalani ahamiyati O'zgarishiga to'g'ri baho berish

3)kelajak va mavjud masalalar O'rtasida bog'liqlikka to'g'ri baho berish

4)masalaning murakkabligi darajasini aniqlash

Eng ko'p murajaat qilinadigan taktikalarga qo'yidagilar kiradi:

1)Yuqori mas'uliyatli tavakalchilik taktikasi

2)Masalani hal qilishni cho'zish, uzoq muddat hal qilish va o'zidan mas'uliyatli bir qismini O'zidan soqit qilish

3)Mustaqil va extiyotkorlik bilan xal qilish

4)Mustaqil harakat bilan hal qilish va omasiz oqibatlar uchun mas'uliyatdan qochish

U yoki bu taktikani tanlashning psixologik sabablari:

1) Ishda muvaffaqiyatga erishishga intilish

2) O'ziga yuqori baho berish va o'z ustida ishlash

3) Sotsial jihatdan ijobiy shakllanganlikning yuqori darajasi

Ajralib chiqish va boshqa rahbarlar va boshqalardan oldinda borish

Nizomli boshqaruv faoliyati sharoitida rahbar quyidagicha taktika yuritadi:

1.Raqobatchilik taktikasi. Bunda rahbar o'z hamkorlariga fikrini o'tkazishga, etakchi rolida bo'lishga harakat qiladi va ko'pincha muvaffaqiyatga erishadi.

2.Hamkorlik qilish taktikasi. Bunda rahbar nafaqat o'z fikri va manfaati, baoki hamkorlarining manfaatlariga ham asoslanadi va o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi. YUqorida ko'rilgan taktikalar ichidan eng samaralisi ekanligini isbotlangan.

3.Kompromiss taktikasi. Ushbu taktikada rahbar o'z hamkorlari bilan munosabatlarini normallashtirishga harakat qiladi. Bu taktika raqobatchilik va hamkorlik taktikalarining O'rtachasi hisoblanadi.

4.O'zini olib qochish taktikasi. Bunga ko'ra rahbar, masalani hal qilishdagi mas'uliyatdan qochadi. Bu taktika asosan o'z sohasini yaxshi bilmaydigan, boshqaruvdagi masalalarni xal qilishda ojizlik qiladigan rahbarlar tomonidan qo'llaniladi.

5.Moslashish (jim turish) taktikasi. Bu taktikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda rahbar hech handay tashabbus ko'rsatmaydi, masala bilan qiziqmaydi. Ushbu taktika, boshqaruv masalalariga aralashmaydigan, ayniqsa nizoli holatlarda umuman aralashmaydigan rahbarlar pozitsiyasi hisoblanadi.

Rahbarlarning u yoki bu taktikani qo'llashi uning qanday odamligini bildiradi, masalan yakka diktatorlik xislatiga ega rahbar raqobatchilik taktikasini qo'llaydi.

O'z sohasida xodimlar bilan ishlash jarayonida demokratik qarashlarga asoslangan rahbar kompromiss taktikasini tanlaydi. Inson resurslariga jiddiy e'tibor beradigan rahbar hamkorlik taktikasini yuritadi. Bunda u xodim yoki hamkorlar imkoniyat va manfaatlariga qaraydi. Aynan shu taktika hozirgi eng optimal variant hisoblanadi.

Rahbarlarning u yoki bu taktika tanlashiga qarab uning shaxsiy fazilatlarini bilib olsa bo'ladi. Umuman, barcha bo'g'in rahbarlarini ma'lum taktikani tanlashga qarab 3 ta kategoriyalarga bo'lish mumkin:

1)o'ziga yonaltirilgan

2)boshqa odamlarga yonaltirilgan

3)masalani hal qilishga yonaltirilgan

4)o'ziga ishonib, o'ziga asoslanadigan rahbarlar fazilatli odam hisoblanadi. Ular o'z xatolarini tan olmaydilar. 80% rahbarlar shunga kiradi. Yana boshqa bir qismi bunday rahbarning hamma vazifasini o'zi xal qilishga harakat qiladi, ulgur olmaydi, boshqalarga buyurmasdan o'zi harakat qiladi. Bunday rahbarlarning asab bilan muammolari uchraydi.

5)boshqalarga yonaltirilgan, ya'ni o'zidan boshqalarga ishonib, ulardan foydalanib ish qiladilar. Bunda ular xodimlarni o'z orqasidan "ergashtirgisi" keladi. Ayrımlari axloq normalariga rioya qilmaydi. Boshqaruv faoliyatiga qabul qilinayotgan qarorlarning 2 asosiy ko'rinishi mavjud: a) kollektiv; b) individual. Lyokin hozirgacha qaysi biri afzal ekanligi aniqlanmagan. Individual qaror tarafdorlari kollektiv qarorda ko'pincha konformizm ko'rinishlari yuzaga keladi.

Amaliyotdagi boshqaruv faoliyatida kollektiv qaror qabul qilishi tartibining aniq printsiplari bor: A) Birlik printsipti; B) Ko'p ovozlilik printsipti; V) qarama-qarshiliklarni minimallashtirish printsipti; G) o'zaro kelishuv printsipti

A) Birlik printsipti – Ushbu printsipt 2 xil: real va ishonchsiz bo'ladi. Real bir ovozlilik – bu barcha masalalarni ochiq muhokama qilib, ko'plab alternativ echimlarni topilishiga xizmat qiladi. Ishonchsizi – bu asosan rasmiy hisoblanadi, hamma rahbar fikriga qo'shiladi, lyokin hech kim fikrini erkin aytmaydi, bu esa salbiy harakterga ega.

B) Bo'p ovozlilik printsipti – bunda biror bir masalani hal qilishda pora, kollektivda norasmiy 2-3 guruh raqobatlashib, fikr bildirishadi, ba'zilar individual fikr bo'ladi. Bunda ovozlar:

1) teng;

2) ko'pchilik;

3) absolyut ovozlar ko'piligi. 3 chisi chet chet el tajribasida ham O'zini oqlagan. Mutloq ko'pchilik ovozga ega bo'lish ham kollektivda ko'pchilikning kamchilik ustidan xukmronligiga olib keladi.

V)Bu printsipt ierarxik talab etgan guruhda mansabdor shaxslar va ba'zan ekspertlar ishtirokida ishlatiladi. Bunda asosiy shartlar:

a) rahbarning rasmiy lider sifatida fikrlaridan foydalanish;

b) mavjud muammolarning hal qilishda ishtirokchilar faolligi;

g) O'zaro kelishuv printsipti – asosan muammoni hal qilishdagi boshlang'ich etapida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ierarxial tizimidagi firmalarda boshqaruv masalalarini hal qilish rahbarlarga bog'liq bo'ladi. Bunda rahbarlarning intellektual imkoniyatlari, shaxsiy fazilatlari, individual motivatsiya ishga keladi. Bundan tashqari, rahbarning mulohaza qilishining tipik ko'rinishi bo'ladi. Boshqaruvni samarali olib borish rahbarning shaxsiy va boshqaruv yo'nalishiga bog'liq.

Rahbar buyruqlariga xodimlar tomonidan munosabat, rahbarning obro'yiga bog'liq. Agar u obro'li bo'lsa, uning aytganlariga og'ishmay amal qilishadi, aks holda uning buyruqlari salbiy fikrlar bilan qabul qilinadi. Obro'li rahbar faoliyati xodimlarning samarali faoliyatiga xizmat qilishi mumkin.

Chet el tadqiqotlarining ko'rsatishicha, jamoa qarorlarini qabul qilishda 2 holat: 1) guruhdagi deformatsiya; 2) tavakkalchilik darajasining oshishi.

Guruh deformatsiyasida bir-birini to'liq tushunmaslik, fikrlar qarama-qarshiliklarga duch kelinadi va bu narsa konformizmni yuzaga keltiradi, shuningdek o'zini o'zi himoya qilishi tendentsiyasi yuzaga keladi, fikrlari eski, qotib qolgan xodimlar "bizga shunday o'rgatishgan deb" harakat qilishadi, ulardan yangi fikr chiqmaydi.

Tavakkalchilik darajasini oshirishda guruhlarda xodimlar O'rtasida tavakkalchilik qilish bordir. Har bir ishchi guruhida jamoa bo'lib masalalarni hal qilish xavfini kamaytiradi, bunda javobgarlik guruh ishtirokchilarining ustida bo'ladi.

Tavakkalchilik bahosi umuman jamiyatda ijobiy qabul qilingan. Psixologik jihatdan tavakkalchilik harakatning noaniqligini, kelajakdagi noxush oqibatlarni e'tiborga oladi.

Tavakkalchilik:

A) faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik oqibati darajasi

B) Yo'qotishga olib keluvchi harakat

V) Doimo 2 mavjud variantdan birini tanlash lozib bo'lgan holat. Yoki ishnchli, lyokin qiziq emas, taklif, yoki jalb qiluvchi, ammo ishonchsiz taklif.

Omillar:

1) Kollektiv qaror qator holatlarda individual qarordan ko'ra samaraliroqdir.

2) Bunda xodimlar tavakkalchilikka qo'rqmasdan borishadi, maqsadi uzoq kelajakni ko'zlab harakat qiladi. Bunda fikrlar xilma-xilligi, har xil yo'llarni taklif qilish, muammoni hal qilishda yagona eng samarali yo'lni tanlashga yordam beradi.

3) Ko'pincha kollektiv qabul qilishda boshqaruv muammosini oqilona echishga muvaffaq bo'ladi.

4) qabul qilinayotgan qaror har bir xodim va butunlay tashkilot uchun ham muammoni echishda ijobiy deb hisoblansp, rozilik bo'lsa faoliyati samarali bo'ladi.

Kollektiv qaror qabul qilishning salbiy oqibatlari:

1) Xal xil echim, bir xil qarorga kelmaslik.

2) qarama-qarshi fikrlar tufayli zo'riqish va nizoli holatlarning yuzaga kelishi

3) Komprimisslar

4) qaror aktiv xodimlar tomonidan keltirilishi, Chunki ular o'z sohasida etuk mutaxassis bo'lmagani mumkin.

5) Xal xil fikrlar tufayli qarordan qoniqmaslik, bunda hamma o'z qarorini inobatga olinishiga hojmaydi.

O'z xodimlarini qaror qabul qilishga undaydigan rahbarlar: a) masalani ma'lum bir kishiga topshirishi mumkin; b) ushbu kishiga guruh orqali ta'sir qiladi.

2. *Xodimlarni boshqarishda o'z-o'zini baholashni e'tiborga olish.* Insonning o'ziga bo'lgan munosabati uning hayotning barcha jabhalaridagi muvaffaqiyatlariga yoki muvaffaqiyatsizliklariga ta'sir qiladi. Har bir rahbar o'z xodimlari boshqaruvida bunga alohida ahamiyat berishi kerak. O'zini-o'zi baholash, o'zini ruhan, emotsional jihatdan qanday baho berishimizdir. O'zini-o'zi baholash odam o'zini xurmat qilishida o'z qadri darajasini belgilaydi.

O'zini past baholash, o'ziga salbiy qarash, o'zini qabul qila olmaslik, o'ziga ishonchsizlik namoyon bo'ladi. O'zini ijobiy baholashda inson o'zining ijobiy tomondan qabul qilib, o'ziga ishonadi va o'ziga yaxshi munosabatda bo'ladi.

O'zini baholash nafaqat o'zini boshqalar oldida tushunishiga qarab, uning o'zi to'g'risida qanday O'ylashiga ham bog'liq emas, balki o'ziga nisbatan munosabati bilan o'lchanadi.

Agar inson doimi murakkab vaziyatlardan qochib, o'zini kamsitish va ko'p orzu va fantaziyalarga berilishi, uning o'ziga ishonchsizligidan, o'zini salbiy baholashidan dalolatdir.

O'ziga qanday baho berishiga qarab odam boshqa odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Agar u boshqalarni xafa qilmaslikka, ko'nglini og'ritmaslikka harakat qilsa, o'zini xurmatini bilib, o'zining ijtimoiy kelib chiqishidan qan'iy nazar boshqalarga yordam beradi, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda O'zini eyavermaydi, haddan tashqari uyatchan va tortinchoq bo'lmagan, hamda boshqalar maqtasa doim inkor qilmaydigan bo'lsa bu odamning o'ziga yarasha yuqori baho berishidan dalolat beradi.

Ba'zan o'zidan haddan oshiq mamnun va hokimiyatga ega odamlarda o'ziga nisbatan yuqori baho beradi, lyokin ularning ko'pchiligi o'ziga ishonchsizligini o'rnini to'ldirishi uchun harakat qiladi. Bunday odamlar o'zlarini qilolmaydigan ishlariga duch kelib qolsalar qochib qoladi.

Olimlarning tadqiqotiga ko'ra, o'ziga salbiy baho beradiganlar o'zini to'liq anglamaydi, qadriga etmaydi va o'z kamchiliklarini ko'ra olmaydi. O'ziga yaxshi baho beradiganlar o'z kamchiliklarini ko'ra oladilar va bartaraf qilishga harakat qiladilar.

“Haqiqiy Men” obrazi – bu odam o'zini ayni damda real hayotda qanday baholashidir. “Ideal men” obrazi esa bu odamni aslida o'zini qanday ko'rishni istagani to'g'risidagi xayollaridir. O'ziga baho berish mana shu 2 menlar farqidadir, ular orasidagi farq qanchalik kam bo'lsa, o'zini baholash shunchalik yuqori bo'ladi. Ikkinchi asosiy faktor, bu individning boshqa odamlar bilan munosabati odamlarning unga bahosi ya'ni, sotsial men. Inson o'zining muvaffaqiyatlariga yoki muvaffaqiyatsizliklariga nafaqat o'zidan kelib chiqib, balki boshqa odamlarning unga bahosidan kelib chiqib, balki boshqa odamlarning unga bahosidan kelib chiqib ham baho beradi. Chunki biz ijtimoiy hayot mavjudotlari ekanmiz, albatta bu jamiyatga “kirishishimiz lozim, shuning uchun ham biz boshqa insonlarni fikri qiziqtiradi. O'ziga ijobiy baho va odamlarning bu inson to'g'risida ijobiy bahosi yig'indisi ijobiy men” odam kontseptsiyasini yuzaga keltiradi. Buning asosida insonning shaxsiy fikri, boshqa odamlarning u to'g'risida fikrlar interpretatsiyasi, shaxsiy ideal va madaniyat standartlari etadi.

“Men” kontseptsiyasi sub'ektiv bo'lib, insonning butun hayoti davomida kuchli ta'sir ko'rsatadi.

“Agar odamga ruchka, qog'oz berib men” bilan boshlanadigan 5 ta gap yozing desa, odam beshtalasida ham o'z individual fazilatlarini yozishi mumkin (men – rostgo'y, men – quvnoqman va xokazo) Balki buyruq odamning ijtimoiy munosabatlariga to'g'ri informatsiya etar (masalan, men – rahbarman, men – o'g'il farzandman, madaniyatni bo'lishning an'anaviy turiga ko'ra madaniyat a) mustaqil (individual); b) o'zaro bog'langan (jamoat, kollektiv) ga bo'linadi.

Taniqli amerikalik olim D.Mayers tadqiqotida keltirilganidek, rivojlangan industrial g'arb mamlakatida individualizm kuchli hisoblanadi. Bu narsa har sohada mustaqillikni afzal ko'radi. Individualizm ayniqsa yaxshi hayot sharoitlarida, ijtimoiy uyg'unlik, urbanizm va ommaviy axborot vositalarning bevosita ta'sirida rivojlanadi.

Lyekin, bu tushuncha faqat g'arb mamlakatlariga xos desa bo'ladi, chunki yuqoridagilarni biz yaponiya to'g'risida gapirganda misol qila olmaymiz. Chunki yaponiya milliy qadriyatlarga asoslangan davlat hisoblanadi va bu erda kollektivism rivojlangan.

Individualistik madaniyatli davlatda bolalar kichkinaligidanoq mutaqillikka o'rgatiladi. Ulg'aygach, odamlar o'z oilalaridan ajralishga harakat qiladi. Ular o'zlarining shaxsiy va professional hayotida faqat o'zlariga tayanib, cheksiz erkinlikka ega bo'ladi. Bunday davlatda voyaga etgan odam eng avvalo o'z shaxsini rivojlantirish, shaxsiy ehtiyoj va hoxlashlariga asoslanadi, boshqa odamlar undan kutganidek yashashga intilishmaydilar.

Kollektivism esa asosan, aholisining ko'pchilik qismi qiyin hayot sharoitlarda yashaydigan yoki faqulotda ofat ko'p ro'y beradigan yoki kollektivism milliy qadriyatga asoslangan mamlakatlarga xosdir. Bunda asosiy O'rin shaxs, oila, qabila, qishloq yoki boshqa manfaatlarga beriladi. Bunday mamlakatda odamlar, bir-birini qo'llab quvvatlaydi, ijtimoiy yordam beradi va bir-biriga xurmat bilan qaraydi. Aynan jamiyat munosabatlari va jamiyat manfaatlari ko'pincha odamlar muomalasiga ta'sir qiladi. Kollektivism an'analari tarbiya qilingan odam boshqa odamlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bunday odam individual odamga qaraganda emigratsiya yoki vaqtincha yashash joyini O'zgartirishni qiyin kechiradi. Ya'ni muhitga moslashish bilan bog'liq qiyinchiliklar ijtimoiy aloqalar uzilishi bilan qo'shib qiyinlashtiradi odam axvolini, u o'zini o'z oilasidan, do'stlaridan, vatanidan uzilib qolganday xis qiladi.

Daniya olimi G.Xomstev fikriga ko'ra, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining barchasi kollektivistik (jamoat) hisoblanadi. Niderlandiya va AqSH – individualistik, Yaponiya esa ularning O'rtasidagi davlat qatoriga kiradi. Odam qaysi madaniyatga aloqadorligiga qarab, “Men” kontseptsiyasini qabul qilgan. Lyekin, bir madaniyatning o'zida ham kollektivlik ham individuallik uchralishi mumkin. Bunga tarbiyaning har xilligi va insonning shaxsiy xussiyatlari ta'sir etadi.

Professional faoliyat nuqtai nazaridan qaraganda, ya'ni individualistik va kollektivistik madaniyatning ham O'zida ijobiy ham salbiy tomonlariga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zaro bog'oiqlikda odamlar bir-biriga yordam qo'lini yozadi, ham boshqalarni ham o'zini o'ylaydi (masalan, o'qituvchi, tarbiyachi, o't o'chiruvchi)

O'ziga individualistik elementini mujassam etuvchi kasb masalan yuqori malakali dasturchilar egalari tashqi olamdan uzilib qolishadi.

O'ziga baho berish odamning profesional hayotiga ham ta'sir qiladi. U rejalar tuzishga o'z harakatlarini belgilash va ularni bajarishga yordam beradi. O'ziga nisbatan ijobiy baho odamning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan kurashishga professional darajada o'sishga xizmat qiladi.

Amerika tadqiqotchilari kuzatuvlariga qaraganda, o'zini mehnatkash, omadli, ilg'or deb bilib, o'z kuchiga ishonadiganlar oldidagi eng murakkab vazifalarni ham bajarishga muvaffaq bo'ladilar.

Ular sobit, kamroq o'ylab, siqiladigan, yangi informatsiya ni tez qabul qiladigan bo'ladi. Ular uyqusizlik, yazva kasalliklaridan kam aziyat chekadilar, narkomaniya va alkogolizmga kamroq beriladilar va umuman o'zlarini baxtli hisoblashadilar.

Insonlar bilan muloqotda bo'lak ekanmiz, biz aks ta'sirni ko'ramiz. Boshqa odamlar bizga u yoki bu xatti harakatlarimizga baho beradilar.

O'ziga salbiy baho beradigan odam ish faoliyatida ham shunaqa munosabatda bo'lishadi. Masalan, rahbar salbiy ma'lumot bersa, o'ziga salbiy baho beradigan odam bunga aks ta'sir qilishga yoki uni yanada salbiylashishga harakat qiladi. Bu narsa uning sog'lig'iga, ish faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'ziga ishonadigan odam esa bu holatda, boshida bir qancha inkor etadi, keyin esa yaxshilab O'ylab ko'rib nega unaqa bo'lganligini o'ylab, kamchiliklarini tuzatishga harakat qiladi.

O'ziga ishonmaydigan odam har bir muvaffaqiyatsizlikni og'riqli qabul qiladi va bu holatni doimiy deb o'ylaydi. O'ziga ishonadigan odam esa muvaffaqiyatsizlikni vaqtincha holat deb qaraydi va optimistik ruxda hamma narsani o'zgartirish mumkinligiga ishonadi.

Murakkab vaziyatlarda, salbiy ta'sirli odamlar O'ziga ishonmaydiganlar faqat yomon xotiralarni eslaydi, optimistlar esa aksincha yaxshi xotiralarni eslab vaziyatdan chiqish yo'llarini izlaydi.

O'ziga baho berishga muhim ta'sir qiluvchi nazorat lokusi ya'ni insonning o'z hayoti O'zgarishlarini nazorat qilish, ularni boshqarishga undaydi. Bu ko'rsatkichlarga ko'ra odam:

1)Eksternal (sodir bo'layotgan xodisalarga sabab tashqi omillar va ularning ta'sirida deb biladi)

2)Internal (hayotida ro'y berayotgan xodisalarga o'zini, ma'sul deb hisoblaydi, o'ziga har qanday holatda ishonadi va o'z kuchiga tayanib yashaydi).

Ba'zan o'zini o'zi hurmat qilish o'z kuchiga ishonch va o'ziga baho berish qanchalik shakllanib bo'lgan bo'lmaslik, o'zgarishi mumkin.

Agar odam uzluksiz ravishda bir tashqi bahona eshitaversa, va bu baho u uchun ahamiyatli odamlar tomonidan berilsa, unda bu odam bu bahoga e'tibor bermay iloji yo'q.

Mutaxassisning o'ziga baho berishiga unga tashabbusni berish va mustaqil harakat qilishga ruxsat berilishi ham ijobiy ta'sir qiladi. Amerika tadqiqotchilarining e'ritof etishicha agar xodimlarga masalani mustaqil hal qilish va qaror qaror qabul qilish imkoniyati berilsa xodimlarning ma'naviy, ruhiy holati yaxshilanadi, o'zini malakali xis qilishga hamda kelajak faoliyatida tajribasini yanada oshirishga yordam beradi.

O'ziga ishongan xodimlar faoliyati muvaffaqiyatli bo'ladi. Ular o'zini nazorat qiladi, kam xavotirlanadi va siqilmaydi, depressivga tushmaydi, boshqa xodimlar bilan yaxshiroq munosabatda bo'ladi, guruhlarda samarali ishlaydi, tashkiliy o'zgarishlarni engil kechirishadi. Ko'pchilik odamlarda o'ziga ortiqcha baho berish holati kuzatiladi, lyokin, agar ijobiy baho xaqiqatdan uzoq bo'lsa, unda kuchiga haddan tashqari ishonish ish faoliyati sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bunday odamlar boshqalarga past baho beradi, natijada asossiz aptimizmga olib keladi.

O'ziga bo'lgan ishonch insonga bolaligidanoq singdariladi. Shuning uchun dastlabki aloqalar o'zini anglashni shakllantirishga, hamda uning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Bolaga 6 yoshgacha davrida unga ota-onasi va boshqa qarindoshlari ta'sir ko'rsatadi, 18 oygacha bo'lgan davrda bolada ishonch xissi paydo bo'ladi, 1,5-3 yoshgacha davrida bola o'zini avtonom mavjudot deb his qiladi, ortiqcha man qilishlar bolani uyatchan va o'ziga ishonmaydigan qilib qo'yadi. Ortiqcha erkinlik berish esa bolani o'ziga nisbatan shubxalik va xavotirli qilib qo'yadi.

O'ziga ishnochsizlik, ota-ona bolasini o'zi so'zlariga bo'yChundirigsha harakat qilsa paydo bo'ladi. Bunda ota-onasi bolani ularning buyrug'iga bo'ysunishga majbur qiladi va barcha nizoli holatlarda ham (kattalar bilan bo'lsin yoki tengqurlari) boshqalarga moslashishni talab qilishadi. Bundan tashqari ota-onaning bolaga e'tiborsizligi, o'z mexrini ko'rsatmasligi, bola bilan ochiq bo'lmasligi odamda negativ munosabatni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari onaning o'limi, yoki onaning ayrilishi, bolaning bolalar uyida o'sishi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, lyokin onasi bo'lmasada, bolaning oldida uni yaxshi kqradigan bir odam bo'lsa, bola etuk, o'ziga ishonib o'sishi mumkin.

O'rtacha baho berish – bunday bolalarning ota-onasi ularga haddan ortiq e'tibor berishib, bolaning mustaqil harakatlari ularda xovotir tug'diradi.

Yuqori baho berish – bolalarning oilasida o'zaro xurmat va ishonch xukumronlik qiladi. Bola ko'z o'ngida ota-onasida doim omad kulib boqadi, qiyinchiliklar bo'lganda ham bola engib chiqadi. Muhim qarorlar oila ichida analiz qilinib hal qilinadi. Bunda mas'uliyat ota-onaning birida bo'ladi va oilada tarbiya muhim rol o'ynaydi.

Bolada o'ziga ishonch bo'ladi, u o'z fikrlarini ochiq bayon qiladi va o'zining piluv, minuslarini biladi.

Bolaning o'ziga ishonchi tug'dirishda ko'pincha qarama-qarshi tipidagi ota-ona ta'sir qiladi. Bola ulg'aygach, uning o'rtoqlari ham ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, bolaga ota-onaning munosabati, ya'ni uning kelajakdagi hayoti haqida ko'p marta bir xil stsenariyni gapirishi ham bolaning taqdirini belgilaydi, bunda ota-ona faqar ijobiy munosabatda bo'lishi lozim.

Real hayotda ham ba'zi odamlar o'z ota-onalari "stsenariy"sigasodiq qolib, ular aytganidek bo'ladi, lyokin ba'zilar aksincha o'z yo'llaridan ketishadi.

E.Beri yozishicha inson taqdiriga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud: ota-onaning "stsenariysi", tashqi ta'sirlar va hokazo.

Ota-ona nafaqat bolaning bolaligi, balki butun hayotiga ta'ir qiladi. Mehr muxabbat, oqillik har bir odamning baxtli bo'lish garovidir.

Shunday qilib, xulosa qilib aytganda ko'plab odamlar o'ziga ishonadi va kelajagiga ishonadi. Buz odatda omadsizligimizni vaziyatga bog'laymiz, omadlarimizni esa o'zimizga. Bu narsa nizoga olib kelishi mumkin, lyokin umuman olganda biz har qanday yangi holatga moslashishimizga yordam beradi.

3. Muzoqaralar samarasini oshirishning yangi metodi.

Bizga ma'lumki, hozirgi kunda transatsion chiqimlar ko'chirmalar nazariyasi zamonaviy iqtisodiy ilmida muhim noinstitutcion yondashuv hisoblanadi. Transatsion ko'chirmalar tushunchasini ilk bor taniqli amerikalik olim o'tgan asrning 30-yillarida o'zining "Fira tabiati" nomli kitobida keltirgan. Ushbu kitobda olim, mavjud firmaning ierarxik tuzilishi to'g'risida so'z yuritgan. Bunda bu struktura bozor iqtisodiga zid bo'ladi va bunday firmaning asosiy maqsadi o'z faoliyatida transaktsional ko'chirma kamaytirish.

Keyinchalik Kouzning familirovkasi ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalarga duch keladi, ammo baribir transsaktsion ko'chirmalar tushunchasi iqtisod ilmida tan olinadiva hozirga kunda juda muhim ahamiyatga ega.

Bunday yondashuvning asosiy jihati tranchaktsiya – hozirgi kun zamonaviy iqtisodiyotdagi iqtisodiy agentlarning o'zaro munosabatlaridir. Iqtisodiyotda tan olinganidek har bir transaktsiya ikir-chikirlarigacha rasmiy hujjatlashtirilishini va tomonlar o'rtasida oddiy o'zaro tushunishni talab etadi.

Amerikalik olimlarning AQSH iqtisodiyotini analiz qilishlariga qaraganda, xususi sektor tomonidan ko'rsatiladigan transaktsional xizmatlar 23% va undan yuqoriga ko'tarilgan yoildan yo'lga (1870-1970) davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar esa 13,9 % ni tashkil etadi. Umumiy o'sish esa 1870-1970 yillar mobaynida 54,9 % gacha ko'tarilgan. Adabiyotlarda transaktsional ko'chirmalarning 5 asosiy shakli ko'rsatiladi:

- ma'lumot qidirish chiqimlari (bunda mavjud bozordagi ahvolanalizi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun ketadigan vaqt va resurslarga ketadigan chiqimlar
- muzoqaralar olib borish uchun chiqadigan chiqim
- tovar va xizmatlar sifati va qiymatini o'lchash bilan bog'liq chiqimlar.
- mulk huquqi himoyasiga ketadigan qichimlar (sud, arbitraj, davlat boshqaruv organlari uchun chiqim hamda buzilgan huquqlarni tiklash bilan bog'liq chiqimlar)
- opportunistik munosabat bilan bog'liq chiqimlar (adolatsiz munosabat, kontrakt shartlarini buzish yoki bir tomonlama manfaatni ko'zlashga qaratilgan)

Bizga ma'lumki, har bir iqtisodiy agent faoliyatida muzoqaralar olib borish jarayoniga ketgan chiqimlar transaksion chiqimlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Haqiqatda ham, deyarli har bir iqtisodiy bitim tuzish uchun muzoqaralar olib borish zarur hisoblanadi. Bqoridagi chiqimlarni tejashning yagona mavjud usuli bu tipovoy shartnomalardan foydalanish. Ammo shartnoma shartlari bilan tanishish va rozilik berish paytida bunday standartechimlar kam foydali hisoblanadi. Tomonlar manfaatini hisobga olib, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va hamma narsani oldindan kelishib olish uchun zarur bo'lgan muzoqaralar iqtisodiyot olimlarining izlanishlarida asosiy ob'ekt hisoblanadi. Bunday izlanishlar psixologiya, sotsiologiya, politologiya, boshqaruv nazariyasi sohasidagi olimlar uchun ham aktualdir. Yuqoridagi har bir sohadagi izlanishlarda ham izlanishmetodidan biri matematik metodlashtirishdan foydalaniladi.

Printsipial muzokara metodi. Garvard proektida ishlagan (Harvard Negotiation Project) 2 olim R.Fisher va U.Yuri tomonidan ishlab chiqarilgan. Ushbu metod har ikkala tomon uchun ham fodali bo'lgan muzoqaralarga intilish lozimligini, mabodo ikkala tomon o'rtasida kelilishuvga erishilmasa, unda har ikkala tomon uchun ham adolatli normalarga asoslanib, faqat bir tomon idorasidan kelib chiqmagan holda bir qarorga kelish lozim.

Single negotiation text (SNT) – printsipial muzoqaralar metodining alohida bir ko'rinishi, bu ham R.Fisher va U.Yuri tomonidan ishlab chiqilgan SNT pritokoli bilan o'tkazilgan muzoqaralarning har bir roundida analiz fazasi bo'ladi. Bu fazada har ikkala tomon manfaatlari, qiziqishlari, fikrlari maksimal darajada o'rgatiladi va manfaatlar o'zrtasida bog'liqlik izlanadi, ularga baho beriladi va extimol dastlabki etapdanoq kriteriyalar belgilanadi. So'ngra ushbu tekst barcha tomon ishtirokchilariga bir vaqtda o'rgani, muloxaza qilish uchun, kerak bo'lsa yana o'zgartirishlar kiritishi uchun taqdim etiladi.

Bunda ushbu etapning esosiy sharti tomonlar muzokarasidan oldin tanlangan variant ularning maqsadlariga to'g'ri kelish-kelmasligi to'g'risida aniq bir to'xtamga kelishi shart.

Ushbu etapning keyingi bosqichida esa qilingan tavsiyalar, O'rta tashlangan fikrlardan kelib chiqib yangi variant shakllanadi. Samarasiz savdodan yiroq bo'lishning asosiy sharti bu savdo jarayonini tartibga solib turuvchi uchinchi tomon (mediater)ni jalb qilishdir.

Muzokara SNT protokoliga ko'ra o'tkazilar ekan, asosiy yo'nalish bu ikki tomonlama davomad topish metodi hisoblanadi.

Ushbu metodlarda asosan, interatsion jarayon yuz beradi, ya'ni har qadamda har ikkala tomon uchun foydali tomonlar oshaveradi. Ushbu metodlarning natijasi har ikkala tomon uchun ham optimal kompromissga erishiladi. Pareto bo'yicha optimal qarorning keng ma'noda "yaxshi" deb hisoblanadi.

Muzokarada kompromissga kelishning sipliksi metodi. Ushbu metod transaksion chiqimlarning kamaytirilishiga olib keladi. Ushbu metod har ikkala tomon uchun ham foydani oshirish metodiga O'xshab ketadi. Ammo, metod bir qator o'zgartirishga ega va bunga qaragandasamaraliroq hisoblanadi.

Transaksion muzokara chiqimlarini kamaytirish masalasini echish uchun maxsus metodika taklif qilingan. Bunda ikki xil muzokara sxemalari ko'riladi:

- 1)simpleks qidiruv metodi
- 2)"Bo'shliqlar va xatolar" metodi

Ikkinchi holatda, oraliq kelishuvlarga avval bir o'lchamlar (bir muzoqaralar) bilan erishilgan, keyin bu narsa mustahkam, undan keyingina etapg o'tilgan.

Ushbu metod ko'p ishlatilsada, doim ham yuqori samara bermaydi. o'tkazilgan hisob-kitoblar bo'yicha esa aniqlanishicha, simpliks qidiruv metodi qo'llanilganda interatsiyalar (ya'ni muzoqaralar vaqtini qisqartirish) sonini kamaytirish hisobiga transaksion chiqimlar naqd 57% ga qisqargan.

3.3.Boshqaruv xodimlari sonini tartibga solish va ularga sarflanadigan harajatlarni maqbullashtirish chora-tadbirlari

Barcha darajalardagi, birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ajratadigan mablag''lar hisobiga ta'minlanadigan boshqaruv organlari xodimlarining amaldagi sonini o'rganib chiqish natijasida xodimlar sonining asossiz ravishda o'sishi hamda xodimlar soni ko'p bo'lgan boshqaruv apparati saqlanib kelinishi bilan bog'liq salbiy holatlar aniqlangan.

Vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar va boshqa boshqaruv tuzilmalari rahbarlari har yili boshqaruv apparati qisqartirilishiga qaramay, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sifatida hamon haddan tashqari ortiqcha kengaytirib yuborilgan boshqaruv xodimlariga egadirlar, ularning ta'minotiga ham byudjetdan ajratiladigan mablag''lar, ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning daromadlaridan ajratiladigan mablag''lar, ko'p hollarda xizmatlarga narxlar va tariflar o'sishi hisobiga sarflanmoqda. Bunga shuningdek boshqaruv tuzilmalari xodimlarining cheklangan sonini xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ko'rsatmasdan tasdiqlashning mavjud amaliyoti ham imkon bermoqda.

Masalan, "O'zbekengilsanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi apparati xodimlarining cheklangan soni 58 nafar etib belgilangani holda uning xodimlarining amaldagi umumiy soni bundan 2,4 baravar ko'pdir va 137 nafarni, shu jumladan xizmat ko'rsatuvchi xodimlar 79 nafarni tashkil etadi. "O'zqishloqxo'jalikimyo", "O'zbekturizm" kompaniyalari, "O'zmashsanoat" uyushmasi, "O'zfarmisanoat" davlat kontsernida ham axvol xuddi shunday. Ularda xodimlarning amaddagi umumiy soni boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan 2 baravardan ortiqdir.

Boshqaruv organlari xodimlarni sonini tartibga solish, mablag'' bilan ta'minlash manbalaridan qat'i nazar, ular ta'minotiga sarf-harajatlarni iqtisodiyot va jamiyatdagi resurslarni tejash va samarali foydalanish maqsadida hukumat qoidalarni belgilagan.

Ham byudjet mablag''lari, ham xo'jalik faoliyatidan mablag'' ajratish hisobiga mablag'' bilan ta'minlanadigan davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika va hududiy organlari xodimlarining cheklangan umumiy soni, ma'muriy-boshqaruv xodimlari shu jumladan alohida ajratib ko'rsatilgan holda belgilangan tartibda tasdiqlanadi;

Moliya vazirligi boshqaruv organlari apparati xodimlarining belgilangan cheklangan umumiy, soniga rioya qilinishi, uning o'zgarishi dinamikasi va manbalaridan qat'i nazar boshqaruv apparati ta'minotiga harajatlarning monitoringini olib boradi.

Vazirliklar, idoralar, davlat qo'mitalari, uyushmalar, kontsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar va boshqa boshqaruv organlari rahbarlariga ular uchun belgilangan xodimlarning umumiy soni va ularning ta'minotiga cheklangan harajatlar doirasida boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Moliya vazirligi va Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika va hududiy organlari bo'yicha boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatining hisoblab chiqilgan normativlarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

Davlat byudjeti hisobiga ta'minlanadigan boshqaruv organlarining harajatlari smetasi va moliyalashtirilishini ro'yxatdan o'tkazishni boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatining tasdiqlangan hisoblab chiqilgan normativlarini hisobga olgan holda amaldagi qoidalaridan kelib chiqib amalga oshiradi.

Soliq organlariga xodimlarning tasdiqlangan cheklangan umumiy sonidan ortiqcha xodimlar saqlanishi aniqlangan taqdirda byudjetdan ta'minlanadigan tashkilot bo'lmagan tegishli boshqaruv organlaridan qo'shimcha ravishda saqlab kelingan xodimlar mehnatiga haq to'lashning yillik fondi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

Ko'rsatib o'tilgan hollar davlat byudjeti hisobiga ta'minlanadigan boshqaruv organlarida aniqlangan taqdirda ushbu tashkilotlar rahbarlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan boshqaruv organlari tomonidan xodimlarning umumiy sonini qisqartirish natijasida tejalgan mablag' olib qo'yilmaydi va ushbu organlarning xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yonaltiriladi.

3.4.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining lavozimlari ro'yxati va ushbu xodimlar soni nisbatining me'yorlarini belgilash qo'llanmasi

3.4.1.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining lavozimlari

Davlat boshqaruvi organlaridan davlat qo'mitasini vazirlikdan farqi shundaki, vazirlik tarmoq organi, davlat qo'mitasi esa vazirlik organ bo'lib yni o'z vakolati doirasida chiqargan tartib va qoidalar hamma vazirlik, idora va korxonalariga tegishli va bajarilisi majburiydir. Vazirlik chiqargan tartib va qoidalar o'z vazirligi doirasida bajariladi. Ba'zan bu maqomdan chiqish holat bo'lishi mumkin, ya'ni vazirlik davlat qo'mitasi maqomiga ega bo'ladi.

Boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar lavozimlarining asosiy ta'riflari:

a)boshqaruv xodimlari - taqsimlovchi funktsiyalarni bajaruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, zarur qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, korxona, tashkilot va muassasalar faoliyati jarayonlarini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi ishchilar. Boshqaruv xodimlari korxona, tashkilot va muassasaning oldiga qo'yilgan maqsadlar va vazifalariga erishish uchun zarur tashkiliy-texnik sharoitlarni hamda belgilangan funktsiyalar va ishlab chiqarish dasturlarini bajarilishini ta'minlaydi;

b)rahbarlar (ma'muriy-boshqaruv xodimlari) - me'yoriy hujjatlarga muvofiq (nizomlar, ustavlar, ichki tartib qoidalar) ma'muriylashtirish funktsiyalari, korxona, tashkilot va muassasa nomidan harakatlanish, taqsimlash huquqlariga va vakolatlariga (ma'muriy funktsiyalar) ega bo'lgan, qaramog'idagi (bo'ysunishidagi) xodimlarga rahbarlik qiluvchi (ishlab chiqarishga oid bo'lgan topshiriqlarni taqsimlash, xodimlarni joy-joyiga qo'yish), korxona, tashkilot va muassasa, shuningdek bo'linmalarining faoliyatini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi, farmoyishlar, topshiriqlar bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi korxona, tashkilot va muassasalar boshqaruv xodimlarining bir qismi. Ma'muriy-boshqaruv xodimlariga quyidagilar kiradi: korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari; tarkibiy bo'linmalarining (mustaqil boshqarmalar va bo'limlar, tsexlar, shaxobchalar, vakolatxonalar) rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh muhandislar, bosh buxgalterlar va ularning o'rinbosarlari, diskretion vakolatlariga ega bo'lgan (ya'ni, o'z xohishiga binoan harakatlanish huquqi berilgan) bosh menejerlar, ishlab chiqarish uchastkalarining masterlari (o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish uchastkalarining materiallaridan tashqari) va boshqalar;

v)boshqaruv xodimlar mutaxassislari - asosiy bajaradigan funktsiyasiga boshqariladigan ob'ekt to'g'risidagi axborotlarni tayyorlash va tahlil qilish, boshqaruv ob'ektlarining berilgan parametrlarini ta'minlash, bo'yicha qarorlarni tayyorlash, hisobga olish, saqlash, texnologik jarayonlarni tashkil qilish, smeta-moliya materiallarini tayyorlash va boshqa funktsiyalar kiruvchi boshqaruv xodimlarining bir qismi. Boshqaruv xodimlari mutaxassislari taqsimlash vakolatlariga, shuningdek korxona, tashkilot va muassasalarning nomidan harakatlanish huquqlariga ega emaslar. Alohida holatlarda boshqaruv xodimlar mutaxassisi o'zidan past toifadagi mutaxassisga rahbarlik qilish vakolatlarini olishi mumkin;

g)korxonaning asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari - bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi, korxonaning iqtisodiy faoliyat turlari tasnifligichiga mos keluvchi asosiy mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha funktsiyalarini, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish dasturida belgilangan yo'ldosh mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha funktsiyalarni bajaruvchi ishchilar. Asosiy xodimlar jumlasiga boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lmagan muhandislar va texniklar, bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi ishchilar, kichik mutaxassislari va boshqa ishchilar kiradi;

d)korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning yordamchi xodimlari - o'z ichiga boshqaruv xodimlarining faoliyatini ta'minlash funktsiyasini amalga oshiruvchi texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni oladi;

e)korxona, tashkilot va muassasaning texnik xodimlari – bu funktsiyasiga boshqaruv xodimlarining faoliyatini ta'minlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarishdan iborat bo'lgan xodimlardir (bosma, ko'paytirish va arxiv ishlari, kutubxona ishi, hujjatlarni etkazib berish, kompyuter texnikasiga xizmat ko'rsatish, kantselyariya, kotiblik va boshqa ishlar);

j)korxona, tashkilot va muassasaning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari - bu funktsiyasiga binolar va hududlarga texnik va xo'jalik xizmatini ko'rsatish, ularni muhofaza qilish, boshqaruv xodimlariga transport xizmatini ko'rsatish, shuningdek, korxona, tashkilot, muassasalarning boshqaruv va asosiy (ishlab chiqarish) xodimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa ishlar kiruvchi, jumladan ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko'rsatuvchi xodimlardir.

Boshqaruv xodimlar lavozimlarining ro'yxati. Davlat boshqaruv organlarining rahbarlik tarkibi (ma'muriy-boshqaruv xodimlari): a) respublika darajasida:

- vazir, davlat qo'mita raisi va uning o'rinbosarlari;
- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi respublika muassasasining rahbari va uning o'rinbosarlari;
- hisob palatasining raisi va uning o'rinbosari;
- Fanlar Akademiyasining Prezidenti, vitse-prezidentlar, bosh ilmiy kotib;
- Badiiy Akademiya raisi, rais o'rinbosarlari, bosh ilmiy kotibi;
- O'zR Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining rektori, prorektorlari;
- milliy olimpiya qo'mitasining raisi, bosh kotibi;
- respublika davlat inspeksiylarining raisi, rais o'rinbosarlari;
- respublika vazirliklari, idoralari, tashkilotlari va muassasalarining tarkibiy bo'linmalari, departament, bosh boshqarma, boshqarma, bo'lim, sektorning boshlig'i, boshliq o'rinbosarlari;
- vazir, davlat qo'mita raisi, respublika muassasasining rahbari va ularning o'rinbosarlarining yordamchisi;

b) hududiy daraja (viloyat, shahar, tuman):

-qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi va ularning o'rinbosarlari;

-O'zbekiston Respublikasi vaziri, davlat qo'mitasining raisi, muassasa rahbari, viloyat hokimiyatining, Toshkent shahar hokimiyatining mustaqil boshqaruv boshlig'i va ularning o'rinbosarlari;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimiyati, Toshkent shahar hokimligining kotibiyati, bo'lim va boshqa tarkibiy bo'linma boshlig'i (mudiri), boshliq o'rinbosari (mudir o'rinbosari);

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimi va Toshkent shahar hokimining va ularning o'rinbosarlarining yordamchisi;

-Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirligi, davlat qo'mitasi, muassasa, viloyat, Toshkent shahar hokimligining mustaqil boshqaruv bo'limi, sektori va boshqa tarkibiy bo'linmasining boshlig'i (mudiri), boshliq o'rinbosari (mudir o'rinbosari);

-shahar, tuman hokimi va uning o'rinbosarlari;

- shahar, tuman hokimligining bo'limi, sektori, boshqa tarkibiy bo'linma kotibiyatining boshlig'i (mudiri), boshliq o'rinbosari (mudir o'rinbosari);

-shahar, tuman hokimining yordamchisi;

- shahar, tuman hokimining mustaqil bo'limi va uning tarkibiy bo'linmalarining boshlig'i (mudiri), boshliq o'rinbosarlari (mudiri o'rinbosarlari).

Xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlik tarkibi (ma'muriy-boshqaruv xodimlari):

a) respublika darajasida:

- assotsiatsiya, agentlik, korporatsiya, konsern, kompaniya, birlashma va boshqa xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbari (rais, bosh direktor, direktor, boshliq, boshqaruvchi va boshqalar);

- assotsiatsiya, agentlik, korporatsiya, kontsern, kompaniya, birlashma va boshqa xo'jalik boshqaruvi organlarining bo'lim, sektor va boshqa tarkibiy bo'linmasining boshlig'i (rahbari), boshliq o'rinbosari (rahbar o'rinbosari);

- assotsiatsiya, agentlik, korporatsiya, kontser, kompaniya, birlashma va boshqa xo'jalik boshqaruv organlar rahbarining (uning o'rinbosarini) yordamchisi;

b) hududiy daraja (viloyat shahar, tuman):

- assotsiatsiya, agentlik, korporatsiya, kontsern, kompaniya, birlashma va boshqa xo'jalik boshqaruvi organlari hududiy (viloyat, shahar, tuman) bo'linmasining (bo'limi, shaxobchasi va boshqalar) rahbari, rahbarning o'rinbosari;

- assotsiatsiya, agentlik, korporatsiya, kontsern, kompaniya, birlashma va boshqa xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy (viloyat, shahar, tuman) bo'linmasi (bo'limi, shaxobchasi va boshqalar) boshqarmasi, bo'limi, sektori va boshqa tarkibiy bo'g'ining boshlig'i (mudiri).

Barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining boshqaruv xodimlari, mutaxassisarlari:

- bosh mutaxassislar, etakchi mutaxassislar, 1,2,3 toifali mutaxassislar va toifasiz mutaxassislar, jumladan marketing va menejment bo'yicha mutaxassislar;
- ma'muriy boshqaruvchilar (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomosha ko'rsatuvchi muassasalarning ma'muriy boshqaruvchilari, navbatchi ma'muriy boshqaruvchilar, ma'lumot bazasi, tarmoqlari, zallar va boshqalarning ma'muriy boshqaruvchilaridan tashqari);
- agronomlar, auditorlar, arxeograflar, arxeologlar, arxitektorlar, loyiha va rejalashtirish ishlari bajaruvchilaridan tashqari;
 - brokerlar, dilerlar;
 - barcha nomdagi buxgalterlar;
 - geologlar, gidrologlar;
 - hujjat yurituvchilar;
 - muhandislar;
 - konstruktorlik, loyihalash va texnologik ishlarni bajaruvchilar;
 - loyihalar, matematik ta'minot, algoritmlar va axborotlarning mashinada ishlash dasturlarini ishlab chiqarishda band bo'lganlar;
 - patent, ixtirolar, ratsionalizatorlik ishlari bilan, ilmiy-texnika aborotlari bilan band bo'lganlar;
 - ishlab chiqarish laboratooriyalaridagi;
 - metrologiya va standartlashtirishda band bo'lgan muhandislardan tashqari;
 - instruktorlar, jismoniy tarbiya va sport, madaniy-ommaviy ishlar, ishlab chiqarish va mehnatni ilg'or usullari bo'yicha instruktorlardan tashqari;
 - inspektorlar pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lash, nafaqaxo'rlarga, qariyalarga va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha inspektorlardan tashqari;
 - fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvi bo'yicha hududlarga birlashtirilgan organlari, mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tumanlar, shahar bo'linmalarining ishchilari;
 - san'atshunoslar;
 - kartograflar, koloristlar;
 - nazoratchilar, nazorat, saqlash qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallarni navlarga ajratish va berish bo'limlarining nazoratchilari va mutaxassislaridan tashqari;
 - marksheyderlar;
 - metodistlar, o'quv muassasalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, metodik kabinetlar (metodik xonalar)ning metodistlaridan tashqari;
 - mexaniqlar, asbob-uskunalarini ishlatish, sozlash va ta'mirlashda band bo'lgan mexaniqlardan tashqari;
 - normirovchilar (normachilar, me'yorchilar);
 - taftishchilar, muharrirlar;
 - farmakologlar, farmatsevtlar (dorishunoslar);
 - barcha nomdagi iqtisodchilar, loyihalar va konstruktorlik tashkilotlarining ishlab chiqarish bo'linmalarida loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslashda band bo'lganlardan tashqari;
 - statistikachilar, mehnatni tashkil qilish bo'yicha sotsiologlar, texnologlar, mehnat bo'yicha fiziologlar;
 - znergetiklar, epidemiologlar, ekspertlar, olimlardan tashqari;
 - maslahatchilar, jumladan iqtisodiy maslahatchilar, referentlar;
 - yuriskonsul'tlar va boshqaruv xodimlarining boshqa mutaxassislari.
- Barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining xizmat ko'rsatuvchi xodimlari lavozimlari.* Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning lavozimlari:
 - haydovchilar (boshqaruv xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi);
 - garderobchilar (ustki kiyim boshni qabul qilib oluvchi);
 - hududni yig'ishtiruvchilar;
 - komendantlar;
 - lifterlar;
 - duradgorlar (davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida);
 - binolar va inshootlarga joriy va mukammal ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatuvchi ishchilar;
 - chilangan-santexnikalar;
 - qorovullar (vaxterlar);
 - bog'bonlar;
 - farroshlar;

-elektr montyorlar, navbatchi ma'muriy boshqaruvchilar, yuk tashuvchilar, yordamchi ishchilar, kuzatuvchilar, shveysarlar va boshqalar.

Barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik xodimlarining lavozimlari. Texnik xodimlarning lavozimlari:

- agentlar, buyurtmalar bo'yicha, tashishlarga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha, yuklarni tashish bo'yicha agentlardan tashqari;

- arxivariuslar;

- kutubxonachilar;

- ruxsatnoma byurosining navbatchilari;

- ish yurituvchilar;

- dispatcherlar;

- xo'jalik mudirlari;

-ish haqini beruvchi va pul hujjatlarini bank tashkilotlariga etkazib beruvchi kassirlar;

- omborchilar (kladovhik);

- mashinistkalar;

- ko'paytiruvchi, nusxa ko'chiruvchi texniklar, EHM operatorlari;

- rahbarlarning kotiblari, kotib-referentlar;

- hisobchilar;

- telefonistlar;

-hisoblash texnikasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha texniklar va muhandislar;

- ekspeditorlar, kod qo'yuvchilar, korrektorlar, kur'yerlar (feldegerlar), pasportislar (pasport beruvchilar), ma'lumot va axborot materiallarini yig'uvchilar va ishlov beruvchilar; xizmat ko'rsatish sohasidagi buyurtmalar, tovarlarni qabul qilib oluvchilar, radiotexniklar, registratorlar, xo'jalik xodimasi, smetachilar, pochta jo'natmalarini va bosma asarlarni navga ajratuvchilar, tabel to'ldiruvchilar, taksirovkachilar, tarifikatorlar, telegrafistlar, hisobchilar, xronometraj qiluvchilar, shifr qiluvchilar va boshqalar.

Yuqorida qayd etilgan ro'yxatlarga boshqa lavozimlarni kiritish yoki ro'yxatning tarkibiga o'zgartirishlar kiritish davlat va xo'jalik boshqaruvi organining faoliyat xususiyatini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu ro'yxatni kiritish munosabati bilan boshqaruv xodimlarining avval tasdiqlangan soni, avval boshqaruv xodimlari ro'yxatiga qo'shiladigan texnik xodimlar lavozimlari soniga kamaytiriladi.

3.4.2.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatining me'yorlarini belgilash qo'llanmasi

Ushbu qo'llanmada (uslubiyotda) qo'llaniladigan asosiy ta'riflar: a) xodimlar - korxona, tashkilot, muassasaning yollash asosida ishlaydigan, va ishchilarning umumiy cheklangan soniga qo'shiladigan, barcha ishchilarning yig'indisi:

b)xodimlarning cheklangan umumiy soni - korxona, tashkilot, muassasaning mehnatini tashkil qilish va texnologik rivojlanishning mavjud darajasida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo'lgan xodimlarning maksimal soni. Xodimlarning cheklangan umumiy soni quyidagicha belgilanadi:

hukumatning qarorlariga muvofiq tashkil qilingan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari uchun Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qaqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va hokimliklarning qarorlari bilan. Bunda, ularning hududiy va qaramog'idagi bo'linmalar uchun cheklangan umumiy soni davlat va xo'jalik boshqaruvi organining umumiy cheklangan soniga qo'shiladi;

hukumatning tegishli qarorisiz tashkil qilingan xo'jalik boshqaruvi organlari (mustaqil ravishda) uchun va davlat mulki ulushi qatnashgan xo'jalik sub'ektlari, korxonalari va unitar davlat korxonalari uchun - xo'jalik boshqaruvining yuqori organlari va (yoki) xo'jalik sub'ektining yuqori boshqaruv organi tomonidan.

Xodimlarning cheklangan umumiy soni boshqaruv xodimlarini, korxonaning asosiy (ishlab chiqarish) xodimlarini, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni (yordamchi xodimlar) o'z ichiga oladi;

v)boshqaruv xodimlari - taqsimlovchi funktsiyalarni bajaruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, zarur qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, korxona, tashkilot va muassasalar

faoliyati jarayonlarini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi ishchilar. Boshqaruv xodimlari korxona, tashkilot va muassasaning oldiga qo'yilgan maqsadlar va vazifalariga erishish uchun zarur tashkiliy-texnik sharoitlarni hamda belgilangan funktsiyalar va ishlab chiqarish dasturlarini bajarilishini ta'minlaydi;

g) rahbarlar (ma'muriy-boshqaruv xodimlari) - me'yoriy hujjatlarga muvofiq (nizomlar, ichki tartib qoidalari) ma'muriylashtirish funktsiyalari, korxona, tashkilot va muassasa nomidan harakatlanish, taqsimlash huquqlariga va vakolatlariga (ma'muriy funktsiyalar) ega bo'lgan, qaromog'idagi (bo'ysunishidagi) xodimlarga rahbarlik qiluvchi (ishlab chiqarishga oid bo'lgan topshiriqlarni taqsimlash, xodimlarni joy-joyiga qo'yish), korxona, tashkilot va muassasaning, shuningdek bo'linmalarining faoliyatini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi, farmoyishlarni, topshiriqlarni bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi korxona, tashkilot va muassasalar boshqaruv xodimlarining bir qismi. Ma'muriy-boshqaruv xodimlariga quyidagilar kiradi: korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari; tarkibiy bo'linmalarining (mustaqil boshqarmalar va bo'limlar, sexlar, shoxobchalar, vakolatxonalar) rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh muhandislar, bosh buxgalterlar va ularning o'rinbosarlari, diskretsiya vakolatlariga ega bo'lgan (ya'ni, o'z xohishiga binoan harakatlanish huquqi berilgan) bosh menejerlar, ishlab chiqarish uchastkalarining masterlari (o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish uchastkalari masterlaridan tashqari) va boshqalar;

d) boshqaruv xodimlar mutaxassislari - asosiy bajaradigan funktsiyasiga boshqariladigan ob'ekt to'g'risidagi axborotlarni tayyorlash va tahlil qilish, boshqaruv ob'ektlarining berilgan parametrlarini ta'minlash bo'yicha qarorlarni tayyorlash, hisobga olish, saqlash, texnologik jarayonlarni tashkil qilish, smeta-moliya materiallarini tayyorlash va boshqa funktsiyalar kiruvchi boshqaruv xodimlarining bir qismi. Boshqaruv xodimlar mutaxassislari taqsimlash vakolatlariga, shuningdek korxona, tashkilot va muassasalarning nomidan harakatlanish huquqlariga ega emaslar. Alohida holatlarda boshqaruv xodimlar mutaxassisiga o'zidan past toifadagi mutaxassisga rahbarlik qilish vakolatlari berilishi mumkin;

j) korxonaning asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari - bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi, korxonaning iqtisodiy faoliyat turlari tasnifligichiga mos keluvchi asosiy mahsulotlarni (xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha funktsiyalarni, shuningdek yordamchi ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish dasturida belgilangan yo'ldosh mahsulotlarni (xizmatlar) ishlab chiqarish bo'yicha funktsiyalarni bajaruvchi ishchilar. Asosiy xodimlarga boshqaruv xodimlar qatoriga tegishli bo'lmagan muhandislar va texniklar, bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi ishchilar, kichik mutaxassislar va boshqa ishchilar kiradi;

z) korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning yordamchi xodimlari - o'z ichiga boshqaruv xodimlarining faoliyatini ta'minlash funktsiyasini amalga oshiruvchi texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni oladi. Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlarining ro'yxati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan boshqaruv, xizmat ko'rsatish va texnik xodimlar lavozimlari ro'yxatiga binoan belgilanadi;

i) korxona, tashkilot va muassasaning texnik xodimlari - bu funktsiyasi boshqaruv xodimlarining faoliyatini ta'minlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarishdan iborat bo'lgan xodimlardir (bosma, ko'paytirish va arxiv ishlari, kutubxona ishi, hujjatlarni etkazib berish, kompyuter texnikasiga xizmat ko'rsatish, kantselyariya, kotiblik va boshqa ishlar);

k) korxona, tashkilot va muassasaning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari - bu funktsiyasiga binolar va hududlarga texnik va xo'jalik xizmatini ko'rsatish, ularni muhofaza qilish, boshqaruv xodimlariga transport xizmatini ko'rsatish, shuningdek, korxona, tashkilot, muassasalarning boshqaruv va asosiy (ishlab chiqarish) xodimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa ishlar, jumladan ijtimoiy-maishiy xizmatlar qiluvchi xodimlardir;

l) ishchilar soni normasi - davlat va xo'jalik boshqaruvchi organlarining aniq maqsadlari, vazifalari va funktsiyalarini, hamda korxonaning ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirish uchun ishchilar uchun belgilangan son;

m) boshqaruv normasi - bevosita bitta rahbarga bo'ysunadigan ishchilarning maqbul soni. Korxona, tashkilot va muassasalarning yuqori rahbarlik tarkibi uchun - boshqariluv normasi bevosita rahbarga bo'ysunadigan tarkibiy bo'linmalarining maqbul sonini belgilaydi;

n) namunaviy shtatlar - tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning maqsadlari, vazifalari, funktsiyalari va ishlab chiqarish dasturlarining bajarish uchun kerak bo'lgan sonini ko'rsatgan holda doimiy ishchilarning lavozimlar ro'yxati. Namunaviy shtatlar bir xil yo'nalishni va

birxil turdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maqbul nisbatlari hisob-kitobidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Bunda, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlarining jadvalda belgilangan normativlar va shartlardan kelib chiqqan holda kiritish tavsiya etiladi;

o) shtat jadvali - mulk egasi, rahbar yoki yuqori organ tomonidan tasdiqlangan bir xil lavozimlar va lavozim maoshlari miqdorini ko'rsatgan holda doimiy ishchilarning lavozimlar nomi. Shtat jadvali korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tarkibiy bo'linmalarining lavozimlarining tegishli toifalardagi ishchilar bilan butlash huquqini beradi;

p) xodimlar sonining nisbati - korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning boshqaruvchanligini saqlab qolish sharti bilan, maqsad vazifalarga erishish, belgilangan funktsiyalarni bajarishda boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarni saqlash uchun eng kam harajatlarni ta'minlash maqsadida texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sonini boshqaruv xodimlari soniga bo'lgan nisbatining maqbul proportsiyalarini belgilovchi normativlardir.

Xodimlar sonining nisbati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$X_u(\%) + X_t(\%) + X_b(\%) = CHS(100\%),$$

bunda $X_b(\%)$ -boshqaruv xodimlarning belgilangan soni, foizlarda; $X_t(\%)$ -texnik xodimlarning soni, foizlarda; $X_x(\%)$ -xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning soni, foizlarda; $CHS(100\%)$ - xodimlarning umumiy cheklangan soni, foizlarda.

Ushbu formula boshqaruv xodimlarning bitta ishchisiga hisoblangan texnik va xizmat ko'rsatuvchi ishchilar sonining nisbatini aks ettiruvchi ko'rinishga keltiriladi:

$$1X_b : X_t : X_b : X_x : X_b$$

Davlat boshqaruvi organlarining boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni nisbatining normativlarini belgilash. Davlat boshqaruvi organlarining umumiy cheklangan soniga quyidagilar kiradi: tashkilot, muassasa va korxonalarning boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari. Davlat boshqaruvi organlarining alohida tarkiblarida patent ekspertiza va boshqa ishlarni bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarish bo'linmalarni ajratishi mumkin.

Tashkilotlar va muassasalarning boshqaruv xodimlari tarkibidan quyidagilar alohida ajratiladi: ma'muriy-boshqaruv xodimlari va boshqaruv xodimlar mutaxassislari.

Davlat boshqaruvi organlarining boshqaruv xodimlari sonini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

a) boshqaruvchilik normalari. Quyidagilar uchun boshqariluvchanlikning maqbul normasi; tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari uchun, odatda 1-ta rahbarga hisoblangan 4-9 tagacha bo'ysunuvchi ishlar tashkil qiladi (mustaqil bo'lim yoki boshqarma) (boshqaruvchanlikni katta normasida boshqarishning samaradorligi pasayadi);

tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari, odatda 3-5 tagacha tarkibiy bo'linmalar;

b) davlat boshqaruvi organlarining tarkibiy bo'linmasiga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalarning soni va murakkablik darajasi;

v) boshqarish ob'ektlarning soni-bo'ysunuvchi hududiy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar;

g) davlat boshqaruvi organining faoliyatini tavsiflovchi boshqamaxsus omillar (ya'ni, fuqarolarning murojaatlari, texnika bilan qurollanganlik darajasi, xodimlarning malakasi va o'zaro bir-birining o'rnini bosishi va boshqalar).

Davlat boshqaruvi organlarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

- binolar, inshootlar va birlashma va muassasalarning hududlariga xizmat ko'rsatish normalari;

- ish vaqtning normal davomiyligida ishni smenaliligi;

- doimiy yoki vaqti-vaqti bilan xizmat ko'ratishni talab qiladigan tashkiliy texnikaning mavjudligi;

- hujjatlarni arxivlashtirish va ularni kataloglashtirishlik zaruratining mavjudligi;

- boshqa maxsus omillar ya'ni, kurer yordamida doimiy ravishda xizmat pochtasini etkazib berish, kutubxonachilik ishini yuritish va h.k.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sonini boshqaruv xodimlar soniga maqbul nisbatini belgilash uchun, asos qilib boshqaruv xodimlarning belgilangan cheklangan soni olinadi.

8. Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar lavozimlarini kiritish bo'yicha belgilash normativlardan kelib chiqqan holda, xodimlarning ko'rsatilgan toifalaridan har bir lavozim bo'yicha texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hisoblangan soni belgilanadi:

N_{tx} -texnik xodimlarning soni va N_{xx} -xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning soni.

Boshqaruv xodimlarning belgilangan sonini texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soniga qo'shishi yo'li orqali xodimlarning soniga qo'shish yo'li orqali xodimlarning umumiy cheklangan soni belgilanadi:

$$N_{bx} + N_{tx} + N_{xx} = CH_s$$

Boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mos ravishda xodimlarning belgilangan cheklangan umumiy sonidagi solishtirma og'irligi quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{bx}(\%) = N_{bx} / CH_s \times 100; N_{tx}(\%) = N_{tx} / CH_s \times 100; N_{xx}(\%) = N_{xx} / CH_s \times 100$$

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning olgan ulushlari boshqaruv xodimlari tomonidan olingan ulushlarga bo'lish yo'li orqali texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning nisbati quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Texnik xodimlarni boshqaruv xodimlarga nisbati} = N_{tx}(\%) / N_{bx}(\%)$$

$$\text{Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni boshqaruv xodimlariga nisbati} = N_{xx}(\%) / N_{bx}(\%)$$

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sonini hisoblangan maqbul nisbatlari, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari xodimlarining umumiy cheklangan sonida ma'muriy boshqaruv xodimlarining ulushlar nisbati jadvalda keltirilgan.

Davlat boshqaruvi organlarining, tashkilot va muassasalarning shtat jadvalini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan, ishchilarning umumiy cheklangan sonidagi xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning sonini nisbatidan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi. Bunda chetga chiqish 10 foizdan ko'p bo'lmasligi kerak.

Agarda tashkilot yoki muassasa ijaraga olingan joyda joylashgan bo'lsa va unda bino, inshoot va hududga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni saqlash zarur darajagacha kamaytiriladi. Mos ravishda xodimlarning umumiy cheklangan soni ham kamaytiriladi.

Xo'jalik boshqaruv organlarida boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning umumiy cheklangan soni va nisbatlar normativlarini belgilash (korporatsiyalar, assotsiyatsiyalar, ishlab chiqarish birlashmalari, kontsernlari, milliy kompaniyalar va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlar apparati).

Xo'jalik boshqaruvi organlarining xodimlarining cheklangan soniga odatda boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar kiritiladi.

Alohida hollarda, agarda yuqori organning qaroriga muvofiq xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga bo'linmalar huquqi ostida loyiha-konstruktorlik-texnologiya bo'limlari, texnik bo'linmalar, laboriyatorlar, patent-eksperiment byurosi va ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa bo'linmalar qo'shilgan bo'lsa, ushbu bo'linmalar xodimlari hisobga olinadi va asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari toifasiga ajratiladi.

Bunda, ko'rsatilgan bo'linmalarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlari boshqaruv xodimlar lavozimlari ro'yxatga muvofiq boshqaruv xodimlari tarkibida hisobga olinadi.

Boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning cheklangan sonini belgilashda ushbu qoidaning bandida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar hisobga olinadi.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning sonini boshqaruv xodimlar soniga maqbul nisbatlarni aniqlashda umumiy cheklangan sonidan asosiy (ishlab chiqaruvi) xodimlar ayirib tashlanadi. Nisbatlar hisob-kitob xodimlar soni nisbatini hisob-kitobga o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonining maqbul hisoblangan nisbatlari, hamda xo'jalik boshqaruvi xodimlarining umumiy cheklangan sonidagi ma'muriy-boshqaruv xodimlarining ulushining nisbati jadvalda keltirilgan.

Tashkilotlar va muassasalar, xo'jalik boshqaruvi organlarining shtat jadvalarini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan ishchilarning umumiy cheklangan sonidagi xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarni cheklangan nisbatdan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi, bunda chetga chiqish 10 foizdan ko'p bo'lmasligi kerak.

Agarda tashkilot yoki muassasa ijaraga olingan joyda joylashgan bo'lsa va unda bino, inshoot va hududga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning saqlash zarurati bo'lmasa, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning soni zarur darajagacha kamaytiriladi. Mos ravishda xodimlarning umumiy cheklangan soni ham kamaytiriladi.

IV. Xodimlarni saqlash. Boshqaruv xodimlarini saqlash o'z ichiga boshqaruv xodimlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bevosita harajatlarni o'z ichiga oladi, jumladan:

- mehnatga haq to'lash bo'yicha, jumladan boshqaruv va yordamchi xodimlarning barcha ustamolari, qo'shimcha haq to'lashlar va mukofotlar bo'yicha harajatlar;
- ish beruvchilarning qonunchilik bilan belgilangan ajratmalari;
- kantselyariya harajatlari;
- boshqaruv xodimlarining mehnat safarlari bilan bog'liq harajatlari;
- kommunal xizmatlarga (agar boshqaruv xodimlari shaxsiy binoda joylashgan bo'lsa) va bino va xonalarning (agar boshqaruv xodimlari ijaraga olingan bino yoki xonalarda joylashgan bo'lsa) ijara bo'yicha harajatlar;
- aloqa xizmatlari;
- xizmat avtotransportini yollash va undan foydalanish, asbob-uskunar va tashkiliy texnikdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar;
- boshqa harajatlar (yonilgan va asoslangan tarzda).

Byudjetdan moliyalanadigan tashkilotlar va muassasalarning boshqaruv xodimlarini saqlash belgilangan tartibda tasdiqlangan harajatlar smetasi chegarasida amalga oshiriladi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarining byudjetdan tashqari manbalari, jumladan quyi bo'linmalardan va belgilangan tariflardan ajratmalar hisobiga moliyalanadigan boshqaruv xodimlarini saqlash, tashkilot, muassasaning oliy boshqaruv organi (kuzatuv kengashi, aktsonerlarning umumiy yig'ilishi va ustav yoki boshqa ta'sis hujjatlariga binoan boshqa organlar tomonidan) tomonidan tasdiqlanadigan harajatlarning yillik smetasi chegarasida amalga oshiriladi.

Harajatlarning tasdiqlangan yillik smetasidan kelib chiqqan holda har bir qaramoqdagi korxona bo'yicha boshqaruvning yuqori turuvchi bo'g'inlariga foizlarda yoki absolyut summada yillik ajratmalarning miqdorlari belgilandi.

Hukumatning qarorlariga muvofiq qaaramoqdagi korxonalarining majburiy ajratmalari hisobidan saqlash amalga oshiriladigan xo'jalik boshqaruvi organlari uchun, ularni saqlash bo'yicha tasdiqlangan xrajatlar smetasi chegarasida tushgan mablag'larga soliq solinmaydi.

Harajatlarning tasdiqlangan smetsidan ortiqcha tarzda tushgan summalar belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Mulk shaklidan va moliyalash manbalardan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlar har chorakda O'zbekiston Respublikasining statistika bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklga binoan statistika organlariga xodimlarni saqlash bo'yicha hisobotni topshiradilar. Byudjet tashkilotlari statistika organlari topshiriladigan hisobotdan tashqari har chorakda balansga ilova qilinadigan tarmoqlar, shtatlar va kontingentlar bo'yicha hisobotlarda alohida qatorda boshqaruv xodimlarning soni bo'yicha bajarishni aks ettiradilar.

3.3-jadval. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining me'yorlari va ularni kiritish shartlar.

3.3.1-jadval. Xizmat ko'rsatuvchi personal

№	Lavozimning nomi	Lavozimni kiritish shartlari
1	Xizmat transport haydovchilari	2-smena - korxonaning rahbariga; 1,5-smena - tashkilot rahbarining har bir o'rinbosariga, navbatchi avtomobillar:- boshqaruv xodimlarning har 100 tasiga 1,5 smena
2	Hududni tozalovchilar (farroshlar)*	Tozalanadigan hududning 2,5 ming kv metriga 1 ta birlik
3	Ruxsat berish byurosining navbatchisi**	1-smenada ishlaydigan tashkilot uchun 1 ta birlik
4	Farrosh**	Yig'ishtiriladigan 55 kv metr maydonga 1 ta birlik
5	Elektromanter	Boshqaruv xodimlarining soni 100 ta kishidan kam bo'lgan tashkilotga 0,5 ta birlik
6	Chilangar-santexnik**	1 ta birlik (binolarda joriy va mukammal ta'miri bo'yicha ishchi yo'q bo'lganda)
7	Qorovullar**	Kecha-kunduz ish rejimida bitta tashkilotga 4-5 ta birlik, bir smenali ish rejimida (tungi navbatchi) 3 ta birlik bitta tashkilotga
8	Liftyorlar**	Lift mavjud bo'lganda 1 ta birlik

9	Binoni ta'mirlash va joriy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishchi**	Boshqaruv xodimlarining soni 100 kishidan kam bo'lgan tashkilotga 1 ta birlik boshqaruv xodimlarining soni 100 kishidan ortiq bo'lgan tashkilotlarga 2 ta birlik (elektromontyor va chilangar-santexnik o'rniga kiritilgan)
10	Boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodim	Moliya va mehnat bo'yicha organlar bilan kelishilgan holda tashkilotning xususiyatini hisobga olish zarurati bo'lganda kiritiladi.

3.3.2-jadval. Texnik jodimlar

№	Lavozimning nomi	Lavozimni kiritish shartlari
1	Arxivarius	Har birida 200 ta varaq bo'lgan 6000 ta delolarga (hujjat) 1 ta birlik (mahsus arxiv tashkilotlardan tashqari)
2	Kutubxonachi	2000 tadan kam bo'lmagan hisob birliklariga ega bo'lgan kutubxona mavjud bo'lsa (maxsus kutubxona tashkilotlaridan tashqari)
3	Ish yurituvchi	Boshqaruv xodimlarining har 50 tasiga 1 ta birlik
4	Kotib-referent, rahbarning kotibi	Har bir tashkilotning rahbari va uning o'rinbosariga 1 ta birlik
5	Kassir	Bitta tashkilotga 1 ta birlik
6	Nusxa ko'chiruvchi, ko'paytiruvchi mashinalarining operatori	Bitta smenada o'rtacha 500 ta nusxa hisoblanda 1 ta birlik
7	Xo'jalik mudiri	1 ta tashkilotga 1 ta birlik.
8	Kompyuter texnikasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik (muhandis)	Kompyuter va tashkiliy texnikaning har 50 tasiga 1 ta birlik
9	Ekspeditor	Boshqaruv xodimlarning soni 100 tadan ortiq bo'lganda 1 ta birlik
10	Telefonist xodim	Mustaqil ichki ATS mavjud bo'lganda 1 ta birlik
11	Teletaypchi	Bitta teletaypga 1 ta birlik
12	Boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodim	Moliya va mehnat bo'yicha organlar bilan kelishilgan holda tashkilotning xususiyatini hisobga olish zarurati bo'lganda kiritiladi.

*Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning lavozimlarini kiritish ish vaqi mobaynida to'liq band bo'lishni hisobga olgan holda tegishli sharoitlar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

**Bino (xona) ijaraga olinganda ko'rsatilgan lavozimlar kiritilmaydi yoki moliya organlari bilan kelilishgan holda kiritiladi (ijara to'g'risida shartnoma taqdim qilingan holda).

3.4-jadval Davlat boshqaruvi organlari xodimlarining toifalar sonining hisoblangan nisbatlari

3.4.1-jadval. Boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan kelib chiqqan holda respublika darajasidagi davlat boshqaruvi organlari

Boshqaruv xodimlarining belgilangan soni	Xodimlarning umumiy cheklangan %	Boshqaruv xodimlari	Yordamchi xodimlar	Jami mutaxassislar	MBX xodimlari	BX xodimlari	Jami texnik xodimlar	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	70	17	53	30	19	11	1:0,27:0,16
51-100 tagacha	100	77	17	60	23	14	9	1:0,18:0,12
101-200 tagacha	100	80	15	65	20	13	7	1:0,16:0,0
201 va undan ortiq	100	80	14	69	17	10	7	1:0,12:0,08

3.4.2-jadval.Boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan kelib chiqqan holda hududiy darajadagi davlat boshqaruvi organlari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan soni	Xodimlar ning umumiy cheklang an %	Bosh qaru v xodi mlari	YOrda mchi xodiml ar	Jami mutax assisla r	MBX xodimla ri	BX xodimla ri	Jami texnik xodimla r	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	71	18	53	29	20	9	1:0,28:0,12
51-100 tagacha	100	78	16	62	22	15	7	1:0,19:0,09
101 va undan ortiq	100	84	16	68	16	10	6	1:0,12:0,07

3.4.3-jadval.Boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan kelib chiqqan holda tuman bo'g'inidagi davlat boshqaruvi organlari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan soni	Xodimlar ning umumiy cheklang an %	Bosh qaru v xodi mlari	Yorda mchi xodiml ar	Jami mutax assisla r	MBX xodimla ri	BX xodimla ri	Jami texnik xodimla r	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	75	19	56	25	16	8	1:0,22:0,11
51-100 tagacha	100	82	18	64	18	12	6	1:0,15:0,07
101 va undan ortiq	100	87	17	70	13	8	5	1:0,09:0,06

3.4-jadval.Boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan kelib chiqqan holda viloyatlar va Toshkent shahrining hokimliklari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan soni	Xodimlar ning umumiy cheklang an %	Bosh qaru v xodi mlari	Yorda mchi xodiml ar	Jami mutax assisla r	MBX xodimla ri	BX xodimla ri	Jami texnik xodimla r	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	62	19	43	38	24	14	1:0,38:0,22
51-100 tagacha	100	65	17	48	35	22	13	1:0,34:0,2

3.5-jadval.Boshqaruv xodimlarining belgilangan sonidan kelib chiqqan holda tumanlar va shaharlar (Toshkent shahridan tashqari) hokimliklari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan soni	Xodimlar ning umumiy cheklang an %	Bosh qaru v xodi mlari	Yorda mchi xodiml ar	Jami mutax assisla r	MBX xodimla ri	BX xodimla ri	Jami texnik xodimla r	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	68	17	51	32	20	12	1:0,3:0,18

3.6-jadval. Xo'jalik boshqaruvi organlari xodimlarining toifalar sonining hisoblangan nisbatlari.

3.6.1-jadval.Tarkibida asosiy (ishlab chiqarish) xodimlarga ega bo'lmagan xo'jalik boshqaruvi organlari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan	Xodimlar ning umumiy cheklang	Bosh qaru v xodi	Yorda mchi xodiml ar	Jami mutax assisla r	MBX xodimla ri	BX xodimla ri	Jami texnik xodimla r	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning
-----------------------------------	-------------------------------	------------------	----------------------	----------------------	----------------	---------------	-----------------------	--

soni	an %	mlari						nisbati
50 tagacha	100	68	17	51	20	20	12	1:0,29:0,17
51-100 tagacha	100	75	16	59	25	15	10	1:0,2:0,13
101-200 tagacha	100	78	15	63	22	14	8	1:0,17:0,1
201 va undan ortiq	100	84	15	69	17	11	6	1:0,13:0,06

3.6.2-jadval. Tarkibida asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari bo'lgan xo'jalik boshqaruvi organlari

Boshqaruv xodimlarini belgilangan soni	Xodimlarning umumiy cheklangan %	Boshqaruv xodimlari	Yordamchi xodimlar	Jami mutaxassislar	MBX xodimlari	BX xodimlari	Jami texnik xodimlar	Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning nisbati
50 tagacha	100	72	21	51	28	18	10	1:0,25:0,14
51-100 tagacha	100	78	18	60	22	14	8	1:0,17:0,1
101-200 tagacha	100	85	18	67	15	9	6	1:0,11:0,07
201-300 tagacha	100	86	16	70	14	9	4	1:0,11:0,05
301 va undan ortiq	100	86	15	71	14	7	7	1:0,08:0,08

3.4.3. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar sonining nisbati hisoblangan me'yorlari

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbatining hisoblab chiqilgan me'yorlari 3.7-jadvalda keltirilgan.

3.7 jadval. Boshqaruv xodimlarining sonini me'yorlari

Ko'rsatgichlar	Boshqaruv xodimlarining soni				
	50 tagacha	51-100 ta	101-200 ta	201-300 ta	301 va undan ortiq
	1 - son - boshqaruv xodimlari; 2 - son - xizmat ko'rsatuvchi xodimlar; 3-son - texnik personal				
Respublika darajasidagi davlat boshqaruvi organlari	1;0,27;0,16	1;0,18;0,12	1;0,16;0,08	1;0,12;0,08	1;0,12;0,08
Hududiy darajadagi davlat boshqaruvi organlari	1;0,28;0,12	1;0,19;0,09	1;0,12;0,07		
Tuman (tuman) darajasidagi davlat boshqaruvi organlari	1;0,22;0,11	1;0,15;0,07	1;0,09;0,06		
Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	1;0,38;0,22	1;0,34;0,2			
Tumanlar va shaharlar hokimliklari	1;0,3;0,18				
Tarkibida asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari bo'lmagan xo'jalik boshqaruvi organlari	1;0,29;0,17	1;0,2;0,13	1;0,17;0,1	1;0,13;0,06	
Tarkibida asosiy (ishlab chiqarish) xodimlari bo'lgan xo'jalik boshqaruvi organlari	1;0,25;0,14	1;0,17;0,11	1;0,11;0,07	1;0,11;0,05	1;0,06;0,08

Agarda byudjet tashkilotlaridagi xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarning amaldagi solishtirma og'irligi ushbu qaror bilan belgilanadigan nisbatlardan past bo'lsa, ularni qayta ko'rib chiqish masalasi moliyaviy organlar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

3.5.Davlat xizmatiga personal tanlovi va boshqarish uslubi

Davlat xizmatiga personalii tanlash xizmatchilarning fazilatlarini o'rganish asosida davlat xizmatining maqsad va vazifalariga javob berayotgan tarkibini shakllantirish demakdir.

Boshqacha aytganda, personalni tanlash - tashkilot faoliyatiga xos bo'lgan, u ilgari surayotgan g'oyalarga insonning muayyan xususiyatlarini taqqoslash, nisbat berish. Personalni tanlash va saralash tadbirlarini bir-biridan farqlash kerak. Tanlov jarayoni muayyan lavozimga ijtimoiy institutning belgilangan talablari, faoliyat turlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi,

Tanlashning rasmiy mezonlari davlat xizmatiga kirish vaqtida taqdim etiladigan hujjatlarga qo'yiladigan talablar jumlasiga kiradi. Bu hujjatlar qonun bilan belgilab berilgan. Ular: ariza, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, mehnat daftarchasi, ixtisoslik ma'lumotini tasdiqlovchi hujjatlar va hokazo. Agar talab qilinsa, qonunda ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar ham taqdim etilishi mumkin.

Davlat xizmatchisi quyidagilar bilan shug'ullanishga haqli emas:

1.Pedagogik, ilmiy va boshqa ijodiy faoliyatdan tashqari xaq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga;

2.Shaxsan o'zi yoki ishonchli kishilar orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga;

3.Tijorat tashkilotini boshqarish organlarining a'zosi bo'lishga (agar respublika qonunlarida boshqa narsa ko'zda tutilmagan, unga bu tashkilotni boshqarishda qatnashish topshirilmagan bo'lsa);

4.O'zi davlat xizmatida bo'lgan davlat organida, unga bo'ysunadigan yoki bevosita uning nazoratida bo'lgan organda uchinchi shaxslarning ishi bo'yicha ishonchli vakil bo'lishga;

6.E'lon qilingan maqola, kitob va ommaviy chiqishlari uchun davlat xizmatchisi sifatida qalam xaqi olishga;

7.Jismoniy va yuridik shaxslardan mansab vazifalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan sarmoyalar (sovga, pul mukofoti, ssuda, xizmat, ko'ngilochar o'yinlar, dam olish, transport harajatlari uchun va boshqa xaq olish, shu jumladan, pensiyaga chiqqandan keyin ham) olishga;

8.Respublika Prezidentining ruxsatisiz xorijiy davlatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning mukofotlari, faxriy na maxsus unvonlarini qabul qilishga;

9.Jismoniy va yuridik shaxslar hisobiga xorijga xizmat safariga borishga (O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq shuningdek, respublika davlat hokimiyati organlarining xorijiy dailatlarning davlat organlari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan kelishuvga muvofiq amalga oshiriladigan xizmat safarlari bundan mustasno);

10.Ish tashlashlarda ishtirok etishga;

11.O'zining xizmat mavqeidan siyosiy partiya, jamoat birlashmalari, shu jumladan, diniy birlashmalar manfaatlari yo'lida ularga bo'lgan munosabatni targ'ib qilishga. Davlat organlarida siyosiy partiyalar, diniy, jamoat birlashmalari (kasaba uyushmalaridan tashqari) tuzilmalarini tashkil etishi mumkin emas.

Bundan tashqari, davlat xizmatchisi davlat kafolati bilan ishonchli boshqarmada davlat xizmatini o'tashi vaqtida tijorat tashkilotlarining ustav kapitalidagi o'z aksiyalari ulushini qonunda belgilangan tartibda topshirishi shart.

Fuqarolarni davlat xizmatiga tanlashning ijtimoiy mezonlariga nomzodning yoshi, sog'ligi, mulkiy holati, boshqa davlat xizmatchilari bilan qarindoshlik munosabatlari, davlat tilini bilishi, fuqaroligi bor-yo'qligi va boshqa xil axbopotlarni kiritish mumkin.

Quyidagi hollarda fuqaro davlat xizmatiga qabul qilinmasligi yoki bu xizmatda qoldirilmasligi mumkin:

- qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan fuqaro ishga qobiliyatsiz yoki qobiliyati cheklangan deb topilsa;

- qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan fuqaro muayyan muddatga davlat xizmatida davlat lavozimini egallash huquqidan mahrum etilsa;

- tibbiyot muassasasining xulosasi bilan uning lavozim vazifalarini bajarishga to'siklik qiluvchi kasalligi borligi tasdiqlangan taqdirda;

- davlat siri hisoblangan va qonun bilan muhofaza qilinadigan ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat etilishini rasmiylashtirish jarayonini o'tishdan bosh tortsa, agar davlat lavozimini bajarish bunday ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa;

- davlat xizmatchilari bilan yaqin qarindoshlikda bo'lganda (ota-ona, er-xotin, aka-uka, o'g'il-qiz, opa-singillar, shuningdek, er-xotinlarning aka-uka, opa-singil, ota-onasi va bolalari), ularning davlat xizmati birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi yoki nazoratida bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa;

• fuqarolikdan mahrum etilsa, xorijiy davlat fuqaroligiga o'tgan bo'lsa (davlat xizmatiga ruxsat etilishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bitimlar asosida tartibga solib turiladigan hollar bundan mustasno).

Bundan tashqari, fuqaro davlat soliq xizmati organlariga har yili olgan daromadlari haqida va o'ziga xususiy mulk sifatida tegishli bo'lib, soliq solish ob'ekti hisoblanadigan mol-mulki to'g'risida ma'lumotlar taqdim etishdan bosh tortsa, davlat xizmatiga qabul qilinmaydi. Davlat apparatidagi korruptsiyaga barham berish zaruriyati davlat xizmatchilarining oila a'zolari daromadlariga ham deklaratsiya tuzish tartibining qo'llanilishini talab qiladi.

Ijtimoiy mezonlar nomzodning davlat tilini bilishiga nisbatan talablar, shuningdek, davlat xizmatchisining yosh chegaralarini nazarda tutadi. Chunonchi, davlat xizmatiga kirish huquqini beradigan yosh 18 dan kam bo'lmasligi, davlat xizmati lavozimida bo'lishi yoshi 60 dan oshmasligi kerak. Qonun faqat yuqori, bosh va etakchi davlat xizmatchilarining davlat xizmati lavozimlarida bo'lish yoshini 65 gacha chuzishga yo'l qo'yadi.

Davlat xizmatiga tanlashning kasb-malaka mezonlari ixtisos, kasbiy ta'limga nisbatan talablarni va uning davlat lavozimi ixtisosligiga, kasbi bo'yicha ish tajribasi va stajiga, respublika Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa rasmiy hujjatlarni bilish darajasiga mos kelishini nazarda tutadi.

Respublika qonunlari davlat lavozimlarini egallashga da'vogar bo'lgan shaxslarning kasbiy ta'limi darajasiga nisbatan umumiy talablar quyadi.

Masalan, kichik davlat lavozimini egallash uchun lavozimini talab etuvchi ixtisoslik bo'yicha o'rta kasb-hunar yoki unga teng ma'lumotga ega bo'lish lozim. Etakchi va katta davlat lavozimlari da'vogarlardan "davlat boshqaruvi" mutaxassisligi bo'yicha kasb ma'lumotiga yoki ularga tenglashtirilgan ma'lumotga ega bo'lishini talab qiladi. Yuqori va boshqa davlat lavozimlarini egallash uchun xizmat lavozimi talab etuvchi ixtisoslik bo'yicha oliy kasb yoki unga tenglashtirilgan ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi.

Lavozimni egallash - bu davlat xizmatchisining tayinlash yo'li bilan rasmiylashtirilgan lavozim maqomiga ega bo'lish usulidir. Lavozimni egallashning asosiy usullariga tanlov uyushtirish, nomzodlarni belgilash, tanlab olish, saylash kabi tadbirlar kiradi.

Lavozimni egallash uchun tanlov (konkurs) uyushtirish - lavozimni egallash uchun davogar bo'lgan nomzodlar orasidan lavozimning tegishli talablariga (talov shartlariga) ko'proq mos keladigan odamni aniqlashdir. Tanlov quyidagi shartlarni nazarda tutadi:

- lavozimni egallash uchun, albatta, kamida 2 ta da'vogar bo'lishi shart;
- tanlovda qatnashuvchilarning xususiyatlariga baho berishga vakil qilingan organ (masalan, davlat tanlov komissiyalari) aniqlanishi lozim; da'vogarlarga baho berish mezonlari belgilanishi kerak;
- tanlovni o'tkazish jarayoni rejalashtiriladi; Ko'rsatkichlari boshqa da'vogarlarnikidan yuqori bo'lgan nomzod tanlov goli bo'ladi. Tegishli komissiya qarori bilan rasmiylashtirilgan tanlov natijalari lavozimga tayinlash uchun zarur va egarli asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'sh xizmat lavozimini egallashning asosiy usuli hujjatlar tanlovi va tanlov-sinov hisoblanadi.

Lavozimga nomzodlarni belgilab olish - lavozimni egallashga da'vogar nomzodlar orasidan maxsus vakil qilingan jamoa organining bitta nomzodni tanlab olishi. Lavozimni egallashning bu usuli odatda, da'vogarlarni belgilab olish bosqichida ishtirok etish uchun, albatta, rasmiy belgilarning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Da'vogarlar soni bittadan ortiq bo'lishi shart emas.

Lavozimga nomzodni tanlash — bu tegishli organ yoki mansabdor shaxsning lavozimni egallashga da'vogarlik qiluvchilar orasidan bitta nomzodni tanlashib olishi. Lavozimni egallashning bu usuli nomzodlarni (yoki ularning hujjatlarini) oshkora ravishda muhokama qilishni shart deb hisoblaydi. Bu usuldan, asosan, davlat xizmatining kichik lavozimlarini egallashda foydalanishadi.

Lavozimga nomzodlarni saylash - jamoa a'zolari, saylovchi vakillar va saylovchilarning ovoz berish yuli bilan lavozimga da'vogarlar orasidan munosib nomzodni saylashi. Saylov natijalari lavozimni egallash uchun yetarli shart bo'ladi. Bu deputatlar korpusidan nomzodning davlat lavozimini egallashi, vakillik organlari ma'muriyati rahbarlarini tanlab olishning keng tarqalgan usuli. Ko'pincha jamoatchilik, siyosiy, ilmiy va boshqa shu turdagi tashkilotlarda lavozimni egallash aynan shu usulda amalga oshiriladi.

Boshqarish uslubi. Ko'p hollarda olimlar boshqaruvchilik uslublarini tavsiflash chog'ida mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy printsiplari sifatida yakkaboshchilik yoki kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e'tibor beradi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, uslublarning quyidagicha tasnifi taklif etiladi:

1. *Avtoritar* yoki direktiv uslub. Bunda rahbar o'z irodasini qo'l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, rag'batlantirish na hokazo chora-

tadbirlardan foydalanadi. Bu xil boshqaruvchanlik bevosita buyruq va farmoyishlar berishga asoslanib, boshliqqa so'zsiz bo'ysunishni taqozo qiladi. Bunday vaziyatda xodimlarning mehnat jarayoniga munosabatlari, ayrim shaxsning manfaatlari psixologik jihatdan e'tiborga olishadi.

Bu "ajratib tashla va xukmronlik qil" printsiptiga asoslangan shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday ish yurituvchi rahbar e'tirozlarga, o'rinni maslahat va nazoratga toqat qilolmaydi. Direktiv uslub garchi bir muncha samarali bo'lsa ham, aslida, jamoada muholiflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Lyokin u nihoyatda qulay yoki nihoyatda noqulay sharoitda, shu bilan birta, makroboshqaruv darajasida amalga oshiriladi. Ayrim salbiy jihatlarini e'tirof etmasa, mazkur uslub jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi mumkin. Zero, obro'talab rahbar odatda vazifalarni ancha tezkor va aniq hal qilinishini ta'minlaydi.

2. *Demokratik* yoki kollegiya. 4 uslubda rahbar "inson omili"ga alohida e'tibor beradi. Bunday boshqaruv printsiptiga asoslangan rahbar tashabbuskorlikni rag'batlantiradi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, qo'l ostidagilarga qarorlar qabul qilishda (shu jumladan, kadrlarga oid masalalarda) ishtirok etish imkonini beradi. Xodimni ishontira olish, uning insoniy xislatlari va qobiliyatlariga haqqoniy baho berish tamoyili asosida ish ko'radi, o'z mavqei ustunligini pesh qilmaydi. Eng asosiysi, qar qanday muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlikni xodimlar bilan birga o'z zimmasiga oladi, tanqidga to'g'ri munosabatda bo'ladi.

Demokratik rahbarning boshqarish uslubi muloyim tabiatli bo'ladi. Uning uchun vaziyat taqozosiga ko'ra murosaga borish, ilgari qabul qilingan qarorlari xato bo'lsa, undan voz kechish or hisoblanmaydi. Bunday boshqaruv sharoitida javobgarlikni his qiladigan, ish unumdorligidan manfaatdor bo'lgan, qo'yilgan maqsadlarga erishishning samarali yo'llarini qidirib topadigan xodimlar har tomonlama rag'batlantiriladi.

3. *Liberal* yoki erkin ish yuritish uslubi vositachilik vazifasini yaxshi ko'radigan, xodimlarga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berib qo'yadigan, ish jarayonini zimdan iazorat qiladigan rahbarga xos. Liberal rahbar y qo'l ostidagi kishilarni ishiga aralashmaydi, ular iltimos qilsagicha maslahat beradi, biroq topshirilgan vazifa uchun, javobgarlikni zimmasidan soqit qiladi. Liberal rahbar o'z qarorlarini tavsiyalar ko'rinishida beradiki, ularni bajarish-bajarmaslik xodim ixtiyorida qoladi.

Buning patijasi aniq ishda o'zi bo'larchilik va bo'shanglik kuzga tashlanadi, xodimlar rahbarning zaif tomonlaridan, xususan, qat'iyyatsizligi va loqaydligidan, nizolardan, vaziyatning keskinlashuvidan, masalani kundalang qo'yishdan chuchingadan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi. Liberal uslubda boshqarish, pirovard natijada, jamoada tajribasizlik sodir bo'lishiga, vaziyat ustidai nazorat yo'qolishiga olib keladi. Sog'lom jipslashuv vaziyati umumiy yohud guruhbozlik manfaatlari garoviga aylanadi va rahar shu manfaatlarga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Ko'pincha, bunday vaziyatda, hatto, eng murakkab masalalar ham rahbar ishtirokisiz hal etiladi.

Fanda boshqarish uslublarini boshqacha tavsiflash hollari ham uchraydi. Masalan demokratik, manipulyatorlik va tashkilotchilik (AQSH), analitik, novatordik, konservativ-intuitiv (Yaponiya); avtoritar, patriarxal, maslaxatomuz, kooperativ, dedegativ, avtonom (Germaniya); buyruqbozlik, ishontiruvchi, vakil yuborishlik (Rossiya) usullari ta'riflanadi. Bizniigcha, tavsiflangan personal bilan ishlash uslublari o'rtasida faqat sirdangina farqlar mavjud. Tafovutlar hokimiyat-boshqaruv ta'sirini o'tkazishi «zichligi»ni ifodalagani holida uslublarning turli darajalarga (uch, to'rt, besh yoki olti o'lchovli) bo'linishi bilan bog'liq.

Yuqorida salab utilgan uslublardan birortasi ham sof holda mutlaqo namoyon bo'lmaydi. Hayot har qanday, hatto eng oqilona va ishonarli andozalardan ancha boydir.

Demak, boshqaruvchilik sohasida turli ish shakli va usullarining g'aroyib uyg'unlashuvi ko'zga tashlanadi. Har qanday sharoitda ham konformizmni e'tirof etish lozim. Bu siz jamoa ishini samarali boshqarib bo'lmaydi. Personalga rahbarlik qiliish va kadrlar potentsialini rivojlantirish kontsepsiyalari o'zaro bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan asosiy rahbarlik uslublari bilan belgilanadi.


3.6. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda attestatsiyaning ahamiyati va turlari

Kadrlar ishining muhim jihati — boshqaruv kadrlari faoliyatini baholash hisoblanadi. Bunday baholash kadrlarni samarali tanlash va joy-joyiga qo'yish, kadrlarni taqdirlash tizimini takomillashtirish, ularni lavozim bo'yicha yuqori pog'onara ko'tarish va nihoyat boshqaruv xodimlarining malakasini oshirish uchun zarurdir.

Boshqaruv kadrlari uchun qanday turdagi baholashlar qo'llanishini ko'rib chiqamiz:

1. Shaxsiy faoliyatini majmuaviy baholash — uning barcha vazifalarini qamrab olishdan iborat. Bu muhim va murakkab baholash turidir. Shaxsni majmuaviy baholash xodimning yoki

rahbarning samarali mehnatini bevosita sharti bo'lgan sifatlarni qo'shilishidan kelib chiqadi, (ya'ni uning barcha ish vazifalarini bajarishi).



3.2-chizma. Rahbar shaxs sifatleri modeli.

2.Lokal baholash. Baholash qandaydir bir vazifani yoki uni bir qismini bajarish natijalari asosida amalga oshiriladi. Masalan, direktor faoliyati bir necha vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular ichida korxona mehnatkashlarini shikoyat va takliflarini ko'rib chiqishdir. U ushbu vazifani yaxshi bajarayaptimi yoki yo'qmi? Ushbu vazifani amalga oshirish quyidagi o'lchamlarda baholanadi:

- ularni ko'rish muxlati;
- ularga qanday javob beradi;
- uning rad javobidan keyin odamlarning ushbu shikoyat bo'yicha yuqori tashkilotlarga tez - tez shikoyat qilishlari;
- uning javob shakllari.

Ushbu o'lchamlar rahbarning odamlar bilan ijtimoiy sohada ishlay olishining umumiy ko'rinishini tashkil etadi.

Bu kabi tavsif uning tavsiflari majmuasining bir qismi hisoblanadi. Shunday qilib tavsifnoma bo'yicha xodimning alohida vazifalarini bajarish ishiga beriladigan bahodir.

3.Uzaytirilgan baholash. Ushbu baho mutaxassisni mehnat faoliyatini uzoq muddatda o'rganilishidan iborat. Bu baholash rahbar xizmatining o'tgan davrdagi va joriy faoliyatini tahlil qilishga asoslangan. Bu baholash usuli rahbar va mutaxassislar faoliyatini umumiy tavsifini berishi mumkin.

4.Ekspress baholash (tezkor baholash) faqat rahbarning joriy faoliyatini aks ettiradi. Bu insonni hozirgi davrda namoyon (bo'layotgan sifatleri va qanday ishlayotganini tahlil qiladi.

Kadrlarni baholashning alohida turi — kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishdir.

Attestatsiyaning asosiy maqsadi — xizmatchining egallab turgan lavozimiga loyiqqligini aniqlashdan iboratdir. Agar u mazkur lavozimga loyiq deb topilsa, unda uni yana yuqori lavozimga ko'tarish imkonini qidirish kerak bo'ladi. Shunday qilib, attestatsiya uniig mehnat faoliyatiga berilgan ob'ektiv baho deb bilish mumkin. Shu bilan birga attestatsiyadan kasb mahoratini pahlbatlantirish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin, ya'ni unga eng yuqori malaka berilishi yoki yuqori oylik maoshi ta'minlanishi mumkin.

Attestatsiya 3-5 yilda bir marta o'tkazilishi mo'ljallanadi. Attestatsiyaning aniq ma'nosi, uni o'tkazish usuli va shakli, soha va boshqaruv bo'limlari xususiyatlariga, ixtisoslik turiga, xodimlar kasbiga qarab turli xil bo'lishi mumkin.

Har qanday attestatsiya (uning har qanday shakli) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Attestatsiyadan o'tuvchi qanday ish bajaradi.
2. O'tgan davrdagi ishining sifati.
3. Ishga munosabati.
4. Mehnat intizomiga rioya qilishi.
5. Jamoa faoliyati natijasiga xizmatining qo'shgan ulushi va boshqalar.

Kadrlar bilan ishlashda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash — markaziy masala hisoblanadi.

Kadrlarni tanlash — bu, rahbarlar, xodimlar va mutaxassislarni o'rganish jarayoni bo'lib, undan maqsad ularni vazifaviy majburiyatlarini ma'lum lavozimlarda bajarishga yaroqliligini aniqlashdan iboratdir. Boshqaruv kadrlarini tanlash quyidagi uchta yo'nalishda olib boriladi.

1.Tashkilot ichida boshqaruv xodimini boshqa joylarga o'tkazish bilan (bu xizmat bo'yicha ko'tarish, bo'sh lavozimlarga tayinlash).

2.Rahbarlarni tashqaridan yollash yoki saylov orqali vazifaga qo'yish.

3.Kadrlar zahirasiini maxsus tayyorlash.

Kadrlarni joy-joyiga qo'yish - bu boshqaruv apparatidagi mavjud yoki yollangan kadrlarni uning ichida maqsadga muvofiq taqsimlashdir. Tabiiyki, imkoni boricha kadrlarni to'g'ri taqsimlash zarur.

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish o'ziga xos murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni rahbar shaxsining sifat tarkibi modeli misolida ko'rib chiqamiz (3.2-chizma).

3.7.Davlat organlarining yoki ushbu organlarning mansabdor shaxslarini noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirish tartibi

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul mablag'larini berish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a)davlat organlarining yoki ushbu organlarning mansabdor shaxslarini noqonuniy harakatlari, qarorlari (harakatlari) natijasida etkazilgan moddiy (shu jumladan, davlat daromadlariga o'tkazilgan

mulk qiymati va pul mablag'larini qaytarish) va ma'naviy zarar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash to'g'risida sud qarori chiqarilganda;

b) suddan beriladigan ijro varaqasi taqdim etilganda;

v) oqlangan shaxsga keltirilgan mol-mulk zararini qoplash uchun pul to'lanishi haqidagi sudning ajrimi, tergovchining yoki prokurorning qarori chiqarilganda;

g) tegishli organlar tomonidan mol-mulkni davlat daromadiga o'tkazilishi to'g'risida hukmni bekor qilinishi bo'yicha ajrim yoki qaror chiqarilganda;

d) sud organlarining hibsga olingan mol-mulk qismini ozod qilish (ro'yxatdan chiqarish) to'g'risidagi ajrimi yoki qarori chiqarilganda;

e) kichik bandi deb hisoblanadi

e) sud qarori yoki qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

Ma'naviy va mol-mulkka etgan zararni qoplashga Davlat byudjetidan pul mablag'larini to'lash tartibi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lovlar hududiy moliya organlari tomonidan sudning hukmiga, qaroriga yoki ajrimiga yohud sud tomonidan beriladigan ijro varaqasiga asosan, hamda O'zbekiston Respublikasi jinoiy-protsessual kodeksida ko'zda tutilgan hollarda oqlangan shaxsga etgan mulkiy zararni qoplashga pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risida tergovchi yoki prokurorning qaroriga asosan amalga oshiriladi (keyinchalik - vakolatli organning qarori).

Etgan mulkiy va ma'naviy zararni qoplash vakolatli organlarning qarorlari yuborilgan hududiy moliyaviy organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Agarda zararni qoplash bo'yicha to'lov to'lashni amalga oshirish to'g'risidagi vakolatli organning qarori to'g'ridan-to'g'ri jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim qilingan hollarda, agarda qabul qilingan qarorda boshqa hududiy moliyaviy organ ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning doimiy turar joyidagi (yuridik shaxslar uchun - joylashgan joyi bo'yicha) tegishli hokimiyatning moliya organi tomonidan to'lov amalga oshiriladi.

Mulkiy va ma'naviy zararni qoplashga pul mablag'larini to'lash moliya organi tomonidan tuman (shahar) schyotidan agarda qarorda boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu qaror olingan kundan boshlab o'n kun mobaynida vakolatli organ qarorida ko'rsatilgan bank schyotiga tegishli pul (summalarini) o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Agar vakolatli organ qarorida bank schyoti ko'rsatilmagan bo'lsa, mablag'lar zarari qoplanayotgan shaxs ko'rsatgan bank schyotiga o'tkazilishi mumkin. Bunda, bankdagi schyot raqami, tegishli moliya organiga taqdim etilgan, zarari qoplanayotgan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs rahbarining rasmiy xatida ko'rsatilishi kerak. Hamda xatda:

a) jismoniy shaxslar tomonidan - familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, pasport raqami, olgan joyi va sanasi, hamda boshqa bank rekvizitlari;

b) yuridik shaxslar tomonidan - to'la rasmiy nomi, pochta manzili, soliq to'lovchining shaxsiy raqami, hamda boshqa bank rekvizitlari ko'rsatiladi.

Mulkiy va ma'naviy zararni qoplash uchun tegishli moliya organning hisobxonasi tomonidan to'lov topshiriqnomasi tuziladi. Moliya organining hisobxonasi tomonidan mulkiy va ma'naviy zararni qoplash bo'yicha to'lanadigan to'lov uchun to'lov topshiriqnomasini tuzishga asos bo'lib to'lovni amalga oshirishga ruxsat beruvchi tegishli moliya organi rahbarining rezolyutsiyasi (qarori) hisoblanadi.

Hududiy moliya organlari realizatsiya qilingan mol-mulk summasini qaytarish to'g'risidagi vakolatli organning qarori bajarilgandan So'ng ikki ish kuni mobaynida tegishli vakolatli organi va qaytarish amalga oshirilgan shaxsga (ariza beruvchiga) to'lov topshiriqnomasining nusxasini ilova qilgan holda, ushbu qaror bajarilganligi to'g'risida yozma ravishda xabar beradilar.

Ijro hujjatlari sud akti qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab uch yil mobaynida yoki uni bajarilishda to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga belgilangan muddat tamom bo'lgan vaqtda, yohud ijro hujjatini bajarishga taqdim qilish uchun o'tkazib yuborilgan vaqttni tiklash to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan boshlab bajarishga taqdim qilinishi mumkin.

Mulkiy zararni qoplashga pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risidagi talablar, ushbu to'lovlarni amalgam oshirish to'g'risida qaror yoki ajrim olingan vaqtdan e'tiboran ikki yil mobaynida fuqaro yoki uning meroxo'rlari (ushbu fuqaroni o'limi tufayli) tomonidan da'vo qilinishi mumkin.

Davlat byudjeti daromadlariga o'tkaziladigan pul mablag'larini summalarini va mulk qiymatini suddan tashqari tartibda qaytarish tartibi. Davlat daromadiga o'tkazish to'g'risida tegishli organlar tomonidan qabul qilingan hukmni, ajrimni yoki qarorni bekor qilinishi sababli davlat daromadiga o'tkazilgan pul mablag'larini summalarini va mulk qiymatini suddan tashqari tartibda

qaytarish uchun mulkni (yoki uning qismini) hibsdan (ro'yxatdan chiqarish) ozod shnishi uchun shaxs musodara qilingan pul mablag'lari summasini va mulk qiymatini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan doimiy turar joydagi (yuridik shaxslar uchun - joylashgan joyi bo'yicha) tegishli hokimiyatning moliya organiga murojaat qiladi. Arizada quyidagilar ko'rsatiladi:

a) jismoniy shaxslar uchun - ariza beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, pasport raqami, uning berilgan joyi va sanasi, O'zR bankidagi hisob raqami va bankning boshqa rekvizitlari;

b) yuridik shaxslar uchun - ariza beruvchining to'liq rasmiy nomi, pochta manzili, soliq to'lovchining shaxsiy raqami, bankdagi hisob raqami va bankning boshqa rekvizitlari.

Arizaga, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan quyidagi hujjatlarning nusxalari ilova qilinadi:

a) pulni yoki mulkni davlat daromadiga o'tkaziladigan uchun asos bo'lgan, sud yoki boshqa vakolatli organning qarorini bekor qilinganligini tasdiqlaydigan hujjat;

b) mulkning (yoki uni qismini) hibsdan ozod qilish (ro'yxatdan chiqarish) to'g'risidagi sud organlarining qarori (ajrimi).

Davlat daromadiga o'tkaziladigan pul mablag'lari va mulk qiymati summalarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash pul mablag'lari summasini yoki mulk qiymati summasini qaytarish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Bunda, davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni qiymati (summasi) bo'yicha baholash, davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni chegirib tashlamagan holda, davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni yoki uning qismini hibsdan ozod etish to'g'risidagi vakolatli organlarning qarorlari qonuniy kuchga kirgan kunda amalda bo'lgan shartnomaviy (bozor) narxlarida amalga oshiriladi. Davlat daromadiga o'tkaziladigan pul mablag'larini qaytarish, agar vakolatli organning qarorida boshqa summa ko'rsatilmagan bo'lsa, davlat daromadiga o'tkaziladigan pul summasi hajmida amalga oshiriladi.

Davlat daromadi hisobiga o'tkaziladigan pul mablag'lari va mulk qiymatini qoplashga davlat byudjeti hisobidan to'lanadigan pul mablag'lari ko'rsatilgan tartibda, moliya organining byudjetdan tashqari depozit schyotidagi tegishli pul mablag'larini ariza beruvchining bankdagi schyotiga, ariza olingan kundan boshlab o'n kun davomida o'tkaziladi.

Suddan tashqari tartibda mulk qiymatini qaytarish agar qaytarish haqidagi ariza ushbu mulkni davlat ixtiyoriga o'tkazish bo'yicha qabul qilingan qaror bekor qilingandan boshlab uch yildan kam bo'lmagan muddatda berilgan bo'lsa. Ushbu muddatni tugashi davlat daromadlariga musodara qilingan mulk qymatini va pul mablag'lari summasini sud tartibida qaytarish imkonini bekor qilmaydi.

Moliya organining harakatidan qoniqmagan (norozi) hollarda, shaxs belgilangan tartibda ushbu harakat yuzasidan sudga shikoyat arizasi berishi mumkin.

Davlat byudjetidan mulkiy va ma'naviy zararni qoplashni (davlat daromadlariga musodara qilingan pul summolari va mulk qiymatidan tashqari) amalga oshiradigan manbalar bo'lib, ushbu maqsadlarga belgilangan rejalashtirilgan byudjet ajratmalari hisoblanadi.

Davlat byudjetidan mulkiy va ma'naviy zararni (davlat daromadlariga o'tkaziladigan pul summolari yoki mulk qiymatidan tashqari) qoplash uchun rejalashtirilgan ajratmalar, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetida alohida summada ko'zda tutiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahar mahalliy byudjetlari - tuman (shahar) mahalliy byudjetlari orqali O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan tegishli rejali byudjet mablag' ajratmalari summasini hududlardagi moliya organlariga berilgandan keyin to'lov amalga oshiriladi.

Bunda, tegishli byudjetlarga o'zgartirishlar kiritilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida viloyatlar va mahalliy byudjetlarda ko'zda tutilgan rejalashtirilgan yillik daromadlar va harajatlar hajmarini choraklar bo'yicha taqsimlash, byudjet ijrosi, byudjetda ko'zda tutilgan tashkilotlarni va tadbirlarni moliyalashtirish jarayonida kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olish tartibi to'g'risidagi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkning qiymatining summalarini byudjetdan qoplash manbalari bo'lib, davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan byudjetga tushadigan joriy tushumlar hisoblanadi.

Davlat daromadiga o'tkazilgan mulk summasini qaytarish uchun moliya organi tomonidan qaytariladigan summalar ular tomonidan qaytarishlarni amalga oshirish uchun maxsus

ochilgan byudjetdan tashqari depozit schyotga o'tkaziladi. Shuningdek, ushbu schyotga qaytarish summalari quyidagi tegishli ulushlarda o'tkaziladi:

1) respublika byudjetidan - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

2) tegishli organlarning bank schyotlaridan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulk summasidan o'tkazilgan qismi bo'yicha - ushbu organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu mablag'larni o'tkazish bo'yicha to'lov hujjatlari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi va tegishli organlar tomonidan qaytariladigan summalarni qoplashni amalga oshiruvchi hududiy moliya organidan yozma tarzda xabarnomani olgan vaqtdan e'tiboran ikki ish kuni mobaynida xizmat ko'rsatuvchi banklarga taqdim qilinadi. qaytarish haqidagi yozma xabarnomada hududiy moliya organlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va tegishli organlar tomonidan amalga oshirilayotgan qaytariladigan umumiy summa, qaytariladigan summani ulushi, nusxasi ilova qilingan holda qaytarish to'g'risidagi vakolatli organning qarori rekvizitlari, qaytarish amalga oshirilayotgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, hamda mablag'lar o'tkazilishi kerak bo'lgan depozit schyotining rekvizitlari ko'rsatilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Boshqarish sifatiga qobiliyatni va qabul qilinadigan qarorlarga jinsni, yoshni va ma'lumotni ta'sirini bayon qiling?

2. Xodimlarni boshqarishda o'z-o'zini baholash yo'llarini tushintiring?

3. Muvoqaralar samarasini oshirishning uslublari sanang?

4. Boshqaruv xodimlari sonini qay tariqa tartibga solish mumkin?

5. Boshqaruv xodimlariga sarflanadigan harajatlarni maqbullashtirish chora-tadbirlari qanday bo'lishi mumkin?

6. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlari qanday lavozimlardan tarkib topgan?

7. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni nisbati qanday me'yorlarda belgilangan?

8. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda attestatsiyaning turlari ayyting?

9. Davlat organlarining yoki ushbu organlarning mansabdor shaxslarini noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararlar qaysi mablag' hisobiga qoplanadi ?

Test savollari:

Davlat xizmatchisi quyidagilar bilan shug'ullanishga haqli emas:

a) o'zi davlat xizmatida bo'lgan davlat organida, unga bo'ysunadigan yoki bevosita uning nazoratida bo'lgan organda uchinchi shaxslarning ishi bo'yicha ishonchli vakil bo'lishga;

b) e'lon qilingan maqola, kitob va ommaviy chiqishlari uchun davlat xizmatchisi sifatida qalam xaqi olishga;

v) respublika Prezidentining ruxsatisiz xorijiy davlatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning mukofotlari, faxriy na maxsus unvonlarini qabul qilishga;

g) ish tashlashlarda ishtirok etishga;

d) o'zining xizmat mavqeidan siyosiy partiya, jamoat birlashmalari, shu jumladan, diniy birlashmalar manfaatlari yo'lida ularga bo'lgan munosabatni targ'ib qilishga. Davlat organlarida siyosiy partiyalar, diniy, jamoat birlashmalari (kasaba uyushmalaridan tashqari) tuzilmalarini tashkil etishi;

Lavozimni egallash uchun tanlov uyushtirishda kamida nechta da'vogar bo'lishi talab etiladi?

-kamida 3 ta da'vogar bo'lishi yetarli;

-bitta da'vogar bo'lsa ham bo'ladi;

-kamida 2 ta da'vogar bo'lishi shart;

-qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi.

4 bob. Qonunchilik hokimiyati faoliyati

Tayanch iboralar: senat, qonunchilik palatasini, soliqqa oid, jamg'arma.

4.1.Oliy majlisni yuqorigi palatasi: Senatning faoliyati

O'zR Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir. Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qori Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - olti kishidan saylanadi.

Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zR Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat ishi yalpi majlislarga va uning qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi. Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Senat faoliyatining tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi. Senatni shakllantirish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zR qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Senatning vakolat muddati - besh yil. Vakolat muddati tugagach, Senat yangi chaqiriq Senati ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Senat a'zosi Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Senat a'zosi va qonunchilik palatasi deputati bo'lishi mumkin emas. Senat a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U Senatning rozilgisiz, Senat majlislari oralig'idagi davrda esa, Senat Kengashining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Senat a'zosiga uning senatorlik faoliyati bilan bog'liq harajatlar belgilangan tartibda qoplanadi. Senat a'zosining vakolatlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Senat a'zolari Senatda doimiy asosda ishlashlari mumkin. Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlarning soni senatorlar umumiy sonining to'rtidan birigacha bo'lgan miqdorda belgilanadi. Ular senatorlik vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Senat o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Senat umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi. Senat qarorlari, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Senat va qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

2)O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlari hamda qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

3) O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5)O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasining hokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;

6) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta va krediti ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;

8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;

9)O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

10)tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;

- 11) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish;
 - 12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;
 - 13) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
 - 14) O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tuzish;
 - 15) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi;
- 16) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarini saylash;
 - 17) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
 - 18) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;
 - 19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
 - 20) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - 21) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.
- Palatalarning birgalikdagi vakolatlarga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval qonunchilik palatasida, So'ngra Senatda ko'rib chiqiladi.
- Senatning mutlaq vakolatlari jumlasiga:*
- 1) Senat Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;
 - 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;
 - 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;
 - 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudini saylash;
 - 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisini tayinlash hamda uni lavozimidan ozod etish;
 - 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
 - 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;
 - 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;
 - 9) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;
 - 10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish;
 - 11) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Senat a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;
 - 12) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;
 - 13) Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;
 - 14) Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohaisdagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish kiradi.

O'zR Prezidentining taqdimiga binoan mansabdor shaxslarni Senat tomonidan saylash, tayinlash hamda ularni lavozimdan ozod etish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat faoliyatining tashkiliy shakli uning *majlisidir*.

Senat majlislari zaruratga qarab, lyokin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

Senatning birinchi majlisi Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Senatning birinchi majlisini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Senat raisi saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Senatning navbatdan tashqari majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat raisi taklifiga binoan yoki Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi taklifiga binoan chaqirilishi mumkin.

Faqat Senat majlislarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari m'qullanadi ham Senat hujjatlari qabul qilinadi.

Senat va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, qonunchilik palatasi Spikeri, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Senat majlisiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassisilari va olimlar, matbuot organlarining, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vovitalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Senat majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Senat yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Senat majlislarini tashkil qilish va o'tkazish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi.

Senat va qonunchilik palatasining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga muvofiq qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

Palatalarning qo'shma majlisi ochiq va oshkora o'tkaziladi. Palatalarning qo'shma majlisi, agar unda tegishincha Senat a'zolari va qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Palatalarning qo'shma majlislarida, agar qo'shma majlisda boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi navbatma-navbat raislik qiladi.

Palatalarning qo'shma majlisida eshitilgan masalalar muhokamasi natijalari asosida palatalarning qo'shma qarori qabul qilinishi mumkin. Bunda ovoz berish, qoida tariqasida, alohida-alohida o'tkaziladi.

Senat qo'mitalari:

1) qonunchilik palatasi tomonidan Senatga ma'qullash uchun topshirilgan qonunlar yuzasidan xulosalar beradi;

2) o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan o'z tashabbusi bilan va Senatning topshirig'iga binoan Senat hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadi;

3) qonunni majlis kun tartibiga kiritish yoki uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kirtadi;

4) O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;

5) davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

6) qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini tuzadi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlarini jalb etadi;

7) kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek Senat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

8) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Senat hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotgani haqidagi axborotlarni eshitadi.

Senat muayyan vazifalarni bajarish uchun *komissiyalar* tuzishi mumkin. Komissiyalar Senat majlisida senatorlar orasidan tuziladi. Ayni paytda komissiyani tuzishdan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlari belgilanadi.

Komissiyalar o'z faoliyatini zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin yoki Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlari hamda ularga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ma'qullash uchun senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin.

Ovoz berishning shakli va usuli to'g'risidagi qaror Senat tomonidan Senat majlisida hozir bo'lgan senatorlarning ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Senat ma'qullangan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'n kun ichida yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli.

Senat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida quyidagi hollarda tarqatib yuborilishi mumkin:

Senat tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoki u bir necha marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

Senat bilan qonunchilik palatasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda.

Senat tarqatib yuborilgan taqdirda uch oy mobaynida uning yangi tarkibi shakllantiriladi.

Senat favqulodd holat joriy etilgan davrda tarqatilishi mumkin emas.

4.2.Oliy majlisni quyi palatasi: Qonunchilik palatasini faoliyati

Qonunchilik palatasi O'zR Oliy Majlisining quyi palatasidir. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha palatalarning professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi. Qonunchilik palatasining vakolat muddati qonunchilik palatasining vakolat muddati - besh yil. Vakolat muddati tugagach, qonunchilik palatasi yangi chaqiriq qonunchilik palatasi ish boshlagunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida qonunchilik palatasi deputati va Sanoat a'zosi bo'lishi mumkin emas. Qonunchilik palatasi deputatlari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Qonunchilik palatasi deputati daxlsizlik huquqidan foydalanadi. U qonunchilik palatasining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tomonidan beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Qonunchilik palatasi deputatiga uning deputatlik faoliyati bilan bog'liq harajatlar belgilangan tartibda qoplanadi. Qonunchilik palatasi deputatining vakolatlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi. Qonunchilik palatasi qarorlari, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari jumlasiga:

1)qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan qonunchilik palatasi deputatini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan *majlislaridir*. Navbatdagi sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyul oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi. Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisi saylovdan So'ng ikki oydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chiqariladi.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisini O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi ochadi va qonunchilik palatasi Spikeri saylagunga qadar unda raislik qiladi. Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat Raisi, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin. Qonunchilik palatasi majlisiga davlat organlari va nodavlat tijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarining vakillari, mutaxassislarining va olimlar, matbuot organlarining televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin.

Qonunchilik palatasi majlisleri ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, qonunchilik palatasi yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi majlislarini tashkil qilish va o'tkazish tartibi qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi. Qonunchilik palatasi va qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bekor qilish talabi bilan *parlament so'rovi* yo'llashga haqli.

Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonunchilik palatasi Reglamentda belgilangan muddatlarda qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

Saylovdan keyingi birinchi majlisda qonunchilik palatasining deputatlari orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qonunchilik palatasining vakolat muddatiga qonunchilik palatasi Spikeri saylanadi. qonunchilik palatasi Spikerligiga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi. Qonunchilik palatasi Spikeri o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turadi hamda siyosiy partiya fraktsiyasi va deputatlar guruhi tarkibiga kirishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari qonunchilik palatasi deputatlari orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qonunchilik palatasi vakolati muddatiga saylanadi. qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlariga nomzodlar ko'rsatish va saylash tartibi qonunchilik palatasi Spikeri Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi. Qonunchilik palatasi Kengashi palata majlisleri oralig'ida zaruratga qarab to'lanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

1) o'z tashabbusi bilan yoki qonunchilik palatasining topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi qonunlarining hamda o'zining vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan qonunchilik palatasi boshqa qarorlarining loyihalarini ishlab chiqadi;

2) qonun loyihalarining dastlabki tarzda ko'rib chiqilishini va ularni qonunchilik palatasida ko'rib chiqishga tayyorlashni amalga oshiradi;

3) qonunlarning loyihalari yuzasidan xulosalar beradi, qonun loyihasining qonunchilik palatasining majlisi kun tartibiga kiritish, uning ustida ishlashni davom ettirish yoki asoslantirilgan holda uni rad etish to'g'risida Kengashga takliflar kiritadi;

4) O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti loyihasi yuzasidan xulosalar va takliflar beradi;

5) qonunchilik palatasining topshirig'iga ko'ra yoki palata Kengashining tavsiyasiga binoan muayyan qonun loyihasi yoki palata vakolatlariga kiradigan boshqa masala yuzasidan mas'ul bo'ladi;

6) kiritilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tuziladi, ularning tarkibiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy masalalarning vakillarini, mutaxassislar va olimlarni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlarini jalb etadi;

7) qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari vakillarining ular tomonidan kiritilgan qonun loyihasiga taalluqli masalalar yuzasidan fikrlarini eshitadi;

8) kiritilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, shuningdek, qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar matniga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

9) davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi.

10) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotganligi haqidagi axborotlarni eshitadi.

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin. Komissiyalar qonunchilik palatasi majlisida qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tuziladi. Ayni paytda komissiyani tuzishdan ko'zlangan maqsad va uning vakolatlar belgilanadi.

Komissiya o'z faoliyati zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin yoki qonunchilik palatasining qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatiladi.

Komissiyalarni tashkil etish va ularning faoliyati tartibi qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlar shaklida *deputatlar birlashmalarini* tuzish mumkin.

Fraksiyalar siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini qonunchilik palatasi ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

Deputatlar guruhlarini qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy, siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tuzishga haqli. Qonunchilik palatasi deputatining fraksiyaga yoki deputatlar guruhiga kirishi to'g'risidagi qaror ularning majlislarida qabul qilinadi. Qonunchilik palatasi deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin.

Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin yoki hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka haqli.

Deputatlar birlashmalarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasining kamida to'qqiz nafar deputati *fraksiya yoki deputatlar guruhni* tuzish huquqiga ega.

Fraksiyalar va deputatlar guruhlar ro'yxatdan o'tishi kerak. Qonunchilik palatasining majlisida fraksiya va deputatlar guruhining rahbari yoki boshqa vakili tegishli fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida palataga axborot beradi, bu qonunchilik palatasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi. Qonunchilik palatasi fraksiya va deputatlar guruhi tuzilgani to'g'risida qaror qabul qiladi.

Fraksiyalar va deputatlar guruhi:

1) qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi.

2) qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan muzoqaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalaniladi;

3) kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qo'yadi;

4) qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarning ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi;

5) qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini qonunchilik palatasi deputatlari o'rtasida tarqatadi;

- 6) palataning Kengashi, qo'mitalari va komissiyalari ishida ishtirok etadi;
- 7) qonunchilik palatasi muhokama qilinayotgan qonun loyihalari va boshqa qarorlarning loyihalari yuzasidan o'z takliflarini kiritadi;
- 8) hukumat a'zolarini ularning faoliyati masalalari yuzasidan eshitish to'g'risida masala qo'yadi;
- 9) fraktsiyaning deputatlar guruhining faoliyati uchun zarur materiallar va hujjatlarni davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslaridan talab qilib oladi;
- 10) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Qonunchilik palatasida *qonunchilik tashabbusi* huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihasining qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat harajatlarini ko'paytirish, shuningdek, byudjet moddolari bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijobiy xulosasi bo'lgan taqdirda kiritilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, bir necha o'qishda ko'rib chiqadi. qonun qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Qonunchilik palatasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, konstitutsiyaviy qonuni qabul qilish hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin. Ovoz berishning shakli va usuli to'g'risidagi qaror qonunchilik palatasi tomonidan qonunchilik palatasi majlisida hozir bo'lgan deputatlarning ko'pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullash yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun qonunchilik palatasiga qaytariladi. Agar qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash va e'lon qilish uchun yuboriladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan qonunchilik palatasi va Senat yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida *kelishuv komissiyasini* tuzish mumkin.

Kelishuv komissiyasining har bir palatada ko'rsatilgan a'zolari o'z tarkibidan ko'pchilik ovoz bilan komissiyaning hamraisini saylaydi. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e'tirozini alohida-alohida ko'rib chiqadi. Kelishuv komissiyasi qonunning Senat e'tiroz bildirmagan ayrim moddalarini tahririni o'zgartirish to'g'risida, agar bunday o'zgartirishni Senatning takliflari asosida ishlab chiqilgan qonun moddalarining tahriri taqozo etadigan bo'lsa, qaror qabul qilishga haqli. Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan huloqa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasini tuzish tartibi, komissiyaning tarkibi va ishi Reglamentda belgilanadi. Qonunchilik palatasi faoliyatini moliyalashtirish O'zR Davlat byudjetining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

4.3.Prokuratura organlari faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

soliq intizomini mustahkamlashga soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Prokurorning talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar. Prokuror fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi.

Prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin prokuratura organlarida ular bo'yicha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasnodir.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida prokurorning ishtirok etishi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori tegishincha O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etish huquqiga ega.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli va quyi organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat: O'zR Bosh prokuraturasi; Qoraqalpog'iston R, prokuraturasi; viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; tumanlar va shaharlar prokuraturalari; viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zR Harbiy prokuraturasi, O'z R Transport prokuraturasi; tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zR Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi.

Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida: vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylarning holati to'g'risidagi va uni ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni talab qilishga;

davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

mansabdor shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir. qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror ushbu qonunda hamda boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rishga majbur.

Xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokurorning bevosita aralashishiga, shuningdek idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining *vazifalarini bajarishiga yo'l qo'yilmaydi*.

Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxs quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi: "O'z xizmat vazifalarimni halol va vijdonan bajarishga, qonun buzilishiga qarshi murossasiz kurashishga, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali qasamyod qilaman". Qasamyod qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan belgilanadi.

Prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash, prokuratura organlari va muassasalarining xodimlariga darajali unvonlar va harbiy unvonlar berish hamda ulardan mahrum etish, ularni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish tartibi tegishli nizomda belgilab qo'yiladi. Prokuratura organlari xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'qotar qurol hamda boshqa shaxsiy himoya vositalari olib yurish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq chet el davlatlarining tegishli organlari bilan prokuror nazorati, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamda boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik qiladi.

Prokuratura organlarining moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti respublika byudjeti mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

4.4.Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan soliqlarni va byudjetga boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish hollarini aniqlash, soliqqa oid jinoyatlar va qonun buzilishlarining oldini olish, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish va davlatga etkazilgan zararni undirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Shu bilan birga, Departament va uning joylardagi organlari ishlarining natijadorligi ular oldiga qo'yilgan vazifalarga, birinchi navbatda "yashirin" iqtisodiy faoliyatni aniqlash va oldini olish, xo'jalik, moliya-valyuta sohasida belgilangan qonun normalarini buzish yo'li bilan davlat

manfaatlariga etkazilayotgan jiddiy zararni aniqlash bo'yicha qo'yilgan vazifalarga to'liq javob bermayapti.

Departamentning axborot-tahliliy ishlari darajasi, qo'llanilayotgan tahlil metodlari zamonaviy talablarga javob bermaydi. Ko'p hollarda qonun hujjatlarining ko'rinib turgan buzilishlari aniqlanmoqda. Ayni bir vaqtda jiddiy jinoyatlarga olib kelayotgan chuqur sabablar e'tibordan chetda qolmoqda.

Soliq va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda qat'iyat etishmayapti, soliqlarni to'lashdan bosh tortishning mavjud mexanizmlari va yo'llarini aniqlashga doir ishlar yetarli samara bilan olib borilmayapti.

Huquqni muhofaza qilish va soliq organlari, Moliya vazirligi va uning joylardagi tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash ishlari qoniqarsiz yo'lga qo'yilgan. Valyuta sohasida yo'l qo'yilayotgan qonun buzilishlari va jinoyatlar faoliyat doirasidan chetda qolmoqda.

Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tegishli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi.

Departament o'z faoliyatida O'zR Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zR Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zR Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga amal qiladi.

Quyidagilar *Departamentning asosiy vazifalari* hisoblanadi: -soliq va valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish;

- soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliq, solish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilar to'liq qamrab olinishi va hisobga olinishi, nakd pul mablag'lari muomalasining belgilangan tartibi buzilishiga barham berish;

- eksport, barter va konsignatsiya kontraktlari bo'yicha valyuta mablag'larining xorijdan o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini nazorat qilish;

- xorijiy naqd valyutaning noqonuniy muomalasiga barham berish, qalbaki banknotlarni aniqlash;

- valyuta almashtirish operatsiyalari sohasida suiiste'molliklar va boshqa qonun buzilishi hollarini aniqlash, ularni bartaraf etish yuzasidan tezkor tadbirlarni amalga oshirish;

- respublika hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan xorijiy valyutada ish haqi to'lash va hisob-kitob qilish hollarini aniqlash va ularni bartaraf etish;

- milliy va xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslanganligini, hisob va hisobotning to'liqligini va ob'ektivligini tekshirish;

- xorijiy valyuta mablag'larining noqonuniy aylanishi, chetga chiqib va yashirib qolinishining mavjud mexanizmlari va yo'llarini, ularning noqonuniy aylanishini, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashdan, xorijiy valyutani sotish bo'yicha majburiyatlardan bo'yin tovlash, bosh tortish hollarini, "yashirin" iqtisodiyotni shakllantirish yo'llarini, korruptsiya hollarini aniqlashga qaratilgan samarali operativ-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va o'tkazish;

- amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda o'tkazilayotgan xorijiy valyutadagi operatsiyalar to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, ular bilan ishlash va har tomonlama tahlil qilish;

- valyuta sohasidagi qonun buzilishlari va ularni sodir qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona markazlashtirilgan hisobini yuritish va ma'lumotlarning kompyuter bazasini yaratish;

- xorijiy valyutani sotib olish va import-eksport hamda vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq valyutaga oid qonun buzilishlarini o'rganish va tahlil qilish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan valyutani tartibga solish sohasida o'zaro hamkorlik qilishni va axborotlar almashishni amalga oshirish, bunda jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga (halolab olinishiga) qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor berish;

- normativ-huquqiy bazani, eng avvalo soliq sohasida va valyuta muomalasi sohasida huquqni buzishlarning oldini olish va profilaktikasi sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va takliflar tayyorlash;

- odamlarning huquqiy ongini mustahkamlashga doir muntazam ish olib borish, fuqarolarda iqtisodiy faoliyat, soliq siyosatini amalga oshirish va valyutani tartibga solish sohasida

konstitutsiyaviy normalar va amaldagi qonun hujjatlari bajarilishi zarurligini tushunishni shakllantirish;

-aholida soliq to'lashdan bo'yin tovlash, iqtisodiyot, valyuta va soliq sohasida jinoyatlar sodir etganlik uchun jazoning muqarrarligini tushunishni tarbiyalash.

Departament o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi *funktsiyalarni* bajaradi:

tezkor-qidiruv faoliyati sohasida:

a) quyidagilarning mexanizmlarini o'rganadi va aniqlaydi:

ishlab chiqarish, foyda (daromad) hajmlarini yashirish, sotilgan mahsulot, tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini pasaytirish;

xo'jalik sub'ektlari tomonidan hisobga olinmagan (tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmagan) mahsulotlar (tovarlar) sotilishi;

"yashirin" iqtisodiyotning vujudga kelishi, qaror topishi va faoliyat ko'rsatishi, uning rivojlanishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlar;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq inspektsiyalarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi;

xorijiy valyuta mablag'larining yashirib qolinishi, chetga chiqib ketishi, noqonuniy aylanishi va xorijiy valyutani sotish bo'yicha majburiyatlardan bo'yin tovlash yo'llarini;

b) quyidagilarni amalga oshiradi:

naqd pul muomalasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan naqd pul mablag'lari aylanishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibi buzilishini, shuningdek aktsiz solig'i solinadigan tovarlarning g'ayriqonuniy ishlab chiqarilishi va aylanishini aniqlash, oldini olish va bartaraf etishga doir maxsus tadbirlarni;

solliqlar, yig'img'lar va boshqa to'lovlar to'lashdan, soliq organlariga hisobotlar, soliq deklaratsiyalari va hisob-kitoblar taqdim etishdan qasddan bo'yin tovlashchi soliq to'lovchilarning turar joyini aniqlashga doir tezkor-qidiruv tadbirlarini;

soliq va valyuta haqidagi qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish sohasida:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan byudjetga solliqlar va to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini tekshirish yo'li bilan soliq haqidagi qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni muqobil tekshiradi, tekshirilayotgan (taftish qilinayotgan) tashkilotdagi hujjatlar va ma'lumotlarni pul mablag'lari, moddiy boyliklar va hujjatlar olingan yoki ular berilgan

tashkilotlardagi yozuvlar, hujjatlar va ma'lumotlar bilan solishtiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining o'z majburiyatlarini nohalol bajarishi hollarini aniqlash maqsadida davlat soliq xizmati organlarini nazorat tartibida tekshirishni tashkil etadi;

xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirishda qonun buzilishlarini aniqlash, bartaraf etish, oldini olish, profilaktika qilish chora-tadbirlarini ko'radi;

respublika hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan xorijiy valyutada ish haqi to'lanishi va hisob-kitoblar o'tkazilishi hollarini aniqlaydi va bartaraf etadi;

amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda o'tkazilayotgan xorijiy valyutadagi operatsiyalar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, ular bilan ishlash va ularni atroflicha tahlil qilishni amalga oshiradi;

O'zR'sining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan valyutani tartibga solish sohasida hamkorlik qiladi, bunda jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarning qonuniylashtirilishiga (halolab olinishiga) qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor beradi; surishtiruv olib borish sohasida:

jinoiy ishlar qo'zg'aydi, soliq va valyutaga oid jinoyatlar sodir etilishi hollari yuzasidan surishtiruvgacha tekshirishlarni tashkil etadi va amalga oshiradi;

Departamentning hududiy bo'linmalarida surishtiruv olib borilishini nazorat qiladi;

tashkiliy-nazoratni ta'minlash sohasida:

soliq va iqtisodiyot sohasida huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va barham berishga qaratilgan rejali, rejadon tashqari tadbirlar va boshqa tadbirlar ishlab chiqilishi va bajarilishiga doir tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o'z hududiy bo'linmalarining faoliyatini ijro va xizmat intizomiga, amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan ular tomonidan o'z funktsional majburiyatlari bajarilishi bo'yicha idoraviy tekshirishlar o'tkazadi; kadrlar bilan ta'minlash sohasida;

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, Departament va uning joylardagi bo'linmalari kadrlari zaxirasini shakllantirishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;


Departament va uning hududiy bo'linmalari jamoasida sog'lom ma'naviy-psixologik muhit yaratishga doir tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi, Departament xodimlarining kasb tayyorgarligi va ijtimoiy muhofazasi tashkil etilishini ta'minlaydi;

axborot-tahliliy ishlar, muvofiqlashtirish va huquqiy ta'minlash sohasida:

O'zRsining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga doir qonun hujjatlari qo'llanilishi amaliyotini umumlashtiradi, O'zRsining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini, shu jumladan valyuta almashtirish operatsiyalari, valyuta mablag'larining noqonuniy olib kelinishi va olib chiqib ketilishi sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish hamda profilaktikasi borasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi va Bosh prokurorga kiritadi;

soliq va valyuta haqidagi qonun hujjatlari buzilishi hollarini yig'adi, atroflicha tahlil qiladi va baholaydi hamda tegishli organlarga iqtisodiyot, soliq va valyutaga oid jinoyatlar sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida takliflar kiritadi; valyuta sohasidagi qonun buzilishlarining va ularni sodir qilgan shaxslarning markazlashtirilgan kompyuter hisobini yuritadi; tezkor-xizmat faoliyatini axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi; prokuratura rahbariyatiga iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish natijalari va muammolari to'g'risida axborot beradi; Departament va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishga doir uslubiy ishlarni olib boradi; xodimlarni o'qitishni, shu jumladan ishda zamonaviy fan yutuqlari va yangi texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'qitishni tashkil etadi va amalga oshiradi.

Departamentning tuzilmasi va uning ishlarini tashkil etish 1-chizmada keltirilgan bo'linmalardan iborat bo'ladi. Departamentning hududiy bo'linmalari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmalari, shuningdek tuman (shahar) prokuraturalari huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish tuman (shahar) bo'limlari).



4.1-chizma. Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tashkiliy tuzilmasi.

Departamentga maqomiga ko'ra Bosh prokurorning o'rinbosariga tenglashtirilgan va O'z R Prezidenti tomonidan tayinlanadigan Departament boshlig'i rahbarlik qiladi. Departament boshlig'ining o'rinbosarlari lavozimga Departament boshlig'i taqdimnomasiga binoan va O'zR Prezidenti bilan kelishgan holda Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi. Hududiy boshqarmalar boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, Departamentnins tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari tegishli lavozimlarga Departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

Departament mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, bank muassasalarida hisob-kitob, joriy va boshqa hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasining gerbi tasviri tushirilgan va Departamentning nomi to'liq yozilgan muhrga egadir.

Departament va uning hududiy bo'linmalari o'zlariga yuklangan vazifalarga va bajaradigan funktsiyalariga muvofiq quyidagi *huquqlarga egadir*:

solliqlar, yig'imlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob va hisobot buzilishi hollari aniqlangan taqdirda davlat soliq xizmati organlari bo'linmalarining telekommunikatsiya vositalari va ma'lumotlar kompyuter bazalari, shuningdek soliq to'lovchilarning hujjatlari bilan qonunda belgilangan tartibda tanishish;

solliq organlari va boshqa organlar xodimlari tomonidan huquqni buzishlar yashirilishi to'g'risida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda qonunda belgilangan tartibda takroriy tekshirishlarni amalga oshirish;

surishtiruvgacha tekshirishlarni amalga oshirish va jinoiy ishlar qo'zg'ash;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni Departament bo'linmalari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tushuntirishlar, ma'lumotnomalar, ma'lumotlar olish uchun taklif qilish;

agar fuqarolar va mansabdor shaxslar solliq va xorijiy valyuta aylanishi sohasida jinoyat sodir etganlikda shubhalanish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa belgilangan tartibda ularning zarur hujjatlarini tekshirish;

vazirliklar, idoralar, banklardan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan, jismoniy shaxslardan Departamentga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun zarur bo'lgan axborotni talab qilish, bunday axborot olishning qonun tomonidan maxsus tartibi belgilangan hollar bundan mustasno. Departament tomonidan olingan axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalaniladi va u oshkor qilinishi mumkin emas;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (solliq to'lovchilar)ning daromad (foyda) olish uchun foydalaniladigan yoxud solliq solish ob'ektlarini saqlash bilan bog'liq, bo'lgan ishlab chiqarish, ombor, savdo binolarini va boshqa binolari va joylarini ularning joylashgan joyidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar tekshirish, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni nazorat tartibida o'lchash, tovar-moddiy boyliklarni xatlash;

qurilish, montaj, ta'mirlash ishlari va boshqa ishlarni nazorat tartibida o'lchash uchun mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

tekshirish, tadqiq etish va ekspertiza o'tkazish uchun tovarlar, buyumlar, xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar namunalarini, shuningdek hujjatlarni olib qo'yish;

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqish va ma'muriy jazo berish;

qonun hujjatlariga muvofiq valyuta nazorati organlari va agentlariga berilgan funktsiyalarni bajarish;

yuridik va jismoniy shaxslardan ular faoliyatiga tegishli ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, hujjatlarni olish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (solliq to'lovchilar)ning hisob-kitob raqamlari va boshqa raqamlari bo'yicha sodir etilgan operatsiyalar to'g'risidagi bank va boshqa kredit-moliya muassasalari ma'lumotlarini olish;

bojxona organlari va Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligidan import-eksport operatsiyalarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (solliq to'lovchilar) to'g'risidagi boshqa axborotni olish.

Departament xodimlari davlat, xizmat, tijorat sirini, jismoniy shaxslarning omonatlari to'g'risidagi ma'lumotlar sirini va ular o'z xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida olgan boshqa axborotni sir saqlashlari kerak. Sir oshkor qilingan taqdirda xodim qonunda belgilangan tartibda javob beradi.

Departament berilgan vakolatlarga muvofiq o'z hududiy bo'linmalari faoliyati ustidan ular faoliyatining butun doirasi bo'yicha tezkor nazoratni amalga oshiradi.

Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar Departament bo'linmalari va uning hududiy bo'linmalari tomonidan tushadigan xabarlar va arizalar hisobga olinishi, ro'yxatdan o'tkazilishi va ko'rib chiqilishining belgilangan tartibiga rioya qilinishiga, tekshirishlar, surishtiruvlar va ular bilan bog'liq protsessual harakatlar amalga oshirilishi, soliq haqidagi qonunlar bajarilishi tekshirilishi hamda prokurorning vakolatiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar materiallari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligiga rioya qilish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat qilinishini ta'minlaydilar.

Prokuratura organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish. Soliq va valyutaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularga barham berish bo'yicha protsessual harakatlarning jinoiy ish qo'zg'ashdan boshlab uni sudga ko'rib chiqishga qadar uzviyligi va izchilligi Departament va uning hududiy bo'linmalarining iqtisodiy va soliq sohasidagi jinoyatlar bo'yicha jinoiy ishlarni tergov qiladigan, sudga ular bo'yicha davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlaydigan barcha darajalardagi prokuratura organlari bilan mustahkam o'zaro hamkorligi va xatti-harakatlarni muvofiqlashtirishi natijasida ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga va uning joylardagi organlariga:

iqtisodiyot, soliq va valyutaga oid jinoyatlar hollari bo'yicha jinoiy ishlarni o'z vaqtida tergov qilish masalalari, ularning tezroq sudga berilishi yuklanadi, bunda jinoiy ish qo'zg'atilgan vaqtdan boshlab sud qarori qabul qilingunga qadar jinoiy ishni ko'rib chiqish muddatlarini eng ko'p darajada qisqartirish nazarda tutiladi;

iqtisodiyot, soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash olib borish davomida qonuniylikka va jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik va fuqarolik-protsessual kodekslar normalariga rioya etishni umumiy nazorat qilish yuklanadi.

Departament O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan belgilangan muddatlarda Departament va uning hududiy bo'linmalarining ishi to'g'risidagi hamda soliq sohasida hamda valyuta aylanishi sohasida qonuniylikning holati haqida hisobot, axborot va hisobga olish-tahliliy ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

Valyutani tartibga solish, soliq solish va byudjetga to'lovlar sohasida qonuniylikning holati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan Departament tadbirlarini joriy va istiqbolli rejalashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Bosh prokurorning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan buyruqlari va ko'rsatmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi hay'atining Departament va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha qarorlari Departament va uning hududiy bo'linmalarining barcha xodimlari tomonidan so'zsiz bajarilishi kerak.

Soliq, byudjet sohalarida va valyutani tartibga solish sohasida qonuniylikni mustahkamlash, daromadlar va soliq solish ob'ektlari hisobga olishdan yashirilganligi, soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan bo'yin tovlanganligi uchun jazoning muqarrarliligi tamoyilini ta'minlash bo'yicha qo'shma tadbirlar amalga oshirilishida Departament va uning hududiy bo'linmalarining prokuratura organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat soliq xizmati organlari, valyutani nazorat qilish organlari va agentlari bilan o'zaro hamkorlik qilish. Departament davlat soliq xizmati organlari, valyutani nazorat qilish organlari va agentlari bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'zaro hamkorlik qiladi:

soliq va valyutaga oid huquqni buzishlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish, ularning profilaktikasi bo'yicha har oylik, choraklik va yillik tadbirlarga muvofiq tegishli taftishlar o'tkazilishini tashkil etish;

prognoz ko'rsatkichlar bajarilishida, soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan to'lovlarni undirishda davlat soliq inspeksiyalariga ko'maklashish;

valyutani nazorat qilish organlari va agentlari tomonidan valyutaga oid huquq buzilishlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish;

soliq va valyutaga oid huquqni buzishlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo'yicha qo'shma reydlar o'tkazish;

tezkor ahamiyatli axborotlarni ayirboshlash.

O'zaro hamkorlik Departamentning vazifalari, funktsiyalari va majburiyatlari hisobga olingan holda belgilangan tartibda boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish.
Departament boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishgan holda, prokuratura tomonidan amalga oshiriladigan qonuniylikni mustahkamlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish doirasida:

boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli xizmatlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

soliq va valyutaga oid jinoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan jinoiy ishlarni tergov qilishga protsessual ko'maklashish uchun masalalarning butun doirasi yuzasidan prokuraturaning boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qilishni ta'minlaydi;

prokuratura organlari bilan o'zaro hamkorlikda Departament va uning hududiy bo'linmalari tomonidan qo'zg'atilgan jinoiy ishlar bo'yicha ular qo'zg'atilgan va tergov harakatlari o'tkazilgan vaqtdan boshlab ishlar ko'rib chiqilishiga va sud instantsiyalarida qaror qabul qilinishiga qadar nazoratni amalga oshiradi;

ichki ishlar organlari bilan birgalikda tezkor axborotni ayirboshlash, soliq to'lashdan bo'yin tovlagan hamda soliq va valyutaga oid jinoyatlar sodir etgan shaxslarni qidirish va ushlash tadbirlarini amalga oshiradi;

huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda ushbu sohada huquqni buzishlarning holati to'g'risidagi axborotni o'zaro ayirboshlaydi.


Departament xodimlarining javobgarligi. Departament xodimlari o'z funktsional vazifalari bajarilmaganligi yoxud zarur darajada bajarilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

Xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish masalasi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari hamda Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentida xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi. Departament O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etiladi va tugatiladi.

4.5. Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi, uning shakllantirish manbalari va boshqaruvi

Sudlar va adliya organlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ular faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek amaldagi Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish, Ijro ishini rivojlantirish jamg'armalari mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi tegishli qarori bilan tashkil etilgan. Quyidagilar Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari hisoblanadi: -umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha jarimalar va davlat bojlari to'lashdan davlat byudjetiga tushayotgan summalarning 20 foizi miqdoridagi ajratmalar; -xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqiladigan ishlar bo'yicha davlat bojlari va jarima sanksiyalarini to'lashdan davlat byudjetiga tushayotgan summalarning 15 foizi miqdoridagi ajratmalar; -adliya organlari, shu jumladan FHDYO organlari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan 20 foiz, davlat notariuslari tomonidan undiriladigan davlat boji summalaridan esa 15 foiz miqdoridagi ajratmalar; -adliya organlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni, advokatlik byurolarini, firmalarni, hay'atlarni, xususiy notarial idoralarni ro'yxatdan o'tkazganlik, notarial va advokatlik faoliyatini litsenziyalaganlik, yuridik kadrlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazganlik uchun undiriladigan mablag'lar, shuningdek adliya organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida undiriladigan jarimalar;

Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini boshqarish tuzilmasi



-ijro ishi bo'yicha byudjetga undirilgan summadan 30 foiz miqdoridagi ajratmalar, soliqlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirilishidan tashqari;

-vakolatli organlar tomonidan olib qo'yilgan va davlat daromadiga o'tkazilgan mulkni sotishdan tushadigan mablag'larning 10 foizi, shuningdek soliqlar hamda byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bo'yicha muddatida to'lanmagan qarzlarni undirish bo'yicha va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Belgilab qo'yilganki, umumiy yurisdiksiya sudlari binolarini qurish va ta'mirlash, ularni zarur anjomlar, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy-texnika vositalari bilan ta'minlash Jamg'armaning birinchi navbatdagi vazifasi hisoblanadi. Jamg'arma mablag'lari shuningdek:

-xo'jalik sudlarini va adliya organlarini, shu jumladan notariatni, FQDYOni va sud ijrochilarini moddiy-texnik ta'minlashga;

-sudlar va adliya organlari xodimlariga malaka klasslari, darajalari va muayyan vaqt davomida ishlaganligi uchun ustama va qo'shimcha xaq to'lashga, ularning malakasini oshirishga, kadrlarni o'qitishga;

-sudlar va adliya organlari xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishga;

-sudlar va adliya organlari faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tadbirlarga yonaltiriladi,

Jamg'armaning joriy yilda foydalanilmagan mablag'lari byudjetga olib qo'yilmaydi va ulardan keyingi yilda foydalaniladi. Sudlar va adliya organlari xodimlarini qo'shimcha ko'paytirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish sudlarni va adliya organlarini rivojlantirish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi, ushbu dasturlar har yili mablag'lar va buyurtmanomalar tushishi prognozi asosida shakllantiriladi.

Dasturda sudlar va adliya organlari binolari va xonalarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, jihozlash muddatlari va hajmlari; ularni jihozlar, transport vositalari, kompyuterlar va boshqa zamonaviy tashkiliy-texnika vositalari bilan ta'minlash, shuningdek sudlar va adliya organlarini rivojlantirish bo'yicha boshqa tadbirlar nazarda tutiladi.

Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish dasturi, ularni mablag' bilan ta'minlash hajmlari hamda Jamg'armaning zahiraga qo'yiladigan har yilgi qismi miqdori Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Jamg'arma faoliyatini boshqarish Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi tomonidan amalga oshiriladi, unga O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri rahbarlik qiladi, u Jamg'arma Kuzatuvchi kengashining raisi hisoblanadi. Kuzatuvchi kengash tarkibiga lavozimiga ko'ra Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi raislari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti direktori hamda Jamg'armaning ijro etuvchi direktori kiradi.

Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi har chorakda kamida bir marta majlis o'tkazadi. Zarur hollarda Jamg'arma Kuzatuvchi kengashining navbatdan tashqari majlislari chaqirilishi mumkin.

Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi majlisi unda Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha qaror Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va Jamg'arma Kuzatuvchi kengashi raisi tomonidan imzolanadi.

Jamg'arma mablag'lari to'planishi va sarflanishini tezkor boshqarish Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori tomonidan Ijro etuvchi direktor rahbarlik qiladi, u Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javob beradi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori quyidagilarga majbur: -buyurtmanomalarni yig'ish va Kuzatuvchi kengash tomonidan ko'rib chiqish uchun materiallarni tayyorlash;

-Kuzatuvchi kengash qarorlarini sudlar va adliya organlariga etkazish;

-Kuzatuvchi kengash qarorlarini o'z vaqtida ijro etish;

-Jamg'armaning ajratilgan mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish va uning monitoringini amalga oshirish;

-Kuzatuvchi kengashga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Jamg'arma mablag''laridan foydalanilishi bo'yicha hisobot taqdim etish.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktsiyasi quyidagi huquqlarga ega:

-zarur hollarda mablag''lar ajratishga tushgan buyurtmanomalar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish;

-undirilgan va Jamg'armaga o'tkaziladigan pul mablag''larining amalda tushgan summasi bo'yicha tegishli tashkilotlardan axborotlar va statistika ma'lumotlarini so'rab olish;

-Jamg'armaning ajratilgan mablag''laridan maqsadli foydalanilishini tekshirish;

-mablag''lardan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda moliyalashtirishni to'xtatib turish, keyinchalik ushbu masalani Kuzatuvchi kengashga ko'rib chiqish uchun kiritish.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktsiyasi to'g'risidagi Nizom Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Jamg'armadan mablag''lar ajratish yuzasidan buyurtmanomalar Adliya vazirligi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti (keyingi o'rinlarda Departament deb yuritiladi) tomonidan Jamg'armaning Ijro etuvchi direktsiyasiga tushadi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktsiyasi tushgan buyurtmanomalarni umumlashtiradi va ularni ko'rib chiqish uchun Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashiga kiritadi.

Ijro etuvchi direktsiya Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi qarorlari bo'yicha mablag''larni yuqorida ko'rsatib o'tilgan idoralarga qabul qilingan qarorga muvofiq foydalanish uchun o'tkazadi.

O'zR Adliya vazirligi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi va Departament Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashiga Jamg'armaning ajratilgan mablag''laridan foydalanilishi to'g'risida belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi. O'zR Moliya vazirligi Jamg'arma mablag''laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi. Jamg'arma mablag''larini to'plash va ulardan foydalanish tartibi Jamg'armaning Kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat savollar:

- 1.Senat nechta deputatdan tarkib topgan va a'zolari qanday saylanadi?
- 2.Senat va qonunchilik palatasining birgalikdagi vakolatlari sanab bering?
- 3.Senatning mutlaq vakolatlari deganda nimani tushunasiz?
- 4.Parlament so'roviga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari javob berishga majburmi?
- 5.Qonunchilik palatasining fraktsiya yoki deputatlar guruhni nima maqsadda tashkil etiladi?
- 6.Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar asosiy vazifalarini sanang?
- 7.Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentini huquq va majburiyatlarini tushintiring?
- 8.Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasi qaysi manbalardan shakllanadi?

Test savollari:

Oliy Majlisining Senatini hududlar: Qoraqalpog'iston R., viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda nechtadan saylanadi:

- a)o'ntadan saylanadi;
- b)sakkiztadan saylanadi;
- v)olti kishidan saylanadi;
- g)o'n ikkitadan saylanadi.

Departamentning asosiy vazifalariga qaysisi kirmaydi?

a)soliq va valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish;

b)eksport, barter va konsignatsiya kontraktlari bo'yicha valyuta mablag''larining xoriждан o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini nazorat qilish;

v)respublika hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan xorijiy valyutada ish haqi to'lash va hisob-kitob qilish hollarini aniqlash va ularni bartaraf etish;

g)korxonalar import va eksport faoliyatidan valyuta tushumini bir qismini davlatga majburan sotishni nazorat qilish va monitoringini olib borish;

d)xorijiy valyutani sotib olish va import-eksport hamda vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq valyutaga oid qonun buzilishlarini o'rganish va tahlil qilish.

Adabiyotlar

- 1.O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi T. «O'zbekiston». 1994 y.
- 2.«O'zR Oliy Majlisining senati to'g'risida» O'zR 25.04.2003 yil 482-II-sonli konstitutsiyaviy qonuni.
- 3.Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligining tarixi. -T. 2001. 267 b.
- 4.Aminov M., Madvaliev A., Maxkamov N., Maxmudov N. Ish yuritish. -T. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi». 2003. 440 b.
- 5.O'zR Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida O'zR 2002 yil 12 dekabr 434-II-sonli konstitutsiyaviy qonuni.
- 6.Abulqosimov X.P., Vahobov A.V., Rahimova D.N., Narbaev B.I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. Qo'llanma. T., TDTU. 2001.
- 7.Abdug'aniev A., Mirzakarimov M. O'tish davri iqtisodiyotida mehnat bozori. T.. Mehnat, 1999.
- 8.Abduraxmonov Q.A., D.N.Rahimova, B.A.Erkaev, E.R.Nabiev, B.CH.Murtazaev, N.K.Zokirova, N.S.Qosimova, M.M.Razzoqov. Davlat xizmati personalini boshqarish. O'quv qo'llanma. T., "Akademiya", 2002 y.
- 9.Abdulxafizov U. Qurilishda ma'muriy menejmentni rivojlantirish. BMI. TAQI. 2006y.-66 b.
- 10.Aktsiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aktsiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi to'g'risida nizom. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 iyundagi 295 - son qarori.
- 11.BMT USAID loyihasini «O'zbekistonning axborot dunyosiga tayyorgarligini baholash» ma'ruzasi 2002 y., noyabr.
- 12.Boshqaruv xodimlari sonini tartibga solish va ularga sarflanadigan harajatlarni maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zR Vazirlar Mahkamasining 22 avgust 2003 yil 363-sonli qarori.
- 13.Gosudarstvennoe upravlenie zarubejnix stranax. Pronkin S.V. -M. 2001 g.
- 14.Gosudarstvenniy menejment. J. Konsultant direktora. 2004 g. №7 s.32-33.
- 15.Gosudarstvennoe munitsipalnoe upravlenie. Kovalenko E.G. -M. 2006 g. -s.409.
- 16.Genrix A. Xoffshul'te. BMTning Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruvi hartiyesi yo'lida: XXI asr talabi. Xalqaro jurnalistlarni qayta tayyorlash fondi tomonidan uyushtirilgan xalqaro konferentsiya materiallari. 2000 yil, 29 noyabr, T., 2001, 62-63 b.
- 17.Davlat organlarining yoki ushbu organlarning mansabdor shaxslarini noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bankning 2001 yil 3 dekabrda 125-sonli, 2001-120-sonli va 206-V-sonli qarori.
- 18.Davlat tuzilmalarini qayta qurish: metod va yondoshuvlar. BMTTD. Nyu-York, 2002.
- 19.Davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zR Prezidentining 2003 y. 9 dekabrda 9-sonli farmoni.
- 20.Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlarining lavozimlari ro'yxati. O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligining 2003 yil 22 sentyabrda 58-sonli va 116-sonli qarori.
- 21.Davlat boshqaruvi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2-sonli qarori. 5 yanvar 2004 y.
- 22.Davlat boshqaruvi hududiy organlari tarkibini mukammallashtirish haqidagi O'zR Vazirlar Mahkamasining 2004 yildagi 2-sonli qarori.
- 23.Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni yanada rivojlantirish to'g'risida O'zR Prezidentining 2002 yil, 30 mayda 3080-sonli farmoni,
- 24.Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zR Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli qarori.
- 25.Nazorat qiluvchi organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining 2001 yil 23 aprelda 01-son qarori.
- 26.Ma'muriy islohotlar—iqgisodiy islohotlarning katalizatori, Xalq so'zi, 2004 y., 11 mart.

27. Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonun.
28. Prokuratura to'g'risida. O'zRni qonuni. 2003 y. 25 aprel.
29. Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlashga buyurtma berish, ularni tayyorlash, hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi to'g'risida nizom. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25 iyuldagi 283-son qarori.
30. Sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida. O'zR VMsining 147-sonli qarori. 18 mart 2003 yil.
31. Tuxtaboev A.T. Ma'muriy menejment. Toshkent, «Moliya» nashriyoti, 2003 y. -172 b.
32. Toshkent shahar va tuman hokimliklari, bosh boshqarma, boshqarma, korxona va tashkilotlarda O'zR Prezidentining farmon va farmoyishlari, hukumat va shahar hokimi qarorlarining bajarilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida. O'zR Toshkent shahar Hokimining 2003 yil 8 maydagi 272-sonli qarori.
33. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida O'zR qonuni. 1999 y.
34. «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zR 29 aprel 2004 yil 609-II-son qonuni.
35. «O'zbekistonning axborot dunyosiga tayyorgarligini baholash» ma'ruzasi, 2002 i. noyabr.
36. O'zR Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi to'g'risida nizom. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi 290 - son qarori.
37. O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zR VMsining 415-sonli qarori. 28 noyabr 2002 y.
38. Xo'jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zR Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda farmoni,
39. [www. referat from. ru](http://www.referatfrom.ru)
40. [www. mfa. uz](http://www.mfa.uz)
41. [www. economics super referat. ru](http://www.economicsuperreferat.ru)
42. <http://www.izh.ru>

Glossariy

Subsidiarlik yuqoriroq darajaga faqat boshqaruvning quyi darajasida bajarish mumkin bo'lmagan funktsiyalarni berishni ko'zda tutadi.

Zamonaviy boshqarish nazariyasida ma'muriy menejment samaradorligining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1.O'zaro ta'sir va ta'sir o'tkazish vositalari bo'yicha – maqsadli, motivatsiyali, strategik, taktik, resursli, harajatli, rejali, dasturli, kontseptual, funktsional;

2.Samaranng mazmuni bo'yicha — iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, ekologik;

3.Vaqt omili bo'yicha — istiqbol, joriy va operativ;

4.Boshqarish tizimi rivojlanish bosqichlari bo'yicha — shakllanish, tiklanish, takomillashish, isloh qilish;

5.Boshqarish faoliyati ko'rinishlari bo'yicha — marketing, innovatsiya, investitsiya, moliyaviy, ishlab chiqarish, tijoratlik, tadbirkorlik;

6.Samaradorlik shakli bo'yicha — menejment tizimi, boshqarish faoliyati, boshqarish jarayoni, rahbar va xodim faoliyati.

Ma'muriy boshqaruv samaradorligining belgilari quyidagilardan iborat:

1.Inson — tashkilotning bosh resursi. Tashkilotda har bir xodim g'oyaviy manba hisoblanadi;

2.Yangiliklarni kiritishga yonaltirilganlik;

3.Mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish;

4.Tashkilot umumiy qadriyatlariga yonaltirilganlik;

5.Xodimlar va rahbarlarning o'z ishiga sodikligi;

6.Tashkilot, rahbarlar va xodimlarning oddiyligi, soddaligi va kamtarligi;

7.Kuchli harizmatik sardorlarning mavjudligi.

Konselariya. Hizmatlar va mutahasislardan qabul qilinadi. Boshqaruvchi qo'l qo'yadigan yoki allaqachon qo'l qo'yilganlarni boshqa qiziqqan hizmatga jo'natish yoki begona tashkilotlarga jo'natish uchun bo'ladi. Bular kelishuvlar hulosasiga, tadbir saylovlariga shuningdek ishlab chiqarish va kadrlar bo'yicha farmoyishlar e'tirozlar davolar ular bilan bog'liq yozishmalar ularga so'rovlar javoblarga aloqador hujjatlar bo'lishi mumkin. Pochta orqali tushgan hujjatlarni qabul qilinadi va ijro uchun mos keluvchi hizmatlarda mos holda ijro qilish nazorat qilinadi. Kiruvchi va chiquvchi hujjatlar ro'yhatga olinadi.

Tijorat savdo – sotiq hizmati. Ho'jalik kelishuvlarini o'z ichiga oladi. Tovar etkazib beruvchilardan yo'lboshlovchi hujjatlar qabul qiladi, miqdor va sifat bo'yicha qabul aktlarni tuzadi. Yuklash hujjatlarni tuzadi va olib beradi, omborhona hisobotini olib beradi.

Kadrlar hizmati. Hodimlar va hamkasblardan arizalar qabul qiladi, kadrlar bo'yicha buyruqlar javoblar va savollar olib boradi, mehnat shartnoma va kelishuvlar jismoniy shahslar bilan fuqorolik huquqiy shartnomalar tuzadi, kadrlar hisobotini olib boradi.

Iqtisodiy bo'lim hizmati. Ularning chiquvchi hujjatlari – bu alohida ko'rsatkich va masalalarning iqtisodiy analizi, reyesterlar narhlari planlar hisoblanadi. Iqtisodchining kasbiga soya solmasdan faqat shuni aytamanki, u yerda hujjatlardan ko'ra g'oyalar ko'p bo'ladi.

Muhandislik tehnalogiya bo'limi hizmati. Kelishuvlarga mos holda yozishmalar va bajarilgan ishlar aktlar tuzadi.

Huquqiy hizmat bo'limi. Bu holda deyarli hamma kiruvchi va chiquvchi hujjatlar konselariyada ro'yhatdan o'tkaziladi. Bu sudda hujjatlarni ishlatish uchun zarurdir.

Bug'galteriya. Savdo – sotiq hizmatidan ho'jalik shartnomalar ijrosi bo'yicha barcha boshlang'ich hujjatlar, hisobot tuzuvchi shahslardan avans hisobotlar, ish vaqti hisobot tabeli kassa va bank hujjatlari qabul qilinadi. Barcha buxgalteriya, soliq va statistika hisobotlar shakllarni tuzadi va ko'rsatadi. Alohida hujjatlar sanoqli hizmatlar tomonidan tuzilishi mumkin, ammo bu ko'pincha emas.

«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining davlat nazorati to'g'risida»gi O'zR qonunidan kelib chiqadigan quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

nazorat qiluvchi organlar - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga qonun tomonidan vakolat berilgan vazirlik va idoralar;

tekshirish - nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ular faoliyatini tartibga soladigan qonunlar va boshqa qonun hujjatlarini ijro etishlari ustidan bir vaqtda o'tkaziladigan nazorat;

qisqa muddatli tekshirish-nazorat qiluvchi organlar tomonidan bir ish kuni davomida amalga oshiriladigan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'lanmagan tekshirish;

kompleks tekshirish - bar vaqtning o'zida ikki va undan ortiq nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish;

rejadan tashqari tekshirish - nazorat qiluvchi organlar qonunda nazarda tutilgan hollarda amalga oshiradigan tekshirishlarning yillik (choraklik) reja-grafigiga kiritilmagan tekshirish (shu jumladan qisqa muddatli teshirish);


muqobil tekshirish-o'zaro operatsiyalarning bir xilligi bilan bog'langan va turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yoki bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning turli bo'linmalarida joylashgan hujjatlarni qiyoslashdan iborat bo'lgan tekshirish;

nazorat tartibida tekshirish-nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning avvalgi tekshirishda aniqlangan huquq buzilishlarini bartaraf etishlarini tekshirish.


Ilovalar

Davlat hokimiyati organlarini tashkiliy tuzilmalari

O'zR qonunchilik hokimiyati –Oliy majlis: senat va qonunchilik palatalarining tashkiliy tuzilmasi




O'zR davlat hokimiyatini tizimi




Ijtimoiy-siyosiy tizim

Jamiyat tuzilmalari



O'zR hukumatining tashkiliy tuzilmasi



O'zbek davlatchiligining 2700 yillik tarixida faoliyat ko'rsatgan rasmiy sulolalar ro'yxati

Miloddan avvalgi 1-ming yillik

Xorazmshohlar (Siyovushiylar) — VII—I asrlar.
Baqtriya hukmdorlari — VII—VI asr o'rtalari; III asr o'rtalari — II asrning 30-yillari.
Arshakiylar — III— milodiy III asrlar.
Farg'ona hukmdorlari — II—I asrlar.
Yuechjilar (toxarlar) — II—I asrlar.

Miloddan keyingi ming yilliklar

Kushoniylar (I—IV asrlar)

Azila (Azilises).
Kujula Kadfiz.
Vima Kadfiz.
Kanishka I.
Vasishka.
Xuvishka.
Kanishka II.
Vasudeva...

Eftaliylar (IV—VI asr o'rtalari)

... Axshunavar (Axshuvan), ... Varz

Ashinaliylar (VI asr o'rtalarn—657)

Istemi (vafoti 576 yil).
Qora Churin (576-609).
Taman (609-611).
SHeguyxon (611-618).
To'nyobg'uxon (618-630).
Sibirxon (630-631).
Irbis.
Bulunyobg'uxon (631).
To'ng Alp Duluxon (631—634).
To'ngshad-Ishbara To'lisshad (634—639).
Elqutluqshad Irbisxon (639—640).
Bahodur-Irbisyobg'uxon (640—641).
Irbis SHeguyxon (641—651).
Ishbaraxon (651—657).

VII asr 60-yillaridan VIII asr boshlariga qadar siyosiy tar-qoqlik, boshboshdoqlik davri.

VIII—IX asrlar — Arab xalifaligiga qaramlik davri.

Somoniylar (892-1005)

Ismoil (892-907).
Ahmad (907-914).
Nasr (914-943).
Nuh (943-954).
Abdulmalik (954—961).

Rasmiy ish yuritish hujjatlari ma'lumotlari Aminov M. va b.ning "Ish yuritish" nomli qo'llanmasidan va milliy davlatchilik tarixini yoritishda Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligining tarixi" qo'llanmalaridan keng foydalanildi.

Mansur (961—976).
Nuh II (976-997).
Mansur II (997-999).
Abdulmalik II (999-1000).
Ismoil b. Nux (1000-1005).

Qoraxoniylar (X asr — 1212-1213)

Sotuq Bug'roxon Abdulkarim (vafoti 955 yil).
Muso ibn Sotuq (vafoti 992 yil).
Sulaymon ibn Sotuq (X asr).
Ali ibn Muso (vafoti 998 yil).
Ahmad ibn Ali (vafoti 1017-18 yil).
Mansur ibn Ali.
Yusuf qodirxon (vafoti 1032 yil).
Sulaymon ibn Yusuf qodirxon (1057 yili o'ldirilgan).
Muhammad ibn Yusuf qodirxon (1057 yili o'ldirilgan).
Ibrohim ibn Muhammad (1057/58 yili o'ldirilgan).
To'g'ul qoraxon Yusuf ibn Yusuf qodirxon (1057—1073).
Nasr ibn Ibrohim (1073-1079).
Xizrxon (1079-?).
Ahmad ibn Xizrxon (1095 yili o'ldirilgan).
Mas'ud ibn Muhammad (1095—1097).
Sulaymontegin.
Mahmudtegin.
Xoruntegin Muhammad ibn Sulaymon (1132 yili o'ldirilgan).
Ibrohim ibn Sulaymon.
Hasantegin ibn Ali.
Mahmud ibn Muhammad (vafoti 1141/42 yil).
Ibrohim ibn Muhammad (vafoti 1156 yil).
Jaloliddin Ali ibn Hasantegin (vafoti 1160 yildan keyin sodir bo'lgan).
Mas'ud ibn Hasantegin (vafoti 1169/70 yili yoki keyinrok).
Muhammad ibn Mas'ud (vafoti 1173/74) yil.
Ibrohim ibn Xusayn.
Usmon ibn Ibrohim (vafoti 1212/13 yil).

G'aznaviylar (962—1183)

Alptegin (962—963).
Ishoq (963-965).
Bilgategin (966—972/973).
Piriy (972/973-976/977).
Sabuktegin (976/977—997).
Ismoil (997).
Mahmud g'aznaviy (998-1030).
Muhammad (1030).
Mas'ud (1030-1041).
Mavdud (1041-1049).
Mas'ud ibn Mavdud (bir necha kun).
Ali ibn Mas'ud ibn Mahmud (1049).
Abdurrashid (1050—1051).

Farruxzod ibn Mas'ud (1051—1058).
Ibrohim ibn Mas'ud (1058-1098/99).
Mas'ud III (1098/99-1115).
SHerzod (1115-1116).
Arslonshoh (1116—1119).
Baxromshoh (1119—1153).
Xisravshoh. (1153-1160).
Xisravmalik (1160-1186/1187).

Saljukiylar (1040-1157)

To'g'rulbek (1040-1063).
Alp Arslon (1063—1072).
Malikshoh I (1072—1092).
Mahmud (1092-1094).
Barkyoruq (1094—1104).
Malikshoh II (1104-1105).
G'iyosiddin Abu SHujo Muhammad (1105—1118).
Sanjar (1118-1157).

Anushtegnniylar (1097—1231)

Anushtegin (taxminan 1077—1097).
Qutbiddin Muhammad (1097—1128).
Aloviddin Otsiz (1128—1156).
Abulfath El Arslon (1156—1172).
Sultonshoh Mahmud (1172—1193).
Aloviddin Tyokish (1193—1200).
Aloviddin Muhammad (1200—1220).
Jaloliddin Mankburni (1220—1231).
1220—1370 yillar orasida chingiziylarga qaramlik davri.

(316-362)

Shayboniylar (1500—1601)
Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon (1500—1510).
Ko'chkhunchixon (1510—1530).
Abu Sa'idxon (1530-1533).
Ubaydullaxon (1533—1539).
Abdullaxon I (1539-1540).
Abdulazizxon; Buxoroda (1540—1550).
Abdullatif; Samarkdndda (1540—1551).
Navro'z Ahmadxon — Baroqxon (1551—1556).
Pir Muhammadxon (1556—1561).
Iskandarxon (1561—1683).
Abdullaxon II (1583-1598).
Abdulmo'minxon (1598—1599).
Pir Muhammadxon II (1599—1601).
Ashtarxoniylar (1601—1747)
Boqimuhammadxon (1601—1605).
Valimuhammadxon (1605—1611).
Imomqulixon (1611—1642).
Nazrmuhammadxon (1642—1645).
Abdulazizxon (1645—1681).
Subhonqulixon (1681—1702).
Ubaydullaxon (1702-1711).
Abulfayzxon (1711—1747).
Mashitlar (1747—1920)

Muhammad Rahim (1747—1758).
 Doniyol (1758-1785).
 Shoh Murod (1785-1800).
 Haydar (1800-1825).
 Nasrulla (1826-1860).
 Muzaffar (1860-1885).
 Abdulahad (1885—1910).
 Muhammad Olim (1910—1920).
 Xiva Shayboniylari (1511—1770)
 Elbarsxon (1511 — taxminan 1516).
 Sulton Hojixon.
 Husaynqulixon.
 So'fiyonxon (1516-1522).
 Bujaqaxon (1522-1525/26).
 Avaneshton (1525/26-1538).
 Alixon (1538-1547).
 Aqatoyxon (1547—1556).
 Yunusxon (1556-1557).
 Do'stixon (1557-1559/60).
 Hoji Muhammadxon (1559/60—1602).
 Arab Muhammadxon (1602—1621).
 Xabash Sulton va Elbars Sulton (1621—1623).
 Isfandiyorxon (1623—1643).
 Abulg'oziy (1644—1664).
 Ano'shaxon (1664—taxminan 1687).
 Xudoydodxon (1687-1688).
 O'zbekxon—Arnakxon (1688—1690).
 Jo'ji Sulton (1694/95-1697).
 Valixon (1697-1698/99).
 SHohniyozi (1698/99-1702).
 SHohbaxtixon (1702-1703).
 Sayyid Alixon (1703-1705).
 Musaxon (1705-1706).
 Yodgorxon (1706-1713).
 Shergozixon (1714-1727/28).
 Elbarsxon (1728-1739).
 Tohirxon (1739-1740).
 Nuralixon (1740-1742).
 Abulg'oziyxon II (1742-1746).
 G'oyibxon (1746-1756).
 Qoraboyxon (1756-1757).
 Temurg'oziyxon (1757—1764).
 Xudoydodxon (1764—1765).
 SHohg'oziyxon (1766—1767).
 Abulg'oziyxon III (6 oy hukmronlik qilgan).
 Nuralixon (1768—?).
 Jahongirxon (hukmronligi bir yil).
 Bulakayxon.
 Xiva ko'ng'irotlari (1770—1920)
 Muhammad Amin (1770-1790).
 Avaz (1790-1804).
 Eltuzarxon (1804-1806).
 Muhammad Rahimxon (1806—1825).
 Olloqulixon (1825—1842).
 Rahimqulixon (1842-1845).

Muhammad Aminxon (1845—1855).
 Abdullaxon (1855—1856).
 Qugluqmurodxon (1856).
 Sayyid Muhammadxon (1856—1864).
 Muhammad Rahimxon (1864—1910).
 Isfandiyorxon (1910-1918).
 Sayyid Abdulla (1918-1920).
 Minglar (1799-1875)
 Shohrux (1709-1721).
 Abdurhim (1721-1733).
 Abdulkarim (1733—1750).
 Abdurahmon (hukmronligi 9 oy).
 Erdona (1751-1752).
 Bobobek (1752-1753).
 Erdona (ikkinchi marta: 1753—1762).
 Sulaymon (1762-1763).
 Norbuta (1763-1798).
 Olimxon (1798-1810).
 Umarxon (1810-1822).
 Muhammadalixon (1822—1842).
 Sheralixon (1842-1844).
 Murodxon (k?l skd muddat hukmronlik kalgan).
 Xudoyorxon (1845-1858). Mallaxon (1858-1862).
 Xudoyorxon (ikkinchi marta: 1862—1863).
 Sulton Sa'idxon (1863—1865). Xudoyorxon (uchinchi marta: 1865—1875).

O'zbek davlatchiligining tarixi: Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fan, diplomatik munosabatlar va ma'muriy boshqaruv

ILK DAVLATCHILIKNING ASOS TOPISHI VA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING MILODDAN AVVALGI TARIXI

O'zbek davlatchiligining eng qadimiy tarixiy davrlarini yoritishda biz arxeologik qazishmalar natijalari, mahalliy yozma adabiyot namunalari (masalan, «Avesto», ko'hna eroniy bitiklar, yunonlik, xitoylik, hindistonlik va boshqa erlik mualliflar yozib qoldirgan manbalardan foydalandik. Albatta, bu borada qiyosiy o'rganish, tarixiy-madaniy taraqqiyot qonunlari, an'analarini yodda tutish kabi ilmiy-mantiqiy usullarni ifoda etdik.

Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida ajdodlarimiz temirni qayta ishlashni o'rganib oldilar. Demak, har qanday taraqqiyotning turtkisi bo'lib kelgan mehnat qurollarining takomillashishi uchun keng yo'l ochilgan. Bu esa o'z navbatida inson faoliyatining kengayishi va jadallashishiga sabab bo'lgan. Mazkur hol jamiyatning barcha sohalarini: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlarda tegishli sifat o'zgarishlariga turtki bo'lgan bosh omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar shundan guvohlik beradiki, miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida mamlakatimiz hududida, umuman mintaqamizda tog' jinslarini qayta ishlash (masalan, temir, oltin, qalayi, qo'pg'oshin va hokazolar), ulardan urush, mehnat qurollari yasash, kulolchilik, to'quvchilik, quruvchilik, zargarlik, kemasozlik kabi sohalar rivoj topgan. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda bunda hech qanday ajablanarli joy yo'qdek ko'rinsada, ammo 2500—3000 yil muqaddam mavjud shart-sharoitlar yuzasidan olganda mazkur tarixiy guvohliklar g'oyat sarmazmun ahamiyat kasb etishi lozim. Zero, o'sha uzoq o'tmish zamonlarda dunyo xaritasida tarixiy-madaniy ravnaqning ana shunday yuqori bosqichida turgan o'lkalar soni barmoq bilan sanoqli bo'lgan. Xuddi shu davrda uzunligi bir necha o'n metrni, eni bir necha o'n metrni tashkil etgan kanallar qazilgan. Miloddan avvalgi VII—VI asrlardayoq Xorazmda ulkan sun'iy sug'orish tizimlari ishlab to'rgani ma'lum. Sun'iy sug'orish ishlarining bu darajada e'tiborli bo'lganligi ajdodlarimiz hayotida dehqonchilikning tutgan o'rmidan guvohlik beradi. Haqiqatan ham o'sha vaqtlarda don, moy beruvchi o'simliklar etish-tirish, polizchilik, bog'dorchilik kabi sohalar rivojlanganini olimlar isbotlab berishgan.

Mazkur davr ijtimoiy munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak, «Avesto»da (miloddan avvalgi VIII—VII asrlar) kohinlar, harbiylar, dehqonlar hamda hunarmandlar kabi ijtimoiy tabaqalar tilga olinadi.

Miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmiga xos yana bir muhim jihat bor. U ham bo'lsa, ushbu mingyillikning VIII—VII asrlarida shahar madaniyatining yanada taraqqiy topib borishi bilan bog'liq. Masalan, eng So'nggi ma'lumotlarga ko'ra. Samarqand miloddan avvalgi VIII asrdayoq shahar qiyofasi va mazmunini olish yo'liga kirgan edi. Taxminan shu davrda yo bir oz kechroq Xiva, Buxoro, Termiz, Xazorasp, Shahrisabz (Kash, Kesh), quva kabi shaharlar ham acoc topa boshlagan. Mazkur jarayonning biz uchun ahamiyati shundaki, shaharlar tarixi bu ma'muriy-boshqaruv, ya'ni davlatchilik tarixi hamdir. Zero, shahar madaniyatini boshqaruvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ajdodlarimiz ichki taraqqiyotni bir maromda tutish bilan birga tashqi munosabatlarga ham alohida e'tibor berganlar. Masalan, miloddan avvalgi 3—2-ming yilliklarda ajdodlarimiz Shimoliy Hindiston, Jazira (Mesopotamiya), Misr kabi o'lkalar bilan bordi-keldi qilganlar. qadimgi tashqi aloqalarimizning Eron hududida asos solingan Midiya davlati bilan bog'liq tomonlari ham diqqatga sazovordir. Midiya ko'hna Osuriya (Oshura), Urartu kabi davlatlarni o'ziga bo'ysundirgan qudratli davlat (miloddan avvalgi VII—VI asrlar) hisoblanadi. Vaholanki, Midiya davlatining barpo bo'lishida saklarning ma'lum hissasi bo'lganligi manbalarda aniq ko'rsatilgan. Kuchga kirib olgandan keyin esa Midiya mintaqamizga tahdid sola boshlaydi. Bu esa o'zaro to'qnashuvlarga sabab bo'ladi. Shulardan biri haqida yunonlik Diodor (miloddan avvalgi I asr) qo'yidagicha hikoya qiladi: Artin podshohligi davrida parfiyaliklar midiyaliklardan ajralib chiqib, o'z er va shaharlarini saklarga topshirdilar. SHunda saklar va midiyaliklar o'rtasida urush boshlandi... Oxiri (o'zaro) sulh tuzildi... Sak podshohdari midiyalik asirlarni Tanaidu (ya'ni Sirdaryo) tomon ko'chirib olib ketdilar.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida biz mintaqamizning miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi yarmidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli, tashqi aloqalari xususida bir qadar tasavvurga ega bo'ldik. Endi o'z-o'zidan bir mantiqiy savol tug'iladi: o'z zamonasi uchun shundayin jadal va sarmazmun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy xalqaro munosabatlar boshi-oxiri yo'q tizginsiz bir cheksizlikda kechganmi, yo bo'lmasa ularni jilovlab turadigan, manfaatli ravishda tartib doirasiga soluvchi tizim mavjud bo'lganmi? Albatta, shunday tizim bo'lgan va bu davlat, davlatchilik tizimidir. O'z davri uchun «bahaybat» kanallar qurilishi, yaratilgan sun'iy sug'orish tizimini idora qilish, davlatchilik tartiblari yo'lga qo'yilgan qudratli, shundoqqina yonginada joylashgan saltanat (Midiya) bilan tengma-teng munosabatda bo'lish ma'lum bir siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy asoslarda uyushmagan makonda yuz berishi mumkinmi? Albatta, yo'q. Xullas, miloddan avvalgi 1-ming-yillikning birinchi yarmida, aniqrog'i VII asrlardayoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari uzil-kesil tartib topgan, deyishga haqlimiz.

Mazkur davlatchilik asoslari ko'hna Xorazmda qaror topgan edi. Ushbu haqiqatni, faqat o'zbek halqi bilan bog'lamagan holda, chet ellik olimlar ham tan olganlar. Ular qatoriga biz V. Markvart, S. Tolstov, Kisseling, I. Dyakonov, M. Vorobeva, B. Vaynberg va boshqa olimlarni kiritishimiz mumkin.

XORAZM

Mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi yozma guvohliklarni o'zida mujassamlashtirgan «Avesto»da mintaqaning Xorazm (Kairizem, Ayranam-vejo), Sug'diyona (sug'dlar makoni Gava), Marv (Mouru), Niso (Nisaya), Ariya (Xarayva), Baqtriya (Baxdi) kabi bir qator tarixiy viloyatlari nomi tilga olingan. Bunda voqealar bayoni Ahura Mazda nomidan berib boriladi: «Men Ahura Mazda, eng afzal makon va mamlakatlar sirasidan Ayranam-vejoni, ... So'ngra so'g'dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to'rtinchi bo'lib Baxdini,... beshinchi bo'lib Mouru va Baxdi oraligadagi Nisayani... yaratdim», Ko'rinib turibdiki, mazkur manba yaratilgan davrda tilga olingan «makon va mamlakatlar» haqiqatdan ham bir makon, aniqroga, katta bir viloyat sifatida shakllanib bo'lgan va ma'lum bir asoslardagi chegaralari ham bo'lgan. Bu jarayon bir zumda sodir bo'lmagani ham tabiiy. Boshqacha qilib aytganda, to nomlari «Avesto» sahifalarida zikr etilgunga qadar ular hech bo'lmaganda iqtisodiy-geografik makon sifatida uzoq muddat davomida shakllanib borgan. Mazkur jarayon mintaqadagi Amudaryo, Zarafshon, Atrek, Mypg'6, Tajan (Xarirud), Kunduz kabi daryolar vohalarida kechgan. SHunga ko'ra miloddan avvalgi 1 -mingyillik boshlaridayoq o'lkada Xorazm, Baqtriya, Ariya (Ariana), Parfiya, Girkaniya, Marg'iyona hamda Farg'ona kabi viloyatlar mavjud bo'lgan. To ahamoniylar bosqiniga qadar (miloddan avvalgi VI asr) o'lka asosiy qismini birlashtirib turuvchi siyosiy omil, markaz Xorazm hisoblangan. Afsuski, bu davrda Xorazmda hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida biz bir nima deya olmaymiz. Ammo rivoyat va afsonalarga ko'ra, Xorazmning eng qadimiy siyosiy sulolalari sifatida siyovushiylar tilga olinadi.

Ahamoniylar tajovuzi arafasida Xorazm Sirdaryodan O'rta Afg'onistongacha bo'lgan erlarni (Baqtriya va Girkaniya bundan mustasno) o'z ta'sir doirasida tutib to'rgan asosiy kuch sifatida gavdalanadi. Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Midiyaga tobe hisoblangan Eronning janubiy-g'arbidagi qabilalardan biri ahamoniylar kuchga kirib, avval Fors viloyatida, Midiyani enggach, Eronda butunlay hukmronlik qila boshlaydilar. Endi o'z-o'zidan ahamoniylar va Xorazm o'rtasida ulkaning boy viloyatlari uchun kurash avj olishi tabiiy edi. Ahamoniylar davlatining asoschisi Kurush (Kir) katta qo'shin to'plab, yunonlik Gerodot (miloddan avvalgi V asr) tili bilan aytganda, «ko'p sonli va qudratli massagetlarga qarshi» jangga otlanadi. Bu davrlarda massagetlar mamlakat aholisining eng nufuzlilaridan hisoblanib, ularning podshosi vafot etgan, boshqaruv esa uning oqila va tadbirkor xotini Tomir xotun (Tumaris, Tomiris) qulida edi. Kurush aynan Tomir xotun bilan jangda o'z ajalini topadi. Gerodotning kichik zamondoshi Ktesiy (vafoti miloddan avvalgi IV asrda) keltirgan ma'lumotda esa Kurush saklar podshosi Amornning xotini Sparetra bilan jang qilgan. Uning o'limi bu jang bilan bog'lanmagan. Milodiy II asrda o'tgan yunon tarixchisi Polien qo'yidagilarni yozib qoldirgan; sak podshohlari Saksafar (Xorazm hukmdori, Amorg (saklar podshohi), Tomiris (massagetlar malikasi) Doroga (Doryush) qarshi ko'rash rejasini tuzib turganlarida, ular huzuriga SHiroq ismli otbogar keladi va agar oilasi tirikchiligidan xabar olib turishga va'da berilsa, yakka o'zi dushman xavfini qaytarishga urinib kurishini aytadi, Podshohlar taklifni qabul qilib, qasam ichadilar. SHunda quloq va burnini kesib tanasini qora qonga buyagan SHiroq Doroga huzuriga borib, sak podshohlari ustidan arz qiladi. Doroning rahmi kelib hamda SHiroqning «men forslar kuchi bilan o'z dushmanlarim ta'zirini bermoqchiman» degan so'zlariga ishonib, uni o'z yonida qoldiradi. SHiroq esa Doroga saklar to'rgan joyga qo'qqisdan boshlab boraman deb va'da beradi. Etti kunlik egulik va ichimlikni g'amlab, Doroga va uning qo'shini SHiroq rahnamoligida yo'lga to'shadi. qumliklar o'zra ancha yo'l bosib qo'rganlarida Doroning mingboshisi Ranosbat SHiroqning hiylasini fahmlaydi va undan: «Aytchi, shunday ulug' podshohni laqillatib, forslarning shuncha ko'p lashkarini na bir o't, na bir qush, na bir hayvon ko'rinadigan, ilgari yursang ham, ortga qaytsang ham benaf bunday chulu biyobonga boshlab kelishga seni nima majbur qildi?!», — deb so'raydi. SHiroq qullarini o'ynatib, qattiq qah-qah o'rib, «Men yutdim, vatandoshlarim saklardan xavfni bartaraf etish uchun ochlik va tashnalikda forslar (lashkarini) o'lassi qildim-ku!», javobini beradi. Ranosbat shu zahatiyoq uning kallasini kesadi. Tasodifan yog'ib qolgan yomgirgina Doroni butkul haloqatdan saqlab qolgan ekan.

Biron-bir manba Xorazm va uning ta'sir doirasida bo'lgan erlarning qay tarzda ahamoniylar tobeligiga tushib qolganligi to'g'risida aniq bir ma'lumot bermaydi. Ammo Doroning (miloddan avvalgi 522—486 yillar) buyrug'i bilan Zagros qoyasiga (Erondagi Kermanshoh shahridan 30 km masofada joylashgan) o'yib bitilgan yozuvga ko'ra Xorazm, So'g'diyona, Ariya, Parfiya ahamoniylarga qaram 23 viloyat (satrapiya) qatorida sanab o'tiladi. Ayni guvohliklarni Persepoldagi (Erondagi SHeroz shahridan shimolda, taxminan 50 km masofada joylashgan; 520—450 yillar orasida qurilgan) yozuvlardan ham topish mumkin. Lyokin Doroning qabr toshi bitiklarida ahamoniylar saltanatiga tobe mamlakatlar ro'yxatiga So'g'diyona, Ariya va Parfiya kiritilgan, xolos. Xorazm esa bu qatorda yo'q. Gerodot qoldirgan ma'lumotlarda aytilishicha, Parfiya, Xorazm, So'g'diyona, Ariya ahamoniylarga qaram XVI okrugni tashkil etib, yiliga 300 talant soliq to'lab turganlar.

Xullas, yana bir qator yozma guvohliklarni mantiqiy mushohada etgan holda ahamoniylar — Xorazm munosabatlarining bu davrdagi ahvoli to'g'risida qo'yidagi fikrga kelish mumkin. Xorazm o'z ta'sir doirasidagi viloyatlarda (So'g'diyona, Parfiya, Ariya) o'z mavqeini saqlab qolish niyatida rasman ahamoniylar ustunligini tan olgan va zikr etilgan 300 talant soliqni ham asosan o'zi to'lab turgan va shu tarzda ahamoniylarga tobe

o'lkalar ro'yhatiga tirqalib qolgan. Amalda esa o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Zero, qanchalik kuch-qudratga ega bo'lmasin ahamoniylar mintaqa uchun ko'rashda biron-bir jiddiy zafar kuchganliklari to'g'risida hozirda biron-bir tarixiy guvohliklar yo'q.

Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm hatto o'sha rasmiy ko'ramlikdan ham xalos bo'ladi. Mazkur asrning 20-yillarida esa mintaqaga yunonlik Aleksandr bostirib kirganda ham Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Bunga Xorazm hukmdori Farazman (Xvorazman)ning donishmandligi va tadbirkorligi tufayli erishiladi. Zamonasining eng qudratli saltanati sohibi ahamoniylarni er tishlatgan, Evropa chekkasidan Osiyo markaziga lashkar tortib kelgan va omadi chopib to'rgan bosqinchi Aleksandr bilan ochiqchasiga bellashish mamlakatni xavf ostida qoldirishini tasavvur etgan Farazman siyosat yo'lini tutadi. 1500 otliq askar qo'riqchiligida u shaxsan Aleksandr huzuriga keladi. Arrianning (miloddan avvalgi I asrning oxiri—I asr) guvohlik berishicha, miloddan avvalgi 329 yili Aleksandr Samarqandda turganida, aytilganidek, Farazman tashrif buyuradi. Xorazm hukmdori mazkur uchrashuv chog'ida Aleksandrga harbiy ittifoq tuzib qora dengiz tomon yurishni taklif etadi. So'g'dlik Spitamen qo'zgolonini bostirish bilan band bo'lgan Aleksandr Farazmanga tashakkur aytib, u bilan do'stlik ittifoqini tuzadi. SHu bilan birga hozir Pontiga (ya'ni qora dengizga) yurish vaqti emas deb aytadi. Aleksandr ishonchini oqlagan Farazman yunonliklarning keyingi harbiy rejasi Hind zaminiga yurish qilish ekanligini ham bilib oladi. Uzoqni ko'ra bilgan Farazman shu tariqa mintaqadagi yagona barqaror makon — Xorazm dahlsizligini saqlab qoladi hamda Aleksandrning kelgusi rejalaridan voqif bo'lib oladi. Farazmanni Aleksandr bilan ittifoqi strategiya nuqtai nazaridan amalga oshirilgan siyosiy qadam ekanligini shundan ham aniqlab olish mumkinki, bir yil o'tar-o'tmas, miloddan avvalgi 328 yili u yunonliklar tazyiqidan qochishga majbur bilgan Spitamenga Xorazmdan boshpana beradi. Fikrimizcha, Xorazm hukmdorining Aleksandrning ashaddiy dushmani Spitamenni qabul qilishi nafaqat uning vatandoshlik hissidan, balki Aleksandrning ahvolidan bohabarliga hamda ma'lum ma'noda o'z imkoniyatlariga ishonganligidan hamdir. Zero, Xorazm bu zamonda janub va sharqdagi ta'sirini yo'qotgan bo'lsada, shimoli-g'arbda qora dengiz — Azov bo'ylarigacha bo'lgan erlarda o'z mavqeini saqlab qolgan.

Xorazm dahlsizligi saqlanib qolingan bo'lsada, ammo boshqa viloyatlar, masalan, So'g'diyona Aleksandr bosqinidan ko'p talafot ko'rgan. Yunonlik Diodor (miloddan avvalgi I asr) guvohlik berishicha, bir safar Aleksandr ko'zg'olon ko'targan 120 ming ajdodimizni qirib tashlagan.

Aleksandr vafotidan (miloddan avvalgi 323 yil) So'ng ko'p o'tmay Parfiya, Ariya, Baqtriya va So'g'diyona yunonlik Salavk asos solgan Salavkiylar saltanatiga tobe bo'lib qoladi. Xorazm bu safar ham o'z dahlsizligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi.

Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Baqtriya, So'g'diyona, Parfiya Salavkiylar saltanati tarkibidan ajralib chiqadi.

Taxminan miloddan avvalgi 170 yillarda So'g'diyona va SHosh (Toshkent) Xorazm ta'sir doirasiga tortiladi. Miloddan avvalgi II asrda o'lkamizda bo'lgan xitoylik CHjan TSyan guvohlik berishicha, Xorazm (xitoyliklar nazdida qang'a) sharqda Farg'ona, janubda Parfiya va Baqtriya bilan chegaradosh, g'arbiy sarhadlari esa Buxoro va Xorazm vohalarini o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi I asrda yashagan xitoylik tarixchilar Xorazmga Orol va Azov dengizlari oralig'idagi alanlar (hozirgi osetinlarning qadimgi ajdodlari) va Ural oldi o'rmon qabilalari ham u yoki bu shaklda qaram bo'lganliklarini yozib qoldirganlar. Demak, miloddan avvalgi So'nggi asrda xorazmlik siyosiy kuchlar qora dengizdan Farg'onagacha bo'lgan ulkan hududda o'z siyosatlarini yurgizib turgan katta qudrat egasi hisoblanganlar.

Xorazm hukmdorlari bu vaqtda o'z tangalarini zarb etish ishini yo'lga qo'yg'alar. Topilgan tanga namunalari shuni ko'rish mumkinki, ularning bir tomonida podshohning tasviri, ikkinchi tomonida esa otliq askar tasviri tushirilgan. Pul tizimining joriy etilishi davlatchilik rivojidan dalolat berishi bilan bir qatorda iqtisodiy munosabatlar ravnaqi uchun turtki bo'lgani ham shubhasiz. Ayniqsa, savdo-sotiq ishlari gurrakib rivojlangan. Sun'iy sug'orish ishlarida boy tajriba egalari — o'lka ahli yangi kanallarni qazish, borlarini esa asrab-avaylash borasida ham ko'p mehnat qilganliklari ma'lum. Demak, dehqonchilik yanada o'sib borgan. Yangi shaharlar qad ko'tara borgan, qal'a, qo'rg'onlar qurilgan. Bu esa o'z o'rnida hunarmandchilik taraqqiyoti uchun tegishli zamin tayyorlagan. Iqtisodiyotning bu qadar o'sib borishi davlatni davlat qilib to'rgan omillardan biri katta va kuchli lashkarni zamona darajasida tutib turishga imkon yaratgani ham tabiiy. Xorazm lashkari 120 minggacha bo'lgani haqida tarixiy faktlar bor. Xorazmliklarning harbiy mahorati o'z davri uchun yuksak pog'onada bo'lgan. qadimgi Xorazm tarixi va madaniyatini yaxshi o'rgangan S.P.Tolstovning fikricha, xorazmliklar yangi harbiy taktika-otlari ham, o'zlari ham og'ip sovuqlarga chulg'anib, elkama-elka qatorga tizilib, kamon, nayza, uzun qilich bilan qurollangan chavandozlar raqibni o'zlariga yaqinlashtirmasdan kamon o'qlari, uzun nayzalar yordamida dushman yon-atrofini o'rab olish bilan qirib tashlash usuliga asos solganlar. qizig'i shundaki, xorazmliklarning Fapb uchun noma'lum ana shu harbiy mahoratidan foydalanib parfiyaliklar miloddan avvalgi I asr o'rtalarida Jazirada (Mesopotamiya) Rim saltanatining etti legion, to'rt ming otliq nayzaotardan iborat kuchli qo'shinini tor-mor etib, jangda 20 ming kishini o'ldirib, 10 mingini esa asir olib qaytganliklari to'g'risidagi guvohliklarni yunonlik Pliniy (I asr) hamda Plutarx (I—II asrlar) asarlaridan topish mumkin. Umuman og'ir otliq saflari bilan jang qilish mahorati boshqa mamlakatlarga o'lkamizdan tarqalganini alohida qayd etish lozim (masalan, Sharqiy Evropa, Xitoy, Oltoy, Mo'g'uliston erlari).

Bu davrda amalda bo'lgan diniy e'tiqodlarga kelsak, aholi orasida zardushtiylik, obodonlik va farovonlik xudosi Anaxita, quyosh va yorug'lik xudosi Mitra, baxt, tole va davlat xudosi Xumo kabilarga sig'inish keng tarqalgan.

O'sha zamonda yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning turmush tarziga kelsak, vodiylarda asosan o'troq hayot kechgan bo'lsa, dashtliklarda esa ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilik hukmron edi. YAshash tarzidan qat'i nazar ularning bari mehnatsevar, vatanparvar va mard kishilar edilar. Buni biz ularning Aleksandrqa qarata aytganlaridan ham bilishimiz mumkin: «...biz Osuriya podshohini, keyin esa forelar va midiyaliklar hukmdorini engdik. Mazkur g'alabalar sharofati bilan biz Misrgacha bo'lgan hududga yuz tutdik... faqat tenglar o'rtasidagina hakikiy do'stlik bo'lishi mumkin».

Yuqorida biz davlatchiligimizning miloddan avvalgi 1-mingyillikdagi qadimgi Xorazm siyosiy kuchlari faoliyati bilan bog'liq eng asosiy va muhim ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Ma'lum bo'lishicha yangi milodiy davr boshlanishi arafasida Xorazm o'z zamonasining eng qudratli va rivojlangan siyosiy, iqtisodiy, madaniy markazlaridan biri bo'lgan.

BAQTRIYA

Milod boshiga qadar o'tgan asrlarda O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida Er yuzida ilk davlatchilik o'choqlaridan bo'lmish Yaqin va O'rta Sharqdagi makonlarda (Misr, Jazira, Finikiya, Falastin, Suriya, Eron va boshqalar), Hindiston, Xitoy, Yunonistonda ham kechganidek jarayon yuz bergan. Biz bu erda alohida viloyat, ichki mintaqa, hatto shahar doirasidagi davlatchilik munosabatlarini nazarda tutmokdamiz. Haqiqatan ham miloddan avvalgi mintaqa siyosiy xaritasida Xorazmdan tashqari Baqtriya, Parfiya, Farg'ona, Toxariston kabi davlat birliklari faoliyat ko'rsatgan. SHuning uchun ham ular haqida alohida-alohida to'xtalib o'tish o'rinlidir.

Baqtriya — bu geografik makon, viloyat, viloyat nomi esa Baqtr (Balxob) daryosi nomi bilan bog'liq. Baqtriyaning poytaxt shahri Baqtr ham xuddi shunday bog'liqlikda. YUnon tarixchilari bu xakda shunday yozib qoldirganlar: «Uning (Baqtr daryosining) nomi bilan shahar va viloyat (ham) ataladi». «Zariaspa shahri keyinchalik daryo nomi bilan Baqtr deb atalgan». Baqtriya geografik chegarasini janubda Hinduqush (Parnase, Papopamis), shimolda So'g'diyona, g'arbda esa Marg'iyonagacha (Murg'ob vohasi) belgilash mumkin.

«Avesto»da Baqtriya (Baxdi) «bayroqlari (doim) baland hilpirab turadigan», ya'ni shon-shavkat o'lkasi sifatida tilga olinadi.

Qadimgi Baqtriyani boshqargan siyosiy sulolalar to'g'risida hozircha biron-bir ilmiy xulosa qilish qiyin. SHu bilan birga bu boradagi mavjud afsonalardan baqtriyalik hukmdorlar, ularning kuch-qudrati o'z zamonasida mashhur va ma'ruf bo'lganligini bilib olish mumkin. Chunonchi, yunonlik Ktesiy osuriyalik podshoh Nin Belidning Baqtriyaga harbiy yurishi haqida so'zlab, Nin baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganini aytadi. Semiramida (Sammuramat) miloddan avvalgi IX—VIII asr boshlarida Osuriya malikasi bo'lgan. Ninning Baqtriyaga qarshi yurishida Semiramida ham qatnashgan va ular Baqtriya podshosi Aksiart bilan obdon urishganlar. Baqtriyaning o'sha zamondagi mavqeini shundan ham bilish mumkinki, go'yo Nin va Semiramida Baqtriyaga 1 million 700 ming piyoda, 210 ming otliq, 10 mingdan ortiq jang aravasidan iborat lashkar bilan kelgan ekanlar. Baqtr shahri zabt etilgandan keyin esa u erdagi xazinadan ko'plab oltin va kumush osuriyaliklar qo'lga tushgan. Miloddan avvalgi So'nggi asr — milodiy I asrlarda yashagan Pompei Trog Ninning Baqtriyaga yurishi haqida naql qilgan ekan, baqtriyaliklar podshohi Zardusht (Zoroastr) bo'lgan deydi. Xullas, Baqtriyada eng qadimgi davrlarda hukmronlik qilgan sulolalar xususida aniq ma'lumotlardan ko'ra rivoyatlar ko'p.

Ahamoniilar — Baqtriya ilk munosabatlari to'g'risida ham ma'lumotlar yetarli darajada deb bo'lmaydi. Ktesiy Kurush (Kir) va baqtriyaliklar o'rtasida sodir bo'lgan to'qnashuvlarda biron-bir tomon ustun kelgani yuq o'zaro kelishuvga binoan baqtriyaliklar ahamoniilar hukmdorini tan olganlar, deb xabar beradi. Doro I davriga kelib esa Baqtriya qat'iy ravishda ahamoniilar qo'l ostidagi mulklar qatorida sanab o'tiladi. Doro Baqtriyaga o'z noibi qilib fors Dodarshishni tayinlagan. Gerodot qiziq bir ma'lumot qoldirgan. Kurush va uning o'g'li Kambiz hukmdorlik yillarida (miloddan avvalgi 530—522 yillar) ularga qaram mamlakatlardan muayyan bir soliq olinmagan. Biroq tobe mulklardan ularga covg'a-salomlar yuborib turilgan. «Doroni forslar savdogar deysishlariga sabab, — deb yozadi Gerodot, — u birinchi bo'lib soliq tizimini joriy etganligidandir». Haqiqatan, Doro qo'l ostidagi har bir mamlakat va viloyat yiliga katta mikdorda tayinli soliq to'lab turgan. Xususan, ahamoniylarga tobe okruglardan o'n ikkinchisiga kirgan «baqtriyaliklardan eglargacha (Xujand atrofiga yashagan qabila) bo'lgan hudud yiliga 360 talant to'lab turishi kerak bo'lgan». Ahamoniylarning yillik soliqlardan tashqari boshqa yo'llar bilan ham tobe halqlar Chuntagini qoqib kelganliklari ma'lum. Gerodotning yozishicha, qaqrab yotgan dalalarni sug'orish uchun dehqonlar ahamoniy hukmdorlar saroyiga borib, suv yo'lini to'sib turgan va tabiiy ravishda doimo qo'riqlanib turiladigan to'g'on darvozalarini ochib yuborishni so'rab nola qilgan ekanlar. SHunda hukmdor to'g'onni ochishga farmon berarkan. «O'zim eshitganman va bilaman hamki, u (ya'ni, hukmdor) to'g'onni katta pul evaziga ochgan, (yillik) soliq bundan mustasno», deb guvohlik beradi Gerodot. Umuman olganda ahamoniylar tobe o'lkalar aholisi, boyliklarini talashda, suiste'mol qilishda boshqa tajovuzkorlardan qolishmaganlar. Chunonchi, qadimda Elam davlati poytaxti bo'lgan, keyinchalik ahamoniylar qarorgohlaridan bo'lmish Suza shahridagi saroy qurilishida ishlatilgan oltin Baqtriyadan olib ketilganini tasdiklovchi ma'lumotlar bor.

Tajovuzkorlarning mahalliy halqlarga nisbatan tazyiqi o'z-o'zidan aholini isyon ko'tarishga majbur qilgan. Ana shunday ozodlik harakatlaridan biri ahamoniy Artakserks I (miloddan avvalgi 462—424 yillar) davrida ro'y bergan. Buning natijasida Baqtriya oz muddatga bo'lsa-da, qaramlik kishanini ulotirib tashlashga erishgan. Ahamoniylar qo'shini va baqtriyaliklar o'rtasida bo'lib o'g'gan janglarda, goh u tomon, goh bu tomon ustunlikka erishib turgan. Oxiri baqtriyaliklar engilganlar va yana qaramlik holiga tushib qolganlar. Baqtriyaliklarning ahamoniylarga munosabatini Kvint Kurtsiy Rufning qo'yidagi guvohliklaridan ham bilib olish mumkin: «Baqtriyaliklar g'oyatda epchil, tabiatan qattiqqo'l, forslarning dabdabasiyu erkatoyligini xush ko'rmaydiganlardan».

Baqtriyaning ahamoniylarga qaramligi to Aleksandr bosqiniga qadar davom etadi. qizig'i shundaki, Jazirada yunonliklardan katta talafot ko'rgan Doro III (miloddan avvalgi 336—330 yillar) Baqtriyadagi o'z noibi va qarindoshi Bessning sotqinligi tufayli halok bo'ladi. Bess va boshqalar mag'lub Doroni hibsga olib, ayollar tushgan aravaga soladilar va Baqtriya tomon chyakina boshlaydilar. Bundan xabar topgan Aleksandr 500 otliq askar bilan ularni quvishga to'shadi. Taxminan Parfiyaning Sharqiy hududlarida Aleksandr qochoqlarni quvib etganda, ular Doroni qattiq yarador qilib o'zlari juftakni urib qoladilar. Og'ir yarador Doroning ahvoli shu qadar bo'lganki, to Aleksandr uning tepasiga kelguncha jon bergan. Aleksandr o'z raqibi murdasini vataniga olib borib shohona ravishda marhum ahamoniy hukmdorlar qatoriga dafn etishni buyuradi. SHundan So'ng Aleksandr Baqtriyaning janubiy sarhadlaridan narida joylashgan erlarni bo'ysundirishga kirishadi. Aftidan, u baqtriyaliklarni har tomondan yakkalamasdan turib ularga qarshi yurish maqsadga muvofiq emasligini yaxshi tushungan. Haqiqatan, bu erlarni o'ziga tobe ettan Aleksandr Girkaniyaga (Janubi-g'arbiy Turkmaniston), u erdan esa yana Parfiya orqali Baqtriya tomon yo'lga to'shadi. Bu vaqtda Bess baqtriyaliklar, so'g'dlik va mintaqaning yunonliklar tasarrufiga tushmagan boshqa aholisining navbatdagi tajovuzkor domida qolishni istamasliklarini suiste'mol qilib, ularni o'z atrofida jamlagan va Artakserks nomi bilan o'zini Osiyo podshohi deb e'lon qilgandi. CHamasi bu paytda uning yonida bo'lgan so'g'dlik Spitamen va Oksiart Aleksandr bosqinini daf etishda Bessni qo'llab-quvvatlab (Chunki Bessniqg qo'l ostida ko'plab fors askarlari ham bor edi) shu tarifa So'g'diyona dahlsizligini saqlab qolmoqchi bo'lganlar. Fikrimizcha, Bess tarafdorlari bo'lib turgan 7000 baqtriyalik va ularning sardorlari ham shu ilinjda harakat qilganlar. Sababi shu hamda mintaqa uchun xavflisi Aleksandr edi. Bessning subutsizlik va sotqinlik fe'li esa baqtriyaliklar va so'g'diyonaliklar uchun ayon bo'lgani shubhasiz.

Aleksandrning Baqtriya eriga qadam qo'rganini eshitishi bilan Bess Amudaryoni (O'ks) kechib o'tib, So'g'diyona tomon qochadi (taxminan qashqadaryo vohasiga). YUnon askarlari Baqtriyaning qator shaharlari, jumladan, Baqtrni ham ishg'ol etadilar. Shu tarzda Baqtriya Aleksandr tasarrufiga to'shadi. Baqtriyaliklarning sodiqona xizmat qilishlariga ishonmaganidanmi Aleksandr Baqtriyaga noib etib fors Artabazni tayinlaydi. Baqtriyaliklarning haqiqatan ham kelgindilar bilan tinch-totuv yashay olmasliklarini tasdiqlovchi ma'lumotlarni biz yunon tarixchilari guvohligida ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Arrianning yozishicha, Spitamen So'g'diyonada yunonliklarning tinkasini quritib partizan harakatlarini olib borayotgan bir paytda baqtriyaliklar ham ko'zg'olon ko'tara boshlaydilar. Aleksandr ularni bostirishni buyuradi. Ko'p ham o'tmay (miloddan avvalgi 328 yil) Spitamen massaget otliqlari hamrohligida yana Baqtriyada paydo bo'ladi, poytaxt Zariaspi (Baqtr) egallashga harakat ham qiladi. Ammo u noma'lum sabablarga ko'ra bu shashtidan qaytadi.

(38-41)

Baqtriyadagi ma'naviy hayot to'g'risida gapiradigan bo'lsak, aholi turli dinlarga sig'ingan. qadimdan e'zozlanib kelinadigan zardushtiylk, Anaxita, Mitra xudolari bilan birga aholi orasida buddaga, yunonlarning Zevs, Afina, Appolon, Gerakl kabi xudolariga intilish hollari ham tabiiy hisoblangan. Turli e'tiqodlarga tegishli diniy muassasalar ko'rib borilgan.

Taxminan miloddan avvalgi II asrning 30-yillarida Baqtriya yunonliklar boshqaruvidan batamom kutiladi. SHimoldan kirib kelgan kabilalar harbiy kuchi zarbi ostida kulagan yunonliklar hokimiyati urnida toxtarlar (yuechjilar) hukmronligidagi yangi siyosiy birlik — Toxtariston barpo bo'ladi.

PARFIYA

Mintaqamizning Atrek hamda Go'rgon daryolari yuqori havzasida joylashgan (Janubiy Turkmaniston, SHimoli-Sharqiy Eronning bir qismi) tarixiy makonlaridan biri qadimda Parfiya nomi bilan yuritiltan. «Avesto»da Ahura Mazdaning beshinchi bo'lib Nisaya o'lkasini yaratgani haqida so'zlar bor. Nisayaning hozirda Ashgabat yaqinidagi xarobalari saqlanib qolgan ko'hna Niso shahri Parfiyaning dastlabki markazi bilan bog'liqligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Parfiyaning miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmidagi ahvoli borasida aniq fikr aytish qiyin. Zero, bu masalada ma'lumotlar juda oz. SHu bilan birga mavjud ma'lumotlar asosida ba'zi bir mantiqiy xulosalar chiqarish mumkin. Chunonchi, Pompey Trog skiflar (saklar) haqida so'zlarikan, «ular Parfiya va Baqtriyaga asos solganlar» deb yozadi. Boshqa bir joyda esa yunonlik tarixchi yana Parfiya xususida to'xtalib, «Rimliklar bilan butun dunyoni o'zaro bo'lib olgan parfiyaliklar hozirda butun SHarq o'zra hukmdordirlar va

ular (aslida) qachonlardir skiflar orasidan badarg'a qilinganlardandirlar, ularning nomi (ya'ni Parfiya — *A. 3.*) bunga ishora, zero, skiflar tilida «parfi» badarg'a qilinganlarni anglatadi».

Ktesiy osuriyalik Ninning harbiy yurishlari haqida bayon etib, u parfiyaliklarni ham bo'ysundirgan, deydi. Aftidan, osuriyaliklar miloddan avvalgi 1-mingyillikning VIII asr boshlarida Midiyaga qarshi yurishlarida Parfiyaga ham bostirib kirganlar. Parfiya-Midiya munosabatlariga to'xtalsak, midiyalik Kiaksar (Uvaxshatra) hukmronlik qilgan yillarda (miloddan avvalgi 625—584 yillar) Parfiya Midiyaga bo'ysundirilgan. Biroq ko'p ham o'tmay, taxminan So'nggi midiyalik hukmdor Astiag (miloddan avvalgi 584—550 yillar) davrida Parfiya Midiya tobeligidan chiqadi va yunon tarixchisi tili bilan aytganda, parfiyaliklar «o'z yurtlarini saklarga topshiradilar». SHunda Midiya va saklar (Xorazm?) o'rtasida urush boshlanadi. Oxir-oqibatda harbiy sulh va ittifoq tuziladi. Ammo tez orada Midiya davlati qulaydi va, tabiiy ravishda, Parfiya yana mustaqilligini tiklaydi. Umuman olganda esa Parfiya shimoldagi Xorazm siyosiy kuchlari manfaatlar doirasida bo'lib kelgani shubhasiz. Uning bu doirada bo'lish-bo'lmasligi xorazmlik siyosiy kuchlarning ma'lum davrlardagi mavqei va qudratiga bog'liq bo'lib kelganligiga ham shakl yo'q.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Parfiya ahamoniylar qo'l ostiga tushadi va saltanatning XVI okrugi tarkibiga kiritiladi. SHunta qaramay parfiyaliklar tajovuzkorlarga qarshi kurashni to'xtatmaydilar. Chunonchi, Doro I hukmronligining dastlabki yilida Parfiyada ozodlik harakatlari avj oladi. Bu vaqtda Parfiyani Doroning otasi Vishtasp boshqarib turardi. Halq qo'zg'olonini bostirish bilan band edi. Faqat miloddan avvalgi 521 yilga kelib Doro tomonidan yuborilgan katta kuchga suyanganda holda Vishtasp parfiyaliklar qarshiligini engishga erishadi. Behistun yozuvlariga ko'ra hal qiluvchi jang miloddan avvalgi 521 yil 12 iyulda ro'y bergan.

Miloddan avvalgi IV asrning 30-yillari So'ngida Parfiya navbatdagi tajovuzkor yunonlik Aleksandrning tobeligiga tushadi. Endi Parfiyani Aleksandr noibi Andragora boshqara boshlaydi. YUnonliklarning Parfiya ustidan hukmronligi Aleksandr o'limi bilan bog'liq siyosiy o'zgarishlardan So'ng ham to'xtagani yo'q. CHUNonchi, miloddan avvalgi IV asrning So'nggi o'n yilligidan boshlab Parfiya salavkiylar ta'siriga tushadi.

(44-47)

Aholi diniy qarashlarida zardushtiylar o'z mavqei saqlab qolgan. SHu bilan birga ezgulik va yorug'lik xudosi Mitra, yunon, yahudiy dinlariga sig'inish hollari ham uchray turgan.

Bir-ikki og'iz so'z arshakiylarning tashqi — elchilik aloqalari to'g'risida. g'arbda Rim imperiyasi bilan muxolifatda bo'lib kelganlariga qaramay, ular dunyoning boshqa mamlakatlari bilan siyosiy, elchilik aloqalarini muntazam ravishda yo'lga qo'yg'alar. Xususan, xitoy manbalarida Xitoy hukmdori maxsus elchilarining arshakiylar dargohida bo'lgani to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Elchilarni Sharqiy chegarada 20000 parfiyalik otliq askar kutib olgan va hukmdorlari farmoniga ko'ra to poytaxtgacha bo'lgan masofada ularga hamrohlik qilganlar. Bu, bir tomondan, arshakiylarning Xitoy elchilari va ular orqali Xitoyga bo'lgan e'tiborlaridan darak bersa, ikkinchi tomondan, bevosita arshakiylar saroyida elchilarni qabul qilishga oid ma'lum bir tartiblar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Xitoylik elchilar arshakiy hukmdor elchilari bilan yo'lga chiqib, Xitoyga etib kelgach bir erlik hukmdorga arshakiylar yuborgan sovg'a-salomlarni taqdim etgan ekanlar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, arshakiylar Turkiston doirasidai chiqib siyosiy yuksalishda saltanat darajasiga erishgan birinchi sulola hisoblanadi. Shuningdek ular YAqin SHarq va Janubiy Evropa davlatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri g'arbnig o'zida munosabat yuritgan turkistonlik ilk siyosiy kuch ham bo'lgan. Ammo shunday qudratga ega bo'lishlariga qaramay arshakiylar mintaqani siyosiy jixatdan birlashtira olmaganlar. Xorazm, So'g'diyona, Farg'ona, Baqtriya kabilarni bir siyosiy markaz ostida bo'ysundirish ishining uddasidan chiqolmaganlar.

FARG'ONA

O'zbekistonning eng go'zal va betakror makonlaridan biri bu Farg'ona vodiysidir. Iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, tabiiy boyliklari kabi qator xislatlariga ko'ra Farg'ona qadimdan e'tibor qozonib kelgan. Farg'onaning davlatchiligimiz tarixida tutgan o'z o'rni ham bor. Miloddan avvalgi II—I asrlarda bu erda mintaqadagi ilk davlatchilik tizimlaridan biri mavjud bo'lgan. Albatta, uning asoslari ancha ilgariroq kam deganda miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida shakllana boshlaganiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Farg'ona mintaqamizning eng qadimiy madaniy o'choqlaridan hisoblanadi. Chunonchi, taxminan miloddan avvalgi 2-mingyilliklardayoq bu erda dehqonchilik madaniyati o'ta taraqqiy eta boshlagan. Dehqonchilik bilan yonma-yon chorvachilik, baliqchilik, hunarmandchilik (metallni qayta ishlash, kulolchilik, to'qimachilik) sohaları jiddiy ravishda yuksalib borgani arxeolog olimlar tomonidan tasdiqlangan. Mazkur faoliyat sohalarining rivoj topishi kishilar hayoti, xususan, turar joy masalasida ham o'z ta'siriga ega bo'lishi tabiiy. SHu sababdan ham ko'rsatilgan davrda mustahkam qo'rg'onlar qurish, borib-borib ularning shaharlarga aylanish jarayoni ham jiddiy ravishda kechgani ma'lum.

Qadimgi Farg'ona ahli kelib chiqishi masalasiga kelsak, yunon tarixchilari Sirdaryoning (Yaksart, Tanais) narigi tomonida (shimolida, yuqori oqimlarida) skiflar (saklar) yashaydilar deb, guvohlik berib ketganlar.

Hamadondan topilgan qadimgi fors, elam, babil tillaridagi yozuvlarda esa «So'g'diyonadan narida yashovchi saklar» haqida ma'lumot saqlangan?. Diqqatga sazovor tomoni shu erdagi, ba'zi bir yunonlik tarixchilar (Gekatey, Gerodot, Pliniy va boshqalar), hind olimi Panini (taxminan miloddan avvalgi V asr) asarlarida, pahlaviy yozuvida bitilgan «Bundaxshin»da parikani, pariani, prakanva va parkan etnik-geografik atamaları uchraydi. To shu kungacha mazkur atamalarning Farg'ona bilan bog'liqligini isbotlovchi yo inkor etuvchi biron-bir bekami ko'st ilmiy asos shakllanganicha yo'q desak to'g'ri bo'ladi. Taajjublanarli joyi shundaki, Farg'ona haqida «Avesto»da biron so'z yo shunga ishora ham yo'q. Fikrimizcha, Farg'onaliklarning kelib chiqishi masalasida jiddiy xulosalarga turtki bo'lishga arzigulik manba sifatida miloddan avvalgi II—I asrlardagi Xitoy mualliflari asarlari xizmat qilishi mumkin. Miloddan avvalgi II asrning 20-yillarida Farg'ona, So'g'diyona, Baqtriyada safarda bo'lib, Turkistonning mazkur va boshqa qator viloyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar to'plagan xitoylik elchi Chjan Tsyen qoldirgan qo'yidagi guvohlikka e'tibor beraylik: «Davandan (Farg'onadan) g'arbra tomon Ansigacha (Parfiyagacha) bo'lgan ulkan hududida turli tillarda (laxjalarda) so'zlashalarda, ammo urf-odatlar o'xshash va muomalada bir-birlarini tushunadilar». Demak, ko'hna Farg'ona aholining mamlakatimizning boshqa o'lkalari aholisi bilan etnik bog'liqligi masalasida hech shubha yo'q.

Xitoyliklar Farg'onani Davan (Ulug' Van) deb ataganlar. Bu vaqtda (ya'ni miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida) Farg'onada kam deganda 60000 oila, ya'ni 300000 kishi istiqomat qilgan. Mazkur raqamni keltirgan xitoylik muallif aftidan Farg'onada o'sha vaqtda mavjud aholi sonini nazarda tutmagan. Zero, boshqa bir ma'lumotda butun Farg'ona bo'ylab aholi soni bir necha yuz mingni tashkil etadi deyilsa, boshqa bir erda Farg'ona lashkarining o'zi 60000 kishidan iboratligi aytilgan. Chunki bu davrda Davan (Farg'ona) siyosiy birligi tushunchasiga asli Farg'onadan kengroq hududni o'z ichiga olgan makon kirgan.

Farg'ona boshqaruvi tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatganligi xitoy manbalaridan ma'lum. Yordamchilar asosan oliy hukmdorning qarindoshlari orasidan tayinlangan bo'lishi kerak. Ammo oqsoqollar kengashi esa mamlakat ijtimoiy, siyosiy va tashqi munosabatlarida faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish qudratiga ham ega bo'lgan. Urush ochish, sulh tuzish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum etish kabi tadbirlarda oqsoqollar kengashi etakchi o'rin tutganligini ko'rsatuvchi guvohliklar bir talay. Masalan, xitoyliklarning Farg'onaga tajovo'zlari chog'ida oqso-qollar kengashi o'zaro sulh tuzish tarafdori bo'lib chiqadi va bunga erishadi ham. Yo bo'lmasa, xitoyliklar bosqini bilan bog'liq, voqealar sababchisi deb topilgan hukmdor Mug'uy oqsoqollar kengashi hukmi bilan qatl qilingan.

Farg'onaning ma'muriy bo'linishi haqida so'z ketganda, eng avvalo, xitoylik muallifning «Davanda (Farg'onada) etmishga yaqin katta-kichik shaharlar mavjud, Davan va Daxya (Baqtriya) o'rtasida o'xshashliklar ko'p» kabi guvohliklari diqqatni tortmay qolmaydi. Ma'lumki, Baqtriya «ming shahar» o'lkasi nomi bilan mashhur bo'lgan. Xitoylik elchi bu erda bo'lgan chog'da geografik ma'nodagi Baqtriyada Toxariston siyosiy birligi hukm surardi. Xitoy manbalariga ko'ra esa Daxyada har bir shahar o'z hokimiga ega bo'lib, ular ustidan turuvchi oliy hukmdor bo'lmagan. Agar yuqorida eslatilgan «Davan va Daxya o'rtasidagi o'xshashliklar» Daxyadagi shaharlar tutgan mavqega ham dahldor bo'lsa, u holda Farg'onadagi shaharlar ham ma'lum ma'noda mustaqillikka ega bo'lgan. Yuqorida zikr etilgan oqsoqollar kengashi mana shu shaharlar namoyandalari ishtirokida tashkil etilib kelingan bo'lsa ajab emas.

Markaz (oliy hukmdor va oqsoqollar kengashi) va shaharlar o'rtasidagi munosabatlar xususida aniq fikr aytish mushkul. SHu bilan birga qo'yidagi ma'lumotga e'tibor beraylik. Oqsoqollar kengashi qarori bilan xitoylik elchilardan biri Farg'ona poytaxtidan sharqda joylashgan shaharlardan birida qatl etiladi. Boshqacha aytganda, kengash hukmi poytaxtdan tashqari shaharlarda ham ijro kuchiga ega bo'lgan.

Bir-ikki og'iz so'z Farg'ona qo'shini haqida. Yana o'sha xitoy manbalariga murojaat qilinsa, lashkar hammasi bo'lib 60000 kishidan iborat bo'lgan. Farg'onalik harbiylar ayniqsa ot ustida o'tirib, kamondan o'q otishning ustasi bo'lgan ekanlar. Ular nayzalardan ham foydalanganlar. Farg'onaliklar hayotida ot ayniqsa ularning a'lo naslli bo'lmish arg'umoqlar alohida o'rin tutganini inobatga olib, lashkarning jangovor qismini otliqlar tashkil etgan, deb faraz qilish mumkin. Xorazmliklar asos solgan ot va chavandozni ziriha chulg'ash va dushman bilan yuzma-yuz kurashda kamondan mohirona foydalanish taktikasi farg'onaliklar uchun ham yaxshi tanish bo'lganiga shubha yo'q. Bu taktika bilan xitoyliklar aynan Farg'onada tanishgan bo'lishlari kerak. Farg'ona harbiylari mudofaa san'ati borasida ma'lum bir tajriba va salohiyatga ega bo'lganlar.

(52-55)

SHo Ye Xeu boshchiligida hunlarga taslim bo'ladi. Achchig'i chiqkan Xan sulolasi hukmdori nima qilib bo'lsa ham Farg'onaga harbiy yurishni davom ettirishni talab qiladi. Xitoyning Farg'onara intilishi shu qadar kuchli bo'lganki, bu safargi yurishda 60 ming qo'shin, ularga xizmat qiluvchi 100 ming ho'kiz, 30 mingga yaqin ot, 10 minggacha xachir, eshak, tuya ishtirok etgan. Lashkarning turli qismlariga boshchilik qilish uchun 50 nafar yirik lashkarboshi tayinlangan. Harbiy yurishga shunchalik jiddiy tayyorgarlik ko'rilganki, Farg'ona poytaxti ahli oqar suvdan iste'mol qilishini oldindan bilgan xitoyliklar o'zlari bilan daryo suvini bug'ish bo'yicha ustalarni ham birga olib ketganlar. Xullas, xitoylik muallif tili bilan aytganda, bu safar (taxminan miloddan

avvalgi 102—101 yili «butun (O'rta) podshohlik (ya'ni Xitoy) junbushga kelgandi». Xitoy qo'shini avvaliga halqning qattiq qarshiligiga to'qnash keladi. Og'ir janglardan so'ng Farg'onaliklar Ershi shahriga chyokinadilar va shu tariqa shahar qamali boshlanadi. Xitoyliklar shaharni suv bilan ta'minlovchi daryoni bo'g'ib qo'yadilar. Poytaxt uzoq muddat suvsiz qolib, bu holat mudofaachilarga ta'sir qilmay qolmaydi. Dushman toshu devorni buzib, shahar hududiga kirganida ham himoyachilar ichki qal'ada turib urushni davom ettiraveradilar. Bu orada Farg'onaliklar quduq qazib suv bilan ta'minlanish masalasini ham hal qiladilar. Ikkinchi tomondan, Xorazm qo'shini (kangyuyliklar) Farg'onaliklarga yordamga kelgani haqida xabar tarqaladi. Shunda xitoyliklar sulh tuzish yo'liga kiradilar. Kelishuvga binoan ularga «bir necha arg'umoq va 3000 bosh o'rta va past zot toycha va biya» nasib etadi. Xitoyliklarning Farg'onaga uyushtirgan ikkinchi va So'nggi harbiy yurishi shu tariqa barbod bo'ladi.

Farg'onaning Xitoy bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalari ham qiziqish o'yg'atmay qolmaydi. Chjan Tsyen ilk bor Farg'onada bo'lib qaytgandan So'ng bu yurtga uzoq Xitoydan birin-ketin savdo karvonlari qatnay boshlaydi. Tabiiy ravishda ular xitoylik hunarmandlar ishlagan nafis buyumlarni keltirib, ularni Farg'ona ajoyibotlari, masalan, otlar, dehqonchilik mahsulotlariga ayirboshlashga harakat qilganlar. Chunonchi, Chjan Tsyanning uzum va beda o'simligi haqida o'z hukmdoriga etkazgan ma'lumotidan So'ng oliy farmonga ko'ra shu ikki hismlik ko'chati va ypyg'i elchilar, savdogarlar orqali Xitoyga olib ketiladi va hosildor erlarda parvarish qilina boshlanadi. Shu tarika xitoyliklar uzum va bedani o'zlari uchun kashf etganlar. Bartold fikriga qaraganda, taxminan shu davrda Farg'ona orqali xitoyliklar paxtachilik bilan ham ilk bor tanishganlar. Bu erda paxta va uning qadimgi Xitoy ieroglifida *pak* qabilida ifodalanishi diqqatni tortmay qolmaydi. Ammo paxtachilik bilan rasmana shug'ullanishni xitoyliklar ancha keyin boshlaganlar. Umuman olganda, Farg'onaliklar savdo-sotiq ishlarida mohir hisoblanganlar. Miloddan avvalgi 1-mingyillikning So'ngi asrlarida shakllana boshlagan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy yo'nalishi xuddi shu Farg'ona orkali o'tgani bejiz emas, albatta.

TOXARISTON

Miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi II—I asrlariga kelib mintaqaning Baqtriya qismida yana bir siyosiy birlik — Toxariston yuzaga keladi. Aslida «Toxariston» atamasi yozma manbalarda dastlab milodiy 338 yildan boshlab uchrasa-da, lyokin miloddan avvalgi II—I asrlarda Baqtriya viloyatida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va tashqi munosabatlar majmuini boshqargan kuchlar Toxariston atamasi bilan atalsa tarixshunoslik nuqtai nazaridan to'g'ri bo'ladi (ko'p hollarda shunday bo'lib kelgan ham). Zero, bu vaqtda Baqtriya ustidan turuvchi asosiy siyosiy kuch toxarlar (yuechjilar) edi.

Toxariston siyosiy birligining asos topishi to'g'risida so'zlanar ekan, ko'rilayotgan davrda kechgan etnik jarayonlarning ba'zi bir tomonlari to'g'risida ham to'xtalmasdan bo'lmaydi.

Xitoy manbalariga ko'ra, miloddan avvalgi I asrning ikkinchi choragida hozirgi Sharqiy Turkistondagi Turfondan janubi-Sharqiy hududlarda yashab kelgan yuechji kabilalari qo'shni hunlar tazyiqi ostida Fap6ra tomon harakat qila boshlaydilar. Chunonchi, ular Ila Daryo vohasiga kelib o'nashadilar. Bu erlik usunlar (asian?) o'z o'nida yuechjilardan arz qilib, yordamga yana hunlarga murojaat qiladilar. Taxminan miloddan avvalgi 160 yillari yuechjilar hunlarning navbatdagi siquviga bardosh berolmay yanada g'arbiga tomon siljiydilar¹. Albatta, yuechjilarning sharqdan Fap6ra tomon ko'chishlari oson kechmagan. Bir tomondan, hunlar tazyiqi, ikkinchi tomondan, mahalliy qabilalar bilan kurash — bularning bari yuechjilar uchun katta qiyinchiliklar tug'dirgani tabiiy. Masalan, ular Issikkulning g'arbiy hududlarida mahalliy sak qabilalari bilan to'qnash kelganlar. Xitoy mualliflari so'ziga qaraganda, saklar bu janglardan keyin janubi-g'apb tomon chyokinishga majbur bo'lgan ekanlar. SHu orada yuechjilar usunlar tomonidan mag'lubiyatga uchraydilar.

Shu tufayli ular endi to'g'ridan-to'g'ri So'g'diyona hududiga kirib boradilar. Bu voqea taxminan miloddan avvalgi 130 yillarda yuz bergan. Xitoylik tarixchilar o'z bayonlarida davom etib, shundan So'ng yuechjilar Baqtriya tomon harakatga tushadilar, deb yozadilar. Ammo bu yurishning sabablari ko'rsatilmagan. Nimagadir masalaning bu tomoni hozirgi tadqiqotchilarni ham qiziqitirmay kelmoqda. Zero, biron-bir manbada (shu jumladan, yunon tarixchilari ham) yuechjilarning Baqtriyaga bostirib kirishlarining sababi yo bo'lmasa shunga biron ishora ko'rsatib o'tilmagan. Agar yuechjilarning Sharqiy Turkistondan Baqtriyaga harakatlari xususidagi xitoylik mualliflarning guvohliklari chin haqiqat yo shunga yaqin bo'lsa, u holda yuechjilarning So'g'diyonani tark etishga majbur etgan kuch bu Xorazm bo'lishi kerak. Zero, So'g'diyona ilgari aytib o'tilganidek, taxminan II asr o'rtalaridan boshlab Xorazmning ta'sir doirasida bo'lib kelgan.

SHu o'rinda haqli savol tug'ilishi mumkin: yuechjilarning bir erdan ikkinchi erga ko'chishidagi umumiy soni qanchalik bo'lgan? Bir necha marta tilga olganimiz CHjan Tsyen guvohliklari asosida bitilgan ma'lumotlarda bu xakda shunday deyiladi: yuechjilar 100 000 xonadon, 400 000 kishidan iborat; askarlarining soni 100 000 dan 200 000 gacha. Aftidan, bu yuechjilarning ko'ch-ko'chi boshlangunga qadar bo'lgan nufusiga taalluqli bo'lishi kerak. Agar haqiqatdan ham shunday bo'lsa, u holda yuechjilarning 30—35 yil davomidagi og'ir kechmishlaridan So'ng ular ham son jihatdan, ham zarb jihatdan o'z qobiliyatlarini saqlab qololganmikanlar? Masalaning bu tomoniga o'z vaqtida S.P.Tolstov ham e'tibor qaratib o'tgandi. Axir Baqtriyani egallashning o'zi oson emas-ku?

Xitoylik mualliflar qoldirgan ma'lumotlardagi anglashilmovchiliklardan yana biri shundan iboratki, yuechjilar Fap6ra tomon odimlar ekanlar, tabiiy ravishda, yo'l-yo'lakay mahalliy siyosiy kuchlar bilan keskinlik munosabatiga kirgan bo'lishi kerak.

Xuddi shunday hol ularning Farg'ona orqali yurishlarida ham sodir bo'lganiga shubha qilmasa bo'ladi. Ammo xitoylik tarixchilarga quloq tutilsa, CHjan TSyan ilk bor Turkiston mintaqasiga, jumladan, Farg'onaga qadam qo'yar ekan, nimagadir Farg'ona hukmdori uni iliq kutib oladi va yaqindagina bu erdan bostirib o'tgan yuechjilar oldiga ittifoq istab ketayotganini bilgandan So'ng ham hatto hamroh berib, elchini Baqtriya ko'zatib qo'yishni topshiradi. Xullas, xitoylik mualliflarning yuechjilarning sharqdan g'ap6ra tomon yurishlariga oid guvohliklarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmaydi, deyishga asos bor. Ularni tanqidiy o'rganish lozim.

Xo'sh, yunonlik mualliflarning mazkur masalaga nazarlari qanday? Pompey Trog, Strabonlarga ko'ra, Baqtriya ko'rilayotgan davrda sarauk, sakaravl, asian (asi) va toxarlar kabi skif kabilalari egallab olgan. Avval ham bo'lganidek (Xorazm — qang'a), mazmunan bir voqea, ya'ni miloddan avvalgi 130 yillarda shimoldan kelgan kuch tomonidan Baqtriya ko'nggi yunonlar siyosiy sulolasining ag'darib tashlanishi to'g'risida ran ketar ekan, yunonliklar yuechji xususida, xitoyliklar esa toxarlar borasida biron-bir nima demaganlar⁴. Bu haqda bilmaganlar ham. Yanada aniqroq aytganda, xitoylik mualliflar Baqtriya hukmronligidan yunonliklarni ag'darib tashlash bilan bog'liq jarayonni ta'riflashga o'zlari yuechji nomi ostida bo'lgan qabilalarning hunlar bilan munosabatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar.

(60-61)

to'g'risida to'xtalmasdan, balki umuman Baqtriya aholisi mashg'uloti, kasbi-kori va madaniy taraqqiyoti xususida mushohada qilinsa, tarixiy haqiqat yoritilgan bo'ladi. SHu nuqtai nazardan olganda Baqtriya aholisining umuman mintaqa madaniy taraqqiyotida tutgan o'rnini eslash o'rinli bo'ladi. Albatta, toxarlar hukmronligi yillari mazkur an'analar rivojlanishdan to'xtamaganiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Haqiqatan, bu vaqtda dehqonchilik, sun'iy sug'orish, hunarmandchilik, quruvchilik, haykaltaroshlik, zargarlik, to'qimachilik kabi sohalar rivoj topib borganini arxeologik qazilmalar, mavjud yozma manbalar orqali bilib olish mumkin. SHuningdek bu davrda tanga zarb etish davom etganligi, savdo-sotiqning gurkirab rivojlanganini ham ta'kidlab o'tish kerak. Zero, Baqtriya azaldan Turkistonning yuqori qismi, Hindiston, O'rta, YAqin, SHarq o'lkalari, Kichik Osiyo va Janubiy Evropa mam-lakatlararo savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutib kelgan.

Toxaristonning tashqi aloqalari xususida ma'lumotlar aytarliq ko'p emas. Masalan, yunon mualliflari hikoya qilishlaricha, taxminan miloddan avvalgi 124—123 yili toxarlar sharqdagi qo'shnilari Parfiya bilan jangga kirganlar. Aftidan, toxarlar Parfiyaning shu yillardagi zaif siyosiy mavqeidan foydalanib qolishga intilganlar. Bo'lib o'tgan jangda parfiyalik hukmdor Artabanning og'ip yaralanganligi to'qnashuvlar shiddatli kechganini ko'rsatadi. Keyinga parfiyalik hukmdor Mitridatning sa'y-xarakatlari tufayligina toxarlarning sharqqa tomon intilishlariga chek qo'yilgan.

Bir necha marta tilga olingan xitoylik elchi CHjan TSyaning yurtimizga qadam qo'yishining asosiy sabablaridan biri ham yuechjilar (toharlar) bilan ittifoq tuzishdan iborat bo'lgan. Xitoy tarixchilarining bayon qilishlaricha, hunlar tazyiqidan bezgan Xitoy hukmdori Baqtriya ko'nggi yunonlar siyosiy sulolasining ag'darib tashlanishi to'g'risida ran ketar ekan, yunonliklar yuechji xususida, xitoyliklar esa toxarlar borasida biron-bir nima demaganlar⁴. Bu haqda bilmaganlar ham. Yanada aniqroq aytganda, xitoylik mualliflar Baqtriya hukmronligidan yunonliklarni ag'darib tashlash bilan bog'liq jarayonni ta'riflashga o'zlari yuechji nomi ostida bo'lgan qabilalarning hunlar bilan munosabatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar.

Bir necha marta tilga olingan xitoylik elchi CHjan TSyaning yurtimizga qadam qo'yishining asosiy sabablaridan biri ham yuechjilar (toharlar) bilan ittifoq tuzishdan iborat bo'lgan. Xitoy tarixchilarining bayon qilishlaricha, hunlar tazyiqidan bezgan Xitoy hukmdori Baqtriya ko'nggi yunonlar siyosiy sulolasining ag'darib tashlanishi to'g'risida ran ketar ekan, yunonliklar yuechji xususida, xitoyliklar esa toxarlar borasida biron-bir nima demaganlar⁴. Bu haqda bilmaganlar ham. Yanada aniqroq aytganda, xitoylik mualliflar Baqtriya hukmronligidan yunonliklarni ag'darib tashlash bilan bog'liq jarayonni ta'riflashga o'zlari yuechji nomi ostida bo'lgan qabilalarning hunlar bilan munosabatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar.

SHunday qilib, miloddan avvalgi 1-mingyillikning So'nggi asrlarida faoliyat ko'rsattan Toxariston siyosiy birligi to'g'risida xotima yasar ekanmiz, yozma ma'lumotlarning oz bo'lishiga qaramay bir narsa aniqki, davlatchilik tariximizning eng qadimgi davrida Toxariston o'z munosib o'rniga ega bo'lgan. Milodiy I—IV asrlarda dong taratgan kushoniylar sulolasi faoliyati bilan bog'liq saltanatning asos topishida xuddi shu o'tgan davr shart-sharoitlari muhim ahamiyat kasb etgani shubhasiz.

Demak, miloddan avvalgi 1-mingyillikdayok, mamlakatimizda davlatchilik asoslari qaror topib, mazkur jarayonda Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Farg'ona va Toxariston kabi siyosiy birliklarning o'rni alohida bo'lgan. Turli davr shart-sharoitlarida o'lkaning tabiiy, geografik, aqliy imkoniyatlarini rivojlantirib yuksaklikka

ko'tarishda, o'sha qadim zamonlardayok, dunyo hamjamiyati madaniy taraqqiyotida o'z munosib o'rnimizni mustahkamlashda ular muhim omil bo'lib xizmat qilganlar.

O'ZBEK DAVLATCHILIGI MILOD BOSHIDAN ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDA

Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida yangi milodiy davrning boshlanishi kushoniylar sulolasi faoliyati bilan bog'liq. Kushoniylar milodiy I—IV asrlarda Turkistonning kattagina qismida siyosiy hukmronlikni o'z qo'lida tutib turgan kuch hisoblanadi. Ent muhimi, kushoniylar mintaqadagi deyarli barcha siyosiy birliklar, makonlarni va hatto qo'shni mamlakatlarni ham bir siyosiy markaz atrofida birlashtirib o'zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilik bosqichini ochgan siyosiy kuch hisoblanadilar. Ular shimolda SHosh, sharqda — Sharqiy Turkiston, g'arbda — Eron, janubda — SHimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hududni birlashtirishga erishganlar. Keyinchalik bu an'ana eftaliylar, somoniylar, anushteginiylar, temuriylar, ma'lum ma'noda Shayboniylar hukmronligi yillarida ham davom etdi.

Haqiqatan milodgacha kechgan asrlarda na Xorazm va Baqtriya, na Farg'ona va Toxariston siyosiy kuchlariga butun mintaq va uning atrofidagi mamlakatlarni yagona markaz ostida birlashtirish nasib etmagandi. Ta'kidlanganidek, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi saltanatchilik bosqichini ochib bergan aynan kushoniylardir.

KUSHONIYLAR

Yuqorida Toxaristonda mavjud besh siyosiy xonadon (Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun va Gaofu) to'g'risida to'xtalib o'tgan edik. Milodiy davr xitoy solnomachilari guvohligiga qaraganda, shulardan biri guyshuanlar taxminan milodiy I asrda Baqtriyada o'z hokimiyatlarini butunlay o'rnatishga muvaffak bo'ladilar. Xitoy manbalarida guyshuanlarning bu vaqtdagi sardori sifatida Kiotszyukyu ko'rsatiladi. Arxeologlar qazishmalari natijasida topilgan tangalar bo'yicha aniqlanishicha, Kiotszyukyu asli Kujula Kadfiz nominint xitoycha jaranglashi ekan. SHuni ham qayd etib o'tish lozimki, Guyshuan atamasi aslida Kushonning xitoycha ifodasidir.

Xanuzgacha kushoniylar orasidan chiqqan birinchi rasmiy hukmron qaysi yildan boshlab hokimiyat yurgiza boshlagani aniq emas. SHuning uchun ham ba'zi bir olimlar bu masalada I asrni ko'rsatsalar, ba'zilar II, yo bo'lmasa III asrni to'g'ri deb biladilar. Bunday qaraganda hammasining ham gapida jon barga o'xshaydi. Fikrimizcha, kushoniylar mintaq siyosiy maydoniga shahdam qadam qo'ygan yillarni I asr bilan bog'lasa to'g'ri bo'ladi. Zero, yana o'sha xitoy manbalariga murojaat qilinsa, yuechjilar Baqtriyani bosib olganlaridan «yuz yildan ko'prok, vaqt o'tgandan So'ng guyshuanlar sardori Kiotszyukyu boshqa to'rt hokimlikning ham (ya'ni Xyumi, SHuanmi, Xeytun, Gaofu sulolalarining) hukmdori deb e'lon qilindi» qabilidagi ma'lumotlarni topamiz. Agar xitoylik tarixchilar ko'rsatib o'tganlaridek, yuechjilarning Baqtriyaga kirib kelishi taxminan miloddan avvalgi 130 yillarga to'g'ri kelsa, u holda kushoniylarning dastlab Baqtriya ustidan o'z siyosatini o'tkazishlari milodiy I asrda sodir bo'lganligi aniqlandi.

SHunday qilib, Kujula Kadfiz Baqtriyani bo'ysundirganidan So'ng endi qo'shni viloyatlar sari o'tlanib, So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini ham egallashga erishadi. «Kiotszyukyu sakson yildan ortiq umr ko'radi. Vafotidan So'ng uning o'g'li YAngaochjen taxtga o'tiradi va yana bir bor Hindistonni zabt etadi... SHu vaqtdan boshlab yuechji (ya'ni kushoniylar) eng qudratli va badavlat sulola bo'lib qoldi», deb yozgandi xitoylik muallif. Demak, Kujula Kadfizdan So'ng oliy hokimiyat uning o'g'li YAngaochjen, ya'ni tangalardagi yozuvlarga ko'ra aslida Vima Kadfiz qo'lga o'tadi. U ko'proq Kadfiz II nomi bilan mashhur. Kushoniylar hokimiyati chegaralarini kengaytirib borish borasida Kadfiz II ham bo'sh kelmagan. Chunonchi, Hind daryosi qo'yi oqimlari, hatto Gang daryosi vodiysigacha bo'lgan erlarni ham o'z ixtiyori doirasiga topshirishga muvaffaq bo'ladi.

Kushoniylar nomi bilan bog'liq saltanat taraqqiyotining eng yuqori cho'qqiga chiqqan davri Kanishka hukmronligi yillariga to'g'ri keladi (taxminan I asr oxiri — II asr birinchi choragi). Kanishka kushoniylar qudratiga qudrat, shuhratiga shuhrat qo'shishda juda katga sa'y-harakatlar qilgan hukmdor. Bu vaqtda saltanat Hindiston markazlarigacha cho'zilib, hatto Hind zaminining janubiy viloyatlariga ham jiddiy tahdid solina boshlaydi. Bundan tashqari So'g'diyona orqali Farg'ona, Sharqiy Turkiston ham kushoniylar hokimiyatini tan oladi. Ba'zi bir adabiyotlarda Xorazm ham kushoniylar siyosiy ta'siri ostida bo'lgan, qabilidagi ta'kidlar uchrasada, ammo eng So'nggi tadqiqotlarga ko'ra Xorazm iqtisodiy, madaniy jihatdan kushoniylar bilan yaqin munosabatda bo'lgan, lyokin siyosiy qaramlikka tushmagan. Ammo bir narsa aniqki, Kanishka zamonida Turkistonning asosiy qismlari bir siyosiy hokimiyat ostida birlashib, qudratli saltanat vujudga kelgan.

Kanishka taxminan chorak asr atrofida hukmronlik qilgan. Undan keyingi hukmdorlar faoliyati davomida kushoniylar saltanati syokin-asta zaiflashish yo'lidan boradi. Kanishkadan keyin hokimiyatni tebratgan davlat boshliqlari qo'yidagilardir: Vasishka, Huvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II. Afsuski, kushoniylar saltanatining mazkur hukmronlar davrida kechgan ahvoli to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz. Ammo shu narsa aniqki, saltanatning juda katta hududga cho'zilganligi, uning barcha qismlarini mustahkam bog'lab turadigan yagona mafko'raviy muhitning yo'qligi, markaziy hokimiyatning zaiflashishi, mahalliy viloyatlarning mustaqillikka intilishlari bilan bog'liq. boshboshdoqlik jarayonining kuchayishi,

markazning So'g'diyonadan Peshovarga ko'chirilishi (Kanishka davrida), tashqi kuchlarning ta'siri — barcha-barchasi kushoniylar hukmronligiga chek qo'yilishiga olib kelgan. Bundan tashqari keyingi davrlarda kushoniylar orasida o'zaro kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi ham saltanatga nisbatan qattiq zarba bo'lgan. Xitoylik tarixchilarning yuechjilik «TSidola (Kidara) o'z lashkari bilan baland tog'lar oshib SHimoliy Hindistonga hujum qildi va Gantolodan (SHimoli-Rarbiy Pokiston) shimolda joylashgan besh davlatni (mulkni) bosib oldi» kabi guvohliklar fikrimiz dalili bo'la oladi. Ko'rib to'rganimizdek, kushoniylar orasidagi boshboshdoqlik jarayoni juda qaltis va keng hududda kechgan. Xullas, yuqoridagi sabablar bir bo'lib IV asrda kushoniylar siyosiy faoliyatiga chek qo'ygan.

Kushoniylar davrida saltanat qay yo'sinda boshqarilgan? Aytib o'tilganidek, avvalda kushoniylar ham yabg'u unvonida o'z sulolalari doirasida faoliyat ko'rsatganlar. Saltanatga asos solinganidan So'ng mintaqa uchun an'anaviy satrapiyalar tizimidan keng foydalana boshlangan. Satraplar oliy hukmdor tomonidan uning ishonchini qozongan, chamasi o'z doirasi namoyandalari orasidan tanlangan. SHu bilan birga satraplik lavozimiga harbiy yurishlarda jonbozlik ko'rsatgan lashkarboshilar ham lozim topilgan vaqtlar bo'lgan. Umuman olganda esa satraplar baqtriyaliklar orasidan bo'lishi shart edi.

Albatta, saltanat tayanchi bo'lib kushoniylarni ko'p sonli yaxshi qurollangan qo'shini hisoblangani ham shubhasiz. Hozircha kushoniylar qo'shinining umumiy soni qancha bo'lgani to'g'risida aniq fikr aytish qiyin. SHu bilan birga kushoniylarning Sharqiy Turkistonda xitoyliklarga qarshi 70 ming lashkar bilan chiqqanini hisobga olib, ularning umumiy harbiy qudrati 150—200 ming askar atrofida bo'lgan bo'lsa ajab emas, deyish mumkin. qo'shin o'tliq va piyoda askarlardan iborat bo'lib, o'tliqlar zirihga chulg'angan holda jangga kirganlar. Jang qurollariga qo'yidagilar kirgan: uzunligi 1 metr dan oshiqroq har ikki tomoni o'tkir qilich, xanjar, nayza, jangovar bolta, sopqon. Kushoniy harbiylar uzoqdan turib jang qilishda asqotadigan kamonni takomillashtirish borasida ham ma'lum ishlarni qilganlar. Chunonchi, suyak yo shoh bilan qoplangan murakkab qo'sh kamon aynan kushoniylar davrida yaratilgan. Keyinchalik esa bu kamon turi Uraloldi erlari orqali SHotlandiyagacha, SHarqda Eron, Hindiston va Xitoygacha tarqab borgan.

Kushoniylar davri iqtisodiy munosabatlari haqida so'z ketganda, eng avvalo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, mintaqa aksar qismining siyosiy bir butunligi yagona iqtisodiy makonni yuzaga keltirgan.

(68-71)

Mintaqaning kushoniylar davri tashqi aloqalarida savdo-sotiq alohida ahamiyat kasb etgan. Miloddan avvalgi II asrdayoq shakllana boshlagan Buyuk Ipak yo'li bu vaqtda jadal sur'atlar bilan faoliyat ko'rsatar edi. U Xitoydan Turkistonga va u orqali g'arbdagi mamlakatlarga ipak, lok va boshqa mahsulotlar, Xitoyta esa zotdor arg'umoqlar, shishadan yasalgan turli buyumlar olib borilgan. So'g'diyonalik, baqtriyalik savdogarlar Rim saltanati shaharlarida savdo-sotiq bilan shug'ullanib, qimmatbaho toshlar, temir va temir buyumlar, qurol-yarog', ipak kabi mahsulotlar bilan ta'minlab turganlar va ularning evaziga asosan oltin, kumush tangalar olib qaytganlar. Rimlik savdogarlar ham o'lkamizga kelishda asosan oltin va kumush tangani g'amlash hisobiga mahalliy mollarni sotib olganlar. Savdogarlarning esa ko'p hollarda elchilar bilan hamroh bo'lib yurganlari yaxshi ma'lum. Rim bilan munosabatlar ham bundan istisno emasdi. Chunonchi, 99 yili kushoniy hukmdorning elchilari Rim imperatori saroyida bo'lganini bilamiz.

SHunday qilib, davlatchiligimiz tarixida kushoniylar davri siyosiy, iqtisodiy, madaniy va tashqi aloqalar sohasida kattadan-katta yutuqlarga erishilgan asrlar bo'lgan, desak to'g'ri bo'ladi. Bu davr nafaqat bizning tariximizda, balki dunyo o'tmishida o'ziga xos muhim iz qoldirdi.

EFTALIYLAR

V asrga kelib siyosiy maydonga eftaliylar sulolasi chiqadi. Ular to VI asrning ikkinchi yarmiga qadar mintaqa siyosiy hayotida etakchilik qiladilar.

Eftaliylar kimlar? Ularga oid qator ma'lumotlarni biz xitoy, hind, fors, arman, suriya, lotin manbalaridan topishimiz mumkin. SHuni kayd etib o'tish lozimki ularning hammasida ham eftaliylar atamasi uchramaydi. Sababi har bir til va yozuvning o'z xususiyatlari bo'lishida. Masalan, xitoy manbalarida eftaliylar ida, yeda, idan, idyan atamalari ostida kelishini ko'zatish mumkin. Suriya va lotin manbalarida esa eptal, abdal; arman yozuvlarida idal, tetal, xeptal; arab va fors mualliflari nazdida haytal, yaftal, hetal; hind manbalarida huna va xokazo.

Xitoylik mualliflar eftaliylarni turkiy tipli halqlar (tukyue) bilan bog'liq ravishda ta'riflab, ularning yuechji yo uyg'ur qabilalariga tegishli ekanini ham aytib o'tadilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopi (VI asr), «ular (ya'ni eftaliylar) hunlardanir, tanalari (esa) oq», deb masalaga aniqlik ham kiritib o'tadi. Oq huna, ya'ni eftaliylar haqida ma'lumotlar hind manbalarida ham bor. Pahlaviy yozuvida bitilgan «Baxman-YAsht»dagi sosoniylarning eftaliylar va boshqalar bilan munosabatiga doir qo'yidagi tarixiy tasdikdar e'tiborni tortmay qolmaydi: «(Erondagi) podshohlik va oliy hokimiyat eroniy bo'lmagan qulvachchalarga, ya'ni xion, turk, xaftal (eftal), tibetliklar... qo'liga o'tdi» Ko'rinib to'rganidek, eftaliylar to'g'ridan-to'g'ri turkiy shajaraga bog'lanyapti. Ba'zi bir tadqiqotlarda esa ularning kelib chiqishini eroniy halqlar bilan bog'lashga o'rinish hollari ham uchrab turadi⁶. Vazifamiz bo'lmagani uchun bu erda biz Turkiston halqlarining mazkur davr etnogenezi

masalasiga to'xtab o'tishni lozim topmaymiz. Ammo bizga ma'lum va ixtiyorimizda bo'lgan biron-bir manbada eftaliylarning eroniy halqlar jumlasiga kirgani yo bo'lmasa shunga biron ishorani uchratganimiz yo'q. Buning ustiga yuqorida tilga olingan «Badman — YAsht»da lunda qilib eftaliylar eroniy emas, deb yozib qo'yilgan. SHu bilan birga biz boshqa bir masalaga diqqatni jalb etmokchimiz. Xitoy manbasidagi qo'yidagi guvohlikka e'tiborni qarataylik: «Idan (eftaliylar) sulolasi Xan sulolasi davridan ma'lum Katta YUechji avlodidan. Daxya (Baqtriya) bu Tuxrla (Toxariston) demakdir. (Bu erlik) hukmdorning nomi Iede (Eftal, Eftalan, Eftalit) bo'lgan. (Keyinchalik) uning avlodlari (bu) nomni davlat nomiga aylantirib yuborganlar. Urf-odatlar tukiuelarnikiday (turklarnikiday)». SHu kabitdagi dalillarni o'zida jo etgan bir qator boshqa manbalar tahlili shunday xulosaga olib keladiki, eftaliylar Turkiston mintaqasida yashab kelgan qadimiy pypg' vakillaridan shakllangan sulola bo'lib, V asrda tegishli sharoit tutilishi bilan siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishga erishganlar.

Bilamizki, So'nggi kushoniylar davrida davlatning siyosiy, iqtisodiy va tashqi munosabatlardagi ta'siri zaiflashib borgan. Ajab emas, bunday holatdan norozi va aksincha, tashqi munosabatlardagi faollikdan manfaatdor mamlakat siyosiy va savdo doiralari eftaliylarning oliy hokimiyatga intilish harakatlarini qo'llab-quvvatlaganlar. Zero, mamlakat o'z taraqqiyot yo'lida to'xtab qolmasligi uchun qat'iy siyosatchilik faoliyati zarurligi barchaga ayon narsa. Ana shu tarixiy vazifani uddalash V asrning ikkinchi yarmida eftaliylar yo xitoylik tarixchilar tili bilan aytganda Eftal (Eftalan) avlodlari bo'yniga tushgan. Ular oliy hokimiyatni qo'lga kiritgach, o'z sulolalarini (hukumatlarini) bobolari nomi bilan bezaganlar. Bunga o'xshash hollarni biz mintaqa tarixida ko'plab uchratishimiz mumkin: Somon — somoniylar, Saljuq — saljuqiylar, Temur — temuriylar va hokazo. Eftaliylar atamasi shu sulola asoschisi Eftalan nomidan kelib chiqqanini vizantiyalik Feofan ham yozgan. SHuni ham qat'iy tasavvur qilish mumkinki, VI asrda ashinaliylardan mag'lubiyatga uchraganlaridan keyin ham eftaliylar xonadoni o'z doirasidagi faoliyatni davom ettiravergan. Eftaliylar sulolasining VII asrda ham barhayotligini shundan bilsa bo'ladiki, xitoy manbalariga ko'ra, 605—617 yillar oraligida ular Xitoy hukmdori saroyiga o'z elchilarini yuborib to'rganlar. Aftidan, bu eftaliylarning davlat tepasida turgan vaqtlaridagi Xitoy bilan o'rnatgan o'zaro sulolaviy aloqalarning davomi bo'lishi kerak.

SHunday qilib V asrning ikkinchi choragidan boshlab mamlakatimiz, umuman Turkiston siyosiy hayotida eftaliylar xonadoni hukmron o'rin tuta boshlaydi. Bu yillar IV asrdayoq zaiflashishi yo'lga kirgan Kushoniylar saltanatining g'arbiy sarhadlari sosoniylar tahdidi ostida qolgan davr edi. SHuning uchun eftaliylarning sosoniylar bilan keskin munosabatlarga kirishishlari tabiiy bir hol bo'lgan. Garchi ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asr 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsada, ammo hal qiluvchi ko'rashlar sosoniy hukmdor Piruz (Peroz) davriga (459—484) to'g'ri keladi. Taxminan 457 yili Vaxshunvar (Ax-shunvar) boshliq eftaliylar CHag'oniyon (Surxondaryo viloyatining Termizdan yuqori qismlari), Toxariston, Badaxshonda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. Bir oz vaqt o'tgach, ya'ni 459 yili Eron taxtiga Piruz chiqadi. Manbalarda Piruzning oliy hokimiyatga kelishi eftaliylar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi.

Nafaqat Piruz, balki uning akasi Xo'rmuzd (457—459) ham eftaliylar yordamida taxtni qo'lga kiritgani ma'lum. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi bu kabi munosabatlar sababini tushunish qiyin emas. Chunki Xo'rmuzd va Piruzlar o'z vaqtida taxt vorisi sifatida Sosoniylar davlatining Sharqiy viloyatlarini (Seyistondan Marg'iyonagacha bo'lgan hudud) boshqarganlar (Xo'rmuzd 420—457 yillari; Piruz 457—459 yillari). SHu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralari bilan yaqindan muomalada bo'lganlar. Bu yaqinlik qay daraja bo'lganligini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, sosoniylarning mazkur hududlarini boshqargan taxt vorislari «Kushon hukmdori» unvoniga ega bo'lganlar. Bu ma'lum vaqt muqaddam kushoniylar egalik qilgan viloyatlar ustidan hukmronlik va qolganlariga da'vogarlik degani bilan barobar. SHu erda Xitoy manbalarida sosoniylarning kelib chiqishini yuechjilar bilan bog'lashga doir hollarni eslab o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Mazkur guvohliklar, hatto afsonavor bo'lganda ham, sosoniylarning Turkiston bilan yaqinligi ko'zga tashlanib to'rgan hol. Buning isbotini Xo'rmuzd va Piruzning Eron taxtiga chiqishlarida eftaliylar ko'rsatgan yordam orqali ham ko'rish mumkin. Faraz qilish mumkinki, bu siyosiy tadbirdan nafaqat eftaliylar, balki mintaqa savdo-iqtisodiy doiralari ham manfaatdor bo'lganlar. Aftidan, mo'ljalga ko'ra, Sharqiy Turkistondan Rim saltanatigacha bo'lgan ulkan hududni yaxlit iqtisodiy-savdo makoniga aylantirish asosiy maqsad bo'lgan.

(76-77)

Bunda iqtisodiy-savdo munosabatlarining izchil yo'lga qo'yilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Uylaymizki, mintaqamizning an'anaviy iqtisodiy imkoniyatlari (dehqonchilik, sun'iy sug'orish, chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar) bu davrda ham o'z ravnaq yo'lida to'xtamaganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Manbalarda bu borada hech bir yo'qotish bo'lmagani haqida guvohliklar yetarli.

Ayniqsa, savdo-sotiq gurkirab rivoj topgan. Bir tomondan, ulkan mintaqaning siyosiy jihatdan yaxlitligi, ikkinchi tomondan, SHarq va G'arb mamlakatlariaro iqtisodiy-savdo munosabatlari oralig'ida bo'lib kelish ichki va tashqi savdo ishlarining yanada taraqqiy etib borishiga qulay sharoit yaratib bergan. Bu esa o'z o'rnida yo'l, qatnov, ta'minot, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borishiga yo'l ochgan. Tashqi savdoda ipak, lok, buyoqlar, rangli shishalar, qimmatbaho toshlar, arg'umoq otlar, matolar, shirinliklar, qurol-yarog' kabi noyob mahsulotlar bozori chaqqon bo'lgan. SHuni ham nazarda tutish lozimki, Buyuk Ipak yo'lining har ikkala

yo'nalishining (shimoliy — Turfon, Koshg'ap, Farg'ona, So'g'diyona, Marg'iyona; janubiy — Xo'tan, YOrkent, Pomir, Baqtriya) eftaliylar saltanati hududidan o'tishi ham muhim ahamiyat kasb etgani tabiiy.

Iqtisodiy taraqqiyot o'z-o'zidan madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi tushunarli hol. Biz yuqorida kichik shaharlarning gurkirab o'sishi haqida gapirdik. Arxeologlarimiz ta'kidlashlaricha, me'morchilik sohasida turar joylarni bir necha qavat qilib qurish, uy devorlarini naqqoshlik va suratlashlik san'ati namunalari bilan bezash bu davr uchun harakterlidir. Diniy inshootlar qurilishiga ham alohida e'tibor berilib, ichki bezash ishlarida qimmatbaho toshlar, xususan oltindan keng foydalanilgani ma'lum.

Eftaliylar davrida mintaqada so'g'dcha, xorazmcha, buxorocha, karoshti, eftaliycha yozuvlar mavjud bo'lganini kayd etish lozim. Eftaliy yozuvi haqida xitoylik Syuan TSzan shunday yozgandi: «YOzuvlaridagi asosiy harflar soni yigirma beshta bo'lib, ular yordamida iboralar, so'zlar yasaydilar. Sahifaga xatni eniga tushiradilar, chapdan o'ngga qarab o'qiydilar». Diniy e'tiqodlar borasida ham xilma-xillikni ko'rish mumkin. Ulkan saltanat ahli zardushtiylik, qadimiy e'tiqodlardan Siyovush, Anahita, Mitraga, buddaparastlik (asosan SHimoliy Hindistonda) kabi dinlarga sig'ingan. SHu bilan birga o'lkada Moniy va Mazda (mazdakiylik) ta'limotlari ham tarqab borgan.

Eftaliylarning tashqi aloqalari, yuqorida ta'kidlanganidek, Eron bilan g'oyatda keskin kechgan. Buning sabablaridan biri sosoniylarning ham G'arb va SHarq o'rtasida savdo aloqalarida etakchi o'rinni egallashga qaratilgan o'rinishlarida edi. Sosoniylarning eftaliylarga o'lpon to'lashi Piruzning o'g'li qubod (Kavod) hukmronligi yillarida ham davom etadi. SHu bilan birga qulay sharoit tug'ildi deguncha eftaliylar sosoniylarning ichki ishlariga aralashishga harakat qilganlar. Masalan, 496 yili taxtdan ag'darilib qamoqqa tashlangan qubod qochib eftaliylar oldiga boradi. Suriyalik Ieshu Stilitning yozishicha, u «ko'zida yosh bilan har kuni (eftaliylar hukmdoridan) lashkar bilan qo'llab-quvvatlashni iltimos qilardikim, to... yana davlat boshqaruvini qo'lga olsam deb. Haqiqatan, eftaliylar yordamida qubod 499 yili yana Eron taxtiga o'tiradi. Eftaliylar sosoniylarni o'zlariga qaram qilib olganlaridan So'ng ularning imkoniyatlaridan Vizantiyaga qarshi ko'rashda foydalanmoqchi ham bo'ladilar. Chunonchi, eftaliylarning Vizantiyaga qarshi 502 yildagi yurishi sosoniylar ishtirokida amalga oshirilgan.

Eftaliylarning Xitoy bilan munosabatlari asosan, savdo-sotiq orqali amalga oshirilib, bunda yuqorida aytilganidek, Buyuk ipak yo'lining shimoliy va janubiy yo'nalishlarining mintaqamiz orqali o'tishi katta ahamiyat kasb etgan. Eftaliylarning Markaziy Hindiston, Evropaning eng Sharqiy viloyatlari bilan ham yaqin aloqalarda bo'lganlari ma'lum.

SHunday qilib, V—VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmish dongdor sulolalardan qolishmaganlar. Aksincha, So'nggi kushoniylar zamonida boshboshdoqlik yo'liga kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini an'anaviy yuksak darajada tutib turish ishiga bosh-qosh bo'lganlar.

ASHINALIYLAR

VI asrning boshlariga kelib Oltoyning janubiy viloyatlarida siyosiy munosabatlar jarayonining faollashishi yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Xitoy manbalariga ko'ra, bunda hal qiluvchi o'rinni Ashina sulolasi namoyandalari egallaganlar. Bu davrda mintaqadagi siyosiy manzarani to'liq tasavvur qilish uchun qo'yidagi-larni eslash kifoya bo'ladi, deb uylaymiz. Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, SHimoliy Hindiston va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan hududda eftaliylar, hozirgi Mo'g'uliston va qisman SHimoliy Xitoy ustidan esa Jujan xonligi hukmronlik qilib kelardi. Aytilganidek, Oltoyning janubiy tomonida Ashina sulolasi hatti-harakatlari tufayli siyosiy jarayon yuksalish yo'liga kiradi. Bundan tashkqri zamonaviy tushunchadagi Xitoyning shimoliy qismida Vey (YUan-Vey) sulolasi (386—558) hukmdorlik qilar va bu xonadonning asli chiqib kelishi esa turkiy negaz bilan bog'liq edi. Demak, VI asr boshlarida Kaspiy dengizidan Uzoq SHarqqacha bo'lgan katta hudud hayoti ko'pdan-ko'p turkiy tilli sulolalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan.

Oltoy tog' tizimi janubiy qismining qadimgi nomi Oltin yish (Oltin vodiy) bo'lib, tabiiy sharoiti har qanday jamiyat farovonligini ta'minlashda benazir hisoblangan. Xitoy manbalarida yozilishicha, tilga olingan Ashina sulolasi ham xuddi shu shart-sharoitda yuksalgan, siyosiy ta'siri ortib borib, ayniqsa Bo'min (Tumin) sardorligi vaqtida bu jarayon yanada faol tus olgan. Uddaburon siyosatchi sifatida u ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'lini tutadi. Masalan, Bo'min Jujan xonligi bilan ochiqdan-ochiq aloqani uzib, 551 yili Vey xonadoni bilan quda-andalik aloqasiga kiradi. 552 yili esa Jujan xonligiga qarshi qurolli ko'rashga o'tlanib, ularni tormor qiladi. Ammo Bo'min 553 yili vafot etadi va uning o'rniga taxtga o'g'li qora Issiq (Isigi) o'tiradi. qora Issiqxon ko'p hukmdorlik qilmay, shu yiliyoq qazo qiladi. Lyokin u ham o'z hukmronligi davomida jujanlarga yana bir bor qattiq zarba be-rishga ulgurgandi. Demak, shu yilning o'zida Ashina sulolasining sardori ikki marta o'zgargan. Endigi gall taxtga Bo'minning kichik o'g'li Mug'anxon (553—572) chiqadi.

Myg'anxon davrida ashinaliylar «Koreya qo'ltig'idan g'arbiy dengizgacha, (Xitoy devoridan) SHimoliy dengizgacha» bo'lgan erlarni o'z siyosiy hukmlari ostiga olishga muvaffaq bo'lganlar. Mug'anxon xuddi otasi Bo'min kabi ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'llaridan ustalik bilan foydalana bilgan hukmdor edi.

Chunonchi, eftaliylar sulolasiga qarshi kurashda u, avvalo, ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin munosabatlarga kirishadi. Buning uchun Mug'anxon 554 yili Eronga elchi yuborib, ikki tomon-lama aloqa va ishonchni mustahkamlash yuzasidan amakisi Ista'mining qizi Asnabekani sosoniy Xisrav I ga (531—579) turmushga beradi. Eftaliylar qarshiligiga qaramay ashinaliylar va sosoniylar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga putur etmaydi. Lyokin bu yaqinlashuv vaqtinchalik edi. Zero, Ashina sulolasining eftaliylardan So'ng albatta sosoniylarni ham bir yoqlik qilishni muljallab qo'yganliklariga shubha qilmasa ham bo'lardi. Xaqiqatan ham shunday bo'lib chiqdi. 565 yili Mug'anxonning amakisi Istami eftaliylar qo'shiniga qaqshatkich zarba bergan. 567 yili esa Toxariston va umuman eftaliylar qo'li ostida bo'lib kelgan erlarni zabt etishga muvaffaq bo'ladi. SHu tariqa VI asrning So'nggi choragi arafasida mintaqada navbatdagi sulola — ashinaliylar hukmronligi o'rnatiladi.

O'sha davr siyosiy voqeligi nuqtai nazaridan olganda ashinaliylarning Turkistonni zabt etishlari ehtimoli baland edi. Chunki So'nggi yillarga kelib eftaliylar o'z siyosiy faoliyatlarida zaiflashish yo'liga kirgan va buni ular qo'l ostidagi erlarning sosoniylar va ashinaliylar ixtiyoriga o'tib borishidan ham bilsa bo'ladi. Chunonchi, keyingi vaqtlarda Eron nafaqat yillik o'lpon to'lashdan bosh torttan, balki 554 yili Toxaristonni bosib olgandi, ya'ni eronliklarning ham Turkistonga da'vogarliklari nihoyatda jiddiy edi. 555 yili esa ashinaliylar Toshkent, Sirdaryo bo'ylari, Xorazmni zabt etadilar.

(82-87)

Ayniqsa, savdo-sotiq ishlarida So'g'diyona savdogarlari dong chiqqanlar. SHu ma'noda xitoylik mualliflarning qo'yidagi guvohligi diqqatga sazovardir: «(So'g'diyonalik) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatlarga oshiqadilar va (savdo-sotikda) qaerda (qo'laylik) va manfaat bo'lsa, (albatta) u erga qadam ranjida etadilar». Demak, ular avvalo shu yoshga etgunga qadar ma'lum bir tayyorgarlik bosqichini o'tganlar (xat-savod chiqqanlar, savdogarchilik hunarini o'rganganlar) va shundan keyingina dunyoning boy o'lkalari bo'ylab tijorat safariga otlanganlar.

Siyosiy, iqtisodiy-savdo, halqaro munosabatlarning yuksak saviyaga ko'tarilishi mintaqada madaniy-ma'naviy hayotining yanada boyishiga sabab bo'lishi muqarrar edi. Buni arxeologlar olib borgan tadqiqotlar natijalari misolida ham ko'rish mumkin. Xorazm, So'g'diyona, Toxariston kabi tarixiy makonlarda olib borilgan qazishmalar ko'rilayotgan davrda haykaltaroshlik, o'yakorlik, ganjkorlik, naqqoshlik borasidagi yuksak san'at darajasidagi tadbirlar amalga oshirilganini yaqqol ko'rsatib bergan.

YOzma manbalar, devoriy suratlar bu vaqtda o'lkamizda musiqashunoslik, raqqoslik, teatrshunoslik kabi san'at sohalari rivojlanib borganini tasdiqlashi mumkin. Bu, albatta, ilgarigi asrlardan buyon davom etib kelayotgan an'analarning davomi hisoblanadi. «Katta va kichik chirmanda, besh torli ud, do'mbira, nay, turli ruboblar» kabi o'nlab musiqa asboblarning nomlarini keltirish mumkin. Raqqoslarning mahorati shu darajada yuksak bo'lganki, hatto xorijiy davlatlarda, masalan, Xitoy saroylarida ham ularni g'oyatda qadrlaganlar. Chunonchi, o'lkamiz qo'g'irchoq teatri ustalarining san'ati xitoyliklarni lol qoldirib, qo'g'irchoq teatri Xitoyga bizning madaniyatimiz namunasi sifatida kirib borgan ham ma'lum.

Ajdodlarimizning ushbu davrdagi hayotlari qanchalik rang-barang kechganligi dalili sifatida o'sha yillarda mavjud xat-yozuvlar haqida ham bir og'iz to'xtalib o'tsa bo'ladi. Xususan, aholi orasida turkiy, so'g'dcha, xorazmcha, buxorocha yozuvlar keng tarqalgan. SHunga o'xshash har xillikni diniy e'tiqodlar borasida ham uchratish mumkin: otashparastlik, buddaparastlik, nasroniylik, tabiat kuchlariga sig'inish va hokazo.

YUqorida biz ashinaliylarning tashqi siyosiy aloqalariga tegishli ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Umuman olganda esa o'z davrining halqaro munosabatlari doirasida ham geografik, ham siyosiy (bugungi kun iborasi bilan aytganda geosiyosiy) jihatlardan markaziy o'rinni egallab to'rgan xoqonlik o'zidan tashqari mavjud uch yirik davlat: Xitoy, Eron, Vizantiya bilan raqobat qilishiga To'g'pi kelgan. Bu raqobat mazmuni to'rt davlatning har biri va ular joylashgan O'rta dengizdan Tinch okeanigacha, Hind okeanidan SHimoliy Muz okeanigacha bo'lgan ulkan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, geografik makon imkoniyatlari ila belgilanar edi. Ularning biron-biri yakka holda mazkur makon «beshigini tebratishga» qodir emasdi. SHuning uchun ham ashinaliylar nozik diplomatiya yo'lini harbiy kuch ishlatish usuli bilan uyg'unlashtirgan holda o'z raqiblarining ichki siyosiy, iqtisodiy va tashqi munosabatlarini doim o'rganib, voqif bo'lib turish orqali faoliyat ko'rsatganlar.

Albatta, hamma vaqt ham buning uddasidan chiqushning iloji bo'lmagan. Lyokin davlatchilik taraqqiyotida o'z davri uchun yuqori cho'qqilarga erishib, buyuk saltanat barpo etishda yuqoridagilarning ahamiyati katta bo'lgani shubhasiz. Masalan, Ashina sulolasi endigina kuchga kirib kelayotgan dastlabki davrda birinchi vazifa qilib yon-atrofni mustahkamlashni qo'ygan. SHuning uchun, aytib o'tilganidek, nasl-nasabi noma'lum jujanlardan kechib, qavman yaqin veylar bilan yaqinlashiniladi. Bu ashinaliylarning Sharqiy yunalishdagi mavqeni mustahkamlamay turib G'arbga tomon odimlash qiyin kechishini yaxshi tushunganliklaridan dalolat beradi. Bundan tashqari SHarq va Fapb munosabatlarida o'sha asrlarda eng muhim omillardan biri bu ipak bilan savdo qilish bo'lgani uchun xom ashyoni ishlab chikarishda asosiy o'rin egallagan Xitoyni jilovlash va bu bilan alqaro iqtisodiy aloqalarga qat'iy ta'sir o'tkazish siyosati ham nazarda tutilgani aniq. Ana shu talablardagi vazifa amalga oshirilib bo'lgandan keyingina (masalan, xitoyliklarga yiliga 100 ming

parcha ipak miqdorida o'lpon solinishi) navbatdagi maqsad — eftaliylar sulolasi faoliyatiga chek qo'yishga kirishiladi. Bunda Eron omilidan ustalik bilan foydalaniladi. Bu vaqtda Eron ham, Vizantiya ham eftaliylar bilan teskari edi. SHu sababdan ham sosoniylar va ashinaliylar o'rtasida eftaliylarga qarshi ittifoqda erishish shunday oson hal bo'ladiki, ish hatto eronlik hukmdorlar-ning turkistonlik malikalardan biriga uylanishigacha borib, ashinaliylar endi Eron saroyida o'z kishilariga ega bo'lib oladilar. Tez orada eftaliylar hukmronligi xotimaga etadi va bu haqda aytib o'tildi. Endigi gal ashinaliylar Vizantiya bilan harbiy ittifoq tuzib Eronni siqo'vga olib, hatto ular eftaliylarga to'lab kelgan yillik o'lponni bundan buyon bizga to'laysizlar, qabilidagi shart ham kuyadilar. SHart-sharoit etilganda xoqonlikning qrimda Vizantiya bilan yuzma-yuz kelgan vaqtlari ham bo'lgan. Albatta, ashinaliylarning Xitoy, Eron, Vizantiya bilan munosabatlarda o'z hukmlarini o'tkazib, harbiy ustunliklarga erishgan vaqtlarda sal-tanat siesiy-geografik jihatdan yuksalgan. SHu bilan birga Erondan ham, Xitoydan ham mag'lubiyatga uchrab, tushkunlikka tushib qolgan paytlar ham bo'lgan.

O'ZBEK DAVLATCHILIGI X-XIII ASRLARDA

VII asrning o'rtalarida arablarning mamlakatimizga tahdidi jiddiy tus oldi. Sosoniylardan bo'lmish YAZdigar III ni quvib kelgan arablar 651 yili Marvni egallaydilar. SHundan keyingi 60 yildan ortiq vaqt mobaynida ular mintaqaning boshqa yirik markazlarini ham bosib olishga harakat qildilar. Faqat VIII asrning boshlariga kelibgina arablar birin-ketin Xorazm, Buxoro, Samarqand, SHosh va Farg'ona kabi erlarni bo'ysundira oldilar. Albatta, arablarning mazkur muvaffaqiyati yurtimiz shahar-qishloqlarini talash, vatan himoyasiga otlanganlarni kirish, asrlar davomida yaratib kelingan turli va ko'plab madaniy-ma'naviy obidalarini (yozma manbalar, ibodatxonalar va hokazo) yakson qilish orqali amalga oshirilgan edi. Chunonchi, arablarning Xorazmga bosqinini ta'riflab Abu Rayhon Beruniy shunday yozgandi: «(arab lashkarboshisi) qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini (ya'ni tarixini) o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q, qilib yuborgan edi». SHu tariqa o'lkamiz milodiy 1-mingyillikda ilk bor tashqi tajovuzkor domiga tushib, endi Arab xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Demak, siyosiy mustaqillik, o'z yurtida davlatni boshqarish erki yo'qoldi.

Islom ta'limoti asosida mafko'raviy jihatdan jamiyatda bir butunlikka erishilganini hisobga olmaganda bu galgi erkni yo'qotish ham ajdodlarimiz uchun qimmatga tushdi. Madaniy tarakqiyot nuqtai nazaridan ancha orqada bo'lgan arablarning uzoq asrlardan beri har taraflama obod va farovon o'lkaga munosabati bundan kam yo ortiq bo'lishi mumkin ham emasdi. SHu munosabat bilan ilmiy va boshqa doiralarda uchrab turadigan «o'rta asr arab madaniyati (tsivilizatsiyasi)» qabilidagi tushunchalardan (aslida esa tushunmovchiliklardan) voz kechish payta keldi, deb uylaymiz. Zero, yagona mafkura va ma'lum davrgacha arab tili hukmronligini hisobga olmasa, bu davr fan va madaniyati mohiyat e'tibori bilan turonliklari eronliklar sa'y-harakati ila jonlanib kelgan.

SOMONIYLAR

Bir-ikki og'iz so'z mazkur sulola haqida. Oldinlari ham ta'kidlab o'tganimizdek, odatda sulolalar biron-bir o'zlariga mansub yirik namoyanda faoliyati orqali mashhurlikka erishadilar (masalan, eftaliylar, anushteginiylar, temuriylar va hokazo). Somoniylar ham shunday. Ular aslida Somon qishlog'i oqsoqoli Somonxudotning avlodlaridir. Bu maskanning qaerdaligini aniq ko'rsatish qiyin. Chunki ba'zi manbalarda Samarkand atrofi ko'rsatilsa, ba'zilarida esa Termiz yo Balx tomonlarga ishora beriladi. Xuddi shuningdek, somoniylarning qaysi etnosga taalluqli ekani ham ma'lum emas. Somonxudotning avlodlari IX asr birinchi yarmida Farg'ona, SHosh, Samarqand, Xirok kabi yirik viloyatlarga hokimlik qilganlar. Lyokin halifalikka qaramlik saqlanib keldi. 874 yiddan boshlab Buxoroni, 892 yiddan boshlab esa butun Movarounnahrni boshqara boshlagan Ismoil Somoniy davriga kelibgina bu qaramlikdan qutulish imkoni tug'ildi. SHu erda ikki og'iz so'z «Movarounnahr» atamasi haqida. Arabchada «daryoning (ya'ni Amudaryoning) narigi tomonidagi er» ma'nosini anglatuvchi ushbu atama geografik tus olib avvaliga haqiqatan ham Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan erlarga, keyinchalik esa asosan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'idagi makonga nisbatan ishlatila boshlangan.

Ismoil 849 yili Farg'onada tug'ilgan. 14 yoshida otasi Ahmad vafot etib, akasi Nasr qo'lida qoladi. Manba tili bilan aytganda «aqli, adolatli, fikr va tadbir egasi» bo'lmish Ismoil, aytilganidek, 892 yili butun Movarounnahr hukmini o'z qo'lga olishga erishib, «haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli» ekanini isbotlaydi. Movarounnahr siyosiy hayotidagi bu o'zgarish Arab xalifasi Mu'tazidga (892—902) ham, uning Xurosondagi noibi Amr ibn Laysga ham xush kelmagani aniq. Buning isbotini xalifaning Ismoilni Movarounnahr taxtidan mahrum etib, Amr ibn Laysni Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi bilan ta'minlagani haqidagi farmonidan bilib olish mumkin. Mazkur farmon tezda Amr ibn Laysga jo'natiladi. Boshqacha aytganda, xalifa Amr ibn Laysni Ismoilga harbiy yurishga gij-gijlagan. Bu bilan u nafaqat Ismoilni yo'qotish payida bo'lgan, balki Amr ibn Laysning ushbu harbiy yurish oqibatida zaiflashib qolishiga ham umidvor bo'lgan. Ammo xalifa va uning yo'rig'idan hamda o'z nafi ketidan borgan Amr ibn Laysning rejalari amalga oshmaydi. 900 yilning bahorida Balx atrofida yuz bergan jangda Amr ibn Lays Ismoil tomonidan

mag'lubiyatga uchratiladi. Ismoilni Xorazm, Farg'ona, Buxorodan, ya'ni butun Turkistondan yordamga kelgan katta harbiy kuch qo'llab-quvvatlagani haqida manbalarda aniq yozilgan. SHu tarifa Xuroson va SHimoliy Eron ham Ismoil tasarrufiga o'tadi. Arab xalifaligiga qaramlikka barham beriladi.

Ismoil davlatchiligimiz tarixidagi 1600 yildan ortiq tajriba va an'analarni uddaburonlik ila davom ettira bilgan davlat arbobi hisoblanadi. U, eng avvalo, mamlakatimiz siyosiy birligini ta'minlash ishiga bel bog'lab, Farg'ona, Isfijob (Sayram), SHosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, CHag'oniya, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, Fazna kabi qator viloyatlarni o'z hukmi ostida birlashtirdi. Garchi ularning hammasi ammutlaq ravishda tobelik yo'liga kirmagan bo'lsalar-da, ammo qudratli markaziy hokimiyat obi xavosini tan olishga majbur boltan edilar. Demak, Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan. SHundan So'ng u ana shu markazlashgan davlat boshqaruv tizimini joriy etishga kirishadi. Chunki endigina mustaqillikni qayta tiklagan davlat uchun qat'iy tartib doirasida faoliyat ko'rsatuvchi idorachilik zarur edi. Ismoil bu vazifani ham hal eta bildi. Ammo ilgari boshqa sulolalar tajribasida ko'rilganidek, Ismoil vafotidan So'ng (907 yil 25 noyabr) taxtga chiqqan somoniylar namoyandalari (Ahmad, Nasr II, Nux I, Abdumalik, Mansur I).

Nux II, Mansur II) buyuk ajdodlari qoldirgan merosni saqlab qodishga o'zlik qildilar. Masalan, Ismoildan keyin taxtni egallagan Ahmad subutsizlik qilib, arab tilini yana davlat tili darajasiga ko'taradi. Vaholanki, Ismoil davrida bu narsa yukh qilingan edi.

Ahmadning bu kabi boshqa ishlari ham bir bo'lib, oxir-oqibatda o'nga suiqast uyushtirilishiga sabab bo'lgan. Xullas, X asr davomida siyosiy boshboshdoqlik avjga chiqib markaziy hokimiyat mavqeiga putur etadi. «Daraxtning boshini qurt eydi» deganlaridek, somoniylar zarbining pasayishi mintaqaning Ettisuv va Koshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola — qoraxoniylarning ko'chayib borishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgandi. Natijada X asr oxirida hokimiyat ularning qo'liga o'tadi. qoraxoniylar mintaqaning Ettisuv, Koshg'ar, Movarounnahr kabi qismlari ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. Xuroson, g'azna kabi viloyatlar esa xuddi shu davrdan boshlab mintaqada etishib chiqqan yana bir siyosiy sulola — g'aznaviylar tobeligiga o'tgan edi.

Ta'kidlaganimizdek, Ismoil o'z davri uchun ilg'or hisoblanmish markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga muvaffaq bo'lgan. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir o'nvoniga ega edi. SHo'ning uchun manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta'kidlarni o'chratish mumkin. Oliy hukmdor hukmlarining ijrosi horis amiriga yuklatilgan. Dargoh. hamda boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va o'ning xodimlari olib borganlar. Dargohning xo'jalik yumushlari bilan BOG'LIQ faoliyat vakil tomonidan boshqarilgan. Bo'ndan tashqari dargohda dasturxonchi, eshikorasi, sharbatdor kabi xizmatlar ham bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) boshqaruviga kelsak, ularning umumiy soni 10 ta bo'lib, poytaxt Buxoroda har biri uchun alohida binolar ko'rib berilgandi. quyida devonlar haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

1. *Bosh vazir devoni*. Butun ijroiya hokimiyati hamda qolgan to'qqiz devon ustidan rahbarlik va nazorat xuddi shu vazirlik tomonidan amalga oshirilgan. Somoniylar davrida ushbu lavozimga zamonaning atoqli xonadonlari namoyandalari tayinlangan. CHo'nonchi, bosh vazirlik jayhoniylar, bal'amiylar, utbiylar sulolalari orasidan chiqqan shaxslarga nasib etgani ma'lum.

2. *Moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni*. Davlatning moliyaviy ishlari, sarf-harajatlariga oid hisob-kitob ishlari bilan shug'ullangan.

3. *Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni*. Bu maxsus devon sanalib, o'ning xizmatchilari davlat ahamiyatiga molik barcha hujjatlarni tayyorlab berganlar. Bo'ndan tashqari mazkur devonga diplomatik tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish kabi vazifa ham yuklatib kelingan.

4. *Soqchilar boshlig'i devoni*. Ushbu muassasa maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo'jalik ta'minoti, maoshi masalalari bilan shug'ullanib kelgan. Masalan, maosh bir yilda to'rt marta — har o'ch oyda to'lab turilar ekan.

5. *Xat-xabarlar mutasaddisi devoni* dargoh, hukumat, mahalliy hokimiyat bilan bog'liq, xabardorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lib, poytaxtda qabul qilingan *muhim* qarorlar, hujjatlar va boshqa rasmiy ko'rsatmalarni viloyatlar, shaharlarga etkazish hamda joylardagi shu kabildagi ma'lumotlarni markazga etqazib berish kabi tadbirlar bilan band bo'lgan. SHu bilan birga mazkur devonning joylardagi bo'limlari mahalliy davlat idoralari, hokimlar faoliyati haqida haqqoniy ma'lumotlarni to'plab, to'g'ridan-to'g'ri dargohga yuborish imkoniga ham ega bo'lganlar. SHu tariqa oliy hukmdor joylardagi bor ahvoldan voqif bo'lib turgan va tegishli choralar ko'rgan.

6. *Saroy ish boshqaruvchisi devoni*. Dargoh ta'minoti bilan bog'liq sarf-harajatlar ustidan nazorat olib borish shu devonga yuklatilgan.

7. *Davlat mulklari devoni* hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

8. *Muxtasib devoni* jamiyat va davlat hayotida muhim o'rin egallab kelgan xizmatlar sirasiga kirgan. O'ning xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni ta'minlash, savdo-sotiq ishlarida haridorlarga xiyonat qilmaslik, mahsulotlar sifatini qat'iy ko'rsatilgan darajada to'tishni tekshirish, narx-navoni belgilangan

miqdordan (ayniqsa go'sht, non kabi birlamchi oзуqalarga) oshirmaslikni nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Bo'nday mas'uliyatli vazifaga ko'pchilikning e'tiborini qozongan, hammaga birday turadigan kishilar tayinlangan.

9. *Vaqflar devoni*, ya'ni turli yullar bilan diniy muassasalar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, er-suv ishlari bilan shug'ullanuvchi vazirlik.

10. *Qozilik* ishlari devoniga qozilarning faoliyatini nazorat qilish yuklatilgan. Ba'zi hollarda, ya'ni ishi qoziga oshirilganlar orasida yuqori lavozimda ishlaydiganlar bo'lsa, qozilik qilishni oliy hukm-dorning shaxsan o'zi, yo o'ning tarafidan tayinlangan hukmdor sulola vakili amalga oshirgan. Bo'ndan maqsad martabadorlarning qozilarga tazyiq qilishlariga yul qo'ymaslik bo'lgan, albatta.

Zikr etilgan devonlarning joylarda ham bo'limlari bo'lgan. Ular markazdagi o'z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlarga ham buySo'nib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatganlar. Bo'ndan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno hisoblanib, ularning mahalliy bo'limlari faqat markazagina hisobot berganlar, xolos.

Zero, yuqorida aytilganidek, ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib borganlar.

Viloyat boshlig'i Hokim, shahar boshlig'i esa rais deb atalgan. Hokimni oliy hukmdor, raisni hokim tayinlagan. Albatta, bo'nda u yoki bu nomzodning shu erdagi obro'-e'tibori, mavqei hisobga olingan.

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar silsilasi mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish, zamona huquq; me'yorlaridan to'liq, xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabar-lik, hisob-kitob ishlaridagi bilimdonlik va xokazo.

Lashkar ikki toifaga bo'lingan: doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar (gvardiya) va zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismlardagi xizmat kamida sakkiz dan iborat bo'lib, oddiy piyoda askarlikdan visoboshi, ya'ni to'rt kishidan iborat guruhga boshliq darajasigacha bo'lgan yulni bosib o'tishga to'g'ri kelgan. Keyin u haylboshi (kichik qo'shin BOSHIG'I) maqomini egallashi mumkin bo'lgan. Bu darajaga tegashli tartib-intizom, talablar doirasida xizmat qilin-gandagina erishish mumkin edi.

Ko'rdikki, somoniylar davrida davlat boshqaruvi va harbiy xizmatning o'z davri uchun murakkab va salohiyatli tizimi tashkil etilgan. Mazkur masalaga katta e'tibor bilan qarab kelinganini sho'ndan ham bilsa bo'ladiki, xazinadagi umumiy yillik daromad 45 mln. dirhamni tashkil etgan holda sho'ndan 20 mln. dirham davlat boshqaruvi va lashkarga sarf etilgan. Albatta, o'shanda ham poraxo'rlik, mansabni suiste'mol qilish kabi illatlar o'chrab turgan. Ammo davlat tizimi va lashkarga ketgan sarf-harajatlar o'zini oqlagan. Masalan, lashkar mamlakatning ichki va tashki xavfsizligini ta'minlab kelgan. Davlat idoralari esa, manba tili bilan aytganda, kanallar, er osti ariqdari (korizlar) qazish, ko'priklar qurish, shahar, qishloqlar obodonchiligi, dehqonchilik borasida g'amxo'rlik qilish, karvon yullari xavfsizligini ta'minlash, karvonsaroylar, turli maqsadlar uchun mo'ljallangan binolar, bozorlar, yangi shaharlar bo'nyod etish kabi katta va serharajat, ko'pchilik bilan bitadigan tadbirlarga bosh-qosh bo'lib ketgan. SHo'ning uchun ham bu davrda dehqonchilik, ho'narmandchilikning ko'plab sohalarida gurrakib rivojlanib, farovonlik hukm surgan.

Ilgarigi asrlarda bo'lgani kabi Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari, SHosh, Xorazm, Xuroson viloyatlarida dehqonchilik ishlari yuksak saviyada amalga oshirib borilib, bug'doy, arpa, sholi, paxta, tariq, zig'ir, ko'njut, kanop, no'xot, mosh, yosmiq, beda kabi qator ekinlar etishtirilgan. Hosildorlik shu darajada bo'lganki, bir sikim don ekib, yuz sikim, xatto o'ndan ham ko'p hosil olingan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik va polizchilik sohalarida ham yutuqlar shu kabi edi. uzumning o'nlab navlari, mevalardan olma, shaftoli, o'rik, nok, anjir, behi, olcha, olxo'ri, anor, bodom, yongoq, poliz ekinlaridan qovoq, qovo'n (ayniqsa Buxoro qovo'nlari mashhur bo'lgan), sabzavotdan bodring, baqlajon, sabzi, piyoz kabilar etishtirilgan. Xullas, bu boradagi mirishkorlik shu darajada bo'lganki, chet ellardan kelganlar erning o'numdorligi, hosilning yuqoriligi, hamma erning ko'm-ko'k, ya'ni obod bo'lib turishini ko'rib xayratga tushganlar.

U erdan esa ipak va ipak matolar keltirilgan. Evropaga ip, jo'n, ipak matolar, quritilgan mevalar, sholi, kumush buyumlar, tangalar ko'plab olib ketilgan, u erlardan esa asosan muyna, charm kabilar olib kelib sotilgan. Evropaliklar ayniqsa bizda ishlab chiqariladigan kumush buyumlari, tangalarga ishqivoz bo'lganlar. Sababi bu vaqtda Evropada kumush konlari to'g'risida xayol ham qilmaganlar. Shu jihatdan kumush borasida mintaqamizga bog'lanib qolgandilar. Bu bog'liqlik shu darajada bo'lganki, arxeologlar Skandinaviya o'lkalarida tekshirish ishlari olib borganlarida Toshkent viloyatida o'sha davrlarda qazib olingan kumushdan ishlangan tangalarni ko'plab topganpar. O'rta va YAqin Sharq mamlakatlari ko'proq. bizning ota-bobolarimiz ishlab chiqargan qurol-aslaxalarga, temirchilik mahsulotlariga o'ch bo'lganlar. Xullas, bu davrda ham savdo-sotikdagi an'anaviy yuksak saviya saqlanib qolgan, o'ziga xos yangiliklar kiritilgan. Masalan, hozirda hammaning og'zida bo'lgan *chek* tizimi dastlab o'sha uzoq, zamonlardayok. joriy qilingan edi. Chek (chak) tusho'nchasi aslida evropaliklarga biz orkali kirib borgan bo'lib, savdogarlar yirik savdo tadbirlarini amalga oshirayotganlarida yonlarida katta mablag'ni olib yurmasdan har bir shaharda mavjud ishonchli sarroflarga (pul maydalab beruvchilar, almashtiruvchilar) nakd pul topshirib, shu hakda hujjat, ya'ni chek olganlar. Mo'ljaldagi shaharlarga borib xuddi sho'nday sarroflarga yoki yirik savdogarlarga chekni ko'rsatib o'z rejalarini amalga oshirganlar. SHo'nisi diqqatni tortadiki, Mahmud Koshg'ariy lug'atida, chek aslida ip-gazlama turlaridan biridir, deb

yozilgan. Mahmud Koshg'ariy keltirgan chek gazlama turi bilan savdo muomalasida ishlatilgan chek o'rtasidagi bog'liqlikka shubxa qilmasa ham bo'ladi. Zero, bo'ndan ming yil buro'n yozuv ob'ekti o'rmda qog'oz bilan bir qatorda gazlama parchalaridan foydalanilgan.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi yana bir muhim faoliyat—quruvchilik, me'morchilikda ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. SHaharlar kengaydi, muhtasham binolar, orasta bozorlar, masjid-madrasalar, hammomlar, ustaxonalar, do'konlar va boshqa qator imoratlar bunyod etildi. Bunda quruvchilikka aloqador turli kasbdagi ustalar ishtirok etib, o'z mahoratlarini oshirganlar. Buni biz Buxoro, Samarqand, Termiz kabi qator qadimiy shaharlar misolida ko'rishimiz mumkin.

YUqoridagilarning bari bir bo'lib har qanday jamiyat ko'rki va qudratini belgilab beruvchi yana bir g'oyat muhim, shu bilan birga nozik ta'b soha - ilmu madaniyatning ham izchil taraqqiy etishiga katta imkonlar yaratib berdi. Bu asrlarda (IX—X) mamlakatimiz obro'sini er yuziga yoygan olimu fuzololar haqida ko'plab so'z aytilish mumkin. Ularning soni o'nlab, xatto yuzlabdir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina Muhammad ibn Muso Xorazmiyning o'zi butun olamga tatiydi. Masalan, u Arab halifaligi hamda Evropani hind hisobiga o'rgatdi, ya'ni ularga noma'lum 1 dan 9 gacha bo'lgan raqam shakllari orqali qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lishning eng maqbul va ilg'or yullarini ko'rsatib sharhlab berdi. Bungacha evropaliklar rim raqamlari bilan tanish edilar, xolos (qiyoslang: XXXV va 35). Yo bulmasa olimning «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida kitob» asari matematik algebra (al-jabrning lotincha jaranglashi) sohasiga asos bo'lgan. XIV asrdan boshlab algebra evropada yoyila boshlaydi. Har qanday regulyar hisoblash jarayonini anglatadigan matematik tushuncha - algoritm ham bizning ajdodimiz nomi bilan bog'liq, ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noda (Al-Xorazmiy - Algorizm, Algoritm).

Buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad Farg'oniyni olaylik. Hosib, ya'ni hisobdon, matematik laqabi bilan mashhur bu ajdodimiz evropaliklar nazdida Alfraganus nomila e'tiborli edi. U hakda ham ko'p gapirish mumkin. Ammo o'ning o'z vaqtida erning dumaloqligini isbotlashda keltirgan dalillari hozir ham o'z kadrini yuqotmaganining o'ziyoq, o'zbek ilmining kishilik madaniy taraqqiyotida tutgan salmoqli o'rini belgilab beradi.

YAna bir mashhur va kishilikni oyokda turg'azishda ko'p mehnati singan ajdodimiz Forobiy haqida ham uzoq so'zlash mumkin. Uning «Ikkinchi muallim» laqabi bo'lib, «Birinchi muallim» o'rmda SHarqda Arastu (Aristotel) tushuniladi. Ba'zan birinchi, ikkinchi aniqliklarini mavqe darajasiga ishora deb ham qarashadi. Aslida, bu erda vaqt mezoni nazarda tutilib, Arastuning Forobiyya nisbatan ancha qadimda yashab o'tganligidan ham birinchi, ya'ni ana shunday iste'dod egasi bo'lganlardan avvalroq yashab o'tgani ma'nosi chiqadi. Forobiy diqqatini tortgan fan va madaniyat sohalariga bir nazar tashlasak: falsafa, mantiq, matematika, geometriya, astronomiya, fizika, optika, kimyo, tibbiyot, biologiya, musiqa, tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlik, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, axloq. Bu sohalarida u zot amalga oshirgan ishlar sanog'ining o'zi bir kenglikni talab qiladi. Shuning uchun ikki narsaga e'tiborni jalb etamiz. Biz o'z o'rmda zardushtiylikning qadimgi yunon falsafiy qarashlari shakllanishida asosiy turtki bo'lganligi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. qaranga, Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey kabi yirik faylasuflar asarlarini anglash o'rta asrda evropaliklar uchun mushkulotta aylanadi. Yordamga yana Turkiston namoyandasi keladi. Aniqrog'i evropaliklar Forobiyni mazkur mualliflar asarlariga yozgan sharhlari orqali qadimgi yunon falsafasi mag'zini chaqa boshlaydilar. Ikkinchi misolimiz to'g'ridan-to'g'ri asosiy tadqiqot mavzuumiz bo'lgan davlatchilik bilan bog'liq.

Siyosatshunoslik bobida ham qalam tebratgan mutafakkir ming yil burunov davlatchilikning mag'zini anglab, «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga eltishdir», deb yozgan edi. Shu ikki og'iz ta'kidida ko'p narsani anglash mumkin. Oddiygina qilib insonni deyilyapti, uning na mazxabi, na millati, yo boshqa tomoni ajratilayotgani yuq. Eltish deyilyapti, ya'ni davlatning jamiyat hayotidagi mas'uliyati va shunga yarasha boshqarish huquqi haqida ishora bo'lyapti.

X asr ikkinchi yarmida mamlakatimizda yana ikki buyuk zot o'tgan: Ibn Sino va Abu Rayxrn Beruniy. Ularning hayoti va ilmiy ijodi keyingi asr va sulolalar davrida davom etganini hisobga olib, ular haqda keyinroq fikr yuritishga qaror qildik. Hozir esa quyidagi masala ustida to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lum bir davr ichida tushkunlikda bo'lib So'ng bosh ko'tarib yuksaklikka erishilgan holat bizda uyg'onish, g'arb tillarida odatda renessans davri deyiladi. qizig'i shun daki, renessans deyilganda, aksariyat XV—XVI asrlarda Evropadagi yuksalishni angelaydi. Vaholanki, arablarning dastlabki vaqtdagi siyosatlari natijasida anchayin harobalikka yuz tuttan mamlakatimiz va umuman sharq mamlakatlari IX—X asrlarga kelib fan va madaniyatda yuksaklikka erishganlar, ya'ni jamiyat yana bir bor uyg'ongan. Bu uyg'onishning nafaqat bizning, balki batamom kishilik taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida fikr qilinsa (buning uchun Ahmad Farg'oni, Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarni eslashning o'zi kifoya), u holda insoniyat tarixida birinchi uyg'onish davri mohiyat e'tibori bilan bizning mamlakatimiz va mintaqamizda ruy berdi. Va bu yuksalish biz orqali butun bashariyatga tegishlidir.

Xullas, yurtimizda somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan asrlar jo'shqin, voqealarga boy, namunali va saboqli davrdir. Eng muhimi, bu davrda mamlakatimizning, xalqimizning, tarixiy-madaniy taraqqiyotdagi an'ana va tajribalarimizning naqadar mustahkam poydevorga ega ekanligi namoyon bo'ldi. Zero, yuqorida aytilganidek, tushkunlik, qaramlik davrini boshdan kechirgan jamiyat yana yuksaklikka ko'tarila oldi.

QORAXONIYLAR

Somoniylarning ko'ch-qudrat va shon-shuhratga to'lgan davrlari IX asr oxirlarida boshlanib, u qanday kechganini biz yuqorida ko'rib o'tdik. Ular, aytib o'tilganidek, mintaqalik boshqa bir siyosiy kuch — qoraxoniylar bilan kurashga dosh berolmay inqirozga yuz tutganlar. Sovet davri tarixshunosligida somoniylar va qoraxoniylar o'rtasida kechgan tabiiy raqobatni «Movarounnaxr va turklararo ziddiyat», «turklarning Movarounnaxrga bostirib kirishi» tarzida ko'rsatish hollari ham bo'lgan. Buning sababi to'g'ridan-to'g'ri Rossiya imperiyasini kommunistlar boshqargan davrdagi saltanatparastlik maqsadlari bilan bog'liq, bo'lib, bolsheviklar hukmronligi davrida mintaqada o'tkazilgan «ma'muriy bo'linish»ni (aslida parchalashni) hamda O'zbeklarni ikki dare oralig'iga kelgindi qilib ko'rsatishni tarixan isbotlashga urinish va omma ongiga singdirish edi, xolos. Aslida esa ilgari ham ko'p marta bo'lganidek,

X asrning ikkinchi yarmiga kelib mintaqaning Ettisuv qismida o'zi shakllangan makondan ko'ra ham kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkoni va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuch maydonga chikadi. Biz ularni qoraxoniylar nomi ostida bilamiz.

SHu o'rinda qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi masalasiga doir savol tug'iladi. Ilmiy doiralarda mazkur masalaga haligacha uzil-kesil nuqta qo'yilganicha yuq. qoraxoniylar faoliyati mintaqamizning Ettisuv, Markaziy Tangritog' hududida qadimdan yashab kelayotgan turkiy tilli qavmlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy munosabatlari muhitida shakllanganligi aniq bo'lgani holda, mazkur sulola to'g'ridan-to'g'ri qaysi bir qabilaga tegishli ekani masalasi hamon bahstlab bo'lib kelmokda. Bu fan uchun tabiiy hol, albatta. Biz uchun esa asosiy vazifa o'zbek davlatchiligi tarixida qoraxoniylar sulolasi tutgan o'rini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Ikki so'z «qoraxon» atamasi to'g'risida. Bu erda «xon» ma'lum tushuncha, ya'ni «hukmdor». «qora»ning (aslida esa «qaro») bir necha ma'noda qo'llanilishini ta'kidlagan holda, biz ko'rayotgan misolda «buyuk», «ulug'» tushunchasini beradi, desak xato bo'lmaydi, ya'ni «Buyuk xon», «Ulug' xon».

SHunday qilib, X asr ikkinchi yarmi davomidagi sa'yharakatlar natijasida qoraxoniylar Sharqiy yo'nalishda Balxash ko'li — Cherchen daryosigacha (Sharqiy Turkiston) bo'lgan erlarni buysundirishga muvaffaq bo'lib, g'arbiy yo'nalishda esa Isfijob, O'zgand, Mypg'ob daryosi quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarni o'z ta'sir doiralari kiritib oladilar. Harbiy-siyosiy mavqelarini mustahkamlab va kengaytirib borayotgan qoraxoniylar uchun endi yanada g'arbga siljib Samarqand, Buxoro viloyatlarini ham bo'ysundirishga harakat qilish tabiiy edi. Zero, ularning mintaqadagi shu vaqtidagi asosiy siyosiy raqiblari bo'lmish somoniylar siyosiy markazi xuddi shu makonda joylashgandi. Mazkur maqsad yo'lidagi birinchi urinish 992 yili ro'y beradi. SHu yili qoraxoniylar Bug'roxon somoniy Nux ibn Mansur (976—997) bilan jangda g'olib kelib Buxoroni ishg'ol qilishga muvaffaq bo'ladi. Ammo bu yutuq vaqtinchalik bo'lib tez orada Bug'roxon orqaga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Faqat 999 yilga kelibgina qoraxoniylar yana bir bor Buxoroni zabt etishga muvaffaq bo'ladilar. Manbalarda yozilishicha, bu galgi urinishda deyarli qiyinchilik bo'lmagan. Oddiy folk, tomonidan esa qoraxoniylarning Buxoroni egallashlari bir sulola o'rniga ikkinchi bir sulola kelishi kabilida qabul etilgan. Garchi o'rta asr tarixchilari buning sababini har ikki sulolaning bir dinga mansubligi orkali tushuntirsalarda, buni inkor etmagan holda mintaqaning Buxoro, Samarqand kabi shahar va viloyatlari uchun Ettisuv, Sharqiy Turkiston hududlari ham tarixiy-madaniy birlik jihatidan begona emasligi bosh sabablardan bo'lgan, deb hisoblash to'g'riroq bo'lardi. Xullas, 1005 yili somoniylar siyosiy sahnadan butunlay tushib ketdilar va shu vaqtdan boshlab qoraxoniylar endi Buxoro, Samarqand va umuman Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar. Boshqacha qilib aytganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chagoniyon, Xugtalon viloyatlari qoraxoniylar, Amudaryoning chap sohilidagi erlar to'g'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari g'aznaviylar, Xorazm esa xorazmshoxlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi erlar ug'izlar itgifoki tomonidan boshqarilar edi. Albatta, biz bu holni ijobiy bir hol deb baholay olmaymiz. Zero, yagona mamlakat va ulkan mintaqaning bir kancha siyosiy makonlarga bo'linishi, uning ichki va tashqi xavfsizligiga putur etkazishi, siyosiy kuchlararo ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelishi turgan gap edi. Xuddi shunday bo'ldi ham. Masalan, 1008 yili qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida harbiy to'qnashuv yuz beradi (Balx atrofiga). SHunisi qiziqki, o'z vaqtida, ya'ni somoniylar sulolasi hukmronligi yillarida qoraxoniylar va g'aznaviylar o'zaro yaqinlashuv siyosatini tutgan edilar. Buni siyosiy manfaatlar orqali tushuntirish mumkin. XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa qoraxoniylar shu yuz yillikning 40-yillaridan buyon kuchga kira boshlagan boshqa bir turkiy tilli sulola — saljuqiylar bilan keskin munosabatda bo'la boshlaydilar.

Chuqur bilim va tafakkur egasi Yusuf Xos Xojib «qutadg'u bilig» («Saodatnoma») asari bilan mashhurdir. Zero, bu asarda davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalar, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-ahloq masalalariga oid o'z davri uchun zarur va foydali, tarixan o'z ahamiyatini yo'qotmovchi fikrlar ilgari surilgan. Chunonchi, u jamiyatning to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: ADOLAT, DAVLAT, AQLU ZAKOVAT, QANOAT. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu to'rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta'minlashda ilm birinchi o'ringa qo'yiladi: «O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar». Yo bo'lmasa, asarda keltirilgan davlat-idora kishilari haqidagi fikrlarni olaylik. Vazirlar oqil, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Beklar, ya'ni hokimlar esa bilimli,

etuk, ko'zi, ko'ngli to'q, bo'lmog'i darkor. Agar ular buzuq fe'l bo'lsalar, zamona o'qidan qochib qutilolmaydilar, ulardan odamlar ham yuz o'giradi, g'amga giriftor bo'ladilar. YUsof Xos Xojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: «Olisdagi yovning vahimasidan qo'rqma, aksincha, undan yaqindan voqif bo'lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dag'dag'a qilib do'q, qilsa, bardoshli bo'l, chyokinma (Chunki u bu bilan seni sinamog'i mumkin)». «qutadg'u bilig»da olimlar, shoirlar, dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar haqida, oila, farzand tarbiyasiga oid xikmatli fikrlar ham bir talay.

Mahmud Koshg'ariy ham o'zidan ajoyib va bebaho meros qoldirgan. Bu uning turkiy tillar va ma'lum ma'noda turkiy tilli xalqlar haqidagi qomusiy asari «Devonu lug'ot at-turk»dir. Asar Turkiston xalqlarining tillari tarixini o'rganishda, Chunonchi, o'sha davr tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi, etimologiyasini o'rganishda benazir manba hisoblanadi. Bundan tashqari, unda mintaqa xalqlarining etnik tarixiga oid g'oyatda qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ma'lumki, turkiy tilli xalqlar ham son jihatdan ko'p, ham serqavm bo'lib kelganlar. Ular o'rtasidagi munosabatlar tarixini yoritishda «Devonu lug'ot at-turk»ning ahamiyati katta. Bundan tashqari asarda davlatchilik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, hunarmandchilik, rasm-rusumlar, madaniy hayotga tegishli ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Mahmud Koshg'ariy asarining qimmatli tomonlaridan yana biri unda muallif chizgan dunyo xaritasining mavjudligidir. Xarita doira shaklida va uning har tarafdan suv bilan o'ralganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud. Xaritada markazda Ettisuv, Sharqiy Turkiston hududi joylashtirilib, uning to'rt atrof yo'nalishida turli shaharlar, mamlakatlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, tog'lar joylashuvi berilgan. Umuman olganda, bu asar bashariyat madaniy ravnaqi yo'lini o'rganishda nodir manba hisoblanadi.

Demak, qoraxoniylar sulolasi o'z faoliyati davomida o'lkamizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan siyosiy kuchlardandir. qoraxoniylar qudratga to'lib turgan XI asrning birinchi yarmida mintaqaning Sharqiy Turkiston va g'arbiy Turkiston (Xorazmdan tashqari) qismlarini bir markazdan boshqarish imkoni tug'ilgan. Va, aksincha, ichki sulolaviy qarama-qarshiliklar avj olganda hukmron siyosiy kuch zaiflashib o'lkada parchalanish yuz bergan.

G'AZNAVIYLAR

G'aznaviylarning siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishi va yuksalishi masalasida ham biz sovet tarixshunosligidagi mavjud ba'zi bir qarashlarni qabul qila olmaymiz. Chunki ilgari g'aznaviylarni (demak, ularning zamonini ham), asosan, salbiy tomondan ko'rsatishga intilib kelingan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, bu sulola asos topgan g'azna viloyati «isyonkor turk lashkarboshilari»ga boylik o'rttirish uchun qulay joy sifatida sharhlanib, o'z-o'zidan shu erda kuchga kirgan va mazkur shahar (viloyat) nomila tanilgan g'aznaviylar sulolasi tarixi ham guyo xuddi shunday maqsad yo'lida yuzaga kelgan va faoliyat ko'rsatganday bayon etilgan. Aslida esa tarixiy voqelik sabablari bir nechta.

Birinchidan, Ismoil Somoniydan keyin somoniylar orasidan har jihatdan etuk, yuqori darajada siyosat yurg'iza oladigan arbob etishib chiqqani yuq. Buning oqibatida somoniylar o'z ichki, ya'ni sulolaviy imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq, mavjud siyosiy muhit qonun-qoidalariga bog'liq, bo'lib qolganlar. Siyosiy muhitni esa bu vaqtda nufuzli lashkarboshilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. g'azna viloyatidagi kuchlar siyosiy faolligining oshishi va borib-borib alohida bir sulola darajasiga ko'tarilishi ham xuddi shunday yirik lashkarboshilar nomi bilan bog'liq. bo'lganini biz quyida yaqqol ko'ramiz.

Ikkinchidan, Turkiston mintaqasida siyosiy taraqqiyotning o'ziga xos tomonlaridan biri - bu davrda xuddi madaniy hayotdagi kabi bir qator o'ziga yarasha kuchli davlat arboblarning, siyosiy sulolalarning yuzaga chiqishidir. Gap shunday xolning yaxshi-yomonligida emas, oqibatlaridan qat'iy nazar, shunday vaziyat sodir bo'lgan va bu bilib quyilsa har jihatdan foydalidir.

G'aznaviylar sulolasi qandaydir «o'ljaparastlik» ketidan emas, balki mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar muhitida yuzaga kelganligiga doir guvohliklar manbalarda yetarli darajada topiladi. YUqorida biz somoniylar saroyida yirik lashkarboshilar tutgan mavqe haqida aytib o'tgandik. 961 yili somoniy hukmdor Abdumalik o'limidan So'ng vazirlar taxtga marhumning ug'lini o'tkazadilar. Bunga, manba tili bilan aytganda, «Somoniy xonadoni uchun maqtovg'a loyiq xizmatlar qilib kelgan hamda noiblik va lashkarboshilik yo'lini tutgan» Alptegin qarshilik qiladi. SHu tariqa davlat arkonlari va Alptegin o'rtasidagi muxoliflik kuchayib avjiga chiqadi. Lashkarboshi Buxoroni tark etadi. Xatto shundan keyin ham ziddiyatlar tugamay, oxirida Alptegin va Buxoro qo'shinlari o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lib, buxorolik lashkar mag'lubiyatga uchraydi. Somoniylar xonadoni va Movarounnaxr bilan aloqani uzgan Alptegin g'azna viloyatida O'z hukmronligini o'rnatadi. Uning vafotidan (963) So'ng g'aznada navbati bilan Amir Ishoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabukteginlar hukmronlik qiladilar. g'aznaviylar siyosiy sulolasiga asos solgan ham aslida ana shu Sabuktegin bo'ladi. SHu bilan birga g'aznaning mintaqa siyosiy markazlaridan biriga aylanishida birinchi salmoqli kadamni Alptegin qo'yganini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Zikr qilinganidek, Alptegin somoniylar bilan aloqani uzgan bo'lishiga qaramay, somoniylar g'aznada mujassamlashgan va quloqch yoyib borayotgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj syozib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sabuktegin va somoniy Nux III (976—997) o'rtasida Kesh atrofida bo'lib o'tgan uchrashuv (bunda Sabuktegin Nuxni qo'llab-quvvatlashi haqida va'da bergan), yo bo'lmasa 994 yili somoniylarning eng ashaddiy dushmanlaridan Abu Ali Simjuriyning tor-mor etilishida Sabuktegin tutgan asosiy o'rin orqali ko'rish

mumkin. Sabukteginning obro'-e'tibori So'nggi yillarda shu darajada yuqori bo'lganki, u «dinu davlat himoyachisi (Nosir ad-din va ad-davla)» faxriy unvoni bilan mashhur edi.

G'aznaviylarning ham rasman, ham amalan siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996 yilga to'g'ri keladi. YUqorida ko'rib chiqilganidek, qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga tahdid soladilar. Tilga olingan yili esa Sabuktegin somoniylarni qoraxoniylar «changali»dan saqlab qoladi. Somoniy Nux III raqib oldidagi zaifligini sezgan holda unga murojaat qiladi. Sabuktegin esa Buxoroni qulga olib, qoraxoniylar bilan kelishuvga imzo chekadi. Bunga ko'ra Amudaryodan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sabukteginning nomiga muhrlanadi. Uning vafotidan (997) keyin avvaliga taxtga bir oz muddat Uning o'g'li Ismoil va 998 yildan esa boshqa farzandi Mahmud chiqadi. g'aznaviylar qudrati va shuhratini oshirgan hukmdor ham aslida ana shu Mahmud hisoblanadi. Chunonchi, uning hukmronligi davrida (998—1030) Xorazm, Xuroson, Seyiston, qobul, g'azna, SHimoliy Hindiston kabi viloyatlar va makonlar g'aznaviylar izmida bo'lgan. Mahmudning o'limidan So'ng taxtga uning ug'li Muhammad o'tiradi, vaholanki, undan katta o'g'li (Mas'ud) ham bor edi. O'sha zamonda yozilgan manbalar sharaga ko'ra, Mahmud taxtni kichik ug'li Muhammadga vasiyat qilish bilan birga, unga «Akan Mas'ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo'lasan», degan. Haqiqatan ham tez orada Mas'ud va Muhammad o'rtasida muxolifat yuzaga keladi. Mas'udning Muhammaddan ustun bo'lganligini zamondosh tarixchilar ham tan oladilar. Xullas, shu yilning o'zidayoq Mas'ud taxtni egallaydi.

Ilgarilari ham ko'p marta ko'rganimizdek, odatda, biron-bir sulola tarixida muayyan ma'noda bekamur ko'st, doimo «oshig'i olchi» siyosatchi tarix sahnasiga bir marta chiqadi. g'aznaviylar ham bundan mustasno emasdilar. SHuning uchun ham Mas'ud davri (1030—1041) asosan Mahmud sa'y-harakatlari bilan qulga kiritilgan natijalarni saqlab qolish yulidagi urinishlar yillari bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi. Birinchidan, 1034 yili Xorazm g'aznaviylar ta'sir doirasidan chiqadi. Ikkinchidan esa Xurosonda boshqa bir siyosiy sulola — saljuqiylarning kuchayib borishi ham xuddi mana shu Mas'ud davriga to'g'ri kelgan. 1035 yilgi kelishuvga binoan Mas'ud saljuqiylarga (Yabg'u, To'g'ril, Dovud boshliq, qabilalarga) Niso, Farova, Dehiston viloyatlarini maskan va yaylov sifatida berishga majbur bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan kuch-qudrat orttirgan saljuqiylar 1038 yili Nishopurni egallaydilar. SHu yilgi Saraxs atrofidagi Mas'ud bilan jangda mag'lub bo'lishlariga qaramay, ko'p o'tmay — 1040 yili Marv va Saraxs oralig'idagi Dandoniqonda saljuqiylar g'aznaviylarga Chunonam zarba beradilarki, shundan So'ng Sabuktegin avlodlari o'zlarini o'nglay olmaydilar. Xuroson quldan ketadi. Garchi Mas'ud o'g'li Mavdud (1041—1049) o'z xonadonining ilgarigi mavqeini tiklashga uringan bo'lsada, buning uddasidan chiqolmagan. Chunki fursat quldan ketgandi. g'aznaviylar bundan buyon faqat g'azna viloyati va SHimoliy Hindistondagina hukm yurgizishga qodir bir hududiy sulolaga aylanib qolganlar. Biroq nima bo'lganda ham 1187 yilga qadar ular o'z faoliyatlarini tuxtatganlari yuq. Mavduddan So'ng sulolaga navbati bilan Ali, Abdurashid, Ibrohim, Mas'ud II, Arslonshoh, Baxromshoh, Xisravshoh, Xisrav Maliklar etakchilik qilganlar,

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy hol. Chunki ilgari ham ta'kidlab o'tganimizdek, Har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq. bo'ladi. Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Seyiston, Qobul, g'azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklarini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi.

Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh. va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham qurilganidek, dargohga oliy hukmdor (g'aznaviy hukmdorlar «Amir» unvoniga ega bo'lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida «hojiblik» xizmati alohida e'tiborga loyiq. g'aznaviylar davri bo'yicha manbalarda biz hojiblikning quyidagi shakllariga duch keldik: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavkega ega bo'lgan. Bunga ishora beruvchi bir necha misollar keltiramiz. Mahmudning o'limidan keyin Muhammadning taxtga o'tirishiga bosh-qosh bo'lgan va, qisqa muddatga bo'lsada, boshqaruv ishlarini o'z ixtiyorida mujassamlashtirgan ham ylug' hojib Ali qarib bo'ladi. Rasmiy marosimlarda ulug' hojib oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Unga g'oyat muhim vazifalar yuklatilgan. Katta ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipohsalor o'ng qanotga, ulug' hojib esa chap qanotga qo'mondonlik qilgan. Ulug' hojib o'ta jiddiy harbiy yurishlar, maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga quyish tadbirlarida ham faol bo'lgani ma'lum. Oliy hukmdor va ulug' hojiblararo munosabatlar nechog'lik bo'lganligini shundan ham qurish mumkinkn, Mas'ud ulug' hojib Ali qaribga yo'llagan bir maktubida unga «fozil (ulug') hojib, birodar» deb murojaat qiladi. Saroy hojibining vazifasi tushunarli — u saroy eshikog'asi bo'lgan.

Hojibga kelsak, fikrimizcha, hojiblik, umuman olganda, qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy tabaqa sifatida ko'proq. namoyon bo'ladi. Faraz qilish mumkinki, o'z davri uchun hojiblik ritsarlik tushunchasiga yaqin bo'lsa ajab emas.

Fillarning soni ham ko'p edi. Lashkar esa shay bo'lib, qimmatbaho nafis ipaklik qiyimda, soyabonlar (ostida), (har bir qism) o'z qurol-yarog'i, belgilari bilan bir-birlariga qarama-qarshi tomonlarga saflangandilar, (xuddi) shular orasidan elchi o'tishi kerak edi. Elchini boshlovchi bezatilgan otlarni olib ko'pchilik hamrohligida

(tash-qariga qarab) yuradi. (U erda) elchini otga mindiradilar. (So'ng) o'ni boshlab keldilar. (Shunda) burg'u, katta-kichik nog'aralar ovozi yangrab ketdiki, guyo qiyomat kuni kelganday (deysan kishi). Elchini ana shunday ulug'vor takalluf bilan ko'zatib bordilar. Bunday (qabul marosimini) u umrida ko'rmagandi. g'oyatda hayratga tushgan holda u ko'shikka qadam quydi. Amir (ya'ni oliy hukmdor), Olloh undan rozi bo'lsin, supa oldida taxtda o'ltirardi. Xalifa elchisi salom berdi. U qora (qiyimda) edi. Javobni ulug'xoja Ahmad Hasan berdi. Amir yonida undan bo'lak hech kimsa o'ltirmagandi. qolgan barcha tik turardi. Hojib Abu Nasr elchining tirsagidan tutib o'ltirishga undadi...».

G'aznaviylarning mintqa madaniy hayotida tutgan roli haqida gapirarkanmiz, XI asr fan va madaniyati tarakqiyoti va olamshumul yutuqlarida ular hukmfarmo bo'lgan makon va zamonning o'rni katta bo'lgan. Albatta, buning sababini eng avvalo mintaqaning an'anaviy fan va madaniyat o'chog'i bo'lib kelganligi bilan bog'lash mumkin. SHu bilan birga, fikrimizcha, bunda g'aznaviylar sulolasi namoyandalarning mazkur sohaga bo'lgan munosabatlari, shaxsiy imkoniyatlari omili ham kam o'rin tutmagan. Chunonchi, Mahmud g'aznaviy ona tilisi turkiydan tashqari fors, arab, hatto pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. SHuning uchun ham bo'lsa kerak Mahmud va umuman g'aznaviylar hukmronlik qilgan markazlar o'z davrining madaniy muhitida eng oldingi o'rinlarda turganlar. Farruhiy, Unsuriy, Manuchexriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy, Nosir Xisrav kabi mashhur shoirlar, tarixchilar, olimlar g'aznaviylar homiylikida faoliyat ko'rsatganlar. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Bero'niy ham g'aznaviylar saroyida ilm bilan shug'ullanib o'zining ko'plab mashhur asarlarini, jumladan, «Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Saydana»ni g'aznada yozgan.

G'aznaviylar bilan yana bir mashhur madaniyat arbobining nomi bog'liq. So'z Abulqosim Firdavsiy haqida. Fors adabiyotining daho shoirlaridan hisoblanmish Firdavsiy hammaga ma'lum «SHohnoma» asari-ni o'ttiz yildan ortiq, vaqt ichida yozib tugatib, o'sha zamon tartib-qoidalariga ko'ra davr sultoni Mahmudga taqdim etadi. Mahmud bu ulkan she'riy asar (60 mingdan ziyod baytdan iborat) uchun taomilga ko'ra sho'irni taqdirlashi va hurmatini o'rniga quyishi kerak edi. Ammo u bunday qilmaydi. Ba'zi bir adabiyotlarda buning uchun Mahmudni qoralash qonun tusiga kirib qolganligini nazarda tutib, bu masalaga ravshanlik kiritishga harakat qilaylik. Firdavsiy o'z xalqi farzandi va kuychisi sifatida tabiiy ravishda Eronzamin va eron xalqini madh etadi. Va bunda eronliklarning tarixi va fazilatlarini (donoligi, shijoati va hokazo) masalasini yoritishda ularga turonliklarni qarshi qo'yadi. Bugungi kun tili bilan aytganda asarda turonliklar salbiy «qaxramonlar» sifatida gavdalanadilar. Turkiynasab hukmdor sifatida Mahmud buni qabul qilolmasligi tabiiy edi. qaysi hukmdor O'z xalqiga qarshi ruhda bitilgan asarni taqdirlagan? Bundayi yo'q.. SHuning uchun bu borada Mahmudni ayb-lash tarixiy haqiqatga va umuman mantiqqa ziddir.

G'aznaviylar davrida qurilish, ma'rifiy ishlarga ham katta e'tibor berilgani ma'lum. g'azna, Balx, Nishopur, Shimoliy Hindiston shaharlarida madrasalar, masjidlar, xonaqahlar, saroylar ko'plab qurilgani manbalarda o'z aksini topgan. Madrasalarda turli sohadaga fanlardan dars berilgan, ilmi toliblar uchun o'z zamonasida boy hisoblangan kutubxonalar eshigi doimo ochiq bo'lgan.

SALJUQIYLAR

Kishilikning eng qadimgi madaniy o'choklaridan biri hisoblanmish Turkiston tarixiy taraqqiyotning o'nqir-cho'nqirlariga qaramay doimo o'zining sernufusligi bilan ko'zga tashlanib kelgan. Va, tabiiy ravishda hayot shahar va vohalardan tashqarida - dashtu biyobonlarda ham qaynagan. Shuning uchun ham Turkiston xalqlari hayotida o'troq, yarim o'troq, va ko'chmanchilik turmush tarzi yonma-yon, bir-biriga g'oyatda bog'liq ravishda mavjud bo'lib kelgan. Xorazm, Zarafshon, Farg'ona, qo'shqadaryo, Surxondaryo voha va vodiylarida yashagan ' xalqlar ming yillar davomida asosan o'troq hayot kechirib kelgan bo'lsalar, atrofdagi cho'lu biyobonlarda, ta-biiy ravishda, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilar istiqomat qilgan. SHu bilan birga ko'chmanchi muhitdan ham vaqti kelib qudratli siyosiy sulolalar etishib chiqqani ham ma'lum. Bu, ayniqsa, saljuqiylar sulolasi misolida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Saljuqiylar turkiy o'g'iz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy qozog'aston hududiga to'g'ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o'rta oqimidagi erlarda ko'chmanchi hayot kechirar edilar. Aslini olganda xuddi shu vaqtda saljuqiylar sulolasi hali shakllanmagan edi. Boshqacha aytganda, saljuqiylar bu etnik nom emas. X asrda Balxash ko'lining janubidan to quyi Volgagacha bo'lgan hududda turkiy xalqlardan bo'lmish o'g'zlar yashardilar. Ular ko'plab qabila va urug'larga bo'linganlar. Ana shundaylardan biri — qiniq, urug'idan chiqqan Saljuq ismli shaxs o'zining fazilatlarini, bilimdonligi, abjirligi va mardligi orqasida obro'-e'tibor qozonib boradi va bir qancha o'g'iz qabilalari sardori, katta harbiy kuch boshlig'i darajasiga erishadi. Tabiiy ravishda bunday shaxslarning borib-borib o'z davrasi, ta'sir doirasi vujudga keladi. Saljuqda ham shunday bo'lgan. Bu esa o'z o'rnida muayyan qarama-qarshiliklarni ham vujudga keltirgan. Xullas, iqtisodiy-siyosiy raqobat natijasida Saljuq, o'z tarafdorlari bilan yuqorida tilga olingan Sirdaryoning o'rtaoqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg'og'ida joylashgan Jand viloyati yaqiniga kelib o'mashadi. Bu voqea taxminan X asrning o'rtalarida sodir bo'lgan. SHu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Ular xuddi shu asrda Movarounnahrni idora qilayotgan somoniylar, aniqrog'i So'nggi somoniylarni harbiy jihatdan qullab-quvvatlaganlarini bilamiz. Saljuqiylarning Movarounnahr siyosiy hayotiga faol aralashuvi ayniqsa somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati yillari

kuchaydi. Bu esa saljuqiylar qaramog'idagi o'g'uz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o'rnamishlari uchun sharoit yaratdi.

Ular o'z turmush tarzlariga ko'ra yaylovlar, dashtliklarda o'rnamishganliklari tabiiy. Shahar va vohalarda esa, avvalgidek, o'troq turkiy aholi istiqomat qilavergan. O'g'uz qavmlarining harakati ikki daryo oralig'i bilan cheklanib qolmagan. 1025 yili ularning bir qismi (4000 oila) Mahmud g'aznaviyning roziligi va bir necha shartlar bilan Saraxs, Farova va Obivard atroflaridagi yaylovlarni o'zlariga makon qiladilar. SHu tariqa ular Xurosonga qadam bosadilar. Saljuqiylar va g'aznaviylar o'rtasidagi ilk munosabatlar haqida biz o'tgan boblarda ham to'xtalib o'ttandik. Saljuqiylar iloji boricha Xurosonda mavjud iqtisodiy, savdo va, albatta, siyosiy sharoitlardan foydalanishga harakat qilganlar. Bu o'z o'rnida shu vaqtda o'lkada hukmdor bo'lgan g'aznaviylar manfaatiga zid kelardi. Shu tariqa ulararo ziddiyat paydo bo'ladi. 1040 yilga qadar ular bir necha marta o'zaro tuqnashganlar. Oxiri esa ko'rsatilgan yili Dandoniqonda saljuqiylar g'aznaviylarni mag'lubiyatga uchratadilar. Bu vaqtga kelib Saljuq allaqachon oxiratga ravona bo'lgan, uning xonadoni siyosiy faoliyatiga esa nabirasi To'g'rulbek (1038-1063) boshchilik qilardi. Xullas, 1040 yili To'g'rulbek Xuroson hamdori deb e'lon qilinadi va shu tariqa dunyo saltanatlarida yana bir qudratli sulolaning rasmiy yuksalish yo'li boshlanadi.

XI asrning mazkur 40-yillaridayoq saljuqiylar Xorazm, Eron, Kavkazortiga harbiy yurishlar uyushtiradilar. 1055 yili esa To'g'rulbek halifalik poytaxti Bag'dodni egallaydi va o'z nomiga xutba o'qitiradi. To'g'rulbek hayotligidayoq saljuqiylar Eron, Iroq Kavkazorti o'lkalarini o'z ta'sir doiralariга tortgan edilar. 1071 yili esa keyingi saljuqiy hukmdor Sulton Alp Arslon (1063-1072) Kichik Osiyoda Vizantiya podshosi Romen IV Diogenni engib, o'zini asirga oladi. Bu o'z o'rnida saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rnamish olishlari uchun katta zamin tayyorlaydi. Sulton Malikshoh (1072-1092) zamonida Samarqand, Buxoro, O'zgand (Farg'ona) ham saljuqiylar qo'l ostida birlashadi. Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham saljuqiylar ustunligini tan oladilar. Sulton Malikshoh, hukmronligi davrida saljukatiy, Raf'iy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. Odatdagidek, ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar. Masalan, Umar Xayyomni biz ko'proq mashhur shoir, aniqrogi, to'rtliklar ustasi sifatida taniymiz. Vaholanki, u etuk yulduzshunos va riyoziyotchi ham edi. Xayyom ishtirokida rasadxona loyixasi chizilib, So'ng bir yil ichida barpo etilgan. Unda olib borilgan kuzatishlar va boshqa izlanishlar natijasida 1097 yili Umar Xayyom Sulton Malikshoh topshirigiga ko'ra yangi taqvim (kalendar) tuzadi. Uning aniqligi Grigoriy kalendaridan ham yuqori bo'lishiga qaramay amalda joriy qilinmasdan qolib ketgan. Bundan tashqari matematika tarixida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi isbotlab bergan ham Umar Xayyomdir.

Yo bo'lmasa, kutubxonalar ahvolini olaylik. Bilim va ma'rifat tarqatishda, buyuk ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini saqlashda katta ahamiyat kasb etgan bunday muassasalar saljuqiylar davrda bir talay edi. Tarixchi va sayyoh YOqut Hamaviy (1179—1229) Marvda bo'lganida bu erda o'nta yirik kutubxona borligini ko'rgan. Mazkur kutubxonalarda saqlanayotgan ki-toblar qimmatlari va soni jihatidan dunyoda biron-bir kutubxona unga teng kelolmaydi, deb yozgandi tarixchi.

Xullas, saljuqiylar davri va faoliyati haqida ko'p yozish mumkin. Ammo bir narsa aniqki, Turkistondan chiqqan namoyanda sifatida saljuqiylar mazkur mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi ko'p asrlik tajriba va an'alariga suyangalar, baholi qudrat o'z faoliyatlarida ularni davom ettirishga harakat qilganlar.

ANUSHTEGINIYLAR

O'zbek davlatchiligi taraqqiyotida mamlakatimizning har bir vohayu vodiysining hissasi bo'lib kelganini biz bir necha bor ko'rdik. SHu ma'noda davlatchiligimiz ibtidosi qaror topgan kuhna Xorazmda XI-XIII asr boshlarida kechgan siyosiy jarayon va uning tamom mintaqaga ta'siri katta qiziqish uyg'otadi. Biz quyida shu erdan chiqqan, ko'proq xorazmshohlar nomlari mashhur sulola faoliyati haqida fikr yuritmoqchimiz.

Xorazmshoh deyilganda, aslida, Xorazm vohasida hukmronlik qilgan sulola vakili tushuniladi, ya'ni Xorazm hukmdori (shohi) ma'nosini anglatadi. Uzoq, asrlar davomida bu viloyatda bir qator sulolalar xorazmshohlar unvoni ostida faoliyat ko'rsatganliklarini bilamiz. Masalan, IV-X asrlarda afrig'iylar xonadoni, 995-1017 yillarda ma'muniylar (Ma'mun I, Abulhasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041 yillarda esa oltuntoshiylar (Oltuntosh, Horun, Handon) sulolalari xorazmshohlar unvoni bilan boshqaruv kursisida o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, mamlakat, mintaqa miqyosida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushteginiylardir (1097-1231). So'z ham aynan anushteginiylar haqida boradi.

Anushteginiylar sulolasining boshlovchisi Anushtegin (vafoti 1097 yil) hisoblanadi. XI asrning ikkinchi yarmida saljuqiylarning omadi chopgan vaqtlar edi. Anushtegin saljuqiy hukmdor Sulton Malikshohning mansabdorlaridan bo'lib, O'zining namunali xizmati evaziga yuksak martaba va hukmdorning yaqin ayonlaridan biri darajasiga ko'tariladi. Taxminan 1077 yili u Xorazm shihnaligi (komendant ma'nosida) vazifasiga tayinlanadi. 1097 yili esa o'g'li qutbiddin Muhammad Xorazm voliysi, ya'ni hokimi mavqeiga erishadi. Uning hokimligi faqat Xorazm doirasida bo'lgani tabiiy. qutbiddin Muhammad saljuqiylar dargohiga qaram edi. Har yili o'zi yo o'g'li Otsiz orqali markazga viloyatdan undirilgan soliqni olib borib turardi. Xuddi mana shu Otsiz (to'liq. ismi Malik Abu Muzaffar Aloviddin Jaloliddin Otsiz) otasidan keyin (1128 yili) saljuqiy Sanjar hukmi

bilan Xorazm voliyligiga tayinlanadi. Bu vaqtda u hali 30 ga ham kirmagandi. Otsiz ham avvaliga otasi kabi saljuqiylar xonadoniga sidqidildan xizmat qiladi. Ammo siyosatda bo'lganidek, o'z mavqei mustahkamlanib va, aksincha, raqobatchilari zaiflasha borganini sezgan holda saljuqiylarga qaramlikdan bosh torta boshlaydi. Garchi faoliyatining So'nggi 20 yili davomida u mutlaq mustaqillikka erishish va bu bilan ham chegaralanmay o'z hukmini Sirdaryoning quyi oqimlaridagi erlar va Xurosonga ham o'tqazishga intilgan bo'lsada, ammo mohiyat e'tibori bilan aytadigan bo'lsak, uning zamonida Xorazm viloyati¹ to'lda epkinlikni qo'lga kirita olmadi. Agar Otsiz zamonasi siyosiy manzarasiga nazar tashlagudek bo'lsak, bu vazifani hal etish xaqiqatan ham qiyin ekanligini sezamiz. Avvalo, nima bo'lganda ham Sulton Sanjar g'oyatda katta qudratga ega edi. Bunga Otsizning o'zi ham bir necha bor iqrar bo'lgan. Ikkinchi tomondan, shu asrning 30-yillari oxiri va 40-yillari boshida Turkiston siyosiy maydoniga chiqqan yangi kuch —qoraxitoylar ham nihoyatda quvvatga to'lib turgan edilar. Bekorga Otsiz ularga yiliga 30 ming oltin dinor to'lab turishni bo'yniga olmagan, albatta. Ammo shu bilan birga Otsiz faoliyati o'z sulolasining keyingi o'n yilliklarda Turkiston va undan tashqarida ham amalga oshirgan harakatlarining asosini yaratishda beqiyos bo'ldi. Ya'ni Otsiz anushteginiylar xonadoni nafaqat bir viloyat, balki ulkan mintaqada ham siyosat yurgizish, dongdor siyosiy kuchlar bilan raqobatlasha olishga qodir ekanligini amalda ko'rsatgandi. Otsiz va Sulton Sanjar ketma-ket (1156 va 1157 yillari) oxiratga safar qilganlar. Otsizning siyosatini o'g'li El Arslon (1156-1172) davom ettiradi. Ochig'ini aytish kerak, bu vaqtga kelib mintaqadagi vaziyat ham ancha «bo'shashgandi». Bu, eng avvalo, Sulton Sanjarning o'limidan keyin saljuqiylar xonadonidan uning o'rnini bosa oladigan etuk siyosatchining chiqmaganligidan, desak to'g'ri bo'ladi. Gapning qisqasi, Sulton Sanjardan So'ng Sharqiy saljuqiylar siyosiy birligi inqirozga uchragan edi. Bunday sharoitda El Arslon uchun Xorazmda mustaqil siyosat yurgizishga erishish mushkul emasdi. U faqat bu bilan chegaralanibgina qolmay mintaqa bo'ylab ham faol harakat qila boshlaydi. Chunonchi, u 1158 yili Movarounnaxrda qoraxitoylar bilan to'qnashib, qo'li baland kelgan holda ular bilan sulx tuzadi. 1167 yili esa Nishopurni egallaydi va Ozarbayjonga harbiy yurish uyushtiradi. Ammo El Arslonga ham markazida Xorazm bo'lgan, barcha tomonidan tan olingan qudratli siyosiy hokimiyatta asos solish nasib etmagan.

Xorazmshohlarning zabardast siyosiy kuch sifatida ro'yobga chiqa olmaganliklarining bosh sabablaridan biri bu ichki nizolarga barham bera olmaganliklaridir. Chunonchi, El Arslondan So'ng uning o'g'allari Alo-viddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida 20 yildan ortiq, vaqt davomida taxt uchun kurash ketadi. Har ikkovi ham goh qoraxitoylarga, goh Hirotdan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududda hukmronlik qilib turgan g'uriylar sulolasiga, goh esa Xuroson amirlariga suyangan holda o'zaro ko'rash olib borganlar. Biroq bundan biron-bir naf chiqmadi, na sulola, na Xorazm yuk-saldi. Faqat Sultonshoh vafotidan So'nggina (1193 yil) Takash yakka hukmdor sifatida keng qamrovli siyosat yurgizish imkoniga ega bo'ldi. 1194 yili u g'arbiy Eronning aksar qismini bo'ysundirdi, keyin Kermonda ham uning nomiga xutba o'qiladi. Hukmronligi So'nggida u xatto Bag'dodni — halifalik poytaxtini zabt etishga ham shaylanadi. Ammo yurish chog'ida, 1200 yilning yozida, yulda vafot etadi. Undan qolgan meros — Turkiston va Eronni o'z ichiga olgan saltanat ko'rsisiga Aloviddin Muhammad (1200—1221).chiqadi. 1210 va 1212 yillarda ikki urinishda u qoraxitoylar masalasini butunlay hal qiladi². Bu voqea uning obro'-e'tiborini nihoyatda oshirib yuboradi. Ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablari bilan mashhur bo'lgan Sulton qutbiddin Muhammad sa'y-harakatlari tufayli 1217 yilga kelib Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan erlar xorazmshohlar izmiga tushgandi. SHu yil oxirida u ham Bag'dodni egallash harakatiga tushadi, ammo ob-havo og'ip kelib, mo'ljal amalga oshmay qoladi. Sulton Muhammadning asosiy maqsadi Suriya, Kichik Osiyo va Misrni ham bo'ysundirish edi. Xullas, Chingizxon (1206—1227) bosqini arafasida xorazmshohlar sulolasi dunyoning eng qudratli siyosiy kuchlaridan biriga aylangandi. Orol dengizidan Hind okeanigacha, Irokdan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan ulkan hudud taqdiri Xorazmda hal bo'lardi³.

Xuddi shu davrda sharqda boshqa bir harbiy-siyosiy kuch qudratga to'lib borayotgandi. Albatta, biz bu erda Chingizxon asos solgan harbiy-siyosiy ko'chmanchi uyushmani nazarda tutaymiz. XIII asr o'ninchi yillari oxirida SHarqda ikki yirik kuch — xorazmshohlar va chingiziylar hukmronligi sharoitida ularning o'zaro tuqnashishlari tabiiy hol edi. qator manbalar, ilmiy adabiyotlarda chingiziylarning Movarounnahrda yurishlari sababini turlicha izohlashga harakat qilinadi-yu, ammo oddiy bir haqiqatga ko'p ham e'tibor berilmaydi. Xorazmshohlar ham, chingiziylar ham siyosiy kuch sifatida shunday bir quvvatga ega edilarki, yonma-yon turgan bir sharoitda ularning o'zaro tuqnash kelmasliklari mumkin emasdi (xuddi, masalan, makedoniyalik Aleksandr va ahamoniylar, Amir Temur va Boyazid o'rtasida-gi raqrbat kabi). Bahona esa doimo topiladi. Xoh u tomondan, xoh bu tomondan. Odatda, Chingizxonning Movarounnahrda lashkar tortishiga sabab qilib 1218 yilgi O'tror voqeasi ko'rsatiladi, ya'ni Chingizxon elchilik-savdo karvonining O'trorda qatl etilishi Chingizxon g'azabini qo'zg'agan, qabilidagi fikrlar olg'a suriladi.

Vaholanki, ikki tomon o'rtasida urush chiqishi muqarrarligi ham Sulton Muhammadga, ham Chingizxonga boshdanoq ayon edi. Bu borada tashabbus ko'proq. Chingizxonda bo'lgan. 1218 yili xorazmshohga yuborgan nomasida u Sulton Muhammadga o'g'lim, deb murojaat qiladi. Diplomatiya tilida bu «qarolim» degan bilan barobar bo'lib, aslida bu jantga undash edi. Hozircha bizga noma'lum qandaydir sabablarga ko'ra Sulton Muhammad bunday qilmaydi. O'trordagi voqeaga kelsak, elchilar va savdogarlarning o'ldirilishi ham ayb sifatida Sulton Muhammadga quyib kelinadi. Vaholanki, bizning nazarimizda, uning bundan

boshqa iloji yuq edi. Bu karvon faqatgina elchilik va savdo karvoni bo'lmay, balki undagi 100 kishiga o'lkadagi turli erlarda savdo bilan shug'ullanish uchun Chingizxon ko'rsatmasi bilan mablag' ajratilgan edi. Boshqacha aytganda, mazkur kishilar josuslik faoliyati bilan shug'ullanishlari mo'ljallangan. Umuman olganda, Chingizxon bulajak jang maydoni bo'lmish o'lkani juda yaxshi o'rgangandi. Buni Sulton Muhammad yaxshi bilardi va unga chek quyish zarurligini ham anglardi. Biz hatto shunday faraz qilishimiz mumkin, O'trordagi to'kilgan qon Chingizxon tomonidan avvaldan pishirilgan reja asosida amalga oshirilgan. Chunki mazkur voqea tarixiy bayonining bir cho'pchaknamo tomoni bor. YA'ni karvonning barcha kishilari qirib tashlangan-u, faqat bir kishi omon qolib, bu haqdagi xabarni Chingizxonga etkazgan. Vaholanki, shunday katta shahar O'trorda bir necha yuz odam qatl etilishi, nima bo'lganda ham, byokitiqcha qolmasdi.

O'z o'rnida Sulton Muhammad ham qator xatolarga yul quygan. Chunonchi, dushman bilan bo'ladigan janglarda qanday taktikadan foydalanish masalasida u Sabotsizlik va kaltabinlik qildi. Vaholanki, harbiy kengashda bir qator takliflar o'rtaga tashlangandi: barcha harbiy kuchni (600 ming kishi atrofida) bir erga to'plab, Harbiy yurishda toliqib turgan dushmanga Sirdaryo bo'yida hujum qilish; g'animni Movarounnahrda kiritib, qulay vaziyatda unga zarba berish (Jaloliddin taklifi); tog'liklarga chyokingan xolda mo'g'illar uchun noqulay dalalarda jang qilish; g'aznaga va hatto Hindiston tomon chyokinib o'sha erda jang olib borish. Sulton Muhammad bularning barchasini inkor qilgan xolda boshqa bir yo'lni tanlaydi, ya'ni har bir shahar va qal'a kuchiga suyangon xolda himoyalaniшни ma'qul topadi. Bu esa harbiy kuchning avval boshdanoq bir necha mayda-mayda qismlarga bo'linib ketishiga olib keladi. Natijada, 1220 yili Buxoro, Samarqand, 1221 yili Urganch, Termiz qo'ldan ketadi. Xo'jand hokimi Temur Malik, Jaloliddin xorazmshoh mardliklari nechog'lik yuqori bo'lishiga qaramay tashabbus qo'ldan ketgani sabab urushda yutqaziladi. SHu erda biz bir masalaga—mag'lubiyatning bosh sababiga diqqatni jalb etmasdan qololmaymiz.

Chingizxon nechog'lik qudratli qo'shinga va aql-zakovatga ega bo'lishidan qat'i nazar Sulton Muhammad imkoniyatlari undan kam emasdi. YUqorida tilga olingan ulkan hududni o'z qo'l ostida birlashtirishga muvaffaq, bo'lganligi uning imkoniyatlari nihoyatda katta bo'lganidan dalolat beradi. SHunga qaramay madaniy jihatdan qoloq. bo'lgan siyosiy kuchga kurash boy berildi. Buning sababi nimada? Fikrimizcha, Sulton Muhammad hukmronligi davrida davlatchilikda o'ziga xos ikki hokimiyatchilikning yuzaga kelishida. YUqorida Nizomul mulkning podshohlik ishiga ayollar va go'daklarni aralashtirmaslik kerakligi haqidagi fikrini keltirib o'tgandik. Sulton Muhammad zamonida esa xuddi shu hol yuzaga keladi. Uning onasi Turkon xotun davlat ishlariga to'g'ridan-to'g'ri aralasha boshlaydi. U davlat boshqaruvidagi eng muhim masala -davomiylik, ya'ni valiahdlik masalasiga aralashib o'zining hukmini o'tkazadi. Valiahd qilib Sulton Muhammad mo'ljallagan Jaloliddin emas, onasi talab qilgan kenjatoy Uzloqshoh tayinlanadi. Kenja o'g'ilning onasi esa o'z o'rnida Turkon xotun qavmidan bo'lib, Turkon xotun o'z qavmiga doim yon bosib kelardi. Turkon xotun aslida qipchoq urug'laridan biriga mansub bo'lib, o'z vaqtida Takash qipchoqlarini o'ziga og'dirish niyatida unga, qipchoq xonining qiziga uylangandi. Vaqti kelib Turkon xotun ko'magida qipchoqlar xorazmshohlar saltanatida katta mavqe kasb etishlarini u xayoliga keltiribdi deysizmi. Xullas, ko'chmanchi sharoitdan chiqib, o'troq va yuksak madaniyatli muhitda birdaniga yuksak darajaga erishgan amirlar, harbiylar iloji boricha o'z mavqelarini qanday bo'lmasin mustahkamlab borishga harakat qilganlar. qoloqlikdan birdaniga, deyarli hech bir urinishsiz, Turkon xotun yordamida madaniyatning va u bilan bog'liq barchaning markazida bo'lib qolish, albatta, egallagan joyini saqlashga undaydi. Lyokin bu jarayon xorazmshohlar va, umuman, davlatchilik ustunlari zaiflashishi hisobiga kechdi. Sulton Muhammad va ana shu toifa amirlari o'rtasidagi tafovut shunchalar bo'lganki, vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Chingizxon ko'rsatmasi bilan bir qalbaki xat tuzilgan va unda go'yoki mazkur toifa amirlari Chingizxonga murojaat qilib, uni zoriqib kutayotganliklarini yozadilar. Bu xat josuslar orqali tarqatilib, Sulton Muhammadga etib boradi va uning sobitligiga katta zarba beradi.

Demak, davlat markazida qabilaviy manfaatlarni hamma narsadan afzal biluvchilarga o'rin bo'lmasligi kerak ekan. Bu borada Turkon xotun shunchalar past bo'lganki, Chingizxon tutqunligida bo'lib turgan bir vaqtida unga qochib Jaloliddin oldiga boraylik deyishganda, Oychechakning o'g'liga (Jaloliddinga) qaram bo'lgandan ko'ra Chingizxon qo'lidagi asirlik va bu erdagi kamsitishlar menga azizroqdir, degan ekan. Garchi Sulton Muhammad o'limi oldidan (1221 yili) o'g'li Jaloliddinni valiahd qilib tayinlasada, fursat qo'ldan ketgandi. SHunga qaramay davlat va xalq oldida o'z mas'uliyatini hech qachon unutmagan Jaloliddin dushmanga qarshi kurashni to'xtatmaydi. To'g'pi, u Urganchni tark etadi va Niso, qandahor atrofida, CHorikorda, Fazna yaqinida bo'lgan janglarda mo'g'ullarga shunday zarbalar beradiki, o'z engilmasliklariga ortiqcha bino qo'yan mo'g'ullar ichini alam va afsus dog' qiladi. SHunda Jaloliddinga qarshi shaxsan Chingizxonning o'zi o'tlanadi. Ushbu vaziyatda davlatchiligimiz tarixida ko'zga tashlanib kelgan bir nuqsonimiz yana pand beradi. So'nggi jangda qo'lga kiritishgan o'ljani taqsimlashda kelishmovchilik chiqib ba'zi bir amirlar o'z qo'shinlari bilan Jaloliddinni tark etadilar. Jaloliddin ularga qarata «birga bo'laylik, umum dushmanga qarshi birgalikda kurashaylik» deyishiga qaramay naf chiqmaydi. Eng achinarlisi, mo'g'ullar ancha amirlarni bittama-bitta qirib tashlaganlar. Kuchi qirqilgan Jaloliddin esa Sind daryosi tomon chyokinadi. Chingizxon uni tiriklayin tutishni buyurgan. qo'li past kelayotganini sezgan Jaloliddin butun haramini daryoga cho'ktirishni buyuradi, ya'ni yaqinlarining dushman qo'lga tushishini xohlamaydi. o'zi ham oti bilan daryoga otiladi va eson-omon narigi

qirg'oqqa so'zib o'tib oladi. Bu manzaradan hayratga tushgan Chingizxon: «O'g'ling bo'lsa shunday bo'lsin!», degan ekan.

Jaloliddinning keyingi faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, shu narsa oydinlashadiki, u xorazmshohlar taxti vorisi sifatida o'z xonadoniga tegishli bo'lgan erlarda hukmronlikni tiklashni maqsad qilib qo'ygan. SHunga ko'ra u avval Shimoliy Hindistonda, So'ng Kermon, Sheroz, Isfahon va Ozarbayjonda xorazmshohlar siyosatini tiklaydi. 1226 yili esa Tiflisni oladi. Manbalardan birida yozilishicha, Jaloliddin oldiniga gruzinlar bilan tinchlik yo'li asosida kelishishga harakat qilgan. Jumladan, ularga qilgan murojaatida shunday deyiladi: «Men sizlarning mamlakatingiz qudrati va gruzinlar shijoati haqida eshitganman. Endilikda esa men birgalashib dushmanga (ya'ni mo'g'ullarga) qarshi kurashaylik, deymen. Eshitishimcha, hukmdorlarning ayol ekan (bu erda malika Rusudana (1222-1245) nazarda tutilmokda). U menga turmushga chiqsin va men sizlarning ham hukmdorlarning bo'lay va biz birgalikda umum dushmani mag'lub qilgaymiz». Rusudana bunga ko'nmagan va shundan keyin Jaloliddin Tiflisni jang qilib olgan.

Bu vaqtga kelib Jaloliddin xorazmshohlar boshqarib kelgan saltanatning g'arbiy qismida o'z hukmronligini tiklashga muvaffaq bo'lgandi. SHu bilan birga sharqdan mo'g'ullar xavfi kuchayib kelardi. 1227 yili Isfahon atrofida Jaloliddin mo'g'ullarga qaqshatkich zarba beradi. Bu o'z o'rnida uning mavqei va qudratini yanada oshiradi. 1230 yili esa Jaloliddin Kichik Osiyoning janubi-sharqay qismini zabt etadi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur yillarda Jaloliddin sharqdan bosib kelayotgan mo'g'ullar bilan bas kelishga yagona kuch va, umuman, Fap6 mamlakatlarini ulardan to'sib turgan qalqon hisoblanardi. Buni g'arbiy musulmon davlatlari tan oladilar. Bu haqiqat mo'g'ullarga ham ayon edi. SHuning uchun ham ular Jaloliddinga murojaat qilib, o'zaro sulh tuzishni taklif qiladilar. Ammo, u bunga yurmaydi, Chunki o'z ona-yurtini xarob etgan, xalqini xo'rlaganlar bilan kelishishga uning milliy g'ururi yo'l qo'ymasdi. Garchi Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi kurashdagi qalqonlik rolini barcha musulmon davlatlari tan olsalarda, amalda uning atrofiga birlashishni istamasdilar. Bu esa o'z o'rnida mo'g'ullarning Fapbra qarab siljishlariga munosib sharoit yaratib berardi. 1231 yili Ozarbayjonni zabt etgan mo'g'ullar yana Jaloliddinning qarshiligiga uchraydilar. Ammo tasodif tufayli 1231 yilning 17 va 20 avgust oralig'ida Jaloliddin bir kurd tomonidan Mayoforiqin (Kichik Osiyo) atrofida o'ldiriladi.

Jaloliddin haqida ko'p yozish mumkin va kerak ham. Uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi ulug'vor o'rni tabiiy ravishda yuksakdir. Agar mo'g'ullar bosqinining dunyo xalqlari tarixida tutgan o'rni inobatga olinsa, Jaloliddin kishilik taraqqiyotidagi eng buyuk davlat arbobi va yirik lashkarboshi-laridan biri sifatida gavdalanishi kerak. Jaloliddinning haloqati haqida uning dushmanlaridan bo'lmish Damashq hukmdori Malik al-Ashraf Musoga xabar berganlarida u shunday degan ekan: «Sizlar meni uning o'limi bilan qutlayapsizlarmi? Ammo hali sizlar buning azobini ko'rasizlar. Yaratgan nomila qasam ichib aytamanki, uning haloqati totorlarning (ya'ni mo'g'ullarning) musulmonlar eriga bostirib kirishiga (yo'l ochildi) demakdir. Endi biz va yajuj — majujlar (ya'ni mo'g'ullar) o'rtasida devor misol turib kelgan xorazmshoh (Jaloliddin) kabi (lashkarboshi) yo'q».

Anushteginiylar zamonida davlat boshqaruvi qanday bo'lgan, savoli tug'ilishi tabiiy. Anushteginiylar davri boshqaruvida ham ilgari ko'rib o'tilgan sulolalar boshqaruvidan farqli tizim bo'lmagan. Zero, bir tomondan, sulolalar o'zgarishi bilan voqelik, ya'ni makon va an'analar o'sha-o'shaligicha qolavergan, ikkinchi tomondan, anushteginiylar ma'lum muddat saljuqiylar dargohi bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo'lganliklari uchun ulardagi boshqaruv tizimi tajribasini o'zlashtirishlari qiyin bo'lmagan. Demak, davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

Dargohda hojib, ulug' hojib tutgan mavqe xususida biz oldinlari ham fikr yuritgandik. Hojiblik xizmati xorazmshohlar davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Ulug' hojib hukmdorning eng yaqin kishilaridan biri hisoblangan. Hojiblarga g'oyatda muhim vazifalar, masalan, maxsus muzokaralar olib borish va, hatto, vazirlar faoliyatini taftish etish kabilar topshirilgan. SHuningdek hojib lavozimidagi amaldorga butun bir viloyat noiblgi topshirilgani ham ma'lum. Dargohdagi barcha xo'jalik xizmatlari faoliyatini boshqarish ustozdorga yuklatilgan. Sulton chaqirganda birinchi hozir bo'ladigan shaxs ham ustozdor hisoblangan. Oliy farmon olgai ustozdor shunga ko'ra tegishli xizmatlarga buyruq bergan va uning gapini ikki qilish bo'lmagan. U dargohning barcha masalalari bilan shug'ullangan va bundan tashqari bosh xazina mablag'laridan ham istifoda etgan holda nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplar edi. SHuningdek, u ushbu mablag'dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan. Nisoviyning yozishicha, bunda ustozdor ulardan tilxat olgan. Tilxatga vazir, mustavfiy, mushrif, nozirning muhrlari bosilgan bo'lishi kerak edi. A'yonlar xarajatiga ketgan mablag' haqidagi tilhat ariz muhri bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan.

Amiri oxur mansabi ham mas'uliyatli hisoblanib, uncha-muncha kishi bu lavozimga tayinlanmagan. Chunki uning bo'yniga sultonga tegishli otlar parvarishi yuklatilgan. Otlarning soni esa 30 minggacha bo'lgani ma'lum. Podshohona ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlarini amiri shikor uyushtirgan. Saroydagi muhim xizmatlardan yana biri bu tashtdordir. Garchi tashtdor yuvinish anjomlarini saqlovchi ma'nosini bersada, ammo aslida bu mansabni egallagan kishi sultonning yaqin kishisi hisoblangan.

Doim bo'lganidek muxtasiblar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozuning ahvolidan xabardor bo'lishni to'xtatmaganlar. Karvon yo'llarida to'xtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan yo borlari ta'mirlangan, katta karvonlarni qo'riqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan.

Xorazmshohlar davri fan va madaniyat ravnaqi ham a'lo darajada bo'lganini bilamiz. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Chunki yurtimiz an'anaviy ravishda fan va madaniyat beshigi bo'lib kelarkan, gan faqat u yoki bu davrda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot ahvoli va davlat arboblarning nechog'lik ilm-ma'rifatli ekanligida qolgan. Xorazmshohlar zamonida ayni shu ikki omil o'zaro uyg'unlashgan edi. Xorazmshohlarning barchasi chuqur bilim egasi edilar. Ular ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan, Otsiz qasidalar, ruboiylar yozgan, ko'plab nazm namunalarini yoddan aytib bera olgan, san'at va ilmga katta ixlos bilan qaragan. Ruboiylaridan birida u shunday deydi: «Dunyo beliga urilgan tamg'a mening farmonimdir, falak qulog'idagi halqa mening paymonimdir. Bugun shunday saltanatni qo'lda tutsamda, do'st rizoligiga erishish mening iymonimdir». Takash, El-Arslon, Sulton Muhammad va xorazmshohlarning boshqa namoyandalari ham keng bilimli, she'r va san'atni qadrllovchi bo'lganlar, nazmda ijod qilganlar. Takash esa ayniqsa ud chalishni o'rniqa qo'ygan.

Yuqorida biz xorazmshohlarning barchasi keng bilimlar egasi edilar deyarkanmiz, bu bilan nafaqat anushteginiylarni, balki umuman xorazmshohlar unvoni bilan mashhur sulolalarni, jumladan, ma'muniylarni ham nazarda tutamiz. Chunonchi, Ma'mun II (1010—1017) fan va madaniyatga homiylikda o'rta asrlardagi eng dongdor hukmdorlardan biri sanalib, poytaxt Urganchda o'z davrining Akademiyasiga asos solgan. Bu maskanda yaratilgan shart-sharoitdan Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Nasr Iroq, Ibn Miskavayh kabi buyuk daholar bahramand bo'lib, o'z ijodlarini charxlagan edilar. Kezi kelganda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, Xivaning 2500 yilligi tantana qilingan 1997 yilda O'zR Prezidenti farmoni bilan Xorazmda Ma'mun Akademiyasi qaytadan tiklandi. Demak, oradan ming yil o'tib tarixiy adolat qaror topdi va bu hol shubhasiz o'zbek davlatchiligi tarixini tiklahda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz va millatimizning, arboblrimizning fan va madaniyatga bo'lgan chanqoqligi azaliy jarayon ekani anushteginiylar davrida yana bir bor isbotlandi. Bu zamonda madrasalar barpo etish, kutubxonalar ochish, ularni kitoblar bilan to'ldirish, iste'dod egalarning boshini silash, asrab-avaylash odati saqlanibgina qolmay, yanada rivoj topdi. Ziyo maskani bo'lmish kutubxonalar faoliyatiga katta e'tibor berilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi shaharlardan birida fuqarolar, ya'ni umumiy kutubxona mavjud bo'lib, unda saqlanadigan qo'lyozma asarlar g'oyatda noyob hisoblangan. Xuddi shunday kutubxonalar o'lkaning boshqa erlarida ham, masalan, Xorazmda bo'lgani ma'lum. Madrasalarga kelsak, manbalarda yozilishicha, bunday bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan tashqari Nishopur, Isfaxon va boshqa shaharlarda ham qad ko'targan. Ularda o'qish jarayoniga juda katta mas'uliyat bilan qaralganini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, Madrasa rahbari va mudarrislar oliy hukmdor yo uning joylardagi noibining maxsus buyrug'i bilan tayinlanganlar. Chunki har qanday jamiyat, u qanchalik turli imkoniyatlarga ega bo'lmasin, agar shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga qodir mutaxassislar bo'lmas ekan, ular og'izda qolaveradi. Mutaxassislar esa tarbiyalanadi, parvarish etiladi. Xorazmshohlardan Otsiz, Takashlarning shu ma'nodagi buyruqlarini tahlil qilarkanmiz, ular mazkur hakikatni juda to'g'ri anglaganliklari namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ular ta'lim va tarbiya, fan sohalariga mutasaddilarning ilmi, iymonli, hurmatli, halol bo'lishlariga katta e'tibor bilan qaragandilar.

Mamlakatimiz imkoniyatlaridan hamma foydalanib kelgan va shunga intilgan. qizig'i shundaki, bu o'lkaning imkoniyatlari hatto uning hududidan tashqarida ham zalvorli ta'sirga ega bo'lgan. Buni biz yuqorida tilga olingan Jaloliddin o'limidan keyin Yaqin Sharqda vujudga kelgan vaziyat, unda turkistonliklarning ishtiroki orqali ham ko'rib olishimiz mumkin. Jaloliddin nobud bo'lgan bo'lsada, ammo uning safdoshlari — xorazmlik amirlar va ularning qo'l ostidagi minglab askarlar hayot edilar. Bu juda katta kuch edi. Manbalarda ular umumiy nom - xorazmliklar nomi bilan atalgalar. Harbiy mahorat va uyushqoqlikda g'oyatda puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'zlari ham shijoatli xorazmliklar Jaloliddin o'limidan So'ng yana un besh yil davomida Iroq, Kichik Osiyo, Suriya, Misr siyosiy hayotida muhim o'rin tutib kelganlar. Ularning qudratiga suyanib Yaqin Sharq mahalliy turkiy sulolalari Damashq, qohirani zabt etishga muvaffaq bo'lganlar. 1241 yili esa xorazmliklar quddusni (Ierusalim) egallaydilar va 1229 yildan beri salibchilar qo'lida bo'lgan bu muqaddas shaharni musulmonlar ixtiyoriga qaytaradilar.

Yuqorida biz Jaloliddinni mo'g'ullar va Yaqin Sharq, Evropa o'rtasidagi to'g'on, deb ta'riflagan edik. Xuddi shunga o'xshash ta'rifni musulmonlar va salibchilararo kurashda faol ishtirok etgan xorazmliklarga nisbatan ham bersak bo'ladi. 1244 yili ular Misr qo'shinlari bilan ittifoqda Suriya hukmdorlarining salibchilar bilan birgalikdagi katta lashkariga qattiq zarba beradilar. Manbalarda yozilishicha, shu jangda salibchilarni tormor qilganlar xuddi mana shu xorazmliklar edi. «Bu ulur kun bo'lgandi. Islom zuxuridan So'ng bunday kun hech qachon bo'lmagandi», deb xotima qilgandi tarixchilardan biri.

Shunday qilib, biz o'zbek davlatchiligi tarixida o'chmas iz qoldirgan yana bir sulola — anushteginiylar (xorazmshohlar) haqida so'z yuritdik. Doim bo'lganidek, mazkur sulola namoyandalari ham xoh ichki siyosatda, xoh tashqi aloqalarda bo'lsin, o'zlarining bor imkoniyatlari, afzalliklarini ruyobga chiqarish, shu mamlakatni, uning xalqini dunyoga olqishlash yo'lida sa'y-harakat qilib kelganlar. Shuning uchun ham xuddi ana shu ona yurt sharofati bilan ular tarixga Buyuk Xorazmshohlar nomila kirib abadiy qolmoqdalar.

O'ZBEK DAVLATCHILIGI AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA

Chingizxon lashkarlari tomonidan yurtimizning zabt etilishi bilan xalqimiz tarixida to'rtinchi bor qaramlik davri (XIII asr 20-yillaridan 1370 yilgacha) boshlanadi. Chingizxon va uning avlodlari nafaqat Turkistonni, balki o'sha zamondagi dunyoning ma'mur-obodon o'lkalarining aksarini bosib olishga muvaffaq bo'lgandilar. Ular asos solgan saltanat Markaziy Evropadan Yapon dengizigacha, O'rta dengizdan Hindixitoygacha bo'lgan ulkan hududni o'z ichiga olgandi. Madaniy jihatdan bo'ysundirilgan xalqlardan ancha orqada bo'lgan chingiziylar hukmronligi qaram o'lkalar tarixiy taraqqiyot yo'lida salbiy iz qoldirdi. Chingiziylarning o'lkamizdagi hukmronligi 150 yil davom etgan bo'lsada, shu katta davr ichida na ijtimoiy-iqtisodiy hayotda, na ilmu madaniyatda e'tiborga molik biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Aksincha, arablar bosqini va ularga qaramlikdan So'ng bir necha yuz yillar davomida shu sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, tiklangan an'analarga katta zavol etdi. Ko'plab olimu fozillar, shoirlar chingiziylar bosqini yillari va undan keyin qam panoh izlab tinch o'lkalarga, masalan, Shimoliy Hindistonga ketib qolgan edilar.

Chingizxon asos solgan saltanatni uluslarga bo'lib boshqarish joriy qilingan bo'lsada, ammo har bir ulus (Ulug' yurt, Chig'atoy, Jo'chi, Halokuiylar uluslari) mustaqil bo'libgina qolmay, bir-birovlarining mulkiga zug'um qilishdan ham toymas edilar. Xullas, chingiziylar istibdodida qolgan xalqlar obdon ezilgandilar, Ammo bu hol ularning irodayu erkka bo'lgan intilishini sindira olgani yo'q.

Amir Husayn uchun o'z siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va mavridi kelsa ulardan qutulish siyosati nechog'lik muhim bo'lganini Konigil voqeasidan So'ng yuz bergan jarayon orqali ham bilib olish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, endi amir Husayn qanday bo'lmasin Amir Temurning mavqeiga bolta urishga jiddiy ravishda kirishadi. Buning uchun, eng avvalo, Amir Temur atrofini «bo'shashtirish» va So'ngra uni faol siyosiy harakatdan chetlashtirishni maqsad qilib qo'ygan. Chunonchi, u Amir Temurning bir qator safdoshlari va yaqin amirlariga nisbatan tazyiq o'tkaza boshlaydi. Ular orasida Sohobqironning qarindoshi amir Joku, yuqorida tilga olingan amir Sayfiddinlar ham borligi aytilsa, amir Husayn ko'zlagan reja yanada oydinlashadi. Gapning qisqasi, 1365—1370 yillar Amir Temur va amir Husayn aro kurash yillari bo'ldi va u Sohobqiron g'alabasi bilan tugadi.

1370 yil 9 aprely chorshanba kuni nufuzli amirlardan Shayx Muhammad sulduz, Kayxisrav Xuttaloni, O'ljoytu apardi, Dovud dug'lot, Capbyg'o jaloyir, Joku barlos, Muayyad Arlot, Badaxshon hokimi Shayx Muhammad, Husayn bahodir hamda boshqa amirlar va sardorlar, sayyidlardan sayyid Baraka, termizlik aka-uka sayyidlar Abul Maoliy va Ali Akbar qabilar huzurida Amir Temur hokimiyati bir ovozdan tan olinadi. Bu vaqtda Amir Temur endigina o'ttiz to'rt yoshga kirgandi. Shu tariqa mo'g'ullarga 150 yillik siyosiy qaramlik, yurtdagi boshboshdoqdik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi qoloqlik davriga rasman chek qo'yilib, davlatimiz mustaqilligi tiklangan. Oldinda esa bir qator mushkul va muhim vazifalarni hal etishi kerak bo'lgan amaliy tadbirlar silsilasi turardi.

Davlat, davlatchilik mohiyati uning jamiyatda mavjud barcha ichki va tashqi imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi tashkilotchiligi bilan belgilanadi. SHu ma'noda mo'g'ullar hukmronligi davrida davlatchiligimiz o'z tashkilotchilik qobiliyatini amalda ifoda etish imkoniga ega bo'lmadi. Chunki siyosiy huquq qo'ldan ketgandi, qaramlik, erksizlik hukm surardi. Har qanday qobiliyat esa faqat erkinlik sharoitidagina o'zligini namoyon qila oladi. qaramlikka chek qo'yilib, davlat o'zining haqiqiy egalari qo'lga o'tgach, jamiyat yana bir bor o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish sharoitiga ega bo'ladi. Bu ichki hamda tashqi siyosatdagi imkoniyatlardir. Demak, Amir Temur ana shu asosiy yunalishlarda davlat faoliyatiga boshchilik qilishi kerak edi. Xuddi ana shu faoliyat bilan bog'liq eng qamrovli jarayon Amir Temur davri davlatchiligimiz siyosati mohiyatini tashkil etadi.

Amir Temur davlat boshqaruvini o'z qo'lga olgan bo'lsada, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo'yib borish nihoyatda og'ir edi. Zero, mamlakat yo biron-bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo'lgan amirlar hozircha uning hukmronligini tan olgan bo'lsalarda, ular bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ular namoyandasi bo'lmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan ko'p jihatdan bog'lik, edi. Xuddi shuning uchun ham mazkur yilning o'rtalarida Samarqandda o'tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig'ib, ularning har birining mavqei va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab berdi, kattadan-katta sovg'alar ulashdi. Shu ma'noda Sohobqironning «Tuzuklar»ida keltirilgan quyidagi ta'kid diqqatga sazovordir: «Bulardan mol-dunyoga xirs qo'ygan ochkuz va ta'magirlariga mol-ashyo va'da qildim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarga qo'lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim».

Amir Temur o'z hokimiyatini mustahkamlashda yana bir tarixiy tadbirni amalga oshirdiki, bu uning davlatchilik mohiyatini anglashdagi salohiyatining nechog'liq teran bo'lganligidan dalolat beradi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlarda yo'llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini ta'minlash, qo'shinlar yurishi, janglar oqibatida xarob bo'lgan erlarni obod etish, rabotlar (mehmonxonalar, to'xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag'al va miskinlar uchun xayrxonalar ochish hakdda so'z ketgan. SHuningdek u sayyidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, ya'ni musulmon jamiyatida o'ziga xos mavqe va ta'sirga ega tabaqaga katta e'tibor berdi.

Shunday qilib, temuriylar, ayniqsa Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng yorqin sahifalar bitildi, desak, har jihatdan to'g'ri bo'ladi. Mazkur yillarda davlatimizning, umuman o'zbek xalqining

ichki va tashqi siyosatdagi imkonlari, salohiyati to'la-to'kis namoyon bo'ldi. Mamlakatimiz jahonning siyosiy iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. Davlatimiz kuch-qudratiga Evropadan Xitoyga qadar ulkan hududdagi davlatlar tan berdi. Shu bilan birga, ming afsuski So'nggi temuriylar, XVI asrda ulardan hokimiyatni tortib olgan Shayboniylar va kelgusida hokimiyatni boshqargan sulolalar ushbu muvaffaqiyatlar va davlatchilikdagi taraqqiyot darajasini saqlab qololmadilar.

O'ZBEK DAVLATCHILIGI XVI-XIX ASRLARDA

SHAYBONIYLAR

O'zbek davlatchiligining Rossiya bosqinidan oldingi So'nggi bosqichi, fikrimizcha, XVI asrdan, ya'ni hokimiyat Shayboniylar qo'liga o'tishidan boshlanadi. Zero, aynan mazkur asrdan boshlab davlat boshqaruvida to shu choqqacha shakllanib kelgan an'analardan chyokinib borish holati ko'zga tashlanadi. Buning sababi Shayboniylarning o'zlari ham, ular suyangan harbiy-siyosiy qatlamlar ham ko'chmanchi muhit vakillari bo'lganliklaridadir. Nafsilambirini aytganda, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Chunki Shayboniylar o'z faoliyatlarini Jo'chi ulusining Oq O'rda qismida boshlaganlar. Mazkur sulola mavqei, ayniqsa, Shayboniy Abulxayrxon (1428/29—1468/69) davrida yuksalgan. XV asrning 30—40-yillarida avvaliga G'arbiy Sibir erlarida, So'ng Sirdaryodan shimoldagi hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatgan Abulxayrxon Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan viloyatlarga ham zug'um qila boshlaydi. Chunonchi, 1431 yiliyoq u Xorazmga bostirib kirgani ma'lum. Bu endi Shayboniylarning temuriylar bilan o'zaro ziddiyatga kira boshlaganidan dalolat edi. Abulxayrxon Xorazm bosqini bilan cheklanmay, Shohrux o'limidan So'ng (1447) Ulug'bek mamlakatda yo'qligidan foydalangan holda Samarqand va Buxoro atrofiga harbiy yurish uyushtiradi. Atrof erlarni talab katta o'lja olib qaytib ketadi. Ammo Shayboniylarning Movarounnaxrga bostirib borishlarida temuriylarning o'zaro kurashi bosh sabab bo'lgan edi, desak to'g'ri bo'ladi.

1451 yili, Samarqand taxti uchun temuriyzodalar o'rtasida kurash qizigan bir pallada, temuriy Abu Sa'id yordam so'rab Abulxayrxonga murojaat qiladi. Paytdan foydalangan Abulxayrxon lashkar tortib Movarounnaxrga kirib keladi va Abu Sa'idni boshqa bar temuriy shahzoda Abdulla Mirzoga (1450-1451) qarshi jangida qo'llab-quvvatlab, Samarqandni qo'lga kiritishda katta ko'mak beradi. Taxt egasi bo'lib olgan Abu Sa'id Shayboniy hukmdorga kattadan-katta covg'alap berib, Mirzo Ulug'bekning Robiya Sultonbegim nomli qizini ham «tortiq» qiladi. (Keyinchalik bu nikohdan Shayboniylardan Ko'chkunchi, Sevinchxoja, Oqburun tug'ilgan) Ammo Abulxayrxon uchun mazkur yurishdan olingan eng katta yutuq shu bo'ldiki, 1451 yil voqealari orqali u Movarounnaxr siyosiy hayotiga Shayboniylar omilini olib kirdi, bu yurtda o'z siyosiy mavqeiga ega bo'lib oldi. Endi uning uchun mazkur yunalihda yanada faolroq harakat qilish imkoni tug'ilgandi. Bu imkondan u qanday foydalandi?

1460 yili Abulxayrxon Abu Sa'idning raqibi temuriyzoda Muhammad Jo'kiyga (1449-1464) Turkiston, Sayram, Toshkent, Axsikat, Shohruhiyani egallab olishida harbiy yordam beradi. Shunga o'xshash yordam qo'lini u Xorazm uchun Abu Sa'id bilan kurashga kirishgan Sulton Husaynga (1469—1506) ham cho'zadi. Xullas, Abulxayrxon borgan sari Movarounnaxrda o'z nufuziga ega bo'lib boradi. Amalda esa bu holat Shayboniylarning mazkur hududda o'z mavqelarini mustahkamlab borayotganlaridan dalolat edi. Aslini olganda Shayboniylar Oltin O'rda (Jo'chi ulusi) namoyandalari sifatida Movarounnaxrni sobiq Chig'atoy ulusining tarkibiy qismi deb bilib, unga nisbatan o'z da'volarining haqli ekanligiga ishonardilar va boshqalarni ham shunga ishonitirishga urinardilar. SHu ma'noda Muhammad Shayboniynonning quyidagi so'zlari qiziqish uyg'otadi: «Agar Temurbek avlodlaridan ba'zi mulklarni tortib olgan bo'lsak ham, mulkparastlik va kichik mamlakatlarga qanoat qilmasligimizdan emas, balki taqdir hukmiga ko'ra shunday bo'ldi. Zero, qazo merosiy mulkni yana bizning qo'limizga va ixtiyorimizga qaytishini taqazo etadi».

Abulxayrxon o'limidan So'nt Shayboniylar xonadonidagi ichki ziddiyatlar sabab sulola zaiflashganiga qaramay Muhammad Shohbaxt davriga kelib Shayboniylar yana bir bor qadrlarini tiklash imkoniga ega bo'ldilar. Muhammad Shohbaxt Abulxayrxonning Shoh Budog' nomli o'g'lidan tug'ilgan nabirasi bo'lib, biz uni asosan Muhammad Shayboniynon (1451—1510) nomila yaxshi bilamiz.

XV asrning 90-yillaridayoq Muhammad Shayboniynon Movarounnaxrning biqinida mustahkam o'rnatilib olgandi, ya'ni O'tror, Sayram, Turkiston (Yassi) uning hukmi ostiga o'tgandi. U Xorazmga ham tahdid solib kelardi. 1394 yili Movarounnaxr hukmdori temuriy Sulton Ahmad vafot etadi. Bobur ta'biri bilan aytganda, «beklar ittifoq qilib» marhumning ukasi Sulton Mahmudni (1453—1495) taxtga o'tkazadilar. Uning hukmronligi ham uzokda bormay, 1495 yili Samarqand taxtini o'g'li Boysung'ur (1477—1499) egallaydi. Movarounnaxrdagi vaziyat keskinlashgan yillar ayni shu zamon bo'lgan desak to'g'ri bo'ladi. Zero, mahalliychilik avj olib, samarqandlik va buxorolik beklar Boysung'urni hisorlik beklarga yon bosganlikda ayblab, oliy taxtga uning ukasi Sulton Alini (1483—1501) o'tkazish payiga tushadilar. Mazkur qarama-qarshilikka din peshvolari ham aralashadilar. Vaziyatning nechog'lik murakkab bo'lganini shundan ham bilib olsa bo'ladi-ki, xoja Ahror avlodlaridan Muhammad Xojagi Boysung'urni yoqlasa, xoja Yahyo Sulton Ali tomonida edi. Bobur ta'biri bilan aytganda, «Hazrati xoja Ubaydullo (Ahror) avlodining orasida bu sababdin taassub tushti. Ulug'i ulug'iga murabbiy bo'ldi, kichigi kichigiga muqavviy». Bir so'z bilan aytganda, mamlakat nafaqat siyosiy, balki

mafkuraviy jihatdan ham ikkiga bo'linadi. Boshqa tomondan esa Xuroson hukmdori Sulton Husayn Hisor va qunduzga intilishini kuchaytira boshlaydi. 1496 yili Samarqand taxti atrofidagi mazkur mashmashalar xabari Farg'onaga etib boradi. Bu erda esa otasi o'limidan So'ng hokim maqomida Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) faoliyat boshlagandi. Bu haqda uning o'zi shunday yozgandi: «(Xabar kelgach) biz ham Samarqand doiyasi (ya'ni da'vosi) bila... o'q cherik otlanduq». Boshqacha aytganda, Samarqand taxti uchun yana bir da'vogar ko'paygandi.

Abdullaxon II Sohirqiron haqiga duolar o'qitirib, o'zi ham qarshi tomonda bir minora qurishga buyruq beradi. Va unga «Kimki bu manzilga qadam qo'ysa, xayrli duo ila bizni yod aylasin» so'zlarini o'ydirtiradi. Mazkur guvohliklar Abdullaxon II ning Amir Temur davri Turonzamin shuhrati va qudratini tiklash niyati nechog'liq baland bo'lganligidan dalolatdir, albatga.

Fikrimiz isboti sifatida Abdullaxon II ning 1563 yiliyok, Shayboniy Kuchumxonga lashkar berib, uni Sibir xonligida hokimiyatga kelishida qo'llab-quvvatlaganligi hamda Sibir xonligining Buxoro bilan yaqindan siyosiy-iqtisodiy va diniy aloqalarda bo'lganligini keltirish mumkin. Agar biz Abdullaxon II ning 80-yillarda Xurosonda, ayniqsa, uning markazlari Xirot, Mashxadda, 90-yillarda esa Seyiston, Garmsir va to Hilmand daryosigacha bo'lgan erlarda Buxoro hokimiyatini o'rnatganini, qandahorni qamal qilganini nazarda tutsak, u holda biz Abdullaxon II davrida Ulug'tog'dan Hilmand daryosigacha, Sibir xonligidan Mashxadgacha bo'lgan ulkan hudud yana bir bor markaziy hokimiyat — Buxoro qo'l ostida birlashganining guvohi bo'lamiz. Bunday natijaga Amir Temurdan So'ng Abdullaxon II erishdi, xolos.

Abdullaxon II 1598 yili oltmish besh yoshida vafot etgan. Umrining So'nggi yillarida u o'g'li va valiahdi Abdulmumin (1568 yili tug'ilgan) bilan bir oz qarama-qarshilikda bo'lgani ma'lum. Aniqrog'i, manbalarda berilgan ta'rifga ko'ra, Shayboniylar orasida shijoat, mardlik va xudojo'ylikda benazir Abdulmumin otasidan oliy taxtni talab qila boshlaydi. Yuqorida aytilgan holat, Iskandarxon rasman oliy hukmdor bo'lsada, ammo amaliy ishni Abdullaxon II ning o'zi bajarganini vaj qilib olgan Abdulmumin niyatidan qaytmay, oliy taxt uchun ochiqchasiga bo'lmasa ham har holda ko'p o'ringan. Lyokin tez orada otasining kuni bitib 1598 yili u rasman xonlik kursisiga o'tiradi.

Abdulmumin o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida, taxtga da'vogarlik yillarida otasi tomon bo'lgan ba'zi bir amirlarni qatl ettiradi. Bu bilan ham cheklanmay, hatto Shayboniy shahzodalarni ham ayamaydi. So'ng esa saltanat ishlariga kirishib, avval shu yili Toshkentda yuz bergan Shayboniy sultonlar isyonini bostiradi. Keyin Xurosonda o'z mavqeini yanada mustahkamlash niyatida yo'lga chiqadi. O'sha davr tarixchilarining guvohlik berishlaricha, Abdulmumin qiziqqon, cho'rtkesar shaxs bo'lib, otasi davrida huzur-halovat va taqvoga o'rganib qolgan buxorolik bir qator beklarning payiga tushgan. Ular buni syozib mazkur Xuroson yurishiga yo'lga chiqqan, O'ratepa va Zomin oralig'iga etib borgan Abdulmumining qarshi su'iqasd uyushtirib, uni o'ldiradilar. Taxtga So'nggi Shayboniy hukmdor Pir Muhammadxon chiqadi. Oradan ikki yilcha vaqt o'tib — 1601 yili Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan kurashda engilgan Pir Muhammadxon taqdiri bilan birga umuman Shayboniylar sulolasi taqdiri hal bo'ladi. Zero, Boqi Muhammad boshqa bir sulola — ashtarxoniylar namoyandasi edi. Demak, 1601 yili mamlakatimiz siyosiy saxnasiga yangi sulola — ashtarxoniylar chiqadi.

Shayboniylar davri davlat boshqaruvi masalasiga to'xtalib o'tsak. Shayboniylar zamoni davlat boshqaruvi haqida so'z ketganda temuriylar va ayniqsa chingiziylar bosqinidan avvalgi zamonlardagi kabi davlat idoralararo taqsimotda mavjud bo'lgan aniq ko'rinishlar to'g'risida so'z yuritish qiyinroq. Buning bosh sababi, bir tomondan, qurilayotgan davr tarixiy va boshqa turdagi manbalarning kam o'rganilganida bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turmush tarzi an'analari mustahkam Jo'chi ulusidagi (Dashti qipchoqdagi) ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning Shayboniylar faoliyatida saqlanib qolganligidandir. Aniqroq aytganda, Shayboniylarning Dashti kipchoqdan Movarounnaxrga kirib kelishlari bilan mazkur birinchi makonda mavjud ayrim an'analarning ham Turkiston markaziga tarqalishi uchun sharoit tug'ilgandi. Xuddi shu sabab ham o'zbek davlatchiligining somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, Sharqiy yo'nalishda bir qadar muvaffaqiyatlarga erishgan Rossiya hukumati Buxoro, Xiva bilan elchilik aloqalarini yo'lga qo'yishga intila boshlaydi. Xuddi shunday siyosatni Buxoro ham olib borgan. Zero, Rossiya tasarrufida bo'lgan hududlarda savdo qilish Turkiston savdogarlariga foyda keltirishi, u erlik mahalliy aholi uchun ta'minot masalasini hal qilishi mumkin edi. Shu ma'noda Sibirda o'nashib olgan rus koloniyasi ahlining Moskva podshosiga ezganlari qiziq: «Endilikda biz tomonlarga hech qaerdan savdogarlar kelayotganlari yo'q va shu sabab biz nihoyatda nochormiz. Agar savdogarlar kelib-ketib turganlarida edi, bizning qornimiz ham to'q bo'lardi... Oliy hazrat, Buxoro va No'g'oy xonligiga elchilar yuborib (u tomonlardan savdogarlar yuborilishini so'ra), toki bizning erimizda ham to'kinlik bo'lsin». Boshqacha aytganda, Rossiya hukumati bosib olgan va o'z tarkibiga kiritgan erlardagi aholini boqa olmagan. Shuning uchun ham oq podsho buxorolik savdogarlardan soliq olmaslik, ularga boj solmaslik, hech qanday to'siq qo'ymaslik, xafa etmaslik borasida maxsus ko'rsatma bergan. «Zero, - deyiladi hujjatda, - agar buxorolik savdogarlar ranjitilsa, ular boshqa bu tomonlarga mahsulot keltirmay qo'yadilar». Bu erda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy omil ham bo'lgani aniq, ya'ni savdogarlar orqali Turkiston jamiyatida Rossiya haqida muayyan bir fikr tug'dirish, qiziqishni orttirish va hokazo.

Buxoro va usmonliylararo aloqalar izchil bo'lmagan. Hozircha bizning ixtiyorimizda usmonliy Murod III (1574—1595) tomonidan Abdullaxon II ga yo'llangan maktub nusxasi bor. Maktubning mazmunini oldindan

payqash qiyin emas. Murod III Abdullaxon II ni safaviylarga qarshi kurashga chorlagan. Garchi buxorolik hukmdorning javobi borasida manbalarda biron ma'lumot bo'lmasada, Buxorodan Rumga cog'va-salomlar yuborilganligi xususidagi guvohdlikdan xulosa chiqarish mushkul emas. Ya'ni Abdullaxon II uchun safaviylarga qarshi harbiy ittifoqchi kerak edi.

Shunday qilib, XVI asr o'zbek davlatchiligi tarixida etakchi siyosiy kuch sifatida faoliyat ko'rsatgan sulola bu—Shayboniylardir. Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan fikr qilinsa, bir qaraganda, mazkur sulola har holda ozmi-ko'pmi davlatchilik rivojiga o'z hissasini qo'sha olganday. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida esa o'zbek davlatchiligi yana bir bor yuksak marralarga ko'tarilish imkoniga ega bo'lgan. Davlat markazlashdi, ichki va tashqi siyosatda zalvorli qadamlar qo'yildi, madaniy hayot rivoj topdi. Shu bilan birga biz tadqiq qilayotgan asosiy mavzu — davlatchilik, davlat boshqaruvi tarixining XVI asrdan oldingi (X—XII, XIV asrning 70-yillaridan XVI asrgacha) va keyingi davrlardagi ahvoli, taraqqiyoti nuqtai nazaridan fikr yuritilsa, shu narsa ma'lum bo'ladi, Shayboniylarning siyosiy hokimiyatni qo'lga olishlari bilan davlat boshqaruvida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Asrlar davomida har tomondan taraqqiyparvar mazmun kasb etib kelayotgan jarayon — davlat boshqaruvi taqsimoti tizimi (dargoh va devonlar) aynan Shayboniylar hukmronligi yillari nuray boshladi. Bunga bosh sabab, albatta, Shayboniylar va ular suyangan harbiy-siyosiy kuchlarning aslida tarixiy-madaniy jihatlardan qoloq bo'lmish Dashti qipchoqdan kelib chiqqanlarida va ulardagi shunga yarasha siyosiy- ijtimoiy tafakkurdadir. Natijada davlat boshkaruvi taraqqiyot tizimida orqaga qaytish bo'lgan. Zero, Shayboniylar o'zlari bilan davlat boshqaruvining ko'chmanchi, yarim ko'chmanchilarga xos madaniyatini olib kelganlar. Vaho-lanki, bu bosqichni Movarounnaxr X asrdayoq ortda qoldirgan edi. Va, aksincha, ilg'or boshqaruv madaniyatiga ega temuriy boburiylar Hindistonni yuksaltirishga erishdilar.

ASHTARXONIYLAR

Shayboniy Abdulmo'minxon halokatidan So'ng taxtga chiqqan Pir Muhammadxon (1599—1601) hukmronligi uzoqqa bormadi. Zero, Abdulmo'minxonga nisbatan suiqasd uyushtirilishi hodisasining o'zi mamlakatda markaziy hokimiyatning zaiflashib borayotganidan, yirik amirlar va mahalliy kuchlar mavqei oshib borayotganidan dalolat edi. Bunday paytlarda odatda ko'p narsa oliy hukmdorning shaxsiga, uning nechog'lik markaziy hokimiyat obro'sini tuta bilishiga bog'liqligi ham tabiiy. Ammo Pir Muhammadxonda shunday xususiyatlar yuq edi. Natijada 1601 yili u taxtni qo'ldan boy beradi. Aniqrog'i, Samarqand hokimi Boqi Muhammadni poytaxt ixtiyorida tutish niyatida taxminan 50 ming qo'shin bilan unga qarshi chiqdan Pir Muhammadxon Bog'i shamol atrofida mag'lubiyatga uchraydi. Buxoro taxti esa Boqi Muhammad qo'lga o'tib, u xon deb ko'tariladi. Boshqacha aytganda, shu tariqa Shayboniylarning bir asrlik hukmronligiga nuqta qo'yiladi. Mamlakat va davlat tizginini endi yangi sulola — ashtar-xoniylar o'z qo'llariga oladilar.

Ikki og'iz ashtarxoniylarning kelib chiqishi haqida. Oltin O'rda (Jo'chi ulusi) zaiflashib borar ekan, uning bir qancha mayda xonliklarga bo'linish ehtimoli ham kuchaygan. Natijada XV asrning 30-yillarida Volgabo'yi erlarida Ashtarxon xonligi yuzaga keladi. «Astraxan» Ashtarxonning ruslashganidir. Ashtarxon esa aslida «Xoji Tarxon» so'zidan olingandir. Tarxon turkiy tilli xalqdar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblanib, mashhur Xazar xoqonligi (VII—X) davridanoq ma'lum. Shu o'rinda o'quvchilarda, qanday qilib turkiy tilli xalqlarga tegishli erlardan bo'lmish Hoji Tarxon Astraxanga aylangan, savoli tug'ilishi tabiiy. 1552 yili Rossiya qozonni bosib olgandan co'ng 1554 yili Ashtarxon (Hoji Tarxon) xonligiga nisbatan bosqinchilik qiladi. Xonlikni bu vaqtda boshqarib turgan mang'it sulolasi namoyandalari lashkari bilan urushib engadi va taxtga shu sulolalik Darvishalini o'tqazadi. Maqsad uni qaramlikda tutib, xonlikni o'z ta'siridan chiqarmaslik edi. Ammo ko'p o'tmay Darvishali ham Moskvaga bo'syunishdan bosh tortgach, 1556 yili ruslar katta qo'shin bilan yana bostirib kelib, xonlikni butunlay yo'q qilib, bu erlarni Rossiya imperiyasini deb e'lon qiladilar. Xuddi shu yillarda, manba tili bilan aytganda, «urus (nomila) mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib) Yor Muhammadxon farzandlari Joni Muhammad sulton, Abbos sulton, Tursun Muhammad sulton, Pir Muhammad sulton va ahli ayoli bilan Movarounnaxrga kelgan».

Bu erda Er Muhamadxonga katta hurmat bilan qaraydilar. Chunonchi, u Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon bilan yaqin munosabatda bo'lgani ma'lum. Iskandarxon uning to'ng'ich o'g'li Joni Muhammad sultonga qizi Zuhraonuni turmushga berib, o'zaro aloqalarni qarindoshlik iplari bilan mustahkamlaydi. Mazkur nikohdan keyinchalik Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammadlar tug'iladilar. Xullas, Yor Muhammad va uning avlodlari Shayboniylar xonadonining eng yaqinlari va tayanchlaridan biriga aylanib, oliy hukmdorga xizmat qila boshlaydilar. Borib-borib ularning ham mavqelari oshib, oxiri yuqorida aytilganidek, mamlakatdagi e'tiborli viloyatlardan Samarqandni boshqarishga erishgan Boqi Muhammad oliy taxtni Shayboniylardan tortib olishga ham muvaffaq bo'ladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrlik hukmronlik faoliyati boshlanadi.

O'zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning kelishi amalda biron-bir keskin tarixiy burilishga sabab bo'lmagani tabiiy. Zero, boshdanoq ta'kidlab o'tilganidek, davlat asoslari bir, o'zgarmas bo'lgani holda har bir yangi sulola ularga suyangan ravishda o'z zamonasi shart-sharoitini hisobga olib faoliyat yurgizadi. Shu ma'noda Boqi Muhammadxon (1601—1605) oldida turgan vazifalarning eng muhimi yana o'sha mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat edi. Chunki Shayboniy Pir Muhammadxon zamonida zaiflashib qolgan

markaziy hokimiyat sulolalar almashuvi bilan bog'lik, voqealar natijasida yanada kuchsizlanib, Marv, Xorazm, Balx qabilardagi siyosiy kuchlar boshboshdoqlik yo'lini tuta boshlaganlar. Chunonchi, Shayboniy Abdullaxon II ning sa'y-harakatlari bilan Buxoro ixtiyoriga kiritilgan Xorazm uning o'limidan So'ng turkmanlar yordamida yana itoatsizlik yo'lga o'tadi. Manbada yozilishicha, mahalliy sulola namoyandasi Hoji Muhammadxon (1559-60—1602) tez orada Amudaryodan Ashtarxon va Manqishloqqacha bo'lgan hududda o'z hukmini o'rnatishga erishadi. Boqi Muhammadxon bunga befarq qarab turolmasdi. Ammo ish urushgacha bormay «Boqi Muhammadxon va Hoji Muhammadxon o'rtasiga oqsoqollar tushib oradagi nizo va qarama-qarshilik pardasini rafu daf qilib, tinchlik iplari bilan bog'laganlar». Shundan So'ng mamlakat g'arbiy mulklaridan ko'ngli bir oz tasalli topgan Boqi Muhammadxon 1602 yili Balx tomon yurish uyushtiradi. Shunda ham ochiqchasiga emas, Hisor yurishi bahonasi bilan. Mazkur tadbir muvaffaqiyatli tugab, Balx ham poytaxt doirasiga kiritiladi.

MANG'ITLAR, QO'HG'IPOTJIAP, MINGLAR

Shunday qilib, biz o'zbek davlatchiligi taraqqiyot yo'ladagi muhim tarixiy bosqichlardan biriga etib keldik. Nima uchun muhim tarixiy bosqich deyapmiz? Tadqiq etiladigan jarayonlarning natijada davlatchiligmiz tarixida qandaydir ijobiylik, yuksaklik holati bilan bog'liq bo'lgani uchun emas, aksincha, XVII-XIX asrlarda (to Rossiya bosqiniga qadar), doimo ta'kidlab kelganimiz, har qanday jamiyat borlig'i va taraqqiyotini belgilab beruvchi davlatchilik asoslarining nihoyatda zaiflashib borganligidan, oqibatda millat va davlat qaramlik ahvoriga tushib qolganidan kelib chiqqan holda mazkur davrni o'rganish va bilish muhimdir. YA'ni so'z ketadigan zamonlar biz uchun katta tarixiy saboq bo'lmog'i kerak.

XVIII asrga kelib, bu vaqtgacha 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo'lga ega o'ebek davlatchiligida bo'linish, tarqoqlik holati ko'zga yaqqol tashlanadi. Vir so'z bilan aytganda, millat va jamiyat boshqaruviga da'vogar hokimiyat uch erda — Buxoro, Xiva, qo'qonda alohida-alohida mujassamlashgandi. Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatda uch hokimiyatchilik g'olib kelgan edi. To'g'pu, mazkur holatning yuzaga kelishida muayyan sabablar bo'lgani aniq. Ammo har qanday jarayonga beriladigai baho, eng avvalo, o'sha paytdagi manzara, kechib borgan ijtimoiy-siyosiy jarayon va etib borgan nuqta—natija bilan o'lchanarkan, demak, qanday bo'lishidan qat'i nazar, bu sabablarni biz oqlay olmaymiz. Ya'ni davlatchilikdagi bo'linish, uch hokimiyatchilikning yuzaga kelishi oxir-oqibatda davlatning kuchsizlanishi va emirilishiga, boshqa omillar bilan qo'shilib Rossiya bosqiniga dosh berolmay qaramlikka yuztuban bo'lishiga olib kelgan.

Ashtarxoniylar haqida so'z yuritib, 1747 yili mazkur sulola faoliyatiga amalda chek qo'yilganini aytgandek. Garchi shundan keyingi bir yarim yilcha vaqt mobaynida ashtarxoniylardan Abdulmo'min va Ubaydullaxon soxta xon sifatida e'tirof qilinsa-da, ammo hokimiyat butunlay mang'itlardan bo'lmish Muhammad Rahim (1747—1758) ixtiyorida edi.

Ko'rinib turganidek, davlatchiligmiz tarixida Amir Temur davridan keyin mang'itlar zamonida yana bir bor «soxta xon»lar an'anasiga kaytilgan, ya'ni Muhammad Rahim amir maqomida mamlakatni boshqarishga kirishgan. Muhammad Rahim g'ayratli va qattiqo'l siyosatchilardan hisoblangan. U ashtarxoniylar davrida zaiflashib qolgan markaz mavqeini tiklashga o'rinib, Samarqand, Miyonqol, qarshi, Xuzor, Shaxrisabz, Karmana, Chorjo'y va Karki kabilarni poytaxt izmiga qaytapa olgan. Ammo uning o'limidan So'ng vaziyat yana keskinlashib, keyingi mang'it namoyandasi, Mu-hammad Rahimning amakisi Doniyol (1718—1785) zamonida yana mahalliychilik kuchayib, Nurota, Karmana, Xuzor, O'ratepa, Boysun, Sherobod, Hisor beklari boshboshdoqlik yo'lga o'ta boshlaydilar. Garchi katta qiyinchilik bilan Doniyol ularni yana Buxoro hokimiyatini tan oldirishga erishsa-da, ammo bu masala uzil-kesil hal bo'ldi degani emasdi. Masalan, SHaxrisabzdagi kuchlar amalda o'z mustaqilliklarini saqlab qolib, bundan tashqari Buxoro hokimiyatiga doim xavf tug'dirib kelganlar. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash ishiga qat'iy bel bog'lagan hukmdor bu Shoh Murod (1785-1800) bo'ldi. Mang'it namoyandalari orasida Shoh Murod ham shaxs, ham arbob sifatida alohida o'rin tutgan, desak xato bo'lmaydi. U, bir tomondan, o'ta xudojo'y, elparast bo'lsa, ikkinchi tomondan, nihoyatda qattiqqo'l siyosatchi hisoblangan. Boshdanoq u mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga kirishib, ishni sulola mavqeini rasmiy jihatdan mustahkamlao'dan boshlaydi, Ya'ni soxta xonlik an'anasiga chek qo'yib (Doniyol paytida ham ashtarxoniylardan Abulg'oziy rasman xon hisoblangan), taxtga rasman o'zi chiqdi, lyokin xon emas, amir unvoni bilan. Shu vaqtdan boshlab davlatning ham rasmiy, ham amaliy boshlig'i uning o'zi - amir hisoblangan. Bu to'g'ri yo'l edi. Zero, endi mamlakatdagi biron-bir siyosiy kuch mang'itlarning, Chunonchi, Shoh Murodning taxtga da'vosi asossizligidan bahona chiqara olmasdi. Shu bilan birga Shoh Murodning mazkur tadbirni nisbatan silliq amalga oshira olganining boshqa sabablari ham bor. Birinchidan, sulola almashinganiga va mang'itlarning jamiyat ongiga hukmron kuch sifatida ham singgib borayotganiga qirq yilcha vaqt bo'lib qolgandi. Ikkinchidan esa, Shoh Murod o'z faoliyatida ommaga suyanib ish tutdi.

Chunonchi, biz avvallari ko'rgan muxtasib — ra'is xizmatini, ya'ni bozorlardagi adolat (qalloblik, tarozudan urish, sifatsiz mahsulot sotish va hokazo) buzilishi, ko'cha-qo'ylarda axloq normalariga rioya qilish qabilar bilan bog'liq tadbirlarni tikladi va jonlantirdi. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirishga harakat qilgan. Manbalarda yozilishicha, uning o'zi uchun kundalik xarajati bir tangadan oshmagan ekan, eb-ichishi va kiyinishi ham oddiy bo'lgan. Biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormas, hech kimdan covg'a olmas, o'z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo'l qo'ymas ekan. Bularning bari, albatta, keng omma orasida

tarqalib, xalq oldida Shoh Murodning obro'-e'tibori oshib boravergan. Buning ustiga otasi Doniyol zamonida joriy etilgan turli oliq-soliqlarni bekor qilib, jamiyat orasida yana ko'p shuhrat topgan. Oddiy xalqning Shoh Murodga munosabati qanchalik bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladiki, uni «begunoh amir», deb ataganlar. Xullas, Shoh Murod, bir tomondan, xalqqa, ikkinchi tomondan, lashkarga suyanib mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlash bilan birga eronlik Nodirshoh (1740) bosqini yili Buxoro ixtiyoridan chiqqan Xurosonni qaytarish uchun harbiy harakatlarni ham boshlab yuborgan. Xususan, 1789—1790 yillari Marvda o'z hokimiyatini o'rnatib, marvliklardan bir necha o'n ming kishini Samarqand va Buxoroga ko'chirtiradi. Shundan So'ng eskidan Samarqand yo Buxoro (ya'ni poytaxt ma'nosida) izmida bo'lib kelgan Balx, Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emasdi. Zero, 1747 yildan boshlab Balx, Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seyiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o'z ta'sarrufiga olgan durrioniylar (1747—1842) sulolasi (ya'ni hozirgi Afg'aniston davlatiga asos solgan siyosiy kuch) namoyandasi Temurshoh (1773—1793) ham bo'sh keladiganlardan emasdi. Xullas, o'zaro kurash qattiq bo'lsada, sezilarli natija chiqmagan.

Shoh Muroddan farqli ularoq, uning vorisi amir Haydar (1800—1826) hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi.

Hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lyokin endilikda alohida siyosiy birlik — xonlikka aylangan Xiva va qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi. Miyonqol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'zboshimchalik qila boshlaganlar. Chunonchi, Marvni boshqarib turgan Din Nosir (amirning ukasi) Xiva xoni Eltuzar (1804—1806) ko'magiga ishonib bosh ko'taradi. Amir Haydar uchun bu nihoyatda xavfli holat edi. Chunki bu shunchaki bir viloyatning markazga bo'yin egmasligi emas, balki rasmiy sulola namoyondasining, mintaqadagi raqiblardan — xivaliklar bilan til biriktirib, oliy taxtga qarshi harakati edi. Shuning uchun ham amir Haydar unga qarshi lashkar tortadi. Din Nosir bas kelolmay Mashhadga qochadi. Shoh Murod davrida bo'lganidek, amir Haydar Marvni egallagach, mahalliy aholining bir qismini Zarafshon vodiysiga kuchirtirib, bu erga turkmanlarni o'rnatiradi.

Buxorodagi ichki ziddiyatlardan Xiva xonligi bundan keyin ham foydalanishga ko'p o'ringanini bilamiz. Chunonchi, Din Nosirga yordam berish bahonasida Buxoro amirligi hududiga kirib borgan Eltuzarxondan So'ng 1821—1825 yillari amir Haydar Miyonqolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan o'vorligida xivaliklar Chorjo'y va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Xivaliklar hatto Marvni zabt etishga ham muvaffaq bo'lganlar. Bungacha ham amirlikning Sharqiy qismida ancha yuqotishlar va o'zgarishlar bo'lgan. Masalan, qo'qon hukmdorlari 1805 yili Xo'jandni 1809 yili Toshkentni, 1816 yili esa Turkistonni (Yassi) ishg'ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806—1813 yillari O'ratepaga, 1806 yili Jizzaxga, 1821 yili Samarqandga tadid solganlar. Xullas, amir Haydar hukmronligi ancha tahlikali bo'lib markaziy hokimiyat qudrati susaygan edi.

Buning isbotini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, uning o'limidan So'ng taxtga o'tirgan o'g'illari — amir Husayn ikki yarim oy, keyin esa amir Umar to'rt oygina hukmronlik qilganlar, xolos. Shu yili (ya'ni hijriy yil nazarda tutilmoqda) amirlik kursisini amir Nasrulla (1827—1860) egallaydi.

Xususan, bozor,ko'cha-ko'ylardagi ahvol, madrasalardagi ta'lim, vaqf ishlari, yo'qolgan vaqf hujjatlarini tiklash, etim va bevalar haq-huquqini himoya qilish, karvonsaroylardagi tartib va hokazo. Amir Shoh Murod davrida qozilik tizimida qator o'zgarishlar bo'lgani ham ma'lum. Chunonchi, oliy mahkama ta'sis etilib, uning ishida 40 nafar faqih (qonunshunos) faoliyat ko'rsatgan. SHoh Murodning bu boradagi islohotlarining ahamiyati shundaki, sud jarayonida ayblanuvchi ham, jabrlanuvchi ham albatta ishtirok etishi kerak bo'lgan. Biron-bir tomon egallab turgan yuqori lavozimi orqasida javobgarlik, guvohlikdan bosh tortolmagan. SHuningdek, mazkur tizimda muftiy (rivoyat va fatvo bilan ta'minlovchi), ra'is (muxtasib), sadr (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shu-g'ullanuvchi) kabi xizmatlar ham bo'lganini eslatib o'tmokchimiz.

Xiva va qo'qon xonliklaridagi boshqaruv masalasiga kelsak, umuman olganda ularning Buxoro amirligidan ko'p ham farqi bo'lmagan. Buni tabiiy deb bilmoq kerak. Zero, aslida bu uch siyosiy birlik yagona siyosiy birlik — davlatning uchga bo'linishidan, bir mamlakatning uchga parchalanishidan tarkib topgan edi. Shuning uchun ham ular bir-birovlaridan uzoqda yo chetga «qochib» ketolmasdilar. Buning isbotini biz Munis keltirgan ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin: «Abulg'oziyxon o'zbekdan uch yuz oltmish kishiga amal berdi. Alarning o'ttiz ikkisi o'z yonidan o'rin berdi. Andoqkim, ikki shayxulislom, ikki qozi, bir rais..., bir mutavaliy, bir naqib, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt chig'atoy inoqi va bir vazirkim, holo meh-tar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o'rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar». Farqlarga kelsak, Xiva xonligida inoq vazifasi Shayboniylar hukmronligining So'ngi davrlarida katta amaliy ahamiyat kasb etgan. Natijada ishora qilinganidek, Muhammad Amin inoq 1770 yili hatto hokimiyatni qo'lga kiritishga ham erishgan. Ammo XIX asr birinchi yarmida esa Xiva xonligida xondan keyingi muhim lavozim qushbegi bo'lgan. Mazkur holat shu yuz yillikning 60-yillarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani ma'lum. Chunonchi, 1865 yili Hasan Murod qushbegi vaziri a'zam maqomida bo'lgan.

Buxoro amirligida bo'lganidek, u yoki bu shaxsning mavqeiga qarab uning rasmiy maqomi ham oshib boravergan. Aytaylik, Hasan Murod vafotidan (1865 yil) So'ng vaziri a'zamlilik Abdullo mehtarga o'tadi. Buxoroda esa mehtarga xon muhrini saqlashdan (kichik mehtar) zakot, vorissiz mulklar bilan shug'ullanishgacha (katta mehtar) ishlar yuklatilgan. Xivada esa u ylyg' vazir darajasida turgan. Keyinchalik esa devonbegining

mavqei xonlikda oliy hukmdordan keyin ikkinchi hisoblangani ma'lum. Devonbegi nafaqat boshqaruv, oliq-soliq, moliya ishlari, balki harbiy masalalar, Chunonchi, harbiy yurishlarga bosh bo'lish, askarlarga nafaqa va mukofot tayinlash, dushman bilan muzokara olib borish, sulh tuzish qabilarga ham dahldor bo'lgan. Xiva xonligi boshqaruvida biz shuningdek dorug'a, kutvol, to'qsobo, shig'ovul, yasovulboshi, mingboshi, yuzboshi, soloq, sardor, munshiy kabi vazifalarni uchratamiz.

Qo'qonda ham boshqaruv tizimi ko'p jihatdan Buxorodagi holatni eslatsa-da, ammo uning ham o'ziga xos tomonlari bo'lgan. qushbegi, devonbegi, otaliq, parvonachi, dodxoh kabi mansablarning mavqei bu erda ham baland hisoblangan holda, harbiy lavozim egalarining, ayniqsa, mingboshining roli ba'zi zamonlarda nihoyatda yuqori bo'lganini bilamiz. Chunonchi, qushbegi, parvonachi lavozimidagilarga mingboshi harbiy unvoni berilishi fikrimiz dalili bo'la oladi. YUqorida ko'rganimiz, Musulmonqul mingboshi hatto hokimiyatni qo'lga olib, butun xonlik ishlarini yurgizganini eslaylik.

Endi XVIII—XIX asrlarda (to Rossiya bosqiniga qadar) mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalariga to'xtab o'tsak. Siyosiy munosabatlar nechog'lik murakkab bo'lishidan qat'i nazar, bu davrda sun'iy sug'orish ishlariga e'tibor susaymagan, desak to'g'ri bo'ladi. Dehqonchiligi ko'p jihatdan sun'iy sug'orish ishlari bilan bog'liq mamlakatimiz uchun bu sohadagi doimiy harakatlar bo'lishi tabiiy edi. XVI—XVII asrlarda bu sohada qilingan tadbirlarni aytib o'tgandik. Mang'itlar zamoniga kelib to shungacha amalga oshirib kelingan, qurilgan sun'iy sug'orish inshootlaridan keng foydalanishga harakat qilingan, yangilari ham qurilgan.

Mamlakatimizning XIX asr oxiridan XI asr boshigacha bo'lgan bir asrdan oshiq davr davlatchiligi tarixi chor Rossiya va sho'rolar davlati tarixi bmlan bog'liq. Bu haqda ma'lumotlar ancha ko'p. O'zbek xalqi istiqlol tufayli mustaqil O'zbekiston Respublikasi davlatini qurib rivojlantira bormoqda.

Rasmiy ish yuritish hujjatlari: ma'lumot-axborot va xizmat yozishmalari

Ma'lumot-axborot hujjatlari. Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlatiladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnoma, vasiyatnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taklifnoma, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

ARIZA

Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza amaliyotda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan ish qog'ozidir. Maktab o'quvchisi va talaba, menejer va agronom yoki fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs - jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va lavozimi, ariza yo'llanayotgan muassasalar va idoralar g'oyat hilma-hildir. Arizalar bog'cha mudirasiga, maktab direktoriga, oliy o'quv yurti rektoriga, jamoa xo'jaligi boshqaruviga, tuman rahbariyatiga - xullas, oddiy ariza-chining taklif, iltimos yoki shikoyatini ko'rib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.

Hajmi, uslubi va turidan qa'tiy nazar, ariza o'zining umumiy zaruriy qismlariga ega va u ana shu qismlarning izchilligi asosida tuziladi.

Arizaning zaruriy qismlari:

1. Ariza yo'llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
2. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi.
3. Hujjatning nomi (Ariza).
4. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).
5. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa)
6. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh xarflari, familiyasi.
7. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy).

SHuni eslatib o'tmoq, joizki, arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o'zi ishlayotgan korxona yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda, uning yashash joyi haqidagi ma'lumot zarur bo'lmaydi. Bunday hollarda xodim o'zi ishlaydigan bo'lim va lavozimini ko'rsatsa, kifoya. SHuningdek, ko'pchilik arizalar uchun ilovalarning ham xojati bo'lmaydi.

YUqorida sanab o'tilgan zaruriy qismlarning odatdagi joylashuvi namunada ko'rsatildi.

Ariza shakli namunasi

Qaerga yoki kimga
Ariza yozuvchining turar
joyi, lavozimi, to'liq nomi

ARIZA

Ariza matni (mazmuni)

Sana (yil, kun, oy) Imzo I.O. va familiyasi

Ilova

Ariza ham boshqa har qanday rasmiy hujjat kabi aniq, va qisqa jumlar bilan, tushunarli qilib yozilishi kerak. Hujjat tilining aniqligi, tushunarligi maqsadning tezroq, amalga oshishiga hizmat qiladi.

Ariza asosan qo'lda yoziladi va mazmuni erkin bayon qilinadi. Mazmuni va uslubiga ko'ra arizalar bir hil emas: u bir nechta so'zdan iborat bo'lishi, masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo'lishi ham mumkin. SHu nuqtai nazardan arizalar sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Murakkab ariza matni katta bo'lishi bilan birga, unga ilovalar qilinishi mumkin. Aksar hollarda arizalar shaxsiy hususiyatga egadir. SHu bilan birga, xizmat arizalari ham bo'ladi. Xizmat arizasi -fuqarolar yoki tashkilotlarning o'z huquqlarini amalga oshirish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlaridir. Da'vo arizalari ana shunday arizalardandir. Iltimos va shikoyat mazmunidagi arizalar taklif mazmunini aks ettiruvchi arizalarga hamda da'vo arizalariga nisbatan ko'p qo'llanadi.

Quyida biz ayrim turdagi arizalardan namunalar keltiramiz.

Namunalarda ishga kirish shakldagi arizalardan namunalar (bunday arizalarda ariza zaruriy qismlarining barchasidan foydalaniladi) berildi.

Toshkent shahar halq, ta'limi bosh
boshqarmasi boshlig'i H.Q.Yo'ldoshevga
Toshkent shahar Sag'bon ko'chasi
44-uyda yashovchi O.R.Rahimovadan

ARIZA

Meni Shayhontohur yoki Sobir Rahimov tumanlarida joylashgan maktablardan biriga geografiya o'qituvchisi qilib yuborishingizni so'rayman.

(imzo)

O. Rahimova

2008.03.08

Toshkent shahar Sobir Rahimov tumani sudiga

Da'vogar: Toshkent shahar 2-qoraqamish dahasi, 104-uy, 6-xonadonda yashovchi Po'lat Gulmetovich Kamolov

Javobgar: Toshkent shahar Sag'bon ko'chasidagi 213-uyda yashovchi
Sarvar Rasulovich Mirzaev
Da'vo bahosi 45000 so'm

DA'VO ARIZASI

2007 yil 26 avgust kuni Sarvar Rasulovich Mirzaev menga murojaat qilib, 2008 yil 1 yanvargacha 45000 so'm qarz berib turishni iltimos qildi.

Men u aytgan miqdordagi pulni qarzga berishga rozi bo'ldim va shu kuniyoq S.R.Mirzaevga 45000 so'm berdim. U pulni olganlik haqida 2007 yil 26 avgust sanasi bilan menga tilxat berdi va bu bilan mazkur summani 2008 yil 1 yanvargacha qaytarib berish majburiyatini oldi. Bizning kelishuvimiz paytida Usmon Turaevich Axatov bor edi va u shartnoma tuzish holatini tasdiqlashi mumkin. SHartnomaning ijro muddati tilxat bo'yicha 2008 yil 1 yanvarda tugagan bo'lishiga qaramay, javobgar, mening ana shu pulsiz ham yashay olishim mumkinligini aytib, qarzni qaytarishdan bosh tortmoqda.

Aytilganlar asosida O'zR Fuqarolik kodeksining 732, 735, 736-moddalariga muvofiq, hamda O'zR JPKning 5-bobidagi tegishli moddalarga rioya qilgan holda, Sarvar Rasulovich Mirzaevdan mening foydamga 45000 so'm hamda 1000 so'm sud harajatlarini (600 so'm davlat boji markalari uchun va 400 so'm huquqiy yordam uchun huquqiy maslahatxona kassasiga to'ladim) undirib berish haqida qaror chiqarishni so'rayman.

Bayon etilgan da'vo talablarini tasdiqlash uchun guvoh sifatida Toshkent shahar 2-qoraqamish dahasi 102-uy, 18-xonadonda yashovchi SHavkat Rahimovich Abdullaevni chaqirishni so'rayman.

Ilova: 1.S.R.Mirzaev nomidan 2007 yil 26 avgust kuni yozilgan tilxat.

2.Huquqiy maslahatxona kassasiga 400 so'm to'langani haqida 2008 yil 25 avgustdagi 001504 raqamli patta.

3.600 so'mlik davlat boji markalari.

4.Da'vo arizasining javobgar uchun nusxasi.

(imzo)

P.G.Kamolov

2008.25.08.

Toshkent shahar Sirg'ali tumani sudiga

Da'vogar: 700000, Toshkent shahar CHoshtepa ko'chasidagi 18-uy,
8-xonadonda yashovchi Damira Fotixovna Rahimova

Javobgar: Mazkur manzilda yashovchi Xamdam Sodiqovich Rahimov

DA'VO ARIZASI

2001 yilda menga va javobgarga yuqorida ko'rsatilgan manzil bo'yicha bir xonali kvartira berilgan bo'lib, men shu adresda ro'yxatdan o'tib, unga ko'chib kirgandan to 2007 yil noyabr oyigacha doimiy yashab kelganman.

Men 2007 yil oktyabr oyida og'ir surunkali kasallik tufayli operatsiya qilinib, davolanishni davom ettirish uchun "Chinobod" sanatoriyasiga yo'llanma oldim va u erda 1997 yil 20 dekabrighacha bo'ldim.

Sanatoriyadan uyga qaytib, javobgarning boshqa bir ayol bilan topishib olganligini, men bilan esa oilaviy munosabatlarni uzishga qaror qilganligini, o'zboshimchalik bilan meni kvartiradan o'chirib, butun mulkimni dugonam Sobira Qosimovna Qozievanikiga olib borib qo'yganligini bildim. U eshik qulflarini ham almashtirib, meni kvartiraga kiritmayapti.

Qonunga muvofiq, oila a'zosining turar joyga bo'lgan huquqi uning vaqtincha davolash muassasasida bo'lgan butun vaqti davomida saqlanib qoladi. Mening Toshkent shahrida boshqa turar joyim yo'k.

Aytilganlar asosida va O'zR Fuqarolik kodeksining 9,11, 13, 210-moddalariga rioya qilgan holda:

1) meni Toshkent shahar Choshtepa ko'chasidagi 18-uy, 8-xonadonga ko'chirib kirgizish haqida qaror chiqarishni; 2) sudga guvohlar sifatida Toshkent shahar Muqimiy ko'chasidagi 19-uyda yashovchi Narimon Karimovich Kabirovni hamda Toshkent shahar Choshtepa ko'chasidagi 59-uyda yashovchi Sobira qosimovna qozievani chaqirishni so'rayman. Ilova: 1. Nikoh, haqidagi guvohnomaning nusxasi.

2.Orderning ko'chirma nusxasi.

3."Chinobod" sanatoriyasining ma'lumotnomasi.

(imzo)

D.F.Rahimova

2008.17.01.

Hisob-kitob arizasi namunalari

Chortoq, tumanidagi 81-o'rta maktab direktori X.A.Rahimovga

Chortoq, shahar Ikromov ko'chasi, 18-uyda yashovchi, shahar ichki ishlar bo'limi tomonidan 2007 yil 24 dekabrda berilgan SA seriyali, 0708914 raqamli pasport egasi (5 ta bolali) Salim Pulatovich Alimovdan

HISOB-KITOB ARIZASI

2008 yil 28 maydagi shartnomaga muvofiq, maktab jixozlarini tuzatib sozlaganim uchun (12 ta parta va 6 ta stol sozlandi, 5 ta deraza romi tuzatildi va ularga oyna solindi) menga 4700 (to'rt ming etti yuz) so'm xaq to'lashingizni so'rayman.

(imzo)

S.P.Alimov

2008.18.06.

2-sabzavot ombori direktoriga Ohangaron ko'chasi, 40-uy,18-xona-donda yashovchi, Toshkent tumani ichki ishlar bo'limi tomonidan 1997 yil berilgan SA seriyali, 0614194 raqamli pasport egasi Zokir Ikromovich Mamatovdan

HISOB-KITOB ARIZASI

Sabzavot omborini qisman tuzatish-sozlash yuzasidan 2007 yil 18 sentyabrda tuzilgan mehnat bitimiga binoan, dahlizdagi qoplamalarni bo'yadim, isitish quvurlarini tuzatish-sozlash, derazalarga oyna solish ishlarini bajardim. Hammasi bo'lib 8350 (sakkiz ming uch yuz ellik) so'mlik ish bajarildi. Menga ana shu summani to'lashingizni so'rayman.

(imzo)

Z.I.Mamatov

2007.21.10

BAYONNOMA

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqelikning o'rni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferentsiyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatlarida, albatta, bayonnoma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Bayonnomada o'z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnoma yozib olinishiga ko'ra, qisqa, to'liq, stenografik, fonografik, konspektiv shakllarda bo'lishi mumkin. qisqa bayonnomada faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinmaydi. Bunday bayonnomalar masalaning muhokama qilinishi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi, Shu nuqtai nazardan yig'ilishda so'zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to'liq majlis bayonnomasi afzaldir. Majlis bayonnomasining to'liq shakli faqat yig'ilish hususida emas, balki usha jamoaning faoliyati to'g'risida ham fikr yuritishga imkoniyat beradi.

Yig'ilish stenofafiya usulida (stenografik) yoki magnitofon yordamida yozib olinayotgan (fonografik) bo'lsa, qisqa bayonnoma tuzilib, stenogramma rais va kotib tomonidan imzolanadi va asosiy bayonnomaga ilova qilinadi.

Bayonnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Muassasa nomi.
2. Sarlavha (bamaslaxat ish ko'ruvchi organ yoki yig'ilishning nomi).
3. Hujjatning nomi (Bayonnoma).
4. Yig'ilish sanasi.
5. Shartli raqami.
6. Yig'ilish joyi.
7. Tasdiqlash ustxati (agar bayonnoma tasdiqlanish zarur bo'lsa).
8. Yig'ilish raisi va kotibining familiyasi.
9. Matn:
 - a) qatnashuvchilar ro'yxati yoki soni;
 - b) kun tartibi;
 - v) eshitildi;
 - g) so'zga chiqdilar;
 - d) qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar ular mavjud bo'lsa).
11. Imzolar.

Bayonnomani tuzishda ularning huquqiy jixatdan to'laqlonligini ta'minlash kerak. Buning uchun bayonnomada barcha asosiy zaruriy qismlar mavjud bo'lishi, ular to'g'ri rasmiylashtirilishi lozim.

Doimiy maslaxat organi yig'ilishining bayonnomasida yig'ilishda ishtirok etuvchilar soni ko'rsatilishi juda muhimdir, chunki bu huquqiy ahamiyatga ega. Majlis qarorlarini qabul qilish va uning qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning nizom bo'yicha yetarli ekanligi (kvorum) asosiy shart hisoblanadi.

Ma'muriy idoralarda bayonnoma umumiy yoki maxsus bosma ish qog'ozlarida rasmiylashtiriladi. Bayonnoma bir necha saxifadan iborat bo'lsa, faqat birinchi saxifa bosma ish qog'ozida, qolgan betlari esa oddiy qog'ozda yoziladi.

Yig'ilish o'tkazilgan kun bayonnomaning sanasi hisoblanadi. Muntazam ish ko'ruvchi organlar bayonnomasining tartib raqami kalendar yili bo'yicha izchil davom etadi.

Majlis bayonnomasida qatnashuvchilar ro'yxati berilganda, doimiy a'zolar va taklif etilganlar familiyasi alohida alifbo tartibida qayd etiladi.

Sirg'ali tuman o'quvchi va yoshlar ilmiy-texnika ijodiyoti markazi jamoasi yig'ilishining 3-raqamli

BAYONNOMASI

2007.15.02.

Toshkent shahri

Rais - M.S.Rahimov

Kotib – S.P.Maxmudov

Qatnashdilar: 65 kishi (ro'yxat ilova qilindi)

KUN TARTIBI:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da maktabdan tashqari tarbiya muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalar va ularni amalga oshirish. Ma'ruzachi O.Karimova.

2.Markaz jamoasining birinchi yarim yil uchun tuzilgan ish rejasini tasdiqlash. Ma'ruzachi O.R.Solieva.

3. Navro'z bayramiga bag'ishlangan adabiy-badiiy kecha uyushtirish. S.Karimov axboroti.

1.ESHITILDI:

O.Karimova - ma'ruza matni ilova qilindi.

SO'ZGA CHIQQILAR:

A.Mirakbarova - (Nutqning qisqa mazmuni yoki savoli bayon qilinadi).

P.S.Choriev - (Nutqning qisqa mazmuni yoki savoli bayon qilinadi).

QAROR QILINDI: (qabul qilingan qarorlar bayoni yoziladi).

2.ESHITILDI:

O.R.Solieva - (Ma'ruzasining qisqacha yoki to'liq bayoni yoziladi)

SO'ZGA CHIQQILAR: T. Ahmedova -.....

QAROR QILINDI: (qabul qilingan qarorlar bayoni yoziladi).

3.ESHITILDI:

S.Karimov axboroti - (Axborotning mazmuni bayon qilinadi).

QAROR QILINDI: (qabul qilingan qarorlar bayoni yoziladi).

Rais (imzo) M.S.Rahimov

Kotib (imzo) S.P.Maxmudov

BAYONNOMADAN KO'CHIRMA

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirmada bo'lganidek, bayonnomadan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Bayonnomadan ko'chirma quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1.Tashkilot nomi.

2.Hujjat nomi (bayonnomadan ko'chirma).

3.Sana (majlis sanasi).

4.Shartli raqam.

5.Bayonnoma tuzilgan joy.

6.Matn:

a)KUN TARTIBI;

b)ESHITILDI;

v)QAROR QILINDI.

7.Imzolar.

8.Nusxa tasdiqlanganligi haqida belgi.

Ba'zan bayonnomadan ko'chirmalarda yig'ilishda qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek, ko'rilgan masala bo'yicha muhokamada ishtirok etganlar familiyasi ham ko'rsatib o'tiladi.

Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga etkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi.

Korxona mehnat jamoasining 2007 yil " __ " _____dagi

umumiy yig'ilishining __ raqamli

BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

Korxona bilan mehnat munosabatida turuvchilar __ kishi.

Qatnashganlar __ kishi.

Ishtirok etmaganlar __ kishi.

SHulardan uzrli sabablarga ko'ra (bola tarbiyasi ta'tilida, kasalligiga ko'ra, mehnat va boshqa ta'tillarda, xizmat safaridagilar) __ kishi.

ESHITILDI:

Korxona jamoa shartnomasi loyihasini ma'qullash haqida.

SO'ZGA CHIQDILAR:

1. _____
 2. _____
 3. _____
- va h.k. _____

QAROR QILINDI:

1. Jamoa shartnomasi va uning ilovalari ma'qullansin.
2. SHartnomani mehnat jamoasi nomidan imzolash vakolati korxona kasaba uyushmasi qo'mitasining raisiga topshirilsin. Unda mehnat jamoasidan quyidagi vakillar ishtirok etsinlar:
 1. _____
 2. _____
 3. _____
3. Jamoa shartnomasi imzolangan kundan e'tiboran kuchga kirishi belgilab qo'yilsin.

Umumiy majlis raisi _____
kotib _____

BILDIRISHNOMA, BILDIRISH

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga bironbir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi (yozuvchi)ning takliflari aks etadi.

Kinga yo'llanganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

Ichki bildirishnoma rahbar shaxs yoki bo'lim mudiri nomiga yoziladi. U toza qog'oz varag'iga qo'lda yoki mashinkada yozilishi mumkin. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolandi. Tashqi bildirishnoma, ya'ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda, xos ish qog'oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjat-ning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolandi.

Bildirishnoma tashabbus, axborot va hisobot hususiyatiga ega. Bu hususiyatlar hujjat matni sarlavhasidayoq o'z aksini topadi. Tashabbus bildirishnomasi matnida tegishli masala yuzasidan umumiy yoki aniq, takliflar ilgari surilib, rahbari ularni hal qilishga undaydi (masalan, Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligida mukofotlash nizomining buzilganligi haqida).

Axborot bildirishnomasi, odatda, rahbarga ma'lum muayyan jarayonning umumiy holati to'g'risida habar beradi. Masalan, Chinoz tumani Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligida chigit ekishning borishi (2007 yil 10 apreldagi holati) haqida.

Hisobot bildirishnomasi ma'lum bir ishning tugallanishi haqida yoki bironbir ko'rsatma, tavsiya, rejaning ijrosi to'g'risida rahbari habardor qilishi kerak bo'ladi (masalan, O'zR Fanlar akademiyasi Tarix incumumudagi topilgan qo'lyozmalarni o'rganish ishlarining borishi haqida). Muaiyan vazifa yoki majburiyatlarning bajarilishi haqidagi hisobot bildirishnomasi amaliyotda *raport* ham deyiladi. Asli fran-tsuzcha bo'lib, rus tili orqali bizga kirgan bu so'zning muqbil sifati "BILDIRISH" atamasini qo'llaymiz. Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo'nalish kelishidagi familiyasi.
2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishidagi familiyasi.
3. Matn sarlavhasi.
4. Hujjat turining nomi (Bildirishnoma).

5. Bildirishnoma matni (mazmuni).

6. Qancha varaqdagi ko'rsatilgan ilovalar ruyxati (agar ilovalar bo'lsa).

7. Bildirishnoma tayyorlovchi hodim yoki rahbarning imzosi (agar bir necha shaxs tomonidan tayyorlangan bo'lsa, u barcha mualliflar tomonidan imzolaniadi).

8. Bildirishnoma taqdim etilgan sana (sana muallif yoki muassasa rahbari tomonidan bildirishnoma imzolamayotgan paytda qo'yiladi).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, zaruriy qismlari va yozilish shakli jihatidan bildirishnomalar hizmat ma'lumotnoma (spravka)lariga yaqin turadi. Farqi shundaki, ma'lumotnomalarda asosan talab qilingan, so'ralgan voqea hodisalar haqidagina axborot beriladi, bildirishnomalarda esa voqea hodisalarni sanash bilan birga, ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinadi va tegishli hulosalar qilinib, takliflar aytiladi.

Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning hulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lmog'i kerak. SHuning uchun ham bildirishnomalarda chiqarilgan hulosalarni tasdiqlovchi, voqea hodisalarga, qonunchilik ko'rsatmalariga, tegishli hujjatlarning raqam va sanasiga

Hamda bayon etilgan masalani bevosita muassasa misolida o'rganish yoki sinab ko'rish natijasida olingan boshqa dalillarga havolalar qilinishi zarur. Bildirishnoma matni asosan ikki qiyomdan iborat. Birinchi qiyomda uning yozilishiga sabab bo'lgan dalillar, voqealar bayon qilinishi, ikkinchi qismida esa xulosalar va aniq, ish-harakatlar haqidagi takliflar aks etmog'i zarur. Muallifning fikricha, bunday ish-harakatlar bayon qilingan voqealar munosabati bilan yuqori idora yoki mansabdor shaxs tomonidan bajarilishi kerak.

Agar bildirishnomada bayon qilinayotgan ma'lumotlar aniq bir sana yoki vaqt oralig'iga taalluqli bo'lsa, huddi ma'lumotnomadagidek, ushbu vaqt matndan alohida zaruriy qiyom sifatida ajratilib, matn oldidan joylashtiriladi. Masalan "2006 yil 1 yanvardagi holatga ko'ra" yoki "2008 yilning 1 yanvaridan 1 sentyabrigacha bulgan davr uchun". Bu ma'lumotlarni matn sarlavhasiga qo'shib yuborish ham mumkin.

Bildirishnoma namunalari

Soatsozlik zavodining direktori K.B.Karimovga zavod qaramog'idagi bolalar oromgohining boshlig'i L. Komilovadan

Bolalar oromgohi yotoq binolarining umumiy ahvoli haqida

BILDIRISHNOMA

Sizning ko'rsatmangizga binoan, men texnik-nazoratchi S. Bakirov bilan birgalikda shu yil 7-8 may kunlari zavod qaramog'idagi bolalar oromgohi yotoq binolarini tekshirib chiqdim.

Barcha yotoq binolari qoniqarli ahvolda. Biroq 1-binoda deraza oynalarini o'rnatish, 2-binoni qisman bo'yash, 3-binoda esa eshiklarni ta'mirlash zarur deb o'isoblayman.

Bolalar oromgohi
boshlig'i (imzo) L. Komilova
2008.10.05.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti geografiya fakulteti
Dekan o'rinbosari A. Rahimovga

Kafedraga metodik yordam ko'rsatish haqida

BILDIRISHNOMA

Bildirishnoma matni (uning yozilish sabablari, hulosalar, talab va takliflar).
Ilova: (agar zarur bo'lsa)

Kafedra mudiri (imzo) I. Axmadxo'jaev
2007.21.09

VASIYATNOMA

Vasiyatnoma bir shaxsning (vasiyat qiluvchining), u vafot qilgan taqdirda, o'ziga qarashli bo'lgan mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha hohish-irodasi bayon qilingan hujjatdir. U muayyan andoza bo'yicha tuzilishi, belgilangan talablarga (vasiyat qiluvchining huquqiy muomala layoqati, farmoyishning qonuniyligi, vasiyat qiluvchi tomonidan o'zining So'ngi hohish-irodasini bayon qilish erkinligi) javob berishi kerak.

Vasiyatnoma bo'yicha har qanday shaxs (jumladan, qonunda belgilangan merosxo'rlar doirasiga kirmaydigan shahslar ham), shuningdek, davlat, jamoat, kooperativ tashkilotlari merosxo'r bo'lishi mumkin. Vasiyat qiluvchi o'z mol-mulkini (uning bir qismini) bir yoki bir necha merosxo'rga, shu bilan birga, yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga vasiyat qilish huquqiga ega. U, shuningdek, vasiyatnomada o'limidan So'ng uni qaysi qabristonga ko'mish, yodgorlik qo'yish yoki qo'ymaslik, qanday marosimlar o'tkazish haqida va shunga o'xshash farmoyishlar berish huquqiga ega.

Vasiyat qiluvchi yoki meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzilganidan keyin uni istagan paytda bekor qilish va o'zgartirish borasida erkin bo'lib, bunda u bekor qilish yoki o'zgartirish sabablarini ko'rsatishga majbur emas.

O'zbyokistan Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1124-1133-moddalarida vasiyatnoma, uning shakli va yozilish uslubi, turlari, uni bekor qilish va o'zgartirish, vasiyatnoma bilan bog'liq, boshqa holatlar batafsil ko'rsatib berilgan.

Vasiyatnoma, odatda, yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim. quyidagi vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi: a) notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar; b) notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi kerak. Agar vasiyat qiluvchi biron-bir jismoniy nuqsoni, kasalligi yoki savodsizligi tufaili vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolash olmasa, uning iltimosiga binoan, notarius yoki qonunga muvofiq, vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo'lganida, vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmaganligining sabablari ko'rsatilgan holda, vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin. Lyokin notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa shaxs, vasiyatnomadan manfaatdor shaxslar va ularning oila a'zolari, vasiyat qiluvchining qonuniy merosxo'rlari, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar, vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar, yolg'on guvohlik bergani uchun ilgari sudlangan shaxslar vasiyatnomaga imzo qo'yishi mumkin emas.

Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoki uning so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan bo'lishi kerak. Vasiyatnomani keyingi holatda yozib olish paytida umumiy qabul qilingan texnika vositalaridan (yozuv mashinkasi, shaxsiy kompyuter va xakazodan) foydalanish mumkin.

Vasiyat qiluvchining so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnomani imzolashdan oldin vasiyat qiluvchi uning matnini notarius oldida to'liq o'qib chiqishi lozim. Agar vasiyat qiluvchi ayrim ob'ektiv sabablarga ko'ra vasiyatnomani shaxsan o'qiy olmasa, uning matni vasiyat qiluvchiga notarius tomonidan o'qib eshittiriladi, bu holat vasiyatnomada tegishli qayd etiladi.

Vasiyat qiluvchining hohishiga ko'ra, vasiyatnoma notarius tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan (maxfiy vasiyatnoma) tasdiqlanadi. Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi (ehtimoli) borligidan o'z qo'li bilan yozishi va imzolashi kerak. Vasiyatnoma ikki guvoh va notarius ishtirokida xatjildga solinib, xatjild elimlanishi lozim. Guvohlar, to'liq ismi shariflari va doimiy turar joylarini ko'rsatgan holda, xatjildga imzo qo'yadilar. Ushbu xatjild mazkur odamlar ishtirokida boshqa xatjildga solinadi va bu xatjild xam elimlanib, notarius unga tasdiqlash ustxatini yozib qo'yadi.

Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma namunasi

VASIYATNOMA

Farg'ona viloyati Quva shahri, bir ming to'qqiz yuz to'qson sakkizinchi yilning yigirma uchinchi aprel kuni

Men, quva shahar Farg'oniy ko'chasidagi 158-uyda yashovchi Sodiq Sobirovich Ikromov, vafotim oldidan ushbu vasiyatnoma orqali quyidagi topshiriqni beraman:

1.Mening vafotim oldidan menga tegishli bo'lgan barcha mol-mulkimni, jumladan, quva shahar Farg'oniy ko'chasidagi 54-raqamli hovli-joyimni, uning nimalardan iborat ekanligidan va qayerda joylashganligidan qat'i nazar, qizim, Nazira Sodiqovna Abdukarimovaga vasiyat qilib qoldiraman.

2.Menga O'zbyokistan Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi 1142-moddaning mazmuni, ya'ni merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlar haqida notarius tomonidan tushuntirish berildi.

Ushbu vasiyatnoma ikki nusxada tuzilib imzolandi: ularning biri saqlash uchun quva shahar davlat notarial idorasida qoldirildi, ikkinchisi vasiyat qiluvchi S.S.Ikromovga berildi.

(Imzo) S.S. Ikromov

Vasiyatnomadagi tasdiqlovchi yozuv (ustxat)

Ushbu vasiyatnomani 1998 yil 23 apreľ kuni men, Farg'ona viloyati quva shahar davlat notarial idorasining davlat notariusi Abdusattor Abduqahhorovich Mamadaliev, fuqaro Sobir Sodiqovich Ikromovning hohish-irodasiga binoan va amaldagi qonunlarga rioya qilgan holda tasdiqladim.

Vasiyatnoma fuqaro Sobir Sodiqovich Ikromov tomonidan mening huzurimda imzolandi. Vasiyat qiluvchining shaxsi aniqlandi, muomalaga layoqatligi tekshirildi, ushbu notarial harakatni amalga oshirish chog'ida uning muomalaga layoqatligi to'g'risida biron-bir shubha tug'ilmadi.

Ro'yxat (reestr)ga 1234 raqami bilan qayd etildi, 60 so'm miqdorida davlat boji olindi.

Davlat notariusi (imzo) A.A.Mamadaliev

Muhr

DALOLATNOMA

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'lik, biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishda hilma-hil maqsadlar ko'zlanadi, lyokin uni tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy me'yorlar bilan qat'iy belgilangan. Masalan, korxonalarining hisob-kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadi.

Dalolatnoma deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq, tuziladi (xatto baxtsiz hodisa yoki tabiiy ofat haqidagi dalolatnoma asosida ham moddiy masala bor), binobarin, u ko'proq tadbirkorlik, moliya-xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'llanadi.

Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashinayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, ko'rib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarining yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatdor buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, hodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

Moliyaviy faoliyat va savdo-tijorat sohalarida tuziladigan dalolatnomalar tasdiqlash (kamomad yoki nuqsonlar bo'lmagan hollarda) yoki ayblash (pul kamomadi yoki moddiy boyliklar etishmasligi aniqlanganda) uchun hamda tegishli (qayd etuvchi, rag'batlantiruvchi, jazolovchi) buyruqlar e'lon qilish uchun asos bo'ladi.

Aksar hollarda dalolatnoma oldindan belgilangan qoidaviy namuna asosida tuziladi.

Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (muassasa rahbarining buyrug'i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki mahsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda va umuman dalolatnoma yakka shaxs tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo'lmogi shart. Ayrim hollarda dalolatnomalar voqea-hodisaning qatnashchilari yoki unga guvoh bo'lgan kishilarning tashabbusi bilan ham tuziladi.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Idora, muassasa va tarkibiy bo'linma nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavxasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (raisi va a'zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning necha betligi ko'rsatiladi).
11. Tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

Har bir dalolatnomaning ushbu zaruriy tarkibiy qismlari qatoriga ayrim hollarda boshqa ma'lumotlarni ham qo'shish mumkin. CHunonchi, ishni qabul qilish-topshirish chog'ida tuziladigan dalolatnomalarda hodimlar tomonidan topshirilayotgan qimmatdor buyumlar, hujjatlar sanab o'tiladi (ilovalar tarzida), topshirish vaqtidagi ish ahvoriga baho beriladi, bajarilmagan ishlar qayd etiladi va hokazo.

Dalolatnoma shakli

Vazirlik, yuqori idora,
muassasa nomi

TASDIQDAYMAN
TASDIQLANISH MUDDAT

MATH SARLAVHASI (".....HAQIDA")
DALOLATNOMA

sana
tuzilgan joyi

Asos: (muassasa rahbarining (sanadagi) - raqamli buyrug'i yoki yuqori idoraning - raqamli qarori)

Raisi (shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)

A'zolari: 1. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)

2. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)

3. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)dan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar

Komissiya raisi (imzo) Ismi va ota ismining bosh
harflari, familiya

Komissiya a'zolari (imzolar) Ismi va ota ismlarining
bosh harflari, familiyalar

Ishtirok etganlar (imzolar) Ismi va ota ismlarining
bosh harflari, familiyalar

ISHONCHNOMA

Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat. Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra, mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy-buyum boyliklarini olish, sud hamda notarial idoralarda, shuningdek, boshqa davlat va nodavlat idoralarda ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

O'zR Fuqarolik kodeksining 134-moddasida ishonchnomaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxs (ishonchli vakil)ga uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi".

Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomonidan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (hizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozim-li shaxsga uning muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak. Ayrim hollarda ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdiqdan o'tishi zarur bo'ladi.

Mazmun hamda vakolatning ko'lamiga ko'ra, ishonchnomalar bir gallik, maxsus va umumiy turlarga bo'linadi. Bir gallik ishonchnoma muayyan bir ishni amalga oshirish, vazifani bajarish uchun (masalan, faqat bir martagina pul yoki qimmatdor buyumni olish uchun) beriladi. Muayyan davr davomida bir qancha bir turdagi vazifalarni bajarish vakolatini beruvchi ishonchnomalar *maxsus ishonchnomalar* deyiladi (masalan, 2000 yil davomida sud-hakamlik idoralarida korxona nomidan vakillik qilish

Mahsus ishonchnoma namunasi

ISHONCHNOMA

Toshkent shahar 1-uysozlik kombinatining to'rtburchak muhri (kombinatning to'liq nomi, ishonchnomaning va berilgan vaqti 2007.15.05.

Kombinat adliya maslahatchisi (yuriskonsul't) Anvar Sattorovich qodirovni barcha sud (hakamlik) idoralaridagi kombinat ishlarini da'vogar, javobgar yoki

uchinchi shahs uchun qonunga muvofiq belgilangan jami huquqlar bilan (jumladan, ishni tinchlik bilan to'xtatish, da'vo talabini tan olish, uni to'la yoki qisman rad etish, sud qarorlari yuzasidan shikoyat qilish kabi) olib borishga vakil qiladi.

Ishonchnoma shaxsan A.S.qodirovga berildi va 2007 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

Kombinat direktori (imzo) A.B.Sobirov

(muhr)

SHaxsiy ishonchnoma namunasi

ISHONCHNOMA

Men, Toshkent shahar, 2-qorasuv dahasi, 214-uy, 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo'shnim Naim Abdullaevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2007 yil 14 sentyabr (imzo) A.I.Bahodirov

A.I.Bahodirov imzosini tasdiqlayman.

Kadrlar bo'limi boshlig'i (imzo) I.Tolipova
(muhr)

2007 yil 14 sentyabr

MA'LUMOTNOMA

Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdor, hususiy va yuridik shaxslar xamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladi hamda biron-bir masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotnoma o'z hususiyati va mazmuniga ko'ra ikkiga xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

Xizmat ma'lumotnomasi muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axboriy hususiyatga ega bo'lgan hilma-hil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, hodim (shtat)lar soni, topshiriqlarning bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa hilma-hil masalalar to'g'risida hozirlanadi.

Xizmat ma'lumotnomasi o'z navbatida ikkiga - ichki xizmat va tashqi xizmat ma'lumotnomalariga bo'linadi. Ichki xizmat ma'lumotnomasi - muassasa ichki ishlari, xo'jalik faoliyati, biror tarkibiy bo'linma yoki ayrim hodimning ishi, faoliyati haqida tayyorlanib, shu muassasa rahbariga yo'llanadi. Bunday ma'lumotnomalar bevosita tuzuvchi (bo'linma boshlig'i, kadrlar bo'limi boshlig'i, ish yurituvchi, oddiy hodim va boshqalar) tomonidan imzolanadi va oddiy qog'oz varag'iga ko'dda yozilishi ham mumkin. Tashqi xizmat ma'lumotnomasi - muayyan muassasa nomidan yuqori idora yoki mansabdor shaxslarga, ular ko'rsatmasiga, talabiga muvofiq tayyorlanib jo'natiladi hamda hos ish kog'oziga yoki mahsus bosma ish kog'oziga yoziladi va muassasa rahbari tomonidan imzolanadi.

Har qanday xizmat ma'lumotnomasi boshqa biron-bir hujjatni guvohlantirish yoki muayyan qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi. Ma'lumotnoma sanasi u imzolangan va yo'llangan kuni qo'yiladi, chunki u jo'natma hujjatlar daftarida qayd etiladi.

Xizmat ma'lumotnomasiga matn mazmunini ochib beruvchi sarlavha qo'yiladi. Masalan, "Korxona ma'muriy-boshqaruv hodimlari soni haqida". Ma'lumotnomada qayd etilayotgan xabarlar taalluqli bo'lgan sana alohida ajratilib, asosiy matn oldidan yoziladi. Masalan: "2007 yil 1 iyundagi holatga ko'ra (muvofig)" yoki "2007 yil 1 yanvardan 1 sentyabrgacha bo'lgan davr uchun" kabi. Ushbu ma'lumotlarni matn sarlavhasi tarkibiga kiritib yuborish ham mumkin.

Rasmiy xizmat ma'lumotnomasida bosma ish kog'ozidagi yozuvlardan tashqari, yana quyidagi zaruriy qismlar bo'ladi:

1. Hujjat jo'natiladigan yuqori idora yoki mansabdor shaxsning nomi (bosma ish kog'ozining yarmidan o'ng tomonga yoziladi).

2. Hujjat nomi (Ma'lumotnoma).

3. Ma'lumotnoma matniga sarlavha (xat boshidan yoziladi).

4. Asosiy matn (ma'lumotnoma mazmuni).

5. Mansabdor shaxs (tuzuvchi yoki korxona rahbari) imzosi.

Moliyaviy masalalarni aks ettiruvchi rasmiy ma'lumotnomalarda bosh (katta) hisobchining imzosi va muhri bo'ladi.

MA'LUMOTNOMA

Buxoro viloyati Vobkent tumani Kumushkent qishloq fuqarolar yig'inining to'rtburchak muhri №25

2007.24.08.

Kumushkent qishloq fuqarolar yig'ini tomonidan Sultonmurod Olimovga berildi. Mazkur shaxs 2007 yilgacha Kumushkent qishloq kengashiga qarashli Qirg'izon qishlog'ida yashagan. Uning nomida

shaxsiy mulk huquqidagi uy-joyi yo'q. Ma'lumotnoma talab etilgan joyga taqdim etish uchun berildi.

Kumushkent qishloq fuqarolar

yig'inining raisi

(imzo)

S. Muxiddinov

Kotibi

(imzo)

A. Raxmatov

(muhr)

Ba'zan ma'lumotnomalar bosma ish qog'ozida emas, balki oddiy qog'ozga yozilib, birgina muhr va imzo bilan tasdiqlanadi.

O'zR Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasining

MA'LUMOTNOMASI

Majid Safarov kutubxonadan olgan barcha kitoblarni topshirdi, hozirda kutubxonadan hech qanday qarzi yo'q.

Abonement bo'limi

mudiri

(imzo)

Familiya

2000 yil 5 dekabr (muhr)

Sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan beriladigan ma'lumotnomalar ham katta bir turkumni tashkil etadi. Bolalar sog'lig'i haqidagi ma'lumotnoma bolalar bog'chasida tarbiyalanish, bolalar oromgohiga yo'llanma olish, biron-bir sport bilan shug'ullanish, o'rta yoki oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish va hokazolar uchun imkon yaratadi. Muayyan shaxsda ma'lum kasallik borligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma esa o'sha shaxsga og'ir ishlarda ishlamaslik, korxonalardan yoki ijtimoiy ta'minot bo'limlaridan davolanish uchun yo'llanma olish, nafaqa undirish va boshqa kafolatlarni beradi.

TAVSIFNOMA, TAVSIYANOMA

Tavsifnoma

Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos hislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan hodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlantirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsifnomada hodimning jamoatchilik va hizmat faoliyati, uning ishchanligi va ahloqiy sifatleri ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat: 1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar:

- a) ismi, otasining ismi va familiyasi;
- b) tug'ilgan yili;
- v) millati;
- g) partiyaviyligi;
- d) ma'lumoti;
- e) lavozimi;
- yo) ilmiy darajasi va unvoni.

2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).

3. Matn.

4. Imzolar.

5. Sana.

6. Muhr.

Tavsifnoma matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismga ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinci qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, hizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, xatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofot-larga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Holis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan hulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinci shaxs tilidan bayon qilinadi. Xodimni tavsiflashda "halol", "topshiriqlarni vaqtida bajaradigan", "mehnatsevar", "talabchan", "tashabbuskor", "tezkor", "printsipial", "intizomli" kabi sifatlardan foydalaniladi. Agar tavsifnoma jamoat tashkilotlari yig'ilishida tasdiqlangan bo'lsa, shu yig'ilish bayonnomasi raqami va sanasiga havola bo'ladi. Qoidaga ko'ra tavsifnomaga ikki shaxs muassasa (yoki bo'linma) boshlig'i va kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Tavsifnoma hodimning qo'liga topshiriladi yoki uni shaxsan xabardor qilgan holda, tavsifnomani talab qilgan muassasaga jo'natiladi.

Tavsifnomalarning "ishlab chiqarish tavsifnomasi", "tavsifiy tavsiyanoma", "xizmat tavsifnomasi" kabi turlari mavjud bo'lib, ular ayrim hususiyatlari jihatidan o'zaro farqlanadi.

Tavsifnoma namunasi

O'zMU fizika fakul'tetining 5-kurs talabasi,
1979 yilda tug'ilgan, o'zbek
Nazar SHukurovga

TAVSIFNOMA

Nazar SHukurov o'rta maktabni tugatgach, 1995 yilda fizika fakul'tetining 1-kursiga o'qishga kirdi.

Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. Fizika fanlariga alohida qiziqadi. U 1998 yilning aprely oyida talabalarning Xalqaro ilmiy konferentsiyasida ma'ruza bilan qatnashdi. Ma'ruzasi konferentsiyaning faxriy yorlish bilan taqdirlandi.

N.SHukurov fakul'tetning jamoat ishlarida faol qatnashadi, fakul'tetning "YOsh fiziklar" devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarin va to'g'riso'zligi, mehribonligi tufayli hamkurslari hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Sobir Rahimov tuman hokimiyatiga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan (imzo) O.R.Azizov

Kasaba uyushmasi
raisi (imzo) A.R.Mirvalieva

(muhr)

(sana)

Tavsifiy tavsiyanoma namunasi

O'zR Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining katta ilmiy hodimi, filologiya fanlari nomzodi, 1951 yilda tug'ilgan, o'zbek, oliy ma'lumotli Salim Karimovga

TAVSIFIY TAVSIYANOMA

Salim Karimov Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatib, 1974 yil oktyabr oyidan boshlab O'zR Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida laborant, 1980 yildan kichik ilmiy hodim, 1985 yildan hozirgi paytgacha katta ilmiy hodim vazifasida ishlab kelmoqda.

Institutdagi faoliyati davomida o'zbek tilshunosligining muhim va dolzarb masalalarini mustaqil tadqiq qilishga layoqatli olim sifatida tanildi.

S.Karimov 1983 yilda "O'zbek lingvopoetikasining tarixiy taraqqiyoti" mavzuida fan nomzodligi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. U jurnal va to'plamlarda 24 ta ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e'lon etdi. Ko'pgina respublika, respublikalararo va xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etdi.

U institutning rejali ishlarini bajarishda va jamoat ishlarida faol ishtirok etadi. Institut yosh olimlari kengashining raisi, kasaba uyushmasi tashkiloti byurosining a'zosi. Jamoa orasida alohida hurmatga ega.

S.Karimov muntazam ravishda respublika radiosi, matbuoti orqali o'zbek filologiyasi erishgan yutuqlarni targ'ib qilib keladi. Ilmiy va jamoat ishlarida faolligi uchun bir necha marta institut ma'muriyati tomonidan pul mukofotlari va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

S.Karimov doimiy ravishda o'z malakasini, ilmiy-nazariy saviyasini oshirish ustida qat'iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

U har ishda tashabbuskor, to'g'riso'z, kasbdoshlariga mehribon va g'amxo'r. O'ylangan, ikkita bolasi bor.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining ma'muriyati, kasaba uyushmasi tashkiloti Salim Karimovni "O'zbek tili va adabiyoti" mutaxassisligi bo'yicha AQSHda 2 yil muddatga o'qituvchi sifatida ishlash uchun tavsiya etadi.

Tavsifnoma ilmiy kengashda tasdiqlangan (1999 yil 15 maydagi 10-bayonnoma).

O'zR FA Til va adabiyot
institutida direktori (imzo) T.Mirzaev

Kasaba uyushmasi qo'mitasi
raisi (imzo) N.Maxkamov

(muhr)

(sana)

Tavsiyanoma

Biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat.

U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning hususiyatlari - mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, ahloqiy jihatlari va faoliyatiga bavo beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi.

Tavsiyanoma ba'zi hususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi, shu sababli ularning ko'pchiligi tavsifiy tavsiyanoma shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy hususiyatlari qayd qilinadi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy hususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

Turli mukofotlarga taqdim etish-taqdimnoma (xodataystvo) ham tavsiyanoma shaklida bo'ladi.

Tavsiyanomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tavsiyanoma).
2. Matn.
3. Tavsiyanoma beruvchi shaxsning lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi.
4. Imzo.
5. Sana.

Tavsiyanoma namunasi

TAVSIYANOMA

Men Hakim SHamsiddinovni 1974 yildan beri yaqindan taniyman, 2004 yildan boshlab O'zFA Til va adabiyot institutida birga ishlaymiz. Bu davr ichida u atamashunoslik sohasida etuk mutaxassis sifatida tanildi, filologiya fanlari nomzodi bo'ldi. Uning dissertatsiya ishi, bir qancha maqolalari ilmiy puxtaligi bilan ajralib turadi.

H.SHamsiddinov intizom va qat'iyatligi bilan jamoada obro' qozongan, totuv oilaning boshlig'i. Institut ilmiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda.

SHu sababli men Hakim SHamsiddinovni O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasida ishlash uchun tavsiya qilaman.

(imzo) filologiya fanlari nomzodi A..Qosimov

2007 yil 16 fevral

TARJIMAI HOL

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimai hol bir hil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsada, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol).

2. Matn:

a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;

b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;

v) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;

g) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi);

d) ma'lumoti (qaerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi);

e) ish faoliyatining turlari;

yo) ohirgi ish joyi va lavozimi;

j) mukofot va rag'batlantirishlar;

z) jamoat ishlarida ishtiroki;

i) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;

y) pasport ma'lumotlari;

k) turar joyi (uy adresi), telefoni.

3. Sana.

4. Imzo.

Tarjimai hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida, aniq, sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot nuli, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

Tarjimai hol namunasi

TARJIMAI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1985 yil 25 sentyabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug'ildim. Otam -Salimov Olim Oripovich Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, onam - Rahimova Gulnora Azimovna 122-bolalar bog'chasida bosh tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1992 yildan 2002 yilgacha Toshkent shahridagi 1-o'rta maktabda o'qidim. 2002 yilda Toshkent politexnika institutining qurilish fakultetiga o'qishga kirdim. 2006 yilda shu institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi-muhandis mutaxassisligiga ega bo'ldim. Yo'llanma bilan Toshkentdagi 166-qurilish trestining 94 mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasiga ishga yuborildim. Dastlab muxandis lavozimida, 2007 yildan buyon etakchi muhandis lavozimida ishlayapman.

2007 yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganim va erishilgan natijalar uchun Respublika qurilish vazirligining fahriy yorlig'i bilan taqdirlandim.

Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, 166-qurilish tresti kasaba qo'mitasi byurosining a'zosiman.

2006 yildan XDP a'zosiman.

O'ylanganman. Xotinim - Rasulova Muhabbat, 1985 yilda tug'ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim-Salimov Nodir, 2005 yilda tug'ilgan, bog'cha tarbiyalanuvchisi. Qizim - Salimova Lola, 2007 yilda tug'ilgan.

Mening turar joyim: 100010, Toshkent, Intizor ko'chasi, 5-uy, 27-xonadon. Tel.: 360-28-61

(imzo) K.Salimov

2008.10.01.

TILXAT, TUSHUNTIRISH XATI

Tilxat

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yohud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Tilxat bir nushada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn:

a)tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi.

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

v) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi);

g)olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh.k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, kdvs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin.

Tilxat namunalari

TILXAT

Men, Toshkent davlat madaniyat institutining xo'jalik ishlari bo'limining mudiri Bahodir Olimov, Toshkent milliy cholg'u asboblari zavodining tayyor buyumlar ombori mudiri Erkin Karimovdan institut buyurtmasi asosida tayyorlangan, umumiy bahosi 13500 (o'n uch ming besh yuz) so'm bo'lgan 100 (yuz) dona rubobni qabul qilib oldim.

(imzo) B.N.Olimov

2008.12.08.

TILXAT

Men, Toshkent markaziy univermagi xo'jalik mollari bo'limining mudiri Anvar Mamatovich Sobirov, fuqaro Rahim Karimovich Rahmonovdan bahosi 122000 (bir yuz yigirma ikki ming) so'm bo'lgan "Biryusa-6" markali sovutkichni boshqa markali sovutkichga almashtirib berish uchun qabul qilib oldim.

(imzo) A.M.Sobirov

2008.15.04.

TILXAT

Men, Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligi brigada boshlig'i Karim Salimovich Rahimov, jamoa xo'jaligi kassiri Dilbar Salimovadan brigada a'zolarining iyun oyiga tegishli 164500 (bir yuz oltmish to'rt ming besh yuz) so'm miqdoridagi ish haqini tarqatish uchun oldim.

(imzo)

K.S.Rahimov

2008.05.07.

Ba'zan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

Tushuntirish xati

Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir.

YUqoridagi ta'rifdan ko'rinadiki, tushuntirish xati huddi ma'lumotnoma va bildirishnoma singari ichki va tashqi hususiyatga ega. Keyingi holatda, ya'ni tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotganda, u ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar)ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o'rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu hildagi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning ba'zi hatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarining bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi. Demak, bu holda tushuntirish xati mustakda hujjat hisoblanmaydi, shunga qaramay, u muassasa hos ish kog'ozida rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan imzolanadi.

Ichki, boshqacha aytganda, shaxsiy tushuntirish xatlari asosan hodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo'linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida hodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Bevosita hodim (muallif) tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy qog'ozga yoziladi. SHaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik hodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Umuman, tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsning to'liq nomi.
2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to'liq, nomi.
3. Hujjat turining nomi (Tushuntirish xati).
4. Hujjat matni (mazmuni).
5. Imzo.
6. Sana (hujjat yozilgan vaqt).

Tashqi, hizmat yuzasidan korxona, muassasa va hokazolar nomidan yoziladigan tushuntirish xatlari hos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va ularning to'liq nomi ushbu ish qog'ozida aks etadi. Ichki tushuntirish xatlarida esa rahbar yoki xodimning to'liq nomi deyilganda, u ishlaydigan (o'qiydigan) bo'linmaning nomi, shaxs lavozimi, ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi nazarda tutiladi.

Zaruriy qismlari va yozilish shakli jihatidan tushuntirish xati arizadan deyarli farq qilmaydi, tarkibiy qismlarining joylashishi ham bir hil. Faqat shaxsiy tushuntirish xatining muallifi arizadagiday chiqish kelishigida emas, balki qaratkich kelishigida rasmiylashtirilgani ma'qulroqdir.

SHaxsiy tushuntirish xati namunalari

"Ko'mir" aktsiyadorlik birlashmasi Angren qo'ng'ir ko'mir
koni shaxta boshlig'i E.SLatipovga

Ishlab chiqarish intizomining buzilganligi haqida

TUSHUNTIRISH XATI

2008 yil 9 iyun kuni men navbatchilik qilgan birinchi smenada ko'miro'yg'ich mashinani ta'minlaydigan kabel uzilib ketdi.

Kabelning uzilishi quyidagi sababga ko'ra ro'y berdi: ishchi M.K.Salimov birinchi konveyerni boshqarish chog'ida ko'miruyg'ich kabelini o'rab qo'ymagan, natijada konveyer bloki kabelga ishqalanib, uni uzib ishdan chiqargan va mashina to'xtab qolgan.

Ishchi M.K.Salimov avval ham texnika havfsizligi qoidalarini buzib kelgan va tegishli ravishda jazosini olgan edi.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda, M.K.Salimovga yanada qat'iyroq intizomiy jazo choralari qo'llash zarur deb hisoblayman.

Tog'-kon muxandisi (imzo) P.T.Maqsudov

2008.10.06.

Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi
ta'minot bo'limining boshlig'i A.Z.Azimovga
haydovchi X.Rahimovning

TUSHUNTIRISH XATI

Topshirig'ingizga muvofiq shu yil 14 iyunda Bekobodagi O'zbekiston metallurgiya zavodi bizga ajratgan quyma shakllarni olib kelish uchun ketgan edim. Biroq avtomashinamning nosozligi tufayli yarim yo'ldan yuksiz qaytib kelishga majbur bo'ldim.

(imzo) X.Rahimov

2008.15.06.

"SHarq guli" mas'uliyati cheklangan jamiyat kasaba
uyushmasi tashkilotining raisi S.Abdullaevga jamiyat
fabrikasining 3-bo'lim tikuvchisi Dilorom Boboevaning

TUSHUNTIRISH XATI

Qizimni bolalar shifoxonasining mavsumiy ko'rigidan o'tkazish uchun olib borganim sababli ishga yarim soat kechikib keldim.

Ilova: Bolalar shifoxonasidan berilgan ma'lumotnoma.

(imzo) D.Boboeva

2008.30.06.

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek va qozoq
filologiyasi fakulteti dekani N.Abdurahmonovga 3-kurs
talabasi Odil Salimovning

TUSHUNTIRISH XATI

Men 2008 yilning 21 sentyabridan 10 oktyabrigacha bo'lgan davrda onamning qattiq, betobligi tufayli 46 soat mashg'ulotga qatnasha olmadim.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi vrach ma'lumotnomasi.

(imzo) O.Salimov

2008.12.10.

SamDU huquqshunoslik fakultetining sirtqi bo'limi
bo'yicha dekan o'rinbosari
M.Botirovga 1-kurs talabasi
Ahmadjon Dadaxujayevning

TUSHUNTIRISH XATI

Surxondaryo viloyatida bir necha kun samolyotlar uchishi uchun qulay ob-havo bo'lmagani tufayli 2008 yil 28-29 oktyabr kunlariga belgilangan mashg'ulotlarga etib kela olmadim.

(imzo) A.Dadaxujayev

2008.31.11.

Tushuntirish xati bildirishnoma singari, yuqoridagilardan boshqacharoq murakkab usulda ham yozilishi mumkin. CHunonchi, tushuntirish xatining bu turida varaqning yuqori chap burchagiga bo'linma va hujjat turi nomi, tushuntirish xatining sanasi va matn sarlavhasi joylashadi, yuqori o'ng tomonida tushuntirish xati yo'llangan shaxs nomi yoziladi.

Toshkent shahar 47-hunar-
texnika kolleji

Toshkent shahar 47-hunar-
texnika kolleji direktori
N. SHodievga

TUSHUNTIRISH XATI

2008 yil 16 sentyabr.
12-guruhda mashg'ulot
o'tkazilmay qolishi haqida

2006 yil 15 sentyabr soat 9.00 da fuqaro mudofaasi mashg'ulotiga 30 o'quvchidan 3 tasigina keldi.
Natijada mashg'ulotni qoldirishga to'g'ri keldi.

O'qituvchi (imzo) V.Bobomurodov

E'LON

Ko'pchilikni yoki ma'lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada (kelgusida) bo'ladigan biron-bir tadbir-majlis, uchrashuv, suhbat, shuningdek, ishga, o'qishga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun qo'llanuvchi yozma axborot.

E'lonning zaruriy qismlari:

1. Nomi (E'lon).
 2. E'lon qilinayotgan tadbirning vaqti, o'tkazilish joyi.
 3. Tadbirning mavzusini o'zida aks ettiruvchi matn.
 4. Tadbir o'tkazuvchilar nomi (odatda, bo'ladigan tadbirni e'lon qilayotgan tashkilot, organning nomi: "Ma'muriyat", "Kuzatuv kengashi", "YOzuvchilar uyushmasi", "Tashkiliy qo'mita" tarzida beriladi).
- E'lon, mavzusiga va undan ko'zlangan maqsadga ko'ra, turli shakllarda bo'lishi mumkin.

E'lon namunalari

E'LON

SHu yil 12 iyul kuni soat 15.00 da O'zR FA Til va adabiyot institutining majlislar zalida institut kasaba uyushmasi qo'mitasining hisobot-saylov yig'ilishi bo'ladi.

Kun tartibi:

1. Kasaba uyushmasi qo'mitasining hisoboti.
2. Taftish komissiyasining hisoboti.
3. Kasaba uyushmasi qo'mitasining yangi tarkibini saylash.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi.

O'zbyokistan Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi
27-HUNAR-TEXNIKA
KOLLEJI
quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha
1999-2000 o'quv yili uchun

O'QUVCHILAR QABUL QILADI;

YUqori malakali yog'ochsoz-duradgor (o'qish muddati -1 yil). duradgor (o'qish muddati-3 yil), badiiy va modelli mebel duradgori (o'qish muddati-3 yil), quruvchi-duradgor (o'qish muddati - 3 yil), pardozlovchi (o'qish muddati -3 yil).

Kollejga 9-11-sinf ma'lumotiga ega bo'lgan 16 va undan katta yoshdagi yigit va qizlar qabul qilinadi.

O'qishga kirish uchun quyidagi hujjatlarni topshirish talab qilinadi: direktor nomiga ariza, ma'lumoti haqidagi guvohnoma (asli), turar joyidan ma'lumotnoma, 4 dona 3X4 o'lchamli fotosurat.

Mashg'ulotlar 1 sentyabrdan boshlanadi.

Kollej manzili:

Toshkent shahri, Zarqaynar dahasi, 4-mavze.

Angliya "GESK" maktabining rasmiy ishonchli vakili
yuqori sinf o'quvchilari va maktab bitiruvchilarini

Angliyada o'qish uchun

3 oylik yozgi kurslarga hamda 9 oylik kurslarga pullik-kontrakt asosida o'qishga taklif etadi.
Batafsil ma'lumotlarni Siz 56-54-78 raqamli telefonga qo'ng'iroq qilib yoki O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi binosi - Buxoro ko'chasi, 24-uy, 5-qavat, 43-xonaga tashrif buyurib bilib olishingiz mumkin.

Barcha hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini o'z zimmamizga olamiz.

Mo'ljal: Alisher Navoiy nomidagi teatr binosi.

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

bo'shab qolgan chet tillar kafedrasining mudiri lavozimiga TANLOV E'LON QILADI.

Tanlov muddati - 29 dekabrgacha.

Hujjatlar tanlovlar haqidagi nizomga muvofiq tayyorlanib, quyidagi manzilga yuborilsin: Toshkent shahri, 183-aloqa bo'limi, Toshkent davlat agrar universiteti.

*"YORQIN NUR" OCHIQ TURDAGI HISSADORLIK JAMIYATI
AKTSIYADORLARI DIQQATIGA!*

2000 yil 28 iyun soat 10.00 da korxona majlislar zalida AKTSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI
BO'LIB O'TADI.

Kun tartibi:

- 1.Hissadorlik jamiyatining 1999 yil faoliyati natijalari va 2000 yil vazifalari.
- 2.Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati hisoboti.
- 3.2000 yil uchun jamiyat auditorini tasdiqlash.

Kuzatuv kengashi

E'lonlar hamisha ham rasmiy tusga ega bo'lmasligi, ular hazil-mutoyiba yoki reklama ko'rinishida tuzilishi ham mumkin. Bu narsa o'quvchidagi qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.Tijorat maqsadidagi ayrim e'lonlar reklama mazmunini ham qamrab olishi mumkin. Ko'pchilikni chorlash maqsadida ularda badiiy so'z vositalaridan ustalik bilan foydalaniladi. Bunday e'lonlar ko'pincha matbuotda beriladi.

HISOBOT

Muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq ishonarli bo'lishi kerak. Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday etishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot ohirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Hisobot shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bildirishnoma (qarang) hujjatiga o'xshaydi.

Uning zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni.
4. Lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
5. Sana.
6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobot namunasi

Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligi 5-brigadasining 2008 yilda rejalashtirilgan ishlarining bajarilishi haqida

HISOBOT

5-brigada tasarrufidagi ekin ekiladigan 100 gektar erga yil boshida 10 turdagi ekin ekish rejalashtirilgan edi. SHundan 8 tur ekin ekildi. Ikki turi - ukrop va kashnich sharoit yo'qligi tufayli ekilmay qoldi. Yil ohirida rejadagi 2000 tonna o'rniga 2030 tonna sabzavot mahsulotlari olindi. 3 gektar tokzorda 90 tonna huraki uzum etishtirildi. Bu rejadagidan 26 tonna ko'p. Kartoshka, pomidor, piyoz, sabzi gektar boshiga avvalgi yildagiga qaraganda bu yil 2-3 tonna ko'proq etishtirildi. Piyoz rejadagidan 3 tonna kam olindi. Sababi - un-shudring tushdi, vaqtida agrotexnika tadbiri o'tkazilmadi. Jamoa xo'jaligi agronomi Q.Soliev sustkashlik qildi.

Brigadamiz ishida o'rnatgan a'zolarimiz quyidagilardir:

1. T. Turobov
2. S. Rustambekov
3. K. Xo'jaev (oila pudratida ishladi).
4. L. Sobirxo'jaev (oila pudratida ishladi).

Yil yakuni bo'yicha moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda bularning xizmatini inobatga olishingizni so'rayman.

5-brigada boshlig'i (imzo) I.K.Rahmonov

2005 yil 5 yanvar

Hizmat safari va rahbarning muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar ma'lum davr ishlari bo'yicha hisobotdan qisman farq qiladi (2-3 yil avvallarda shunday hisobotlar namunalari berildi). Zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: idora rahbarining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, kim tomonidan qanday topshiriq uchun hisobot berilyapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni ("Sizning topshirig'ingizga binoan" kabi iboralar bilan boshlanadi, topshiriq qanday bajarilganligi aniq ma'lumotlar bilan bayon qilinadi; xulosa yasaladi).
4. Ilovalar ko'rsatiladi (ko'p hollarda).
5. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
6. Sana.

Xizmat va shaxsiy tadbir yozishmalari

To'y taklifnomalari namunalari

Hurmatli _____

Sizni farzandlarimiz FAYZULLA va MOXIRAXON-larning nikoh to'yi munosabati bilan 2008 yil 21 yanvar kuni ertalab nahorga oshga taklif etamiz.

Ehtiromila, QAHRAMON SHAMSIEVlar oilasi.

Manzil: Ko'kcha dahasi, "Islomobod" guzari.

Hurmatli _____

Sizni 2008 yil 4 dekabr shanba kuni
kech soat 19.00 da farzandlarimiz
TOHIRJON va FERUZAXONlarning
nikoh to'ylari tantanasiga taklif etamiz.
Ehtirom bilan Xayrulla Abdullaevlar oilasi.

Manzil: S.Azimov ko'chasi, 49-uy, Milliy bank guzari. 72,148-avtobuslar; 17,5-trolleybuslarning "Travmatologiya shifoxonasi" bekati.

Keyingi yillarda motam marosimlariga ham "taklifnoma" yozish hollari rasm bo'lyapti. Ularda shunday iboralar uchraydi: "Sizni kuni nahorga validai muharamamiz Tojixon ayaning xotiralariga bag'ishlab yoziladigan dasturxonimizga taklif etamiz". Bu erda "dasturxon" so'zi ham, "taklif etamiz" iborasi ham ziyofatlarga nisbatan qo'llanib kelgani uchun qo'loqda erish tuyuladi. Bizningcha, motam marosimlariga yaxshisi "nomalar" yozmay, opaki aytishning o'zi yetarlidir. Mabodo yozish joiz ko'rilsa, xotirlash, ehson qilish kunini va manzilini eslatish ma'nosida quyidagicha yozishni tavsiya etamiz.

Yodnoma namunasi

Validai muhtaramamiz Tojixon ayaning Xotira ma'rakasi 2000 yil 15 iyun soat 12⁰⁰ ga belgilandi.

G'ofurjonlar oilasi.

Manzil: Markaz-14, 15-uy, 15-xonadon.

Taklif xat

Bunday xatlar ma'lum kishilarga yoki bir necha shahslarga yo'llanadi. Taklif xat matnida ma'lum bir yig'ilish, muhokama yoki kengashga taklif qilish bilan birga, shaxsning taklif qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham aniq ko'rsatiladi.

Taklif xat, odatda, muassasaning xos ish qog'oziga yoziladi.

Taklif xat namunalari

O'zMUning professori
O.SHarafiddinovga

Hurmatli Ozod Obidovich!

O'zR FA A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining ilmiy kengashi Sizga institutning Adabiyot nazariyasi bo'limida tayyorlangan «O'zbek adabiy tanqidi tarixi» nomli ishni taqriz uchun yo'llaydi.

April oyida bo'ladigan ilmiy kengashning shu ish muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishida takrizchi sifatida ishtirok etishingiz so'raladi.

Ilmiy kengash yig'ilishining muddati haqda Sizga alohida habar qilinadi.

Ilmiy kengash raisi (imzo) T.Mirzaev

(sana)

Da'vo xati namunasi

O'zR Navoiy viloyat matlubot jamiyati boshqaruvi
Navoiy tumanlararo ulgurji savdo bazasi 104170,
Navoiy shahri, Temiryo'l ko'chasi, 4. tel. 8-14-76,
hisob-kitob raqami 0007210

2008.26.02. №24 07-46

Toshkent "Malika" trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi
100612, Toshkent sh. Usta SHirin ko'chasi, 21.

3150 so'mlik kamomad tovarlar bahosini
undirish haqida

2008 yil 5 yanvarda Sizlar tomondan 10428 raqamli hisob (schyot) orqali yuborilgan trikotaj buyumlarni oldik. YUK Toshkentdan Navoiy stantsiyasiga 2008.10.01. da 462481 raqamli temir yo'l yuk xati bo'yicha 6004821 raqamli temir yo'l konteynerida, yuk junatuvchi ("Malika" birlashmasi)ning tamg'asi (plombasi) buzilmagan holda etib keldi.

2008.10.01. da trikotaj buyumlarni qabul qilib olish jarayonida har birining bahosi 700 so'm bo'lgan sport kostyumidan (artikuli 4621) besh dona etishmasligi aniqlandi. Kamomad jami - 3500 so'mni, savdo chegirmasi (skidkasi)ni (10%) hisobga olmaganda, 3150 so'mni tashkil etadi.

Kamomad jamoat tashkilotining vakili T.Rahimov ishtirokida amaldagi 197-raqamli guvohnomaga asosanib, 10 yanvarda tuzilgan dalolatnomada qayd etildi.

Joriy yilning 10 yanvarida ushbu kamomad haqida Sizni xabardor qilish maqsadida, shuningdek, trikotaj buyumlarni qabul qilishda ishtirok etish uchun o'z vakillaringizni yuborishni so'rab, Sizga jo'natgan telegrammamiz javobsiz qoldi.

Ko'rsatilgan tovar uchun Sizning hisob varaqingizda qayd etilgan summa tuliq to'langanligi munosabati bilan Sizdan 10 kun muddat ichida bizning hisob-kitob raqamimizga 3150 sum pul o'tkazishingizni so'raymiz.

Ilova: 1. Kamomad haqidagi dalolatnoma (2 bet, 1 nusxa). 2. Jamoat tashkiloti vakili guvohnomasining nusxasi (1 bet, 1 nusxa).

Baza direktori (imzo) R.I.Salimov

Da'vo xati shakli

Tovar etkazib berish kechiktirilgani uchun
jarima to'lash hakida

DA'VO

_____dagi _____ raqamli shartnomaga binoan
(sana)

Siz _____ ga bahosi _____ bo'lgan
(tashkilot, firma nomi) (so'm so'z bilan)

_____dona _____ etkazib berishingiz kerak edi.
(tovar nomi)

Biroq ko'rsatilgan shartnomaning shartlari buzilgan holda tovar _____kun kechikib etkazib berildi (shu kungacha etkazib berilmadi).

SHartnomaning _____-bandiga muvofiq firma muddatida etkazib berilmagan _____ so'mlik tovar bahosidan _____ % miqdorda Sizning hisobingizga _____ so'm jarima yozdi.

Ko'rsatilgan jarima summasini 30 kunlik muddatda bizning _____hisob-kitob raqamimizga o'tkazishingizni so'rayman.

Mazkur summa belgilangan muddatda to'lanmagan holda, ish xo'jalik sudiga oshiriladi.

Korxona rahbari (imzo) I.O.Fozilov

Oferta

Oferta (taklif) sotuvchi yoki eksport qiluvchining ma'lum shartlari ko'rsatilgan bitim (oldi-sotdi) tuzishga roziligini ifodalovchi hujjatdir.

Ofertalar haridorga, chetdan tovar oluvchiga uning so'roviga javob sifatida jo'natiladi yoki sotuvchi tashabbusi bilan haridorga taqdim qilinishi mumkin.

Ofertada, odatda, tavsiya qilinayotgan tovar nomi, miqdori va tovar sifati, bahosi, etkazib berish muddati, to'lov shartlari, o'ram turi va tovar hususiyati bilan bog'liq boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Oferta (taklif) xatining matn qismi namunalari

_____dagi _____ etkazib berish haqidagi
(sana) (tovar nomi)

so'rovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Ayni paytda biz Sizni qiziqtirayotgan tovar uchun taklif taqdim qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqiyapmiz.

Qarorimiz haqida yaqin kunlarda ma'lum qilamiz.

_____dagi so'rovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.

(sana)
Biroq_____etkazib berish uchun hozir Sizga aniq taklif
(tovar nomi)
berish imkoniyatiga ega emasmiz. Ushbu masala bo'yicha_____da
(sana)
murojaat qilishingizni so'raymiz.

Sizning 2008.17.08. dagi 100 dona alyuminiydan tayyorlangan deraza romlari uchun so'rovingizni oldik. Biroq ushbu tovarga bo'lgan katta ehtiyoj tufayli zavodimiz boshqa buyurtmalar bilan band. SHu sababli bu tovarni Sizga yil davomida etkazib berishga kafolat bera olmaymiz.

Oferta (taklif) xati matn qismi shakli namunasi

_____dagi so'rovingizga minnatdorchilik bildiramiz
(sana)
va Sizga_____taklif qilamiz.
(miqdori) (tovar nomi)

Sifati -
O'rami -
Bahosi -
Etkazib berish muddati -
To'lov shartlari -
Ushbu taklif _____ gacha amal qiladi.

Ofertaga javob qaytarishda haridor taklifning barcha shartlariga rozi bo'lsa, sotuvchining taklifini tasdiqlaydi va bitim tuzilgan hisoblanadi. Buyurtma berish yoki shartnoma tuzish taklifning qabul qilinishi hisoblanadi.

Agar haridor taklif shartlariga rozi bo'lmasa yoki taklif etilayotgan tovarni sotib olishga qiziqmasa, uni qabul qilishdan bosh tortadi.

Haridor taklifning biror sharti (masalan: miqdori, tovar sifati, narhi, etkazib berish muddati va boshqalar)ga rozi bo'lmasa, bu haqda sotuvchiga habar beradi va bitimning barcha shartlari bo'yicha to'liq kelishib olguncha, ular o'rtasida yozishma (muzokara) davom etadi.

Ofertaga javob xati matn qismining namunalari

_____da_____uchun Sizning taklifingizni
(sana) (tovar nomi)
olganligimizni minnatdorchilik bilan ma'lum qilamiz. Siz taklif qilayotgan tovarni sotib olish haqidagi qarorimizni_____kun davomida sizga ma'lum etamiz.

Оглавление

Введение	стр. 5
Глава 1. Менеджмент макроадминистративной системы и негосударственных структур	
1.1. Роль межбюджетных взаимных отношений в системе макроэкономического регулирования	8
1.2. Цель административных структур развития человека	8
1.3. Изменение и сокращение центрального органа государственной власти - горизонтальная централизация, а также оптимизация функций государства и структуры исполнительной власти	10
1.4. Внедрения электронного правительства - в качестве посредника повышения эффективности государственного управления	
1.4.1. Электронное правительство - как посредник ускоренного реформирования государственного управления, обеспечение гласности и централизованности	12
1.4.2. Внедрение информационных и коммуникационных технологий в систему государственного управления Узбекистана	14
1.5. Оптимизация аппарата административного менеджмента в сфере государства и экономики	17
1.6. Показатели эффективности административного менеджмента и методы его оценки	18
1.7. Опыт зарубежного административного менеджмента	20
1.8. Негосударственные структуры.	
1.8.1. Процесс проведения выборов председателей гражданских советов и их советников	21
1.8.2. Развитие органов самоуправления граждан	25
1.8.3. Роль негосударственных, некоммерческих предприятий в развитии государства и административного управления	27
Глава 2. Деятельность систем государственной власти, государственного управления и хозяйственных органов управления	
2.1. Вертикальная децентрализация и укрепление потенциала местных органов государственной власти	29
2.2. Анализ представительств органов государственной власти на местах	30
2.3. Вертикальная административная система и процесс замены его горизонтальной ветки на регулирование или независимое договорное управление	34
2.4. Объединение и сокращение в структуре государственного и хозяйственного управления	35
2.5. Управление региональным общественно - экономическим прогрессом	36
2.6. Включение в статистику оценки рыночно - экономических возможностей административных регионов	37
2.7. Указы и постановления Президента РУз, постановления правительства и хокима города в хокимиятах города Ташкента и районов, главном управлении, управлении предприятиями и системе контроля	
2.7.1. Порядок организации выполнения указов, постановлений президента РУз, постановлений правительства и хокима города Ташкента	38
2.7.2. Система координации и контроля выполнения указов президента РУз и постановлений, приказов хокима города Ташкента	40
2.8. Порядок подготовки официальных государственных документов, их изготовление, учет, хранение и выдача	41
2.9. Комиссия по проведению мониторинга над эффективным использованием	

государственного пакета акций в акционерных объединениях и компаниях	45
2.10.Организационная структура управления регионального органа государственной власти	47
2.11.Деятельность министерство сельского и водного хозяйства РУз	53
2.12.Порядок координации и проверки деятельности хозяйственных субъектов со стороны проверяющих органов	64
2.13.Секреты торговых компаний в США - практика защиты конфиденциальности информации	67
Глава 3. Менеджмент административного персонала	
3.1.Способности управления современных специалистов и влияние принятых решений на пол, возраст и образование	74
3.2.Ответственность вышестоящих звеньев, самооценка в управление сотрудниками и методы повышения эффекта переговоров	82
3.3.Регулирование количества управленческого персонала и оптимизационные мероприятия расходуемых затрат	90
3.4.Пособие списка должностных единиц управленческих, обслуживающих и техников государственных и хозяйственных органов управления и определение норматива отношения количества персоналов.	
3.4.1.Должности сотрудников управленческого обслуживания и техников государственного и хозяйственного органа управления	91
3.4.2.Пособие определения норматива отношения количества управленческого обслуживания и техников государственного и хозяйственного органа управления	94
3.4.3.Отношение расчетных норм управленческого обслуживания и техников государственного и хозяйственного органа управления	101
3.5.Выбор персонала на государственную службу и методы управления	102
3.6.Виды и значения аттестации при выборе кадров и размещения их по местам	104
3.7.Порядок существенных выплат денежных средств за счёт государственных бюджетных средств, пополнение ущерба юридических лиц полученного со стороны государственных органов или должностных лиц этих органов	106
Глава 4. Деятельность законодательной власти.	
4.1.Верхняя палата Олий Мажлиса: деятельность Сената	110
4.2.Нижняя палата Олий Мажлиса: законодательная Палата	113
4.3.Деятельность органов прокуратуры	117
4.4.Совершенствование мероприятий деятельности департамента борьбы с налоговыми преступлениями при генеральной прокуратуре РУз	118
4.5.Фонд развития органов юстиции, суда, источники формирования и управления	124
Литература	127
Глоссарий	129
Приложения	131

Table of contents

	page
Introduction	5
The chapter 1. Management of macro administrative system and not state structures	
1.1.The role of mutual budget relation in the system of the macro economical order of taxes	8
1.2.The purpose of administrative structures - development of people	8
1.3.Changing and reduction of the central body of state authority - horizontal centralization, and also optimization function of the state and structure of the executive authority	10
1.4.Introductions of electronic government - as the intermediary increase of efficiency state management	
1.4.1.Electronic government - as the intermediary acceleration reforming state management, maintenance obviousness and decentralizing	12
1.4.2.To introduce information and communicational technologies in the system of the state management of the Republic of Uzbekistan	14
1.5. Optimization of the device administrative management in the sphere of state economy	17
1.6.Parameters of efficiency administrative management and their methods of marking	18
1.7.Experiences of foreign administrative management	20
1.8.Not state structures	
1.8.1.Realprocess in a choice of the chairmen of civil councils and their advisers	21
1.8.2.Development of self managing citizens	25
1.8.3.A role of the not state uncommercial enterprises in the development of the state and administrative management	27
The chapter 2. Activity of the systems of state authority, state management and facility bodies of management	
2.1.Vertical decentralization and strengthening of potential local bodies of the state authority	29
2.2.The analysis of representation of the bodies of state authority on places	30
2.3.Vertical administrative system and process of replacement by its horizontal branch on regulation or on independent to contractual management	34
2.4.Association and reduction in the structure state and facility management	35
2.5.Management regional public - economic progress	36
2.6.Inclusion in statistics of a rating economical - marketing opportunity of administrative regions	37
2.7.The decree and order of the president of the Republic of Uzbekistan, governmental order and of city hokim in hokimiyats of the Tashkent city and in areas, senior management, management, enterprise both monitoring systems	
2.7.1.Order of organization of performance the decrees, order of the president of the Republic of Uzbekistan, governmental order and хокима of Tashkent city	38
2.7.2.System of coordination and control of performance of the decree of the president of the Republic of Uzbekistan and order the order hokim of Tashkent city	40
2.8.The order of preparation of the official state documents, their manufacturing, account, storage and distribution	41
2.9.A commission of realization of monitoring above effective using of a state package of the shares in joint-stock associations and companies	45
2.10.Organizational structure of management of a regional body of state authority	47
2.11.Activity the ministry of a village and water facilities of the Republic of Uzbekistan	53
2.12.The order of coordination of check of activity facility subjects of realization on the part of checking bodies	64
2.13.Secrets of the trade companies in USA - practice of protection of confidentiality of the information	67

The chapter 3. Management of the administrative personals	
3.1.Ability management of the modern experts and influence of the accepted decisions on a sex, age of the education	74
3.2.Responsibility of higher parts of a self-rating in management of the employees and the methods of increasing effect of negotiation	82
3.3.Regulation quantity of the administrative personals and their optimization measure of spent expenses	90
3.4.Manual of the list of official administrative units, serviced both technical personals of state and facilities bodies of management and definition of the specification the relation quantity of the personals	
3.4.1. Post of the administrative employees, serviced both technical personals of state and facility bodies of management	91
3.4.2 Manual of definitional specification of the relation of administrative quantity, serviced both technical personals of state and facility bodies of management	94
3.4.3.Relation of settlement administrative norms, serviced both technical personals of state and facility bodies of management	101
3.5.Choice of the personals to a state service and methods of management	102
3.6.Kinds and values of certification at choices of the staff and accommodation in places	104
3.7.Order of essential payments of money resources at the expense of state budget means, updating of damage of the received and legal persons on the part of state bodies or officials and these bodies	106
The chapter 4. Activity of legislative authority	
4.1.The Top chamber of Oliy Majlis: Activity of a Senate	110
4.2.Bottom chamber Oliy Majlis: Legislative Chamber	113
4.3.Activity of bodies procurators	117
4.4.Perfection of measures of activity of department of struggle behind tax crimes at general прокуратуры of the Republic of Uzbekistan	118
4.5.Funds of development of bodies of justice, court, their resources of formation and management	124
Literatures	127
Glossary	129
Appendices	131

Ilmiy, uslubiy va pedagogik faoliyati: Toshkent Politexnika instituti mexanika fakultetini tugatib muxandis-mexanik va Jahon iqtisodi va diplomatiya universitetini tugatib menejment magistri ta'lim unvonlarini olgan. Moliya, aviatsiya va arxitektura oliy ta'lim maskanlarida dotsent lavozimida moliya-iqtisodiy va fundamental texnika fanlaridan dars berib pedagogik faoliyat ko'rsatmoqda.

U iqtisodiyot fanidan 50 dan oshiq va texnika fanidan esa 60 dan oshiq ilmiy maqola va tezislarni nashr qilgan. Iqtisodiyot fanidan 2 ta ilmiy monografiya va 10 ta o'quv qo'llanma muallifi. SHu singari texnika fanidan 5 ta monografiya va 2 ta o'quv qo'llanma muallifidir, hamda 11 ixtiro yaratgan va 2 ta ratsionalizatorlik taklifini kiritgan. Iqtisodiyot fani bo'yicha 3 ta ilmiy ishlanma va texnika fani bo'yicha 7 ta ilmiy ishlanmalar amaliyot ishlab chiqarishiga tatdiq etilgan.



Matmurodov Farhod
Matqurbonovich - texnika fanlari
nomzodi va iqtisod fanlari dotsenti

Mehnat faoliyati: korxonada
chilangar, uchastka masteri,
muhandis-konstruktor, iqtisodchi;
ta'lim instituti katta o'qituvchisi; ilmiy-
tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi;
o'quv markazi ijrochi direktori va oliy
ta'lim muassasalari dotsenti

Ilmiy ishlarining asosiy yo'nalishlari:

-iqtisodiyot fanidan: menejment nazariyasi va amaliyoti; iqtisodiyot nazariyasi; marketing va logistika; moliya nazariyasi; mulkni baholash; birjalar va fond bozori; mikro va makroiqtisodiyot va shu kabi.

-texnika fanidan: gidravlik, mexanik, pnevmatik va elektromexanik energetik yuritmalar; mashinalar dinamikasi va mustahkamligi; er usti transporti konstruktsiyasi va nazariyasi va shu kabi.

FARHOD MATMURODOV

MA'MURIY MENEJMENT

O'quv qo'llanma